MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI



100 YIL

A.O'tamuradov, M.Qirg'izboyev, T.N.Xojiyev

FUQAROLIK JAMIYATI

"Fuqarolik jamiyati" o'quv qo'llanmasi quyidagi mualliflar jamoasi tomonidan tayyorlangan:
A.O'tamuradov – O'zMU kafedra mudiri, professor;
M.Qirg'izboyev – O'zMU professori,
T.N.Xojiyev – O'zMU o'qituvchisi

O'quv qo'llanmada hozirgi davr fuqarolik jamiyatiga doir nazariyalar va masalalar, rivojlangan davlatlarda va O'zbekistonda fuqarolik jamiyati qurish tajribalari, ushbu jarayondagi islohotlar va muammolar hamda ularning yechimlari mujassamlashgan. Shuningdek, qo'llanmada fuqarolik jamiyatini o'rganishning metodologik va uslubiy yondashuvlari, jamiyatni yangilashga doir xorijiy mamlakatlar tajribalarining mazmun-mohiyati ochib berilgan. Fuqarolik jamiyatining rivojlanish qonuniyatlari va bu borada jahon hamda O'zbekiston amaliyoti qiyosiy tahlil qilingan.

O'quv qo'llanmadan o'rin olgan mavzularda O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida fuqarolik jamiyati qurish borasidagi islohotlarining mazmun mohiyati yoritilgan. Ularda jamiyatda inson huquqlarini himoyalash va ta'minlash, fuqarolarning farovon turmush tarzini oshirish, davlat hokimiyati organlari boshqaruviga doir vakolatlarni nomarkazlashtirish, nodavlat-notijorat jamoat tashkilotlari, o'zini o'zi boshqarish organlarining fuqarolar manfaatlarini ifodalash va amalga oshirish vositasida O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini barpo etish masalalari tahlil qilingan.

Qo llanma mamlakatdagi oliy o'quv yurtlari talabalari va professor-o'qituvchilari uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:
siyos. f.d., professor M.Qirg'izboyev

TAQRIZCHILAR:
N.Q.Jo'rayev, siyos. f. d., professor;
A.Mo'minov siyos. f. d., professor

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil 25-avgustndagi 744-sonli buyrug'iga asosan nashr etishga ruxsat berilgan (Ro'yxatga olish raqami 744-070)

ISBN 978-9943-5561-6-4

© A.O'tamuradov va boshq., 2018
© "MUMTOZ SO'Z", 2018

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligiga erishgan dastlabki kunlardayoq davlat tomonidan mamlakatda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish asosiy strategik pirovard maqsad deb e'lon qilindi. "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyili bu sohada olib boriladigan islohotlarning asosiy g'oyasi sifatida qabul qilindi. Natijada mustaqillik davrida mamlakatda fuqarolik jamiyatining iqtisodiy, huquqiy va siyosiy asoslari shakllandi, uning institutlari jadallik bilan rivojlana boshladi.

Birinchi Prezident I.A.Karimov va davlat tomonidan mamlakatni rivojlantirishning o'ziga xos milliy xususiyatlari aks etgan "O'zbek modeli" ishlab chiqilishi va uning amalga oshirilishi, bu jarayonda xalqimizning tarixiy rivojlanish an'analari, demokratik prinsiplar va umuminsoniy qadriyatlar asosida islohotlarni chuqurlashib borishi, milliy manfaatlarni o'zida ifoda etishga asoslangan fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatni qurish, bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tilishi natijasida O'zbekiston jamiyatining barcha sohalari rivojlangan mamlakatlarga xos bo'lgan taraqqiyot bosqichiga kirdi.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyati qurish islohotlari rivojlangan davlatlar tajribasi va milliy an'analar uyg'unligi asosida kechdi. Rivojlangan mamlakatlarda fuqarolik jamiyati sharoitlarida yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishning beqiyos darajada o'sganligi, xalq turmush darajasining yuksalganligi, yangi sivilizatsiyaga xos jihatlarning paydo bo'lganligi kabi tub o'zgarishlar fuqarolik jamiyatini insoniyat taraqqiyotining eng so'nggi bosqichi ekanligi va inson huquq hamda erkinliklarini namoyon qilishga shart-sharoitlar yaratib beruvchi ijtimoiy makon ekanligi namoyon bo'ldi. Mazkur jamiyatning ana shu jihatlari mamlakatimiz milliy manfaatlariga muvofiq kelishi, bir necha o'nlab asrlar davomida xalqimizning orzusi fozil jamiyatga erishishdan iborat ekanligi kabi omillar ta'sirida xalqimiz fuqarolik jamiyati qurish tashabbusini ko'tarinkilik bilan kutib oldi, bu sohadagi islohotlarda yangi jamiyat ijodkori sifatida faol ishtirok eta boshladi. "Endigi eng dolzarb vazifamiz, – deb ta'kidlab o'tgan edi birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov, – bu jarayonlarning ilmiy-nazariy asoslarini, ularning yangi-yangi qirralarini mukammal ochib berish, o'quvchilarimizga, talabalarimizga, keng jamoatchilikka sodda, lo'nda qilib tushuntirib berish va ularni yangi hayot, zamon talablariga javob beradigan jamiyat qurilishining faol va jo'shqin ishtirokchilariga aylantirishdan iborat".

2016-yilning so'nggi choragida Sh.M.Mirziyoyev davlat rahbari sifatidagi faoliyati boshlanganidan keyin O'zbekistonda fuqarolik jamiyati qurish islohotlari jarayonida tub burilish davri boshlandi. O'z faoliyatining dastlabki kunlaridayoq Prezident Sh.M.Mirziyoyev fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga kuch bag'ishlaydigan, uning rivojlanishiga keng shart-sharoitlar yaratadigan demokratik prinsip – **"Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak"** degan g'oyani e'lon qildi. Bu g'oya fuqarolik jamiyatini qurishning asosiy kuch-quvvati manbayi sifatida namoyon bo'la boshladi.

Prezident tashabbusi bilan qabul qilingan "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi"da fuqarolik jamiyati qurish dasturi sifatida quyidagi vazifalar ilgari surildi: "Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga yo'naltirilgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlamentning hamda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, "Elektron hukumat" tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari sifati va samarasini oshirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirish".

Ko'rinib turibdiki, mamlakatda fuqarolik jamiyati qurish jadal sur'atlar bilan tobora chuqurlashib bormoqda. Lekin fuqarolik jamiyati qurish islohotlari xalqning o'zini ham bu jarayonda faol ishtirok etishini taqozo qiladi. Chunki har qanday jamiyat qurish oldindan loyihalanadi, uning bunyodkorlari dunyoqarashida aks etadi. Aks holda, bu kabi jamiyatni qurib bo'lmaydi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, fuqarolik jamiyatiga doir nazariy va amaliy bilimlarni yoshlar ongiga singdirish mamlakat kelajagi va istiqbolini belgilovchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Chunki yangi quriladigan jamiyatning belgilari, sifatlari va umuman, uning umumiy tarixi yoshlar ongi va tasavvurida namoyon bo'lmas ekan, ularning yosh mutaxassislar sifatidagi jamiyatga ta'sirining samarali bo'lishiga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun ham fuqarolik jamiyatining nazariy ishlanmalar jamlanmasi sifatida darslik va o'quv qo'llanmasini yaratish muhim dolzarb vazifalardan biri sifatida namoyon bo'la boshladi. Fuqarolik jamiyati qurish islohotlari sharoitida yoshlarni bu jarayonda faol ishtirok etishlari va o'z dunyoqarashlarini fuqarolik jamiyati qurishga doir nazariyalar bilan boyitishlari uchun shart-sharoitlar yaratish ular olgan bilimlarni amaliyotga qo'llashlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Fuqarolik jamiyatiga doir fan hozirgi islohotlar davridagi ijtimoiy-

siyosiy nazariyalar, jamiyatni yanada takomillashtirishga oid tasavvurlar, jamiyat institutlarining inson manfaatlarini amalga oshirishidagi muhim jihatlar, fuqarolik jamiyati qurish va uning istiqbollari to'g'risida bilimlar beradi, mazkur fanni o'qitish jarayonida rivojlangan mamlakatlarda fuqarolik jamiyati qurish tajribasi o'rganiladi, ular mamlakatdagi islohotlar jarayoni bilan qiyoslanadi.

Mazkur fanni o'qitishdan ko'zlangan maqsad talabalarning erkin fikrlashi, ularning jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlarga nisbatan mustaqil o'z munosabatlarini bildira olishlari uchun ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat. Fanning yana bir asosiy maqsadlaridan biri – bu yoshlarda vatanparvarlik his-tuyg'ularini yuksaltirish, ularning mamlakatga sadoqatini oshirish, yangi jamiyat qurishga befarq bo'lmaydigan inson sifatida tarbiyalash vazifalarni amalga oshirishdir. Shu nuqtayi nazardan fuqarolik jamiyati fanini oliy ta'lim tizimida o'qitish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyati qurish islohotlari tobora chuqurlashib borayotganligini hukumatimiz e'tiborga olib, jamiyatga doir ushbu fanni ishlab chiqish va uni oliy ta'lim tizimida o'qitish vazifasini qo'ydi. 2015-yil 10-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 07/1-616-sonli topshirig'i va 2015-yil 18-sentabrdagi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining "Oliy ta'lim muassasalarida "Fuqarolik jamiyati" fani o'qitilishini joriy etish to'g'risida"gi 352-sonli buyrug'iga asosan barcha ta'lim yo'nalishlarida "Fuqarolik jamiyati" fanini o'qitish belgilandi. Mazkur hujjatlar ijrosi sifatida 2016-yilda mualliflar jamoasi tomonidan "Fuqarolik jamiyati" elektron darsligi loyihasi ishlab chiqildi. Mazkur o'quv qo'llanmada qisman ana shu darslik loyihasidagi materiallardan ham foydalanildi.

O'quv qo'llanma oliy ta'lim bakalavriat yo'nalishining Davlat ta'lim standartlari qo'ygan talablar asosida yangi avlod o'quv adabiyotlariga qo'yilgan mezonlardan kelib chiqqan holda tayyorlashga harakat qilindi.

Mazkur o'quv qo'llanma bilan tanishgan barcha mutaxassislar, talabalar va kitobxonlardan uning keyingi nashrida e'tiborga olish uchun o'z fikr-mulohazalari, takliflari va tavsiyalarini O'zbekiston Milliy universitetining "Demokratik davlat qurish nazariyasi va amaliyoti" kafedrasiga bildirishlarini so'raymiz.

Murojaat uchun telefon: +998 71 246 67 63, +99897 729 46 35
e-mail: a.utamuradov@umail.uz

1-mavzu. FUQAROLIK JAMIYATI FANINING PREDMETI, OBYEKTI, MAQSADI VA VAZIFALARI

Reja:

1. Fuqarolik jamiyati fanining predmeti va obyekti.

2. Fuqarolik jamiyati fanining tushunchalari, qonuniyatlari va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan o'zaro bog'liqligi.

3. Fuqarolik jamiyati – taraqqiyotning yuqori bosqichi.

Tayanch so'zlar: *fuqaro, fuqarolik jamiyati, davlat, davlat hokimiyati, demokratik jamiyat, demokratik davlat, huquqiy davlat, siyosiy institutlar, fuqarolik jamiyati institutlari, fuqarolarning huquq va erkinligi, inson huquqlari.*

1. Fuqarolik jamiyati fanining predmeti va obyekti

O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish islohotlari jarayonida jahondagi turli mamlakatlarda shu kabi jamiyat asoslarining yaratilish tajribasini, ushbu sohadagi islohotlarning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va huquqiy asoslarining shakllantirilish, ularga doir nazariy ishlanmalarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki fuqarolik jamiyatining insoniyat uchun muhim bo'lgan bu ijobiy jihatlari (tamoyillari va yashash muhiti) o'tish davrini boshidan kechirayotgan mamlakatlarda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash va huquqiy davlat sari rivojlanish sari intilishiga doir islohotlarida muhim tajriba sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, fuqarolik jamiyatiga doir fanni oliy ta'lim tizimida o'qitish muhim dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham Fuqarolik jamiyati fani jahonda bir necha minglab yillar davomida yig'ilgan umuminsoniy qadriyatlarni hozirgi umuminsoniy va demokratik qadriyatlar bilan uyg'un holda o'rganishi va ulardan xulosalar chiqarishi tufayli yosh avlodni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu fan insoniyatning eng so'nggi taraqqiyot bosqichi va birligi to'g'risidagi ta'limotlarni hozirgi davr bilan mustahkam bog'liqlik holida o'rganadi, insonni jamiyat qonuniyatlari va qadriyatlari asosida yashashga undaydi, bu yo'ldan inson manfaatdorligini asoslaydi. Bu jarayonda "Fuqarolik jamiyati" fani boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan hamkorlik qiladi. Umuman olganda, ushbu fan insonni hozirgi davrning so'nggi sivilizatsiyasi – fuqarolik jamiyatining rivojlanish qonuniyatlari, tamoyillari va uning

shaxsni kamolga yetkazishdagi roliga doir bilimlar bilan qurollantiradi.

Hozirgi davrga kelib, dunyodagi rivojlangan mamlakatlarda fuqarolik jamiyatining qurilganligi, mazkur jamiyat siyosiy instituti sifatida huquqiy davlat bunyod etilganligi, bu kabi jamiyat va davlatlar muhitida inson va uning faoliyati uchun erkinlik yaratilishi, inson huquqlarini himoyalashning miqyosi nihoyatda keng ekanligi kabi omillar demokratiya qurish yo'lidan ketayotgan davlatlarni qiziqtimoqda. Shuning uchun ham o'tish davrida yashayotgan mamlakatlar siyosiy elitasi fuqarolik jamiyatini nafaqat ijtimoiy model sifatida, balki uni ta'lim tizimiga joriy etish asnosida yosh avlodni shakllantirish omili sifatida ham e'tirof etmoqda.

O'zbekiston davlati mustaqillikka erishganidan keyin bozor iqtisodiyoti munosabatlariga asoslangan mustaqil fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat barpo etish, inson manfaatlarini qondirish, ular huquq va erkinliklarini ta'minlash, jamiyatda qonun ustuvorligiga erishish asnosida barcha fuqarolarning qonun oldida tengligiga va adolat prinsiplarini amal qilishiga erishish kabi ezgu ishlarga asoslanadigan muhitni yaratish uchun fuqarolik jamiyati qurishni asosiy strategik maqsad sifatida e'lon qildi.

Shuning uchun ham birinchi Prezident I.A.Karimov mustaqillikning ilk davridayoq "bizning bosh strategik maqsadimiz qat'iy va o'zgarmas bo'lib, bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevorini shakllantirishdan iborat" degan g'oyani ilgari surgan edi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev istiqlol yillarida erishilgan yutuqlarga baho berib, "...biz muhtaram birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov boshlab bergan keng ko'lamli siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar yo'lini og'ishmasdan, qat'iy va izchil davom ettiramiz. Bu yo'l – erkin, demokratik, insonparvar davlat qurish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, Vatanimiz iqtisodiy qudratini yuksaltirish va yanada ravnaq toptirishning mustahkam zaminidir", – deb ta'kidlagan edi.

2016-yilning so'nggi choragidan boshlab davlat rahbari sifatida o'z faoliyatini boshlagan Sh.M.Mirziyoyevning mamlakatda fuqarolik jamiyati rivojlanishi uchun muhim kuch-qudrat manbayi – "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan g'oyani ilgari surishi, unga monand bo'lgan huquqiy asoslar va jiddiy o'zgarishlarni amalga oshirishi natijasida O'zbekistonda fuqarolik jamiyati qurish islohotlari avj oldi, unga nisbatan xalqimizning ishonchi yuksala boshladi. Prezident Sh.M.Mirziyoyev Prezidentlikni bajarish

uchun kirishgan dastlabki kundanoq quyidagi konseptual g'oyani ilgari surdi: "Mustaqil taraqqiyot yillarida Konstitutsiyamiz yurtimizda huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati, erkin bozor munosabatlari va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni qurish, xalqimiz uchun tinch, obod va farovon hayot barpo etish, O'zbekistonning xalqaro maydonda munosib o'rin egallashida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda".

"Fuqarolik jamiyati" tushunchasi – insoniyatning bir necha asrlar mobaynida shakllangan tafakkurlash mahsuli bo'lib, u inson huquqlari va erkinliklari ta'min darajasining naqadar yuksalganligi darajasi mezoni sifatida namoyon bo'ldi. Fuqarolik jamiyatining poydevori va asoslarini yaratish uchun, avvalo, u to'g'risidagi g'oyalarning genezisini va rivojlanishini bilishga zarurat tug'iladi. Fuqarolik jamiyatining shakllanishi uchun uning asoslari (iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, ma'naviy) yaratilishi lozim. Fuqarolik jamiyatining asoslari quyidagilardan iborat:

- iqtisodiy asos – shaxs va jamiyat manfaatlarining umumiyligiga asoslangan mulk shakllarining xilma-xilligi, iqtisodiy plyuralizm, ko'p ukladlilik, erkin bozor munosabatlari; jamiyatning har bir a'zosini o'z mulkiga ega, u bu mulkni o'z xohishi bilan tasarruf eta olish erkinligining mavjudligi, bu mulkdan foydalanish va uni sarflash huquqiga ega bo'lishi, xususiy mulk daxlsizligi, har bir shaxsning davlat tomonidan kafolatlangan tadbirkorlik, mehnat va iste'mol faoliyati erkinligi bilan ta'minlanganligi;

- ijtimoiy-siyosiy asos – fuqarolik jamiyati qurilayotgan davlatning mustaqil va suveren ekanligi, iqtisodiy va siyosiy hokimiyatlarning bir-biridan ajratilganligi; fuqarolarning o'z maqsadlarini himoya qilish uchun ma'lum nodavlat tashkilotlarga birlashgan bo'lishi, hokimiyatning uchga bo'linish prinsipi amalda o'z aksini topganligi, hokimiyatlarning turli markazlar, guruhlar yoki shaxslar qo'lida to'planib qolmasligi; siyosiy plyuralizmning mavjudligi; davlat hokimiyati vakolati funksiyalarining asta-sekinlik bilan quyi vakillik organlari va o'zini o'zi boshqarish organlariga berib borilishi;

- huquqiy asos – jamiyatda insonning yashashi va rivojlanishi uchun muhim zarurat bo'lgan erkinlik, tenglik, adolat qadriyatlarining qaror topganligi, shaxslar va fuqarolar o'rtasida o'zaro tenglikning ta'minlanganligi, ularning huquq va erkinliklarining davlat tomonidan to'liq ravishda e'tirof etilishi; adolat prinsiplariga amal qilinishi; bir shaxsning erkinligi ikkinchi shaxsning erkinligiga daxl etsa, uning

erkinligi shu yerda to‘xtatilishi, davlat, jamiyat va shaxs manfaatlari o‘zaro mushtarakligining shakllanishi;

- ma’naviy asos – insonlar o‘z qadr-qimmatini har qanday tajovuzlardan himoya qila olish qobiliyatining shakllanganligi, xalqning jamiyat qadriyatlarini himoya qila olish salohiyatining mavjudligi, vijdon erkinligining amal qilishi, jamiyatda axloqiy me’yorlarga amal qilish urf-odatlarining shakllanganligi, biron-bir mafkuraning yakka hokimlik qilishga urinishlarining cheklab qo‘yilganligi, fuqarolarning ma’naviy va ijtimoiy jarayonlarda bevosita va bilvosita ishtirok etishlari uchun barcha shart-sharoitlarning mavjudligi, har bir fuqaroning o‘z mustaqil fikrlashi va qarashiga ega ekanligini namoyon qilish uchun barcha sharoitlarning mavjud ekanligi, ma’naviy jarayonlarni faqat jamiyat va fuqarolar tomonidan amalga oshirilishi, har bir fuqaroning qanday dunyoqarash yoki dinga kirishi uning o‘zi tomonidan hal etilishi, diniy erkinlik, barcha dinlar va mafkuralarning o‘zaro hamkorlikda yashashlari uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarning yaratilganligi.

Umuman olganda, “fuqarolik jamiyati” atamasi turli xorijiy adabiyotlarda umumiy mohiyatga ega, shu bilan birga, har bir mamlakatning milliy an’anlarini ham uyg‘unlashtiradigan tushuncha bo‘lib, u hozirgi davrdagi talqinlarda jamiyatning muayyan shakli (holati va xususiyati)ni, uning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy tabiatini, rivojlanish darajasini ifodalaydi. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish masalalari doimo davlatni takomillashtirish, huquq va qonunning rolini yuksaltirish muammolarini hal etish bilan chambarchas tarzda o‘zaro bog‘liqdir.

Ba’zi olimlarning fikricha, demokratik jamiyat – bu “eng avvalo, fuqarolik jamiyatidir. Chinakam demokratiyaning oliy mazmuni – shaxslararo, millatlararo, davlat va ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni uyg‘unlantirishdan iborat. Bunda inson va jamiyat, jamiyat va davlat hokimiyati tinch-totuv yashaydi”. Fuqarolarning davlat hayotida ishtirok etish jarayoni ancha kuchayib bormoqda va siyosiy partiyalar, nohukumat tashkilotlar faoliyatida, hayotning barcha jabhalari, shu jumladan, inson huquqlari sohasida ham organlar va mansabdor shaxslar faoliyatining ijtimoiy nazoratini hamkorlikda amalga oshirishga qaratilgan ommaviy axborot vositalarining faollashuvida o‘z aksini topmoqda.

Fuqarolik jamiyati – bu ijtimoiy-siyosiy masalalarni hal etishda faol qatnashadigan, davlatning bedodligi va aralashuviga yo‘l qo‘ymaydigan huquq hukmron bo‘lgan, fuqarolar va davlat hamkorlik asosida

ishlaydigan ongli individlar jamiyatidir. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida fuqarolik jamiyatiga ta'rif berilmagan bo'lsa-da, unda fuqarolik institutlarini tashkil etish va ular faoliyatining huquqiy asoslari e'tirof etilgan, ularning davlat bilan o'zaro hamkorligi prinsiplari belgilangan.

Fuqarolik jamiyati fanining predmeti sifatida fuqarolik jamiyatining shakllanishi, rivojlanishi, har bir milliy davlatda fuqarolik jamiyati qaror topishining umumiy, o'ziga xos qonuniyatlari va tamoyillari o'rganiladi. Fuqarolik jamiyati fanining **predmeti** – kishilik tarixida insonlarning o'zaro munosabatlari natijasida yuksak jamiyatga doir qadriyatlar va tuzilmaviy unsurlarning shakllanishi, ularning rivojlanib borishi natijasida ideal jamiyatda insonlar o'zaro aloqalarin qonuniyatlarining shakllanishi, rivojlangan mamlakatlarda uzoq tarixiy rivojlanish natijasi o'laroq shakllangan yuksak insoniy birlik – fuqarolik jamiyatining institutlari hisoblanadi.

Fuqarolik jamiyati fanining **obyekti** – bu insoniy jamiyatning oddiydan murakkabga, o'zini o'zi takroran yaratib turadigan insoniy birlikka o'sib o'tishi va nihoyat rivojlangan mamlakatlarda shakllangan fuqarolik jamiyati va uning institutlari hisoblanadi. Xususan, mazkur Fuqarolik jamiyati o'quv qo'llanmasining obyekti – ana shu tarixiy voqeliklarga uyg'un tarzda O'zbekistonda fuqarolik jamiyati unsurlariga doir g'oyalarning rivojlanishi, mustaqillik davriga kelib fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi, undagi tamoyillarning rivojlangan davlatlar bilan qiyosiy tahlillari hisoblanadi.

Fanni o'qitishdan maqsad – talaba-yoshlar ongida fuqarolik jamiyatiga doir tasavvurlarni singdirish, ularda jamiyatni rivojlantirishga doir mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, Vatanga sadoqat his-tuyg'ularini yuksaltirish kabilardan iboratdir.

Fanning vazifalari quyidagilardan iborat:

- jahon tajribasi va milliy voqeliklarni o'rganish asnosida fuqarolik jamiyatiga doir klassik va zamonaviy konsepsiyalar mazmun-mohiyatini ochib berish;

- talabalarga fuqarolik jamiyatiga doir tushunchalarni tahlil qilishda, unga doir nazariyalarni o'rganishda har tomonlama ko'maklashish, ularning jamiyatga doir qarashlarini boyitish;

- fuqarolik jamiyati qurish islohotlarida shaxsning rolini ochib berish asnosida talabalarda shaxsiy fuqarolik nuqtayi nazarini shakllantirishga yordamlashish;

- talabalar ongiga fuqarolik jamiyati qurish jarayonida paydo

bo‘ladigan muammolar va ularning yechimini singdirish;

- talabalarga fuqarolik jamiyatiga doir nazariy ishlanmalarni tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirishida ularga har tomonlama ko‘maklashish;

- taraqqiyotning “O‘zbek modeli” va fuqarolik jamiyatini barpo etishning ilmiy-metodologik asoslariga doir bilimlarni o‘zlashtirishlariga ko‘maklashish;

- talabalarga huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining asosiy belgilari va o‘zaro ta’sir etish mexanizmlariga doir tushunchalar, bilimlar berish;

- fuqarolik jamiyatini barpo etishning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ma’naviy asoslarini ochib berish;

- fuqarolik jamiyatining iqtisodiy tayanchi – davlat va xususiy mulkchilik, tadbirkorlik va fermerlikni rivojlantirishga doir bilimlar berish;

- talabalar ongini fuqarolik jamiyatining ma’rifiy va ruhiy asosi – milliy ma’naviyatni tiklash va uni rivojlantirishga doir bilimlar bilan boyitish;

- “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” tamoyilining mazmun-mohiyatini tushuntirish;

- “Adolat – qonun ustuvorligida” tamoyilining mohiyati va ahamiyatiga doir bilimlar berish;

- inson manfaatlarining hamma narsadan ustunligi;

- Harakatlar strategiyasida fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga doir konseptual maqsadlarning mazmun-mohiyati;

- Prezidentning “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qiladi” degan g‘oyasi ahamiyatini ochib berish;

- saylov huquqi erkinligi fuqarolik jamiyatining muhim mezoni ekanligini asoslash;

- fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanishida jahon tajribasining o‘rnini ochib berish;

- ijtimoiy innovatsiyalarning fuqarolik jamiyati shakllanishi va rivojlanishiga ta’siri to‘g‘risida bilimlar berish;

- siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa sohalarni erkinlashtirish islohotlarining fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi ahamiyatini ochib berish;

- jamiyatda fuqarolar manfaatlari muvozanatini ta’minlash masalasi haqida tushunchalar berish;

- fuqarolarning moddiy farovonligini oshirish bo'yicha "xalq boy bo'lsa, davlat boy bo'ladi" tamoyilining mohiyatini tushuntirish;

- fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda siyosiy partiyalarning o'rni va ahamiyatini ko'rsatib berish;

- nodavlat-notijorat tashkilotlarining fuqarolik jamiyati instituti sifatidagi o'rnini ochib berish;

- ommaviy axborot vositalarini erkinlashtirishga doir bilimlar berish;

- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini yoritib berish;

- ijtimoiy sheriklik to'g'risida ma'lumotlar berish;

- jamoatchilik nazorati va davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlanish masalalarini yoritish;

- yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyalarini shakllantirish mexanizmlariga doir bilimlar berish.

"Fuqarolik jamiyati" fanini talabalar tomonidan o'zlashtirish jarayonida ularda quyidagi bilim, ko'nikma shakllantirish mo'ljallanadi:

- fuqarolik jamiyati to'g'risida nazariy bilimlar va ularning O'zbekistondagi islohotlar jarayonida amal qilishi, namoyon bo'lishining o'ziga xos jihatlari to'g'risida; talabalarda fuqarolik jamiyatiga doir nazariy bilimlar va ko'nikmalar; rivojlangan davlatlarda fuqarolik jamiyatining shakllanish va rivojlanishi tajribalari; fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi va faoliyat yuritishi to'g'risida; o'tmish, bugun va kelajak voqealarini baholashda ilmiy bilishning turli uslublaridan foydalanish; fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga uyg'un ravishda davlat boshqaruv organlarini demokratlashtirish va modernizatsiyalash jarayonlari; davlat hokimiyati organlari tizimi va fuqarolik jamiyati o'zaro munosabatlari; fuqarolik jamiyati institutlari va davlat boshqaruvining o'ziga xos jihatlari; fuqarolik jamiyati qurishga doir islohotlarining mazmun-mohiyatiga doir muayyan bilimlarga ega bo'lishi;

- fuqarolik jamiyat qurishning milliy va umuminsoniy demokratik tamoyillarini; fuqarolik jamiyati qurishga doir ilg'or tajriba va usullarni; rivojlangan davlatlarda mamlakatni demokratlashtirish va modernizatsiyalashning asosiy tamoyillari hamda ularning "O'zbek modeli" tamoyillari bilan qiyosiy tahlilini amalga oshirishni; fuqarolik jamiyatini qurishning huquqiy asoslarini; taraqqiyotning "O'zbek modeli" tamoyillari mohiyatini bilishi va ulardan erkin ravishda foydalana olishi, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining mazmun-mohiyatini bilishi va uni amalga oshirish

jarayonida ishtirok etishga moyillik tuyg'ularini uyg'otish;

- markazlashgan rejali iqtisodiyot va ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining bir-biridan farqli tomonlarini anglab yetish; mamlakatni demokratlashtirish va bozor iqtisodiyotiga o'tishining inqilobiy va tadrijiy (evolutsion) yo'llarining yutuq va kamchiliklarini baholay olish; mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, xususiylashtirish va bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tishning mohiyati va bosqichlari; mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash, kuchli ijtimoiy siyosatning mohiyatini anglab yetish, ularni amalda qo'llay olish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- talabalarning mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar mohiyatini anglagan holda o'z mutaxassisligi bo'yicha ulardan samarali tarzda foydalanish; "O'zbek modeli" asosida erishilgan natijalarni bilish va ularni aholi o'rtasida targ'ib etish; Harakatlar strategiyasi vazifalarini amalga oshirish, unga doir islohotlarning mohiyatini o'zlashtirish, mamlakatda fuqarolik jamiyatini qurish jarayoniga doir o'z mustaqil munosabatlarini bildira olish qobiliyatini egallash; mamlakatimizning jahon integratsiyasiga kirib borish jarayonlari, bu sohadagi yutuqlarni erkin tahlil qila olish malakalariga ega bo'lishi ko'zda tutiladi.

2. "Fuqarolik jamiyati" fanining qonuniyatlari, tushunchalari va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan o'zaro bog'liqligi

Barcha fanlar qatori "Fuqarolik jamiyati" fanining ham o'ziga xos qonuniyatlari, tushunchalari mavjud. Fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi to'g'risidagi umume'tirof etilgan **qonuniyat**larni 2 guruhga ajratish mumkin.

1-guruh. Fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishiga doir umume'tirof etilgan qonuniyatlar:

- mulkiy munosabatlarning qaror topishi va rivojlanishi;
- inson haq-huquqlari va erkinliklarining real va amalda ta'minlanishi;
- davlat hokimiyati boshqaruv organlarining nomarkazlashuvi;
- jamiyatning plyuralistik g'oyalar asosida rivojlanishining ustuvorligi;
- fuqarolarning davlat boshqaruviga oid qarorlarni qabul qilishda ta'siri va mavqeyining oshib borishi;
- fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy hayotidagi mavqeyining oshib borishi;

- *fuqaroviylik va fuqaro faolligining jamiyat hayotiga ta'sirining kuchayib borishi va b.q.*

2-guruh. Har bir mamlakatlarning milliy va tarixiy rivojlanishidagi o'ziga xos jihatlarini hisobga oladigan qonuniyatlar:

- o'rta mulkdorlar qatlamining shakllanishi;
- o'z-o'zini boshqarish institutlarining jamiyat boshqaruvidagi o'rni va rolining oshib borishi;
- ijtimoiy himoyaning manzilli tashkil etilishi va amalga oshirilishi;
- ma'naviy yetuklikka erishish imkoniyatlarining oshirib borishi va yoshlarning bunyodkor kuchga aylanishi va b.q.

Fanning asosiy tushunchalari: fuqaro, fuqarolik jamiyati, davlat, huquqiy davlat, siyosiy institutlar, fuqarolik jamiyati institutlari, fuqarolarning huquq va erkinligi, inson huquqlari, jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi, jamiyatning iqtisodiy asoslari, demokratik institutlar, qonun ustuvorligi, saylov, saylov huquqi, fuqaroviylik, fuqaroviy faollik, yurt tinchligi, vatan ravnaqi, daxldorlik hissi, ommaviy axborot vositalarini erkinlashtirish, o'zini o'zi boshqarish, millatlar va konfessiyalararo totuvlik, bag'rikenglik jamoatchilik nazorati, davlat organlari faoliyatining ochiqligi, ijtimoiy sheriklik kabilardir.

Fuqarolik jamiyati fanini o'qitish jarayonida ilmiylik, tarixiylik, mantiqiylik, tizimlilik, qiyosiy tahlil metodlaridan foydalaniladi.

Ilmiylik – fuqarolik jamiyati to'g'risidagi g'oyalar, nazariyalar, zamonaviy konsepsiyalarni tahlil qilish asosida uning metodologik nazariy asoslarini ko'rsatish.

Tarixiylik – fuqarolik jamiyati shakllanishining tarixiy bosqichlari, ularning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilgan holda jahon tajribasida erishilgan yutuqlardan foydalanish asosida tahlil etish.

Mantiqiylik – fuqarolik jamiyati shakllanishining genezisidan to bugungi holatigacha bo'lgan jihatlarini (asosiy belgilari, omillari, tamoyillari, funksiyalari) uzviylik asosida tahlil qilish.

Tizimlilik – fuqarolik jamiyatini bir butun tizim sifatida va har bir belgilarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va tizimdagi o'rni va rolini aniqlash.

Qiyosiy tahlil – fuqarolik jamiyati shakllanish va rivojlanish tajribalarini solishtirish, har bir davlatdagi o'ziga xos jihatlarini ko'rsatish.

Fuqarolik jamiyati fani bakalavriat bosqichi o'quv rejasidagi "O'zbekiston tarixi", "Falsafa", "Milliy g'oya", "Iqtisodiyot

nazariyasi", "Dinshunoslik" kabi fanlar bilan o'zaro bog'liqdir. Ushbu fanlarda fuqarolik jamiyati shakllanishi va rivojlanishining turli yo'nalishlaridagi holati, qonuniyatlari, tamoyillari o'rganiladi. "Fuqarolik jamiyati" fanining o'ziga xosligi shundan iboratki, u jamiyatni rivojlanib boruvchini bir butun yaxlit tizim va tizimning tarkibiy qismlari sifatida o'rganadi. Ijtimoiy fanlarning xulosalari asosida fuqarolik jamiyati fani jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarini umumlashtiruvchi funksiyani bajaradi.

Fuqarolik jamiyati fanining *metodologik funksiyasi* ijtimoiy fanlarning rivojlanishi ijtimoiy jarayonlarni o'rganishning umumiy yo'nalishlarini belgilashdan, ishlab chiqilgan me'yorlarning foydalanilishidan iborat.

Fuqarolik jamiyati fanining *prognostik (bashorat qilish) funksiyasi* jamiyatning rivojlanish istiqbollarini oldindan ko'rishga inson huquqlari va erkinliklarining namoyon bo'lishida ko'rinadi. Jamiyatning har bir fuqarosi o'z kasb-kori va ixtisosligidan qat'i nazar jamiyat rivojlanishi to'g'risidagi bilimlarni chuqur egallashi orqaligina yon atrofida ro'y berayotgan voqea hodisalarning kelib chiqish sabablari va oqibatlarini bilishi, ularni boshqarishda bevosita yoki bilvosita ishtirok etish, bunyodkor kuchga aylanishi mumkin.

Ijtimoiy-siyosiy fanlarda "fuqarolik jamiyati" va "davlat" tushunchalari uzoq davrlar bir-biridan unchalik farqlanmay keldi, ular aynan bir mazmundagi tushunchalar sifatida ishlatildi. Biroq XVII asr o'rtalaridan boshlab, jamiyat turli jabhalarining tabaqalashishi, nodavlat, o'zini o'zi boshqarish unsurlarining shakllanishi, ba'zi fuqarolarning o'z huquq va erkinliklarini qo'lga kiritishi, erkin fikrlaydigan va mustaqil individning shakllanishi jarayoni ijtimoiy taraqqiyotning ikki tamoyilini yuzaga keltirdi. Ular endi fan obyekti sifatida o'rganila boshlandi.

Davlatda hokimiyatning uchga bo'linish prinsipining asoslanishi, siyosiy partiyalar, manfaatlar guruhlarining (kasaba uyushmalari, ommaviy axborot vositalari va h.k.) paydo bo'lishi bilan jamiyat hayoti mazmuni endi faqat davlat hokimiyati bilan cheklanib qolmaslikni taqozo etdi. Jamiyat boshqaruvi dunyosiga yangi ishtirokchi institutlar kirib kela boshladi, ular siyosiy qarorlar qabul qilish, fuqarolik jamiyati strategiyasini ishlab chiqish, shaxs faoliyatining umumiy maqsad va mazmunini shakllantirish jarayoniga sezilarli darajada ta'sir ko'rsata boshladi.

Fuqarolik jamiyati tushunchasi absolutizm rejimi ag'darilganidan

so'ng shakllangan yangi hayotni, ya'ni fuqarolarning shaxsiy hayotini davlat tazyiqidan xalos etishni aks ettira boshladi. Fuqarolik jamiyati unsurlari davlatning jamiyatdagi nodavlat ijtimoiy tuzilmalaridan ajralishi, nodavlat ijtimoiy munosabatlarning nisbatan mustaqillikka erishishi natijasi o'laroq paydo bo'ldi. Fuqarolik jamiyati shakllanishi va rivojlanishi jarayoniga monand ravishda huquqiy davlat shakllana boshladi.

Fuqarolik jamiyati kategoriyasi tarixan insoniyat rivojlanishining shunday bir alohida yo'nalishini aks ettiradiki, u har bir davrning o'ziga xos fikrlaydigan mutafakkirining oqilonalik, erkinlik, farovonlik va adolat hukm suruvchi ideal jamiyat modelini yaratishga intilishi bilan tavsiflanadi. Davlat, oila, qabila, millat tushunchalari, diniy va boshqa birliklardan farq qiluvchi fuqarolik jamiyati kategoriyasi, yuqorida qayd etib o'tganimizdek, XVIII–XIX asrlarga kelib o'rganila boshlandi.

Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlarida fuqarolik jamiyatining shakllanishi yangi davrda boshlandi. Olimlar va mutaxassislar fikriga ko'ra, fuqarolik jamiyatining rivojlanishini uch bosqichga ajratish mumkin. Bunda bir bosqichdan keyingi bosqichga o'tishda jamiyat va davlat tuzumida yuz bergan katta o'zgarishlar, ijtimoiy va siyosiy tangliklar, ommaviy harakatlar, ijtimoiy qatlamlar va sinflarning to'qnashuvlari, jamiyat mafkurasida tub o'zgarishlarning ro'y berib turishi an'anaga aylandi.

Birinchi bosqich shartli ravishda XVI–XVII asrlarni o'z ichiga oladi. Bu davrda fuqarolik jamiyatining iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy asoslari yaratildi. Ular jumlasiga sanoat va savdoning rivojlanishi, ishlab chiqarish turlarining ixtisoslashuvi, mehnat taqsimotining kuchayishi, tovar-pul munosabatlarining rivojlanishini kiritish mumkin. Shuningdek, yagona markazlashgan davlatlarning tashkil topishi bilan feodal tarqoqlik davrida mavjud bo'lgan tengsizlik, huquqsizliklarga barham berishga e'tibor berila boshlandi.

Ikkinchi bosqich XVIII asr oxiridan XIX asr oxirigacha davom etdi. Bu davrda eng rivojlangan mamlakatlarda umumiy yuridik tenglik va erkinlik, shuningdek, iqtisodiy erkinlik va shaxsiy tashabbusga asoslangan dastlabki kapitalizm ko'rinishidagi fuqarolik jamiyati shakllandi.

Uchinchi bosqich (XIX asr oxiri va undan keyingi davr) vertikal feodal tuzilmalar o'rnini erkin odamlarning huquqiy tengligi va o'zaro bitimlariga asoslangan gorizontal munosabatlar egallagani bilan tavsiflanadi. Insoniyatning ko'p asrlik tarixida barcha odamlar, ijtimoiy

kelib chiqishi va mavqeyidan qat'i nazar, jamiyat hayotining huquqiy jihatdan teng ishtirokchilari deb e'tirof etilishi muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etdi. Ular har kimga o'zini erkin xohish-irodaga ega bo'lgan, o'z harakatlari va ularning huquqiy oqibatlari uchun o'zi javob berishga qodir shaxs sifatida namoyon etish imkoniyatini beruvchi qonunlar bilan e'tirof etilgan qator huquqlar va erkinliklarga ega bo'la boshladi.

Fuqarolik jamiyatining hayotda yuzaga kelishiga "Huquqlar haqidagi bill" (Angliya, 1689-y.; AQSh, 1791-y.) yoki "Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi" (Fransiya, 1789-y.) kabi inson huquq va erkinliklarini himoyalovchi huquqiy aktlarning qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi. Fuqarolik jamiyati – o'z shaxsi, ijodiy tashabbusini erkin namoyon etuvchi teng huquqli odamlar jamiyati, ortiqcha ta'qiqlar va ortiqcha ma'muriy tartibga solishdan holi bo'lgan teng imkoniyatlar jamiyati sifatida shakllandi.

Fuqarolik jamiyatining davlatdan ajralishi aynan ijtimoiy tabaqalar o'rtasidagi tengsizlikni tugatish va ijtimoiy munosabatlarni davlat tasarrufidan chiqarish jarayoni hosilasi o'laroq yuz berdi. Bu jarayonga butun aholi nomidan ish ko'rishga asoslangan vakillik davlat organlarining shakllanishi asos bo'ldi.

Natijada odamlarning huquqiy o'zaro tengligi ularga huquq va erkinliklar berishi vositasida, ya'ni qonunlarda belgilab qo'yish yo'li bilan tan olindi. Tabaqaviy tengsizlik o'rnini egallagan umumiy huquqiy tenglik shaxsning mutlaqo yangi ijtimoiy holatini belgilab berdi. Endi individlar, ularning ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar erkin hamda ijtimoiy hayotning to'laqonli ishtirokchilari deb e'tirof etildi.

3. Fuqarolik jamiyati – taraqqiyotning yuqori bosqichi

"Fuqarolik jamiyati" va "huquqiy davlat" tushunchalari XVIII asrda paydo bo'lgan. Odamlar hayoti va faoliyatining ikki tomoni: ularning shaxsiy manfaatlari, tashabbusi, ixtiyoriy faoliyati jabhasi va odamlar xulq-atvorlarini davlatning xohish-irodasiga bo'ysunuvchi xalq hokimiyati jabhasi shu tushunchalarda o'z ifodasini topdi.

Fuqarolik jamiyati – ochiq ijtimoiy tuzilma. Unda so'z erkinligi, shu jumladan, tanqid qilish erkinligi, oshkoralik, har xil axborotlar olish erkinligi, har bir hududga erkin kirish va chiqish huquqi, boshqa mamlakatlar bilan keng miqyosda, doimiy asosda axborot, ta'lim texnologiyalari almashinuvi, chet davlatlar va jamoat tashkilotlari bilan

madaniy va ilmiy hamkorlik, xalqaro huquq prinsiplari va normalariga muvofiq xalqaro xorijiy birlashmalar faoliyatiga ko'maklashish ta'minlanadi. U umumiy insonparvarlik tamoyillariga sodiq bo'lib, dunyo miqyosidagi shunday tuzilmalar bilan o'zaro aloqa qilish uchun ochiqdir.

Fuqarolik jamiyati – murakkab tarkibli va plyuralistik tizim. Tabiiyki, har qanday ijtimoiy organizm tizimning muayyan xossalari majmuyiga ega bo'ladi, biroq fuqarolik jamiyatiga ularning to'liqligi, barqarorligi va samaraliligi xosdir. Rang-barang ijtimoiy shakllar va institutlarning (kasaba uyushmalari, partiyalar, birlashmalar, tadbirkorlar, klublar va h.k.) mavjudligi individlarning turli-tuman ehtiyojlari va manfaatlarini ifodalash va ro'yobga chiqarish, odamzotning barcha qobiliyatlarini namoyon etish imkonini beradi.

Fuqarolik jamiyati – o'zini o'zi rivojlantiruvchi va o'zini o'zi boshqaruvchi tizim. Individlar har xil tashkilotlarga birlashib, bir-biri bilan rang-barang munosabatlar o'rnatib, o'zlarining ba'zan qarama-qarshi, ba'zan umumiy manfaatlarini ro'yobga chiqarib, jamiyat siyosiy hokimiyati kuchiga ega bo'lgan davlatning aralashuvisiz uyg'un va izchil rivojlanishini ta'minlaydi. Fuqarolik jamiyati davlatdan mustaqil ravishda o'zini o'zi rivojlantirishning ichki manbalariga egadir.

Fuqarolik jamiyati – huquqiy davlat bilan uyg'unlikda yashaydi. Bu yerda inson va fuqaroning tabiiy va o'zlashtirilgan huquqlarini tan olish, ta'minlash va himoya qilish ularni bir-biriga bog'lovchi omil sifatida amal qiladi.

Fuqarolik jamiyatining asosiy unsuri ayrim shaxs bo'lsa, fuqarolik jamiyati institutlari, tashkilotlar, guruhlar va hokazolar uni shakllantiruvchi omillardir. Ular shaxsning manfaatlari, maqsadlari, niyatlari va boshqa ehtiyojlarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashadi. Shu sababli iqtisodiy va siyosiy hokimiyatni bir-biridan ajratish haqiqiy fuqarolik jamiyatining yuzaga kelishi va qaror topishining bosh omili hisoblanadi. Iqtisodiy hokimiyat bilan siyosiy hokimiyat qo'shilganida muqarrar tarzda iqtisodiy hokimiyatning bir markaz, bir odam yoki shaxslar guruhi qo'lida jamlanishi yuz beradi. Agar siyosiy va iqtisodiy hokimiyatlar turli markazlar, boshqa-boshqa qo'llarda jamlansa, ular bir-birini cheklab turadi.

Fuqarolik jamiyati hokimiyatning oqilonaligi va odilonaligi, shaxs erkinligi va farovonligi haqidagi g'oyalarning huquqiy ustunligi, huquq va qonunning birligi, davlat hokimiyatining turli tarmoqlari faoliyatini huquqiy chegaralash g'oyalari bilan mushtarakdir.

Huquqiy davlatni fuqarolik jamiyati rivojlanishining natijasi va uning o'zini o'zi yanada takomillashtirishi omili deb hisoblash mumkin. Huquqiy davlatchilikning shakllanish jarayoni, hech shubhasiz, ancha uzoq davr davom etadi. U fuqarolik jamiyati shakllanishi bilan birga takomillashib bordi. Har bir davlatda bo'lganidek, huquqiy davlat hokimiyatining suverenligi ham mamlakat ichida uning barcha fuqarolarga va ular tashkil etuvchi nodavlat tashkilotlariga nisbatan ustunligida va undan tashqarida davlatning tashqi siyosatni yuritish, boshqa davlatlar bilan munosabatlar o'rnatishda va mustaqilligida namoyon bo'ladi.

Yetuk fuqarolik jamiyatisiz huquqiy davlat qurish mumkin emas. Chunki ongli va erkin fuqarolargina kishilik jamiyatining eng oqilona shakllarini yaratishga qodirdir. Shunday qilib, fuqarolik jamiyati erkin individ va davlat xohish-irodasi o'rtasida bog'lovchi bo'g'in hisoblansa, davlatning vazifasi parchalanish, tartibsizlik, tanglik, tanazzul kabilarga qarshi ish ko'rish, erkin shaxsning huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratib berishdan iboratdir.

Huquqiy davlat – bu shunday bir davlat hokimiyatidirki, u huquq normalariga binoan va ular doirasida ish ko'radi, bu normalarni buzish, bekor qilish yoki cheklashga jur'at etmaydi, fuqarolar va ular birlashmalarining uzviy tabiiy-tarixiy huquqlarini e'tirof etadi.

Totalitar davlatda xavfsizlikni ta'minlash huquqiy tartibotni muhofaza qilish, odamlar xulq-atvorini davlat belgilagan huquqiy qoidalarga muvofiqligini ta'minlash faoliyatidan iborat bo'ladi, davlat hokimiyatiga tatbiqan xavfsizlikni davlat xavfsizligi va fuqarolik jamiyati xavfsizligiga ajratish yuz bermaydi.

Fuqarolik jamiyatining xavfsizligi (jamoat xavfsizligi) quyidagi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi:

- ijtimoiy adolat;
- davlat bilan o'zaro munosabatda fuqarolarning va umuman, jamiyat huquqlarining e'tirof etilishi;
- qonuniylik tartibi;
- fuqarolarning iqtisodiy farovonligi;
- demokratik plyuralizm;
- jamiyatning ochiqligi;
- fuqarolik jamiyatining shaklan milliy, mazmunan umuminsoniyligi.

Fuqarolik jamiyatining yuzaga kelishi inson huquqlari va fuqaro huquqlarining farqlanishini belgilab berdi. Inson huquqlarini fuqarolik

jamiyati, fuqaro huquqlarini davlat ta'minlaydi. Ikkala holatda ham shaxs huquqlari to'g'risida so'z yuritiladi, biroq birinchi holatda ayrim inson sifatidagi shaxsning yashash, erkinlik huquqlari nazarda tutilsa, ikkinchi holatda uning siyosiy huquqlari nazarda tutiladi.

Inson huquqlari va fuqaro huquqlari o'rtasidagi farq muayyan asoslarga ega bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1) inson huquqlari davlat tomonidan e'tirof etilgani va qonun yo'li bilan mustahkamlanganidan ularning egasi – inson u yoki bu davlatga mansubligidan qat'i nazar mavjud bo'lishi mumkin. Fuqaro huquqlari esa mazkur shaxs qarashli bo'lgan davlat tomonidan himoya qilinadi;

2) dunyoda hali anchagina odamlar, umuman, fuqarolik maqomiga ega emas (fuqaroligi bo'lmagan shaxslar – apatridlar). Binobarin, ular rasmiy darajada fuqaro huquqlariga emas, balki inson huquqlariga egadirlar. Fuqarolik jamiyatining vazifasi ijtimoiy hayotning rivojlanishini ta'minlashdan iboratdir. Shu sababli uning asosiy tarkibiy qismlarining vazifalari qatoriga bu jarayon normal kechishi uchun shart-sharoit yaratib beruvchi institutlar faoliyatini tashkil etish ham kiradi.

Fuqarolik jamiyatining asosiy qadriyatlarini oila, mulk, shaxs, erkinlik, huquq, ma'naviyat, tartib, davlatchilik kabilar tashkil etadi. Bunda hammani majburiy tartibda mulkdorlarga aylantirish nazarda tutilmaydi – ularning ko'pchiligi buni xohlamaydi, biroq bunday imkoniyat har kim uchun saqlanishi lozim. Mulk har doim shaxs va butun jamiyat erkinligining bosh omili sifatida amal qiladi. Mulkka nisbatan hurmat mavjud bo'lmagan joyda shaxsga nisbatan hurmat ham mavjud bo'lmaydi.

Fuqarolik jamiyati tuzilmalari "yuqoridan" turib emas, balki "quyidan" – fuqarolarning tashabbusi bilan, ixtiyoriy asosda, tabiiyki, muassislarning manfaatlari, qiziqishlari va moyilliklariga muvofiq tuziladi. Ularning erkinligi davlat tuzilmalariga qaram emaslikda, ichki qoidalar bilan nazarda tutilgan vazifalarni hal qilishga qaratilgan o'zini o'zi boshqarish faoliyatida namoyon bo'ladi.

Fuqarolik jamiyatining asosiy belgilari mavjud bo'lib, ular quyidagilardir:

- erkin individlar uyushmasi;
- o'zaro hamkorlikka asoslangan ijtimoiy tuzilma;
- murakkab tuzilishga ega bo'lgan plyuralistik tizim;
- o'zini o'zi rivojlantiradigan va o'zini o'zi boshqaradigan nodavlat tuzilmalarning mavjudligi.

Fuqarolik jamiyatining eng muhim omillari:

1) iqtisodiy erkinlik, mulk shakllarining rang-barangligi, bozor munosabatlari;

2) inson va fuqaroning tabiiy huquqlarini so'zsiz e'tirof etish va himoya qilish;

3) hokimiyatning qonuniyligi va demokratik xususiyati;

4) qonun va odil sud oldida hammaning tengligi, har bir shaxsning yuridik jihatdan ishonchli himoyalanganligi;

5) hokimiyatning uchga bo'linishi va hokimiyatlarning o'zaro aloqasi prinsipiga asoslangan huquqiy davlat;

6) siyosiy va mafkuraviy plyuralizm, konstruktiv muxolifatning mavjudligi;

7) so'z va matbuot erkinligi, ommaviy axborot vositalarining mustaqilligi;

8) fuqarolarning shaxsiy hayotiga davlatning aralashmasligi, ularning o'zaro majburiyatlari va burchlari;

9) sinfiy va milliy totuvlik, ijtimoiy sheriklik;

10) odamlarning o'zlariga munosib turmush darajasini ta'minlovchi samarali ijtimoiy siyosat.

Fuqarolik jamiyati qator tamoyillarga tayangan holda faoliyat ko'rsatadi. Jumladan:

- siyosiy sohada hamma odamlarning huquq va erkinliklarining tengligi;

- butun jahon hamjamiyatida yuridik kuchga ega bo'lgan qonunlar asosida fuqarolar huquq va erkinliklari kafolatlangan huquqiy himoya;

- individlarning mulkka ega bo'lish va halol mehnati uchun adolatli haq olish huquqiga asoslangan iqtisodiy mustaqil ekanligi;

- qonun bilan kafolatlangan fuqarolarning manfaatlari, kasbiy belgilari bo'yicha davlatdan va siyosiy partiyalardan mustaqil ijtimoiy birlashmalarga birlashish imkoniyatlari;

- siyosiy partiya va fuqarolik harakatlarini tashkil etishda fuqarolarning erkinligi;

- fuqarolarni erkin, madaniyatli, ma'naviy va ijtimoiy faol, jamiyat a'zolarini qonun oldida ma'suliyatli qilib shakllantiradigan fan, madaniyat, ta'lim va tarbiya uchun zaruriy moddiy va boshqa shart-sharoitlarni yaratish;

- faqat qonun bilan cheklangan davlat senzurasidan tashqari, erkin faoliyat yuritadigan OAV yaratish va faoliyat yuritish erkinligi;

- davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi munosabatlarni barqarorlashtiradigan mexanizmning (konsensusning) mavjudligi hamda

fuqarolik jamiyati xavfsizligining davlat organlari tomonidan ta'minlanishi. Bu mexanizm, rasmiy bo'ladimi, norasmiy bo'ladimi, u o'z ichiga qonuniy aktlarni, xalq vakillarini demokratik saylov yo'li bilan hokimiyatning, o'z-o'zini boshqarishning turli organlari vositasida tayinlash kabilarni oladi.

Iqtisodiy sohada fuqarolik jamiyat asosini ko'p ukladli iqtisodiyot, mulkning turli shakllari va boshqariladigan bozor munosabatlari tashkil etadi; huquqiy sohada esa hokimiyat boshqaruvi vakolatlarining markazda yig'ilib qolmasligi, hokimiyatlar bo'linishi, siyosiy plyuralizm, fuqarolarning davlat va jamoat ishlarida ishtirok etishlari, qonun ustuvorligi, hammaning ular oldida tengligi; ma'naviy sohada yagona mafkura va dunyoqarashning yakkahokimligining mavjud emasligi, vijdon erkinligi, madaniylik, yuqori ma'anaviyat va axloq tashkil etadi.

Fuqarolik jamiyati shaxs erkinligisiz yashamaydi. Erkinlik me'yoriy ko'rinishga ega bo'lgani uchun, bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, bir tomondan, inson erkinlikka uning normativ talablariga bo'ysunish qobiliyati natijasida ega bo'ladi, boshqa tomondan, shaxs erkinligi borlig'ining tashqi shakli bu erkinlikning chegaralarini belgilovchi ijtimoiy me'yorlar mavjudligini anglatadi. Va faqatgina jamiyat uchun yoki insonning o'zi uchun eng muhim ahamiyatga ega, eng asosiy hisoblangan sohalardagina davlatning o'zi erkinlikning o'lchovini, me'yorini belgilab beradi. Bu esa huquqiy me'yorlar, qonunlar, Konstitutsiya yordamida amalga oshiriladi.

Bunda huquq va erkinliklarning o'zi, jumladan, bir tomondan, konstitutsiyaviyligi, ikkinchi tomondan, fuqarolik jamiyatining rivojlanganlik darajasi bilan, shuningdek, uning iqtisodiy, ijtimoiy, ijtimoiy-siyosiy uyushganligining yetukligi darajasi bilan belgilanadi. Boshqa tomondan qaraganda, inson va fuqaroning huquq hamda erkinligining to'liqligi, ularning kafolatlanganligi darajasi, ularning hayotdagi izchilligi fuqarolik jamiyatining haqiqiy erkinlik va ijtimoiy adolatli jamiyat sifatida muhim tavsiflarini namoyon etadi. Demak, faqat fuqarolik jamiyati sharoitidagina inson va fuqaro huquqlari har tomonlama ro'yobga chiqadi. Shu tariqa fuqarolik jamiyati qator muhim funksiyalarni bajaradi:

1. Qonun ustuvorligi asosida u insonning va fuqarolarning shaxsiy hayot sohasini davlat va boshqa siyosiy tuzilmalarning asoslanmagan qat'iy muvofiqlashtirishidan himoya qilishni ta'minlaydi.

2. Fuqarolik jamiyati uyushmalari asosida ijtimoiy (jamoatchilik) o'zini o'zi boshqarish mexanizmlari yaratiladi va rivojlantiriladi.

3. Fuqarolik jamiyati davlatning demokratik organlarini, uning barcha siyosiy tizimini shakllanishi va sodda ko'rinishga keltirilishiga ko'mak beradi, bunda u turli vositalardan foydalanadi: saylov kampaniyalari va referendumlar, norozilik yoki bu yoki u talablarini qo'llab-quvvatlash aksiyalarida, u yoki bu masalalar bo'yicha jamiyatni shakllantirishda faol ishtirok etish kabilar.

4. Fuqarolik jamiyatining institutlari va tashkilotlari o'z e'tiborini insonlarning huquq va erkinliklarini amalda kafolatlashni va davlat va jamoat ishlarida teng ishtirokini ta'minlashga qaratadi.

5. Fuqarolik jamiyati o'z a'zolariga nisbatan ijtimoiy nazorat funksiyalarini bajaradi: u davlatdan mustaqil ravishda vosita va sanksiyalar berishga ega bo'lishi mumkinki, ularning yordamida individlarning jamoa talablariga rioya qilishlariga majburlashi, fuqarolarning ijtimoiylashuvini va tarbiyalanishini ta'minlashi mumkin.

6. Fuqarolik jamiyati kommunikatsiyaviy vazifani bajaradi. Bu jamiyat davlat organlariga fuqarolarning aniq manfaatlari haqida axborotlar berib turadi, bu manfaatlarni amalga oshirish esa faqat davlat organlariga tegishlidir.

7. Fuqarolik jamiyati o'z institutlari va tashkilotlari vositasida barqarorlashtiruvchilik vazifasini bajaradi. U davlat faoliyatida tang holatlar yuz berganida unga yordam beradi, jamiyat hayotini yashashini ta'minlaydigan mustahkam tuzilmalarini yaratadi.

Ma'lumki, Vatanimiz mustaqillikka erishganidan so'ng bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevorini shakllantirish bosh strategik maqsad sifatida belgilandi. Shu kabi jamiyatgina O'zbekiston xalqining munosib turmushini, huquq va erkinliklarini kafolatlashi, milliy an'analar va ma'naviyatimizni qayta tiklashi, shaxs sifatida insonning ma'naviy-axloqiy kamol topishini ta'minlay olishi e'tirof etildi.

Fuqarolik jamiyatini shakllantirishning asosiy mezonlaridan biri – bu uning huquqiy negizini yaratishdan iborat bo'lganligi bois, birinchi navbatda, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolik jamiyatining huquqiy poydevorini o'rnatishga, uning asosiy qoida va talablarini huquqiy jihatdan mustahkamlovchi normalarining o'z ifodasini topishiga alohida e'tibor berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolik jamiyatining asosiy qoida va talablarini aks ettiruvchi prinsipial ahamiyatga ega bo'lgan normalar sifatida davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qilishi, davlat organlari va mansabdor shaxslar

jamiyat va fuqarolar oldida mas'ul ekanligi (2-modda), xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbayi hisoblanishi (7-modda), O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi – hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanishi (11-modda), O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanishi, hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emasligi (12-modda) kabi fuqarolik jamiyatining asosiy prinsiplari yuridik jihatdan mustahkamlangandir.

Mustaqillik davrida fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha Konstitutsiyamizda qayd etilgan asosiy prinsiplar va normalar asosida davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish, sud-huquq tizimini isloh etish, axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash, saylov huquqi erkinligini ta'minlash, fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish, demokratik bozor islohotlari va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish bo'yicha tadrijiy islohotlar amalga oshirildi.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyati asoslarini yaratish va rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar, fuqarolik jamiyati shakllanishi va rivojlanishini shartli ravishda to'rt bosqichga bo'linadi:

Birinchi bosqich o'z ichiga 1991–2000-yillarni qamrab oladi. Bu davrda, birinchi navbatda fuqarolik jamiyatining asoslari yaratildi.

Ikkinchi bosqich 2000–2010-yillarda mamlakatni demokratlashtirish va modernizatsiyalash bo'yicha faol jarayonlar davom ettirildi.

Uchinchi bosqich – 2011–2016-yillar. Bu davrda fuqarolik jamiyati qurishga doir huquqiy asoslar rivojlantirildi, fuqarolik jamiyatining ijtimoiy tayanchi – o'rta ijtimoiy qatlam yanada mustahkamlandi.

To'rtinchi bosqich 2017-yilda boshlanib, fuqarolik jamiyatini shakllantirishning amaliy jihatlarining namoyon bo'lishi bilan xarakterlanadi. Bu davrda fuqarolik jamiyati qurish g'oyalari "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" va "O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasi"da yanada rivojlantirilib, bu sohadagi tub burilish davrini boshlab berdi. Bu bosqichda fuqarolik jamiyati shiddat bilan rivojlanib, o'zini har tomonlama namoyon eta boshladi. Bu davrda Prezident Sh.Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan islohotlar mazmuni yangi bosqich boshlanganidan dalolat bermoqda.

Hozirgi davrda fuqarolik jamiyati tushunchasiga turli xil darajada

ta'riflar berilmoqda. Bu haqida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov "Biz uchun fuqarolik jamiyati – ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'z-o'zini kamol toptirishga monelik qilmaydi, aksincha, yordam beradi. Shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to'la darajada ro'yobga chiqishiga ko'maklashadi. Ayni vaqtda, boshqa odamlarning huquq va erkinliklari kamsitilishiga yo'l qo'yilmaydi. Ya'ni erkinlik va qonunga bo'ysunish bir vaqtning o'zida amal qiladi", – deb ta'kidlagan edi. Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti tomonidan fuqarolik jamiyatiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Fuqarolik jamiyati – bu qonun ustuvorlik qiladigan; inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoyalash ta'minlanadigan, shaxsning rivojlanishi va o'zligini namoyon qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan; aholining keng qatlamlari tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan mustaqil va barqaror institutlar amal qiladigan ijtimoiy makondir".

AQSHning taniqli olimlari M.Edvards va J.Gaventa fikricha, "fuqarolik jamiyati o'ta ziddiyatli xarakterga egadir. Hozirga qadar uning mohiyatini umumiy tarzda ifodalash shakllanmagan. Ular "fuqarolik jamiyati" tushunchasini keng jihatlarga egaligiga o'z e'tiborlarini qaratib, bu "jamiyat kengliklarida kishilar o'zlarining foyda olish yoki siyosiy hokimiyat bilan bog'liq bo'lmagan umumiy manfaatlarini himoya qilish uchun birlashadilar". Fuqarolik jamiyatining tashkilotlari – bular mazkur jamiyat kengliklarida harakat qiluvchi barcha guruhlardir: uyushmalar, siyosiy partiyalar, hamjamiyatlar, nohukumat tashkilotlar. Fuqarolik jamiyatining tashkilotlari ba'zan muammolarning yechimlarini izlash, shuningdek, o'zaro turli-tuman ixtiloflarga kirishish asosida faoliyat yuritadilar.

Fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi bo'yicha quyidagi xulosalar chiqarish mumkin:

- fuqarolik jamiyatining shakllanishi uzoq davom etib kelayotgan murakkab tarixiy jarayondir. Fuqarolik jamiyatining ba'zi bir unsurlari qadimgi Yunoniston va Rimda namoyon bo'ldi, yangi davrda esa uning ba'zi shakllanish unsurlari kashf etildi, hozirgi davrda esa uning bir butun tizim sifatidagi tasavvurlar shakllandi;

- fuqarolik jamiyati g'oyasi insoniyatning antik davrdan buyon davom etib kelayotgan tafakkurlashi mahsulidir. "Avesto"da, qadimgi yunon faylasuflari fikrlarida, O'rta asr Sharq mutafakkirlarining qarashlarida, Uyg'onish va Reformatsiya davri g'oyalari va bugun XXI asr jahon hamjamiyati tomonidan umuminsoniy ijtimoiy madaniy

qadriyatlar sifatida e'tirof etildi. Ma'lumki, har qanday fan, o'z mohiyatiga ko'ra umumbashariydir. Dunyoning barcha xalqlari o'zining katta-kichikligidan qat'i nazar fuqarolik jamiyati nazariyasiga o'zlarining hissalarini qo'shdi. Shu nuqtayi nazardan fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi to'g'risidagi g'oyalar qarashlarga bir yoqlama yondashish, ularni kamsitish mumkin emas;

- fuqarolik jamiyatining xususiyatlari, belgilari, tamoyillari har qanday ijtimoiy tuzimda mavjuddir, biroq ularning rivojlanish darajasi turli xil bo'lishi mumkin;

- fuqarolik jamiyatining shakllanish jarayonlari holati ijtimoiy hayotning va davlat hokimiyati boshqaruvining demokratlashib borishi bilan birgalikda kechadi;

- fuqarolik jamiyatining shakllanishi huquqiy davlatchilikning shakllanish jarayoni bilan uyg'unlikda takomillashib boradi;

- har bir davlatda fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi o'ziga xos milliy mental xususiyatlarga bog'liq holda, shaklan milliy modellarda namoyon bo'lishi mumkin;

- hozirgi davrdagi dunyodagi biron-bir mamlakat fuqarolik jamiyati eng so'nggi yetuklik bosqichiga erisha olgani yo'q va uni takomillashtirish uzluksiz davom etadigan jarayondir.

Nazorat savollari

1. "Fuqarolik jamiyati" fanining predmeti va obyekti deganda nimani tushunasiz?
2. "Fuqarolik jamiyati" fanining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
3. "Fuqarolik jamiyati" fanining asosiy tushunchalari mazmuni to'g'risida qanday tasavvurlarga egasiz?
4. Fuqarolik jamiyati shakllanishining asosiy bosqichlarini yoritib bering.
5. Fuqarolik jamiyatining asosiy belgilari nimalarda namoyon bo'ladi?

Test savollari:

1. Fuqarolik jamiyati fanining predmeti qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

A) Fuqarolik jamiyati ijtimoiy sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni

B) Davlatning tashqi siyosatini

C) Fuqarolik jamiyatida inson huquq va erkinliklari himoya qilinadi

D) Fuqarolik jamiyatining shakllanish va rivojlanish qonuniyatlarini

2. O‘zbekistonda “Fuqarolik jamiyati” fanini o‘qitish qachon ta’lim tizimiga kiritildi?

A) 2016-yilda

B) 2000-yilda

C) 2015-yilda

D) 1991-yilda

3. Fuqarolik jamiyati tushunchasi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

A) Kishilik jamiyatining asrlar mobaynida shakllangan tafakkur mahsuli bo‘lib, inson huquqlari va erkinliklarining holati bilan belgilanadigan ijtimoiy tizimdir

B) Kishilik jamiyatining asrlar mobaynida shakllangan iqtisodiy faoliyatining mahsuli bo‘lib, davlatning rivojlanish darajasini belgilaydigan munosabatdir

C) Qadimgi davrdan shakllanib kelayotgan huquqiy munosabatlaridir

D) Jamiyatning ijtimoiy munosabatlari tizimidir

4. Fuqarolik jamiyatining shakllanish bosqichlarini ko‘rsating.

A) IX–XV, XVI–XIX asrlar

B) IX–XV, XVI–XIX, XX asrdan hozirgi kungacha

C) XV–XVI, XVII–XIX asrlar

D) XVI–XVII, XVIII–XIX, XX asrdan hozirgi kungacha

5. Fuqarolik jamiyati shakllanishi asoslari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

A) Huquqiy, ma’naviy

B) Ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy, huquqiy

C) Iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy

D) Iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, ma’naviy

6. Fuqarolik jamiyati holatini belgilash asosiy mezonni aniqlang?

A) Iqtisodiy ko‘rsatkichlar

B) Demokratlashtirish ko‘rsatkichlari

C) Inson huquq va erkinliklarining ta’minlanishi

D) Insonni kamolatga erishish darajasi

7. Fuqarolik jamiyatining asosiy belgilari nimalardan iborat?

A) Erkin individlar uyushmasi; o‘zaro hamkorlikka asoslangan ijtimoiy tuzilma

B) Barcha javoblar to‘g‘ri

C) Murakkab tuzilishga ega bo‘lgan plyuratilstik tizim

D) O‘zini o‘zi rivojlantiradigan va o‘zini o‘zi boshqaradigan tizim

8. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati asoslarini yaratish va rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarni fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti tomonidan necha bosqichga bo‘lib tahlil qilish tavsiya etiladi?

A) 2 bosqich

B) 3 bosqich

C) 4 bosqich

D) 5 bosqich

9. 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”ning birinchi yo‘nalishi qanday nomlanadi?

A) Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari

B) Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish

C) Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish

D) Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish vazifalari

10. O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy islohotlar konsepsiyasi qachon qabul qilingan?

A) 2016-yil 14-dekabr

B) 2017-yil 3-yanvar

C) 2017-yil 7-fevral

D) 2017-yil 8-sentabr

2-mavzu. FUQAROLIK JAMIYATI G'OYALARI EVOLUTSIYASI

REJA:

1. Qadimgi va O'rta asrlar ijtimoiy fikrlar taraqqiyotida fuqarolik jamiyatiga doir g'oyalar.

2. Yangi va Eng yangi davrda fuqarolik jamiyati to'g'risidagi nazariyalar.

3. Fuqarolik jamiyati to'g'risidagi zamonaviy konsepsiyalar.

Tayanch so'zlar: *G'oya, nazariya, konsepsiya, fuqarolik jamiyati, demokratik davlat, adolatli jamiyat, fuqarolik jamiyatining antik, mumtoz va zamonaviy paradigmalari.*

1. Qadimgi va O'rta asrlar ijtimoiy fikrlar taraqqiyotida fuqarolik jamiyatiga doir g'oyalar

"Fuqarolik jamiyati" tushunchasi – kishilik jamiyatining asrlar mobaynida shakllangan tafakkurlash mahsulidir. Fuqarolik jamiyatining poydevorini yaratish va uni amalda shakllantirish uchun, avvalo, u haqidagi g'oyalar genezisini bilishga zarurat tug'iladi. Bu ularning ijobiy jihatlarini muayyan jamiyatga nisbatan tatbiq etish imkonini beradi.

Insoniyat taraqqiyotining barcha davrlarida fuqarolik jamiyatini qurish eng ezgu g'oya sifatida yashadi. Unga erishish uchun turli darajadagi nazariy qarashlar ilgari surilgan. Bir guruh olimlar fuqarolik jamiyatini qurish g'oyasi G'arb tamadduni mahsuli sifatida amaliyotga tatbiq etilmoqda deb hisoblasa, boshqalari Sharq mamlakatlari mutafakkirlari ijodida bu masalaga oqilona yondashuv uch ming yil ilgari shakllangan, degan qarashni ilgari surmoqda. Albatta, dastlab ijtimoiy taraqqiyotning ma'lum davrlarida Sharq mamlakatlari fozil jamiyatga doir nazariyalarni yaratishda yetakchilik qildi.

"Fuqarolik jamiyati" va uning tushunchalari dastlab Markaziy Osiyo ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotining yorqin namunasi "Avesto" muqaddas kitobida keltirilgan. "Avesto"ning bosh g'oyasi "ezgu fikr, ezgu maqsad, ezgu amal" ekanligi har qanday jamiyat va insonlararo munosabatlarning ma'naviy asosi ekanligidan dalolatdir.

"Avesto"ning "Yasna", "Yasht", "Visparad" va "Vendidod" qismlarida oila va jamoada berilgan so'zdan yoki qasamdan voz kechish, odamlar o'rtasida tuzilgan ahdnomani buzish katta gunoh ekanligi o'z

ifodasini topgan. Xususan, "O Spitama, shartnomani buzuvchi kishi butun mamlakatni buzadi, shu bilan birga, Artaga tegishli barcha mulk-u mollarga putur yetkazadi". "O Spitama, ahdingni buzma..." g'oyalari davlatlar siyosiy tizimining huquqiy asosi, adolat manbayi bo'lib, ular Rim huquqidan ham qadimiyroqdir. "Avesto"dagi fuqarolik jamiyatiga xos bu unsur – erkak va ayolning teng huquqliligi, oilaning barqarorligini ta'minlash g'oyasi hozirgi davrda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Fuqarolik jamiyati konsepsiyasining yevropacha an'anasi ildizlari antik davrdan oziqlanadi. Mazkur an'ananing mazmun-mohiyati nafaqat siyosiy, balki shaxsni ijtimoiy-axloqiy nuqtayi nazardan baholash bilan bog'liq edi. Bunga misol tariqasida Platon, Aristotel, Sitseron kabi mutafakkirlarning qarashlarini keltirish mumkin.

Fuqarolik jamiyati unsurlariga oid antik konseptual ta'limotda jamiyat va davlat fenomenlarining o'zaro uzviyligi qadimgi yunon falsafasining muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Xususan, Platonning (mil. av. 427–347-yy.) "Davlat" asarida fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy hayotini bir-biridan ajratib qarashning o'zi emas, balki ijtimoiy sohani hozirgidek zamonaviy talqinda, siyosiy faollik sifatida talqin etilgan. Bunda jamiyat hayotining siyosiy jihatlari fuqarolik jamiyati tizimining umumiy tavsifi sifatida talqin etiladi.

Fuqarolik jamiyati unsurlariga doir g'oyalarning keyingi rivoji Platonning shogirdi Aristotel (mil. av. 384–322-yy.) tomonidan amalga oshirildi. Ustozi kabi Aristotel ham eng mukammal jamiyat g'oyasini ishlab chiqishga o'z diqqat-e'tiborini qaratdi. Biroq uning qarashidagi fuqarolik jamiyati g'oyalari tarkibi ancha o'zgacha nazariy jihatlardan tashkil topadi. Uni ko'proq ijtimoiy transformatsiyalashuv emas, balki ko'proq davlat tuzilmasidagi (siyosiy) o'zgarishlar qiziqtiradi. Shu bilan birga, Aristotel o'zining nazariy ishlanmalarida Platonga xos bo'lgan davlat haqidagi mavhum g'oyalarga tayanishni emas, balki voqe'likda mavjud bo'lgan turli boshqaruv usullarini solishtirish, ularni qiyosiy tahlil qilishga kirishadi. Natijada, uning davlat va jamiyatga taalluqli qarashlari oldingi mutafakkirlar qarashlaridan aniqroq va ravshanroq bo'lganligi ko'zga tashlanadi.

Platondan farqli o'laroq, Aristotel jamiyatdagi fuqarolarning xususiy mulkka egalik qilishini e'tirof etadi. Chunki mulkka egalik inson tabiatiga xos xususiyat bo'lib, u odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning o'zagini tashkil etadi. Aristotel mulk huquqining fuqarolar farovonligi, davlat va uning boshqaruvining xavfsiz kechishi, qonunchilik hokimiyati faoliyatida fuqarolarning ishtiroki, lavozimlarni

egallash jarayonlari va o'z vazifalarini bajarishlari, ularning sud organlari ishidagi rolini atroflicha sinchiklab o'rgandi. Huquqni Aristotel adolat mezoni deb hisobladi va unga ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi hamda ayni vaqtda ularni muhofaza qiluvchi institut sifatida qaradi. Aristotel fikricha, siyosiy boshqaruv – bu odamlarning emas, balki qonunlarning boshqaruvidir: hattoki eng yaxshi hukmdorlar ham tuyg'ular va hissiyotga beriluvchan bo'ladi, qonun esa "oqilona tafakkur"dir.

Qadimgi Rim mutafakkiri **Mark Tuliy Sitseron** (mil. av. 106–43-yy.) ham jamiyat va davlat (respublika)ni bir-biridan ajratmaydi, ularni birgalikda tahlil etadi. U davlatni umumiy manfaatlar bilan o'zaro bir-birlariga bog'langan odamlar majmuyi sifatida tasavvur qiladi, davlat xalqning umumiy mulki hisoblanadi. Davlat odamlar birgalikda yashashga tabiiy ehtiyoj sezgani tufayli paydo bo'ladi. Uning fikricha, davlatning vazifasi mulkni muhofaza qilishdan iboratdir. Davlat ayni shu maqsadda tashkil etiladi. Sitseron fikricha, uchta boshqaruv shakli (monarxiya, aristokratiya va demokratiya) unsurlarini o'zida mujassamlashtirgan aralash davlat eng ideal davlatdir. Faqat shunday davlatda har bir jamiyat a'zosining manfaatlarini qondirish va u davlatni boshqarishda shaxsan ishtirok etishi ta'minlanadi. "Davlatning mustahkamligi va fuqarolarning huquqiy tengligi" bunday davlat tuzumining muhim fazilati deb hisoblaydi. Sitseronning "Davlat haqida" va "Qonunlar haqida" asarlari davlat va huquq muammolariga bag'ishlandi. Davlat Sitseron talqinida qadimgi yunon mutafakkirlarining konsepsiyalaridagi kabi davlatning barcha erkin a'zolarining umummanfaati ifodasi sifatidagina emas, balki bu a'zolarning o'zaro bir-birlari bilan kelishilgan huquqiy munosabatlari majmuyi, muayyan huquqiy tuzilma, "umumiy huquqiy tartibot" sifatida namoyon bo'ladi.

Sitseron davlat tushunchasiga birinchilardan bo'lib huquqiy tus beradi, bu ta'limot keyinchalik juda ko'p mutafakkirlar, shu jumladan, "huquqiy davlat" g'oyasining hozirgi davrdagi tarafdorlari tomonidan ham e'tirof etildi. Sitseron konsepsiyasiga binoan, "fuqarolik jamiyati" g'oyasi klassik ahamiyat kasb etdi, shu bilan birga, u o'z navbatida yangi davrda shakllangan nazariy qarashlarga asos bo'ldi. Ko'pchlik ekspertlarning fikricha, aynan Sitseronning ijtimoiy-siyosiy ta'limotida "fuqarolik jamiyati" o'zining tushuncha sifatidagi asoslariga ega bo'ldi.

Fuqarolik jamiyatini unsurlariga doir g'oyalar Markaziy Osiyo mutafakkirlari ijodida ham chuqur o'rganildi. Darhaqiqat, Markaziy Osiyo Uyg'onish davri IX–XV asrlarda davlatni boshqarish va adolatli

jamiyat qurish, davlat rahbari va xizmatchilarining faoliyat darajalari tasniflari, ijtimoiy mas'uliyati mezonlarining nazariy jihatlari haqidagi g'oyalar Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Nizomulmulk, Amir Temur, Alisher Navoiy va boshqalar ijodida keng tahlil qilingan.

Xususan, Abu Nasr al-Forobiyning (870–950-yy.) "Fozil odamlar shahri" va "Davlat arbobining aforizmlari" asarlarida sharqona siyosiy-huquqiy va ijtimoiy fikr tarixining muhim jihatlari – ijtimoiy tizim, siyosat, davlat va hukumat haqidagi nazariyalar rivojlantirildi. Forobiy fikricha, adolatli jamiyat qurish uchun uni mudofaa qilish va oqilona boshqarish usulini bilish, odamlarga yovuzlikdan saqlanish va ezgulikka intilish yo'llarini ko'rsatish lozim. U davlat rahbarining boshqaruv mahorati tufayli umumiy baxtga erishish yo'li topiladi deb hisoblaydi. Adolatli davlatni ma'rifatli hukmdor boshqarishi, u ma'naviyatli va adolat yetakchisi bo'lishi, o'z fazilatlari bilan o'ziga qo'yilgan barcha talablarga javob berishi lozim. Bu borada Forobiy "Fuqarolarning o'zlaridan saylangan rahbar yoki boshliqlar hokimi mutloq bo'lmaydi. Ular odamlar ichidan ko'tarilgan, sinalgan, eng oliyjanob, rahbarlikka loyiq kishilar bo'ladilar. Shuning uchun bunday rahbarlar o'z saylovchilarini to'la ozodlikka chiqaradilar, ularni tashqi dushmandan muhofaza qiladilar", deb davlat hokimiyatini jamiyatga bog'liq holda tahlil etadi, boshqaruv bilan bog'liq axloqiy va madaniy qadriyatlarni tizimlashtiradi.

Sharq Uyg'onish davrining allomasi Abu Rayhon Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Hindiston" va boshqa asarlarida adolatli jamiyat va uning amal qilishi asoslarini shakllantirish haqidagi g'oyalarni ilgari surdi. Uning fikricha, jamiyatning paydo bo'lishiga odamlarning o'zaro hamkorligi, birga yashashga ehtiyoji va intilishlari sabab bo'ladi. Adolatli jamiyatni qurish axloqiy qadriyatlarga tayanishi va shu asosda rivojlantirilishi lozim. Davlat rahbarining asosiy vazifasi aholining turli qatlamlari, kuchlilar va kuchsizlar o'rtasidagi siyosiy hamda huquqiy adolat mezonlarini o'rnatishdadir. Uning fikricha, bu holatga ideal ijtimoiy tuzilmani qurish orqali erishiladi.

Abu Ali ibn Sino (980–1037-yy.) fikricha, ijtimoiy munosabatlar odamlar o'rtasidagi tafovut va tengliksizlik natijasidir. Xususan, Ibn Sino "iqtisodiy va ijtimoiy hamda shaxsiy xususiyatlarga ko'ra tengsizlik inson ijtimoiy faolligi sababi hisoblanadi", deb ta'kidlaydi. Ideal davlat qurish esa jamiyat a'zolarining ma'naviy-axloqiy ravnaqi bilan bog'liqdir. Uning fikricha, ma'naviy, axloqiy qadriyatlarning yuksak

qadrlanishi nafaqat har tomonlama farovonlikni, balki jamiyatda adolat va barqarorlikni ham ta'minlaydi.

Bu davrda Sharqda ijtimoiy adolat, ma'rifat va tenglik nafaqat nazariy me'yor, balki amaliy hayot me'yori, ijtimoiy-siyosiy muammolar yechimini topish va jamoa bo'lib yashashning asosi sifatida tushunildi, fozil jamiyatni (fuqarolik jamiyatining ilk loyihasini) shakllantirishning ma'rifatli yo'li tanlangan bo'lsa, Yevropa ijtimoiy-siyosiy tafakkurida esa xristianlik dogmatikasi hukmronlik qilib, jamiyatni diniy va dunyoviy manfaatlar o'rtasida kurashlar tufayli "diniy" ta'limot asosida namoyon bo'ldi.

Mutafakkir **Yusuf Xos Hojib** o'zining "Qutadg'u bilig" dostonida davlatni boshqarish amallari, qoidalari va siyosiy-axloqiy munosabatlarni jamiyatda qaror toptirishga e'tibor qaratdi. U davlat boshqaruvi va xizmatini tashkil etish turlarini hamda uning turli darajalarga muvofiq sifatlarini tasniflaydi. Jumladan, "Shohlikka da'vogarlar onadan ajib bir iste'dod bilan tug'iladilar va ular darhol yaxshi-yomonni ajratish fitratiga ega bo'ladilar. Bundaylarga Xudo idrok, farosat va yumshoq bir ko'ngil ato etadi, qolaversa, yaxshi ish yuritish uquvi bilan ham siylaydi", deb ta'kidlaydi.

Adolatli davlat boshqaruvi, uning mukammal nazariy asoslarini yaratish borasida ulkan ilmiy meros qoldirgan o'rta asrlar mutafakkiri, davlat arbobi **Nizomulmulk**ning **"Siyosatnoma"** asari muhim manba hisoblanadi. U mansabdorlarni axloqiy fazilatlariga qarab tanlash, adolat va insofni oyoqosti qiladigan kishilarni davlat ishlariga aralashtirmaslikni, davlatni boshqarishni kengash bilan olib borish, boshqaruv faoliyatlarini muntazam nazorat qilish, itoat, ijro va uning sifati to'g'risidagi qarashlari hozirgi davrda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Ayniqsa, Nizomulmulkning "ko'pchilik bo'lib qabul qilingan tadbir eng savobli bo'ladi va shunday yo'l tutish kerak" degan fikri ajdodlarimizning davlat qurilishining adolatli tartibotlariga katta e'tibor berganligidan dalolatdir.

Ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotning ma'naviy asoslarini o'rganishda O'rta Osiyoda vujudga kelgan tasavvuf ta'limotining ahamiyati ham alohida muhim o'rin tutadi. Tasavvuf garchi islom bag'rida ildiz otib, Qur'on va hadislar hikmatidan oziqlangan, ko'p hollarda, shariat ahkomiga suyangan bo'lsa-da, u rasmiy diniy aqidaparastlik va mutaassiblikka hamda hokim tabaqalarning aysh-u ishratlarga g'arq bo'lgan turmush tarzi, talonchilik va manfaatparastlikka zid o'laroq, mehnatkash xalq noroziligini ifodaladi. Tasavvuf ta'limoti asosida adolat,

haqiqat, to‘g‘rilik, mehr-shafqat, insof, iymon, e’tiqod, ilm, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi umuminsoniy qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi futuvvatga asoslangan bir qancha diniy, siyosiy oqimlar paydo bo‘ldi. Ular jamiyatning axloqsiz unsurlariga g‘oyaviy kuch sifatida qarshi qo‘yildi.

Ijtimoiy-siyosiy tafakkur rivoji va huquqiy davlat va adolatli jamiyatining asosiy sharti – qonun ustuvorligi tamoyilini amaliyotda qo‘llash tajribasini Sharqning buyuk davlat arbobi va sarkardasi **Amir Temur**ning (1336–1405-yy.) boy ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy merosi misolida ko‘rish mumkin. Uning tuzuklarida davlat tizimi, uni idora qilish uslublari va vositalari, undagi turli lavozim-vazifalar darajasi, tabaqalarning toifalanishi, harbiy qo‘shinlarning tashkil etilishi, jang olib borish mahoratlari, davlat xizmatchilari rag‘batini tashkil etish omillari, adolatli soliq turlarining joriy etilishi, mamlakatni obodonlashtirish tadbirlari milliy davlatchilikning yuksak madaniy va huquqiy darajada shakllantirishga erishganligidan dalolat beradi. “Har mamlakatning yaxshi kishilariga men ham yaxshilik qildim, nafsi yomonlar, buzuqlar va axloqsiz odamlarni mamlakatimdan quvib chiqardim. Pastkash va razil odamlarga o‘zlariga loyiq ishlar topshirdim hamda hadlaridan oshishlariga yo‘l qo‘ymadim. Ulug‘larni va sharaf-e’tiborli kishilarni hurmatlab, martabalarini oshirdim. Har mamlakatda adolat eshigini ochdim, zulm-u sitam yo‘lini to‘sdim”.

Ma’lumki, fuqarolik jamiyatining unsurlaridan biri bu jamiyat hayotiyligini va samaradorligini ta’minlovchi kuch – qonun ustuvorligidir. Shu jihatdan, Sohibqiron Amir Temurning quyidagi so‘zlari hozirgi zamon bilan hamnafasdir: “Tajriba, – deb yozadi u, – menga shuni ko‘rsatdiki, din va qonunga tayanmagan hukumat, o‘zining buyuk qudratini uzoq vaqt saqlab tura olmaydi. Uni har qanday yovuz kishi kirishi mumkin bo‘lgan na tomi, na eshigi, na derazalari bor uyga o‘xshatish mumkin. Shuning uchun men o‘z saltanatimni islom arkonlari va boshqaruvda o‘zim qat’iy amal qiluvchi qonunlar asosiga qurdim”.

Shu nuqtayi nazardan, muvaffaqiyatli boshqaruv qonuniyatiga ko‘ra, Amir Temur rahbarning adolatga tayanib ish ko‘rishini talab etgan. Uning fikricha, “Rahbar uchun barcha ishlarda adolatga amal qilishi kerak: u sotilmaydigan va fazilat egasi bo‘lgan odamni vazirlikka tayinlashi lozim, chunki adolatli vazirning o‘zi mahdud-rahbar qilgan adolatsizliklarni to‘g‘rilashi mumkin, ammo vazirning o‘zi shunday bo‘lsa, halokat yaqindir”. Sohibqiron fikricha, davlat boshqaruvida yana bir muhim qonuniyat – qonun ustuvorligidir: “Qat’iy tartib va qonunlarga

amal qilishim baxt-saodatim kaliti bo'ldi". U asosiy qonunlar sifatida diniy ahkomlarni va ular asosida yozilgan fikrlarni bildi. Ko'rinib turibdiki, Amir Temur adolatli va fozil boshqaruvga asoslangan jamiyat qurishga muhim e'tibor bergan.

Komil insonlar yashaydigan jamiyat haqidagi g'oyalar **Alisher Navoiy**ning (1441–1501-yy.) siyosiy va adabiy faoliyati asosi bo'ldi. Navoiy ideal ijtimoiy-iqtisodiy tuzum haqidagi qarashlarini o'zining "Saddi Iskandariy", "Mahbub ul-qulub", "Tarixi anbiyo va hukamo" ("Payg'ambarlar va dononishmandlar tarixi" va boshqa asarlarida talqin etdi. Ijtimoiy-iqtisodiy tuzum muammolari faqat adolatli hukmdor boshqarayotgan va qonun ustuvor bo'lgan mamlakatda o'z yechimini topishi mumkin. Shunday qilib, Navoiy fikricha, adolat va qonun ijtimoiy taraqqiyotning asosi hisoblanadi. Uning konsepsiyasida hukmdor shaxsi alohida ahamiyat kasb etadi. Fazilatli va ideal shaxs haqida mulohaza yuritar ekan, Navoiy o'ziga xos insonparvarlik nazariyasini yaratdi. Bu nazariyada mutafakkir, bir tomondan, hukmdor va bog'bonni, boshqa tomondan, davlat va bog'ni bir-biriga solishtiradi. Unga ko'ra, agar bog'bon aqlli va mehnatsevar bo'lsa, uning bog'i gullab-yashnaydi. Xuddi shu tariqa agar mamlakatning aqlli, dono, adolatli, xalqi uchun qayg'uradigan va uni sevadigan hukmdori bo'lsa, u rivojlanadi va farovonlashadi.

Navoiy nazariyotchi va amaliyotchi sifatida davlat siyosatining adolatli asoslari va uning ma'naviy mezonlarini rivojlantirishga katta hissa qo'shdi. Ayniqsa, uning adolatsizlik va zulm davlatni tanazzulga, jamiyatni jaholatga olib kelishi to'g'risidagi qarashlari g'oyatda ahamiyatlidir: "...davlat ishi bilan mashg'ul bo'lgan mansabdorlik chog'larimda ko'ngil mulkini turli odamlarning hujumi bulg'aladi. Goh amirlik o'rnida o'tirdim va hukumat mahkamasida xalqning arz-dodini so'rdim va goh podshoh yonida vazirlik qildim va menga umidvor nazar bilan qarab turgan elga muruvvat ko'rsatdim", deb yozadi. Adolatli jamiyat shakllanishining asosiy omili sifatida Navoiy insoniy fazilatlar – adolatlilik, rahmdillik, mehnatsevarlik, rostgo'ylik, vatanparvarlik, vijdonlilik, insonparvarlik va jasorat kabilarni namuna sifatida keltiradi.

Antik davr va o'rta asr Sharq allomalarining fuqarolik jamiyatiga oid konseptual-nazariy merosi va nazariy ishlanmalari hozirgi davrga qadar o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ular qoldirgan ilmiy meros fuqarolik jamiyati tamoyillarining rivojlanishi, insoniy birlik sifatida jamiyat tarixiy taraqqiyotining muhim omillari sifatida hozirgi fuqarolik jamiyati qurish g'oyalarini to'ldirmoqda.

2. Yangi va Eng yangi davrda fuqarolik jamiyati to‘g‘risidagi nazariyalar

Fuqarolik jamiyatining dastlabki turli tarixiy qiyofalarining ifodasi Yevropa va O‘rta yer dengizi an’analari asosida Uyg‘onish davridagi Italiya shahar-davlatlarida namoyon bo‘ldi. Bunda fuqarolik jamiyati shahar boshqaruvi tizimi doirasidagi, muayyan shahar hududidagi ijtimoiy munosabatlarning tizimi sifatida ifodalanadi.

Yevropa jamiyatshunos olimlari fuqarolik jamiyatining yana bir tarixiy ildizini olmon madaniy doirasi ta’siridagi kontinental Yevropa an’analariga bog‘laydi. Ular erkin fuqaroning paydo bo‘lishi, birinchilardan bo‘lib o‘zaro birlashgan hunarmandlar va savdogarlar gildiyasi – o‘zlarini feodallardan himoyalovchi va shaharlar boshqaruviga ham ta’sir qilish kuchiga ega bo‘lgan dastlabki assotsiatsiyalar tashkil topishi sabab bo‘lgan, deb hisoblaydi.

Fuqarolik jamiyatining yana bir ildizi yoki uning zamonaviy tushunchasining shakllanishida liberal ingliz-amerika an’analari muhim ahamiyat kasb etdi. Olimlar unga nisbatan turlicha fikr bildiradi. Masalan, fuqarolik jamiyati tabiiy huquq va erkinlik asosida mulkka egalik qilish bilan bog‘likligiga doir g‘oyani Jon Lokk, modernizatsiya va o‘z-o‘zini boshqarishni fuqarolik jamiyatining muhim tarkibiy qismi sifatidagi g‘oyani Adam Smit, minimal davlat konsepsiyasini A.Fergyuson, fuqarolik jamiyati va zaruriy yovuzlik sifatidagi davlatning o‘ta chegaralangan roli haqidagi g‘oyani Tomas Peyn, amerikacha demokratiya tahlili g‘oyasini Aleksis de Tokvil, davlat va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni belgilab bergan va fuqarolik jamiyatini davlatdan mustaqil bo‘lishi kerakligi g‘oyasini ilgari surgan Jon Styuart Mill kabi olimlarni misol tariqasida ko‘rsatish mumkin.

Fuqarolik jamiyati g‘oyasiga turlicha tarixiy va metodologik yondashuvlar va sharhlarni butunlay inkor etmagan holda, yangi davrda fuqarolik jamiyatini nazariy konseptuallashuvi jarayoniga katta hissa qo‘shgan Uyg‘onish davrining mashhur olimlardan biri **Nikkolo Makiavelli** (1469–1527-y.) pragmatik va tajribaviy-ijtimoiy fanga asos soldi. Fuqarolik jamiyati Makiavelli uchun sinfiy, partiyaviy qarama-qarshi qiziqishlar majmuyidir. Unga ko‘ra, fuqarolik jamiyati xalqdan axloqiy asoslarni – ezgulik va fazilatni, ijtimoiy manfaatdorlikni, shuningdek, respublika tuzilmasi manfaatlari oldida burchni his qilishni va jasoratli bo‘lishni talab qiladi. Boshqacha qilib aytganda, u erkin individlar uchun munosib birlashmadir. Davlatni himoya qilish uchun

hukmdor qo'lidagi barcha vositalarni ishga solishi kerak bo'ladi: yolg'on, shafqatsizlik, hattoki urush ham bundan mustasno emas. Davlat manfaatlari unda birlamchi ahamiyatni kasb etadi. Makiavelli davlatning mutlaqo mustaqilligini talab qilgan. U cherkovga qarama-qarshi g'oya – davlatning dunyoviyligi tarafdori bo'lgan. Makiavelli davlat boshqaruvining o'ziga xos siyosiy mahorat ko'rsatish uslubi maktabini yaratdi. Unga muvofiq davlat hech qanday axloqiy normalar bilan hisoblashmay, "maqsad har qanday vositani oqlaydi" degan tamoyili asosida axloqiy qadriyatlardan chekinishini oqlab chiqdi.

Lekin Makiavelli qarashlarining bu salbiy jihatlari fuqarolik jamiyati va davlat masalalarini rivojlanish kun tartibiga qo'yganligi bilan yuvilib ketdi. Uning g'oyalari ortidan qator faylasuflar fuqarolik jamiyati konsepsiyasini yanada boyitishga harakat qildilar. Xususan, "So'z erkinligi haqida" (Jon Milton), "Leviafan" (Tomas Gobbs), "Davlat boshqaruvi haqida ikki traktat" (Jon Lokk), "Qonunlar ruhi haqida" (Monteskye), "Ijtimoiy kelishuv haqida" (Jan Jak Russo), "Ilohiy-siyosiy traktat" (Benedikt Spinoza), "Fuqarolik jamiyati tarixi haqida xatlar" (Anri Fergyuson) kabi asarlarda fuqarolik jamiyati nazariyalari shakllandi. Mazkur asarlar u yoki bu darajada inson hayotining o'ziga xos shakli sifatidagi fuqarolik jamiyati muammolarini ilgari surishi bilan birga, shaxs va davlat o'zaro munosabatlari, fuqarolik jamiyatining asosiy subyekti bo'lgan fuqaroning butun salohiyatini yuzaga chiqarish uchun zarur bo'lgan yangi sababiyatlar dalillar sifatida ochib berildi.

Yangi davrning eng muhim siyosiy hodisalaridan biri – bu "fuqarolik jamiyati" g'oyasi o'z tadriji davomida bir qancha konsepsiya va talqinlarni vujudga keltirdi. Biroq u, ko'pincha, "davlat" hodisasiga nisbatan qarama-qarshi qo'yildi. Fuqarolik jamiyatining liberal talqinlari T.Gobbs, J.Lokk va Sh.Monteskye asarlarida namoyon bo'ldi. Ular fuqarolik jamiyati tushunchasi sifatida insoniyatning tarixiy taraqqiyotini aks ettirishga, insonning ibtidoiy usullardan taraqqiy topgan turmush tarziga o'tishini ifodaladi. Inson davlat va tamaddundan bexabar "yovvoyi", "tabiiy" holatda uzluksiz urushlar hamda o'zaro dushmanlik holatida rivojlanib boradi. Bunda tartib-intizom va fuqarolik munosabatlarini ifodalagan rivojlangan jamiyat bilan tabiiy holatdagi sodda (yoki qaysidir ma'noda johil) jamiyatlar bir-birlariga qarama-qarshi qo'yiladi.

Tabiat va insonning jilovlanmagan tabiiy ehtiroslari emas, balki komillik, ya'ni insonning ongli ravishda jamoaviy hayot kechirishga qodirligi jamiyat va inson hayotining tabiiy ibtidosi hisoblanadi.

Fuqarolik jamiyati insonning oziq-ovqat, ust-bosh, boshpanaga bo'lgan asosiy ehtiyojlarini qondirish sharoiti sifatida qabul qilinadi. Insonning kundalik ehtiyojlari qondiriladigan turli (iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy) sohalarning bir-biridan ajralishi va erkinlashuvi jarayoni fuqarolik jamiyati paydo bo'lishiga olib keladi. Ma'lumki, insoniyat rivojlanishining ilk davrida kichik guruhlardan iborat qabilalar (uyushmalar) paydo bo'lib, ular birgalikda oziq-ovqat topish, uy qurish, dushmanlardan himoyalanish, yovvoyi hayvonlardan, tabiiy ofatlardan saqlanish maqsadida birlashadi. Ushbu uyushmalar oila, urug', qabila doirasida tashkil topgan bo'lib, ularni bir butun yaxlit holdagi manfaat, ya'ni tabiatning tirik bir bo'lagi sifatida yashab qolish zaruriyati asosida birlashadi.

Ijtimoiy ishlab chiqarish va mehnat taqsimotining yuksalishi natijasida insonlarning uyushmasi miqdoriy jihatdan o'sib boradi, ular funksional jihatdan rang-baranglashadi va barqarorlashadi. Umumiy manfaat jamiyat a'zolarini bog'lab turuvchi qudratli kuchga aylanadi. Shunga qaramasdan, jamiyatning barcha a'zolari fuqarolik jamiyatini ifoda etgan uyushmalarga a'zo bo'lishlari shart bo'lmagan, ya'ni mustaqil holda yashash imkoniyati ham mavjud bo'ladi. Xususiy mulk va sinflarining paydo bo'lishi bilan jamiyatda tabaqalanish yuz berib, umumiy manfaatlar xususiy va guruhiy manfaatlarga ajrala boshlaydi.

Ingliz ma'rifatchisi va faylasufi **Jon Lokk** (1632–1704-yy.) haqli ravishda huquqiy davlatning atoqli mafkurachilaridan biri hisoblanadi. U o'z g'oyalarini "Davlatni boshqarish haqida ikki traktat" asarida bayon etdi. Uning ta'limotida odamlarning tabiiy holati, fuqarolik jamiyatining shakllanishi va davlatning tashkil topishi muammolari aniqlashtirildi. Lokk huquqiy davlatning bosh unsuri bo'lgan hokimiyatning uchga bo'linishi nazariyasining asoschisi hisoblanadi.

Lokkning xususiy mulk nazariyasi mehnat bilan uzviy bog'liqdir. Odamlar, asosan, o'z mol-mulkidan tinch va xavfsiz foydalanish maqsadida jamiyatga qo'shiladi, bunda mazkur jamiyatda qabul qilingan qonunlar ularning asosiy quroli va vositasi bo'lib xizmat qiladi, deb hisoblaydi. Fuqarolik jamiyatiga birlashish – bu qulay, tinch va farovon hayot kechirish, o'z mol-mulkidan xotirjam tarzda foydalanish va o'zini mazkur jamiyat a'zosi bo'lmagan odamlarga qaraganda xavfsizroq his qilish uchun boshqalar bilan kelishish demakdir. Liberalizm asoschisi Jon Lokk birinchi bo'lib shaxsni jamiyat va davlatdan, erkinlikni boshqa qadriyatlardan ustun qo'ydi. U erkinlikni davlatning aralashuvidan xoli holat sifatida tushundi.

Lokk o'zining "Fuqarolik boshqaruvi haqidagi ikki traktat" deb nomlangan asarida har qanday odam uchun tabiiy (ya'ni sodda, johil, ibtidoiy – muallif izohi) holatni inkor etgan holda fuqarolik jamiyati talablari darajasiga yetish uchun yagona yo'l – bu boshqalar bilan kelishgan holda ijtimoiy birlikka qo'shilish yoki birlashishdan iborat ekanligi g'oyasini ilgari suradi.

Fuqarolik jamiyati tushunchasining liberal talqini, yuqorida aytib o'tganimizdek, Tomas Gobbs va Jon Lokk davrida yaratilgan. Ular "fuqarolik jamiyati" tushunchasini kishilik jamiyatining tarixiy rivojlanishi, insonning tabiiy mavjudlikdan ma'rifatli hayot tarziga o'tishini aks ettirishni ifodalaydigan tushuncha sifatida ilmiy muomalaga olib kirdi.

Tomas Gobbs ijtimoiy holatga davlat mavjud bo'lgan holda erishish mumkin, deb hisobladi. U davlat bo'lmagan joyda urush, qo'rquv, qashshoqlik, yolg'izlik, yovvoyilik, jaholat bo'lishini, davlat hukm surgan joyda oqilonalik, xavfsizlik, boylik, tartib, bilim va olijanoblik hukm surishini dalillar bilan isbotlab beradi.

Tomas Gobbs antik davr mutafakkirlariga (Platon, Aristotel) ergashib, jamiyat va davlat tushunchalarini bir-biriga tenglashtiradi. U davlat, fuqarolik jamiyati va fuqaroviy shaxs tushunchalari o'rtasiga tenglik belgisini qo'yadi. Biroq u, ayni vaqtda, agar davlat fuqarolardan iborat bo'ladi deyilsa, bu har qanday fuqaro ham davlat hisoblanishini anglatmasligini qayd etadi. Muayyan xo'jalik, savdo va tijorat ishlarini olib borish uchun a'zolari hamjamiyat (ya'ni davlat) xohish-irodasiga to'la bo'ysunmagan birlashmalar, kompaniyalar, ya'ni "fuqaroviy shaxslar" tashkil etilishi mumkin. Ayni vaqtda, bunday fuqaroviy shaxslar (yoki shirkatlar) faqat qonunlarga bo'ysunadi. Mazkur mantiqiy holatni "fuqarolik jamiyati" tushunchasiga nisbatan ham tatbiq etish mumkin.

Fransuz mutafakkiri J.J.Russo qarashlarining asosida ijtimoiy shartnoma nazariyasi yotgan bo'lib, unda inson, jamiyat va davlat munosabatlari atroflicha tahlil etiladi. Russo o'z davrida ro'y bergan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni tahlil qilar ekan, kishilar o'z salohiyatlarini birlashtirgan holda hukmron sinfga qarshi tura olishlari mumkinligini, ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish mumkinligiga alohida urg'u beradi.

Uning fikricha, kishilar tabiiy holatda yashab qolishlariga qarshi ta'sir kuchli bo'lganligi tufayli ular o'z hayot tarzlarini o'zgartirishga majburdirlar. Ular yangi kuchni vujudga keltira olmas ekan, faqatgina

mavjud kuchni birlashtirish va yo'naltirish bilan o'zlarini saqlab qolishi, boshqalar bilan birlashgan holda umummanfaat yo'lida harakat qilishi mumkin bo'lgan kuchlar birligini hosil qilishlari mumkin.

Ayni vaqtda, Russo bunday birlashgan kuchni hosil qilish uchun o'z foydasidan jamoa manfaati yo'lida voz kechgan insonning eng asosiy boyligi bo'lgan erkinlikni qanday saqlab qolishi haqida ham bosh qotiradi. Bunga javob topar ekan, "uyushmaning shunday shaklini topish kerakki, unda mujassaam bo'lgan qudrat uyushma a'zolarining shaxsi va mulkini himoyalashi va asrashi, shu tufayli barcha bilan birlashgan har bir kishi ko'pchilikka bo'ysunadi va ayni vaqtda, ilgarigidek erkin bo'lib qolaveradi. Ijtimoiy shartnoma bajaradigan asosiy vazifa ana shudir", deya o'z fikrini yakunlaydi.

Russoning g'oyalari ijtimoiy shartnoma natijasida ijtimoiy birlik qay tarzda shakllanishiga qaratildi: "Agar har birimiz o'z shaxsiyatimiz va bor kuchimizni umumjamoa va uning oliy irodasiga topshirar ekanmiz, natijada barchamiz uchun har birimiz yagona butunlikning ajralmas qismiga aylanamiz".

Fuqarolik jamiyatini chuqur talqin etgan mashhur olimlardan biri Sh.L. de Monteskyedir (1689–1755-yy.). Uning asosiy g'oyalaridan biri hokimiyatning uchga bo'linishi prinsipidir. U o'zining "Qonunlar ruhi" nomli asarida davlatni fuqarolik jamiyati sharoitida fuqarolarning o'zaro adovatlarini bartaraf etishga qaratilgan jamaotchilik kelishuvining natijasi sifatida ko'rib chiqadi. U ushbu ikki tushunchaga aniqlik kiritadi va ularning har ikkisining o'ziga xos qonunlari (fuqarolik va davlat) bo'lib, o'zining ta'sir doirasiga egadir. Demak, fuqarolik jamiyati fuqarolarning o'zaro munosabatlarini boshqarsa (shu bilan birga, xususiy mulkka egalik qilishni), davlat esa insonlarning siyosiy huquqlari va erkinligini ta'minlaydi. Bu borada u o'zining yuqorida qayd etilgan asarida quyidagilarni yozadi: "Fuqaro uchun erkinlik o'z xavfsizligi borasida ishonchga asoslangan ruhiy xotirjamlikdir. Bunday xotirjamlikka erishish uchun shunday boshqaruv bo'lishi kerakki, bu holatda bir fuqaro boshqa fuqarodan qo'rqmasin". Fuqarolik jamiyati sharoitida qonunlarning hayotda amal qilishiga urg'u bergan olim "men biror mamlakatga borsam, u yerda yaxshi qonunlar mavjudligi bilan emas, balki qonunlarga qanday itoat etilayotganligi bilan qiziqaman...", deb yozgan edi.

Davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi munosabatlar shartnoma asosiga quriladi. O'z mohiyatiga ko'ra, bu munosabatlar taraqqiy topgan, negaki davlat va fuqarolik jamiyati birgalikda, individlarning hayot

faoliyatini ta'minlash va insonning asosiy ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoit yaratadi. Davlat insonlarning asosiy huquqlarini himoyalaydi, hokimiyat yordamida tabiiy dushmanlikni chegaralaydi, o'z yaqinlari va qondoshlari hayotiga nisbatan bo'ladigan tahdidlarni, o'z moddiy boyligidan xavotirlikni bartaraf etadi; fuqarolik jamiyati bo'lsa, hokimiyatni jilovlab turadi.

Fuqarolik jamiyati to'g'risidagi A.Fergyussonning qarashlari ham juda muhimligi bilan ajralib turadi. Ko'pchilik olimlar fikricha, "fuqarolik jamiyati" tushunchasini dastlab A.Fergyusson qo'llagan. Unga ko'ra "shaxslarning baxti fuqarolik jamiyatining asosiy maqsadidir: a'zolarining har biri baxtsiz bo'lgan jamiyat qanday farovonlikka erisha oladi?". Jamiyatning baxtini diniy nuqtayi nazardan talqin etishda uning diniy tahsil olganligi ta'sir qilgan bo'lishi mumkin. Uning fuqarolik jamiyati borasidagi asosiy qarashlari 1767-yilda yozilgan "Fuqarolik jamiyatining tarixiy tajribasi" deb nomlangan asarida mujassamlashgan bo'lib, unda o'sha vaqtda shakllangan jamiyat, ya'ni tijoriy munosabatlarga asoslangan jamiyat axloqiy nuqtayi nazardan tanqid qilindi.

Fergyusson fikricha, insonning jamoa bo'lib yashashga bo'lgan azaliy moyilligi uning qo'pol yoki sodda holatdan chiqib, tamadduniy rivojlanganligini namoyon etadi. Ayni vaqtda, bu taraqqiyot insonning axloqiy xususiyatlari takomiliga mos kelmaydi, bu yerda ijtimoiy jarayonda o'ziga xos tarzda orqaga chekinish kuzatiladi. Tamadduniy jarayon ijtimoiy munosabatlar va institutlarni qoliplashtirish, millatlarning boyligini ko'paytirish bilan odamlarni jamiyatdan ajralishiga imkon yaratadi, ular fuqarolik hissini yo'qotishadi. Bunday teskari harakat korrupsiyaga olib keladi.

Fegryusson o'z ta'limotida insonning axloqiy qarashlarini birinchi o'ringa olib chiqadi. U J.J.Russoning tabiiy holat borasidagi fikrlariga qarshi chiqar ekan, insonning jamiyat ichida tug'ilishi va jamiyat ichida qolishi to'g'risidagi Sh.Monteskye fikriga to'liq qo'shiladi. U insondagi xudbinlikni qoralar ekan, o'ta xudbin inson ijtimoiy faoliyat yuritishi mumkin emasligini ta'kidlaydi.

Ommaviy faoliyat yuritish insonga xos bo'lgan eng ulug' xususiyat bo'lib, insoniyat baxti eng ulug' maqsad, jamiyat ichida yashash qobiliyati eng ulug' qobiliyatdir. Fergyusson fikriga ko'ra, inson faoliyatining ikki turi mavjud: egoistik (xudbinlik) va ijtimoiy. Birinchisi yopiqlik, raqobat va dushmanlik hissiga yaqin bo'lsa, ikkinchisi jamiyat ichida yashash, insonlarni birlashtirishga xizmat qiladi.

Inson jamiyat a'zosi sifatida bir butunlikning qismi bo'lib, aslida, u o'ziga tegishli emas. U jamiyat farovonligi yo'liga to'sqinlik qiladigan har qanday erkinlik va baxtdan voz kechishi kerak. Ko'rinib turganidek, A.Fergyusson fuqarolik jamiyatiga erishishda jamiyatning taraqqiy topganligi emas, balki insonning axloqiy tarbiyasi muhim o'rin tutishiga e'tibor qaratmoqda.

Fuqarolik jamiyatini tahlil qilishga nisbatan boshqa bir yondashuvni G.Gegel (1770–1831-yy.) taklif etgan edi. U fuqarolik jamiyatiga o'z kundalik ehtiyojlarini mehnat yordamida qondiruvchi individlar majmui deb qaraydi. Uning fikriga ko'ra, fuqarolik jamiyatining negizini xususiy mulk tashkil etadi. Gegel fikricha, tarixiy jarayonni harakatlantiruvchi kuch sifatida fuqarolik jamiyati emas, balki davlat namoyon bo'ladi, u barcha fazilatlarni o'zida mujassamlashtiradi, inson shaxsi, umumiy siyosiy, moddiy va ma'naviy asoslarning jamuljam ifodasi hisoblanadi. Davlat insonni har xil tasodiflardan himoya qiladi, adolatni ta'minlaydi, umumiy manfaatlarni ro'yobga chiqaradi.

Davlat, oila, qabila, millat, diniy va boshqa birliklardan farqlanuvchi "fuqarolik jamiyati" kategoriyasi XVIII–XIX asrlarda tadqiqot predmetiga aylandi. Gegel o'zining "Huquq falsafasi" asarida fuqarolik jamiyati tushunchasini atroflicha o'rgandi va unga shaxslarning ehtiyoji va mehnat taqsimoti tizimi, adliya (huquqiy muassasalar va huquqiy tartibot), tashqi tartib (politsiya va korporatsiyalar) orqali aloqalari (munosabatlarga kirishishi) sifatida ta'rif berdi. O'sha davr jamiyati va davlatiga nisbatan Gegelning qarashlari eskirganligiga qaramay, uning fuqarolik jamiyatining davlatga nisbatan mustaqil bo'lgan shaxsiy manfaatlar jabhasi, ijtimoiy tuzum, mehnat taqsimoti va mulk shakllariga bog'liq ekanligi haqidagi fikrlari ijtimoiy fanlarning rivojlanish yo'lida tashlangan muhim qadam bo'ldi.

Gegel fikricha, fuqarolik jamiyati – bu, avvalo, xususiy mulkka asoslangan ehtiyojlar tizimi, shuningdek, din, oila, tabaqalar, davlat qurilishi, huquq, axloq, burch, madaniyat, maorif, qonunlar va ulardan kelib chiquvchi subyektlarning o'zaro yuridik aloqalaridir. Tabiiy, "nomadaniy" holatdan "odamlar fuqarolik jamiyatiga kirishlari lozim, chunki faqat shu jamiyatda huquqiy munosabatlar haqiqiy xususiyat kasb etadi". Ayni vaqtda, Gegel bunday jamiyat faqat "hozirgi dunyoda" mavjud bo'lishi mumkinligini qayd etadi. Boshqacha aytganda, fuqarolik jamiyati yovvoyilik, qoloqlik, ma'rifatsizlikka qarshi qo'yiladi.

Gegel fuqarolik jamiyati oiladan boshlanib to davlatga qadar dialektik harakatlanuvchi alohida bosqich – uzoq tarixiy davr davomida

O‘rta asrdan to Yangi davrgacha transformatsiyalashib kelgan tushunchadir. U fuqarolik jamiyati va davlatni aralashtirib yuboruvchi o‘sha davrda hukmron bo‘lgan tabiiy huquq nazariyasini tanqid qiladi. Uning fikricha, ijtimoiylik xususiyatiga asoslanuvchi fuqarolik jamiyati, oilaning axloqiy va davlatning ommaviy hayotidan mutlaqo farqlanadi. U adolatli qonunlar va odil sudlarni fuqarolik jamiyatining tarkibiy qismlari deb hisoblaydi.

Fuqarolik jamiyatini o‘z mehnati bilan kundalik ehtiyojlarini qondiradigan individlarning majmuasi sifatida tasavvur etgan Gegelning yondashuvi o‘zgacha bir an’anani namoyon etdi. Unga ko‘ra, xususiy mulk fuqarolik jamiyatining negizini tashkil etadi. Kishilar, avvalo, xususiy manfaatlarga asoslangan holda harakat qiladi, ammo ular bir-birlari bilan bog‘liq bo‘lganliklari tufayli ular o‘rtasida ijtimoiy aloqa o‘rnatiladi. Fuqarolik jamiyati xususiy mulkka asoslangan ijtimoiy tuzilma sifatida bozor munosabatlari tizimini, oila va davlat orasida joylashgan jamiyatning hayotiyligini, fuqarolik huquqlarini ta’minlaydigan oraliq shaklini ifoda etadi.

Gegel fuqarolik jamiyatiga ta’rif berar ekan, unda xususiy mulkning birlamchiligiga alohida urg‘u beradi. Unga ko‘ra, avvalo, xususiy mulkchilikka asoslangan ehtiyojlar tizimi, shuningdek, din, ijtimoiy qatlamlar, oila, axloq, burch, madaniyat, ta’lim, qonunlar fuqarolik jamiyatini tashkil etadi.

Asli irlandiyalik bo‘lgan ingliz mutafakkiri, davlat arbobi Edmund Byork (1729–1797-yy.) konservatizm mafkurasining haqiqiy asoschisi hisoblanadi. Byorkning siyosiy risolasi – “Fransuz inqilobi haqida o‘ylar” (1790) asari konservatizm mafkurasining mohiyati va o‘ziga xosligini ochib berdi.

Byorkning fikricha, jamiyatning me’yordagidek faoliyat olib borishida an’analar, axloq hamda odatlar, did va insonlar ehtiyojlarining tarixiy rivojlanish jarayonida o‘zgarib boradi. Uningcha, jamiyatda mavjud munosabatlar umuman boshqa yo‘l bilan o‘rnatiladi: oila qurish, qarindoshlik munosabatlari, biror millatga mansublik orqali amalga oshiriladi. Byork tarixiylik asosida faoliyat yuritadigan siyosiy institutlar legitimlikni ta’minlashi mumkin, u yoki bu institutning uzoq mavjud bo‘lishi xalqning xarakteri va e’tiqodiga mos kelishiga bog‘liq bo‘lib, aynan shu narsa fuqarolik jamiyati uchun ham zarur, deb yozgan edi.

Fuqarolik jamiyati rivoji ajdodlar an’analariga bog‘liq bo‘lib, agar u tarixiy doiradan chiqib ketsa, u butun ijtimoiy organizmning halokatiga olib keladi. O‘tmishni asrash kelajak avlodning axloqiy burchidir.

Byorkga fikriga ko'ra, siyosiy tizim va jamiyat faoliyati bir butunlik holida barqaror va doimiy harakatda bo'lishi kerak. Ushbu holat tadrijiy jarayonlarga hamohang ravishda davlatning siyosiy hamda ijtimoiy institutlarini xalqning xarakteri va axloqiga moslashishini anglatadi. E.Byork *siyosatda tarixning rolini o'rganishga* asosiy diqqatini qaratdi. Uning qarashlariga ko'ra, tarix siyosatni belgilashda asosiy manba hisoblanadi. Oila, jamoa va cherkov kabi ijtimoiy institutlar tarixiy qadr-qimmatga egadir. Ma'rifatparvarlik davrida bir qator mahalliy an'analarning unutilishi ro'y berdi. Shuning uchun Byork o'z *davrining ijtimoiy-siyosiy qarashlarini an'analar va tarixiy amaliyotga* qaratishga harakat qildi.

Byork ko'plab ijtimoiy-siyosiy hodisalar, inson tabiati, fuqarolik jamiyati va siyosiy hokimiyatga nisbatan yangicha yondashuvlarga asos soldi. Xalqlarning taqdirini tarixiy an'analar bilan bog'liq ekanligini *asoslab berdi.*

Davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi o'zaro munosabatlar jamiyatning komilligiga bog'liq: agar fuqarolik jamiyati sodda va tarqoq bo'lsa, davlat uning "tashqi ko'rinishi"ni ifoda etadi, xolos. Jamiyat johil bo'lsa, davlat fuqarolik jamiyatini barbod etgan holda o'z hokimiyatini *mutlaqlashtirish yo'lidan borishi mumkin. G'arb tajribasidan ma'lum* bo'lishicha, komillikka yetgan fuqarolik jamiyati sharoitida davlat jamiyat bilan o'z munosabatlarini muvozanatlashga majbur bo'ladi.

Davlat insonni turli tasodiflardan himoyalagan holda adolatni ta'minlaydi va umumiy manfaatlarni amalga oshiradi. Fuqarolik jamiyati va shaxs davlatga bo'ysundirilgan. Zero, aynan davlat *alohida guruhlar* va individlar hayotiga mazmun bag'ishlagan holda ularni bir butunlikka jamlaydi. Ayni vaqtda, keng qamrovli davlatning mavjudligi xavfli bo'lib, u fuqarolik jamiyatini "yutib" yuborgan holda fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlashga intilmaydi.

Fuqarolik jamiyatini konseptual tushunishga Immanuil Kant (1724–1804-yy.) ham katta hissa qo'shdi. Kant fuqarolik jamiyatini butun *insoniyat uyi* deb bildi. Bu jamiyatda har bir inson hatti-harakati oliy axloqiy qonun – qat'iy imperativ bilan belgilanadi. Uning fikricha, fuqarolik jamiyati mavjud qonunlar doirasida hech kim tomonidan cheklanmaydigan intilish, tamoyillarining erkinlik bilan uyg'unligi, boshqacha aytganda, fuqarolarga mos bo'lgan jamiyatdir.

Ijtimoiy hayotga oid turli sohalarning vujudga kelishi individ faoliyatining rang-baranglashuvi va ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi jarayonini ifoda etadi. Ijtimoiy aloqalarning turlichaligi

hokimiyatga tobe bo‘lmagan va boshqa individlar bilan ongli ravishda, oqilona munosabatlar o‘rnatishga qodir fuqarolik ongiga ega bo‘lgan mustaqil shaxsning shakllanishi natijasi hisoblanadi.

Kantning fikricha, mutlaq monarxiya fuqarolik jamiyati bilan umuman mutanosib bo‘la olmaydi va u fuqarolarning erkin boshqaruvi shakliga mos kelmaydi. Bundan tashqari, u xususiy mulk mustaqil individning namoyon bo‘lishi jarayoni negizida yotishini, aynan xususiy mulk inson siyosiy mustaqilligi va erkinligining iqtisodiy asosi ekanligini uqtiradi.

Immanuil Kant o‘zining “Butunjahon fuqarolikda umumiy tarix g‘oyasi” asarida fuqarolik jamiyati sifatida davlat tuzilishini butun insoniyat ongiga qanday qilib singdirish mumkin degan muammolarni qo‘yadi. Buning maqsadga muvofiqligini tabiatning o‘zi taqozo etadi. Chunki aynan shunday jamiyatda uning fuqarolariga buyuk erkinlik beriladi va bunda ziddiyatlar ham mavjud bo‘lishi mumkin. Har qalay, erkinlikni aniq ta’riflash va uni boshqalarniki bilan o‘zaro mutanosibligini ta’minlash, insoniyatning barcha sir-sinoatini ochib berish tabiatning eng oliy maqsadidir[14].

Ijtimoiy fanlarda uzoq vaqtlardan beri davlat va fuqarolik jamiyati bir-biridan ajratilmasdan, yaxlit yoki sinonim tarzida qo‘llanilib kelindi. Biroq jamiyatdagi turli sohalar bir-biridan ajralib, davlatning qattiq nazoratidan ozod bo‘la boshladi, o‘z huquq va erkinliklariga ega bo‘lgan mustaqil shaxs alohida ahamiyat kasb eta boshlagan davr, ya’ni XVII asrga kelib tarixiy taraqqiyotdagi ikki tamoyilni muvozanatlashtirish dolzarb ahamiyatga ega bo‘ldi. Bir tarafdan, shaxsning mustaqillik va erkinlikka intilishi, natijada ijtimoiy taraqqiyotda tartibsizlik va ixtiyoriy jarayonlarning kuchayishi ijtimoiy fanlarda fuqarolik jamiyati tushunchasini ifoda etgan bo‘lsa, ikkinchi tarafdan ijtimoiy munosabatlarda muntazam murakkablashib boruvchi tartibsizliklar, nizolarni bartaraf etish va tartibga solish, butunlikni saqlash davlat tushunchasini ifoda etdi. Davlat va fuqarolik jamiyati ko‘pgina hollarda bir-biriga qarama-qarshi qo‘yildi. Shuningdek, ijtimoiy fanlardagi talqinga binoan, fuqarolik jamiyati hokimiyatga aloqador bo‘lmagan aloqalar va tuzilmalarning ko‘p pog‘onali va murakkab tizimi, degan qarashlar ham shakllandi.

3. Fuqarolik jamiyati to‘g‘risidagi zamonaviy konsepsiyalar

XX asrga kelib jamiyat tizimidagi o‘zgarishlar – erkin bozor iqtisodiyoti, parlamentar demokratiya va huquqiy davlat, ijtimoiy va siyosiy sohalar o‘rtasidagi bo‘linish jarayonlari fuqarolik jamiyatini tushunishda yangi yondashuv va konsepsiyalarining paydo bo‘lishiga olib keldi.

Formatsion yondashuv	Sivilizatsion yondashuv	Modernizatsiyaviy yondashuv
Fuqarolik jamiyati tushunchasi kapita-listik tizimga bog‘lanadi va keng (ya’ni jamiyatning shakli sifatida) va tor (ya’ni iqtisodiy va siyosiy munosabatlar o‘rtasidagi shaklla-nadigan muayyan ijtimoiy tashkilotlar majmuasi sifatida) ma’nolarda tushuniladi.	Fuqarolik jamiyatini sivilizatsiya tarraqqiyoti kontekstida ko‘rib chiqadi. Uning nazariy asoslarini O.Shpengler, A.Toynbi va P.Sorokin asrarlarida yaratilgan. Ularning fikri-ga qaraganda, fuqarolik jamiyati boshqa ijtimoiy shakllardan avvalo yuksak sivilizatsiya darajasi bilan ajralib turadi. Uning asosiy mezoni sifatida esa inson, uning erkinligi, rivojlanish va ijodiylik imkoniyatlari, shuningdek, boshqa insonlar bilan tinchlik va totuvlikda yashash qobiliyatlari tan olinadi	Modernizatsiya konsepsiyalarida (A.Turen, Y.Xaber-mas, E.Giddens, Z.Bauman va b.) fuqarolik jamiyati an’anaviy jamiyat o‘rnini egallagan yoki zamonaviy jamiyatga xos bo‘lgan belgilarni shakllantiradigan jamiyati tushuniladi.

2.1. jadval. Fuqarolik jamiyatining zamonaviy konsepsiyalarining asosiy yondashuvlari

XX asr boshlaridan fuqarolik jamiyati sohasida amalga oshirilgan tadqiqotlar “fuqarolik jamiyati” kategoriyasining funksional tavsiflarini tushunish murakkablashdi. Buning sababi fuqarolik jamiyati tushunchasini tadqiq etishda fuqarolarning ijtimoiy hayotida dolzarb talablarini aks ettiruvchi yangi mezonlarning kiritilganligida bo‘ldi. Shu tariqa fuqarolik jamiyati haqidagi tasavvurlar rivojini tizimlashtirish quyidagi shakllarda yuz berdi: birinchidan, ularning ijtimoiy-falsafiy asoslari tasniflari bilan, ikkinchidan, mafkuraviy asoslarning xususiyatlariga ko‘ra, uchinchidan, fuqarolik jamiyatining sof ilmiy konsepsiyalarini aniqlash bilan belgilandi.

Biroq fuqarolik jamiyati modeli dastlabki tayanch ijtimoiy-falsafiy nazariyalar va konsepsiyalarini ikki guruhga bo'lish rusumga kirdi:

- formatsion va sivilizatsion yondashuvlar;
- modernizatsiya va postmodernizm konsepsiyasi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda fuqarolik jamiyatining quyidagi g'oyaviy-falsafiy doktrinalari ishlab chiqildi:

- "byurokratik davlat sotsializmi doktrinasi";
- "avtoritar davlat kapitalizmi doktrinasi";
- "demokratik sotsializm doktrinasi";
- liberal-demokratik ("bozor demokratiyasi").

Byurokratik davlat sotsializmi uchun fuqarolik jamiyati – bu burjua, kapitalistik jamiyat, u xususiy mulkka va yollanma mehnatga asoslanadi. Byurokratik-davlat sotsializmi tarafdorlari fuqarolik jamiyatini ijtimoiy notenglik va jamiyatda kuchayib borayotgan keskinlik sababi, deb biladi.

Avtoritar-davlat kapitalizmi fuqarolik jamiyatini xususiy biznes, oilaviy-qarindoshlik va boshqa nodavlat munosabatlar sohasi bo'lib, u o'zida kapitalistik davlatning ijtimoiy-iqtisodiy bazasini mujassam qiladi, deb hisoblaydi.

Demokratik sotsializm konsepsiyasi tarafdorlariga ko'ra, fuqarolik jamiyati – bu ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar va institutlar majmuyi, u demokratik davlat bilan birga ijtimoiy (iqtisodiy, siyosiy va hokazo) demokratiya asosini tashkil qiladi.

"Bozor demokratiyasi" nazariyotchilari fuqarolik jamiyatini bozor demokratiyasi jamiyatiga o'xshash insoniy birlik deb biladi. Ular fikricha, fuqarolik jamiyati iqtisodiy jamiyat bo'lib, iqtisodiy hayotni boshqarish imkoniyatlarida cheklangan va ular ijtimoiy birlashmalar va harakatlar tomonidan nazorat qilinadi.

Shunday qilib, fuqarolik jamiyati g'oyasining qayta jonlanishida jamiyatni davlatlashtirishga, jamiyat hayotida davlat roli va ta'sirining favqulodda o'sishiga qarshi qarashlar ham shakllandi. Ch.Teylor, E.Arato, R.Dvorkin va boshqa tadqiqotchilardan iborat bo'lgan o'ziga xos normativ diskurs ham shakllandi. Shuningdek, jamiyatning nodavlat sohasining ijtimoiy-siyosiy faolligi va o'z-o'zini tashkillashtirishning ahamiyati bog'liq bo'lgan muhim quyidagi konsepsiyalar ham shakllandi:

- liberal an'ana konsepsiyasi;
- amerikacha kommunitarizm konsepsiyasi;
- yevropacha neokonservatizm konsepsiyasi;
- post-markscha konsepsiya.

Fuqarolik jamiyatining liberal an'ana g'oyasi, umuman olganda, yangilik emas. Fuqarolik jamiyati haqidagi dastlabki tasavvurlar mumtoz ingliz liberalizmi davridayoq ishlab chiqilgan edi.

Fuqarolik jamiyati konsepsiyasining amerikacha madaniy va tarixiy o'zagida "respublikachilik" g'oyasi yotadi. U XX asrdagi o'zini o'zi boshqarish va o'zini o'zi ijtimoiy uyushtirishga asoslangan teng huquqli fuqarolar tomonidan tashkil etilgan amerika kommunalari, ya'ni lokal birlashmalarining uyg'un va faollikdagi ijtimoiy-siyosiy hayoti haqidagi tasavvurlarga asoslandi.

Avtoritar-burjua doktrinasi ("davlat kapitalizmi" doktrinasi)

Liberal-demokratik doktrina ("bozor demokratiyasi" doktrinasi)

Fuqarolik jamiyati zamonaviy konsepsiyasining mafkuraviy modellari

Avtoritar-sotsialistik doktrina ("davlat byurokratik sotsializmi" doktrinasi) Sotsial-demokratik doktrina ("demokratik sotsializm" va "sotsialistik fuqarolik jamiyati" konsepsiyasi).

Mazkur kommunalar o'zini o'zi uyushtirishi fuqarolik jamiyati turi sifatida qo'llab-quvvatlangan. Bu to'g'risida batafsil axborotlar A. de Tokvil asarlarida keltirilgan. Bunda demokratik madaniyat kommunal o'zaro hamkorlik va sherikchilik, shuningdek, xristian axloq qadriyatlarining yuqori darajada namoyon bo'lishi bilan boshqalardan farqlanadi. Shu bilan birga, bu kommunitaristik loyihalarga binoan jamoaviy qadriyatlar individual qadriyatlardan ustun bo'lib, individlar o'zaro ishonch va hamkorlik muhitida o'z qiziqishlarini uyushma qiziqishlariga bo'ysundirishga tayyor turadi.

Turli manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, mumtoz marksizm zamonaviy diskursning alohida konseptual yo'nalishi sifatida fuqarolik jamiyatining kelib chiqishini, jamiyatning feodal-aristokratik va paternalistik tizimi o'rniga kommersiya kapitalizmi davridagi iqtisodiy partikulyarizm bilan bog'laydi. Biroq Marks unda individual erkinlik va avtonomiyani emas, sinfiy jamiyatda obyektiv mavjud bo'lgan notenglikni, erksizlik va ijtimoiy-iqtisodiy begonalashuvni berkitib turuvchi niqobni, ya'ni uning tashqi shaklini ko'rgan, xolos.

Keyinroq postmarksistik loyiha doirasidagi nazariyotchilar, fuqarolik jamiyati g'oyasini qaytadan ko'rib chiqishga urindi. Shu tariqa, postmarksistik tushunishga binoan u quyidagicha asoslanadi: fuqarolik jamiyati "oxirgi vaqtlarda paydo bo'layotgan, jamiyatning erkin

ixtiyoriy assotsiatsiyalari, shuningdek, huquqiy va ommaviy institutlari doirasida yuzaga kelgan jamoaviylikning nomumtoz shakllari, nafaqat davlat tizimi doirasidan, balki kapitalistik bozor iqtisodiyoti chegarasidan ham chiqib ketayotgan ijtimoiy birliklar"dir. Bu kabi qarash markazida, birinchidan, davlat-byurokratik mashinasining "umumiy manfaatlar davlati" sharoitida, ta'sir doirasining kengayib borishi, ikkinchidan, transmilliy koorporatsiyalar va globallashuv davrining markazlashgan iqtisodiyotini jamiyatga xavf tug'dirishi g'oyasi turadi.

Fuqarolik jamiyatining zamonaviy konsepsiyalarini tahlil etish shuni ko'rsatadiki, ularda mazkur fenomenning ontologik va gnoseologik jihatlariga nisbatan ijtimoiy qarashlarning xilma-xilligini ko'ramiz. Shuni ta'kidlash o'rinliki, fuqarolik jamiyatining zamonaviy konsepsiyalari ijtimoiy muammolar tahlilining tizimli mezonlarini ishlab chiqqanligi va ilmiy hamjamiyat oldiga muhim va zaruriy konseptual va amaliy yechimlarni talab qilayotgan yangi masalalarni ko'ndalang qilib qo'yganligi muhim ahamiyat kasb etadi. XX asr nafaqat texnik taraqqiyot, balki tizimli fikrlashning shakllanishi va hukmronligi davri bo'lganligini ham nazardan qochirmaslik lozim.



Aynan shu davrdan boshlab fuqarolik jamiyati ijtimoiy borliqning tizimli tahlili obyekti sifatida o'rganila boshlanadi. Bu, albatta, bugun olimlar va faylasuflarga zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni nafaqat modellashtirish imkoniyatini beradi, balki ularning istqboli haqida aniq tasavvurlarni shakllantiradi. Hozirgi davrga kelib ham fuqarolik jamiyatini o'rganish masalalarida qator muammolar o'z yechimini topgani yo'q: fuqarolik jamiyatining davlat va jamiyat dixotomiyasi yoki o'zaro sherikligining chegarasi, fuqarolik jamiyati institutlarining individ shaxsiy hayotiga dahl qilishi chegarasi qayerda, fuqarolik jamiyatini tushunishning tayanch asoslari, fuqarolik jamiyatini tushunishning universal yondashuvlari hali takomillashmaganligi kabilarni keltirish mumkin.

Shu bilan birga, fuqarolik jamiyati haqidagi g'oyalar va tasavvurlar genezisi mazkur fenomenni antik va o'rta asrlarda – davlat manfaatlari va albatta, turli xususiy manfaatlar ustuvorligi ostida tadqiq etilganligidan dalolat beradi. Antik va o'rta asrlar olimlari ijodida davlat instituti jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni boshqarib turgan bosh institut sanalgan. Mazkur jihat insoniyat rivojining dastlabki bosqichida, davlat va jamiyat o'zaro hamkorligi va dixotomiyasi borasidagi konsepsiyalar yo'qligining asosiy sababi hisoblanadi.

Fuqarolik jamiyati konseptual diskursining antik paradigmasi – bu *fuqaroning ijtimoiy boshqaruv sohasidagi roli* va o'rnini aniqlashdan iborat bo'ldi. Agar ulardan ba'zilari, fuqarolar davlatdan muayyan darajada avtonomdir (Aristotel), degan g'oyani ilgari surgan bo'lsa, boshqalari davlat boshliqlarini fuqaro va jamiyat hayotini muvofiqlashtirishga da'vat etgan (Platon). Ularning har biri imkoni boricha ideal davlat qurilmasini ishlab chiqishga harakat qildi. Aynan shu jihat fuqarolik jamiyatiga doir keyingi konseptual ishlanmalarning turli talqinlari va yondashuvlarni keltirib chiqardi.

O'rta asr mutafakkirlarining antik davr olimlaridan farqi shundaki, ular ijtimoiy munosabatlarni davlat va jamiyat munosabatlari, shuningdek, ilohiy tavsifga ega, degan qarashlar nuqtayi nazaridan talqin etadi. Antik falsafa esa, ijtimoiy munosabatlarni turli ranglarda ko'rib chiqadi, shu nuqtayi nazardan fuqarolik jamiyatining diniy paradigmasi o'rta asrlarda shakllana boshlagan deyishga asos beradi.

Sharq mutafakkirlarining fuqarolik jamiyatini konseptual tushunishidagi o'ziga xos jihatlar – ularning mazkur fenomenga oid talqinlari insoniy fazilat, ma'rifat va o'zaro mas'uliyat tushunchalari orqali amalga oshirilganligidadir. Bunda ijtimoiy-falsafiy fikr o'z diqqatini davlat boshqaruvchilari va jamiyat a'zolari o'rtasidagi munosabatlarning axloqiy-estetik jihatlariga qaratdi.

Yangi davrda jamiyatdagi davlat roli masalasini yangicha anglash boshlanadi: agar antik davr va o'rta asrlarda ijtimoiy-falsafiy fikr davlat ustuvorligiga qaratilgan bo'lsa, bu davrga kelib, mazkur nisbatda inson (fuqaro) fenomeni, o'z huquqlari, ehtiyoji va manfaatlari bilan birgalikda ustuvor ahamiyat kasb eta boshladi. Davlat faqat mana shu manfaatlarni mavjud bo'lgan qonuniy tizim doirasida amalga oshirilishini ta'minlovchi institut sifatida gavdalana boshlandi.

Yangi davr ijtimoiy-falsafiy tafakkurining asosiy yutug'i – bu davlat va jamiyat tushunchalarini bir-biridan ajratganligida, uning natijasida fuqarolik jamiyatini tushunishda klassik paradigmaning shakllanishiga

asos bo'lganligida ko'rindi. Bu, o'z navbatida, "davlat – fuqarolik jamiyati" dixotomiyasi kuzatiladigan konsepsiyalarning shakllanishiga olib keldi. Dastlab yangi davr mutafakkirlari davlat va jamiyat manfaatlarini turlicha bo'lishiga o'z diqqat-e'tiborini qaratdi. Bunda davlat qonun ustuvorligiga tayansa, jamiyat esa xususiy mulkka tayanishi g'oyasini ilgari surildi. Fuqarolik jamiyati haqidagi konseptual diskursning asosiy muammolari sifatida "davlatning roli va davlat hamda jamiyat o'zaro munosabatlarining mezonlari qanday (axloqiy ideal va amaldagi siyosat nisbati mezonlari) bo'ladi?" degan savol paydo bo'ldi.

Fuqarolik jamiyati fenomenining konseptual jihatdan qayta tushunishda kuzatilgan jiddiy o'zgarishlar yuz berganiga qaramay, ilmiy nuqtayi nazarlarni o'rganish asosida yangi davr mutafakkirlarining qarashlari g'oyaviy asoslardan mahrum emasligi aniqlandi. Bu holat esa, o'z navbatida, fuqarolik jamiyati mazmun va mohiyatini tushunishda subyektivizmning kuchayishiga olib keldi. Bu jarayondagi yana bir kamchilik sifatida davlat va jamiyat o'rtasidagi chegaralarning hanuzgacha aniq tarzda belgilanmaganligi masalasining hal etilmaganligi bo'lib, bu holat sohada ilmiy tadqiqot ishlarining samarali bo'lishiga ma'lum darajada to'sqinlik qiladi.

Fuqarolik jamiyatini o'rganishda zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tafakkurning muhim yutug'i – bu sohani o'rganishning yangi ilmiy yondashuvi sifatida tizimli paradigmaning shakllanishi hisoblanadi. O'z navbatida, bu holat fuqarolik jamiyatining me'yoriy jihatlardan idrok etishdan uni tobora transformatsiyalashib borayotgan fuqarolik jamiyatining zamonaviy konseptual diskursining turli yo'nalishlarini o'rganishda empirik tahlil qilishga ustuvorlik berish tamoyillarini kuchaytirdi.

AQSH olimi **Immanuel Moris Vallerstayn** (1930-yilda tug'ilgan) fikricha, fuqarolik jamiyatining shakllanishi uchun kuchli davlat bo'lishi zarur, chunki bu kabi davlatning qo'llab-quvvatlashisiz fuqarolik jamiyati rivojlana olmaydi. Ma'lumki, fuqarolik jamiyati davlat bilan bilvosita siyosiy munosabatlarga kirishish, davlat tomonidan qonuniylashish asosida fuqarolarning jamiyatdagi keng ishtiroki asosida yashaydi.

Fuqarolik jamiyati insoniyat sivilizatsiyasining eng yuqori cho'qqisi bo'lgani holda, u liberal davlatlarning shakllanishi uchun shart-sharoitlar yaratib berdi. Shuningdek, fuqarolik jamiyati davlat tomonidan yashirin yoki oshkora tus oladigan halokatli zo'ravonlikni to'xtatib qolish yoki pastdan bo'ladigan xavfli va sinfiy o'zboshimchaliklarni bostirishning

omili sifatida ham namoyon bo'ldi. Ammo davlat tanazzulga yuz tutgani sari fuqarolik jamiyati muqarrar ravishda tarqoqlikka yuz tutishga moyil bo'lib boradi, deb xulosa chiqargan edi I.Vallerstayn.

Kelib chiqishi venger bo'lgan iqtisodchi va faylasuf, Sasseks universiteti professori (Buyuk Britaniya) **Ishtvan Messarosh** (1930-yilda tug'ilgan) "Begonalashishning marksizm nazariyasi" nomli kitobida fuqarolik jamiyati faqat xristian olamida o'zining mukammal darajasiga erishadi, deb yozdi. Xristianlik dini sharoitida fuqarolik jamiyati o'zini davlat hayotidan mosuvo tutadi, bunda insonning xudbin sifatida namoyon bo'lishiga sharoit tug'iladi va u yolg'izlik hamda qarama-qarshi kuchlar dunyosida ko'zga ko'rinmay ketadi. J.J.Russo va A.Fergyusonni tanqid qilgan I.Messarosh uchun fuqarolik jamiyati – bu xususiy mulk tayanchi, xudbinlik zarurati va pul ustunligi bilan ifodalanadigan qullikning zamonaviy shaklidir.

D.Markush (1934-yilda tug'ilgan) sotsial-liberalizm va G'arb sotsial-demokratiyasi dunyoqarashini qabul qilgan, shuningdek, bozor iqtisodiyoti va huquqiy davlat prinsiplarini himoya qildi (U "Ehtiyojlardan ustun diktatura" kitobini 1983-yilda taniqli olim A.Xeller bilan hammualliflikda yozgan). Kitobda Sharqiy Yevropa mamlakatlarining G'arbiy Yevropa bilan yaqinlashuvi iqtisodiy muammolarni hal etishga yordam bermaydi, balki ular fuqarolik jamiyati konsepsiyasini obro'sizlantiradi, aql-zakovat egalari bilan oddiy aholi o'rtasida tengsizlikni murakkablashtiradi, ma'naviy keskinlikni kuchaytiradi, o'rtada katta tafovutlarni yuzaga keltiradi, deb yozgan edi.

Kelib chiqishi nemis, AQSHda yashagan faylasuf, Frankfurt maktabining yirik bir vakili **Gerbert Markuze** (1898–1979-yy.) jamoa va shaxs psixologiyasini o'rganishga e'tibor qaratgani holda jamiyat qanday tarzda shaxsni o'zgartirishi mumkinligi to'g'risida tadqiqot olib boradi. U "Bir o'lchamli odam" kitobida inson uchun jamiyat sinfiylikni yuzaga keltiradi, unda niqoblangan yangicha totalitarizm hukm suradi, insonlar bir yoqlama fikrlay boshlaydi, ommaviy axborot vositalari har bir shaxs ongiga yolg'on va keraksiz axborotlarni tiqishtiradi, deb yozadi. "Hukmronlik va muvofiqlashtirish tizimini qamrab olgan texnika taraqqiyoti, – deb yozadi G.Markuze, – zohiran tizimga qarshi kuchlarni yarashtiradigan, aslida esa istiqbolda og'ir mehnat va hukmronlikdan ozod bo'lish yo'lidagi har qanday intilishlarning negizini yo'q qiladigan hayot (va hokimiyat) shakllarini yaratadi. Ayni paytda, siyosiy hokimiyat mashinalashtirilgan ishlab chiqarish va texnikaviy qayta tashkil qilish jarayoni ustidan o'z hukmronligini o'rnatib, o'z mavqeyini

mustahkamlab boradi. Rivojlangan va rivojlanayotgan sanoatlashgan jamiyatdagi hukumatlar o'z o'rnini sanoatlashgan taraqqiyot ega bo'lgan texnikaviy, ilmiy va mexanik samaradorlikni oshirish, undan foydalanish hamda safarbar etish vositasida saqlab turishi mumkin". Uning fikricha, "kapitalizmni rivojlantirishning yuqori bosqichida jamiyat cheklangan plyuralizm tizimidan iborat bo'lib, undagi institutlar shaxs ustidan hukmronlik qilishni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shunday bo'lsa-da, boshqariladigan shaxs uchun plyuralistik ma'muriyatchilik jamiyatdagi ommaviy ma'muriyatchilikdan afzalroqdir. Bir institut insonni boshqasidan himoya qilishi, bir tashkilot ikkinchisining ta'sirini yumshatishi mumkin. Qonun hokimiyati cheklangan bo'lsa-da, qonundan ustun yoki uni e'tiborga olmaydigan hokimiyatdan ko'ra, ishonchliroqdir...". "Har qanday holatda, – deb yozadi G.Markuze, – markazlashgan hokimiyat va to'g'ridan to'g'ri demokratiyaning o'zaro birlashishi rivojlanish darajasiga monand ravishda cheksiz juz'iy o'zgarishlarda o'zini namoyon qilib turadi".

Amerikalik sotsiolog va publisist, axborot jamiyati nazariyasi asoschisi **Deniel Bell** uchun (1919–2011-yy.) sanoatlashuvdan keyingi jamiyat – hokimiyatga meritokratiya, ya'ni aql-zakovat egalik qiladigan "professionallar" va "aql-zakovatli kishilar jamiyati"dir. "Sanoatlashuvdan keyingi jamiyat, – deb yozadi D.Bell, – vakillari siyosiy darajada maslahatchilar, ekspert yoki texnokratlardan iborat bo'lgan intellektual sinfning paydo bo'lishini nazarda tutadi". Fuqarolik jamiyati ichida intellektual tabaqalanish ro'y beradi. Bunday tabaqada aqliy mehnatga nisbatan salohiyati past odamlar jamiyatning eng quyi pog'onasida qolib ketadi. Bundan tashqari, axborotning nihoyatda ustuvor ahamiyat kasb etishi fuqarolik jamiyati uchun o'ziga xos xususiyatga aylanadi. D.Bellning fikricha, jamiyatni axborot bilan ta'minlash siyosatda ishtirok etishga qobil bo'lgan boshqaruv tizimi samaradorligini yetarli darajada ta'minlaydigan "vakolatli fuqaro" konsepsiyasiga mosdir.

Amerikalik sotsiolog va futurolog, sanoatlashuvdan keyingi jamiyat konsepsiyasi mualliflaridan biri **Elvin (Olvin) Toffler** (1928-yilda tug'ilgan) fikricha, "yaqin kelajakda tashkil etilishi rejalashtirilayotgan institutlarda diniy va shunga o'xshash guruhlar, global korporatsiyalar, atrof-muhit va inson huquqlarini himoya qilish harakatlari va boshqa shakldagi fuqarolik jamiyatlari qay darajada ifodalanadi?" degan savolni o'rtaga tashlaydi. Hozirgi davrda o'z ichida mustaqil davlatni saqlab qolishga urinayotgan jamiyat ommaviy ravishda

kompyuterlashtirilmasligi darkor. "Fuqarolik jamiyatining faoliyat yuritishi uchun keragidan ortiq narsalarni majburan qabul qildirishga va tuzumni abadiylashtirishga qaratilgan tartibotlar bema'nilikdan boshqa narsa emas", – deb yozadi E.Toffler. Uning fikricha, hokimiyat – bu insonlar o'rtasidagi har qanday o'zaro munosabatlarning muqarrar yuz beradigan jihatidir, hukmdorlar yoki xalqning odamlar faoliyati, fe'l-atvori, ongi va fikriga keskin hamda keng ko'lamli ta'sir ko'rsatish, ularning taqdirini boshqarish qobiliyati va imkoniyatidir. Bizni kelajakda hokimiyat uchun global kurashlar kutmoqda, ammo uning asosini zo'ravonlik yoki pul emas, balki zamonaviy bilimlar tashkil qiladi.

AQSH olimi **Frensis Fukuyama** fuqarolik jamiyati to'grisida quyidagi fikrni bildiradi: "Demokratik institutlar sog'lom fuqarolik jamiyatiga suyangani kabi fuqarolik jamiyati ham, o'z navbatida, madaniy darajada o'z o'tmishdoshlari va shart-sharoitlariga ega bo'ladi". Zamonaviy demokratik davlatda fuqarolik jamiyatining an'anaviy siyosiy hamda iqtisodiy liberal doktrinaga xos bo'lgan tarqoq shaxsiyatparast shaxslarni tenglashtirishi yoki cheklashga qodirligi uning ahamiyati va madaniyati darajasini belgilab beradi. Olimning fikricha, haqiqiy kurash aynan fuqarolik jamiyati va madaniyat darajasi o'rtasida ro'y beradi.

Hozirgi davrdagi mashhur siyosatshunos va faylasuflardan biri **Lari Zidentopning** (1936-yilda tug'ilgan) fikricha, ma'naviy tenglikka doir xristian ta'limoti Yevropada fuqarolik jamiyatini yaratdi. Islom dini ham xristianlik singari universiallik xususiyatiga egadir. Ammo islom dini faqat Xudoga itoat etishda tenglikka e'tibor qaratsa, xristianlik Xudo oldidagi teng erkinlikni targ'ib qiladi.

L.Zidentop "hokimiyatning nisbiy ochiqligi, uni deyarli hech narsani o'zgartirmaydigan rasmiyatchilikka asoslangan o'zaro bir-birini tiyib turish va muvozanat tizimi"ni tanqid qiladi. "Fransiya davlat modeli boshqa mamlakatlarga nisbatan oson eksport qilinishi mumkin, negaki u kamroq cheklovlar bilan qarorlar qabul qilishning markazlashgan mexanizmini faqat rasmiylashtirishga qaratilgan. Mazkur modelning mazmun-mohiyati hokimiyatdir". L.Zidentopning fikricha, bu borada "hokimiyatni bo'lib-bo'lib joylashtiradigan, bir-birini o'zaro tiyib turish va muvozanatda faoliyat yuritish tizimiga ega bo'lgan muxtor Yevropa vakillik demokratiyasi hozirgi davrda muhim ahamiyatga molik masalaga aylanishi lozim".

Germaniyalik taniqli sotsiolog va faylasuf, Myunxen universiteti va London iqtisodiyot maktabi professori, "releksiv modernizatsiya" va "tavakkalchilik jamiyati" konsepsiyasi muallifi **Ulrix Bek** (1944-yilda

tug'ilgan) o'rta sinf bilan fuqarolik jamiyatining o'zini o'zi tashkil etishining o'zaro uzviy bog'liqligi haqida so'z yuritib,[521] shunday deb yozadi: "Faqat uy-joyi, doimiy ishonchli ishi va kelajagi moddiy ta'minlanadigan odamlargina demokratik qadriyatlarni o'zlashtirish va demokratiyaga hayot bag'ishlashga qodir fuqarolar hisoblanadi".

Zamonaviy tranzitologiyaning (o'tish davri nazariyasi) yirik vakili, amerikalik iqtisodchi, Garvard xalqaro taraqqiyot instituti direktori, Harvard Universitetining professori **Jeffri Saks** fuqarolik jamiyatining shakllanishi uchun asosiy sabablar – bu jug'rofiy joylashuv xususiyatlari yoki qandaydir tarkibiy sharoitlar emas, balki, sobiq SSSR parchalanganidan keyin paydo bo'lgan qator davlatlar, xususan, Rossiyaning chuqur tizimli inqirozidir, deb ta'kidlaydi.

J.Saks fuqarolik jamiyatini shakllantirish uchun yuqori sifatli ta'lim, sog'liqni saqlash va yaxshi ovqatlanishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha kuchli va samarali dasturlar zarurligini yoqlaydi. Uning fikricha, bularning barchasi – dastlab Skandinaviya davlatlari o'zlashtirgan "sotsial demokratiya" falsafasining dohiyona g'oyasini amalga oshirish natijasidir. Bu g'oya ham oddiy, ham kuchlidir: barcha odamlar yaxshi yashash imkoniyatiga ega bo'lishga munosibdir va jamiyat ularning har biriga bu g'oyani ro'yobga chiqarishga yordam berishi lozim. Eng muhimi, jamiyat oilalar sog'lom bo'lishi, to'yib ovqatlanishi va o'qimishli bolalarni voyaga yetkazishi uchun ularga yordam berish kerak.

AQSH olimi S.Xantington "demokratlashtirish g'arblashtirish bilan ziddiyatga kirishadi", – deb o'z fikrini ilgari surib, u quyidagilarni yozadi: demokratiya, o'z mohiyatiga ko'ra, kosmopolitlashuvga emas, balki mahalliy manfaatlarni himoya qiladigan jarayon hisoblanadi. G'arb olamiga mansub bo'lmagan jamiyatlardagi siyosatchilar g'arbona g'oyalarga xayrixoh ekanini ochiq namoyish qilgan taqdirda saylovlarda g'olib chiqmaydi. Saylovoldi poygalari, odatda, ularni eng ommaviy milliy qadriyatlarga murojaat qilishga majbur etadi va bu narsalar etnik, milliy va diniy masalalar bilan chambarchas bog'liqdir.

"Amerikalik odam davlat qurilishi muammolari borasida o'ylaganida, uning diqqat-e'tibori boshqaruv organlari va hokimiyatni mustahkamlashga emas, balki hokimiyatni cheklash va taqsimlashga qaratiladi", – deb yozadi S.Xantington. AQSH jamiyati boshqaruv tizimini ishlab chiqishga buyurtma olgan holda, u Konstitutsiya, huquqiy qonunlar loyihalari, hokimiyatning bo'linishi, nazorat etish va o'zaro muvozanatlar tizimi, federalizm, doimiy saylovlar, partiyalararo

kurashlar kabi davlat hokimiyatini cheklashning ajoyib vositalarini taklif qiladi. Mashhur ingliz faylasufi Jon Lokk bilan bog'liq bo'lgan lokkcha siyosiy falsafaga sodiq bu amerikalik olim shu qadar davlatga qarshi chiqadiki, go'yoki davlat uning uchun hokimiyatni cheklash vositasidir. Hokimiyat va tuzumni imkon qadar mustahkamlaydigan siyosiy tizimni ishlab chiqish zarur bo'lganda S.Xantington qarashlari keraksiz safsataga aylanadi. U butun hayotida bitta qolipdagi qarashga amal qildi: davlat tizimi erkin va adolatli saylovlarga asoslanishi kerak. S.Xantington hokimiyat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi o'zaro munosabat haqida quyidagilarni yozadi: "Qo'shma Shtatlarda hokimiyat arxitektorlari inson his etish mumkin bo'lgan, ammo ko'zga ko'rinmaydigan kuchni yaratishi lozim. Hokimiyat panada turganda kuchli bo'ladi, quyosh nurlari paydo bo'lganida esa g'oyib bo'ladi".

Umuman, hozirgi zamon ilg'or demokratik mamlakatlar jamiyatshunos olimlarining fuqarolik jamiyati to'g'risidagi nazariy qarashlari bir tizimga keltirilsa, u holda fuqarolik jamiyati va bu jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy, oilaviy, milliy, ma'naviy, axloqiy, diniy, ishlab chiqarish, shaxsiy va nodavlat munosabatlar majmuasi bo'lib, erkin individlar, ixtiyoriy ravishda shakllangan tashkilotlar va fuqarolarning turli organlar tazyiqlari, aralashishlari yoki bir qolipga solishlaridan qonunlar vositasida himoyalangan jamiyatidir, unda o'zligini namoyon qila olishlari uchun barcha imkoniyatlarga ega bo'ladilar.

Nazorat savollari

1. Fuqarolik jamiyati g'oyasining kelib chiqishi tarixiy shart-sharoitlari nimalardan iborat edi?
2. X–XII asrlarda Markaziy Osiyo mutaffakirlarining adolatli jamiyatga doir qarashlarini izohlang.
3. Yangi davrda fuqarolik jamiyatining yangi talqinlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuriting.
4. Jadidchilik harakatining g'oyaviy me'rosida fuqarolik jamiyati haqidagi konseptual qarashlarni sharhlang.
5. Fuqarolik jamiyati haqidagi zamonaviy konseptual masalalarning g'oyaviy va mental xususiyatlarini ochib bering.

Test savollari

1. "Mamlakat boshqaruvida to'rt qoidaga amal qilish kerak: mashvarat, muhokama, qat'iy qaror, tadbirkorlik, ogohlik va ehtiyotkorlikka" degan fikrni qaysi alloma ilgari surgan?

A) Amir Temur
B) Abu Ali ibn Sino
C) Abu Rayhon Beruniy
D) Abu Nasr Forobiy

2. "Hukumat boshlig'ining asosiy vazifasi etib aholining turli qatlamlari, kuchlilar va kuchsizlar o'rtasida siyosiy va huquqiy adolat mezonini o'rnatish", – deb kim ta'kidlaydi?

A) Amir Temur
B) Abu Ali ibn Sino
C) Abu Rayhon Beruniy
D) Abu Nasr Forobiy

3. Qaysi davrdan boshlab fuqarolik jamiyati g'oyasi demokratiya rivojlanishi bilan chambarchas bog'lanib kelmoqda?

A) Antik davr
B) O'rta asrlar
C) Yangi davr
D) XX asr boshlari

4. Yangi davrda Yevropadagi fuqarolik jamiyati konsepsiyasi shaklanishi necha an'analaridan iborat?

A) Ikki
B) Uch
C) To'rt
D) Besh

5. "Davlat – fuqarolik jamiyati" dixotomiyasiga doir konsepsiyalar qaysi davrda shakllangan?

A) Antik davr
B) O'rta asrlar
C) Yangi davr
D) XX asr boshlari

6. "Oxirgi vaqtlarda paydo bo'layotgan, jamiyatning, erkin ixtiyoriy assotsiatsiyalari, shuningdek, huquqiy va ommaviy institutlari doirasida amalga oshiriluvchi jamoaviylikning nomumtoz shakllari, nafaqat davlat doirasidan, balki kapitalistik bozor iqtisodiyoti chegarasidan ham chiqib ketmoqda" degan fikr qaysi

zamonaviy yondashuv orqali ilgari surilgan?

A) Liberal an'ana konsepsiyasi

B) Amerikancha kommunitarizm konsepsiyasi

C) Yevropacha neokonservatizm konsepsiyasi

D) Postmarksistcha konsepsiya

7. Fuqarolik jamiyati faqat mustaqil mamlakat doirasida amalga oshishi haqidagi xulosani ilgari surgan g'oyaviy oqim – bu ...

A) Jadidchilik

B) Marksizm

C) Konservatizm

D) Liberalizm

8. Fuqarolik jamiyati zamonaviy konseptual diskursning normativ yondashuvi vakillarini aniqlang.

A) Aleksis de Tokvil

B) Endryu Arato

C) Karl Marks

D) Nikkolo Makiavelli

9. Fuqarolik jamiyatining zamonaviy konsepsiyalarining qaysi yondashuvida fuqarolik jamiyati an'anaviy jamiyat o'rnini egallagan yoki zamonaviy jamiyatga xos bo'lgan belgilarni shakllantiradigan jamiyat sifatida tushuniladi?

A) Formatsion

B) Sivilizatsion

C) Modernizatsiya

D) Taraqqiyot

10. Fuqarolik jamiyati zamonaviy konsepsiyalarining qaysi yondashuvida fuqarolik jamiyati kapitalistik tizimga bog'lanadi va keng hamda tor ma'nolarda tushuniladi?

A) Formatsion

B) Sivilizatsion

C) Modernizatsiya

D) Taraqqiyot

3-mavzu. JAHON TAJRIBASIDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI FAOLIYATI

Reja:

1. Yevropa va Shimoliy Amerikada fuqarolik jamiyatining rivojlanishi.

2. Rivojlangan davlatlarda fuqarolik jamiyati institutlarining tizimli va funksional jihatlarining takomillashuvi.

3. Hozirgi davr rivojlangan davlatlarida fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanish tamoyillari.

Tayanch so'zlar: fuqarolik jamiyati va uning tuzilmasi, ijtimoiy sheriklik, rivojlangan davlat, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlar, uchinchi sektor.

1. Yevropa va Shimoliy Amerikada fuqarolik jamiyatining rivojlanishi

"Fuqarolik jamiyati" tushunchasining ildizlari (civil society) dastlab qadimgi yunon faylasuflari va Sitseron yozgan asarlarda kuzatiladi. Lekin yunon faylasuflari fuqarolik jamiyati haqida fikrlaganida, asosan, davlatni ko'zda tutgan edi. Hozirgi davrga yaqin fuqarolik jamiyati haqidagi tasavvurlar XVIII asr oxirida bir vaqtning o'zida shotland olimlari va kontinental ma'rifatparvarlar tomonidan yaratildi. **Tomas Peyn** va **Georg Gegel** kabi nazariyotchilar fuqarolik jamiyatini davlatga yaqin, lekin shu bilan birga, undan ajralgan soha, qaysiki, bu kabi jamiyatda fuqarolar o'z xohishlari va manfaatlariga bog'liq holda birlashadilar, deb talqin etdi. Bu yangi talqinlarda iqtisodiy voqeliklarning o'zgarishlari ifodalangan edi: xususiy mulk, bozor raqobati va burjuaziyaning paydo bo'lishi. U tobora o'sib borayotgan erkinlik sari da'vatlarga javob tariqasida paydo bo'lgan edi.

XIX asrning o'rtalariga kelib jamiyatshunoslar va faylasuflar o'z e'tiborlarini, asosan, sanoat inqilobining ijtimoiy va siyosiy oqibatlariga qaratganlarida esa, fuqarolik jamiyati tushunchasi ancha iste'moldan tushib qoldi. Faqat ikkinchi jahon urushidan keyingi davrga kelib Italiya olimi **Antonio Gramshi** fuqarolik jamiyatiga tiraniya bilan kurashishning muhim sohasi va mustaqil siyosiy faoliyatning o'ziga xos rivojlanishining dastlabki nuqtasi sifatida qaradi, fuqarolik jamiyati nazariyasini qaytadan tikladi va bu jamiyat yana rusumga kirdi. Gramshi o'ng oqimga mansub diktaturani tadqiq etganligi uchun ham uning

g'oyalari Sharqiy Yevropa, shuningdek, Lotin Amerikasidagi dissidentlar va huquq himoyachilariga kuchli ta'sir qildi. Chex, venger, polyak faollari doimo fuqarolik jamiyati tushunchasiga murojaat etishi an'anaga aylandi. Ayniqsa, 1989-yilda Germaniyani ikkiga bo'lib turgan Berlin devori qulagan paytlarda fuqarolik jamiyati fuqarolik jasorati tushunchasining sinonimi sifatida ishlatila boshlandi.

XX asrning 90-yillarida fuqarolik jamiyati jozibador formulaning so'nggi natijasiga aylandi. Ulkan va keng miqyosli demokratlashtirishning dunyoviy tamoyillari uning oldida o'zining yangi ufqlarini ochdi. AQSH va G'arbiy Yevropada uning jamiyatni yangilashning harakatlantiruvchi kuchi sifatidagi o'rniga nisbatan qiziqishlar kuchaydi, shuningdek, u davlat va hukumat ta'sirlari kamayib borayotgan rivojlanayotgan mamlakatlar ichida ham keng tarqaldi.

Tarixiy taraqqiyot tajribasidan ma'lumki, insonning jamiyatda oliy ijtimoiy qadriyat manbalari sifatida namoyon bo'lishiga erishish yechimini topish eng qiyin muammolardan biridir. Chunki bu kabi an'anaviy sharoitlarda insonni mansabdorlar va ular apparatining irodasi asosida faoliyat yuritishdan boshqa chorasi qolmaydi, inson davlat mashinasining bir murvatiga aylana boshlaydi. Shaxs o'zining turmushini o'zgartirish qobiliyatiga ega bo'lmasdan turib, xalqaro munosabatlarda "inson huquqlari manbasi" deb ataladigan, o'z insoniy qadr-qimmatini e'zozlaydigan erkinlik me'yorlaridan bahra ololmaydi.

Shuning uchun ham fuqarolik jamiyatinining xalqaro tajribalar va milliy an'analar asosida shakllantirish inson erkinligi va huquqlarini ta'minlashning asosiy kafolatidir, u inson taraqqiyoti uchun eng zaruriy omildir. Hozirgi davrda jamiyatga doir zamonaviy nazariyalarda fuqarolik jamiyatining quyidagi asosiy tarkibiy qismlari ta'riflanadi:

- ijtimoiy ahamiyatga molik funksiyalarning sezilarli qismini amalga oshiradigan jamoat birlashmalarini rivojlanganligi; "shaffof" hukumat va parlamentning mavjudligi; uning "shaffof"ligi jamiyat nazorati ostida va fuqarolarning baholashlari bilan bog'liq ekanligi bilan ifodalanishi;

- hukumat va nodavlat tashkilotlar o'rtasida "de-yure" talablari doirasidagi muloqotlarning mavjudligi, yoki boshqacha aytganda, ijroiya hokimiyati tizilmalari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish va siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoniga ta'sir eta olish legitim usullarning shakllanganligi.

Shu bilan birga, jamiyatning qonunlar asosida boshqarilishi ham obyektiv zaruriyat hisoblanadi. Lekin boshqaruv tizimida ba'zi mansabdorlarning byudjetni ijro etishi, turli resurslarni taqsimlash va

boshqaruv faoliyatida fuqarolarga qonunlar bilan belgilanmagan turli ruxsatnomalar berish, tadbirkorlikni nazorat qilish kabi turli byurokratik vositalari paydo bo'ladiki, ular doimo jamiyat rivojlanishiga to'siq bo'lib keldi. Shuningdek, bu kabi holatlar obyektiv zarurat hisoblanmaydi. Ularning barchasi boshqaruv an'analaridan chiqarib tashlanishi zarur.

Umuman, fuqarolik jamiyatining yashashi va rivojlanishi uchun davlat organlari quyidagilarga amal qilishga zarurat tug'iladi:

- qarorlar qabul qilish va ularning ijrosini amalga oshirishda u yoki bu ijtimoiy tizilmalar bilan kelishib faoliyat ko'rsatishining shart ekanligi;

- davlat organlari vakolatlari bir qismining nodavlat notijorat tashkilotlarga o'tkazish.

Shuningdek, davlat apparati funksiyalarini nodavlat tashkilotlarga o'tkazib borish bilan boshqaruv tizimi ham demokratiyalashib boradi. Masalan, Buyuk Britaniyada davlat organlari faqat nodavlat tashkilotlari bajara olmaydigan yoki bajarishni istamaydigan funksiyalarni bajaradi, xolos (ya'ni qoldiq prinsipiga amal qiladi).

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida shunday xulosa chiqarish mumkin: vertikal iyerarxiya asosida jamiyatni boshqarish manbayi insonlardagi eng zaruriy qadriyatlarning shakllanishini izdan chiqarib turadi. Shuning uchun ham boshqaruvda davlat va jamiyatning rolini muvozanatlashtirish boshqaruvni modernizatsiyalashning ustuvor yo'nalishi hisoblanmoqda.

Ana shu sababli ham davlat boshqaruviga doir (ma'muriy) islohotlarni amalga oshirishning kafolati fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish bilan uzviy ravishda bog'liqdir. Chunki inson taraqqiyotining asosiy komponentlaridan biri bu – inson taqdirini hal etish, uning huquq va erkinliklari ta'minlanishiga doir boshqaruv jarayonida o'zi bosh manfaatdor sifatida faol ishtirok etishi taqozo etiladi.

Ma'lumki, G'arb davlatlarida ma'muriy islohotlar asosiga subsidiarlik prinsipi qo'yilgan bo'lib, u asosan, G'arbda rivojlangan quyidagi diniy qadriyatni dunyoviylik asosida hal etish bilan bog'liqdir: "Shaxsning o'z tashabbusi va kuchi bilan qiladigan narsalardan mahrum qilish va uni qandaydir jamoatga taalluqli deyish mumkin emas. Xuddi shuningdek, kattaroq va yuqori darajadagi hamjamiyatning kichik va itoatkor hamjamiyat qilishi va oxiriga yetkazishi mumkin bo'lgan ishga da'vogarlik qilishi ham xuddi yuqoridagidek, ijtimoiy tartibot uchun nihoyatda zararli bo'lgan nosog'lom muhitdir".



3.1.- jadval. Fuqarolik jamiyatining tuzilmasi.

Hozirgi davrga kelib, fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanib borishiga mutanosib ravishda davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish

(desentralizatsiyalash) uchun ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik shart-sharoitlar yaratilmoqda. Bu jarayon davlat boshqaruvini erkinlashtirish (liberallashtirish) va ma'muriy islohotlarni amalga oshirishning eng asosiy sharti hamdir.

Fuqarolik jamiyati shakllanib borgani sari mansabdorlar faoliyatini milliy manfaatlar, jamiyat barqarorligi va xalq farovonligi asosida kechishi uchun shart-sharoitlar shakllanib boradi. Chunki jamiyatning manfaatlari bilan shaxsning manfaatlari uyg'unlashgan fuqarolik jamiyati sharoitida fuqarolarning huquqlari ham manfaatlar asosida insoniy birliklarga uyushish va shu asosda hokimiyat organlarini nazorat qilish, ularda ishtirok etish mayllari shakllanadi va o'sib bordi.

Fuqarolik jamiyati sharoitida markaziy hokimiyatning milliy manfaatlar bilan bog'liq yirik vakolatlaridan boshqa barcha vakolatlari mahalliy hokimiyat organlari va fuqarolik jamiyati institutlariga o'tkaziladi. Hududiy o'zini o'zi boshqarish organlari, o'z navbatida, ilgarilari fuqarolarning ixtiyoriy birlashuvini o'z zimmasiga olmagan yoki u rad etgan boshqa vakolatlarni amalga oshira boshladi. Bu holatda konsensusga erishish prinsipiga asoslanildi. Bu prinsip, ko'pincha, ma'muriy shartnomalarda ifodalana boshladi.

Hozirgi davrga kelib rivojlangan mamlakatlarda huquqiy davlatning paydo bo'lishi fuqarolik jamiyati tushunchalarini talqin etishga ham kuchli ta'sir etdi. Jumladan, fuqarolik jamiyati tushunchasini keng va tor ma'nolarda ishlatish rusumga kirdi. Keng ma'nodagi fuqarolik jamiyati – davlat va uning tizilmalari tomonidan jamiyatni egallab olmagan qismi, boshqacha aytganda, davlatning qo'li yetmagan qismidir. Bu kabi jamiyat davlatga nisbatan avtonom, bevosita unga qaram bo'lmagan qatlam sifatida rivojlandi. Shuningdek, fuqarolik jamiyati keng ma'noda faqat demokratik qadriyatlari muhitidagina emas, balki avtoritarizm rejimida ham yashay oladi. Lekin totalitarizmning paydo bo'lishi bilan fuqarolik jamiyati siyosiy hokimiyat tomonidan butunlay "yutib" yuboriladi.

Fuqarolik jamiyati tushunchasi tor ma'noda talqin etilganda u huquqiy davlatning ikkinchi tomoni bo'lib, ular bir-birlarisiz yashay olmaydi. Fuqarolik jamiyati bozor iqtisodiyoti va demokratik huquqiy davlat sharoitida davlat tasarrufida bo'lmagan erkin va teng huquqli individlarning o'zaro munosabatidagi plyuralizmdan tashkil topadi. Bunday sharoitda jamiyat turli sohalarda xususiy manfaatlar va individualizmning erkin munosabatlari qamrab olinadi. Bu kabi jamiyatning shakllanishi, uning rivojlanishi individlarning erkinlikka

intilishi, ularning davlatga tobe bo'lgan fuqarolikdan erkin mulkdor fuqarolarga aylanishi, o'z shaxsiy hurmat-obro'sini his qila boshlashi, xo'jalik va siyosiy mas'ullikni o'z zimmasiga olishga tayyor bo'lishi kabilarga bog'liqdir.

So'nggi yarim asr ichida tarixiy rivojlanish tajribalari shuni ko'rsatdiki, huquqiy davlat unsurlari shakllanmasdan ilgari fuqarolik jamiyatini barpo etish uchun imkoniyatlar va shart-sharoitlar yaratilmaydi. Buning asosiy sababi shundaki, huquqiy davlat qurish islohotlari fuqarolik jamiyati muhitidan oziqlanadi, davlat irodasi ham jamiyatdagi turli-tuman manfaatlar va ehtiyojlar ifodalanishiga bog'liq holda namoyon bo'ladi. Shuningdek, huquqiy davlat sharoitidagi erkin raqobatbardoshlik natijasidagina o'rta qatlam – mulkdorlar qatlamining shakllanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi.

Jamiyatni rivojlantirish, huquqiy davlatga asos solish, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish va ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokini faollashtirish, bozor iqtisodiyotiga o'tish, davlat hokimiyati organlarini tizimini nomarkazlashtirish natijasida fuqarolik jamiyati qurish uchun shart-sharoitlar yaratiladi. Fuqarolik jamiyati rivojlanib borgani sayin ijtimoiy tuzilmalar ham takomillashadi, uning yangidan yangi funksiyalari paydo bo'ladi. Fuqarolik jamiyati sharoitida ijtimoiy tuzilmalarga (sotsial strukturalarga) tasnif berish uchun unga doir bilimlarni tahlil etish, unga doir kategoriyalar to'g'risida tasavvurlarga ega bo'lish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun fuqarolik jamiyati "klassik darajada rivojlangan Yevropa namunasidagi hozirgi davr fuqarolik jamiyati konsepsiyasining mohiyati nimada?" degan savolga javob berishga zarurat tug'iladi.

Bu konsepsiyada fuqarolik jamiyatining muhim mezoni sifatida erkin fuqarolik jamoalarining teng huquqli, avtonom va faol xatti-harakat qilayotgan individlarning mavjudligi yaqqol va ravshan tarzda ajratib ko'rsatilgan. Fuqarolik jamiyati uchun eng muhim mohiyat kasb etuvchi jihatlar – bu alohida olingan individlarning o'z shaxsiy xohishlariga bo'ysungan holda, "ijtimoiy manfatlardan" mustaqil holda o'z shaxsiy ehtiyojlaridan kelib chiqib, shunchaki o'z oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishga intilishni emas, balki o'zining mavjud bo'lgan qonuniy manfaatlari va ehtiyojlarini chindan ham qondirishi hisoblanadi.

Bu soha, ya'ni "byurger" (erkin jamiyat kishisi) xususiy shaxs sifatida o'zini o'zi anglash sifatidagi individualligi o'z xohishlari va shaxsiy avtonomligini qondirishga qaratilgan talablardan kelib chiqqan shaxsiy manfaatlari va ehtiyojlarini amalga oshiradi. Fuqarolik

jamiyatida o'zaro ta'sir va bog'lanishlar shuning uchun ham ijtimoiy (sotsial) kenglik deyiladiki, ular xususiy individ sifatida sotsial aktyorlardan ham mustaqil ajralgan holda faoliyat yuritishi mumkin.

Hozirgi davr G'arb namunasidagi fuqarolik jamiyatining tuzilmasi quyidagilardan iborat:

-jamiyatning asosiy birligi – siyosiy qaramlikdan xoli bo'lgan, o'z huquqlaridan foydalanishga qobillikni egallagan shaxs;

-turli-tuman manfaatlarni ifodalash va amalga oshirish zaruriyati asosida shakllanadigan nodavlat jamoat tashkilotlari va harakatlar;

-nodavlat ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va institutlar (xususiy mulk, mehnat, tadbirkorlik va hokazo);

-davlatdan mustaqil bo'lgan ishlab chiqaruvchilar (xususiy firmalar va boshqalar);

-jamoat birlashmalari va nodavlat tashkilotlar;

-saylovchilar uyushmalari, turli klublar va to'garaklar;

-munitsipal, ya'ni o'zini o'zi boshqarish organlari;

-ta'lim va tarbiyaning nodavlat sohasi;

-nodavlat ommaviy axborot vositalari;

-siyosiy partiyalar, qonun chiqaruvchi va vakillik organlari atrofidagi davlat bilan fuqarolik jamiyatini o'zaro bog'lovchi bo'g'in sifatidagi turli lobbi tashkilotlar;

-tadbirkorlar, fermerlar tashkilotlari, kasaba uyushmalari, iste'molchilar uyushmalari, ilmiy va madaniy tashkilotlar, sport jamiyatlari va boshqalar.

-oila;

-diniy tashkilotlar va boshq. (Qarang: 3.1.-jadval).

Ijtimoiy tuzilma ichidagi fuqarolik jamiyatining asosi – davlat va siyosiy tashkilotlarning barqarorligiga zaruriyat sezadigan o'rta sinf – mulkdorlar qatlami hisoblanadi. "O'rta sinf"ning vakillari yuqori darajada sotsial va iqtisodiy mustaqillikka ega bo'ladi. Aristoteldan boshlab Jan Jak Russo va Georg Gegelgacha bo'lgan barcha mutafakkirlar xususiy mulkning mustaqil fuqarolar yaratishdagi o'rnini e'tirof etishgan.

Shuningdek, qator tadqiqotchilar fuqarolik jamiyatining rivojlanishini quyidagi isbot talab qilmaydigan jihatlarini ajratib ko'rsatdi:

-fuqarolik jamiyati davlatgacha yoki davlatdan tashqarida mavjud bo'lmaydi;

- ayni davlat, qaysiki fuqarolik jamiyati uning chegarasi ichida

mavjud bo'ladigan davlat fuqarolarning farovonligi va ularning alohida maqsadlariga (agar bu maqsadlar qonunga xilof bo'lmasa) mansub jihatlarni himoya qiladi;

- fuqarolik jamiyati davlatdan fuqarolarning hayoti, sog'lig'i, xavfsizligi va boshqa ijtimoiy manfaatlarini himoya qilishni talab qilishga haqlidir;

- bir tomondan, moddiy mo'l-ko'lchilikda yashayotgan, ikkinchi tomondan, muhtojlikda turmush kechirayotganlar o'rtasidagi ziddiyatlarni yumshatuvchi ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish majburiyati davlat zimmasiga yuklanadi;

- davlat o'zining tashqi siyosati va mudofaa qudrati bilan fuqarolik jamiyatining yashashini ta'minlaydi.

Hozirgi davrda jamiyatshunos olimlar tomonidan fuqarolik jamiyatini tuzilmashlashtirishga oid uchta asosiy yondashuvni ilgari surdi: institutstional, tizimli va sektorli. Ularning ichida institutsional yondashuv kengroq tarqaldi. Bu yondashuv asosi sifatida tarixiy rivojlanish jarayonida odamlarning ijtimoiy (sotsial) xatti-harakatlari va aloqalarini muvofiqlas-htirish maqsadidan kelib chiqqan zaruriyat sifatida paydo bo'lgan ijtimoiy hayot birligi (uyushmasi) sifatida shakllangan "ijtimoiy institut" tushunchasi qabul qilindi. Bu tavsifga tayangan holda, institut sifatida, ham bir butun holdagi fuqarolik jamiyatini, ham uning tarkibiy qismlarini alohida-alohida tarzda ko'rib chiqish mumkin. Bunda fuqarolik jamiyati bozor munosabatlari asoslari, demokratik davlat, asosan, davlatdan mustaqil ravishda yashash (avvalambor, moliyaviy) manbalari mavjud bo'lgan ijtimoiy sinflar va qatlamlar mavjudligi bilan tavsiflanadigan ijtimoiy munosabatlarning yaxlit tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Bu fuqarolik institutlari bir butun jamiyatga mansub bo'lgan, uning biron-bir qismi yoki tizim ostiga taalluqli bo'lmagan, balki uning rivojlanishining muayyan bosqichida turishi bilan ifodalanadigan institutlardir.

Institutsional yondashuvning muhim tomoni shundaki, u fuqarolik jamiyatining u yoki bu manfaatlarni amalga oshirayotgan alohida olingan omillarini ajratish va tavsiflash imkonini beradi.

Shuningdek, fuqarolik jamiyatini strukturalashning tizimli yondashuvi ham o'zining qator afzalliklariga egadir. Shuning uchun ham turli jamiyatga doir adabiyotlarda, ko'pincha, "struktura" (tarkib) tushunchasi "tizim" sinonimi sifatida ishlatiladi. Bu kabi nuqtayi nazardan kelib chiqilsa, har bir mamlakatdagi fuqarolik jamiyati quyidagi tizimiy belgilarga ega bo'ladi: u biron-bir sotsiallik (ijtimoiylik) turiga

mansub (keng ma'noda) bo'lib, boshqaruvchi va boshqariluvchi tizimlarga bo'linish, muayyan darajadagi suverenlik, iyerarxiyalik, barqarorlik, rivojlanib va o'zgarib borish, ochiqlik, turli moslashuvlar, organik birlik (yaxlitlik) va differensiyalashish kabi sifatlarga ega bo'ladi.

Fuqarolik jamiyati o'z ichiga qator ostki tizimlarni oladi: iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy. Bu ostki tizimlarning funksiyalaridan kelib chiqib ularning har biri doirasida alohida-alohida ravishda shakllanadigan fuqarolik jamiyatining uyushmalarini strukturalash mumkin.

Shuningdek, fuqarolik jamiyati strukturasini uch sektorlik nazariya asosida ham ko'rib chiqish mumkin (Qarang: 3.2.- jadval). Uning muhim jihati – bu fuqarolik jamiyatining gorizontal tekislikda (uch sektorga bo'lingan holda), shu bilan birga, uni vertikal, ya'ni ijtimoiy tizimdagi holatini yaxlit tarzda tahlil qilish mumkinligidadir. Gorizontal bo'lish deganda faoliyatlari ustuvorligidan kelib chiqib jamiyatni uchta teng huquqli sektorlarga bo'lish tushuniladi. Dastlabki ikki sektor – bu davlat va siyosiy institutlar hamda ishbilarmon xususiy tashkilotlar va korxonalardan iborat. Hozirgi davrda uchinchi – foyda olishni ko'zlamaydigan sektor ham paydo bo'ldi. Bu sektor aholining o'z oldiga shaxsiy daromad olishni qo'ymaydigan guruhlari va nodavlat tashkilotlarini o'z ichiga oladi. Uchinchi sektorga oila bilan hukumat va foyda keltiruvchi biznes vakillaridan iborat sektor o'rtasida rivojlangan faollashuv sektori sifatida qaraladi. Bu qarashlarga muvofiq vertikal ravishda bo'linishda uchta daraja – faoliyatga oid bo'lgan fuqarolik faolligi (xususan, fuqarolik jamiyati) va nofuqaroviy hamjamiyat (jinoiylikka taalluqli bo'lgan) darajalari mavjudligi ifodalanadi.

Faoliyatga oid daraja o'z ichiga siyosiy institut sifatida davlat, iqtisodiy va biznes-strukturalar, foyda olishni ko'zlamaydigan tashkilotlar doirasida amalga oshadigan barcha yuridik jihatdan rasmiylashgan aloqalar va munosabatlarni oladi. Nofuqarolik jamiyati – bu barcha uchta sektordagi norasmiy (yashirin) va jinoiy faoliyatga moyil guruhlardir. Bu darajalar orasiga jamiyat faoliyati sohasining o'rta holati sifatida, bir tomondan, huquqiy maydon doirasida, ikkinchi tomondan, davlat tomonidan muvofiqlashtirilmaydigan fuqarolik jamiyati joylashadi.

Albatta, fuqarolik jamiyatining sotsial strukturalarini (ijtimoiy tuzilmalarini) o'rganishda uchala yondashuvning har biriga ehtiyoj seziladi. Fuqarolik jamiyatida ishtirok etayotgan har qanday omil institutlashadi, o'zining ustuvor maqsadlariga bog'liq holda sektorlarga

bo‘linadi, o‘ziga xos muayyan muhitda faoliyat yuritadi. Ularning hammasi bir doiraga jamlanishi ostki tizimlarga bo‘linadigan fuqarolik jamiyatini tashkil etadi.

Aksariyat jamiyatshunos olimlarning fikricha, fuqarolik jamiyatining strukturalari quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi:

- ijtimoiylik (sotsial manfaatlar va intilishlarni artikulyatsiya qilish, odamlar va buyumlar o‘rtasidagi emas, balki odamlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar va aloqalar);
- davlatdan ayri bo‘lgan o‘zini o‘zi boshqarish (avtonomlik);
- fuqaroviylik (sivilizatsiyaga erishganlik, ya’ni butun bir jamiyat va boshqalarning manfaatlarini e’tiborga olish qobiliyatiga ega bo‘lish, huquqiy doira ichida xatti-harakat qilish);
- ishtirok va aloqalarning ixtiyoriyligi (vertikal aloqalar ustidan gorizontal aloqalarning ustunligi).

Sektor --- Daraja	I sektor	II sektor	III sektor
Faoliyatga oid	Davlat	Iqtisodiyot, xususiy biznes	NNT lar faoliyati
Fuqarolik jamiyati	Siyosiy uyushmalar (partiyalar, harakatlar)	Iqtisodiy uyushmalar (kasaba uyushmalari, biznes-uyushmalar)	Uchinchi sektor uyushmalari (NNT)
Nofuqarolik jamiyati	Yashirin guruhlar	Uyushgan jinoyatchilik	Tajovuzkor sektalar

3.2.-jadval. Fuqarolik jamiyati tuzilmasining uch sektorlik tizimi

Agar mazkur yondashuvga asoslanilsa, unda fuqarolik jamiyatining strukturalariga ixtiyoriy notijorat tashkilotlar (xayriya, huquqni himoya qilish, volontyor va boshq.), ijtimoiy qatlamlar manfaatlariga doir guruhlar (kasaba uyushmalari, tadbirkorlik, fermerlar, ayollar, yoshlar nodavlat tashkilotlari) yoki biror maqsadga qaratilgan (madaniy, sport) tashkilotlar, shuningdek, sotsial harakatlar (ekologik, urushga qarshi va boshq.) tegishli ekanligi ko‘zga yaqqol tashlanadi.

Fuqarolik jamiyatining rivojlanish tajribasi shuni ko‘rsatdiki, yuqoridagi berilgan tavsiflarga muvofiq va mos keladigan ba’zi nodavlat tashkilotlar bilan fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi chegara, demak ular

doirasida harakat qilayotgan tashkilotlar o'rtasidagi o'xshashlik yo'qolib ketdi.

Shundan kelib chiqib, faoliyatlari fuqarolik jamiyati uchun g'oyatda muhim bo'lgan siyosiy partiyalar, biznes-hamjamiyatlar, ommaviy axborot vositalari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish kabilarni jamiyatdagi o'rnini tavsiflash maqsadida chegaraviy yoki gibrid shakldagi tushunchalar taklif qilindi. Ana shunday chegaraviy sohaga "quyidagi" manfaatlarni ifodalovchi, fuqarolik jamiyati tizimida oraliq joyni egallovchi mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari tegishlidir.

Fuqarolik jamiyatining siyosatdan butunlay yiroq turadigan munosabatlar va institutlar tizimi sifatida tavsiflamaslik lozim. Bu kabi jamiyatning genezisi va tabiati turli tuman manfaatlarni davlat siyosatini belgilash jarayonida jamiyatdagi fuqarolar irodasi sifatida ifodalashi uchun iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy, oilaviy, madaniy va boshqa ijtimoiy munosabatlarni yetarli darajada tizimning tarkibiy qismlariga aylantira oladi. Bu tizim doirasida turlicha jamoat tashkilotlari, harakatlar, siyosiy partiyalar (idora etuvchi partiyadan tashqarilari), diniy tashkilotlar, iqtisodiy uyushma hamda birlashmalar va nihoyat, insonning o'zi shaxs sifatida o'zining oilaviy, kasbiy, xizmat ko'rsatishga oid va boshqa turli tuman manfaatlari hamda ehtiyojlarini qondirish uchun harakat qiladi.

Yangi ijtimoiy individlar – teng fuqarolik huquqlariga va o'zlariga xos fuqarolik sifatlariga ega bo'lgan fuqarolar paydo bo'lmasdan turib fuqarolik jamiyatining yashashi va shakllanishiga erishib bo'lmaydi. Inson qachonki yuksak axloqiy fazilatlar, demokratik qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishga asoslangan ilg'or dunyoqarash, shaxsiy qadr-qimmati, mustaqilligi va individualligini boshqa fuqarolarning huquq va erkinliklarini hurmat qilish bilan muvozanatda qadrlash, qonunlar va umuminsoniy jamiyat hayoti qoidalariga amal qilish kabilarni o'z hayot tarziga aylantirganidagina fuqarolik darajasiga erishadi. Fuqarolik jamiyatiga xos bo'lgan yangi avlodga mansub bo'lgan shaxs jamoat tashkilotlari va ijtimoiy institutlar bilan bo'lakcha o'zaro munosabatlarda bo'ladi. Yetarli darajada rivojlangan fuqarolik jamiyatida yangi individlar nafaqat jamoaga qorishib va birikib ketadi, balki o'zining shaxsiy individualligini namoyon qila oladi, yuksak ma'naviy qarashlarga ega bo'ladi. Bunday holatga erishish faqat odamlarning ruhiyati va dunyoqarashi tubdan yangilanganida ularning iqtisodiy va sotsial maqomini yangi jamiyatga xos tarzda o'zgarganidagina ro'y beradi.

2. Rivojlangan davlatlarda fuqarolik jamiyati institutlarining tizimli va funksional jihatlarining takomillashuvi

Fuqarolik jamiyati tarixiy rivojlanishning tadrijiy yo'li hosilasi sifatida asta-sekinlik bilan rivojlanadi. Bu kabi jamiyatning shakllanishi uchun muayyan shart-sharoitlar bo'lishiga zarurat tug'iladi:

- fuqarolik jamiyati ikki xil yo'l bilan – davlat yordamida (vositasida) yoki mustaqil ravishda shakllanishi mumkin. Mazkur jamiyatning davlat yordamida shakllanishi – bu jamiyatni shakllantirishga doir muayyan qonunlarning ishlab chiqilishi, demokratik strukturalarni rivojlantirish, davlat tomonidan umumqabul qilingan me'yorlarga qat'iy amal qilish. Mustaqil ravishda shakllanish jarayonini shunday tushunish mumkin. O'rta mulkdorlar qatlamining jamiyatdagi hissasining ustuvor ahamiyat kasb eta boshlaganida, fuqarolar huquqiy madaniyati demokratik prinsiplar talablari darajasiga ko'tarilganida, erkin fikrlaydigan fuqarolarning jamiyatga ta'siri sezilarli darajaga faollashganida fuqarolik jamiyati tadrijiy yo'l bilan shakllanishi mumkin;

- fuqarolarning ko'pchilik qismini o'z shaxsiy mulkiga ega bo'lishi, uni turli shakllar va huquqlar doirasida mustaqil ravishda tasarruf etish huquqiga ega bo'lishi, shuningdek, mulkdorlar qatlamining mustaqil ijtimoiy birlik sifatida rivojlanishi natijasida fuqarolik jamiyatining shakllanishi uchun iqtisodiy shart-sharoitlar tug'ilishi mumkin. G'arb tadqiqotchilarining fikricha, xususiy mulkning mavjudligi fuqarolik jamiyati sharoitida shaxsning erkinligini tayanch (bazaviy) sharti hisoblanadi;

- fuqarolik jamiyatining shakllanishi uchun jamiyatda rivojlangan va turli-tuman sotsial strukturalar (ijtimoiy tuzilmalar) tashkil etilgan bo'lishi lozim. Bu strukturalar jamiyatdagi barcha fuqarolar ijtimoiy qatlamlari, guruhlari vakillarining turlicha manfaatlarini o'zida ifodalaydi;

- shaxsning sotsial, intellektual, psixologik jihatlardan rivojlanganligi, uning mustaqil faoliyat yuritish uchun ichki erkinligi va qobiliyatining shakllanganligi.

Hozirgi davrdagi ijtimoiy-gumanitar fanlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida fuqarolik jamiyati murakkab, ko'p darajali aloqalar va strukturalar tizimi sifatida talqin etilmoqda. U o'z ichiga davlat faoliyati doirasidan tashqarida rivojlanadigan barcha shaxslararo munosabatlarni oladi.

Birinchi daraja. Fuqarolik jamiyatidagi shaxslararo

munosabatlarning mazkur darajasi – bu individlarning turmush kechirishini ta'minlovchi tayanch (birlamchi), ya'ni oziq-ovqat, kiyim-bosh, uy-joy kabilarga nisbatan paydo bo'ladigan ehtiyojlardir. Bu ehtiyojlar kasbiy, iste'molchilar va boshqa uyushmalar (masalan, xususiy korxonalar, aksionerlik jamiyatlari, vrachlar, quruvchilar, hunarmandlar birlashmalari va boshq.) kabi ijtimoiy institutlar vositasida amalga oshiriladi;

Ikkinchi daraja. Bunga umrni uzaytirish bilan bog'liq bo'lgan, sihat-salomatlik, bolalar tarbiyasi, ma'naviy-madaniy yuksalish, axborot, muloqotlar kabilarga doir ehtiyojlardan kelib chiqadigan shaxslararo munosabatlar kiradi. Bu munosabatlar ma'naviy, etnik, diniy, oila-nikoh va boshqa shakllardagi o'zaro aloqalarni o'z ichiga olgan sotsiomadaniy majmuani tashkil etadi. Bu darajadagi ehtiyojlar oila, ta'lim, ilmiy, ijodiy, sport uyushmalari, diniy maskanlar, madaniyat muassasalari, ommaviy axborot vositalari kabi institutlar vositasida qondiriladi.

Uchinchi daraja. Bunda ijtimoiy-siyosiy ishtirok ehtiyojlari nazarda tutiladi. Mazkur darajada shaxslararo munosabatlar o'zi afzal deb bilgan siyosiy qarash va qadriyatlarga ega bo'lish asosidagi individual tanlov bilan bog'liqdir. Mazkur daraja individda aniq siyosiy va ijtimoiy nuqtayi nazarlar shakllanishini talab etadi. Bu darajadagi ehtiyojlar siyosiy partiyalar, harakatlar va boshqa uyushmalar vositasida qondiriladi.

Shuningdek, jamiyatshunos olimlar fuqarolik jamiyatining uchta asosiy sohalardagi strukturalarini bir-biridan ajratib, ularni quyidgaicha ifodalaydi: iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy.

Iqtisodiy sohada fuqarolik jamiyatining strukturasi quyidagilardir: iqtisodiy faollikning individual shakllari; jamoaviy xo'jaliklar, kooperativlar, xususiy korxonalar va aksionerlik jamiyatlari (sanoat, savdo, moliyaviy sohalarda); tarmoqlar bo'yicha birlashmalar va uyushmalar (tadbirkorlar, fermerlar, sanoatchilar, banklar, neftchilar kabilar birlashmalari). Bu korxona va tashkilotlar fuqarolarning o'z tashabbuslari bilan tuziladi. Ular bilan bir qatorda davlatning unitar korxonalari ham faoliyat yuritishi mumkin. Raqobatchilik aloqalari va manfaatlarni integratsiya qilish masalalari erkin bozor iqtisodiyoti qonunlari bilan hal etiladi.

Fuqarolik jamiyatining **ijtimoiy-siyosiy** sohasi o'z ichiga quyidagilarni oladi: fuqarolar ijtimoiy-siyosiy faolligining turli shakllari (majlislar, namoyishlar va boshq.); ijtimoiy, siyosiy tashkilotlar va harakatlar (kasaba uyushmalari, kam ta'minlangan qatlamlarlarga yordam uyushtirish jamiyati, nogironlar jamiyati, partiyalar va boshq.);

o‘zini o‘zi boshqarish organlari va nodavlat ommaviy axborot vositalari. Ularning an’anaviy strukturaviy unsurlari: oila, sotsial guruhlar va birliklar. Bu sohada ijtimoiy fikrni shakllantirish va ifodalash, umumqabul qilingan me’yorlar va qadriyatlarni joriy etish, sotsial ixtiloflarni kelishtirish, sotsial birliklarni o‘zini o‘zi tashkillashtirishni rag‘batlantirish, fuqarolar hamkorligi asosida o‘zaro yordamlar uyushtirish kabilar.

Fuqarolik jamiyatining **ma’naviy** sohasi bevosita odamlarning ma’naviy-axloqiy jihatdan rivojlanishi, ularning ilmiy va badiiy ijodiyoti, madaniy rivojlanishi bilan bog‘liqdir. Bu sohadagi fuqarolik jamiyatining unsuri – bu so‘z va vijdon erkinligidir. Ularni hayotda amalga oshirish alohida olingan shaxsning o‘z e’tiqodini himoya qilish, o‘z fikrini oshkora ayta olish, o‘z shaxsiy g‘oya va konsepsiyalarini rivojlantirish imkoniyatlariga ega bo‘lish, ijodiy tashabbuskorlik va o‘zini o‘zi rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishni ifodalaydi. Bu soha o‘z ichiga mustaqil faoliyat yuritadigan ijodiy, ilmiy, madaniy, ma’naviy, ma’rifiy va boshqa uyushmalar, birlashmalar va tashkilotlarni oladi (masalan, yozuvchilar, rassomlar, kompozitorlar, uyushmalari, ilmiy hamjamiyatlar, madaniy va ma’rifiy tashkilotlar, diniy maskanlar va boshq. (Qarang: 3.3.- jadval). Fuqarolik jamiyati strukturasi o‘zida jamiyatni sotsial-tabaqaviy jihatdan bo‘lishni aks ettirsa ham, aslida, u jamiyat (suveren va mustaqil) subyektlarining erkin o‘zaro ta’siri hamda bog‘lanishlari natijasi o‘laroq shakllanadi. Fuqarolik jamiyati manfaatlar muvozanatiga asoslanganligi uchun ham uning strukturalarini tavsiflashda asosiy ahamiyat kishilarni turli birliklarga birlashtirish va ularning a’zolik tabiatini ochib beradigan uyushmalar sifatidagi funksional tahliliga qaratiladi. Bu xulosalardan yana bir muhim holat kelib chiqadi.

Fuqarolik jamiyatining strukturasi o‘zida gorizontallik tabiatini kasb etadi. Unda davlatdan farq qilib, vertikal aloqalar (bo‘ysunish) emas, balki gorizontal munosabatlar ustunlik qiladi. Fuqarolik jamiyatida erkin va yuridik jihatdan teng huquqli hamkorlarning o‘zaro munosabatlari (raqobat, qarama-qarshilik, hamkorlik, birdamlik) shakllanadi. Fuqarolik jamiyatining strukturalari o‘zini o‘zi tashkil etuvchi, o‘zini o‘zi boshqaruvchi sifatidadagi teng huquqli subyektlar (hamkorlar, o‘zaro shartnoma tuzuvchilar) va ixtiyoriy hamda erkin istak bildirishlar natijasida paydo bo‘ladi.



3.3.- jadval. Fuqarolik tuzilmalari

Shu tariqa fuqarolik jamiyati faqat tizimli sifat kasb etganidagina o'zining sotsial harakatchanligiga va yetukligiga erishadi, deb xulosa qilish mumkin. Bu tizimlilik iyerarxik emas, balki muvofiqlashtirish tarzini kasb etadi. Bunda barcha sotsial birliklar (manfaatlarni ifodalash asosida tashkil topgan guruhlar) bir-birlariga bo'ysunmaydi, balki o'zaro aloqalar asosida faoliyat yuritadi. Fuqarolik jamiyatining boshlang'ich mezonlari – bu manfaatlar, huquq va shaxs erkinligidir. Erkinlik va adolat fuqarolik jamiyati sharoitida odamlar faoliyatini yo'lga qo'ygan holda ijtimoiy omillik kasb etadi.

Fuqarolik jamiyati davlat tomonidan himoya qilinadigan barqaror huquqiy me'yorlarsiz yashay olmaydi. Fuqarolarning asosiy shaxsiy huquq va erkinliklariga quyidagilar kiradi: o'z sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish; o'zining qaysi millatga mansubligini o'zi aniqlash huquqi; shaxsiy va oilaviy sirlarni saqlash huquqi; hayot kechirish huquqi; vijdon erkinligi huquqi; fuqarolarning uy-joyi va shaxsiy hayoti kabilarning daxlsizligi, yozishmalarining sir saqlanishi; sudda himoyalanish huquqi, davlat organlari va mansabdor shaxslar xatti-harakati ustidan shikoyat qilish huquqi; qayerda bo'lish va yashashni tanlash, erkin ravishda bir joydan ikkinchi joyga ko'chish huquqi; qaysi tilda so'zlashishni erkin ravishda tanlash huquqi; axborot olish huquqi va boshq.

Fuqarolik jamiyati va uning strukturalari tavsifining yana biri – bu ularning funksionallik tabiatini kasb etishidir. Bu fuqarolik jamiyatining amal qilishi nafaqat xususiy manfaatlarni amalga oshirish uchun muayyan kengliklarni tashkil etish, balki jamiyatning o'zini o'zi tashkillashtirishi va o'zini o'zi muvofiqlashtirishining yuqori darajasiga erishish demakdir. Va nihoyat, zamonaviy fuqarolik jamiyati qadriyatlariga ijtimoiy va shaxsiy manfaatlarni o'zaro uyg'unlikda biriktira olish ham taalluqlidir. Agar bu kabi uyg'un birikuvga erishilmasa, u holda davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasida uzilishlar sodir bo'lishi mumkin.

3. Hozirgi davr rivojlangan davlatlarida fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanish tamoyillari

XXI asr arafasiga kelib rivojlangan mamlakatlar jamiyatining sotsial strukturasi sifatida sotsioiqtisodiy, siyosiy, xulqiy va boshqa belgilari bilan o'zaro farqlanadigan guruhlar va qatlamlar yanada ko'paydi. Bu davrga kelib sinflar, stratalar, sotsial qatlamlar strukturasi va o'zaro aloqalari xususiyatlarida jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi: ichki sinfiy

farqlanish jarayonlari faollashdi, sotsial birliklarning harakatchanligi (mobilligi) kuchaydi, yangi qatlamlararo guruhlar shakllandi.

Shuningdek, G'arb mamlakatlarida bozor munosabatlarini "sotsial birliklar determinanti" sifatida talqin etadigan konsepsiyalar keng tarqaldi. Ayniqsa, ingliz jamiyatshunos olimi A.Giddens ilgari surgan konsepsiyada bu kabi nazariy jihatlar keng yoyildi. Bu konsepsiyaga binoan, sinflar moddiy resurslarga egalik qilish va ularni nazorat etishdagi tengsizliklar sababli paydo bo'ladi, sinfiy mansublikning asosiy ko'rsatkichi individ va guruhlarning imkoniyatlarini aniqlash ularning egallagan mulki, kasbiy salohiyati, bilimi va texnikaviy saviyasi, shuningdek, jismoniy ishchi kuchi kabi ko'rsatkichlar asosida ifodalandi. Unga muvofiq tarzda G'arb jamiyatlarini uchta sinfga bo'lish rusumga kirdi: yuqori, o'rta, pastki.

Ana shu tasniflash asosida oliy sinfni tahlil etishga misol tariqasida AQSH jamiyatini keltirish mumkin: o'tgan o'n yilliklarda yuqori qatlamning tezlik bilan boyib borganligi kuzatildi. Eng oliy qatlam 200 mingdan 400 minggacha odamni tashkil etgan (AQSH aholisining 0,1-0,2 %) 10 *mln* dollardan kam bo'lmagan mulkka ega bo'lib, yiliga bir necha mln. dollar daromad oladi. Taxminan 200 mingta yuqori sinf vakillari 5 dan 10 mln. dollargacha, yana 300 mingtasi esa 2 *mln* dan 5 *mln* dollargacha yillik daromadga ega bo'ladi.

AQSHda taxminan 1,5 *mln* ga yaqin nodavlat-notijorat tashkilotlar (NNT) faoliyat yuritadi. NNT jamiyatning hamma sohalarini o'ziga qamrab olgan bo'lib, ular tashqi siyosat, saylovlar, atrof-muhitni himoya qilish, sog'liqni saqlash, ayollar huquqi, iqtisodiy rivojlanish, yoshlar va qariyalarni ijtimoiy himoya qilish kabi yo'nalishlarda aholining manfaatlari va ehtiyojlarini ifoda etadi va himoya qiladi. Shuningdek, NNT siyosat bilan bog'liq bo'lmagan, masalan, diniy tashkilotlar, kasaba uyushmalari, ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan aholi qatlamlari – qashshoqlar, ruhiy kasallar, yoshlar kabilarga yordam berish faoliyati bilan shug'ullanadi. AQSHdagi NNT faoliyati xususiy shaxslar, xususiy sektordagi tijorat kompaniyalari, xayriya jamg'armalari, a'zolik badallari yoki federal va mahalliy hokimiyat organlari (grantlari) kabilar tomonidan moliyalashtiriladi.



3.4. – jadval. Industrial jamiyatning sotsial tuzilmasi

Fuqarolik jamiyatiga nisbatan amerikancha yondashuv bu sohada eng mashhur va keng tanilgan Merilend shtatidagi Baltimor shahriga joylashgan Jon Xopkins universitetining "The Comparative Nonprofit Sector Project" loyihasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu loyihadan kelib chiqib NNTning faoliyat turlari 12 ta yo'nalish bo'yicha belgilandi: 1) madaniyat va dam olish; 2) ta'lim va tadqiqot; 3) sog'liqni saqlash; 4) sotsial xizmatlar; 5) atrof-muhitni himoya qilish; 6) lokal hamjamiyatlarni rivojlantirish; 7) inson huquqlarini himoya qilish; 8) filantroplar uchun vositachilik qilish; 9) xalqaro; 10) diniy; 11) kasbiy, uyushmalar biznesi va kasaba uyushmalari; 12) boshqa yo'nalishlar.

Mazkur loyiha mezonlari doirasida 35 ta mamlakatda (16 ta rivojlangan, 14 ta rivojlanayotgan, 5 o'tish davri iqtisodiyotini o'z boshidan kechirayotgan) NNTning strukturasi, hajmi, ular faoliyatidagi muammolar va natijalarga doir tadqiqotlar olib borilib, ularning yakunlari natijasi o'laroq quyidagilar aniqlandi: ushbu mamlakatlarda YIMdagi uchinchi sektor hissasi 1,3 *trln* AQSH dollari yoki yalpi ichki mahsulotlar yig'indisining 5,5 % ini tashkil etgan. NNTda deyarli 40 *mln* odam (shundan 20 *mln* kishi ish haqi olib ishlagan) faoliyat yuritib, bu ko'rsatkich 35 ta mamlakatdagi iqtisodiy faol aholining 4,5 foizini tashkil etgan.

Hozirgi davrga kelib yuqori sinf murakkab ichki strukturaga egaligi bilan tavsiflanadi: u mulk tashkiliy shakllariga bog'liq holda toifalashgan guruhlardan iborat ekanligi; qo'shimcha kapital o'lchami va sohasi; kasbiy faoliyatining (oliy darajali menejerlar, siyosatchilar, boshqaruvchilar) turi; turmush tarzining xususiyatlari; siyosiy maqsadi va yo'nalishi; etnik, hududiy, demografik va boshqa belgilari.

Postindustrial mamlakatlardagi yuqori sinflarining sotsial tarkibidagi o'zgarishlar quyidagilar bilan birgalikda sodir bo'lmoqda:

- yirik mulkdorlarning jamiyatda tutgan o'rni yanada mustahkamlanmoqda;
- bir tomondan, yollanma xodim, ikkinchi tomondan, ishlab chiqarish vositalari egasi sifatida faoliyat yuritayotgan oliy darajali xodimlar va menejerlar rolining jiddiy ravishda o'sib borishi;
- yuqori sinf vakillarining katta siyosatdagi faolligining o'sib borayotganligi, ularning siyosiy maqsadlari uchun moliyaviy xarajatlarning oshib borishi.

Bu sinfning miqdorini faqat taxminan chamalab aytish mumkin: bu ko'rsatkich iqtisodiy faol aholining taxminan 3-4 foizini tashkil etadi.

Mashhur tarixchi Arnold Toynbining fikricha, zamonaviy sivilizatsiya – bu o'rta sinf sivilizatsiyasi. Rivojlangan mamlakatlar jamiyati strukturasida o'rta sinfning hissasi 60-70 foizni tashkil etadi. Turli ilmiy maktablar o'rta sinfni sotsial birlik sifatida ajratib ko'rsatish uchun turli mezonlardan foydalanadi. Ko'pincha, o'z maqomini o'zi baholashi va olgan daromadi asosiy mezon sifatida qo'llaniladi. G'arb jamiyatlarining uchdan ikki qismi o'rta sinfga yaqin daromad oladi, kambag'allar va boylar unchalik ko'p emas, deb hisoblashlar keng tarqaldi. Yana aksariyat tahlilchilar hozirgi o'rta sinf ishlab chiqarish vositalariga mayda mulkiy egalik qiluvchilardan iborat degan fikrlar ko'paydi. Bu kabi mayda ishbilarmonlar – "eski o'rta sinf" deb ataluvchi AQSH fermerlari va Buyuk Britaniya savdo-sotiq korchalonlari aholining 10-15 foizini tashkil etadi. Rivojlangan mamlakatlardagi "yangi o'rta sinf" yoki "menejerlar va mutaxassislar sinfi" deb ataluvchi sotsial birlik aholining 20-25 foizini tashkil etib, ularning aksariyat qismi oliy ma'lumotli mutaxassislar, aqliy mehnat xodimlari, erkin kasblar vakillaridan iboratdir. Agar asosiy mezon sifatida mehnatning turi qo'llanilsa, u holda o'rta sinfga "oq yoqaliklar", ya'ni oliy ma'lumotga ega bo'lmagan ("pastki o'rta sinf") xodimlar ham mansub bo'ladi. Shuningdek, o'rta qatlamlarni bozor munosabatlari va mehnat turidan kelib chiqib aniqlashdan tashqari madaniy va qadriyatli

yo‘nalganligi asosida aniqlash usuli ham keng qo‘llaniladi (3.4-jadval G‘arbiy Yevropadagi umumiy holatni ifodalaydi).

O‘rta qatlamlar jamiyatning farovon yashashi uchun zarur bo‘lgan barcha ehtiyojlarni qondiradi: ishchi o‘rinlari, iste’mol mollari, tibiiy yordam, ilmiy kashfiyotlar va boshq. Jamiyatshunos olimlarning fikricha, o‘rta qatlamlar – sinflar-muxoliflar o‘rtasidagi o‘zaro ixtiloflarni yumshatuvchi omil sifatida ham namoyon bo‘ladi. Sotsial-iqtisodiy nuqtayi nazardan qaraganda, o‘rta sinfga turli kasblar mehnati ichidagi, shahar bilan qishloq turmush tarzlaridagi o‘zaro ziddiyatlarni kamaytirish tamoyili xosdir. Oila munosabatlarida o‘rta sinf jamiyatning ayollar va erkaklar uchun teng imkoniyatlar yaratishida, an’anaviy oilalar qadriyatlarini yoyuvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Siyosiy jihatdan o‘rta qatlamlar an’analar, me’yorlar, bilimlarni tashuvchi, yuksak fuqarolik va mustaqil shaxslikni namoyish qiluvchi markazga oid (stentrik) harakatlarning ijtimoiy tayanchi hisoblanadi.

Rivojlangan mamlakatlar jamiyatlari sotsial strukturasida o‘rta qatlamning asosiy o‘rinni egallashi pastki qatlamlar o‘rtasida onda-sonda ijtimoiy-siyosiy tanglikning o‘sishiga qaramasdan, jamiyatni barqaror ravishda yashashi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Bu kabi tangliklar ko‘pchilikning (o‘rta sinfning) betaraf vaziyatda turishi natijasi o‘laroq yumshatiladi. Eng muhimi, bu o‘rta sinfning fuqarolik jamiyatining tayanchi, demokratiya va o‘zgarishlarning siyosiy asosi sifatida namoyon bo‘lishidir. Shu bilan birga, o‘rta sinf yuqorining ta’siri va pastdan bo‘ladigan bosim ostida – “ikki qavatli parda” o‘rtasidagi ziddiyatli vaziyatda turgani uchun ham turli ziddiyatli ijtimoiy keskinliklar yumshatiladi.

Rivojlangan mamlakatlar jamiyatlari sotsial strukturalaridagi (ijtimoiy tuzilmalaridagi) sezilarli o‘zgarishlardan biri – bu mehnat qilayotgan aholining real daromadlarining o‘sib borishi hisoblanadi. Shu bilan birga, daromadlarning taqsimlanishi tengsizlik asosida ro‘y beradi. Eng boy va eng kambag‘al qatlamlar daromadlarining o‘zaro nisbati AQSHda 12:1, Fransiyada 9:1, Buyuk Britaniyada 8:1, GFR, Shvestiya, Niderlandiya Qirolligida 5:1, Yaponiyada 4:1 kabi tengsizliklarni ifodalaydi.

Industrial rivojlangan mamlakatlar jamiyatlari sotsial strukturasining tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu struktura tarkibiga turli-tuman guruhlar va qatlamlar kirib, ular qator ko‘rsatkichlar bo‘yicha bir-birlaridan farqlanadi. Hozirgi davrdagi bu ko‘rsatkichlarni va sinflarning o‘zaro chegaralarini aniqlash uchun sotsial

stratifikatsiyaning har xil mezonlaridan foydalanishga to‘g‘ri keladi. Ular quyidagilardir: mehnatning ijtimoiy taqsimoti tizimidagi ahvoli, olinadigan daromadning hajmi va yo‘llari, kasbiy funksiyasining xususiyatlari, hayot kechirish uslubining xususiyatlari, ma’lumotlilik darajasi va boshqalar.

Rivojlangan mamlakatlar jamiyatlarining sotsial toifalashuvi quyidagilar bilan tavsiflanadi: bir necha sinflarning belgilarini o‘zida ifodalaydigan ko‘p sonli guruhlarning paydo bo‘lishi; ichki sinfiy tabaqalanishlarning faollashuvi; struktura unsurlari harakatchanligining o‘sishi; moddiy hayot darajasining oshib borishi. Bu jarayonlar ko‘p jihatlardan rivojlangan mamlakatlarning barqaror rivojlanishi va fuqarolik jamiyati g‘oyalarining yanada chuqurlashuvi uchun imkoniyatlar yaratadi. Hozirgi davrdagi rivojlangan mamlakatlarning asosiy strategik vazifasi – turli sotsial guruhlarning manfaatlarini hisobga olish va muvofiqlashtirish yo‘li bilan umumfuqaroviy konsensusga erishish, jamiyatni integratsiyalashga qaratilgan fuqarolik birdamligini ta’min-lashdan iboratdir.

Xulosa qilib aytganda, fuqarolik jamiyati an’anaviy jamiyatlarning bir necha ming yillab rivojlanib va takomillashib borishining mantiqiy natijasi va hosilasi o‘laroq shakllandi. Bu jamiyatning paydo bo‘lishi va rivojlanishida G‘arbiy Yevropada inson huquqlari va erkinliklarining nazariy qarashlardan amaliy hayotga aylanishi, shakllangan huquqiy davlatlarning yanada rivojlanishi fuqarolik jamiyatining shakllanishini zarurat qilib qo‘yganligi muhim ahamiyat kasb etdi.

XXI asr boshlariga kelib fuqarolik jamiyati g‘oyalari va bu kabi jamiyat qurish tajribasi Osiyo va Lotin Amerikasi mintaqasidagi mamlakatlar uchun ham yangilik bo‘lmay qoldi. Fuqarolik jamiyati har bir mamlakatning rivojlanishi uchun zaruriy shart-sharoit, “ma’naviy ijtimoiy resurs” sifatida o‘zini namoyon qila boshladi. Shuning uchun ham O‘zbekiston mamlakatida ham 1995-yilda fuqarolik jamiyati qurish asosiy strategik pirovard maqsad sifatida e’lon qilindi. Mustaqillikning o‘tgan 27 yili ichida mamlakatda fuqarolik jamiyatining huquqiy asoslari, sotsial strukturalari, institutlari rivojlangan mamlakatlar tajribasi va milliy an’analar asosida qaror topa boshladi. Hozirgi davrga kelib mamlakat fuqarolik jamiyati qurish islohotlarini yanada chuqurlashtirish pallasiga kirdi. Fuqarolik jamiyati qurish sari intilish davom etmoqda.

Takrorlash uchun savollar

1. Hozirgi davrdagi rivojlangan davlatlardagi fuqarolik jamiyatining tuzilmasi deganda nimani tushunasiz?

2. Rivojlangan davlatlarda fuqarolik jamiyati tuzilmalari qay tarzda va qanday zarurat asosida shakllandi?

3. Rivojlangan davlatlarda fuqarolik jamiyatining tuzilmalarining (institutlarining) tizimli va funksional jihatlari nimalarda namoyon bo'ladi?

4. Fuqarolik jamiyati intstitutlariga (tuzilmalariga) nimalar kiradi?

5. Rivojlangan mamlakatlarda fuqarolik jamiyatining yana qanday yangi tamoyillari shakllandi?

Test savollari

1. Rivojlangan G'arb davlatlarida fuqarolik jamiyatining dastlabki rasmiy institutlariga qaysilar kiradi?

A) Gildiyalar va korporativ birlashmalar

B) Yangi va eski tipdagi uyushmalar va korporativ birlashmalar

C) Hunarmand va savdogarlarning o'z-o'zini himoya qilish va shaharlarni boshqarish institutlari

D) Diniy uyushmalar, maktablar va turar joyi bo'yicha xavfsizlik va tartibni ta'minlovchi ijtimoiy guruhlar

2. "Jamiyat strukturasi" (tuzilmasi) deganda nimani tushunasiz?

A) "Struktura" (tuzilma) tushunchasi umumiy ma'noda jamiyatning u yoki bu darajadagi barqarorligi undagi odamlarning o'rtasidagi o'zaro aloqalarni anglatadi

B) "Struktura" (tuzilma) tushunchasi umumiy ma'noda bir butunning u yoki bu darajadagi barqaror unsurlari yoki ular o'rtasidagi o'zaro aloqalarni anglatadi

C) "Struktura" (tuzilma) tushunchasi umumiy ma'noda bir butunning bo'linishi uning u yoki bu darajadagi barqarorligi mazmunini anglatadi

D) "Struktura" (tuzilma) tushunchasi biron-bir institutni anglatadi

3. "Jamiyatning sotsial strukturasi (tuzilmasi)" ma'nosini beruvchi fikrni belgilang:

A) U jamiyatning (institutlarning, odamlarning) ichki tuzilishini ifodalab, tartibga solingan sotsial munosabatlar, sotsial aloqalar va ularning o'zaro aloqalari yig'indisi demakdir

B) U jamiyatning (shuningdek, davlatning) ichki va tashqi tuzilishini ifodalab, tartibga solingan sotsial siyosiy institutlar, sotsial harakatlar va ularning o'zaro aloqalari yig'indisi demakdir.

C) U jamiyatning (birlikning, guruhlarning) ichki tuzilishini ifodalab,

tartibga solingan sotsial birliklar, sotsial institutlar va ularning o'zaro aloqalari yig'indisi demakdir.

D) U jamiyatning (shuningdek, davlatning) ichki va tashqi sohasida faoliyat yuritadigan siyosiy institutdir.

4. Quyidagi tasniflardan qaysi biri fuqarolik jamiyatiga tegishli?

A) Fuqarolik jamiyati bozor iqtisodiyoti va huquqiy davlat sharoitida davlat tasarrufida bo'lgan erkin va teng huquqli individlarning o'zaro munosabatlaridagi plyuralizmdan tashkil topadi.

B) Fuqarolik jamiyati bozor iqtisodiyoti va huquqiy davlat sharoitida davlat tasarrufida bo'lmagan erkin va teng huquqli individlarning o'zaro munosabatlaridagi plyuralizmdan tashkil topadi.

C) Fuqarolik jamiyati bozor iqtisodiyoti va huquqiy davlat sharoitida davlat bilan hamkorlik qiladigan erkin va teng huquqli individlarning o'zaro munosabatlaridagi plyuralizmdan tashkil topadi

D) Fuqarolik jamiyati erkin va fozil jamiyat

5. Quyidagilardan qaysi biri fuqarolik jamiyati tuzilmasi?

A) Nodavlat ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va institutlar (xususiy mulk, mehnat, tadbirkorlik va hokazo)

B) Davlat ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari va institutlari (ijtimoiy mulk, mehnat taqsimoti, savdo-sotiq va hokazo)

C) Nodavlat ijtimoiy-iqtisodiy iqtisodiyot, siyosiy institutlar (huquqiy organlar, turli xil mehnat shakllari va hokazo)

D) Hokimliklar, meriyalar va provinsiyalar

6. Fuqarolik jamiyatining ijtimoiy-siyosiy sohasi o'z ichiga quyidagllardan qaysi birini oladi?

A) Fuqarolarning shaxsiy yashash shakllari (maishiy turmush, dam olish va boshq.); ijtimoiy, siyosiy organlar (mudofaa tashkilotlari, ijtimoiy himoya tizimi, parlament, deputatlar korpusi, mahalliy hokimiyat organlari); mahalliy hokimiyat organlari va boshqalar

B) Fuqarolarning ijtimoiy, siyosiy va shaxsiy huquqlari, davlat oldidagi burchlari, ularni siyosiy jarayonlarda ishtirok etishi, fuqarolarning mol-mulklari

C) Fuqarolar ijtimoiy-siyosiy faolligining turli shakllari (majlislar, namoyishlar va boshq.); ijtimoiy, siyosiy tashkilotlar va harakatlar (kasaba uyushmalari, kam ta'minlangan qatlamlarga yordam uyushtirish jamiyati, nogironlar jamiyati, partiyalar va boshq.); o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat ommaviy axborot vositalari

D) Fuqarolarning ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlar, islohotlar, modernizatsiya jarayonlari

7. Rivojlangan mamlakatlar jamiyati strukturasida o'rta sinfning

aholiga nisbatan hissasi necha foizni tashkil etadi?

A) 40

B) 35-38

C) 60-70

D) 20-25

8. Eng boy va eng kambag'al qatlamlar daromadlarining o'zaro nisbati qaysi javobda to'g'ri ifodalangan?

A) AQSHda 7:1, Fransiyada 6:1, Buyuk Britaniyada 4:1, GFR, Shvetsiya, Niderlandiya Qirolligida 3:1, Yaponiyada 4:1

B) AQSHda 6:1, Fransiyada 4:1, Buyuk Britaniyada 3:1, GFR, Shvetsiya, Niderlandiya Qirolligida 5:1, Yaponiyada 3:1

C) AQSHda 15:1, Fransiyada 11:1, Buyuk Britaniyada 12:1, GFR, Shvetsiya, Niderlandiya Qirolligida 10:1, Yaponiyada 4:1

D) AQSHda 12:1, Fransiyada 9:1, Buyuk Britaniyada 8:1, GFR, Shvetsiya, Niderlandiya Qirolligida 5:1, Yaponiyada 4:1

9. Quyidagi javoblarning qaysi birida rivojlangan mamlakatlar jamiyatlarining sotsial toifalashuvi tavsiflangan?

A) Bir necha sinflarning belgilarini o'zida ifodalaydigan ko'p sonli guruhlarning paydo bo'lishi; ichki sinfiy tabaqalanishlarning faollashuvi; struktura unsurlari harakatchanligining o'sishi; moddiy hayot darajasining oshib borishi

B) Bir necha sinflar belgilarini o'zida ifodalaydigan marginal guruhlarning paydo bo'lishi; ichki sinfiy tabaqalanishlarning pasayishi; struktura unsurlari harakatchanligining so'nishi; moddiy hayot darajasining pasayishi

C) Bir necha sinflar belgilarini o'zida ifodalaydigan universal odamlarning paydo bo'lishi; ichki sinfiy ziddiyatlarni kuchayishi, farovonlikning pasayishi; struktura unsurlari harakatchanligining yetishmasligi; moddiy hayot darajasining bir xil emasligi

D) Bir necha sinflarning belgilarini o'zida ifodalaydigan millatlarning paydo bo'lishi; ichki sinfiy tabaqalanishlarning yo'qolib borishi; struktura unsurlari harakatchanlikning yetishmasligi; moddiy hayotni o'sishiga ishonchsizlikning ortib borishi

10. Fuqarolik jamiyatining ijtimoiy iqtisodiy tayanchi va asosiy ijtimoiy qatlami qaysi javobda to'g'ri ifodalangan?

A) Ishchilar qatlami

B) O'rta mulkdorlar qatlami

C) Jamiyatdagi eng boy aholi qatlami

D) Ilmiy-texnika sohasi menejerlari

4-mavzu. FUQARO, FUQAROVIYLIK VA FAOL FUQAROLIK POZITSIYASI

Reja:

1. Fuqaro va fuqaroviylik tushunchalarining mazmun-mohiyati va asosiy xususiyatlari.

2. Fuqaroviy ong va uning namoyon bo'lish omillari.

3. Fuqaroviy faollik va uning fuqarolik jamiyatidagi o'rni.

Tayanch so'zlar: jamiyat, davlat, fuqarolik jamiyati, fuqarolik jamiyati institutlari, fuqaro, fuqarolik, fuqaroviylik, fuqaroviy ong, faollik, ijtimoiy faollik, huquqiy davlat, fuqaroviy faollik, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy makon, ijtimoiy jarayonlar, siyosiy jarayonlar, davlat va fuqaro munosabatlari.

1. Fuqaro va fuqaroviylik tushunchalarining mazmun-mohiyati va asosiy xususiyatlari

Fuqaro – o'zining fuqaroligi huquqiy jihatdan e'tirof etilgan hamda muayyan jamiyat (davlat) a'zosi bo'lgan shaxsdir. **Fuqarolik** esa huquqiy va axloqiy me'yorlarga ongli rioya etish, ma'lum huquqlardan foydalanish hamda muayyan burchlarni bajarishga mas'ullik bilan yondashadigan, o'z mehnati va jamoadagi faolligi, ma'naviy yetukligi asosida muayyan davlatga mansublikni anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 16-moddasida "**fuqaro** (jismoniy shaxs)" tushunchasi quyidagicha belgilangan: "Fuqarolar (jismoniy shaxslar) deganda, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari, shuningdek, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tushuniladi".

Fuqaroviylik bir davlatga mansublikni anglash, davlatga sodiqlik hamda vatanparvarlik hisi sifatida ham talqin etilishi mumkin. Bunda davlatni, Konstitutsiya va qonunlarni, davlat ramzlarini hurmat qilish, davlat tuzumini va qonun ustuvorligini himoya qilishga tayyor turish fazilatlariga ega bo'lgan shaxs nazarda tutiladi.

O'zbekiston Respublikasida fuqarolik quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- yagona fuqarolik, ya'ni ikki va ko'p fuqarolik tan olinmaydi;
- fuqarolikda tenglik prinsipi mavjud;

- fuqarolikka ega bo'lish, fuqarolikdan chiqish ixtiyoriylikka asoslanadi;

- fuqarolikdan majburiy chiqarishga yo'l qo'yilmaydi;

- O'zbekiston fuqarolari huquqlari, erkinliklari, manfaati mamlakat tashqarisida ham davlat tomonidan himoya qilinadi.

1992-yil 2-iyulda qabul qilingan va 2004-yil 3-dekabrda tahrir qilingan "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida"gi qonun asosida O'zbekistondagi fuqarolik holatlari mustahkamlab qo'yildi. Shaxs fuqaro bo'lsagina, u barcha huquqlardan to'la foydalana oladi va jamiyatni rivojlanishi, mamlakatni xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan burchlarni bajaradi. Shaxsning fuqaroligi uni dunyoning qayerida yashashidan qat'i nazar huquq va manfaatlarini himoya qilishga asos bo'ladi. Ya'ni fuqarolarni fuqarosizlarga nisbatan himoyalanish imkoniyatlari kengroqdir.

Erkinlik shaxsning o'z ixtiyori bo'yicha yashash, hayot kechirish imkoniyati bo'lib, shaxs faqat qonunlarga itoat etishi zarur. Mamlakatimizda har bir kishining erkinligi, uning shaxsiy daxlsizligi bilan ta'minlanadi. Daxlsizlik deganda shaxsning erkinligini cheklovchi hech qanday harakatlarga yo'l qo'yilmasligi tushuniladi. Qonunda belgilangan asoslardan tashqari hech kimning erkinligi cheklanishi, erkinlikka zarar yetkazilishi mumkin emas. Qonun tegishli hollarda kishilarning erkinligini cheklashga yo'l qo'yadi, xolos. Ya'ni ular jinoiy harakatlari sodir etsa yoki shunday harakat sodir etishda gumon qilinsa, shaxsni jamiyatdan ajratishga zarurat tug'iladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 24–42-moddalarida fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini himoya qilish uchta yo'nalishda amalga oshiriladi:

Shaxsiy huquq va erkinliklar: yashash huquqi; shaxsiy daxlsizlik huquqlari; aybsizlik prezumpsiyasi; turar-joy daxlsizligi; erkin ko'chish huquqi; fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi; huquq va manfaatlariga dahldor hujjatlar bilan tanishib chiqish huquqi; vijdon erkinligi.

Siyosiy huquqlar: jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqi; mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar o'tkazish huquqi; jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqi; murojaat qilish huquqi.

Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar: mulkdor bo'lish huquqi; mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va ishsizlikdan himoyalanish huquqi; dam olish huquqi; ijtimoiy ta'minot

huquqi; malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi; bilim olish huquqi; ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi.

Fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari ustuvor huquq hisoblanadi va bu dalil uning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida birinchi o'rinda berilganligida ham ko'rinadi. Shaxsiy huquqlar va erkinliklar fuqarolarning hayoti, sog'ligi, e'tiqodi bilan bog'liqdir. Shaxsiy huquq va erkinliklar insonni shaxs sifatida namoyon etuvchi imkoniyatdir. Siyosiy huquqlar fuqarolik bilan bog'liq bo'lib, u tegishli davlatning fuqarolariga davlat va jamiyat ishlarini boshqarish imkoniyatini beradi. Siyosiy huquqlarga faqat mamlakat fuqarosi ega bo'lishi mumkin. Siyosiy huquqlar orqali fuqarolar, tegishli davlat organlarini tuzish, ularning ishida ishtirok etish, davlat organlari va mansabdorlar faoliyatini nazorat qilish, qonunlar yaratilishida ishtirok etish, siyosat va davlat faoliyati haqida o'z fikrlarini bildirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Fuqarolarning mulkka egalik qilish, mehnat qilish, dam olish, nafaqa olish, tibbiy xizmatdan foydalanish, bilim olish, ilmiy va texnikaviy yutuqlardan foydalanish kabilarga bo'lgan huquqlari "Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar" deb belgilangan. Bu huquqlar davlat tomonidan o'rnatilib, davlatning iqtisodiy qudratining oshib borishi, imkoniyatlarining ko'payishi natijasida kengayib boradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasiga muvofiq fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas. Fuqarolar o'z huquq va erkinliklari oshkora buzilganda (agar fuqaro shunday xulosaga kelgan taqdirda), ularning huquq va erkinlari amalga oshishiga to'sqinlik qiluvchi holatlar mavjud bo'lsa, fuqarolar zimmasiga qonunlarda ko'zda tutilmagan vazifalar yuklansa, sudga murojaat etishga haqlidir.

Mamlakat qonunlarida fuqarolarning burchlari o'rnatilib, ular fuqarolarning huquqlarini buzilmasligi, davlat manfaatlariga ziyon yetmasligi nuqtayi nazaridan belgilanadi. Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan har qanday burch fuqarolar uchun bajarilishi shart bo'lgan majburiyatdir.

Demak, bu birinchidan, har bir fuqaro nafaqat Konstitutsiyaga, balki barcha qonunlarga rioya etishga majburdir. Bu qonuniylik prinsipini mazmun va mohiyatiga mos kelib, ana shu prinsipni amalga

oshishini ta'minlashni nazarda tutadi. Ikkinchidan, har bir fuqaro boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdir.

Fuqarolarning shaxsiy huquqlarini belgilovchi Konstitutsiya normalarida har kimga o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalanish huquqi berilgan bo'lsa (Konstitutsiyaning 27-moddasi), Konstitutsiyaning 48-moddasiga asosan boshqa kishilarning huquqlari va erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga faqat davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarigina majbur bo'lmasdan, har bir fuqaro ham majbur ekanligi ko'rsatilgan.

Konstitutsiyaning bu moddalarida huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yilgan fuqarolarning burchlarini, ularning jamiyat va davlatning rivojlanishi asoslaridan hisoblanuvchi Konstitutsiya va qonunlarga to'la va og'ishmay amal qilish zarurligini, shu asosda ijtimoiy hayotni rivojlantirishni ta'minlashni nazarda tutadi. Konstitutsiya va qonunlarga rioya qilmaslik xavfsizlikka, fuqarolar manfaatiga, davlat boshqaruviga umuman Konstitutsiyaviy tuzumga jiddiy zarar yetkazishi mumkin.

Fuqaro fuqaroligi huquqiy jihatdan e'tirof etilgan hamda muayyan jamiyat (davlat) a'zosi bo'lgan shaxsdir. Fuqarolik esa huquqiy va axloqiy me'yorlarga ongli rioya etish, ma'lum huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarishga mas'ullik bilan yondoshuv, mehnat jarayoni va jamoadagi faollik, ma'naviy yetuklik asosida muayyan davlatga mansublik demakdir.

Fuqarolik jamiyati fuqaroviy ong va faollik yuksak bo'lgan sharoitda barpo etilishi mumkin. Fuqaroviylik mamlakatning turli rivojlanish bosqichlarida, shuningdek, jamiyatning bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tish davrida yaqqol namoyon bo'ladi. Hozirgi davrda ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarni o'z boshidan kechirayotgan, ya'ni fuqarolik jamiyati barpo etayotgan turli mamlakatlarda fuqaroviylikning namoyon bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Fuqaroviy faollikning mohiyatini anglash uchun, avvalo, fuqaroviylikning mazmun-mohiyatini tushunish talab etiladi.

Turli ilmiy manbalarda qayd etilishicha, o'z vatani taraqqiyoti uchun har qanday yo'l bilan, xususan, o'zining jismoniy yoki ma'naviy mehnati bilan jamiyatga xizmat qiladigan inson haqiqiy fuqaro sifatida e'tirof etiladi. Bu kabi qarashlar biroz falsafiy ahamiyat kasb etayotgandek tuyulsa-da, aslida, fuqarolik jamiyati barpo etishda aynan fuqaroning faolligi muhim omil sifatida ahamiyat kasb etadi.

Fuqaroviylik dastlabki qarashda huquqshunoslikka oid atamadek tuyuladi. Aslini olganda, bu hodisaning falsafiy, huquqiy, sotsiologik va siyosiy mohiyatlari mavjuddir.

Fuqaroviylik bir davlatga mansublikni anglash, davlatga sodiqlik hamda vatanparvarlik hisi sifatida talqin etilishi mumkin. Bunda davlatni, Konstitutsiyani, davlat ramzlarini hurmat qilish, davlat tuzumini va qonun ustuvorligini himoya qilishga tayyorlik nazarda tutiladi. Fuqaroviylikni insonga huquqiy, ijtimoiy, ma'naviy va siyosiy jihatdan layoqatli ekanligini his etishni ta'minlovchi va jamlovchi tushuncha sifatida ham talqin etish mumkin.

Fuqaroviylikni insonga huquqiy, ijtimoiy, ma'naviy va siyosiy jihatdan o'zining layoqatli ekanligini his etishni o'zida sezadigan shaxsning belgilari sifatidagi tushuncha sifatida ham talqin etish mumkin. **V.Dalning** lug'atida qayd etilishicha, "fuqaroviylik fuqarolik jamiyatini qaror toptirish uchun jamiyatning ongi va bilimi darajasini ifoda etadigan holatdir".

Ko'rinib turibdiki, *fuqaroviylik nafaqat insonning huquqiy maqomi, balki uning bilimi va jamiyatning va o'zining holatini anglashi, turli ijtimoiy me'yorlardan xabardorligi va ularga rioya qilish bilan bog'liqdir.* Bunda fuqarolar tomonidan jamiyat taraqqiyoti yo'lida amalga oshiriladigan o'zaro birdamlik, o'zaro hamkorlik singari ixtiyoriy faoliyatda ishtirok etish ham nazarda tutiladi. Bunday holatda fuqaroviylikda huquqqa nisbatan ma'naviyatning ustuvorligi namoyon bo'ladi. Aslida, an'anaviy jamiyatlarda fuqaroviylik huquqiy mazmunda emas, balki ko'proq ma'naviy-axloqiy ko'rinishda namoyon bo'lishi o'z isbotini topgan.

Sho'rolar tuzumi davrida fuqaroviylik vatanga sadoqat va vatanparvarlik sifatida talqin etilsa-da, u asosan mafkuralashgan ko'rinishda namoyon bo'ldi. Ko'pchilik hollarda fuqaroviylik vatanparvarlik bilan aralashib ketishi kuzatilgan. Aslida esa vatanparvarlik fuqaroviylikning bir ko'rinishidir, xolos. Fuqarolik jamiyati fuqarolarning oddiygina yig'indisi bo'lmagani singari fuqaroviylik ham faqat individuallik ahamiyatiga ega bo'lgan hodisa emas. Fuqaroviylik bir mamlakat hududida yashovchi fuqarolarning o'z vatanlariga sodiqligi, qonunlarni hurmat qilishi, ularga so'zsiz bo'ysunishi, shuningdek, vatannni himoya qilish va umummilliy ahamiyatga ega bo'lgan masalalarda o'z faolligini namoyon qilishni nazarda tutadi. Fuqaroviylikka nisbatan turli fikrlarni umumlashtirsak, u holda unga nisbatan quyidagicha ta'rifni qo'llash mumkin:

"Fuqaroviylik, bir tarafdan, jamiyatda shaxsning oliy darajada mustaqilligini anglatsa, ikkinchi tarafdan, kishilarning jamiyat hayotidagi ishtirokida namoyon bo'ladigan yuqori darajadagi o'zaro birdamlikni nazarda tutuvchi qarashlar majmuyini ifoda etadi".

Quyidagilar fuqaroviylikni ifoda etuvchi muhim jihatlardir:

- fuqaroning o'z haq-huquqlarini anglab yetishi va uni amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasi;
- boshqa fuqarolarning haq-huquqlarini e'tirof etishi va hurmat qilishi;
- fuqaroning o'z xatti-harakati uchun shaxsiy mas'ul ekanligi;
- shaxsning davlat va jamiyat oldida o'zining huquqiy va axloqiy jihatlardan mas'ulligini anglash;
- fuqarolarning bir-birlari bilan o'zaro tengligi;
- yuksak ma'naviy-axloqiy mezonlarga asoslangan holda ijtimoiy voqeliklarga nisbatan obyektiv va tanqidiy yondashuvlarga ega ekanligi;
- hokimiyat organlari, boshqa fuqarolar va jamoat birlashmalari bilan ijobiy muloqot yuritish va hamkorlik qobiliyati;
- bir mamlakat, jamiyat va davlatga, shuningdek, unga tegishli bo'lgan huquqiy, madaniy va tilni o'zida namoyon qilgan, o'zini o'zi anglab qobiliyatini egallagan shaxs.

Fuqaroviylikni shaxsning faolligi darajasi nuqtayi nazaridan shartli ravishda quyidagi darajalarga ham ajratib ko'rsatish mumkin:

- fuqaro mas'uliyatli, ongli va vijdonli bo'lsa, uni dastlabki pog'onada, ya'ni fuqaroviy xususiyatlarga ega bo'lgan shaxslar qatorida baholash mumkin;
- agar fuqaroda atrofda bo'layotgan voqea-hodisalarga nisbatan ma'lum bir munosabat bildira olish qobiliyati shakllangan bo'lsa, uni o'z fuqaroviy nuqtayi nazariga ega bo'lgan shaxs sifatida e'tirof etish mumkin;
- agar fuqaro o'z haq-huquqlari va burchi, ulardan amalda foydalanish yoki bajarish ko'nikmalarini egallagan bo'lsa, uni faol fuqaro sirasiga qo'shish mumkin.

Fuqaroviylikning tugal yoki to'kis ekanligini quyidagi mezonlar vositasida talqin qilish mumkin:

1. Agar fuqaroviy pozitsiya hali shakllanmagan, fuqaroviy xususiyatlar, o'z haq-huquqlari uchun kurashish istagi to'liq namoyon bo'lmasa, u fuqaroviylikning eng quyi darajasida turgan bo'ladi.

2. Fuqaro o'z haq-huquqlari uchun kurashishga moyil bo'lsa, u haqda o'z bilim va qobiliyatini namoyon qilishga tayyor bo'lsa, bunda u

fuqaroviylikning o'rta darajasini egallagan bo'ladi.

3. Agar shaxsda fuqaroviy xususiyatlar hamda faol fuqarolik pozitsiyasi to'liq shakllangan, o'z haq-huquqlari uchun amaliy harakatga kirish ishtiyoqi yaqqol namoyon bo'layotgan bo'lsa, u holda uni yuqori darajada fuqaroviylik namoyon qilayotgan shaxs sifatida talqin etish mumkin.

Shaxslarning fuqaroviylik sifatlari jamiyat a'zolarini safarbar etish va yo'naltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Fuqaroviylik shaxsning o'z tevarak atrofida bo'layotgan voqea-hodisalarga nisbatan faol munosabatini, fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirishdagi ishtirokini anglatadi. Shuningdek, fuqaroviylik jamiyat oldida ma'lum bir maqsadning shakllanishi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Albatta, jamiyatda fuqaroviylikning rivojlanishi uchun tegishli ma'naviy, ijtimoiy va tarbiyaviy chora-tadbirlar ko'rish, uning rivojlanishi uchun qulay ijtimoiy muhit yaratish ham muhim ahamiyatga egadir.

Fuqaroviylik shaxsning siyosiy jihatdan komillikka erishishi bilan uzviy ravishda bog'liq bo'lib, komillik darajasiga yetgan shaxs siyosiy jarayonlar va hodisalarga qiziqish bilan qaraydi, ro'y berayotgan voqelikni mustaqil ravishda tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'ladi. Aynan ana shunday qobiliyatga ega bo'lgan fuqaro kezi kelganda o'z vatani taqdiri uchun befarq bo'lmaydi, vatan uchun o'zining fidoyiligini namoyon qiladi. Vatanparvarlik ruhiyatini o'zida o'zlashtirgan, mas'uliyat hissiga ega bo'lgan, siyosiy madaniyati yuksak va o'zining siyosiy ongini boyitib boradigan jamiyat a'zosini haqiqiy fuqaroviylikka ega bo'lgan shaxs sifatida baholash mumkin.

2. Fuqaroviy ong va uning namoyon bo'lish omillari

Fuqaroviy ongning mazmun-mohiyatini anglab yetish uchun uning omillarini bilishga zarurat seziladi. **Fuqarolik ongi** demokratik qadriyatlar, ideallar, huquq va erkinliklar nuqtayi nazaridan shaxs, jamiyat va davlat o'zaro munosabatlarni anglab yetish demakdir. Albatta, har bir davlat va jamiyatda demokratik qadriyatlar o'ziga xos tamoyillar va me'yorlar asosida rivojlanadi. Fuqarolik ongi jamiyat taraqqiyotining shunday bosqichidagi ruhiy holatini anglatadiki, bu davrda demokratik me'yorlar va qadriyatlar hayotning asosiga aylangan bo'ladi.

Fuqarolik ongi iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma'naviy sohalarda me'yoriy, shakllantiruvchi, yo'naltiruvchi, muloqotga yetaklovchi

singari rang-barang vazifalarni bajaradi. Bu vazifalar o'zaro ta'sirlar natijasida o'zaro kesishadi va bir-birini boyitib boradi. Ularning aksariyati davlat va uning institutlaridan iboratdir. Lekin davlat organlari qonunlar, me'yoriy hujjatlar, qoida va talablardan iborat huquqiy doirada faoliyat yuritsa, fuqarolik ongi jamiyatda erkin holda shakllanadi. Fuqaroviy ong me'yorlari ijtimoiy-siyosiy jarayonlar natijasida shakllanadi, uni muvofiqlashtiradigan yoki uni amalga oshiradigan maxsus tuzilmalar bo'lmaydi. Fuqarolik ongining vazifalari alohida olingan individlarning emas, balki butun jamiyat faoliyati bilan bog'liq holda amalga oshadi.

Fuqarolik ongi jamiyat hayotida turli shakllarda namoyon bo'ladi. Kishilar shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlar muhitida o'z qarashlari, tasavvurlari, qadriyatlari, intilishlari, me'yorlarini turli ko'rinishlarida namoyon etadi. Jamiyat, ijtimoiy guruhlar, shaxsning ijtimoiy manfaatlari namoyon bo'ladigan fuqaroviy manfaatlar bir tizim holiga keladi. Aynan u tizim holida bo'lganligi tufayli fuqaroviy manfaatlar har bir shaxsning qadriyatlarini hayotga tatbiq etishini ta'minlaydi, uning jamiyatga, davlatga, boshqa fuqarolarga nisbatan munosabatini shakllantiradi, fuqaroning mas'uliyati, maqsadlari, vazifalarini belgilashga, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan xususiyatlarini shakllantirishga ko'maklashadi. Aynan ana shu tarzda shakllangan fuqaroviy ong fuqarolik jamiyatining shakllanishiga xizmat qiluvchi qadriyatlar, me'yorlar, g'oya hamda tasavvurlarni shakllantirish, jamiyatni komillik va erkinlik sari yetaklashga xizmat qiladi.

Fuqarolik jamiyati bir necha avlod almashinuvini talab etadigan jarayon bo'lganidek, fuqaroviy ong ham tarixiy davr mobaynida shakllanib boradi. Har bir mamlakatdagi fuqaroviy ong ushbu mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy tizimning tabiatiga mos va xos tarzda shakllanadi, ana shu mamlakatga xos bo'lgan ijtimoiy tizim, aloqalar va munosabatlarni aks ettiradi.

Fuqarolik ongi tabiiy va tadrijiy taraqqiyot mahsuli bo'lib, uni sun'iy jihatdan tezlashtirishning iloji yo'q. U ijtimoiy, iqtisodiy hamda siyosiy omillar negizida tadrijiy tarzda shakllanadi. Har bir avlod mavjud demokratik qadriyatlarni o'zlashtiradi va yangilarini yaratadi. Bu jarayonda fuqarolik ongini belgilab beruvchi me'yorlar va qadriyatlarni saqlash hamda uzluksiz takomillashtirish muhim faoliyat hisoblanadi. Tadrijiy taraqqiyot natijasida demokratik tasavvurlar shaxs ongida mustahkamlanib boradi, unda asta-sekinlik bilan fuqarolik tajribasi ham to'planib boradi.

Fuqarolik ongi qator o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Fuqarolik ongi ijtimoiy tizimning o'zgarishi bilan yangilanadigan qadriyatlarga moslashib boradi. Boshqa tarafdan, fuqarolik ongi ijtimoiy o'zgarishlarni keltirib chiqaruvchi faol omil hamdir. U fuqarolarni faol harakatga undovchi tasavvurlar bilan bog'liq bo'lganligi tufayli jamiyat o'zligining yangilanishiga va ijtimoiy taraqqiyotni tezlashtiruvchi omilga aylanishi mumkin. Fuqarolik ongi ijtimoiy taraqqiyotning ruhiy negizini yaratgan holda jamiyatning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Fuqarolik ongi yangi g'oyalarni qabul qilish darajasida ochiq xarakterga egadir. Yangi g'oyalar aynan bir tizimga mos ekanligi o'z isbotini topgan taqdirdagina u asta-sekin jamiyatning hayotiga singib boradi.

Madaniy yangilanishlarning uzluksiz tarzda ijtimoiy ongga ta'sir ko'rsatishi natijasida jamiyatda voqeliklarni his etishning yangicha usullari vujudga keladi va ular, o'z navbatida, fuqaroviy ongning o'zgarishiga ta'sir qiladi.

Mamlakatdagi siyosiy hayotni tubdan o'zgartirish hattoki jamiyatning mulkka nisbatan munosabatni butunlay o'zgartirish mumkin, lekin kishilarning ruhiy qarashlari va qadriyatlarini tezlik bilan o'zgartirib bo'lmaydi.

Fuqarolik ongi faqat umumiy tamoyillarga asoslanmasdan ham o'z mohiyatini o'zgartirib borishi mumkin. Albatta, jamiyatda barqaror bo'lgan, har qanday siyosiy tizimga xos bo'lgan tarixiy tajriba va an'analar singari o'zgarmas xususiyatga ega qadriyatlar ham mavjud bo'lib, ular fuqaroviy ongda ro'y berishi mumkin bo'lgan tezkor o'zgarishlarga bo'lgan intilishlarni tiyib turadi. Yangi tarixiy tajriba aynan ana shunday qadriyatlar negizida vujudga keladi va fuqarolar ongiga singib boradi.

Tushuncha sifatida "fuqarolik ongi" deganda, avvalo, fuqaroning davlat bilan siyosiy-huquqiy munosabatlari nazarda tutilib, kishining biror-bir davlatga mansubligi va shu davlatning qonunlariga bo'ysunishi tushuniladi. Shaxsning huquqiy maqomida ifodalanadigan fuqarolik davlat bilan fuqaro o'rtasida amal qiladigan qator huquq va burchlar bilan mustahkamlangan bo'ladi.

Turli ijtimoiy subyektlarning o'zaro ta'sirlashuvlari ro'y beradigan va manfaatlari ziddiyatlar asosida paydo bo'ladigan jamiyatdagi munosabatlar fuqaroviy ongni boyitib boradi, ular ana shu ongda aks etadi. Shuningdek, fuqaroviy ong kishilararo munosabatlarga ta'sir ko'rsatgan holda ularga aniqlik, yangi mazmun va shakl bag'ishlaydi.

Kishilarning ijtimoiy hayot hamda davlatga nisbatan, shuningdek, shaxs bilan davlat o'rtasida haqiqiy va me'yoriy munosabatlar to'g'risidagi tasavvurlari fuqaroviy ongda mujassamlashgan.

Ijtimoiy-siyosiy, diniy, axloqiy, huquqiy, iqtisodiy va boshqa me'yorlar, talablar, tamoyillar, qoidalar umumiy fuqaroviy dunyoqarash shaklida fuqaroviy ongning tarkibiy unsurlari sifatida namoyon bo'ladi.

Demokratik jamiyatning barqarorligi demokratik qadriyatlar bilan boyishga zaruriyat sezadi. Bu jarayon jamiyatdagi fuqarolarning ijtimoiy erkin sharoitda yashashga qanchalik tayyor ekanliklari, ya'ni shaxslarning fuqaroviy yetukligi va faolligiga bog'liqdir. O'z navbatida, fuqaroviy yetuklik va fuqaroviy mus'uliyat jamiyat a'zolarining fuqaroviy ongi darajasi bilan belgilanadi. Aynan fuqaroviy ong jamiyatning ma'naviy, intellektual va ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini shakllantiradi.

Fuqaroviy ong jamiyatni birlashtirishga xizmat qiladi, umumiy manfaatlar yo'lida fuqarolar o'rtasida kelishuvlar ro'y berishiga xizmat qiladi. Jamiyatda ro'y beradigan turli ijtimoiy-madaniy omillar ta'sirida fuqaroviy ong o'zgarib boradi va fuqaroviylik to'g'risidagi g'oyalar taraqqiyotida o'z aksini topadi.

Davlat va jamiyat, davlat va shaxs o'rtasidagi munosabatlarning tabiati haqidagi bilimlarning kengayishi "fuqaroviylik" tushunchasini qayta-qayta tafakkurlashni taqozo etishi – bu tarixiy taraqqiyot zaruratidir. Ijtimoiy jarayonlar natijasida sayqallangan fuqaroviy madaniyat va fuqaroviy ong kishilarni iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy jihatlardan yuksalib borishini ta'minlaydi.

3. *Fuqaroviy faollik va uning fuqarolik jamiyatidagi o'rni*

Fuqaroviylik va fuqaroviy ong fuqaroviy faollikda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham shaxsning bu sifatlari fuqarolik jamiyatini barpo etishda muhim rol o'ynaydi. Zero, fuqarolik jamiyati nafaqat fuqaroviylik xususiyatlariga ega ongli fuqarolar vositasida, balki faol fuqarolar faoliyati natijasi o'laroq shakllanadi. Ana shu faollikni keltirib chiqaruvchi omillarni o'rganish – fuqarolik jamiyatini shakllantirishning nazariy jihati sifatida muhim ahamiyatga egadir. Zero, bu tushunchalar fuqarolik jamiyatini barpo etishning umumiy va xususiy qonuniyatlarini anglashga imkon beradi.

Fuqaroviy faollikni ijtimoiy-siyosiy va mehnat faoliyatiga ijodiy yondashuv sifatida ham baholash mumkin. Aynan insonning fuqaroviy

faolligi shaxsning to'laqonli rivojlanishiga, undagi imkoniyatlarning to'liq namoyon bo'lishiga xizmat qiladi. Fuqarolik pozitsiyasi hamda fuqaroviy faollikka ega bo'lish jamiyatda ro'y berayotgan barcha voqea-hodisalarni, ularning oqibatlarini bilishga imkon yaratadi, bu jarayonda paydo bo'ladigan muammolarning yechimini topishga yordamlashadi.

Ijtimoiy faollik tushunchasi fuqarolik jamiyati tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir. Bunda jamiyatning davlat faoliyatidan xoli holda jamoaviy tashabbuslar bilan rivojlanishi nazarda tutilmoqda. Bu siyosiy partiyalarga a'zolikni nazarda tutuvchi siyosiy faollik, nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatida ishtirok etish, turli ijtimoiy tashabbuslar va ijtimoiy harakatlarga intilishlarni anglatadi. Shu ma'noda, jamiyat uchun foydali bo'lgan turli dasturlar, loyihalar va jamoat birlashmalarida ishtirok etish ham fuqaroviy faollik sirasiga kiradi.

Aslini olganda, jamiyat a'zolarining asosiy ko'pchiligi jamiyatda mavjud qoidalar asosida faoliyat yuritgan holda doimo ham ijtimoiy faollik ko'rsatavermaydi. Bu kabi loqaydlik jamoat tartibini saqlash nuqtayi nazaridan qandaydir darajada maqbul bo'lsa-da, fuqarolik jamiyatini qurishga salbiy ta'sir ko'rsatadi, vaholanki, fuqarolar faolligi bu kabi jamiyat qurishning asosiy shartlaridan biridir. Zero, loqayd fuqarolar hech qachon o'z huquqlari uchun kurashmaydi. Fuqaroviy faollik – bu o'z kuchiga ishonish, mavjud vaziyatni o'zgartirishga qodirlik hissining yaqqol namoyon bo'lishi bilan vujudga keladigan omildir. Ko'pchilik hollarda fuqaroviy faollikning boshlang'ich nuqtasi ko'proq sotsiologlarni qiziqtirgan masala hisoblanadi. Zero, aksariyat jamiyatlardagi ijtimoiy o'zgarishlar davlat yetakchiligida amalga oshiriladi va jamiyat a'zolari keyinchalik bu o'zgarishlarga moslashib boradi.

Ko'pincha, fuqaroviy faollik sifatlari yoshlarda kuzatiladi. Albatta, fuqaroviy faollikka ta'sir ko'rsatuvchi omillar faqat yosh bilan chegaralanmaydi. Unga shaxsning bilim darajasi, dunyoqarashi, tarbiyasi va hatto yashash manzili ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Aksariyat hollarda yoshlar fuqaroviy faollik ko'rsatishni istashsa-da, siyosiy sohada bunday faoliyat ko'rsatishga unchalik qiziqmaydi. Boshqacha aytganda, yoshlar davlat siyosati o'ta murakkab hodisalardan iborat bo'lganligi uchun ham o'z mafaatlari va istaklarini siyosatchilarga singdirishga qodir bo'lmaydi. Boshqa tarafdan yondashilganda, siyosiy soha yoshlardan ancha uzoq bo'lganligi tufayli yoshlar o'z manfaatlarini davlat siyosati bilan muvofiqlashtirishda turli murakkabliklarga duch keladi. Shu tufayli faqat ularning ozchilik qismi siyosiy partiyalarga

a'zo bo'lishadi, aksariyat qismi esa umuman siyosatga qiziqmaydi.

Jamiyatning biror-bir sohasidagi muammolarni bartaraf etish imkoniyati ko'proq nodavlat notijorat tashkilotlarida mavjud bo'lganligi tufayli ko'pchilik yoshlar shu kabi tashkilotlarga a'zo bo'lib kirishadi. Davlatning boshqaruv tuzilmalarida professional faoliyatga kirish yoshlardan ma'lum bir vaqt ichidagi shakllanadigan tajriba, bilim va ko'nikmalarni talab qilsa, jamoat birlashmalariga a'zo bo'lib kirish uchun bu kabi tajriba talab etilmaydi, balki ularga a'zo bo'lish uchun faqat qiziqishning o'zi yetarlidir.

O'tish davrini o'z boshidan kechirayotgan mamlakatlarda fuqarolar ijtimoiy jarayonlarni boshqarish, mavjud vaziyatni o'zgartirish, ijtimoiy muammolarni bartaraf etish bo'yicha o'z tashabbuslarini ilgari surish zarurligini anglab yetishga intiladi. Bu holat esa turli ko'ngillilar uyushmalarining tuzilishiga sabab bo'ladi. Insonlarda boshqalarga yordam berish, ayniqsa, muammoli vaziyatga tushib qolgan vatandoshlariga, qo'shnilariga ko'maklashish hissi mavjud bo'ladi. Aynan boshqalarga yordam qo'lini cho'zgan kishi nafaqat muammoni bartaraf etishga hissa qo'shadi, balki u o'zligini ham yanada chuqurroq anglay boradi. Shuning uchun bo'lsa kerak, ko'ngillilik yoki ixtiyoriylik butun dunyoda keng tarqalgan hodisalardan biriga aylandi. Bu hodisa ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarni hal etishga o'z hissasini qo'shishga bel bog'lagan kishilarni umumbashariy miqyosda birlashtiradigan jarayonga aylandi. Ko'ngilli uyushmalar o'z faoliyatlarini turli shakllarda amalga oshiradi. Masalan, turli kasalliklarga qarshi kurashish uchun xayriya faoliyatidan boshlab qashshoqlik yoki tabiiy ofatlarga qarshi kurashish shaklida faoliyat yuritadigan minglab nodavlat tashkilotlarning mavjudigi fikrimiz dalilidir.

Insonni ixtiyoriy faoliyat, ya'ni ko'ngilli yoki ixtiyoriy faoliyatga chorlovchi istak negizida har bir kishida o'ziga xos bo'lgan shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlar paydo bo'lishi mumkin. Jumladan, boshqalarga naf keltirish, o'zini namoyon qilish va o'zaro muloqot istagi kishini faollikka yetaklaydi. Kishida ijtimoiy jihatdan o'zini e'tirof etishga bo'lgan ehtiyojlar ham mavjuddir. Professional va hayotiy tajribani qo'llash istagi ham kishini shunday faoliyatga chorlashi mumkin. O'z imkoniyatlarini ishga solish, o'z g'oyalarini tatbiq etish istagi ham kishini harakatlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatish va ishtirok etish ehtiyoji ham kishini faollik sari undaydi.

Ko'ngilli yoki ixtiyoriy faoliyat inson uchun o'z shaxsiy ehtiyojlari bilan jamiyat ehtiyojlarini uyg'unlashgan holda hayotga tatbiq etish uchun o'ziga xos imkoniyatdir. Bu ehtiyoj kishilarning o'z huquq va burchlarini anglashi hamda insonning barkamolligidan dalolat beradi. Inson ko'ngilli faoliyat yuritar ekan, u axloqiy jihatdan takomillashib boradi, o'z muloqot madaniyatini rivojlantiradi, o'zaro hamkorlik va birodarlik hissi, insonparvarlik tuyg'ularini oshirib boradi. Shaxsning ko'ngilli faoliyati faol va ijodiy xarakterga ega bo'lib, uning vositasida inson o'z salohiyatini namoyon etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu faoliyat tevarak-atrofda ro'y berayotgan voqea-hodisalarga nisbatan faol munosabatning shakllanishiga, siyosiy voqelikka ziyraklik bilan munosabatda bo'lishiga yordam beradi.

Aynan fuqaroviy faollik o'zining bir necha jihatlari bilan ajralib turadi:

- faol fuqaro guruhiga mansub kishilar asosan siyosiy va iqtisodiy tizim to'g'risida bilim olishga tayyor bo'lgan kishilardan iboratdir;
- faol fuqarolarda o'z haq-huquqlarini faol amalga oshirish uchun bilim va qobiliyat mavjud bo'ladi;
- faol fuqarolarda ana shu bilimlarni joriy qilish uchun ko'nikmalar shakllangan bo'ladi .

Fuqarolik faolligi hozirgi davrda davlat va jamiyat boshqaruvi uchun misli ko'rilmagan katta kuch sifatida namoyon bo'lmoqda. Turli ijtimoiy loyihalarga birlashgan fuqarolar o'z atrofida ro'y berayotgan, paydo bo'layotgan va mavjud muammolarni o'rganish, ularning yechimlarini topish, ularni hukumatga taqdim yoki taklif etish kabi ko'plab imkoniyatlarga egadir. Turli-tuman nodavlat tuzilmalaridagi yetuk mutaxassislar bozor munosabatlari sharoitida kutilmaganda ro'y beradigan muammolar, bozorning betartib jarayonlarida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etishda hukumatga ko'maklashmoqda.

Ma'lumki, bozor munosabatlari sharoitida rang-barang ijtimoiy muammolar yuzaga kelishi avj oladi, lekin hukumat ularning yechimini topishda shoshib qoladi, ular yechimini doimo ham o'z vaqtida hal etishga ulgurmay qoladi. Boshqacha aytganda, hozirgi murakkab zamonada bu kabi muammolarni hukumat har doim ham o'z vaqtida payqash resurslariga ega emas. Hayotda shunday muammolar mavjudki, ularning oqibati jamiyat uchun qanchalik mudhish bo'lmasin, ularning mavjudligini tan olish yoki ularni bartaraf etish uchun aniq belgilangan institutlar topilmay qoladi. Agar hukumat fuqaroviy faollikning yuzaga chiqishiga imkoniyat yaratmas ekan yoki turli nodavlat va jamoat

birlashmalariga ana shunday muammolarni aniqlash va bartaraf etishiga yetarlicha shart-sharoitlar yaratmas ekan, fuqarolik jamiyatini barpo etish muammolari yechimini topib bo'lmaydi.

Fuqarolik jamiyati rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida faoliyat yurituvchi nodavlat va jamoat birlashmalari mavjud bo'lib, ular juda ham serqirra faoliyat yuritadi. Masalan, ular ko'pincha jamiyatdagi aholining ma'lumotlilik darajasini oshirish yoki zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish bo'yicha ma'lum tadqiqotlar olib borishadi, uning natijalarini qonunlarga o'zgartishlar kiritish uchun parlamentga taqdim etishadi. Tabiatni asrash yoki ekologik muammolarni bartaraf etish bo'yicha yoki yuqumli kasalliklarni oldini olish, shahar havosining ifloslanishiga chek qo'yish, chiqindilardan tozalash bo'yicha nodavlat tashkilotlar hukumatga qator amaliy loyihalarni taklif etishi odatga aylandi.

Xulosa qilib aytganda, fuqarolik jamiyati uchun fuqaroviylik, fuqaroviy ong va fuqaroviy faollik o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Taraqqiyot sari intilgan har qanday jamiyat uchun inson salohiyatidan samarali foydalanish, insonning o'zligida, uning qalbida tabiiy ravishda mavjud bo'ladigan o'zaro birdamlik, sahiylik, bag'rikenglik kabi qadriyatlarga doimo zarurat sezadi va ularning namoyon bo'lishi tadoriklarini ko'rib boradi.

Nazorat savollari

1. Fuqaroviylikning mazmun-mohiyati nimalardan iborat?
2. Fuqaroviylikning asosiy xususiyatlari haqida nimalar deya olasiz?
3. Fuqaroviy ong nima?
4. Fuqaroviy ongning namoyon bo'lish omillari nimalarda ko'rinadi?
5. Fuqaroviy faollik va uning fuqarolik jamiyatidagi o'rnini qanday baholaysiz?

Test savollari

1. Qaysi javob fuqaroviylikni aniqroq ifoda etadi?

A) Biror bir davlatga oid bo'lish
B) Fuqarolik pasportiga ega bo'lish
C) Huquqiy, ijtimoiy, ma'naviy va siyosiy layoqatlilik
D) Barchasi to'g'ri

2. Huquqiy manbalarda qanday fuqaro haqiqiy fuqaro sanaladi?

A) O'z vatani taraqqiyotiga jismoniy yoki ma'naviy mehnati bilan

hissa qo'shgan shaxs
B) To'laqonli huquqiy hujjatlarga ega bo'lgan shaxs
C) Jinoyat sodir etmagan shaxs
D) Befarq bo'lmagan shaxs

3. Sho'rolar davrida fuqaroviylikda qaysi jihat ustuvorlik qilgan?
A) Kommunistik mafkura
B) Vatanparvarlik
C) Pasportga ega bo'lish
D) Qonun doirasida yashash

4. Fuqaroviylikning xususiyatlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
A) O'z haq-huquqlarini tushunish va amaliyotda qo'llay bilish
B) Boshqalarning haq-huquqlarini hurmat qilish
C) Mas'uliyatlilik, tenglik
D) Barchasi to'g'ri

5. Faol fuqarolik darajasi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
A) Mas'uliyatli, ongli va vijdonli
B) Voqea-hodisalarga nisbatan munosabati shakllangan
C) O'z haq-huquqlarini chuqur tushunadi
D) O'z huquqini amaliy jihatdan himoya qila oladi

6. Faol fuqarolikning xususiyatlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
A) Siyosiy va iqtisodiy tizim to'g'risida bilim olishga tayyorlik
B) O'z haq-huquqlarini faol amalga oshirish uchun bilim va qobiliyat mavjud
C) Bilimlarni joriy qilish uchun ko'nikmalar mavjud
D) Barchasi to'g'ri

7. Fuqarolik jamiyatida fuqarolarning passivligi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
A) ijtimoiy munosabatlar va jarayonlarga befarq
B) Jamoaviy ishlarda faollik ko'rsatadi
C) Faqat davlatga ishonadi
D) Imkoni darajasida faoliyat yuritadi

8. Fuqaroviy faollik dastlab qanday ko'rinishda namoyon bo'ladi?
A) Ko'ngillilar jamiyatlari vositasida
B) Siyosiy partiyalar orqali
C) Tadbirkorlik orqali
D) Mahalla faoliyati orqali

9. Fuqaroviy faollik qanday institutlar orqali namoyon bo'ladi?

A) Fuqaroviy tashabbuslar
B) Siyosiy partiyalar
C) Nodavlat-notijorat tashkilotlar
D) Barchasi to‘g‘ri

10. Fuqaroviy faollikka to‘sqinlik qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?

A) Fuqarolik jamiyati shakllanmay qoladi
B) Fuqarolik institutlari faoliyati namoyon bo‘lmaydi
C) Fuqarolarda norozilik kayfiyati paydo bo‘ladi
D) Barcha javoblar to‘g‘ri

5-mavzu. QONUN USTUVORLIGI – FUQAROLIK JAMIYATINING ASOSIY TAMOYILI

Reja:

1. *Qonun ustuvorligi tushunchasi.*
2. *Hokimiyatning uchga bo'linish prinsipining qonun ustuvorligini amalga oshirishdagi o'rni.*
3. *Sud-huquq tizimini demokratlashtirish va modernizatsiyalash jarayoni*

Tayanch so'zlar: Qonun ustuvorligi, hokimiyatning uchga bo'linishi, hokimiyatlarning mustaqilligi, konstitutsiyaviy qonunlar, qonunlar, sanksiya, sud hokimiyati, sud-huquq tizimi, qonun ustuvorligi, inson huquq va erkinliklari, jinoiy jazolarni liberallashtirish, huquqiy ong va madaniyat, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati institutlari.

1. Qonun ustuvorligi tushunchasi

O'zbekistonda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishning eng asosiy prinsiplaridan biri – qonun ustunligi jamiyatda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash kafolatlaridan biridir. Mustaqillikning dastlabki davridayoq mamlakatda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishning besh prinsipidan biri – qonun ustuvorligini ta'minlash, deb e'lon qilindi. Mamlakatda inson huquq va erkinliklarini ta'minlashning insoniyat tarixida shakllangan tajribasi, tarixiy taraqqiyotning so'nggi yutug'i – fuqarolik jamiyati talablari asosida sud-huquq tizimini shakllantirish faqat mustaqillik davriga kelib amalga oshirildi.

Har bir sivilizatsiyaga erishgan mamlakatlarda me'yoriy-huquqiy aktlar huquqning yetakchi manbasi (asosi) hisoblanib, asosiy ijtimoiy munosabatlar ana shu manba asosida muvofiqlashtiriladi. Me'yoriy huquqiy aktlarning asosiy turlaridan biri – bu qonundir.

Qonun huquq manbasi sifatida hattoki qadimgi davlatda ham amal qilingan. Tarixdan ma'lumki, Xammurapi qonunlari (mil. av. XVIII asr), Manu qonunlari (mil. av. I asr) va boshqa qator huquqiy yodgorliklar hayotda keng qo'llanilgan. Qadimgi davlatlarda asosiy huquqiy me'yorlar odatga ko'ra monarxlarning shaxsiy irodasini ifodalar, qonun yoki boshqa shakllarda amalga oshirilar edi.

Antik davrga kelib davlatlar (qadimgi Afinada mil. av. VI asrda, qadimgi Rimda V–II asrlarda) qonunlarni hokimiyatning vakillik

organlari, xususan, xalq majlislari tomonidan qabul qilish tajribasi rivojlandi. Lekin bu tajriba uzoq davr unchalik rivojlanmay turdi. Faqat XIII asrga kelib monarxik hokimiyatlar vakolatlarini cheklash uchun shart-sharoitlar tug'ildi. Hattoki ingliz qiroli 1215-yilda Buyuk ozodlik xartiyasini imzolashga majbur bo'lgan edi. Unga muvofiq ravishda bo'lajak ingliz parlamentining alohida qonun chiqarish huquqi kengayib bordi.

XVII–XVIII asrlarda qonunga doir nazariyalarning shakllanishiga ikkita klassik nazariyalar – hokimiyatning bo'linish nazariyasi (J.Lokk, Sh.L. de Monteskye va boshq.) va xalq suvereniteti (J.J. Russo) kuchli ta'sir etdi. Ijroiya hokimiyatning qonun chiqaruvchi hokimiyatga nisbatan bo'ysunish holati zaruratidan kelib chiqib qonun ustunligi qoidasi shaklantirildi.

XVIII–XIX asr oxirida parlament ustunligi g'oyasi davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi va vakillik organi sifatida aksariyat Yevropa mamlakatlarida konstitutsiyaviy jihatdan mustahkamlandi. Bu davrga kelib, qonun mamlakat aholisi yoki uning ko'pchilik qismi umumiy suveren irodasining ifodalanishi sifatida tushunila boshlandi va unga huquqning asosiy manbasi sifatida qarala boshlandi. Jumladan, Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasining 6-moddasida (1789-y.) qonun – uni tuzishda shaxsan yoki o'z vakillari vositasida ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan fuqarolarning umumiy suveren irodasining ifodalanishi degan prinsip mustahkamlab qo'yildi.

XIX asr oxiri – XX asrda G'arbiy Yevropa olimlari o'rtasida qonunni dualistik talqin etish rivojlandi. Qonun davlatning qonun chiqaruvchi hokimiyati akti sifatida emas, balki umuman davlat hokimiyatining umumiy me'yorlar xarakterini kasb etuvchi akti sifatida amal qila boshladi. Rasmiy ma'noda qonun davlat hokimiyatining ijroiya va qonun chiqaruvchi organlari tomonidan chiqarilgan har qanday aktlarini o'z ichiga oldi. Bu bilan ijroiya va qonun chiqaruvchi organlar o'rtasida tenglik, hattoki ijroiya hokimiyatni qonun chiqaruvchi hokimiyatga nisbatan birinchiligi asoslana boshlandi. Qonun hodisalarning cheklanmagan miqdorini nazarda tutgan huquq me'yori, umumiy qoida sifatida baholandi: huquq me'yori hokimiyat organlari irodasining to'g'ridan to'g'ri ifodasini tashkil etadi: bu iroda belgilangan tartibda ifodalanishi zarur.

Ma'lumki, huquqiy davlat – mamlakatda yaqin davrdan buyon muomalaga kirgan tushuncha hisoblanadi. Albatta, bu tushunchani nihoyatda qisqacha ifodalaganda davlat huquqqa bo'ysunishi zarur. Bu

amalda umuminsoniy qadriyatlarning sinfiy qadriyatlardan ustunlik qilishini anglatar edi. Chunki huquqiy davlatda davlat ustidan huquqning hukmronligiga amal qilinadi.

Shuningdek, jamiyat hayotining barcha sohalarida qonun ustunligi, hokimiyatlarning bo'linishi, fikrlar plyuralizmi, oshkoralik, sudning yuqori roli, fuqarolar va davlatning o'zaro mas'ulligi taqozo etiladi. Faqat ko'rsatilgan belgilarning mavjudligi va keng rivojlanganligi sharoitidagina huquqiy davlatni shakllantirish to'g'risida so'z ketishi mumkin.

Huquq ustunligi ikkita jihatning o'zaro birikuvini taqozo etadi:

1) institutsiyaviy-huquqiy (davlat hokimiyati tizimini huquqiy tashkil etish shaklida);

2) me'yoriy-huquqiy (huquqiy qonunning ustunligi ko'rinishida).

Lekin davlat bilan huquqning o'zaro aloqalari ancha murakkab kechadi. Bir tomondan, huquqni obyektivlashtirishning asosiy yo'li qonun – davlat akti orqali o'tadi. Davlat bir vaqtning o'zida sud, tergov boshqa organlar tizimi orqali huquqiy ko'rsatmalarni amalga oshirishni ta'minlaydi. Davlat bu yo'l bilan o'zining irodasini, siyosiy manfaatlarini hayotda amalga oshirishga intiladi.

Huquq bilan qonun o'rtasidagi jiddiy farqlanishlarni tahlil etish asnosida ulardan birinchisining davlat-huquqiy aktlar vositasida o'ziga xos institutsiyaviy tuzilma xususiyatiga ega bo'lgan, huquq manbasi yoki huquq shakli deyiladigan ijtimoiy kuchli bo'lishi va mustaqil qadriyatlari bilan ajralib turadigan o'ziga xos noyob hodisa ekanligini ko'ramiz.

Yevropa doktrinasi huquq manbalari tizimida qonunning ustunligini rasmiy jihatdan mustahkamlashni va qonun ustunligining (hokimiyatlar bo'linishi, sud mustaqilligi, konstitutsiyaviy nazorat) huquqiy-siyosiy kafolatlari tizimi, shuningdek, qator huquqiy bo'lmagan sharoitlar (moddiy farovonlikning ma'lum darajasi, ijtimoiy qatlamlar va sinflarning o'zaro sivilizatsiyalashgan munosabatlari, jamiyat a'zolarining qanchalik axborotlashganligi) mavjud bo'lishini ko'zda tutadi.

Mohiyatan, qonun ustunligi konsepsiyasi "shaffof" ko'rinishda (uning an'anaviy tushunchasida) faqat klassik musulmon huquqida amalga oshirildi. Ko'pincha, qonun ustunligi prinsipi e'lon qilingan huquqiy tizimlarda uning amal qilishi uzoq davom etmasligini ham ko'rish mumkin. Bu kabi holatlar parlamentning vakolatlarini ijroiya hokimiyati foydasiga cheklashga moyillik bilan bog'liqdir. Shuning uchun qonunning huquq manbalari tizimidagi o'rni ko'p jihatlardan

parlament va hukumat o'zaro nisbatiga qarab belgilanadi. Shuningdek, qonun ustunligi prinsipi amal qilishining cheklanishi uning xalqaro huquq me'yorlari bilan o'zaro aloqalari oqibatida ham ro'y berishi kuzatilgan.

Qonun ustunligi huquqiy davlatning belgisi sifatida shuni anglatadiki, iqtisodiyot, siyosat, ijtimoiy, madaniy sohalarda asosiy ijtimoiy munosabatlar, umuman, har doim ham nafaqat qonun bilan, balki oliy organlar qabul qilgan oliy huquqiy hujjatlar bilan ham huquqiy tartibga solinadigan holatlar ko'p uchraydi. So'ngra, **qonun ustunligi** uning barchaga baravar taalluqli ekanligini (ya'ni qonun talablarining barcha huquqiy munosabatlar subyektlariga teng darajada tarqalishini), butun bir davr ichida va shaxslar doirasida, mamlakatning barcha hududlarida to'la ko'lamli tarzda amal qilishini anglatadi. Huquqiy davlatda qonunlar huquqiy tartibga solishga zarurat sezayotgan eng muhim munosabatlarni muvofiqlashtiradi. Me'yoriy-huquqiy aktlar o'zlarining huquqiy kuchiga bog'liq holda qonunchilik tizimini tashkil etadi.

Huquqiy (yuridik) kuch – bu mazkur me'yoriy-huquqiy aktning bo'ysunish darajasi, uning huquqiy aktlar iyerarxiyasidagi o'rnidir. Konstitutsiya oliy yuridik kuchga egadir. Hokimiyatning hech bir tarmog'i Konstitutsiyani inkor etish huquqiga ega emas.

Yuridik kuch darajasi bo'yicha Konstitutsiyadan keyin qonunlar turadi. Qonunlar jamiyatning asosiy masalalari bo'yicha qabul qilinadi. Ular bevosita davlatning irodasini ifodalaydi. Barcha qolgan me'yoriy-huquqiy aktlar qonunlarni bajarish asosida qabul qilinadi. Qonunlarni faqat oliy vakillik organi qabul qilishi mumkin. Qonunlar faqat boshqa qonunlar bilan o'zgarishlarga uchrashi yoki bekor qilinishi mumkin. Qonunchilik tizimiga qonunlardan tashqari hukumat, vazirliklar va muassasalarning qonunosti hujjatlari kiradi. Ular o'z kompetensiyalari doirasidagi, iqtisodiyotning tegishli sohalari ichidagi va hokimiyatning mahalliy organlari qonunosti aktlariga doir munosabatlarni tartibga soladi.

Huquqiy davlat sharoitida qonunlarni individual yoki guruhiy irodalarining emas, balki umumxalq irodasi sifatida namoyon bo'lishini nazorat qilish tizimi bo'lishi taqozo etiladi. Umuminsoniy qadriyatlar talablariga javob bermaydigan qonunlar ustunligi diktaturani o'rnatishga olib kelmasligi uchun nazorat tizimi qonunchilikning saqlanishiga kafolat berishi, o'zboshimchalikka yo'l qo'ymasligi lozim. Huquqiy davlatda bu funksiyalar sud tizimiga topshirilgan. Sudlar Konstitutsiyani amal

qilishini ta'minlash vositasidir. Ular qonun chiqaruvchi va ijroiya hokimiyatlari xatti-harakatining qonuniyligini tekshirish huquqiga ega bo'lmog'i lozim. Amaliyotda sud tizimi kiradigan Konstitutsiyaviy nazoratning bo'lishi muhim ahamiyatga egadir. Qonunni adolat g'oyalariga, umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligiga, o'zining huquqiy tabiatiga muvofiq bo'lishi uning huquqiy davlat shart-sharoitlari talablariga javob berishini anglatadi. Qonunni xalqning ko'pchilik qismi irodasini ifodalashini aniqlashning o'ziga xos mexanizmlari mavjud: jamoatchilik fikrini to'liq ifodalash, oshkoralik, so'z erkinligi. Davlat amaliyotida saylovlar va referendumlar vositasida o'z qonunlarini xalq irodasi asosida qabul qilinganligini, ularning huquqiy ekanligini mustahkamlash tajribasidan keng foydalaniladi.

Qonun ustunligi nafaqat qonunlarning mazmunini aks ettiradi, balki davlat, uning organlari va mansabdor shaxslarining ham barcha fuqarolar bajarishi shart bo'lgan qonunlarga so'zsiz bo'ysunishini ifodalaydi. Qonun ustunligi me'yoriy aktlarning o'zaro ziddiyatlarga kirishishiga yo'l bermaydigan ma'lum iyerarxiyasini anglatadi. Qonunlar xalqaro huquq me'yorlariga muvofiq kelishi lozim. Asosiy qonun (Konstitutsiya) iyerarxiya pog'onasida bosh bo'lishi, boshqa barcha me'yoriy aktlarning unga muvofiq bo'lishi, unga qarshi ziddiyatlarda bo'lmasligi talab etiladi.

Qonun ustunligi mamlakat aholisining umumiy irodasini ifodalashdan tashqari qonunlarni qabul qilish va ularga amal qilish jarayoni uni boshqa me'yoriy aktlardan yuqori turishini, huquqning har qanday tizimida alohida o'ringa ega ekanligini ta'minlashi lozim. Qonunlarni hurmat qilish, ularga so'zsiz amal qilish huquqiy davlatning ajralmas belgisi, barcha fuqarolar ongi va xulqining ajralmas qismidir.

O'zbekistonda qonun ustuvorligi, inson huquq va erkinliklarini ta'minlay oladigan sud tizimi mustaqillik davrida shakllandi. O'zbekiston Respublikasida sud tizimi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, harbiy sudlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar iqtisodiy va ma'muriy sudlari, fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlari, jinoyat ishlari bo'yicha tuman, shahar sudlari, tumanlararo, tuman, shahar iqtisodiy sudlari va tuman, shahar ma'muriy sudlaridan iborat.

O'zbekiston Respublikasida sud O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarida, inson huquqlari to'g'risidagi

xalqaro hujjatlarda e'lon qilingan fuqarolarning huquq va erkinliklarini, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini sud yo'li bilan himoya qilishga da'vat etilgan. Sudning faoliyati qonun ustuvorligini, ijtimoiy adolatni, fuqarolar tinchligi va totuvligini ta'minlashga qaratilgandir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi fuqarolik, jinoiy va ma'muriy sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organidir. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Qoraqalpog'iston Respublikasi oliy sudlari, viloyat, shahar, tumanlararo, tuman sudlari va harbiy sudlarning sudlov faoliyati ustidan nazorat olib borish huquqiga egadir. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi ishlarni birinchi instansiya sudi sifatida va nazorat tartibida ko'radi. U o'zi birinchi instansiya sifatida ko'rgan ishlarni apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida shikoyat berish huquqiga ega bo'lgan shaxslarning xohishiga ko'ra apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida ko'rishi mumkin.

2. Hokimiyatning uchga bo'linish prinsipining qonun ustuvorligini amalga oshirishdagi o'rni

O'zbekistonda faqat mustaqillik davriga kelib qonun ustuvorligining konstitutsiyaviy va boshqa huquqiy asoslari yaratildi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi natijasida jamiyatda qonun ustuvorligining amal qilishi uchun huquqiy shart-sharoitlar tug'ildi. Qonun ustuvorligi prinsipi uning III bobida ikkita – 15–16-moddalarida mustahkamlab qo'yilgan. Konstitutsiyaning 15-moddasiga muvofiq "O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar". Shuningdek, Konstitutsiyaning 16-moddasida "Birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas" degan prinsip joy olgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasida mamlakatda davlat hokimiyati tashkil etilishining quyidagi asosiy konstitutsiyaviy prinsipi mustahkamlangan: "O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanadi". Davlat hokimiyatining bo'linishi prinsipining shakllanishi ilk bor sanoati rivojlangan mamlakatlar fuqarolarining demokratik qadriyatlar asosida

yashashga doir hayot tarzini jamiyatda qo'llashga intilishi, uning natijasida qonun ustuvorligi prinsipi, inson huquq va erkinliklarini ta'minlashga nisbatan tarixiy zaruratning paydo bo'lishi bilan bog'liqdir.

Bu prinsipga muvofiq davlatning qonunlar qabul qilish, ularni ijro etish va odil sudlov borasidagi faoliyati hokimiyatning uch tarmog'i – qonun chiqaruvchi, hukumat va sud hokimiyatlari o'rtasida taqsimlanishi zarur. Bunda hokimiyatning biror tarmog'i boshqa birining faoliyati sohasiga aralashmasligi zarur. Uch hokimiyatning o'zaro bir-birini tiyib turishi hokimiyatning barcha tarmoqlarini o'zaro mutanosiblashtiradi, ularning o'zaro munosabatlarida muvozanat paydo bo'ladi. Bu prinsipning amalga oshirilishi xalq hokimiyatini biror guruh yoki alohida shaxs tomonidan suiiste'mol qilinishiga yo'l qo'ymaydi. Hokimiyatning uchga bo'linishi prinsipi dastlab XVIII asrda yashagan fransuz ma'rifatparvari Sharl Lui Monteskye tomonidan asoslab berilgan. Hokimiyatning uchga bo'linish prinsipi jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlashning asosiy kafolati sifatida davlatning asosiy belgilaridan biriga aylandi. Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati – bu davlatning uchta asosiy tayanchidir".

O'zbekiston Respublikasida qonun chiqaruvchi hokimiyatni O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi, ijro etuvchi hokimiyatni esa Vazirlar Mahkamasi amalga oshiradi. Sud hokimiyati Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud va Oliy xo'jalik sudi tomonidan amalga oshirilib, ular birgalikda O'zbekistonning yagona sud tizimini tashkil etadi.

Hokimiyatning uchga bo'linish prinsipi – huquqiy davlatning eng muhim belgilaridan biridir. Konstitutsiyaning "Davlat hokimiyatining tashkil etilishi" deb nomlangan beshinchi bo'limida uchala hokimiyatning o'zaro uyg'unlikdagi faoliyati mexanizmlari, shuningdek, ularning o'zaro bir-birini tiyib turish tizimini vujudga keltiruvchi qoidalar mustahkamlab qo'yilgan. Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati idoralari davlat hokimiyatining yagona tizimini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasida hokimiyat o'z mohiyatiga ko'ra yagonadir. Chunki Konstitutsiyaning 7-moddasiga binoan, hokimiyatning yagona manbai xalqdir. Alohida olingan boshqa biror hokimiyat organi butun davlat hokimiyatini amalga oshirishga da'vogarlik qilishi mumkin emas. Davlat hokimiyatining davlat organlari o'rtasida bo'linishini davlat hokimiyatini amalga oshirish vakolatlarining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari o'rtasida bo'linishi deb tushunish kerak. Zero, ular Konstitutsiyada belgilab berilgan o'z

vakolatlarini amalga oshirishda bir-birlaridan mustaqildirlar.

Hokimiyatning uchga bo'linish qoidasi keyinchalik "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunlarda, "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi, "Sudlar to'g'risida"gi kabi boshqa qonunlarda yanada rivojlantirildi.

Davlat hokimiyatining bu uchta tarmog'ining har birini ham boshqalaridan mustaqil bo'lishiga muhim ahamiyat berildi. Shu bilan birga, bir tomondan, biri boshqalarining mutanosib rivojlanishi uchun yetarli darajadagi shart-sharoitlarni yaratishi, kerak bo'lsa ularni tiyib turishi, ikkinchi tomondan esa umumiy maqsad – xalq farovonligi yo'lida o'zaro bir-birlari bilan hamkorlik qilishi taqozo etiladi.

Davlat hokimiyatining bu uchta tarmog'i bir-biri bilan uzviy ravishda bog'liq bo'lishi uchun obyektiv zarurat paydo bo'ladi. Ular davlat hokimiyatini birgalikda va hamkorlikda tashkil etadilar va ular siyosiy tizimdagi zarur elementlar bo'lib hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati tizimi faqatgina hokimiyatning uchta tarmog'i o'rtasida emas, balki hokimiyatning tarmoqlari bilan davlat boshlig'i – Prezident o'rtasida ham amal qiladi. Masalan, parlament tomonidan muhokama qilingan qonunlar Prezident tomonidan imzolangandan keyingina kuchga kiradi, Prezident veto huquqiga ega, ya'ni u qabul qilingan qonunlarni imzolamasdan qayta ishlash uchun parlamentga qaytarishi mumkin, Konstitutsiyada nazarda tutilgan hollarda parlamentni tarqatib yuborishi mumkin, ijro etuvchi hokimiyat rahbari – Bosh vazirning nomzodini tasdiqlash uchun, shuningdek, Konstitutsiyaviy, Oliy sudyalarining nomzodlarini saylash uchun parlamentga taqdim etadi, qonun chiqaruvchi organ bo'lgan Oliy Majlis esa Bosh vazirni lavozimga tasdiqlaydi, parlament yuqori palatasi ko'rsatilgan sudlar sudyalarini saylaydi, parlament Konstitutsiyada nazarda tutilgan hollarda Prezident farmonlarini tasdiqlaydi, parlament ijro etuvchi hokimiyat mansabdor shaxslarining hisobotlarini eshitadi, Konstitutsiyaviy sud qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning normativ-huquqiy hujjatlarining, shuningdek, Prezident farmonlarining Konstitutsiyaga mosligini aniqlaydi. Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati tizimidagi davlat organlarining shu va shu kabi yana boshqa vakolatlari o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatini ta'minlashdagi kompleks

mexanizmning elementlari bo'lib hisoblanadi.

Konstitutsiya, konstitutsiyaviy qonunlar va qonunlarning tahlili bugungi kunda mamlakatimizda o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati tizimini ta'minlashning samarali mexanizmi yaratilganligini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, bu tizimning kelajakda yanada rivojlantirilishini hayotning o'zi taqozo qila boshladi.

"Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi"da belgilab berilgan "O'zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi va ijro etilishi fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish va shu orqali o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati prinsipining ta'minlanishiga olib keladi, shuningdek, har bir davlat organi va mansabdor shaxsning mas'uliyatini va javobgarligini kuchaytiradi, oqibat natijada ular faoliyatini yanada yaxshilaydi.

Shuningdek, Konsepsiyada belgilab berilgan yana bir qonunning, "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi ham o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatini ta'minlash mexanizmida ommaviy axborot vositalari rolining yana ham oshishiga, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan qarorlar qabul qilishda ularning mas'uliyatini ko'p jihatdan kuchaytirishga olib keladi.

Konsepsiyada davlat rahbari va hukumat tomonidan huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari tizimida ham o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali mexanizmini yaratishga qaratilgan yangi huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilish lozimligi ko'rsatib berildi. Bunday mexanizmni yaratish ushbu organlar faoliyatida qonuniylik va qonun ustuvorligini ta'minlaydi va demokratik huquqiy davlat barpo etish yo'limizda muhim qadam bo'lib hisoblanadi. O'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati tizimi Oliy Majlis palatalari o'rtasidagi munosabatlarda ham amal qiladi. Ma'lumki, qonun Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, Senat tomonidan ma'qullanib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangach va qonunda belgilangan tartibda rasmiy nashrlarda e'lon qilingach, yuridik kuchga ega bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 84-moddasiga muvofiq Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan qonun Senatga yuboriladi. Senat bu qonunni ma'qullashi yoki rad etishi mumkin. Senat tomonidan rad etilgan qonun

Qonunchilik palatasiga qaytariladi. Bunday qonunni qayta ko'rib chiqishda Qonunchilik palatasi deputatlar umumiy sonining uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovoz bilan qonunni yana ma'qullasa, qonun Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan hisoblanadi hamda imzolanishi va e'lon qilinishi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga Qonunchilik palatasi tomonidan yuboriladi.

Shu tariqa o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali tizimini shakllantirish mamlakatimizda davlat hokimiyati amalga oshirilishining zaruriy sharti bo'lib, uning amalda ta'minlanishi davlat hokimiyati va boshqaruvini yanada demokratlashtirishga, davlat organlari faoliyatida umumxalq manfaatlarining hisobga olishning kafolatlanishiga, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining yanada yaxshilanishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatga xos bo'lgan hokimiyatning uchga bo'linishi prinsipini hayotda qo'llash, unga amal qilish jarayonining rivojlanishi yangi bosqichga kirdi. Bu prinsipni jamiyatning yashash qoidasiga aylantirish qonun ustuvorligi prinsipini hayotda namoyon bo'lishining asosiy qirralaridan biridir.

3. Sud-huquq tizimini demokratlashtirish va modernizatsiyalash jarayoni

Rivojlangan mamlakatlar tarixiy tajribasidan ma'lumki, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan mustaqil ravishda amal qiluvchi sud hokimiyati huquqiy davlat belgilaridan biridir. Sud tizimi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari bilan mustahkamlangan. Sud hokimiyati organlarining faoliyati quyidagi prinsiplarga asoslanadi:

- odil sudlovni amalga oshirish;
- qonuniylik;
- sudlarning mustaqilligi va faqat qonunga bo'ysunishi;
- bamaslahat ish ko'rish;
- fuqarolarning sud oldida tengligi;
- tomonlarning tortishuvchanligi va teng huquqli ekanligi;
- sud ishlarini yuritishning oshkoraligi;
- aybsizlik prezumpsiyasi;
- malakali yuridik himoyaga ega bo'lish huquqi;
- sud jarayonining milliy tilda borishi prinsipi;

- sud hokimiyati hujjatlarining barcha huquq subyektlari uchun majburiyligi;

- sudya lavozimining deputatlik mandati va partiyaga mansublikdan holi ekanligi.

O'zbekiston Respublikasi sud va huquqni muhofaza qilish organlarining tizimi quyidagi asosiy bo'g'inlarni o'zida mujassamlashtirdi:

- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi;
- O'zbekiston Respublikasining Oliy sudi;
- viloyat, tuman, shahar sudlari va harbiy sudlar;
- O'zbekiston Respublikasining Bosh prokuraturasi;
- advokatura;
- Ichki ishlar vazirligi;
- Adliya vazirligi;
- Bojxona qo'mitasi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXII bobi "O'zbekiston Respublikasining sud hokimiyati" deb nomlanadi. Unda sud hokimiyatining mustaqilligi, sud tizimi, sudlarni tashkil etish va ular faoliyatining konstitutsiyaviy prinsiplari hamda sud hokimiyati faoliyati bilan bog'liq asosiy qoidalar belgilab qo'yildi. Sud hokimiyati to'g'risidagi konstitutsiyaviy normalar bir qator tarmoq qonunlarida rivojlantirilgan bo'lib, jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni 2-moddasida sudning vazifalari belgilab qo'yilgan. Mazkur normaga ko'ra "O'zbekiston Respublikasida sud O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarida, inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro hujjatlarda e'lon qilingan fuqarolarning huquq va erkinliklari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari sud yo'li bilan himoya qilinadi. Sudning faoliyati qonun ustuvorligini, ijtimoiy adolatni, fuqarolar tinchligi va totuvligini ta'minlashga qaratilgandir".

Barcha rivojlangan mamlakatlarda bo'lganidek, mamlakatda konstitutsiyaviy nazorat qilish vazifasini Konstitutsiyaviy sud amalga oshiradi. Ushbu sud qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning hujjatlari Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni ko'rganida va xulosalar berganida faqat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining normalariga rioya qilganligi uchun umumiy va xo'jalik yurisdiksiya sudlaridan farq qiladi.

Huquqiy davlatning asosiy belgisi, shuningdek, rivojlanishning "O'zbek modeli"ning beshta asosiy prinsiplaridan biri – bu qonun

ustuvorligidir. Konstitutsiya har bir davlatning Asosiy qonuni bo'lgani uchun birinchi navbatda unga amal qilishni ta'minlash lozim. Bu jarayonda asosiy vosita konstitutsiyaviy nazorat bo'lib, uni Konstitutsiyaviy sud amalga oshiradi. Bu organning faoliyatini Konstitutsiya va "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi qonun muvofiqlashtiradi. Konstitutsiyaviy sud Prezidentning Konstitutsiyaviy sud raisi, rais o'rinbosari, beshta mazkur sud a'zosidan (ulardan bittasi Qoraqalpog'istondan) iborat taqdim etgan tarkibda Oliy Majlis Senati tomonidan saylanadi.

Konstitutsiyaviy sud o'zining tashkil topgan kun – 1995-yilning dekabridan boshlab qonun chiqaruvchi va ijroiya hokimiyatlar aktlarining konstitutsiyaviyligi, ya'ni qonunlar, Oliy Majlis palatalari qarorlari, Prezident farmonlari, hukumat va mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlarining, mamlakatimizning davlatlararo shartnomalardagi boshqa majburiyatlarining Konstitutsiyaga muvofiq kelishini aniqlaydi. Bu ishlarni ko'rib chiqish natijasi sifatida Konstitutsiyaviy sud o'zining tegishli qarorini qabul qiladi.

Konstitutsiyaviy sudda qonunchilikda bir-biriga muvofiq kelmaydigan huquqiy me'yorlar mavjud bo'lsa, ularni aniqlashga doir faoliyat olib boradi. Bu kabi holatlarda u o'zining qonunchilik tashabbusi huquqidan foydalanib, Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga qonun loyihalarini kiritadi. Undan tashqari, Konstitutsiyaviy sud Konstitutsiya va qonunlar me'yorlarining rasmiy sharhlarini, Qoraqalpog'iston Konstitutsiyasini O'zbekiston Asosiy qonuniga va Qoraqalpog'iston qonunlarining O'zbekiston qonunlariga muvofiq kelishi yoki kelmasligiga doir xulosalar beradi.

Konstitutsiyaviy sudning qarorlari barcha davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, shuningdek, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda jamoat birlashmalari, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir.

Konstitutsiyaviy sudning normativ va boshqa hujjatlarni, ularning nusxalarini taqdim etish to'g'risidagi, qarab chiqilayotgan masalalar yuzasidan tushuntirish va maslahatlar berish xususidagi talablari ular yuborilgan organlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir.

Konstitutsiyaviy sud o'z vakolatlarini amalga oshirishda avvalambor qonunchilikning asosiy maqsadi bo'lgan inson huquq va erkinliklarining ustuvorligidan kelib chiqadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sodiqlik, mustaqillik, kollegiallik, oshkoralik va sudyalar huquqlarining tengligi Konstitutsiyaviy sud faoliyatining asosiy prinsiplaridir.

Sud tizimining bo‘g‘ini – O‘zbekiston Respublikasining milliy-davlat va ma’muriy-hududiy tuzilishiga muvofiq tashkil etilgan, bir xil vakolatlarga ega bo‘lgan bir turdagi sudlarning majmuasidir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 110-moddasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi fuqarolik, jinoiy va ma’muriy sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organi hisoblanadi. Ta’kidlash lozimki, Oliy sud faqat umumiy yurisdiksiya sudlarining kichik tizimida oliy sudlov organi deb e’tirof etiladi. U tomonidan qabul qilingan hujjatlar qat’iy va O‘zbekiston Respublikasining barcha hududida bajarilishi majburiydir.

O‘zbekiston Respublikasining “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonuni 13-moddasiga muvofiq Oliy sud uchta alohida protsessual xususiyatlarga egadir.

O‘zbekistonda fuqarolik va ma’muriy sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyati ikkita mustaqil sud tizimlaridan iboratdir:

-O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi rahbarlik qiladigan umumiy yurisdiksiya sudlari;

-O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi rahbarlik qiladigan xo‘jalik sudlari tomonidan amalga oshiriladi.

1991-yilgacha O‘zbekistonda davlat organlarining maxsus tizimi - Hukumat va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga bo‘ysunadigan davlat arbitrajlari tizimi o‘z faoliyatini amalga oshirgan edi. Ular yuridik shaxslarning xo‘jalik faoliyatiga doir nizolarni ko‘rib chiqishardi. Aksariyat hollarda davlat arbitrajlari nizolarni hal qilish jarayonida qonuniylik prinsipiga emas, balki totalitar davlatga xos bo‘lgan maqsadga muvofiqlik prinsipiga rioya qilishar, bu esa xo‘jalik yurituvchi subyektlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga imkon bermagan edi.

O‘zbekiston davlati mustaqillikka erishganidan so‘ng mulkchilikning turli shakllariga asoslangan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning va tadbirkorlarning huquq va manfaatlarini haqiqiy ta’minlash zarurligi oldin hakamlik sudlarini, keyinroq xo‘jalik sudlarini tashkil etishni talab qildi. Xo‘jalik sudlarining tashkil etilishi, aslida, sudlarning ixtisoslashuvi yo‘lidagi birinchi qadam bo‘ldi.

Hozirgi kunda Konstitutsiyaning 111-moddasiga muvofiq mulkchilikning turli shakllariga asoslangan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar o‘rtasidagi, shuningdek, tadbirkorlar o‘rtasidagi, iqtisodiyot sohasida va uni boshqarish jarayonida vujudga keladigan xo‘jalik nizolarini hal etish O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi va

xo'jalik sudlari tomonidan ularning vakolatlari doirasida amalga oshiriladi.

Mamlakatda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining asosiy prinsiplaridan biri bo'lgan qonun ustuvorligini ta'minlashga shart-sharoitlar yaratish uchun dastlab sud-huquq tizimini demokratik prinsiplar talablari asosida chuqur isloh etish zarur edi. Shuning uchun ham davlatning bosh islohotchiligida mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab sud-huquq tizimini isloh etishga kirishildi. Bunda asosan sud hokimiyatining mustaqilligini shakllantirish, sud-huquq tizimini erkinlashtirish (liberallashtirish) va odil sudlovning samarasi va sifatini oshirishga asosiy e'tibor berildi. Albatta, bu islohotlar asosida jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, tinchlik va barqarorlikni saqlash, fuqarolarning qonuniy manfaatlari, erkinligi va huquqlarini saqlash kabi fuqarolik jamiyatiga xos bo'lgan shart-sharoitlarni shakllantirish yotgan edi.

Mustaqillik davrida O'zbekiston davlati sud-huquq tizimida BMT va boshqa xalqaro tashkilotlarning inson huquqlarini ta'minlashga qaratilgan hujjatlaridan kelib chiqib, bu sohadagi milliy tajriba asosida sudlov jarayonlarini erkinlashtirish choralari ko'rdi. Sudda qandaydir jinoiy xatti-harakatlar uchun jazo berish va hukm chiqarishni qonunga binoan yuqori instansiya ko'rib chiqishi tartiboti o'rnatildi. Sud hukmidan norozi bo'lgan fuqarolar o'z manfaatlari va huquqlarini himoya qilish uchun apellyatsiyaviy yoki kassatsiya instansiyalariga murojaat qilish, sud jarayonida o'z advokati bilan ishtirok etish, yuqori instansiyada sudning noto'g'ri hukmlarini rad etish kabi qator huquqlarga ega bo'ldi.

Mustaqillik davridan sud-huquq tizimini isloh etishning mazmun-mohiyati, asosan, quyidagilardan iborat bo'ldi: sud hokimiyatini bosqichma-bosqich mustahkamlab borish; sudning mustaqilligini ta'minlash; sudni sobiq tuzumda bo'lgani kabi qatag'on quroli va jazolash idorasi sifatidagi organ emas, balki inson va fuqaro huquq hamda erkinliklarini ishonchli himoya va muhofaza etishga xizmat qiladigan tom ma'nodagi mustaqil davlat institutiga aylantirish.

Mamlakatda qonun ustuvorligini ta'minlashda "Sudlar to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi. Qonunda sud hokimiyatini fuqarolik jamiyati sharoitida inson huquq va erkinliklarini ta'minlovchi institut sifatida faoliyat yuritishi uchun barcha huquqiy erkinliklar belgilab berilgan edi. Bu sohadagi islohotlarning keyingi bosqichi sifatida, shuningdek, hokimiyatlar bo'linishiga oid

konstitutsiyaviy prinsipni izchil amalga oshirish maqsadida 1993-yil 2-sentabrda "Sudlar to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. 2000-yilda esa ushbu qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Bu davrda jinoyat-protsessual, fuqarolik-protsessual qonunchiligiga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi. Bu esa, o'z navbatida, sud tizimini ijro etuvchi hokimiyat organlari nazorati va ta'siridan chiqarish imkonini berdi.

Jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlashda sud hokimiyatining rolini oshirish maqsadida sudlar faoliyatini tashkiliy jihatdan ta'minlash, xususan, sud tizimi uchun kadrlar masalalari bilan shug'ullanish vazifasi maxsus organ – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasi tashkil etildi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzurida maxsus vakolatli tuzilma – Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnik va moliyaviy ta'minlash departamenti tuzildi. Bu esa sudlarning ularga xos bo'lmagan vazifalardan sezilarli darajada xalos bo'lishi va butun diqqat-e'tiborini o'zlarining asosiy burchi bo'lmish odil sudlovni amalga oshirish uchun qaratish imkonini berdi.

Umumiy yurisdiksiya sudlari ixtisoslashtirilib, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha sudlar tashkil etildi. Bu, o'z navbatida, ularning jinoyat va fuqarolik ishlarini malakali asosda ko'rib chiqish, inson huquq hamda erkinliklarini to'la va har tomonlama himoya qilish bo'yicha faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qila boshladi. Mustaqillik davrida fuqarolarning sud orqali himoyalanish kafolatlari jiddiy tarzda kuchaytirildi, ushbu kafolatdan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirishni ta'minlash bo'yicha katta ko'lamdagi chora-tadbirlar amalga oshirildi. Shuningdek, kassatsiya instansiyasi isloh qilinib, sud ishlarini qayta ko'rishning apellatsiya tartibi joriy etildi. Mazkur o'zgarishlarga muvofiq apellatsiya instansiyasi ishni yangitdan ko'rib chiqishga yubormasdan, uning o'zi to'la hajmda ko'rib chiqish huquqlariga ega bo'ldi.

Hozirgi davrga kelib fuqarolar qonuniy kuchga kirgan birinchi instansiya sud qaroridan norozi bo'lgan taqdirda o'z huquq va qonuniy manfaatlarini kassatsiya instansiyasida, o'z advokati ishtirokida bevosita himoya qilish imkoniga ega bo'ldi. Shu tariqa fuqarolarning birinchi instanstiya sudlarining qarorlariga nisbatan shikoyatlarini yashirin, yopiq tarzda ko'rib chiqish tartibi batamom tugatildi. Amalga oshirilgan o'zgarishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, joriy etilgan yangiliklar birinchi instanstiya sudlari tomonidan yo'l qo'yilgan xatolarni o'z vaqtida

tuzatish, sud faoliyatida sansalorlikka yo'l qo'ymaslikning muhim kafolatiga aylandi. Mazkur islohotlarning ijobiy natijasini quyidagi raqamlardan bilish mumkin: agar 2000-yilda sud xatolarining deyarli yarmi nazorat tartibida tuzatilgan bo'lsa, 2009-yil yakunlariga ko'ra bunday holatlarning 85 foizdan ortig'i apellatsiya va kassatsiya tartibida bartaraf etildi.

Qonun ustuvorligini ta'minlashning muhim qoidalaridan biri – bu sud jarayonida advokat bilan davlat qoralovchisining teng imkoniyatlarga ega bo'lishi, ularning sud natijalariga ta'sir o'tkazishi uchun teng huquqlarga ega bo'lishi hisoblanadi. Shuning uchun hozirgi davrda kelib mamlakatimizda prokuror va advokatning tengligini, jinoyat va fuqarolik ishlari bo'yicha sud faoliyatining barcha bosqichlarida o'zaro tortishuv bo'lishini ta'minlashga, odil sudlovning sifati va tezkorligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar izchillik bilan amalga oshirildi. Jumladan, 2008-yilda "Advokatura instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi bu borada g'oyat muhim ahamiyat kasb etdi. Shu asosda amaldagi qonunchiligimizga sud-huquq tizimini liberallashtirish, inson huquqlari himoyasini ta'minlash jarayonining eng muhim tarkibiy qismi bo'lgan advokatura mustaqilligini yanada mustahkamlashga qaratilgan bir qator o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

Mazkur qonunga muvofiq himoyachiga jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslardan mutlaqo mustaqil ravishda jinoyat ishi protsessining har qanday bosqichida malakali yuridik yordam ko'rsatish huquqi berildi.

Shu bilan birga, himoyachining ko'rilayotgan ishda ishtirok etish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlardan o'ziga ijozat berilgani to'g'risida yozma ravishdagi tasdiqlovchi hujjat va, shuningdek, o'z himoyasidagi shaxs bilan uchrashish uchun ruxsat olish majburiyatini belgilaydigan normalar jinoyat-protsessual qonunchiligidan chiqarildi. Qonunda advokatning professional faoliyatiga to'sqinlik qilish, uning o'z himoyasi ostidagi shaxsga nisbatan pozitsiyasini o'zgartirish maqsadida har qanday shaklda ta'sir o'tkazishga qaratilgan harakatlar uchun javobgarlik belgilangani e'tirof etila boshlandi. Shu tariqa jinoiy-huquqiy sohadagi siyosatni takomillashtirishda jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini yanada liberallashtirish va insonparvarlik tamoyillariga muvofiqlashtirish eng muhim yo'nalishga aylandi.

Jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlashda 2001-yilda "Jinoiy

jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonunning qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etib, u jamiyatda sud-huquq tizimida ulkan sotsial va ijtimoiy-siyosiy ahamiyat kasb etadigan o'zgarishlar bo'lishiga huquqiy asoslar yaratdi. Mazkur qonunga ko'ra jinoyatlarning tasnifi o'zgartirildi. Buning natijasida og'ir va o'ta og'ir toifadagi jinoyatlarning qariyb 75 foizi ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar toifasiga o'tkazildi.

Iqtisodiyot sohasidagi jinoyat ishlari bo'yicha qamoq va ozodlikdan mahrum etish jazolari o'rniga jarima shaklidagi iqtisodiy sanksiyani qo'llash imkoniyati ancha kengaytirildi. Jinoiy jazo tizimidan insonparvarlik tamoyillariga mutlaqo zid bo'lgan mol-mulkni musodara qilish tarzidagi jazo turi chiqarib tashlandi. Jinoyat kodeksining 11 ta moddasiga yetkazilgan moddiy zararning o'rni qoplangan taqdirda ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanmasligi haqidagi qoidalar kiritildi.

Jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash maqsadida jinoiy jazolarni liberallashtirishga doir islohotlar natijasida O'zbekistonda 2010-yilga kelib qamoqdagilar soni jahon miqyosida eng past ko'rsatkichni, ya'ni har 100 ming nafar aholiga 166 kishini tashkil qildi. Qiyoslash uchun aytish mumkinki, Rossiyada bu ko'rsatkich 611 kishini, AQSHda 738 kishini tashkil etadi. Mamlakatda 2000–2010-yillarda ozodlikdan mahrum qilish joylarida saqlanayotgan mahbuslar soni ikki barobardan ko'proq kamaydi.

Mamlakatda sud-huquq tizimini erkinlashtirishda jahon bo'ylab aks sado bergan muhim voqea 2008-yil 1-yanvardan boshlab O'zbekistonda o'lim jazosini bekor qilinishi bo'ldi. Albatta, davlatning bu qarori Konstitutsiya tomonidan insonning yashash huquqini himoyalanganligini ifodalar edi. Shuningdek, "Xabeas korpus" institutining kiritilishi ham mamlakatda qonun ustuvorligini ta'minlash sohasida muhim voqea edi. Undan kelib chiqib, 2008-yildan boshlab oldini olish chorasi sifatida hibsga olishga sanksiya berish huquqi prokurordan sudlarga olib berildi. O'tgan vaqt ko'rsatdiki, bu islohotlar qonun ustuvorligi prinsipini amalga oshirishda muhim o'rin tutdi, u insonning daxlsizligi, erkinligi va boshqa konstitutsiyaviy huquqlarini himoyalashda muhim omil bo'lib xizmat qildi.

Amaliyotga tomonlarning yarashishi, bir sulhga kelishiga bog'liq holda javobgarlikdan ozod qilishga imkoniyat yaratuvchi yarashtirish

instituti kiritildi. Dastlab u shaxsning daxlsizligi, jamoat xavfsizligi va jamoat tartibini saqlashga tajovuz qiladigan jinoyatlarga nisbatan qo'llandi-yu, keyinchalik bu institut iqtisodiyot asoslariga qarshi qaratilgan ba'zi jinoyatlarga nisbatan ham qo'llana boshladi. Hozirgi davrga kelib u ellikdan ortiq jinoyat tarkiblariga qo'llanmoqda. U joriy etilgan paytdan boshlab 147 ming fuqaroga nisbatan qo'zg'atilgan jinoiy ishlar to'xtatildi.

Mamlakatda jinoiy-huquqiy sohani liberallashtirishga doir islohotlar tobora chuqurlashib borishi jarayonida jinoyat-protsessual qonunchilikka tergov va shaxsni qamoqda saqlash muddatlari qisqartirishga doir o'zgartishlar kiritildi. Shuningdek, huquqni qo'llash va sud amaliyotiga 2001-yildan boshlab yarashuv instituti kiritildi va u o'zining samarasini bera boshladi. Yarashuv institutining talabiga ko'ra ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoiy qilmishni sodir etgan shaxs jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni to'liq qoplab bergan taqdirda jinoiy javobgarlikka tortilmaydi. Mazkur institutning samaradorligi hamda o'zbek xalqining rahmdillik va kechirimlilik kabi ko'p asrlik an'analariga mosligi uning izchillik bilan kengayib borishiga asos bo'ldi. Hozirgi davrda 53 ta jinoyat tarkibi bo'yicha yarashuv institutini qo'llash imkoniyati nazarda tutilgan. Yarashuv institutining joriy etilishi natijasida 2001–2010-yillarda 100 ming nafarga yaqin fuqaro jinoiy javobgarlikdan ozod etildi.

So'nggi o'n yilliklarda yurtimizda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida qonuniylikni ta'minlash borasida jiddiy ishlar amalga oshirildi. Birinchi navbatda, prokuratura faoliyatini isloh qilish, uni sobiq tuzum davrida bo'lganidek partiyaviy elita qo'lidagi jazolash quroli emas, balki qonunlarning qat'iy ijro etilishini, mamlakatimizda demokratik islohotlarning izchil rivojlanishini, inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoya qilinishini ta'minlaydigan organga aylantirishga doir chora-tadbirlar ko'rildi. Jumladan, 2001-yilda yangi tahrirda qabul qilingan "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunga muvofiq fuqarolar prokuror nazorati obyektlari qatoridan chiqarildi. Ayni paytda prokuraturaning inson huquq va erkinliklari, uning qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlash uchun mas'uliyati oshirildi. Shuningdek, sud qarorlari ijrosini to'xtatib turish huquqi prokuratura vakolatlari doirasidan chiqarildi. Tuman va shahar prokurorlarining esa tergov va ayblanuvchini qamoqda saqlash muddatlarini uzaytirish huquqlari bekor qilindi.

Albatta, davlat tomonidan amalga oshirilgan sud-huquq tizimini

isloh etish natijasida mamlakatda inson huquq va erkinliklarini ta'minlashning fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatga xos bo'lgan shart-sharoitlari yaratildi. Muhimi, mamlakatda qonun ustuvorligini ta'minlash umuminsoniy va milliy qadriyat sifatida fuqarolar dunyoqarashiga singib, jamiyat qadriyati sifatida namoyon bo'la boshladi.

"Mamlakatda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish" konsepsiyasidagi qonunchilik tashabbuskorligiga binoan fuqarolarni mansabdan ozod etish, meditsina muassasasiga joylashtirish kabi protsessual majburlashlar faqat sud roziligi bilan amalga oshirish amaliyotini o'rnatish mo'ljallanmoqda.

Birinchi instansiya sudida sudlarning jinoiy ish qo'zg'ashini istisno etadigan va ayblov xulosasini e'lon qilishni faqat davlat qoralovchisiga yuklagan majburiyatni ifodalagan O'zbekiston Jinoyat-protsessual kodeksining 321- va 439-moddalariga ham tegishli to'ldirishlar va o'zgartishlar kiritildi. Bu o'zgartishlar milliy qonunchilikni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasi va xalqaro huquq me'yorlariga muvofiqlashtirish maqsadida amalga oshirildi. Ma'lumki, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 10-moddasiga muvofiq har bir inson o'z huquq va majburiyatlarini aniqlash va o'ziga nisbatan qo'yilgan jinoiy ayblovni asoslanganligini aniqlash uchun o'z ishini to'liq tenglik asosida oshkora tarzda, mustaqil va xolis sud tomonidan adolatning barcha talablari asosida ko'rishini talab etish huquqiga egadir. Albatta, bu inson huquqi qonun ustuvorligini ta'minlash prinsipini amalga oshirishning asosiy mezoni – adolat prinsiplarini hayotda amalga oshishini ta'minlab beradi.

Mustaqillik davrida sud-huquq tizimini isloh etishni chuqurlashtirish natijasida sudlar tuzilmalari va tashkiliy faoliyati asoslari takomillashtirildi, ularning kadrlar imkoniyatlari mustahkamlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 2-avgustdagi "Sud tizimi xodimlarini ijtimoiy himoya qilishni tubdan yaxshilash choralari to'g'risida"gi Farmonida ko'rsatilgan vazifalarni bajarish natijasida barcha yo'nalishlardagi sudlarni mustaqil ravishda o'z vazifalarini bajarishlari uchun shart-sharoitlar yaratildi, shuningdek, ularga qator ijtimoiy himoyalashga doir imtiyozlar berildi.

Qonun ustuvorligini oshirishda sud jarayonlarining oshkoraligi va shaffofligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Sud jarayonining ochiqligini ta'minlashda sud hokimiyati tizimida elektron vositalarni qo'llashning ahamiyati beqiyosdir. Elektron sudlov jarayonida keng miqyosda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish

fuqarolarga qulaylik, ochiqlik va osonlik tug'dirishidan tashqari ish vaqtini tejash, navbatda turish, transportda yurish kabi tashvishlardan xalos etadi. Shu bilan birga, sud ishlari zamonaviylashadi, sud xarajatlari kamayadi, turli hujjatlarni hech bir qiyinchiliksiz olishga sharoitlar yaratadi. Internet orqali sud jarayonini kuzatish mumkin, sud hukmi va qarorlariga doir hujjatlarni olish imkoniyati tug'iladi. Axborot kommunikatsiyalarini qo'llash natijasida sud ishlarini yuritish samarasi oshadi, qog'oz hujjatlar almashinuvi kamayadi, fuqarolar murojaatlarini ko'rib chiqish muddatlari qisqaradi.

Sud-huquq tizimini isloh etishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 30-noyabrdagi "Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirishning tashkiliy choralari to'g'risida"gi Farmonida sud kadrlarini tanlash, xususan, ularning zaxirasini shakllantirish mexanizmlarini yaratish vazifalari aniqlab berildi. Sud lavozimiga nomzodlar yaxshi tayyorgarlik ko'rgan, yuqori malakali, ma'lum hayotiy tajribaga ega bo'lgan, huquq mutaxassisligi bo'yicha ma'lum darajada faoliyat yuritgan, halolligi bilan boshqalardan ajralib turadigan, to'g'ridan to'g'ri huquqni himoya qilish organlarida pishib yetilgan kadrlardan iborat bo'lishiga muhim ahamiyat berildi. Bu kabi talablar jahonga mashhur bo'lgan Bangalor sudlar xulq prinsiplari ruhiga mos tushar edi. Bu prinsiplar sudlarni kompetentli, intiluvchan, halol, pulga sotilmaydigan jihatlarga ega bo'lgan insonlardan iborat bo'lishini ta'minlashga qaratilgan edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yilning iyun oyida qabul qilingan "Yuridik kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq Toshkent davlat yuridik instituti Toshkent davlat yuridik universitetiga aylantirildi, yuridik ta'lim tizimining fundamental asoslarini tubdan isloh qilish va yaxshilashning poydevori yaratildi.

Mamlakatda umumiy yurisdiksiya sudlar faoliyatini takomillashtirish va samarasini oshirish, sudlarning o'ziga xos bo'lmagan turli ishlarni bajarishlarini kamaytirish va talab etilgan tartiblar asosida faoliyat yuritishini ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 4-oktabrdagi "Tuman va shahar umumiy yurisdiksiya sudlari faoliyatini takomillashtirish va samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur Farmon ijrosidan kelib chiqib, fuqarolik ishlari bo'yicha sudyalar soni 71 taga ko'paytirildi, viloyat sudlari va ularga tenglashtirilgan sudyalar sonining qaytadan taqsimlanishi natijasida 23 ta

sudya lavozimi sud jarayoniga tegishli bo'lmagan turli ishlardan holi etilib, ularning faqat o'z vazifasini bajarishi uchun sharoitlar yaratildi, shuningdek, Oliy Sud tuzilmasiga o'zgartishlar kiritildi.

2014-yil 20-yanvarda parlament tomonidan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonunga muvofiq Mehnat kodeksiga, "Sudlar to'g'risida", "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi qonunlarga o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi. Ularda sudyalik lavozimiga saylanganligi yoki tayinlanganligi tufayli ishdan ozod qilingan xodimlarga ularning vakolatlari tugaganidan keyin sudyalik lavozimiga saylanishiga yoki tayinlanishiga qadar egallab turgan avvalgi ishi (lavozimi), bunday ish (lavozim) mavjud bo'lmaganda esa avvalgisiga teng boshqa ish (lavozim) berilishi belgilab qo'yildi. Sud-huquq islohotlari jarayonida sohani har jihatdan yetuk, o'z vazifasiga mas'uliyatli, bilimli hamda qasamyodiga sodiq, pok vijdonli kadrlar bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratishga oid huquqiy asoslar mustahkamlandi.

Mamlakatda mustaqillik davridagi sud-huquq islohotlari yakunlariga oid xulosalar chiqaradigan bo'lsak, bu davrni asosan to'rtta bosqichga bo'lish mumkin:

birinchi bosqich – 1991–2000-yillar davomida sud tizimi islohotlarining tashkiliy-huquqiy asoslari va yangi odil sudlov tizimi yaratildi, Konstitutsiya va uning asosida Jinoyat, Jinoyat-protsessual, Fuqarolik, Fuqarolik-protsessual, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslar, shuningdek, sud tizimiga oid qator qonunlar qabul qilindi. Bu bosqichda sud-huquq tizimini tartibga soladigan huquqiy baza to'liq ravishda shakllantirildi;

ikkinchi bosqich – 2001–2012-yillarda inson huquq va erkinliklari himoyasida sud hokimiyatining rolini yanada oshirish, jinoiy jazoni liberallashtirish, o'lim jazosini bekor qilish, sudga qadar ish yuritish bosqichida sud nazoratini kuchaytirish, ya'ni shaxsni qamoqqa olishga sanksiya berish, ayblanuvchini lavozimdan chetlashtirish, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish huquqlarini sudlarga o'tkazish, amnistiya aktini qo'llashda sud tartibini o'rnatish, advokatura institutini, ijro ishini yuritishni va protsessual qonunchilikni takomillashtirish kabi bir qancha muhim vazifalar hal qilindi;

uchinchi bosqich – 2012–2016-yillarda sud qonunchiligini demokratlashtirish va liberallashtirishni davom ettirish, tizim xodimlarini ijtimoiy muhofaza qilishni tubdan yaxshilash, sudlar faoliyatini yanada

takomillashtirishga oid tashkiliy chora-tadbirlar, xususan, sudyalik lavozimiga tanlashning yangi mexanizmlari yaratildi.

to'rtinchi bosqich – 2016-yilning so'nggi choragidan hozirgi davrgacha bo'lgan islohotlarni o'ziga qamrab oladi. Bu bosqichni sud hokimiyatini inson huquq va erkinliklarini ta'minlovchi institutga, bozor iqtisodiyoti munosabatlariga, rivojlangan davlar tajribasiga, xalqaro huquq me'yorlariga moslashtirish, sud-huquq tizimini demokratlashtirish islohotlari davri deb atash mumkin.

Mustaqillikning 26-yiliga kelib sud-huquq tizimini modernizatsiyalash davri boshlandi. Bu paytda sud-huquq tizimini isloh etish Prezident Sh.M.Mirziyoyevning tashabbusi bilan boshlandi va ular juda ham qisqa davr ichida o'z natijalarini bera boshladi. Davlat rahbari tomonidan ilgari surilgan "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan demokratik prinsip sud tizimiga ham qo'llanila boshlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktabrda qabul qilgan "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni sud-huquq tizimini yanada demokratlashtirish va erkinlashtirish, sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari faoliyati samaradorligini oshirish, aholining odil sudlovga bo'lgan ishonchini kuchaytirish, jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlash kabi vazifalarni amalga oshirishga qaratildi. Mazkur farmonning 1-bandida mamlakatda inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash oliy maqom darajasiga ko'tarildi: "Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini, fuqarolar huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini ta'minlash, shuningdek, odil sudlovga erishish darajasini oshirish sud-huquq tizimini yanada isloh qilish sohasida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari etib belgilansin".

Prezident farmonda 2017-yilning 1-aprelidan boshlab jinoyat, jinoyat-protsessual, fuqarolik protsessual va boshqa qonun hujjatlariga inson huquq va erkinliklari ustuvorligini ta'minlash, sud muhokamasini adolatli va o'z vaqtida o'tkazish, jazoning adolatli va insoniyligi kafolatlarini kuchaytirishni inobatga olgan holda odil sudlov samaradorligini oshirishga qaratilgan huquqiy asoslar belgilab qo'yildi. Jumladan, qamoq, ya'ni ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazoning muqobil turlarini qo'llash imkoniyati kengaytirildi. Bu jinoiy jazolarni qo'llash tizimidan og'ir jazolar turining chiqarilganligi sud tizimi sohasini liberallashtirishga, uni

insonparvarlashtirishga shart-sharoitlar yaratdi. Jinoyat protsessida fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishning huquqiy kafolatlarini kuchaytirish, jinoyat ishlarini tergov qilishning tezkorligini oshirish doirasida jinoyat sodir etishda gumon qilingan shaxslarni ushlab turish muddati 72 soatdan 48 soatga, qamoqqa olish va uy qamog'i tarzidagi ehtiyot choralarini qo'llashning, shuningdek, jinoyat ishlari bo'yicha dastlabki tergovning eng ko'p muddatlari 1 yildan 7 oyga kamaytirildi.

Farmon asosida bu kabi choralarning joriy etilishi, bir tomondan, fuqarolarning erkinligini cheklashga barham bergan bo'lsa, ikkinchi tomondan, surishtiruv va tergov organlarining mas'uliyatini oshirishga va tergov faoliyati samaradorligi yuqori bo'lishiga zamin yaratildi. Sud-huquq tizimini isloh yangi davri, ya'ni uni inson huquq va erkinliklari eng oliy qadriyat darajasiga ko'tariladigan fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatga moslashtirish davri boshlandi.

2017-yildan boshlab mamlakatimizda inson huquq va erkinliklari eng oliy qadriyat bo'lgan, qonun ustuvorligini ta'minlaydigan jamiyat – fuqarolik jamiyati qurish islohotlari yanada chuqurlashdi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevralda qabul qilgan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini tubdan isloh qilish asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilandi. Farmonda quyidagi strategik vazifalar qo'yildi: "qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishga yo'naltirilgan sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash, ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimi samarasini oshirish, sud jarayonida tortishuv tamoyilini to'laqonli joriy etish, yuridik yordam va huquqiy xizmatlar sifatini tubdan yaxshilash".

Mamlakatimizda fuqarolarning huquq va erkinliklarini, eng avvalo, jinoiy tajovuzlardan himoya qilishning ishonchli kafolatlarini ta'minlashga, shuningdek, ularning sha'ni va qadr-qimmati kamsitilishiga, qonuniy manfaatlari cheklanishiga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan keng ko'lamli ishlarni amalga oshirishda, sud-huquq islohotlarining asosiga qonun ustuvorligi, fuqarolarning qonun oldida tengligi, insonparvarlik, adolatlilik va aybsizlik prezumpsiyasi kabi konstitutsiyaviy prinsiplar poydevor qilib qo'yilganligi, 2017–2021-

yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining ijrosi yuzasidan sud hokimiyatining chinakam mustaqilligi va erkinligini ta’minlash, odil sudlovning sifati va shaffofligini oshirish, “Xabeas korpus” institutini qo‘llashni kengaytirish, korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinganligi hozirgi davrda sud-huquq tizimini insonni himoyalashga, uning qadr-qimmatini oshirishga qaratilganligini anglatadi.

Inson huquq va erkinliklarini himoyalashni kuchaytirish, sud-huquq tizimini isloh etishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-noyabrda qabul qilgan “Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni muhim ahamiyat kasb etdi. Farmonda protsessual qonunchilikni jiddiy buzgan holda yoki noqonuniy uslublar bilan, shu bilan birga, quyidagilar jinoyat ishlari bo‘yicha dalil sifatida foydalanishga yo‘l qo‘yilmasi belgilab qo‘yildi:

-jinoyat protsessi ishtirokchilari yoki ularning yaqin qarindoshlariga nisbatan qiynoqqa solish, psixologik va jismoniy tazyiq va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoxud qadr-qimmatni kamsituvchi muomala turlarini qo‘llagan holda;

-gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining himoyaga bo‘lgan huquqini, shuningdek, tarjimon xizmatidan foydalanish huquqini buzgan holda;

-jinoyat prosessida ishtirok etayotgan shaxsga huquq va majburiyatlarini tushuntirmaslik oqibatida uni chalg‘itgan holda;

-mazkur jinoyat ishi bo‘yicha ish yuritishni amalga oshirish huquqiga ega bo‘lmagan shaxs tomonidan protsessual harakatlarni o‘tkazish oqibatida;

-noma’lum manbadan yoxud jinoyat ishi bo‘yicha ish yuritish jarayonida aniqlash mumkin bo‘lmagan manbadan;

-dastlabki tergov jarayonida jabrlanuvchi, guvoh, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining sudda mavjud dalillar majmui bilan o‘z tasdig‘ini topmagan ko‘rsatmalaridan;

-mavjud dalillar majmuyi bilan tasdiqlangan hollardan tashqari, jabrlanuvchi, guvoh, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining taxmin, faraz yoki mish-mishlarga asoslangan ko‘rsatmalaridan olingan hamda tegishli ravishda yuridik kuchga ega bo‘lmagan ma’lumotlardan jinoyat ishlari bo‘yicha dalil sifatida foydalanishga yo‘l qo‘yilmasin.

Shuningdek, farmonda Jinoyat-protsessual kodeksida to‘g‘ridan

to‘g‘ri nazarda tutilgan hollardan tashqari, sudlarda jinoyat ishlarining oshkora ko‘rilishi prinsipini cheklaydigan qo‘shimcha talablarni joriy etish, protsessual qonunchilik normalarini buzgan holda olingan guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining ko‘rsatuvlari, ekspert xulosasi, ashyoviy dalillar, audio va videoyozuv hamda boshqa materiallardan dalil sifatida foydalanish ta’qiqlab qo‘yildi, shuningdek, shaxsni noqonuniy ushlab turish, qamoqqa olish, jinoiy javobgarlikka tortish yoki hukm qilishga sabab bo‘lgan, hujjatlar yoki ashyolarga bila turib yolg‘on ma’lumotlar va boshqa buzib ko‘rsatilgan faktlarni kiritish, haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan ko‘rsatma berishga majburlash, ish bo‘yicha haqiqiy holatlarni buzib ko‘rsatish orqali dalillarni qalbakilashtirganlik uchun, yolg‘on guvohlik va yolg‘on xabar berganlik uchun javobgarlikni kuchaytirishni nazarda tutgan holdagi xatti-harakatlar uchun jinoiy javobgarlik kiritildi.

Hozirgi davrga kelib qonunlar va Prezident farmonlari asosida mamlakat Oliy xo‘jalik sudi va Oliy sud fuqarolik, jinoiy, ma’muriy va iqtisodiy sud ishi yurituvi sohasidagi sud hokimiyatining yagona oliy organiga — O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudiga birlashtirildi. Sud hokimiyatining yagona oliy organi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining faoliyat yuritishi belgilab qo‘yildi. Mamlakatda ilk bor O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi ma’muriy ishlar bo‘yicha sudlov hay’ati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar ma’muriy sudlari, tuman (shahar) ma’muriy sudlari tashkil etildi. Bu sud davlat organlari va ular mansabdor shaxslarining g‘ayriqonuniy harakatlari yoki harakatsizligi, shuningdek, ularning qabul qilgan qarorlari ustidan fuqarolarning sudga shikoyat qilish huquqining konstitutsiyaviy kafolatlarini amalga oshirishni ta’minlashga xizmat qila boshladi.

Agar oldinlari davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari harakatlari yoki harakatsizligi ustidan shikoyatlarni ko‘rib chiqish fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlar va xo‘jalik sudlari tomonidan, ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlar esa jinoyat ishlari bo‘yicha sudlar tomonidan amalga oshirilgan bo‘lsa, endi toifadagi ishlar yangi tashkil etilgan ma’muriy sudlar tomonidan ko‘rib chiqilishi qoidasi o‘rnatildi. Hozirgi davr fuqarolik jamiyati talablaridan kelib chiqib, shuningdek, tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar xo‘jalik sudlari o‘rniga iqtisodiy sudlar faoliyat yuritadigan bo‘ldi. Tajbirkorlar ijtimoiy qatlamining oshib borish

tamoyilidan kelib chiqib tumanlararo, tuman (shahar) iqtisodiy sudlari tashkil etildi.

Sud-huquq tizimidagi bu islohotlar mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti islohotlarining jamiyatda chuqur ildiz otishini ta'minlaydi, fuqarolik jamiyati qurish islohotlarini jadallashtiradi. Mamlakat Oliy Majlisi tomonidan Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartishlarga muvofiq sud-huquq tizimida yangi institut – O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi tashkil etildi. Konstitutsiyamizda sudyalarning mustaqilligi, ularning faqat Konstitutsiya va qonunga bo'ysunishi hamda odil sudlovni amalga oshirish borasidagi uning faoliyatiga aralashganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipi mustahkamlab qo'yildi. Oldinlari faqat jazolash vositasi bo'lgan sud hokimiyati endi xalq xizmatini qiluvchi organga aylandi. Sudlar faoliyatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, sud tizimi samaradorligi va fuqarolarning odil sudlovga erishish darajasini oshirishga alohida e'tibor qaratilishi, "Sudlar to'g'risida" va "Prokuratura to'g'risida"gi qonunlarga, shuningdek, Jinoyat kodeksi, Jinoyat-protsessual kodeksi, Jinoyat-ijroiya kodeksi hamda Fuqarolik protsessual kodeksiga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritilishi natijasida mamlakatda inson haq-huquqlari va erkinligini ta'minlash davlat siyosatining eng asosiy ustuvor yo'nalishiga ko'tarildi.

Qisqa davr ichida amalga oshirilgan sud-huquq tizimi islohotlari o'zining samaralarini bera boshladi. Sud tizimini fuqarolar tomonidan nazorat qilish, shu maqsadda joriy etilgan aaxborot-kommunikatsiya vositalari sud jarayonlarining shaffofligini ta'minlay boshladi. Aholida davlat va hukumatga ishonch va ulardan rozilik his-tuyg'ulari ochiqdan ochiq namoyon bo'la boshladi. Mamlakatda inson huquq va erkinliklarini himoyalashning mustahkam asoslarining shakllanishi xorijiy davlatlar rahbarlari va ekspertlari tomonidan ham e'tirof etila boshlandi. Xalqaro tashkilotlar va rivojlangan davlatlar rahbariyati O'zbekistonda bu sohadagi o'zgarishlar natijasi o'laroq, mamlakatimizga nisbatan o'zlarining investitsiyaviy, hamkorlik va do'stlik munosabatlari bildira boshladi. Mamlakatning barcha sohalarida bo'lganidek, sud-huquq tizimidagi o'zgarishlar jamiyatimizni fuqarolik jamiyati sari intilayotganligini anglata boshladi.

Nazorat savollari

1. "Qonun ustuvorligi" deganda nimani tushunasiz?
2. Hokimiyatning uchga bo'linish prinsipi qonun ustuvorligini

ta'minlashda qanday rol o'ynaydi? U O'zbekistonda qanday namoyon bo'lmoqda?

3. Qonun ustuvorligi fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishda qanday ahamiyat kasb etadi?

4. Mustaqillik davrida sud-huquq tizimini demokratlashtirish sohasida qanday tub o'zgarishlar amalga oshirildi?

5. O'zbekistonda sud-huquq tizimini isloh qilishda tub burilish davri nimalarda ifodalandi?

Test savollari

1. Jamiyatda qonun ustunligi deganda nimani tushunasiz?

A) Huquqiy bilimga ega bo'lgan kishilarning ko'p bo'lishi; huquqiy bilimlarni amaliyotda tatbiq eta oladigan kishilarni ustuvorligi; fuqarolarning qonunchilik tashabbusiga ega ekanligi

B) Qonun ustunligi nafaqat qonunlarning mazmunini aks ettiradi, balki davlat, uning organlari va mansabdor shaxslarini ham barcha fuqarolar bajarishi shart bo'lgan qonunlarga so'zsiz bo'ysunishini ifodalaydi. Qonun ustunligi me'yoriy aktlarning o'zaro ziddiyatlarga kirishishiga yo'l bermaydigan ma'lum iyerarxiyasini anglatadi

C) Uning barchaga baravar taalluqli ekanligini, butun bir davr ichida va shaxslar doirasida, mamlakatning barcha hududlarida to'la ko'lamli tarzda amal qilishini anglatadi; huquqiy bilimga ega bo'lgan kishi; fuqarolarning qonunchilik tashabbusi

D) Qonunlar amal qilinishini jamiyatning barcha sohalariga tarqalishi

2. Qonunchilik palatasi qonun qabul qilishda qanday funksiyani bajaradi?

A) O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy qonunlarini va qonunlar loyihasini ishlab chiqish

B) O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy qonunlarini, qonunlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish

C) O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy qonunlarini, qonunlarini amal qilishini nazorat qilish

D) O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy qonunlarini, qonunlarni qabul qilish, ularga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish

3. Quyidagi javoblardan qaysi biri to'g'ri?

A) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati milliy vakillik palatasi bo'lib, u 150 ta Senat a'zolaridan (senatorlardan) iborat

B) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati hududiy vakillik palatasi bo'lib, Senat a'zolaridan (senatorlardan) iborat

C) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati mahallalarning vakillik palatasi bo‘lib, Senat a’zolaridan (senatorlardan) iborat

D) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati oliy va hududiy vakillik palatasi bo‘lib, u fuqarolarning markazdagi vakili hisoblanadi

4. Qabul qilingan qonunning kuchga kirishi qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

A) Qonunchilik palatasi tomonidan ma’qullanib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangach va qonunda belgilangan tartibda rasmiy nashrlarda e’lon qilingach, yuridik kuchga ega bo‘ladi

B) Qonun Senat tomonidan ma’qullanib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangach va qonunda belgilangan tartibda rasmiy nashrlarda e’lon qilingach, yuridik kuchga ega bo‘ladi

C) Qonun Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, Senat tomonidan ma’qullanib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangach va qonunda belgilangan tartibda rasmiy nashrlarda e’lon qilingach, yuridik kuchga ega bo‘ladi

D) Qonun Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangach va qonunda belgilangan tartibda rasmiy nashrlarda e’lon qilingach, yuridik kuchga ega bo‘ladi

5. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishning asosiy prinsiplaridan biri nima?

A) Qonun ustuvorligi

B) Iqtisodiyot qonunlarining ustuvorligi

C) Siyosiy fikrlar rang-barangligi va erkinligi

D)Barcha javoblar to‘g‘ri

6. Quyidagilardan biri O‘zbekistonda ijroiya hokimiyatini anglatadi?

A) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

B) Oliy Majlis

C) Sud hokimiyati

D) Parlamentning yuqori palatasi – Senat

7. Demokratiyaning asosiy prinsiplaridan birini ko‘rsating.

A) Xalqning erkin xohish irodasi va hokimiyat tarmoqlarining taqsimlanganligi

B) Fuqarolarning teng huquqli va inson huquqlarining ustuvorligi

C) Hokimiyat organlarining saylab qo‘yilishi va ularining saylovchilarga bo‘ysunishi hamda tayinlash yo‘li bilan shakllanadigan davlat organlarining saylab qo‘yiladigan organlar oldida hisob berishga burchliligi

D) A va B javoblar to‘g‘ri

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktabrda qabul qilgan “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga binoan jazonining qanday yangi turi joriy etildi?

A) Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazoning qamoqda saqlash turlarini

B) Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazoning surgun va badarg‘a qilish turlarini

C) Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazoning muqobil turlarini

D) Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazoni yengillatish turlarini.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-noyabrda qabul qilgan “Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonida nimalar jinoyat sifatida dalil emasligi belgilab qo‘yildi?

A) Jinoyat protsessi ishtirokchilari yoki ularning yaqin qarindoshlariga nisbatan qiynoqqa solish, psixologik va jismoniy tazyiq va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoxud qadr-qimmatni kamsituvchi muomala turlarini qo‘llagan holda

B) Jinoyat protsessidagi guvohlar yoki ularning gumondagi shaxsning yaqin qarindoshlariga nisbatan qiynoqqa solish, psixologik va jismoniy tazyiq va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy muomala turlarini qo‘llagan holda

C) Jinoyat protsessida jinoyati tasdiqlanmagan shaxslar yoki ularning yaqin qarindoshlariga nisbatan qiynoqqa solish, psixologik va jismoniy tazyiq va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy muomala turlarini qo‘llagan holda

D) Jinoyat protsessida advokat ishtirok etmagani holda gumondagi shaxs yoki ularning yaqin qarindoshlariga nisbatan qiynoqqa solish, psixologik va g‘ayriinsoniy yoxud qadr-qimmatni kamsituvchi muomala turlarini qo‘llagan holda

10. Quyidagi javoblardan qaysi biri O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi (7-fevral 2017-y.) farmonida belgilab qo‘yilgan?

A) Fuqarolarning murojaatlariga e'tibor berish, ularning murojaatlarni ko'rib chiqishni tezlik bilan amalga oshirish, halol bo'lmagan mansabdorlarga qarshi zarur choralarini ko'rish

B) Fuqarolarning murojaatlarini o'z vaqtida hal etish, murojaatlarni ko'rib chiqishda sansalorlik, rasmiyatchilik va loqayd munosabatda bo'lish holatlariga yo'l qo'yganlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash, shuningdek, buzilgan huquqlarni tiklashning barcha zarur choralarini ko'rish

C) Fuqarolarning murojaatlarini har oyda ko'rib borish, ularni o'z vaqtida hal etish, bu ishda sansalorlik qiluvchilarni jazolash

D) Fuqarolarning murojaatlarini tezlik bilan ko'rib chiqish, ularda keltirilgan ma'lumotlar va dalillarni to'g'ri yoki to'g'ri emasligini aniqlash, shu asosda ularga ko'rilgan choralar haqida ma'lumot jo'natish

6-mavzu. SAYLOV HUQUQI ERKINLIGI – FUQAROLIK JAMIYATINING SHARTI

Reja:

1. Saylov tushunchasi, mohiyati va tiplari.

2. Saylovlarning demokratik prinsiplari.

3. O'zbekistonda demokratik saylovlar tizimining qaror topishi va rivojlanishi.

Tayanch so'zlar: saylov tushunchasi, erkin saylovlar, saylov huquqi, saylov prinsiplari,teng saylov huquqi, to'g'ridan to'g'ri saylash huquqi; yashirin ovoz berish huquqi, majoritar saylovlar, proporsional saylovlar, saylov oldi tashviqoti, saylov komissiyalari, ovoz berish.

1. Saylov tushunchasi, mohiyati va tiplari

Jamiyat a'zolari tomonidan davlat hokimiyatini shakllantirish maqsadlarida o'tkaziladigan saylovlar faqat demokratiyaning belgisi yoki ko'rinishi bo'lmasdan, shu bilan birga, uning zaruriy yashash sharti hamdir. BMT Bosh Assambleyasining 1948-yil 10-dekabrida qabul qilingan "Inson huquqlarining umumjahon Deklaratsiyasi"ning 21-moddasida demokratik prinsiplar asosidagi saylovlarning inson huquqi sifatidagi o'rni quyidagicha ta'riflanadi: "Har bir inson bevosita yoki erkin saylangan vakillari orqali o'z mamlakati boshqaruv ishida qatnashish huquqiga egadir. Xalq irodasi hukumat hokimiyatining asosi bo'lishi kerak; bu iroda yashirin ovoz berish yoki ovoz berish erkinligini ta'minlovchi boshqa shunga teng ahamiyatga ega bo'lgan umumiy va teng saylov huquqi asosida ifodalanishi lozim".

BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan xalqaro saylov standartlari bir qator xalqaro hujjatlarda o'z ifodasini topdi. Ular asosan quyidagilardan iboratdir:

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan);

2. 1950-yildagi Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi (unga 1-bayonnoma ilova qilinadi);

3. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (BMT, 1966-yil 16-dekabr).

4. Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining (YXHT)

insoniylik mezonlari bo'yicha konferensiyasi Kopengagen Kengashining hujjati (Kopengagen, 1990-yil 29-iyun).

5. 1994-yilda qabul qilingan "Erkin va adolatli saylovlar mezonlari to'g'risida"gi Parij deklaratsiyasi.

BMT tomonidan saylov standartlariga yangi xalqaro me'yoriy norma 2005-yil 27-oktabrda kiritildi. U BMTning "Saylovlarni xalqaro kuzatish prinsiplari Deklaratsiyasi" deyiladi. Mazkur Deklaratsiyada haqiy demokratik saylovlar – bu mamlakat aholisining suveren huquqlarining ifodasi, hukumat vakolatlari va qonuniyligining asosi bo'lmish erkin xohish-irodasining bildirilishi degan qoida bilan mustahkamlab qo'yildi. YXHTning saylov prinsiplari eng muhim yettita: **universallik, tenglik, erkinlik, adolatlilik, yashirinlik, shaffoflik va hisobot berish** so'zlarida o'z ifodasini topgan. Bu har bir ovoz hisobga olinishini va har bir fuqaro davlat hokimiyatining vakolatli organlarini shakllantirishga ko'maklashishi mumkinligini anglatadi.

YXHTning Kopengagen hujjatida ko'zda tutilgan majburiyatlar 1990-yilda Parij xartiyasiga muvofiq tashkil etilgan va dastavval YXHTning **"Erkin saylovlar bo'yicha byuro"** deb ataladigan Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi (DIIHB) uchun saylovlar bilan bog'liq ishlar bo'yicha qo'llanma hisoblanadi. DIIHB o'z faoliyatini 1991-yilning may oyida boshladi va YXHTga a'zo davlatlarga yordam ko'rsatish bo'yicha YXHTning asosiy instituti hisoblanadi. U, jumladan, "inson huquqlari va asosiy erkinliklarining to'la hurmat qilinishini ta'minlash, qonuniylik asosida ish ko'rish, demokratiya prinsiplarini hayotga joriy etish va ... demokratik institutlarni tashkil etish, mustahkamlash va himoya qilish, shuningdek, butun jamiyat ko'lamida murosaga kelish prinsiplarini rivojlantirish"ga da'vat etilgan.

DIIHB – Yevropada saylovlarni kuzatish sohasida yetakchi institutdir. U YXHT mintaqasida o'tkaziladigan saylovlarni muvofiqlashtiradi hamda ularning milliy qonunchilikka va xalqaro standartlarga muvofiqligini baholash uchun har yili minglab kuzatuvchilardan iborat guruhlarni tashkil etadi. DIIHB saylov jarayonining barcha bosqichlari monitoringi uslubiyatini ishlab chiqqan. DIIHB o'z-o'ziga ko'maklashish loyihalari vositasida YXHTga a'zo davlatlarga ularning saylov tizimlarini yaxshilashda yordam ko'rsatadi.

Saylovlar tizimi – huquqiy me'yorlarda mustahkamlab qo'yilgan, shuningdek, davlat va jamiyat institutlari faoliyatlari tajribasida shakllangan vakillik organlari yoki ayrim rahbarlik vakilini saylashni

o'tkazish va tashkil etishga doir tartibotdir. Saylovlar tizimi – siyosiy tizimning tarkibiy qismidir. Shu bilan birga, saylovlar tizimining o'zi ham boshqa tizimlar kabi tizilmaviy qismlarga bo'linadi: ularning ichida ikkitasi alohida ajralib turadi: birinchisi, fuqarolarning saylov huquqi – nazariy-huquqiy komponent; ikkinchisi esa saylov jarayonlari – amaliy-tashkiliy komponentdir.

Fuqarolarning saylov huquqi ularning saylovlardagi ishtirokini, saylovchilar va saylanuvchi organlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi, shuningdek, keyinchalik saylovchilar ishonchini oqlamagan vakillarni chaqirib oluvchi tartibotlarning huquqiy me'yorlari majmuasidir. Fuqarolarning saylov huquqi tushunchasi fuqarolarning saylovlarda ishtirok etish huquqi sifatida torroq ma'noda – saylovchi sifatida (faol saylov huquqi) yoki saylanuvchi sifatida (passiv saylov huquqi) qo'llaniladi.

Jamiyat a'zolarining davlat hokimiyati organlariga bo'lgan saylovlardagi keng ishtiroki demokratik siyosiy jarayonning tarkibiy qismidir. Demokratik saylovlar davlat va jamiyatni va ularning takomillashgan modellarini shakllantirish maqsadlaridagi tarixiy rivojlanishning ziddiyatli izlanishlari natijasi o'laroq paydo bo'lgan institutdir. XX asrga kelib davlat hokimiyati organlarini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan demokratik saylovlar jahondagi aksariyat mamlakatlar siyosiy hayotidagi tabiiy bir jarayonga aylandi. Shu bilan birga, har qanday saylovlarni ham demokratik qadriyatlar qatoriga kiritish ham qiyin masaladir. Saylovlarni davlat va fuqarolik jamiyati o'zaro muvozanatidagi holatlaridan kelib chiqib bir necha turlarga bo'lish mumkin.

Umume'tirof etilgan xalqaro demokratik tamoyillardan biri quyidagicha ifodalanadi: "Demokratik idora etish erkin va adolatli saylovlar davomida muttasil ifodalanib boradigan xalq irodasiga asoslanadi. Turli mamlakatlarda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining rivojlanishi darajasini saylov huquqi prinsiplariga muvofiq ravishda, ya'ni ularda o'tkazilgan saylov tizimini ifoda etuvchi saylovlarini tasniflash asosida belgilash mumkin. Saylovlarga doir quyidagi bir-biriga qarama-qarshi bo'lingan juftlik asosida qabul qilingan tushunchalar u yoki bu mamlakatning demokratik rivojlanish darajasini aniqlashga yordam beradi. Unga muvofiq saylovlar quyidagicha o'tkazilishi mumkin: umumiy – chegaralangan (senzli); teng – noteng; to'g'ri – bilvosita; yashirin – ochiq ovoz berish. Bu saylovlar tasniflangan har bir juftlikning chap tomonidagi tushunchalarga amal qilgan mamlakatlarda

demokratik qadriyatlar asosidagi saylovlar o'tkazilishini bildiradi.

Fuqarolik jamiyati davlat hokimiyatiga bo'ysundirilgan mamlakatlarda avtoritar rejimga xos saylovlar amal qiladi. Deputatlar tarkibi va saylovoldi dasturlar mazmuniga doir barcha asosiy qarorlar oldindan mamlakat siyosiy rahbariyati xohishiga mos ravishda shakllanadi. Bu kabi saylovlarda deputatlar nomzodlari oshkor etilmaydi, ularning shaxsi va dasturlari to'g'risida saylovchilar yaxshi tasavvurga ega bo'lmaydi. Deputatlikka nomzodlar saylovchilar vakili sifatida emas, balki idora etuvchi partiyaviy-davlat vakillari sifatida namoyon bo'ladilar.

Totalitar siyosiy tizim mafkuraviy niqoblar ostida o'zining haqiqiy mazmunini turli usullar bilan niqoblab, "xalq irodasini", shuningdek, "oliy darajadagi demokratiyaga mansub ekanligini" ifodalashga da'vogarlik qiladi. Bu siyosiy tizim demokratiyaning nomuqobil shaklidan foydalanib, umumxalq qo'llab-quvvatlashi ko'rinishini shakllantirishga intiladi.

Saylovlarning ikkinchi turi davlat bilan fuqarolik jamiyati o'rtasidagi o'zaro muvozanat beqaror bo'lgan mamlakatlar uchun xosdir. Bu kabi mamlakatlarda saylovlar demokratik rejimlar chuqur ildiz otmagan, davlat yetakchilarining demokratik intilishlari antidemokratik kuchlar qarshiligiga uchraydigan mamlakatlarda uchrab turadi. Bu kabi mamlakatlarda, ko'pincha, xalq tomonidan saylangan hokimiyatning vakillik organlari turli kuchlar va bosimlar ostida o'zining yashash qobiliyatini yo'qotadi.

Jamiyatning avtoritarizmdan demokratiyaga o'tish muammolari quyidagi ikki noma'lumli tenglamani echish bilan bog'liqdir: aholi qo'llab-quvvatlashini yo'qotish sharoitida oldingi rejimdan o'tish davrini bosqichma-bosqichlik asosida amalga oshirish. Bu murakkab vazifani hal etish o'tish davri qator bosqichlarini siyosiy texnologiyalar, jumladan, takrorlanib turuvchi saylov jarayonlari vositasida qulaylashtirishni talab etadi. Demokratiyaga bosqichma-bosqich o'tish quyidagi turli darajalardagi davlat hokimiyati organlariga saylovlar bilan bog'liqdir: o'zini o'zi boshqarishning mahalliy tizilmalarini saylash; mintaqaviy darajalarda siyosiy partiyalar va harakatlarni shakllantirish va ularning rahbar organlarini saylash yo'li bilan saylov oldi kurashlari uchun siyosiy kengliklarni shakllantirish; ijro hokimiyati rahbarlarini saylash;

Ko'rinib turibdiki, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish demokratik saylovlar vositasida ro'y beradi. Avtoritarizmdan demokratiyaga o'tish muddati esa o'n yilliklar, avlodlar almashinuvi va qator demokratik

saylovlar bilan o'lchanadi. Ko'ppartiyaviylik amaliyoti tajribasining kamligi o'zaro siyosiy chidamlilikning (tolerantlikning) shakllanishiga imkon beruvchi ijtimoiy demokratik shart-sharoitlarning noqulay bo'lishiga sabab bo'ladi. Natijada, o'tish davri muddatlari cho'zilib boraveradi. Shuningdek, ba'zi mamlakatlarda shoshma-shosharlik bilan demokratiyaga tezlik bilan o'tishga intilishlar, ko'pincha, soxta demokratiya shaklidagi avtoritarizmni qayta tiklaydi.

Shuningdek, saylovlarga doir takomillashmagan qonunchilik, demokratik an'analar va saylovlarning borishi ustidan xalq nazoratining yetishmasligi davlat bilan fuqarolik jamiyati o'rtasidagi o'zaro muvozanati beqaror bo'lgan mamlakatlar uchun xarakterlidir. Bu kabi holatlar saylovlar natijalarini soxtalashtirishlarga olib kelishi ham muqarrardir. Shuning uchun ham bu mamlakatlar uchun har bir o'tkazilgan haqiqiy demokratik saylovlar huquqiy davlat qurishning mashaqqatli yo'lidagi kichik, lekin, shu bilan birga, eng zaruriy bo'lgan muhim qadamdir.

Saylovlarning uchinchi turi – demokratik rejimlardagi, ya'ni davlatlar fuqarolik jamiyatiga bo'ysungan mamlakatlar uchun xosdir. Fuqarolik jamiyati qurishni rivojlantirishning muhim sharti – davlat, jamiyat va shaxs o'rtasidagi o'zaro muvozanat, tenglik, bir maromdagi rivojlanishning mavjudligidir. Ular o'rtasida yuz berishi mumkin bo'lgan ziddiyatlar qo'rqitish intizomi va hukmronlik usullari bilan emas, balki qonun oldida mas'ul bo'lgan davlat hokimiyati, huquqiy va siyosiy vositalar bilan muvofiqlashtiriladi.

Turli mamlakatlardagi saylovlarda o'zaro siyosiy muxolifatdoshlikka asoslangan demokratiya tabiatiga xos saylovlarning bir qancha umumiy tomonlari mavjuddir. Bular hokimiyatga da'vogarlik turli siyosiy kuchlar o'rtasidagi o'zaro ishonch, idora etuvchi elitani erkin demokratik saylovlar vositasida shakllantirishning an'anaviy qoidalarini hurmat qilishdir. Bu kabi rivojlangan mamlakatlardagi saylovchilar va deputatlikka nomzodlar xulqi avtonom va ratsional-maqsadlilik xarakteriga egadir. Bu mamlakatlar jamiyatlarida saylovlar siyosiy elitani shakllantirishning haqiqiy mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Bunda saylovlar aholiga rasmiy siyosat yo'nalishlariga ta'sir etish uchun imkoniyatlar yaratadi, ularni o'zining manfaatlariga monandlashtira oladi. Natijada davlat hokimiyati organlariga bo'lgan saylovlar rasmiy va norasmiy subyektlarning o'zaro hamkorlik qilishi legitimligini ta'minlaydi, bu jarayonlarda ijtimoiy tartibotning saqlanishiga va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga erishiladi.

Fuqarolik jamiyati fuqarolarning o'z irodalarini erkin ifodalashlariga, barcha markaziy organlarni xalq tomonidan saylanishi yo'li bilan davlat hokimiyatida vakillik munosabatlarining shakllanishiga asoslangan liberal-demokratik yoki konstitutsion legitimlikning rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Legitimlikning bu kabi shakli G'arb jamiyatlarining uzoq davrlar sotsioiqtisodiy va sotsiomadaniy evolyutsiyasi natijasi o'laroq shakllanib, u hozirgi davrda jahon taraqqiyotining yetakchi tamoyiliga aylandi.

Dunyoning ko'plab demokratik mamlakatlari o'zlarining Konstitutsiyalari yoki maxsus saylovlarga doir qonunlarida fuqarolarni yashirin ovoz berish orqali umumiy va teng saylovlar huquqlarini e'lon qilgan.

Demokratik jamiyatda saylovlardagi kurashlar siyosiy partiya faoliyatining asosiy kurashlar maydoni hisoblanadi. Har bir partiya o'z elektoratini ko'paytirishga intiladi. Elektorat saylovlarda u yoki bu partiyaga ovoz beradigan saylovchilardir. Masalan, sotsial-demokratik partiyalar elektorati asosan ishchilar, ziyolilar, xizmatchilar, mayda mulkdorlardan iboratdir. AQSH Demokratik partiyasi elektoratini, odatda, ko'proq mamlakatning rangli aholisi tashkil etadi. Bir saylovdan keyingi saylovgacha u yoki bu partiyaning elektorati soni va sifati jihatlaridan o'zgarib turishi mumkin. Masalan, Buyuk Britaniyada Leyboristlar partiyasi Liberallar partiyasini ikkipartiyaviy tizimdan siqib chiqarganidan keyin leyboristlar elektorati liberallar hisobiga sezilarli darajada ko'paydi.

Hozirgi zamon davlatlarida ovoz berish nafaqat fuqarolik huquqi, balki fuqarolik majburiyati hamdir. Ba'zi mamlakatlarda saylovda qatnashmaganlik uchun ham jazo choralari belgilangan. Masalan, Belgiya, Niderlandiya, Avstraliya kabi mamlakatlarda jarima to'lanadi. Pokistonda esa hattoki qamoq jazosi ham qo'llaniladi. Ayrim mamlakatlarda esa "to'polonlarni oldini olish" maqsadlarida ovoz berish uchun har bir saylov okrugi bo'yicha mavjud nomzodlar soni ancha chegaralangan.

Ovoz berish yakunlari bo'yicha saylovlar natijalarini aniqlash, asosan, ikkita katta saylov tizimi asosida kechadi: majoritar va proporsional tizimlar. Majoritar tizimda nomzod yoki nomzodlar ro'yxati qonunda belgilanganidek, eng ko'p ovoz olgandagina u yoki bu saylanadigan vakillik organiga saylangan, deb hisoblanishi bilan tavsiflanadi. Ko'pchilik ovoz olish ham har xil bo'ladi. Mutlaq ko'pchilikni (50%+1 ovoz) talab etuvchi saylov tizimlari ham uchraydi.

Bunday tizim, jumladan, Avstraliyada amal qiladi. Majoritar tizimdagi saylovlarda muayyan ko'pchilikning o'z raqiblariga nisbatan ko'proq ovoz olishi ular nomzodining g'alaba qilganligini bildiradi. Bu kabi holat "marraga birinchi kelganlar tizimi", deb ham ataladi. Hozirgi vaqtda bunday tizim AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya, Yangi Zelandiya kabi mamlakatlarda qo'llanilmoqda. Ba'zan birdaniga majoritar tizimning ikki xil ko'rinishi ham qo'llaniladi. Masalan, Fransiyada parlamentga deputatlar saylashning birinchi bosqichida mutlaq ko'pchilikning ovoz olish tizimiga amal qilinsa, ikkinchi bosqichda esa nisbatan ko'pchilikning ovoz olish tizimi qo'llaniladi.

Saylovning proporsional tizimida berilgan ovozlarning miqdoridan kelib chiqib, barcha mandatlarning ana shu berilgan ovozlar o'rtasida aniq proporsional taqsimlanishi ro'y beradi. Bu tizim hozirgi zamonda ancha keng tarqalgan. Masalan, G'arbiy Yevropa, Yaponiya, Lotin Amerikasi mamlakatlarida saylovlar ko'pincha proporsional tizimda o'tkaziladi. Shuningdek, bu tizim Belgiya, Shvetsiya va boshqa ko'p mamlakatlar uchun ham xosdir.

Proporsional tizim ikki xil ko'rinishga ega: birinchisi, umumdavlat darajasidagi proporsional saylov tizimi (saylovchilar butun mamlakat doirasida siyosiy partiyalar uchun ovoz beradilar, unda saylov okruglari belgilanmaydi); ikkinchisi, ko'p mandatli okruglarga asoslangan proporsional saylov tizimi (deputatlik mandatlari partiyalarning saylov okruglariga nisbatan ta'siri asosida taqsimlanadi).

Majoritar va proporsional tizimlar o'zining ham yutuq, ham kamchiliklariga egadir. Majoritar tizimning ijobiy xususiyatlari shundaki, unda samarali faoliyat yurituvchi va barqaror hukumatni shakllantirish imkoniyati borligi bilan izohlash mumkin. Shuningdek, u katta va yaxshi uyushtirilgan siyosiy partiyalar uchun saylovlarni muvaffaqiyatli o'tkazish imkoniyatlarini beradi.

Majoritar tizimning asosiy kamchiliklari quyidagilardir: mamlakat saylovchilarining ko'pchilik qismi (ba'zan 50% ga yaqin) hokimiyat organlarida o'z vakillariga ega bo'lmay qoladi; saylovlarda o'z raqibiga nisbatan kam ovoz olgan partiya parlamentda ko'pchilik deputatlik o'rinlarga ega bo'lib qolishi mumkin; saylovlarda bir xil yoki bir-biriga yaqin miqdorda ovoz olgan ikkita partiya hokimiyat organida bir xil bo'lmagan miqdordagi nomzodlarni saylanishiga erishadilar (ba'zan, o'z raqibiga nisbatan ko'p ovoz olgan partiya bitta ham mandatga ega bo'lmasligini kuzatish mumkin). Shunday qilib, majoritar tizim biron-bir partiya yoki blok uchun vakillik organlarini saylashda ko'pchilik

ovozlarni va mandatlarni olishga yordam beradi.

Proporsional tizimning ustun tomonlari to'g'risida quyidagilarni keltirish mumkin: uning yordamida jamiyat siyosiy hayotidagi siyosiy kuchlarni joylashishining haqiqiy va aniq manzaralarini ko'rish mumkin. U fikrlar xilma-xilligi va ko'ppartiyaviylikning rivojlanishini, shuningdek, davlat bilan fuqarolar o'rtasidagi uzviy aloqadorlikni ta'minlab beradi.

Proporsional tizimning asosiy kamchiliklari esa quyidagilardir: hukumatni shakllantirishda murakkabliklar yuzaga keladi (sababi: biron-bir ustunlik qiladigan partiyaning yo'qligi, har xil maqsad va muddaolardagi partiyalarning ko'ppartiyaviylik asosidagi koalistiyani tuzishga majbur bo'lishi, bu esa hukumat beqarorligini keltirib chiqarishi); ovozlarning aniq nomzodlarga emas, balki partiyalarga berilishi, partiyalar bilan deputatlar o'rtasidagi aloqaning sustligi; deputatlarning o'z partiyalariga ancha bog'liq bo'lib qolishlari (bu kabi erkinlikning chegaralanishi parlamentda qonunlar va muhim hujjatlar qabul qilish jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin).

XX asrning ikkinchi yarmiga kelib saylov tizimi o'z taraqqiyoti va rivojlanish yo'lida katta jarayonlarni bosib o'tib, boy tajribalar to'pladi. Majoritar va proporsional tizimlarning yaxshi tomonlari bir-biri bilan uyg'unlasha boshladi. Aralash tizim doirasida ma'lum bir qism deputatlik mandatlari majoritar tamoyillar asosida taqsimlanishi, qolgan qism mandatlar esa proporsional tizim asosida taqsimlanishi rusumga kirdi. Saylov tizimini demokratlashtirish va takomillashtirishda bu aralash saylov tizimi siyosiy barqarorlikka erishish yo'lidagi eng samarali yo'l ekanligini rivojlangan mamlakatlar tajribalari isbotlab bermoqda.

2. Saylovlarning demokratik prinsiplari

Demokratik saylovlarni vakillik mexanizmi sifatida amal qilishini betakror qadriyatga aylantirgan, umume'tirof etgan qator prinsiplar mavjud. Bu prinsiplar saylov qonunchiligida o'z ifodasini topadi va ular muhim inson huquqlaridan biri bo'lgan – saylash huquqi yoki ovoz berish huquqini ta'minlaydi.

Parlament demokratiyasiga asoslangan konstitutsiyaviy mamlakatlarda, avvalo, vakillik organlarini saylanish prinsipi va ularni shakllantirishdagi xalqning hech bir bo'linmas huquqi har tomonlama mustahkamlanadi. Bu mamlakatlar konstitutsiyalarida, odatda,

saylovlarning umumiyligi prinsipi mazmuni ochib beriladi. Umumiylik prinsipi barcha aholini saylovchi sifatidagi faol huquqi, hokimiyat organlariga saylanish uchun saylovlarda nomzod sifatidagi passiv saylov huquqini anglatadi.

Bundan mustasnolik bir qancha senzlar bilan chegaralangan: balog'atga yetmaganlarning yoshi, nomzodlarning yoshi sal kattaroq bo'lishi; sud qarori bilan mustahkamlangan saylovlarda ishtirok etish qobiliyatiga ega bo'lmagan ruhiy kasal fuqarolar. Shuningdek, ma'naviy senzlar ham mavjuddir: sud qarori bilan ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar huquqi ham cheklanadi. Umume'tirof etilgan qoidalardan tashqari boshqa senzlarni o'rnatish saylovlarning umumiylik prinsipini cheklaydi yoki uni to'g'ridan to'g'ri buzadi.

Sobiq ittifoq qonunchiligiga binoan ma'lum sinflar va ijtimoiy tabaqalar saylov faolligini cheklovchi qator toifaviy – sinfiy senzlar mavjud edi. Ularning ro'yxati va mazmuni davlat rivojlanishining turli bosqichlarida tez-tez o'zgarib turdi.

Jinsiy senz uzoq davrlar ayollarning saylovlardagi ishtirokini cheklab keldi (ba'zi musulmon mamlakatlarida hozirga qadar bu kabi senz saqlanib qolmoqda). Mulkiy senz esa kambag'al fuqarolar faolligini hamon cheklamoqda. Qator mamlakatlarda o'troqlik senzi migrantlarning saylov okrugida saylash va saylanish huquqini bir necha yillar davomida cheklaydi.

Hozirgi davr demokratik saylovlar prinsiplaridan biri – teng saylov huquqi hisoblanadi. Uning amaldagi ifodasi shundan iboratki, qonun chiqaruvchi organga har bir deputat deyarli teng miqdordagi fuqarolar vakili hisoblanadi, shuningdek, har bir saylovchi umumiy saylov qarorlariga bir xilda ta'sir etish darajalariga ega bo'ladi. Bu prinsipga amal qilishning o'ziga yarasha qiyinchiliklari mavjud. Mazkur prinsipga amal qilish saylov okruglari chegaralarini to'g'ri belgilash bilan bog'liq.

Teng saylov huquqi prinsipi yana bir qancha muhim talablarga itoat etishni taqozo etadi: nomzodlar ko'rsatish davrida ular uchun teng imkoniyatlar yaratish, nomzodlarni qo'llab-quvvatlash uchun yig'iladigan ovozlarni va saylovoldi targ'ibotlari imkoniyatlarining tengligi. Shuningdek, nomzodlarning moddiy imkoniyatlari turlicha ekanligi va ularning bu imkoniyatlaridan qanday darajada foydalanishlarini nazorat qilish mushkul ish ekanligiga e'tibor berilsa, bu yo'nalishda tenglikni ta'minlash ko'plab muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham aksariyat mamlakatlarda nomzodlar moddiy shart-sharoitlari tengligini ta'minlash uchun saylov

kampaniyalarini davlat tomonidan moliyalashtirishga amal qilinadi.

Demokratik saylovlarning yana bir mezonlaridan biri – saylovlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘tkazish prinsipi hisoblanadi. Parlament demokratiyasi rivojlangan mamlakatlarning ko‘pchiligida saylovchilar to‘g‘ridan to‘g‘ri (delegatlar yoki vakillar vositasisiz) prezident, parlament va boshqa siyosiy hokimiyat organlarini saylaydilar. Shu bilan birga, ba’zan oz sonli maxsus saylovchilar saylov okrugidagi yoki mamlakatdagi barcha saylovchilar irodasini ifoda etishi asosida saylaydigan shaklan bilvosita, mazmunan bevosita saylovlar ham amaliyotda uchrab turadi. Bu kabi shaklan to‘g‘ridan to‘g‘ri bo‘lmagan saylovlar AQSH prezidentini saylashda qo‘llaniladi. Lekin bu saylovlar mamlakatdagi barcha saylovchilar qarorini ozchilik maxsus saylovchilar tomonidan hech bir o‘zgarishlarsiz bajarish asosida ro‘y berishi e’tiborga olinsa, u ham to‘g‘ridan to‘g‘ri saylovlardan kam farq qiladi.

Ilgarilari bilvosita saylovlarni ko‘plab qo‘llash natijasida saylov jarayonlaridagi demokratik mazmun kamayib ketgan edi. Avvalo, bu kabi saylovlarni qo‘llash saylovchilar sonini kamaytirib, har bir fuqaroni saylovlarda ishtirok etishiga imkoniyatlar qoldirmas edi. Shuningdek, bu saylovlarda ishtirok etishni istamaydigan saylovchilar soni ham yildan yilga ko‘payib bordi. Nomzodlar va ularning dasturlariga nisbatan e’tiborsizlik paydo bo‘ldi. Shu bilan birga, bilvosita saylovlar siyosiy kuchlar o‘rtasidagi kuchlar joylashuvini doimo soxtalashtirib, saylovchilarni erkin tanlash huquqlarini buzib keldi. To‘g‘ridan to‘g‘ri saylovlar esa barcha saylovchilarni ovoz berishda ishtirok etishiga imkoniyatlar yaratib, saylov kampaniyasini legitimlik asosida kechishini ta’minlab kelmoqda.

Demokratik saylovlarning yana bir muhim prinsiplaridan biri musobaqadoshlik yoki o‘zaro raqobatdoshlik hisoblanadi. Ya’ni u saylovlarda turli xil ijtimoiy guruhlar yoki qatlamlar manfaatlarini ifodalovchi turli partiyalar va nomzodlarni ishtirok etishini anglatadi. Siyosiy partiyalar turli xil mafkura va turli ijtimoiy qatlamlar siyosiy manfaatlari asosida saylovlarga barcha toifadagi fuqarolarni jalb qilish imkoniyatlariga egadir. Ko‘ppartiyaviylik asosidagi raqobatdoshlik demokratiya rivojlangan mamlakatlar uchun xos bo‘lib, u turli ijtimoiy manfaatlarni tinch musabaqalashuv asosida ifodalashni ta’minlab, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligiga katta hissa qo‘shadi. Shu bilan birga, raqobatdoshlik asosidagi saylovlar turli o‘zaro ijtimoiy mojarolarning ham tinch yo‘l bilan barham topishiga imkoniyat yaratadi.

Barcha demokratik mamlakatlar tomonidan tan olingan prinsiplardan

yana biri – yashirin ovoz berish hisoblanadi. Saylovlarda yashirin ovoz berish natijasida saylovchiga tashqaridan tazyiq yoki ta'sir o'tkazishning oldi olinadi, har bir saylovchining erkin bo'lishi, o'z xohish-ixtiyorini amalga oshirishi uchun imkoniyatlar yaratiladi. Shuningdek, saylovlar o'tkazishdagi yana bir demokratik prinsip – saylovlar ustidan xalq nazoratini amalga oshirish hisoblanadi. Shuningdek, saylovlar kampaniyalarida milliy va xorijiy kuzatuvchilarning ishtirok etishi saylov o'tkazilayotgan davlatning obro'-e'tiborini oshiradi.

Demokratik mamlakatlardagi saylovlar o'tkazish prinsiplaridan biri – saylovlarning erkinligi va ularda fuqarolarning ishtirok etishining ixtiyoriyligi hisoblanadi. Bu prinsipning mohiyati shundaki, hech kim fuqaroning saylovda erkin o'z xohishini bildirishiga yoki saylovda ishtirok etishi va etmasligiga ta'sir o'tkaza olmaydi.

Demokratik saylovlarning yana bir prinsipi – nomzodlarning saylovoldi kurashi uchun teng imkoniyatlar yaratishdir. Bu prinsip nomzodlardagi turli moddiy yoki siyosiy imkoniyatlar ularning ba'zilariga ustunliklar va imtiyozlar yaratilishini oldini olib, barcha nomzodlar uchun teng imkoniyatlar yaratadi. Shuningdek, yana bir prinsip – saylovlarni boshqa muddatlarga ko'chirish yoki uni bekor qilishga yo'l qo'ymaslik maqsadidagi saylovlar muddatini cheklash prinsipi hisoblanadi. Chunki saylovlarni o'tkazish muddati ayrim siyosiy kuchlar xohishiga bog'liq bo'lsa, saylovlar o'z qadr-qimmatini yo'qotishi turgan gap. Saylovlarni aniq bir xil muddatlarda o'tkazilishi saylovchilarning o'z manfaatlari asosida hokimiyat organlarini o'zgartirib turishiga keng imkoniyatlar yaratib beradi.

Demokratik saylovlar tamoyillari va bu sohada shakllangan qadriyatlarni tahlil etish natijasida fuqarolik jamiyatining muhim jihatlaridan biri bo'lgan – fuqarolarning siyosiy jarayonlardagi ishtirokining nechog'lik ahamiyat kasb etishiga doir xulosalar shakllanadi. BMTning "Inson huquqlarining umumjahon deklaratsiyasi"da ifodalangan "xalq irodasi hukumat hokimiyatining asosi bo'lishi kerak", degan demokratik qoida asosan saylovlar vositasida amalga oshirilib, unda jamiyat a'zolarining xohish-istaklari asosida siyosiy hokimiyatning shakllanishi ro'y beradi. Ana shu qoidani amaliyotda qo'llash natijasidagina fuqarolik jamiyatining hokimiyat organlari faoliyatini nazorat qilishlari uchun shart-sharoitlar yaratiladi. Shuningdek, demokratik saylovlar fuqarolik jamiyati tarkibidagi ijtimoiy qatlamlar va guruhlarning manfaatlarini barq urishiga, bu manfaatlar qutqusi asosida siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishiga zamin

tayyorlaydi. Umuman olganda, saylovlarning erkin va adolatli o'tishi fuqarolik jamiyatining rivojlanish darajasini bildiradi va unga yashovchanlik qobiliyatini baxsh etadi.

3. O'zbekistonda demokratik saylovlar tizimining qaror topishi va rivojlanishi

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan saylovlar o'tkazishning demokratik tamoyillari ham fuqarolik jamiyati yashovchanligini ta'minlay olish qobiliyatini o'zida ifodalaydi. Ayniqsa, u mamlakatda demokratik saylov tizimining shakllanishi uchun qulay huquqiy shart-sharoitlar yaratib berishi bilan ajralib turadi. Mamlakatda shakllangan saylov tizimiga doir huquqiy asoslar parlament, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlarini shakllantirish tamoyillari va fuqarolarning saylovlarda qatnashish huquqini, mamlakatda xalq hokimiyatini amalga oshirish va davlatning umuminsoniy manfaatlar tamoyillari asosida tashkil etishning muhim demokratik poydevoridir.

Respublikada saylov tizimining huquqiy asoslari parlament va boshqa vakillik organlariga saylovlarda jamoatchilik fikrini har tomonlama aniqlash, nomzodlarning shaxsiy fazilatlarini bilish, saylovchilarning faqatgina ovoz berishgina emas, balki ularning saylov kampaniyasida bevosita ishtirok etishi uchun ham demokratik muhit yaratishga yo'naltirilgandir.

O'zbekistonda shakllangan demokratik saylovlarning muhim demokratik tamoyillaridan biri shuki, mamlakat Prezidenti muqobillik asosida, bevosita saylovchilar tomonidan saylanadi. Shuningdek, Oliy Majlisning quyi palatasi – Qonunchilik palatasi deputatlari bevosita saylovchilar tomonidan saylanishi an'anaga aylandi. Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyat, shahar va tuman xalq deputatlari ham to'g'ridan to'g'ri xalq tomonidan saylanadi.

O'zbekistonda saylovlar xalq hokimiyatchiligini amalga oshirish zaruriyatidan kelib chiqib, unda xalq tomonidan davlat hokimiyatini shakllantirish va uning faoliyatini nazorat etishni xalqchillik asosida amalga oshirish maqsadlari mujassamlashgan. Shuningdek, saylovlar davrida "xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbayidir" degan demokratik tamoyilni amalga oshirish imkoniyatlari tug'iladi.

Fuqarolarning davlat va jamiyatni boshqarishdagi ishtiroklari saylovlar davrida aniq va ravshan namoyon bo'ladi. Shu bilan birga,

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 32-moddasida “bunday ishtirok etish o‘zini o‘zi boshqarish, referendumlar o‘tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish yo‘li bilan amalga oshiriladi” deyiladi. Mazkur Konstitutsiyaviy qoidadagi “davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish” so‘zining asl ma’nosi davlat organlarini xalq tomonidan to‘g‘ridan to‘g‘ri saylanishini anglatadi.

O‘zbekistonda saylovlardagi tenglik huquqi tamoyili Konstitutsiyaning 117-moddasida quyidagicha mustahkamlangan: “O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar. Har bir saylovchi bir ovozga ega. Ovoz berish huquqi, o‘z xohish-irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadi. ...Saylovlar umumiy, teng va to‘g‘ridan to‘g‘ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo‘li bilan o‘tkaziladi”.

O‘zbekistonda saylovlarning huquqiy asoslari rivojlangan mamlakatlarda keng yoyilgan demokratik tamoyillar asosida shakllandi. 2003-yil 29-avgustda Oliy Majlis tomonidan 1993-yil 28-dekabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida”gi Qonunning yangi tahriri qabul qilinishi natijasida unga demokratik qadriyatlarga xos bo‘lgan yangi to‘ldirishlar va o‘zgartishlar kiritildi. 1994-yil 5-mayda parlament tomonidan O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi. Shuningdek, 2003-yil 29-avgustda Oliy Majlis tomonidan O‘zbekiston Respublikasining “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to‘g‘risida”gi Qonuniga (1994-yil 5-may) ham o‘zgartishlar va to‘ldirishlar kiritildi. Mazkur qonunlar demokratik saylovlarni amalga oshirishning demokratik tamoyillari asosi sifatida katta sinovlardan o‘tdi.

O‘zbekistonda Senatni shakllantirishda mahalliy vakillik organlariga Senat a’zoligiga nomzodlar ko‘rsatish vakolatlari berilishi hududiy manfaatlarning qonunlarda ifodalanishi uchun shart-sharoitlar yaratdi. Shu bilan birga, mahalliy xalq deputatlarining Senat a’zolarini saylashda bevosita ishtirok etishi vakillik demokratiyasining shakllanishiga, shuningdek, ularning umummilliy davlat boshqaruvi faoliyatlarida bevosita ishtirok etishlari uchun huquqiy imkoniyatlar yaratdi.

O‘zbekiston Respublikasining “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to‘g‘risida”gi Qonuniga binoan xalq deputatlari Kengashlariga “saylov kuni yigirma bir yoshga to‘lgan hamda kamida besh yil O‘zbekiston Respublikasi hududida muqim

yashayotgan" fuqarolar saylanish huquqiga egadirlar. Oliy Majlis umumdavlat ahamiyatiga ega oliy qarorlar qabul qiluvchi organ bo'lgani uchun ham Konstitutsiyada (77-modda) uning har ikkala palatasi – Qonunchilik palatasiga deputat va Senatga a'zo bo'lib saylanish huquqini 25 yoshga to'lgan fuqarolarga berilishi mustahkamlandi.

O'zbekiston saylov tizimidagi teng saylov huquqi quyidagilarni anglatadi: "har bir fuqaro bir ovozga ega. Fuqarolar jinsi, irqiy va milliy mansubligi, tili, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyi, ma'lumoti, mashg'ulotining turi va xususiyatidan qat'i nazar teng saylov huquqiga egadirlar".

To'g'ridan to'g'ri saylov huquqi hokimiyat vakillik organlariga saylov to'g'ridan to'g'ri o'tkazilishini anglatadi: beistisno barcha Kengashlarning deputatlari fuqarolar tomonidan bevosita saylanadilar.

"O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi (yangi tahriri) Qonunning 5-moddasida saylovlarda yashirin ovoz berish qoidasi quyidagicha ifodalangan: "Qonunchilik palatasi deputatlari saylovida erkin va yashirin ovoz beriladi. Ovoz beruvchilarning xohish-irodasi nazorat qilinishiga yo'l qo'yilmaydi". O'zbekistonda boshqa quyi vakillik organlariga saylovlar to'g'risidagi qonunlarda ham yashirin ovoz berish tamoyili mustahkamlandi.

Milliy mustaqillik yillarida mahalliy vakillik organlariga saylovlarga doir huquqiy asoslar ham takomillashdi. O'zbekiston Respublikasining "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi Qonunining (1994-yil 5-may) 1-moddasida O'zbekistonda mahalliy vakillik organlariga saylov o'tkazishning asosiy tamoyillari demokratik qadriyatlar talablari darajasida belgilab qo'yildi: "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov hududiy bir mandatli saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida besh yil muddatga o'tkaziladi. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatlari umumiy, teng va to'g'ridan to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadilar".

Demak, O'zbekistonda vakillik organlariga saylovlarning huquqiy asoslari huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati talablari darajasida ifodalanmoqda.

Vakillik organlari deputatligiga nomzodlar siyosiy partiyalar tomonidan ko'rsatilishi bu organlarning quyidagi demokratik qadriyatlar asosida faoliyat ko'rsatishiga shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratadi:

- ularning nisbatan mustaqil qarorlar qabul qilishlari va mahalliy ijroiya hokimiyati faoliyatini xolisona baholashlari;

- jamiyatdagi turli ijtimoiy qatlamlar va guruhlar manfaatlari va siyosiy irodalarini vakillik organlarida ifodalash, ular qarorlarida aks ettirish;

- vakillik organlaridagi turli partiyaviy fraksiyalar o'rtasidagi muloqotlar, bahs va munozaralar asosida pishiq va puxta qarorlar qabul qilish;

- saylovchilarning nomzodlar orasidan o'zlariga munosiblarini tanlash huquqini ro'yobga chiqarish;

- xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga siyosiy partiyalar faoliyatida ishtirok etgan, oldindan saylovchilar "tanlovi"dan o'tgan, tajribali va xalqchil nomzodlarni deputat bo'lib saylanishlariga imkoniyat yaratish.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunlarga kiritilgan o'zgartishlar va to'ldirishlar, "Siyosiy partiyalarni davlat tomonidan moliyalashtirish to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi bilan mahalliy vakillik organlarini saylash jarayonlarini demokratik prinsiplar asosida tashkil etish shart-sharoitlari shakllandi. Mahalliy vakillik organlarini shakllantirishda siyosiy partiyalarning ishtirok etishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan saylovlarga doir qonunchilikni takomillashtirish jarayonlari fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish, fuqarolar erkinligi va haq-huquqlarini ta'minlash bilan uzviy bog'liqlikdagi o'zgarishlardir. Mahalliy vakillik organlarini saylash kompaniyalarida siyosiy partiyalar, jamoat va nodavlat tashkilotlar, fuqarolar faolligini oshirish, bu jarayonlarning demokratik qadriyatlar asosida kechishini ta'minlash uchun saylov tizimini fuqarolar huquqlari va manfaatlarini himoya qilish bilan uyg'unlashtira olish qobiliyatiga ega bo'lgan huquqiy asoslarning rivojlantirilishi – fuqarolik jamiyatiga xos bo'lgan belgilardan biridir.

O'zbekiston parlamentiga demokratik tamoyillar asosidagi saylovlar ilk bor 1994-yil 25-dekabrda o'tkazildi. Mustaqillik davrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga o'tkazilgan birinchi saylov mamlakatda tobora taraqqiy topayotgan demokratik jarayonlarning amaldagi ifodasi bo'ldi. Ko'ppartiyaviylik va muqobillik asosida o'tgan saylovlarda fuqarolarning huquqlari har jihatdan qadrlandi.

1999-yil 5-dekabrda bo'lib o'tgan demokratik qadriyatlar asosidagi saylovga tayyorgarlik ko'rishga doir tashkiliy-ommaviy ishlar natijasida mamlakatda 250 ta hududiy saylov okruglari tuzildi, 7723 ta saylov

uchastkasi tashkil etildi. Okrug va uchastka saylov komissiyalari tarkibida 100 mingdan ziyod mas'ul faollar faoliyat ko'rsatdilar. Saylov huquqiga ega bo'lgan 12,5 milliondan ortiq fuqarolarning ro'yxati tuzildi.

Saylov jarayonlari natijalariga binoan (2000-yil yanvardagi holat) O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan 48 ta, "Vatan taraqqiyoti" partiyasidan 20 ta, "Milliy tiklanish" demokratik partiyasidan 10 ta, "Adolat" sotsial-demokratik partiyasidan 11 ta, "Fidokorlar" milliy-demokratik partiyasidan 34 ta, saylovchilar tashabbuskor guruhlaridan 16 ta, hokimiyat vakillik organlaridan 110 ta deputatlar saylandilar. Ularning 18 tasi ayollardan iborat bo'ldi.

Shuningdek, 1999-yil 5-dekabrda bo'lib o'tgan xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovlar ham demokratik tamoyillar asosida o'tkazildi. Bu saylovlarda 5 ta siyosiy partiya, hokimiyat vakillik organlari, saylovchilar tashabbuskor guruhlaridan deputatlikka nomzodlar ko'rsatishning qonuniy asoslari o'rnatilib, unda turli xil ijtimoiy qatlam va guruhlar o'z vakillarining deputat bo'lib saylanishlari uchun kurashdilar.

2000-yil 9-yanvarda mamlakatimizda o'tkazilgan prezidentlik saylovi ham demokratik tamoyillar – ko'ppartiyaviylik va muqobillik asosida o'tkazildi. Nomzodlarning saylovoldi tashviqotlari oshkoralik va teng huquqlilik asosida olib borildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovining yuksak darajada o'tishi uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratildi.

O'tkazilgan Prezidentlik saylovi natijalari quyidagicha bo'ldi: saylovda 12746.903 saylov huquqiga ega fuqarolardan 12123.199 ta saylovchilar ishtirok etdi. "Fidokorlar" milliy demokratik partiyasi nomzodi Islom Abdug'aniyevich Karimov uchun 11147.621 saylovchi, ya'ni saylovchilarning 91,90 foizi ovoz berdilar. O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi nomzodi Abdulhafiz Marahimovich Jalolov uchun 505.161 saylovchi, ya'ni saylovchilarning 4,17 foizi ovoz berdi.

O'zbekistonda saylov qonunchiligining rivojlanishiga uyg'un ravishda fuqarolarning siyosiy va huquqiy madaniyati ham yuksalib bordi. Ayniqsa, mustaqillik yillarida fuqarolarning saylovlardagi ishtirokining faolligi, ularning saylovlarga nisbatan munosabatlarining o'zgarib borishi, xalqning demokratik qadriyatlarni o'z turmush tarziga singdirib borishi aniq sezildi.

2004-yil 26-dekabrda Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va mahalliy vakillik organlariga saylovlar bo'lib o'tdi. Saylovlar jarayonlari Konstitutsiya va qonunlar talablari darajasida o'tkazildi. Qonunlarga

kiritilgan yangiliklar – viloyat, tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlarining parlament quyi palatasiga deputatlikka nomzodlar ko'rsatish huquqining qonundan chiqarilishi, siyosiy partiyalar deputatlikka nomzodlari ro'yxatida xotin-qizlarning kamida 30 foiz bo'lishi shart etib qo'yilishi, shuningdek, siyosiy partiyalar faoliyatini moliyalashtirishga doir maxsus qonunning qabul qilinishi saylovlarning demokratik mazmunini yanada boyitdi.

Saylovda Parlament Qonunchilik palatasidagi 120 ta deputatlik o'rinlariga 489 nomzod ko'rsatildi. Jumladan, siyosiy partiyalardan – 435 nomzod va saylovchilarning tashabbuskor guruhlaridan – 54 nomzod saylovlarda deputatlik o'rinlari uchun kurashdilar. Saylovda 12197159 (barcha saylovchilarning 85,1 foizi) saylovchilar qatnashdi.

O'tkazilgan saylovlar natijasida O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi Qonunchilik palatasidagi 41 o'rinni (34,2 %) egalladi. O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan 28 ta deputat (23,3 %) saylandi. Shuningdek, "Fidokorlar" milliy demokratik partiyasining 18 ta nomzodi (15,0 %) , "Milliy tiklanish" demokratik partiyasining 11 ta nomzodi (9,2 %) , "Adolat" sotsial-demokratik partiyasining 10 ta nomzodi (8,3 %) Qonunchilik palatasi deputati etib saylandi.

Saylov okruglarining deyarli 77 foizida bir deputatlik mandati uchun 4-6 ta nomzodlar o'zaro kurash olib bordi. Saylov kampaniyasidagi o'zaro bahs-munozaralar, shuningdek, ovoz berish natijalari shuni ko'rsatdiki, saylovchilar ko'proq saylovoldi dasturlari ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy muammolarni bartaraf etishga qaratilgan, demokratik islohotlar tarafdori bo'lgan nomzodlar uchun xayrixoh bo'ldilar. Bu saylovda oldingi parlamentning faqat 18 ta sobiq deputati Qonunchilik palatasi deputati etib saylandi.

Saylovda siyosiy partiyalar va tashabbuskor guruhlarning 32 ming-dan ortiq kuzatuvchilari saylov kampaniyasida faol ishtirok etdi. Ularning saylov qonunchiligiga qat'iy amal qilishni ta'minlashdagi hissasi katta bo'ldi. Saylov qonunchiligiga yangi kiritilgan – siyosiy partiyalarning deputatlikka nomzodlarining kamida 30 foizi xotin-qizlar bo'lishining shart qilib qo'yilganligi o'zining ijobiy natijasini berdi. Qonunchilik palatasiga 159 ta xotin-qizlarning nomzodlari qo'yilib, ular o'zlarining faolligini namoyish etdi. 21 ta ayol (17,5%) Qonunchilik palatasi deputatligiga saylandi. 2004-yil 26-dekabrdagi, shuningdek, 2005-yil 9-yanvardagi takroriy saylovlarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi 120 deputatdan iborat tarkibda saylandi.

O‘zbekistonda mustaqillik davrida o‘tkazilgan saylovlar natijalarining tahlili shuni ko‘rsatdiki, mamlakatda demokratik qadriyatlarni milliy an’analar bilan uyg‘unlashtirish asosidagi islohotlar tobora chuqurlashib bormoqda. Mamlakatdagi saylovlarga doir qonunchilik asoslariga Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari sonining 120 tadan 150 taga oshirilishi, jumladan, O‘zbekiston Ekologiya harakatiga o‘zining 15 ta vakilini Qonunchilik palatasi tarkibiga deputat qilib kiritish huquqining berilishi, 2009-yil 27-dekabrdagi saylovda Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlar ko‘rsatish huquqining faqat 4 ta siyosiy partiyalarga berilishi (bu saylovda tashabbuskorlar guruhlaridan Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlar ko‘rsatish huquqining bekor qilinishi) Qonunchilik palatasining yangi tarkibini yanada sifatli bo‘lishini ta’minlash, shuningdek, siyosiy partiyalarning saylovchilar irodasini qonunlarda yanada ko‘proq ifodalay olishlari uchun huquqiy va siyosiy shart-sharoitlar yaratdi.

2009-yil 27-dekabrdagi Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga o‘tkazilgan saylovda bir deputatlik mandati uchun 99 ta saylov okrugida 4 nafardan nomzod, 36 ta saylov okrugida 3 nafardan nomzod kurash olib bordi. Mamlakat bo‘yicha ro‘yxatga olingan 17 mln. 215700 nafar saylovchidan 15 mln. 108 mingdan ortiq yoki saylovchilarning 87,8 foizi qatnashdi. Ovoz berish natijalariga ko‘ra, 96 ta saylov okrugida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari saylandi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga saylov bo‘yicha 39 ta saylov okrugida nomzodlarning birortasi ham saylanish uchun zarur ovozni to‘play olmaganligi uchun mazkur okruglarda takroriy ovoz berishni 2010-yil 10-yanvarda o‘tkazildi. 2009-yil 27-dekabrdagi va 2010-yil 10-yanvardagi saylovlar natijalariga binoan saylangan deputatlarning 53 tasi – Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan, 31 tasi – O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasidan, 32 tasi – O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasidan va 19 tasi – O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi ko‘rsatgan nomzodlardan iborat edi. Shuningdek, O‘zbekiston Ekologik harakatining Konferensiyasida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 15 nafar deputati saylandi. Hammasi bo‘lib 150 ta deputat saylandi.

2009-yil 27-dekabrda Qoraqalpog‘iston Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar, shahar va tumanlar xalq deputatlari Kengashlariga o‘tkazilgan saylovlarda saylangan deputatlarning 2054 tasi (33,5%) – Tadbirkorlar

va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan, 936 tasi (15,2%) – O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasidan, 2575 tasi (41,9%) – O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan, 443 tasi (7,2%) – O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi ko'rsatgan nomzodlardan iborat edi. Shuningdek, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari nomzodlaridan 131 tasi (2,1%) deputatlik mandatini qo'lga kiritdi.

Mamlakat tarixida ikkinchi marta parlamentning yuqori palatasi – Oliy Majlis Senatiga saylovlar o'tkazildi. 2009-yil yanvar oyida Oliy Majlis Senatiga vakillik organlari – Qoraqalpog'iston Jo'qorg'i Kengesi, viloyat, tuman va shahar xalq deputatlari ishtirokida yashirin ovoz berish yo'li bilan saylovlar bo'lib o'tdi. Bu saylovlar kampaniyasida mahalliy deputatlar orasidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a'zolari – 84 ta senatorlar saylandi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga muvofiq Oliy Majlis Senatining 16 ta a'zosi tayinlandi.

Umuman, saylov qonunchiligidagi o'zgarishlar demokratik saylovlar institutining davlat organlarini shakllantirishning muhim vositasi sifatidagi o'rnini yanada mustahkamladi, jamiyat a'zolarining manfaatlari va irodasini siyosiy qarorlarda ifodalanish jarayonlarini ta'minlab bera olish maqsadida huquqiy asoslarni yanada takomillashishiga imkoniyat yaratdi. Shuningdek, qonunchilikdagi o'zgarishlar fuqarolarning demokratik saylovlar vositasida oliy va mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini nazorat qila olishlari uchun keng imkoniyatlar yaratdi.

Mamlakatda saylovlarning fuqarolik jamiyati instituti sifatida shakllanishi, ularning xalq tomonidan e'tirof etilishi, shuningdek, saylovlar jarayonlariga zamonaviy demokratik tamoyillarning joriy etilishi natijasida fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolliklari, siyosiy jarayonlardagi ishtiroklari oshib bormoqda.

Rivojlangan demokratik mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, davlat hokimiyat organlariga saylovlar demokratik siyosiy jarayonning tarkibiy qismi hisoblanadi. Hozirgi davrda davlat hokimiyat organlarini shakllantirishga doir demokratik saylovlar jahondagi aksariyat mamlakatlar siyosiy hayotidagi tabiiy bir jarayoniga aylandi. Jahonda siyosiy hokimiyat organlariga saylovlar o'tkazilmaydigan biron-bir mamlakatni topish qiyin masala bo'lib qoldi.

Har qanday jamiyatning avtoritarizmdan demokratiyaga o'tish jarayoni saylovlar tizimini demokratlashtirish bilan uzviy ravishda

bog‘liqdir. Bu murakkab vazifani hal etish o‘tish davrining qator bosqichlarini siyosiy texnologiyalar, jumladan, takrorlanib turuvchi saylov jarayonlari vositasida demokratlashtirishni talab etadi. Demokratiyaga, ayniqsa, fuqarolik jamiyatiga bosqichma-bosqichlik asosida o‘tish turli darajalardagi davlat hokimiyati organlariga bo‘ladigan quyidagi saylovlar bilan bog‘liqdir: o‘zini o‘zi boshqarishning mahalliy tizilmalarini saylash; mintaqaviy darajalarda siyosiy partiyalar va harakatlarni shakllantirish va ularning rahbar organlarini saylash yo‘li bilan saylov oldi kurashlari siyosiy kengliklarini shakllantirish; parlamentni saylash; davlat rahbarini saylash; ijro hokimiyati rahbariyatini saylash. Shu tariqa fuqarolik jamiyatini rivojlantirish demokratik saylovlar vositasida ro‘y bera boshladi.

2010-yil 12-noyabrda qabul qilingan “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”ning to‘rtinchi qismi “O‘zbekistonda saylov huquqi erkinligini ta’minlash va saylov qonunchiligini rivojlantirish” masalalariga bag‘ishlandi. Unda quyidagi qonunchilik tashabbuslarini amalga oshirish maqsadi ilgari surildi:

- “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida”gi Qonunning 27-moddasi hamda “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to‘g‘risida”gi Qonunning 25-moddasiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish, unda, asosan, partiyalararo raqobatning kuchayishi, saylovoldi tashviqotining shakl va usullari tobora turli-tuman va keng miqyosga ega bo‘lib borayotgani bilan izohlanishi, shuning uchun saylov qonunchiligida saylov kampaniyasinlng ushbu muhim bosqichini amalga oshirish jarayonida deputatlikka nomzodlar va siyosiy partiyalarga teng sharoitlar yaratish mexanizmlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan normalarni nazarda tutish lozim” ligi;

- “Saylovoldi tashviqoti” tushunchasining o‘ziga aniq ta’rif berish, bunday tashviqotni olib borish shartlari, turlari, ruxsat etilgan shakl hamda usullarini qonunchilik yo‘li bilan belgilab qo‘yish zarurligi;

- “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida”gi qonunning 27-moddasiga saylovoldi tashviqotini nafaqat saylov kuni, balki ovoz berish boshlanishidan bir kun oldin ham olib borish mumkin emasligi to‘g‘risidagi normani kiritish;

- “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida”gi Qonunning 41-moddasi hamda “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to‘g‘risida”gi Qonunning 38-moddasiga

oldin ovoz berish tartib-qoidasi bilan bog'liq qo'shimchalar kiritish;

- "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi, "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi qonunlarga "ovoz berish kuniga qadar qolgan besh kun ichida, shuningdek, ovoz berish kuni jamoat fikri so'rovlari natijalarini, saylov natijalari prognozlarini va o'tkazilayotgan saylov bilan bog'liq boshqa tadqiqotlarni nashr etish (e'lon qilish), shuningdek, ularni umumiy foydalanishdagi axborot-telekommunikatsiya tarmoqlariga (shu jumladan, internet tarmog'iga) joylashtirish ta'qiqlanadi" degan normani kiritish;

- O'zbekiston Ekologik harakatidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga deputatlar saylovining ochiqligi va oshkoraligini ta'minlash maqsadida "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi Qonunning 6-moddasiga O'zbekiston Ekologik harakatining Qonunchilik palatasi deputatlarini saylash bo'yicha konferensiyalarida kuzatuvchilarning ishtirok etish huquqini belgilab beradigan qo'shimcha kiritish.

Saylovlar qonunchiligiga mazkur o'zgartishlar va qo'shimchalarni kiritish mamlakatda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish islohotlarini yanada chuqurlashtirish, davlat hokimiyatini shakllantirishda fuqarolarning siyosiy partiyalar vositasida ishtirok etishlarini huquqiy jihatlardan ta'minlash, insonning o'z siyosiy huquqlari va erkinliklarini hayotda amalga oshira olishlari uchun imkoniyatlar yaratish, hokimiyat organlari faoliyatini oshkoralik asosida kechishi kabi demokratik qadriyatlarni shakllantirishga qaratildi. Ayniqsa, saylovlar kampaniyasida deputatlikka nomzodlar va siyosiy partiyalar uchun teng sharoitlar yaratish mexanizmlarining samaradorligini oshirishga doir yangi huquqiy normalarni kiritish demokratik saylovlarning tenglik, oshkoralik, xalq irodasini ifodalash tamoyillari asosida o'tishini ta'minlab, fuqarolik jamiyati uchun xos bo'lgan ijtimoiy adolatni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratib berishiga muhim e'tibor qaratildi. Qolaversa, partiyalararo raqobatning kuchayishi uchun huquqiy asoslar yaratish konstruktiv muxolifat faoliyati uchun keng yo'l ochib berishiga keng imkoniyatlar yaratadi.

Mamlakatda 2014-yilning dekabr oyida o'tkazilgan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi, Senati va mahalliy vakilik organlariga saylovlar fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishni rivojlantirishning omili sifatida namoyon bo'ldi. Saylov kampaniyasini o'tkazishni Markaziy, 135 ta okrug va 9035 ta, shu jumladan, xorijdagi 44 ta uchastka saylov

komissiyalari ta'minladi. 2014-yilda Konstitutsiyaning 117-moddasiga kiritilgan tuzatishlarga asosan Markaziy saylov komissiyasiga doimiy faoliyat ko'rsatuvchi, mustaqil Konstitutsiyaviy organ maqomi berildi. Uning faoliyati prinsiplari tasdiqlandi: mustaqillik, qonuniylik, kollegiallik, oshkoralik va adolatlilik.

Saylov kampaniyasining borishi haqida jamoatchilikni obyektiv va tezkor tarzda xabardor qilish maqsadida Markaziy saylov komissiyasi saylovlarni yoritish bo'yicha Respublika matbuot markazini, viloyat saylov komissiyalari huzurida esa matbuot guruhlarini tuzdi. Saylovni o'tkazish bilan bog'liq axborotlar Markaziy saylov komissiyasining veb-saytiga joylashtirildi va tezkor ravishda yangilab borildi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining taklifiga binoan MDH va Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (SHHT) kuzatuvchilari missiyasi 2014-yilning 8-dekabridan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga saylovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish yuzasidan monitoringni amalga oshirib bordi. Missiya tarkibida Ozarbayjon Respublikasi, Armaniston Respublikasi, Belarus Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi, Qirg'iziston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston Respublikasi, Turkmaniston, shuningdek, MDH Ijroiya qo'mitasining vakillari bo'lgan 76 nafar kuzatuvchi akkreditatsiya qilingan edi. Missiya o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, Hamdo'stlik doirasida qabul qilingan hujjatlar, saylovlarni tashkil etish va o'tkazish sohasidagi xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga muvofiq saylov jarayonining borishiga va davlatning ichki ishlariga aralashmaslik prinsipiga rioya qilgan holda amalga oshirdi.

MDH, SHHT va YXHTning Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi (DIIHB) missiyalari ochiq va oshkora ishladi, uning faoliyati matbuotda, teleko'rsatuv va radioeshittirishlarda yoritildi. Missiyalar shtablari tomonidan ikkita axborot, saylovga tayyorgarlikni kuzatish jarayoni haqida Missiyaning oraliq hisoboti chiqarildi, ommaviy axborot vositalari vakillariga intervyular berildi.

Markaziy saylov komissiyasi ma'lumotlariga qaraganda, deputatlikka nomzodlarning 26,5 foizini ta'lim sohasi, 20,2 foizini ishlab chiqarish sohasi vakillari, 20,8 foizini iqtisodchilar, 14,2 foizini huquqshunoslar, 10,1 foizini sog'liqni saqlash tizimi xodimlari tashkil etdi. Nomzodlarning 13,8 foizi avval ham deputatlikka saylangan. Har bir siyosiy partiya deputatlikka nomzodlar sonining 30 foizidan kam bo'lmagan xotin-qizlarni ko'rsatdi.

Markaziy saylov komissiyasining "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga saylov kampaniyasi davrida siyosiy partiyalar, deputatlikka nomzodlarning saylovoldi tashviqoti to'g'risida"gi qaroriga binoan har bir siyosiy partiyaga O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining ("O'zbekiston" va "Yoshlar") kanallarida saylovoldi tashviqotini olib borish uchun haftasiga 238 daqiqadan efir vaqti ajratildi (shu jumladan, 5 daqiqadan – siyosiy partiyalar liderlari uchun). Bundan tashqari, radiova telekanallarda har kuni kuniga ikki marotabadan siyosiy partiyalarning saylovoldi roliklari yagona blokda translyatsiya etib borildi.

Saylovchilarning ovozlari uchun kurash partiya gazetalarining sahifalarida ham yo'lga qo'yildi. Internet – ijtimoiy tarmoqlar, siyosiy partiyalarning veb-saytlari, shuningdek, internet-nashrlar imkoniyatlaridan keng foydalanildi. Tuman va shaharlardagi ko'rgazmali reklama vositalarida saylovoldi tashviqoti materiallarini joylashtirish uchun siyosiy partiyalarga teng sharoitlar ta'minlandi. Ushbu maqsadlar uchun 1212 ta maxsus konstruksiya va taxtalavhalar, shuningdek, 25 ta elektron monitordan foydalanildi, ularda siyosiy partiyalarning 30 soniyalik roliklari yagona blokda translyatsiya qilindi. Siyosiy partiyalar saylovchilar bilan bevosita uchrashuvlarga alohida e'tibor qaratishdi. Saylovoldi tashviqoti davrida 10 mingdan ortiq ana shunday uchrashuvlar o'tkazildi.

Missiyalar a'zolari qayd etishicha, saylovchilar bilan uchrashuvlar ochiqlik va oshkoralik ruhida, batartib, milliy mentalitet va an'analarni hisobga olgan holda o'tkazildi. Missiyalar vakillari Qoraqalpog'iston Respublikasida, barcha viloyatlar va Toshkent shahrida kuzatuvni amalga oshirib, 85 ta saylov okrugidagi 707 ta saylov uchastkasiga tashrif buyurishdi. Saylov kuni ovoz berish va ovozlarni sanab chiqish jarayonini 70 mingdan ortiq milliy kuzatuvchilar va siyosiy partiyalarning vakolatli vakillari kuzatib turdi. Missiyalar a'zolari O'zbekiston ekologik harakati konferensiyasida ishtirok etib, 15 nafar deputatning Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga O'zbekiston ekologik harakatidan saylanishi Qonunga muvofiq ekanligini tasdiqladi.

SHHT Kuzatuvchilari missiyasi va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi kuzatuvchilari missiyasi quyidagi xulosalarga keldi:

- 2014-yil 21-dekabrda bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga saylov O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, amaldagi saylov qonunchiligi va umume'tirof etilgan xalqaro demokratik huquqiy normalar talablariga to'la muvofiq holda o'tkazildi;

- saylov ko‘ppartiyaviylik asosida o‘tdi va raqobatli, shaffof, ochiq bo‘ldi hamda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining o‘z xohish-irodalarini erkin bildirishlari ta’minlandi.

Saylov to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq siyosiy partiyalarga va deputatlikka nomzodlarga saylovoldi tashviqotini amalga oshirishda, saylovchilar bilan uchrashuvlar o‘tkazishda, saylovoldi dasturlari mazmun-mohiyatini saylovchilarga yetkazishda ommaviy axborot vositalaridan foydalanishda teng huquq va imkoniyatlar yaratildi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylov bo‘yicha tuzilgan saylov okruglaridan 127 tasida bitta deputatlik mandati uchun 4 nafardan nomzod, 8 tasida 3 nafardan nomzod kurash olib bordi. Umuman, mamlakatimiz bo‘yicha saylovchilar ro‘yxatiga 20 million 789 ming 572 nafar saylovchining familiyasi kiritilib, saylovda 18 million 490 ming 245 nafar yoki ro‘yxatga kiritilgan saylovchilarning 88,94 foizi qatnashdi.

2014-yil 21-dekabrdagi ovoz berish natijalariga ko‘ra 113 ta saylov okrugida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari saylandi. Shu bilan birga “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq 21-dekabr kuni O‘zbekiston ekologik harakatining Konferensiyasida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 15 nafar deputati saylandi. Siyosiy partiyalarning o‘zaro raqobatlashuvi natijasida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga saylov bo‘yicha 22 ta saylov okrugida nomzodlarning birortasi ham saylanish uchun zarur ovozlarni to‘play olmadi. Shu munosabat bilan 2015-yil 4-yanvar kuni ushbu okruglarda takroriy ovoz berish o‘tkazildi. Saylov qonunchiligiga asosan takroriy ovoz berish 22 ta saylov okrugining har birida asosiy saylov natijalariga ko‘ra saylovchilarning eng ko‘p ovozini olgan ikki nafar deputatlikka nomzod bo‘yicha o‘tkazildi. Takroriy ovoz berishda saylovchilar ro‘yxatiga familiyalari kiritilgan 3 million 434 ming 345 nafar saylovchidan 2 million 642 ming 63 nafar saylovchi ishtirok etdi va bu ro‘yxatga kiritilgan saylovchilar umumiy sonining 76,9 foizini tashkil qiladi. Takroriy ovoz berish milliy saylov qonunchiligining barcha qoidalariga muvofiq umume’tirof etilgan xalqaro standartlar asosida ochiq va oshkora o‘tkazildi. Takroriy ovoz berishda siyosiy partiyalarning 5700dan ortiq kuzatuvchilari va vakolatli vakillari ishtirok etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi

deputatlari saylovi natijalariga ko'ra, parlament quyi palatasiga 150 nafar deputat, shu jumladan, Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan 52 nafar; O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasidan 36 nafar, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan 27 nafar, O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasidan 20 nafar deputat saylandi. 15 nafar deputat O'zbekiston ekologik harakatining vakillaridir. Saylangan deputatlarning 24 nafari yoki 16 foizi xotin-qizlardan iborat bo'ldi. Saylangan 150 nafar deputatdan 40 nafari yoki 27 foizi ilgari Qonunchilik palatasi deputati bo'lgan. Bu saylangan deputatlarning nafaqat o'z saylovchilarining ishonchiga sazovor bo'lganligidan, qolaversa, parlament quyi palatasining professional faoliyatida ularning hayotiy tajribasi va qonun ijodkorligi amaliy ko'nikmalaridan yanada samarali foydalanish imkonini beradi. Quyi palata tarkibida jamiyatning deyarli barcha qatlamlari vakillari bo'lishiga erishildi.

Saylov jarayoni ochiqligi va oshkoraligini ta'minlashga ko'p jihatdan ommaviy axborot vositalari, mahalliy va xorijiy kuzatuvchilarning faoliyati katta omil bo'lib xizmat qildi. Saylov jarayonini 550 dan ortiq milliy va 120 dan ziyod xorijiy ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, 180 dan ortiq internet-nashrlar yoritib bordi. Saylovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bilan bog'liq 9 mingdan ortiq materiallar e'lon qilindi.

Saylovni kuzatishda 5 ta xalqaro tashkilot – Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti, Butunjahon saylov organlari assotsiatsiyasi va Islom hamkorligi tashkilotidan hamda 52 ta davlatdan 340 dan ortiq kuzatuvchilar, shuningdek, siyosiy partiyalarning 70 mingdan ziyod kuzatuvchilari va vakolatli vakillari ishtirok etdi. Saylovlarning demokratik prinsiplar asosida o'tkazilishi ushbu jarayonda qonun hujjatlariga amal qilinishi barcha bo'g'indagi saylov komissiyalarining uyushqoqlik bilan aniq bajargan, mustaqillik, qonuniylik, kollegiallik, oshkoralik va adolatlilik tamoyillariga asoslangan faoliyati orqali ta'minlandi.

2016-yil 2-sentabrda 2015-yilning mart oyida Prezident etib saylangan I.A.Karimovning vafot etishi munosabati bilan Markaziy saylov komissiyasi (MSK) 2016-yil 4-dekabrni Prezident saylovi kuni deb e'lon qildi. Barcha siyosiy partiyalar saylovga o'z nomzodlarini ilgari surdi: O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasidan

S.Otamuratov, Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan Sh.Mirziyoyev, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan X.Ketmonov, O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasidan N.Umarovni O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlar sifatida ro'yxatga olindi. 14 ta saylov okrugida 9382 ta saylov uchastkasi, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari huzurida 44 ta uchastka tashkil etildi. Okrug saylov komissiyalari tomonidan uchastka saylov komissiyalarining tarkiblari shakllantirildi, ularning faoliyatiga 98 mingdan ziyod kishilar jalb qilindi. Saylovlar amaliyotida birinchi marotaba 2016-yil 30-noyabridan 5-dekabrgacha "Press-klub: Saylov – 2016" ochildi.

Mazkur Prezident saylovida Markaziy saylov komissiyasi tomonidan akkreditatsiya qilingan 5 ta xalqaro tashkilot – Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti, Butunjahon saylov organlari assotsiatsiyasi va Islom hamkorlik tashkilotidan hamda 46 ta davlatdan 600 nafarga yaqin kuzatuvchilar ishtirok etdi. Xususan, saylovchilar ro'yxatiga kiritilgan 20 million 461 ming 805 nafar saylovchining 17 million 951 ming 667 nafari ovoz berishda ishtirok etdi. Bu saylovchilar umumiy sonining 87,73 foizini tashkil etadi.

2016-yil 4-dekabrda o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi natijalariga ko'ra, Sarvar Sadullayevich Otamuratovni yoqlab 421 ming 55 nafar saylovchi yoki ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilar umumiy sonining 2,35 foizi ovoz berdi, Shavkat Miromonovich Mirziyoyevni yoqlab 15 million 906 ming 724 nafar saylovchi yoki ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilar umumiy sonining 88,61 foizi ovoz berdi, Xatamjon Abduraxmonovich Ketmonovni yoqlab 669 ming 187 nafar saylovchi yoki 3,73 foizi, Narimon Majitovich Umarovni yoqlab 619 ming 972 nafar saylovchi yoki 3,46 foiz saylovchilar ovoz berdi. Saylov natijalariga asosan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan nomzod Shavkat Miromonovich Mirziyoyev g'olib chiqdi.

Mazkur saylovning ochiqligi va oshkoraligini ta'minlashda ommaviy axborot vositalari nihoyatda muhim o'rin tutadi. Prezident saylovini 615 milliy va 272 xorijiy ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, 315 ta xorijiy va milliy internet nashrlari yoritib bordi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini yoritish bo‘yicha Respublika matbuot markazi va okrug saylov komissiyalarining matbuot markazlari tomonidan mamlakatimiz va chet elning 1 ming 400 nafardan ortiq jurnalistlari ishtirokida saylov kampaniyasining muhim bosqichlariga bag‘ishlangan 180 ta matbuot anjumani va onlayn brifinglar o‘tkazildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sayloviga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bilan bog‘liq 22 ming 700 dan ziyod maqola va axborot materiallari e’lon qilindi, ko‘rsatuv hamda eshittirishlar efirga uzatildi.

Prezidentlikka saylovlar yakunlari shuni ko‘rsatdiki, mamlakatda demokratik qadriyatlar taboro jamiyat hayotiga singib bormoqda, fuqarolar dunyoqarashi va ularning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtiroki mazmuni tubdan o‘zgarmoqda. Bu holatni quyidagi misollar tasdiqlashi mumkin: bu saylovda birinchi marta Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti O‘zbekistondagi saylovlarda to‘la miqyosli kuzatish jarayonini amalga oshirdi; mamlaktimizdagi 2015-yildagi saylovda 43 davlatdan va beshta xalqaro tashkilotdan 299 ta kuzatuvchi ishtirok etgan bo‘lsa, bu soylovda 46 davlat va beshta xalqaro tashkilotdan 600 ta kuzatuvchi ishtirok etdi; bu kuzatuvchilarning aksariyati mamlakatda bo‘lib o‘tgan saylov kampaniyasini ijobiy baholadi; saylovchilar va siyosiy partiyalar faolligining birmuncha oshganligi sezildi va hokazo.

Albatta, saylovchilarning nomzodlarga turli darajada va keskin farqlangan holda ovoz berishiga quyidagi jihatlar ta’sir etdi: xalq o‘zining azaliy va an’anaviy mentelitetidan kelib chiqib nomzodlarning xalq farovonligi va yurt obodonchiligidagi shaxsiy ishtiroklari, davlat hokimiyatini boshqarish tajribasi va yetakchilik xususiyatlari, saylovchilar bilan muloqotlar olib borish mahorati, saylovoldi va’dalarini amalga oshirish uchun nechog‘lik insoniy va boshqa resurslarga ega ekanligi kabi omillar muhim rol o‘ynadi yoki saylov natijalarini hal etdi. Saylovda ovoz berganlarning 88,61 foizini olishga erishgan Shavkat Miromonovich Mirziyoyev yuksak g‘oliblik darajasini egallaganligi fikrimizga dalildir.

Prezident Sh.M.Mirziyoyev saylovgacha bo‘lgan qisqa davr – besh oy ichida amalga oshirilgan xalqchil va rivojlanish jarayonlari tufayli mamlakatda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishning qator asoslarini yaratish islohotlari benihoya avj oldi. Yangi saylangan davlat rahbarining yetakchilik va boshqaruv qobiliyati, yechimini kutayotgan muammolarni tezlik bilan ilg‘ab olish hissiyotining kuchli ekanligi, uzoq

yillardan buyon xalqning nazaridan tushmay kelayotganligi kabi ijobiy sifatlarining yanada yaqqolroq namoyon bo'lganligi uning xalq mehrini qozonishiga sabab bo'ldi. Uning qisqa muddatli ish faoliyatida kadrlarni o'rniga qo'yish masalasidagi adolat prinsiplarini tiklanish davrini boshlanishi, tadbirkorlar va fermerlar uchun faoliyat erkinliklari va huquqiy asoslarini rivojlantirilishi, xalq bilan muloqot qilishning zamonaviy demokratik turiga o'tishi (Bosh vazir virtual saytining ochilishi), atrofdagi davlatlar bilan iliq munosabatlarning boshlanishi, davlat hokimiyatini boshqaruv funksiyasiga nisbatan uning xalqqa xizmat qilish vazifasining ustuvorligi masalasini ilgari surish, jahondagi qudratli va rivojlangan mamlakatlar rahbarlarining umidli fikr-mulohazalar yo'llashi, mamlakatda hokimiyat almashuvining hech bir ijtimoiy-siyosiy larzalarsiz, silliq va yumshoq jarayonlar asosida amalga oshirilishi kabi omillarning paydo bo'lishi saylovchilar uchun muhim ahamiyat kasb etdi. Albatta, bu jarayonlar saylangan mamlakat rahbarining ilgari hech kim bilmagan yangi qirralarini ochdi, uning g'ayrat-shijoatga to'lgan, yurt uchun fidoyi inson ekanligini yanada ko'proq namoyon bo'ldi. Uning uzoq yillar davomida xalqning sinchkov sinovidan o'tganligi ham saylovlar natijalariga kuchli ta'sir etdi. Chunki mustaqillikning yarmidan ko'proq davri ichida u boshchilik qilgan hukumat ulkan o'zgarishlarni amalga oshirdi: barcha qonunlar ijrosi va davlat qarorlari bekam-u ko'st tarzda hayotda amaliyotini topdi.

O'zbekistonda saylov tizimining adolat prinsiplari asosida rivojlanishida 26 yil davomida xalq deputatlari kengashisiz faoliyat yuritgan Toshkent shahrining 11 tumanida Prezident Sh.M.Mirziyoyevning tashabbusi bilan mazkur tumanlar xalq deputatlari kengashlari tashkil etilib, ularga deputatlar saylash kuni e'lon qilindi. Toshkent shahar xalq deputatlari tuman Kengashlari saylovida 1,267 *mln* kishi ishtirok etdi. 81,2 foiz saylovchi ovoz berdi. Tashkil etilgan barcha 330 saylov okruglaridagi deputatlarning hammasi saylov kuni – 2017-yil 24-dekabrda saylandi. Saylovda Toshkent shahrida ro'yxatga olingan 1 mln. 560 mingdan ziyod saylovchilarning 1 *mln* 267 mingdan ortiqrog'i ishtirok etdi. Bu saylovchilar umumiy sonining 81,2 foizini tashkil etadi.

Toshkent shahar xalq deputatlari tuman Kengashlariga Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan 137, O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasidan 54, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan 49, O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasidan 37, shuningdek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan 53 nafar fuqaro deputat etib saylandi. Saylangan

330 deputatning 254 nafarini erkaklar, 76 nafarini ayollar tashkil etadi. 20 nafar deputat 30 yoshgacha bo'lgan yoshlardir. Deputatlarning 87 nafari iqtisodchi, 34 nafari huquqshunos, 61 nafari pedagog, 43 nafari shifokor, 55 nafari muhandis va 50 nafari boshqa kasb egalaridir.

Ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda saylovlar keyingi o'n yillikda fuqarolik jamiyati instituti sifatida rivojlandi. Davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda fuqarolarning xohish-istagini e'tiborga olish, mansabdorlar yoki xalq deputatlarini saylashda fuqarolarning tanlash huquqini mavjudligi demokratik davlatning eng asosiy belgilaridan biridir. 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida "siyosiy tizimni rivojlantirish, davlat va jamiyat hayotida siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish, ular o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish" vazifasini qo'yilishi, albatta, saylovlar tizimini yanada demokratlashuvini taqozo etadi. Zero, saylovlar fuqarolarning vaqti-vaqti bilan davlat hokimiyati organlaridan roziligini aniqlash, hokimiyat boshqaruv organlarining xalq oldida mas'ulligini his qilish kabi demokratik qadriyatlarni rivojlantirish omili sifatida ham fuqarolik jamiyatini shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqacha aytganda, demokratik saylovlar inson huquqlarining amalda namoyon bo'lishi shakllaridan biri hisoblanadi. Saylovda ishtirok etgan har bir fuqaro o'zini davlatga va jamiyatga dahldorligini his etadi, siyosiy jarayonlarga ta'sir eta olishi unga g'urur bag'ishlaydi.

Nazorat savollari

1. "Demokratik saylov" deganda nimani tushunasiz?
2. Saylovlarning qanday turlari mavjud?
4. Saylovlar qanday demokratik prinsiplarga amal qiladi?
5. O'zbekistonda demokratik saylovlarning rivojlanishi to'g'risida nima deya olasiz?
6. O'zbekistonda demokratik saylovlar o'tkazish amaliyotida qanday tub o'zgarishlar yuz berdi?

Test savollari

1. YXHTning saylov prinsiplari qaysi javobda aks etgan?

A) Qulaylik, milliylik, jamoaviylik, tashabbuskorik, adolatlilik, yashirinlik, erkinlik va mas'ullik

B) Hamjihatlilik, do'stonalik, bir-birini qo'llab-quvvatlash, izchillik, ochiqlik va raqobatlilik

C) Universallik, tenglik, erkinlik, adolatlilik, yashirinlik, shaffoflik va hisobot

D) Millatlararo totuvlik, bir-birini kamsitmaslik, tashabbuskorlik, hamkorlik va bag'rikenglik

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti kimlar tomonidan saylanadi?

A) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi

B) Fuqarolar

C) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati

D) Deputatlar

3. Majoritar tizimdagi saylovlar, deganda nimani tushunasiz?

A) Saylovda ustunlik qilgan siyosiy partiyalarning ko'pchilik deputatlik o'rinlarini egallashi

B) Saylovda muayyan ko'pchilikning o'z raqiblariga nisbatan ko'proq ovoz olishi ular nomzodining g'alaba qilganligini bildiradi

C) Saylovda siyosiy partiyalar nomzodlarini o'zaro raqobatlashuvi va o'zaro kurashi avj olgan saylov tizimi

D) Saylovlarda ishtirok etishga ruxsat olgan siyosiy partiyalarning o'z nomzodlarini ilgari surishi holati

4. Saylovning proporsional tizimi qo'llanganda qanday holat ro'y beradi?

A) Saylovning proporsional tizimida berilgan ovozlarning miqdoridan kelib chiqib, barcha mandatlarning ana shu berilgan ovozlar o'rtasida aniq proporsional taqsimlanishi ro'y beradi

B) Saylovning proporsional tizimida siyosiy partiyalar nomzodlaridan boshqa nomzodlar saylovga qo'yilmaydi

C) Saylovning proporsional tizimida berilgan ovozlarning miqdori siyosiy partiyalar o'rtasida bo'linadi va kim ko'p ovoz olsa, o'sha partiya g'olib bo'ladi

D) Saylovning proporsional tizimida berilgan ovozlarning miqdori saylov natijasini hal etmaydi, balki siyosiy partiyalarning birlashishi natijasida g'oliblik qo'lga kiritiladi

5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 90-moddasiga asosan kim O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylanishi mumkin?

A) O'ttiz besh yoshdan kichik bo'lmagan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylovgacha kamida 10 yil O'zbekiston hududida muqim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi saylanishi mumkin

B) O‘zbekiston hududida saylovdan oldin kamida 15 yil yashagan, davlat tilini yaxshi bilgan, 35 yoshga to‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi saylanishi mumkin

C) O‘zbekiston hududida tug‘ilgan, saylovdan oldin kamida 20 yil O‘zbekiston hududida yashagan, 45 yoshga to‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi saylanishi mumkin

D) O‘zbekiston hududida tug‘ilgan, 35 yoshga to‘lgan har qanday oliy ma’lumotli O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi saylanishi mumkin

6. Javoblarning ichida qaysi biri O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatini shakllantirishga taalluqli?

A) O‘zbekistonda Senatni shakllantirishda davlat hokimiyati organlariga Senat a’zoligiga nomzodlar ko‘rsatish vakolatlari berilishi – hududiy manfaatlarning qonunlarda ifodalanishi uchun shart-sharoitlar yaratdi

B) O‘zbekistonda Senatni shakllantirishda viloyat, tuman va shahar hokimliklariga Senat a’zoligiga nomzodlar ko‘rsatish vakolatlari berilishi – hududiy manfaatlarning qonunlarda ifodalanishi uchun shart-sharoitlar yaratdi

C) O‘zbekistonda Senatni shakllantirishda Vazirlar Mahkamasiga nomzodlar ko‘rsatish vakolatlari berilishi – hududiy manfaatlarning qonunlarda ifodalanishi uchun shart-sharoitlar yaratdi

D) O‘zbekistonda Senatni shakllantirishda mahalliy vakillik organlariga Senat a’zoligiga nomzodlar ko‘rsatish vakolatlari berilishi – hududiy manfaatlarning qonunlarda ifodalanishi uchun shart-sharoitlar yaratdi

7. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari kimlar tomonidan saylanadi?

A) Mahalliy vakillik organlari deputatlari

B) Elektorat

C) O‘zini o‘zi boshqarish organlari oqsoqoli maslahatchilari

D) Tuman va shaharlar hokimliklari

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga oxirgi saylovlar qachon bo‘ldi va unda g‘olib chiqqan nomzod saylovchilarning qancha foiz ovozini olishga erishdi?

A) 30-mart 2015-y; 93,52%

B) 4-dekabr 2016-y; 88,61%

C) 26-dekabr 2014-y; 91,56%

D) 30-yanvar 2013-y; 98,58%

9. Quyidagi javoblarning qaysi biri O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 117-moddasidan olingan?

A) "O'zbekiston Respublikasining fuqarolari saylovda ishtirok etish huquqiga egadirlar. Saylovlarda qatnashgan fuqaro faqat o'zi tanlagan nomzod va o'zi uchun ovoz beradi"

B) "O'zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat hokimiyati vakillik organlariga saylashda faol ishtirok etishlari lozim. Aks holda, saylovda ishtirok etmagan fuqaroga jazo choralari ko'riladi"

C) "O'zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat hokimiyati vakillik organlariga saylanish huquqiga egadir. Saylanish uchun biron-bir partiya tomonidan o'z nomzodini qo'yilishi lozim. Saylovda ishtirok etgan fuqaro faqat o'zi uchun ovoz beradi"

D) "O'zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar. Har bir saylovchi bir ovozga ega. Ovoz berish huquqi, o'z xohish irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadi"

10. Saylovda Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlar kimlar yoki qanday tashkilotlar tomonidan ko'rsatiladi?

A) Tashabbuskor guruhlar

B) Siyosiy partiyalar

C) Davlat hokimiyati ijro organlari

D) Barcha javoblar to'g'ri

7-mavzu. O'ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATINI BARPO ETISHNING ILMIY-METODOLOGIK NAZARIY ASOSLARI

Reja:

1. Taraqqiyotning "O'zbek modeli" yaratilishining siyosiy-ijtimoiy asoslari va konseptual zaminlari.

2. Mamlakatni modernizatsiyalash – fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ustuvor sharti.

3. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi" mamlakatimizda fuqarolik jamiyati barpo etishning yangi bosqichi.

Tayanch so'zlar: Taraqqiyot modellari, taraqqiyotning "O'zbek modeli", demokratiya, fuqarolik jamiyati, fuqarolik jamiyati va taraqqiyotning "O'zbek modeli", besh tamoyil, islohotlarning konseptual asoslari, yangi jamiyatni barpo etish, jamiyatni yangilash va modernizatsiya qilish, "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyili, konstitutsiyaviy islohotlar, "Harakatlar strategiyasi"

1. Taraqqiyotning "O'zbek modeli" yaratilishining siyosiy-ijtimoiy asoslari va konseptual zaminlari

O'zbekiston 1991-yil 31-avgustda o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan keyin uning rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar va shart-sharoitlar paydo bo'ldi. Milliy mustaqillik xalqimizni mustabidlik zulmi, siyosiy mutelik va qaramlikdan ozod qildi. Davlat suverenitetining o'rnatilishi natijasida demokratik jamiyat, huquqiy davlat qurish, ivtisodiy rivojlanish va jahon integratsiyasiga kirish uchun mustahkam zamin – siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va huquqiy asoslar ham bosqichma-bosqich islohotlar natijasi o'laroq shakllana boshladi. O'zbekiston milliy istiqlol tufayli o'z tarixida butunlay yangi bo'lgan yangi jamiyat va milliy davlat qurishga kirishdi. O'zbekiston uchun o'tish davri boshlandi. Mana shu davrning eng muhim xususiyatlaridan biri – bu endilikda milliy manfaatlar va xalqimiz ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda rivojlanish strategiyasi belgilandi va u hayotda o'z ifodasini topa boshladi.

Ma'lumki, o'z davlat mustaqilligiga erishgan har qanday davlat va jamiyat oldida o'z taraqqiyotining istiqbollarini yaratishga qobil bo'lgan rivojlanish konsepsiyalarini yaratish vazifasi paydo bo'ladi. O'z milliy

rivojlanish manfaatlari va ehtiyojlarini o'zida mukammal tarzda ifoda eta olgan rivojlanish modeli kelajakda o'zining ijobiy natijalarini beradi, millatning salohiyatini ro'yobga chiqardi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, davlatimiz mustaqilligi uchun kurashga boshchilik qilgan birinchi Prezident I.A.Karimov tashabbusi bilan davlatimiz va jamiyatimizning strategik rivojlanish konsepsiyalari ishlab chiqildi. U rivojlangan demokratik davlatlar tajribasi va milliy-ma'naviy an'analar uyg'unligi asosida O'zbekiston Respublikasining o'z istiqlol va taraqqiyot yo'liga strategiyasining shakllanishiga boshchilik qildi.

Birinchi Prezident ta'kidlaganidek, "ichki va tashqi siyosatning yo'nalishlari, ularning mantig'i to'laligicha pirovard maqsad – chinakam mustaqil O'zbekistonni barpo etish maqsadi bilan belgilanadi. Respublikada sobitqadamlik bilan xalqchil adolatli jamiyatni bunyod etish – bosh vazifadir. Mehnatsevar va badavlat, ma'naviy yetuk va madaniyatli oila – shu jamiyatning asosini tashkil etadi".

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy ustuvor yo'nalishi – bu mamlakatda fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratildi. Fuqarolik jamiyati asoslarini yaratishda 2010-yil 12-noyabrda o'tkazilgan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida I.A.Karimov boshchiligida ishlab chiqilgan va taqdim etilgan "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" mamlakatda yangi jamiyat qurishning strategik dasturi bo'lib xizmat qildi. Shuni ta'kidlash joizki, mazkur konsepsiya yangi jamiyat qurishga doir qator huquqiy asoslar – qonunlarni qabul qilish g'oyasini ilgari surdi.

Yurtimiz siyosiy taraqqiyoti, uning konseptual ta'minoti mustahkam bo'lganligi tufayli izchil ravishda ro'y bermoqda. Xalqaro globallashuvning turli salbiy ta'sirlariga nisbatan jamiyatimizning barqaror immuniteti kafolatli ravishda ta'minlanib bormoqda.

Mustaqillik davrida davlat suverenitetiga erishish natijasida mamlakatimiz o'z milliy sotsiomadaniy merosiga tayangan holda zamonaviy rivojlanish yo'lini tanladi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, har qanday endigina mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlagan yosh davlat oldida o'z mustaqillik asoslarini yaratish uchun mamlakatning aniq va ravshan milliy xususiyatlari, islohotlar o'tkazish shart-sharoitlari, milliy manfaatlari va ehtiyojlari, asosiy strategik maqsadlarini o'zida ifoda etuvchi rivojlanish yo'lini ifoda etadigan milliy modelini yaratish vazifasi turadi. Mazkur model o'zining zamonaviyligi, rivojlanishga zamin yaratishi, milliy manfaatlarni ifoda etishi bilan taraqqiyotni

ta'minlashga xizmat qiladi. Har bir mamlakat o'z ichki va tashqi siyosatidagi yo'li, har qanday muammolarning yechimini topishga yo'nalganligi, o'z hududidagi muhitdan kelib chiqib o'z rivojlanish g'oyasini qabul qilishi jahon tarixida o'z isbotini topgan.

Birinchi Prezident I.A.Karimovning asarlari va ma'ruzalarida mustaqillik davridagi iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotning hayot kun tartibiga qo'ygan masalalarini o'ziga xos, davr talablaridan kelib chiqib, ularni har tomonlama hisobga olgan holda yechimlari topildi, mustaqil rivojlanishni ta'minlashning amaliy va nazariy asoslari ilgari surildi.

Birinchi Prezidentimiz ta'kidlab o'tganidek, "Mustaqillikka erishgan har bir mamlakat o'z taraqqiyot yo'lini izlaydi, yangi jamiyat barpo etishda o'z andozasini ishlab chiqishga intiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat, odamlar o'rtasida tarkib topgan munosabatlar, ularning dunyoqarashi, jumladan, diniy e'tiqodi, ruhiyati va xulq-atvor normalari shuni taqazo etadi. Dunyoda ijtimoiy taraqqiyot yo'lining turli variantlari mavjud. Turkiya, Janubiy Koreya, Shvetsiya modellari va boshqalar bunga misoldir. Bir qancha musulmon mamlakatlari va yangi industrial mamlakatlarning tajribasi ham shuni ko'rsatadi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng Yevropa mamlakatlari va Yaponiya xalq xo'jaligini qayta tiklash ham buning amaliy namunasidir.

O'zbekiston boshqa davlatlar taraqqiyoti jarayonida to'plangan va respublika sharoitiga tatbiq qilsa bo'ladigan barcha ijobiy va maqbul tajribalardan, shak-shubhasiz, samarali foydalanadi. Gap biror-bir modelni, hatto u ijobiy natijalar bergan taqdirda ham, ko'r-ko'rona ko'chirib olish to'g'risida borayotgani yo'q. Aniq-ravshan vositalar va usullar qaysi mamlakat uchun mo'ljallangan bo'lsa, o'sha mamlakatning o'ziga xos sharoitidagina ijobiy natija beradi. Jahon va o'zimizning amaliyotimizdan olingan barcha unumli tajribani rad etmagan holda, o'z ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy taraqqiyot yo'limizni tanlab olish respublikaning qat'iy pozitsiyasidir".

Ko'rinib turibdiki, siyosiy taraqqiyot hodisasining mohiyati, asoslari, shakllarini o'rganish, tadqiq qilish masalasiga insoniyat tarixida doimo muhim e'tibor berib kelingan. Hozirgi davrga kelib ham bu fenomen jamiyat hayotini yaxshilash, uning barqarorligi va xavfsizligini ta'minlash, odamlarning erkin va farovon kun kechirishga bo'lgan intilishlarini ro'yobga chiqarish omili va insoniyatning umrguzaronlik qilishi uchun yanada samaraliroq tizimlarni yaratishning yo'li sifatida o'z ahamiyatini yo'qotmay kelmoqda. Shu bois siyosiy taraqqiyotni ta'minlovchi omillar, asoslar, resurslarni ishga solish haqidagi nazariy

qarashlar tadrijiy rivojlanish xarakteriga egadir.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarda siyosiy taraqqiyotning turlari haqida fikr yuritilganda, dastavval, uni ikki yirik turga ajratib ko'rsatish taomilga kirgan. Bunda so'z taraqqiyotning tadrijiy (evolyutsiyaviy) va inqilobiy usullari haqida bormoqda. Siyosiy taraqqiyotning tadrijiy turi o'z ichiga siyosiy taraqqiyotning bir qancha shakllarini qamrab olishi va ijobiy mohiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Taraqqiyotning inqilobiy yo'li ko'pincha salbiy oqibatlarga olib kelishi, u tufayli jamiyatda kuchli siyosiy inqirozlar, regress holatlari ro'y berishini tarixda o'z isbotini topgan.

O'zbekiston Respublikasi davlati jahonning ilg'or tajribalarini inobatga olgan holda, ayni paytda, jamiyatimizning milliy an'analari va negizlariga tayanib siyosiy taraqqiyotning tadrijiy yo'lini tanladi va bu yo'lning mazmun-mohiyatini, siyosiy va iqtisodiy taraqqiyoti zaminini zamonaviy demokratik qadriyatlar tashkil etdi.

Tadrijiy islohotlar yo'liga doir g'oyalar asosida O'zbekistonda huquqiy- demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo qilishning o'ziga xos ilmiy va amaliy asoslari shakllantirildi. Mustaqillikning dastlabki davrida davlatimizning birinchi rahbari ta'kidlaganidek, "O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat. Bu – mustaqil, demokratik, huquqiy davlatdir. Bu – insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e'tiqodlaridan qat'i nazar fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlab beradigan davlatdir. Xalq davlat hokimiyatining manbaidir. Uning xohish-irodasi davlat siyosatini belgilab beradi. Bu siyosat inson va jamiyatning farovonligini, O'zbekiston barcha fuqarolarining munosib turmushini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi kerak".

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab davlatimiz shunday ulug'vor maqsadlarni ko'zlab siyosiy taraqqiyotni amalga oshirdi, davlatimiz istiqboldagi taraqqiyot yo'li sifatida izchil tadrijiy usullarni tanladi: "shok terapiyasi"dan voz kechdi. "Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmang" tamoyili jamiyatni yangilashning asosiy prinsiplaridan biriga aylandi.

Ma'lumki, qo'shni davlatlarda "shok terapiyasi"dan foydalanishga bo'lgan urinishlar nihoyatda og'ir ijtimoiy oqibatlarga olib kelganligi hech kimga sir emas. Birinchi Prezident I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan taraqqiyot strategiyasi jamiyatimizni yangilash va rivojlantirishning tub manfaatlarini o'zida chuqur aks ettirib, barqaror taraqqiyot jarayonlari izchilligini to'liq ta'minlanishiga asos bo'ldi.

Mamlakatimiz istiqboli strategiyasi jamiyatimiz taraqqiyotining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va ma'naviy sohalarini o'zida to'liq mujassam etgan hamda zamonaviy rivojlanishning barcha prinsiplarini e'tiborga olgan milliy taraqqiyot modelini yaratilishini obyektiv zarurat qilib qo'ydi. Shu bilan bir qatorda, yosh mustaqil mamlakatimiz oldida islohotlarning dastlabki bosqichidayoq belgilangan qator vazifalar taraqqiyotning o'ziga xos milliy modelini yaratishni yanada dolzarb masala sifatida hayot kun tartibiga qo'ygan edi. Mazkur vazifalar quyidagi muhim jihatlarni o'z ichiga qamrab oldi:

Ijtimoiy-siyosiy sohada ma'muriy-buyruqbozlik, avtoritar tuzum mexanizmi va tuzilmalaridan qutilish hamda davlat qurilishining demokratik, huquqiy tamoyil va me'yorlariga o'tish, fuqarolik jamiyatiga o'tishning poydevorini qurish.

Ijtimoiy-iqtisodiy sohada insonning ishlab chiqarish vositalaridan begonalashuvidan, rejali-taqsimotchilik tizimidan kechish va ko'p ukladli iqtisodiyotga hamda bozor munosabatlariga o'tish.

Ma'naviyat sohasida aqidabozlik va o'ta siyosatlashtirilgan mafkura hukmronligidan qutulish, milliy ma'naviyatni shakllantirish.

Xalqaro munosabatlar sohasida butun dunyo taraqqiyotidan ajralib qolishdan, o'zni chetga olishdan va unga qarshi turishdan voz kechish, jahon hamjamiyatiga kirib borish va teng huquqli hamkorlikka yo'l ochish.

O'zbekistonni rivojlantirish islohotlarining mazkur asosiy yo'nalishlari orqali respublikamizda amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning murakkabligi va ulkan miqyoslarini tasavvur qilish mumkin. O'zbekiston o'z taraqqiyot yo'lini o'z xalqining tarixiy tajribasi saboqlaridan kelib chiqib, shuningdek, xalqning mentaliteti va ongi-ruhiyatidan, mamlakatdagi aniq shart-sharoitlaridan kelib chiqib tanladi.

Bu modelning mohiyati Birinchi Prezident I.A.Karimov tomonidan ilgari surilgan islohotlarning besh tamoyilida ta'riflab berildi. Mamlakatimiz aholisi o'z davlat mustaqilligining yigirma yetti yilligini kutib olayotgan hozirgi davrda to'la ishonch bilan aytish mumkinki, bu yo'l chorak asrlik tajriba va sinovlardan o'tdi. Tarixan qisqa, ammo zafarli natijalarga boy bo'lgan taraqqiyotimiz biz tanlagan modelning to'g'riligini isbotladi.

Ma'lumki, taraqqiyotning "O'zbek modeli"ning mohiyati asosiy g'oyalari dastlab davlatmizning birinchi rahbarining "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" nomli asarida ochib berilgan edi.

Keyinchalik mazkur taraqqiyot modeli haqidagi g'oyalar Birinchi Prezidentimizning boshqa asarlarida yanada rivojlantirildi va takomillashtirildi. Xususan, uning "O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li", "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida" nomli asarlarida taraqqiyotning "O'zbek modeli"ning asosiy mazmunini va o'zagini belgilab beruvchi tamoyillar har tomonlama asoslab berildi. Xususan, "beshta asosiy qoida O'zbekiston davlat qurilishi va iqtisodiyotini isloh qilish dasturining o'zagidir. Ularning mohiyati quyidagicha:

birinchidan, iqtisodiy islohotlar hech qachon siyosat ortida qolmasligi kerak, u biror mafkuraga bo'ysundirilishi mumkin emas. Buning ma'nosi shuki, iqtisodiyot siyosatdan ustun turishi kerak. Ham ichki, ham tashqi iqtisodiy munosabatlarni mafkuradan holi qilish zarur;

ikkinchidan, davlat bosh islohotchi bo'lishi lozim. U islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berishi, o'zgartirishlar siyosatini ishlab chiqishi va uni izchillik bilan o'tkazishi, jaholatparastlar (retrogradlar) va konservatorlar qarshiligini bartaraf etishi shart;

uchinchidan, qonun, qonunlarga rioya etish ustuvor bo'lishi lozim. Buning ma'nosi shuki, demokratik yo'l bilan qabul qilingan yangi Konstitutsiya va qonunlarni hech istisnosiz hamma hurmat qilishi va ularga og'ishmay rioya etishi lozim;

to'rtinchidan, aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosatni o'tkazish. Bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtda aholini ijtimoiy himoyalash yuzasidan oldindan ta'sirchan choralar ko'rilishi lozim. Bu bozor iqtisodiyoti yo'lidagi eng dolzarb vazifa bo'lib keldi va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi;

beshinchidan, bozor iqtisodiyotiga o'tish obyektiv iqtisodiy qonunlarning talablarini hisobga olgan holda, o'tmishdagi "inqilobiy sakrashlar"siz, ya'ni evolyutsion yo'l bilan, puxta o'ylab, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak.

Bu qoidalar o'z istiqlol, rivojlanish va taraqqiyot yo'limizga asos qilib olingan bo'lib, o'tish davri dasturining negizini tashkil etadi. Hozir bu qoidalarning amalga oshirilishi respublikada ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni, eng muhimi, bozor munosabatlarini joriy etish yo'lidan izchil harakat qilishni ta'minlaydi".

Har tomondan asoslab berilgan mazkur tamoyillar timsolida, shuningdek, o'z konseptual zaminlariga binoan, O'zbekiston davlat qurilishi va iqtisodiy-ijtimoiy sohalarni, jumladan, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish borasidagi islohotlarni amalga oshirishning

mustahkam poydevori yaratilgan edi. Mazkur beshta tamoyillarning mohiyati haqida fikr yuritilganda quyidagilarni ta'kidlab o'tish joiz, deb hisoblaymiz:

Iqtisodiyotning mafkuraviy maqsadlarga bo'ysundurilmasligi va siyosatdan ustunligi tamoyili. Bunda iqtisodiyotni mafkuradan holi etish – demokratik va bozor o'zgarishlarining asosi qilib qo'yildi. Birinchi navbatda, iqtisodiy negizni barpo etish va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish yangi jamiyat qurishning eng muhim sharti ekanligi uqtirildi. Iqtisodiyot mafkuraviy tazyiqlarsiz, o'ziga xos ichki qonunlarga muvofiq ravishda rivojlanishi lozim.

Davlatning bosh islohotchiligi tamoyili. Davlat – iqtisodiy o'zgarishlarning tashabbuskori va bosh islohotchisidir. Ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan hozirgi bozor – davlat tomonidan tartibga solib turadigan bozordir. Davlat iqtisodiy faoliyatining huquqiy asoslarini, o'ziga xos "bozor shart-sharoitlari"ni vujudga keltiradi va tasdiqlaydi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida davlat iqtisodiy erkinliklarning kafolati bo'ladi. Ijtimoiy muammolarni hal qiladi. Davlat bozor institutlarini yaratish uchun qulay sharoit tug'diradi. Vujudga kelayotgan ishbilarmonlik tuzilmalari qaror topishi va rivojlanishiga ko'maklashish – davlatning burchidir.

Jamiyat hayotida qonun ustuvorligi tamoyili. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni huquqiy ta'minlash ham zarur. Ijtimoiy yo'naltirilgan madaniy-ma'rifiy bozor xo'jaligini tegishli ravishda huquqiy jihatdan ta'minlamasdan turib, bunday xo'jalikni shakllantirishni tasavvur qilib bo'lmaydi. Ijtimoiy yo'naltirilgan qonunchilik asosini yaratish – bu faqat o'tish davrining majburiy shartigina bo'lib qolmay, balki huquqiy davlatni barpo etishning o'ziga xos xususiyati hamdir. Qonunlar hayotiy, amaliyot bilan o'zaro bog'liq bo'lishi va undan kelib chiqmog'i kerak. Qonunning ustuvorligi – huquqiy davlatning asosiy prinsipidir, qonun oldida hamma baravardir.

Kuchli ijtimoiy siyosat – iqtisodiy o'zgarishlarning ishonchli kafolati. Kuchli ijtimoiy siyosat prinsiplari quyidagilardan iborat:

- aholini ish bilan ta'minlash va mehnat bozorini takomillashtirish, daromad siyosatini yurgizish, pul daromadlari;
- ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy kafolatlar, kam ta'minlanganlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash;
- aholiga ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish;
- xalqning moddiy turmush sharoitini yaxshilash;
- har kimning mehnatiga va har kimning qobiliyatiga yarasha

prinsipni ta'minlash;

Bozor iqtisodiyotiga o'tishning bosqichma-bosqich tadrijiy yo'li. Bu "shok terapiyasi" yo'lidan tubdan farq qilib, bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tishni taqozo etadi. Ya'ni iqtisodiyotda, siyosatda, ijtimoiy sohada, ma'naviyatda va boshqa sohalarda islohotlar birdaniga amalga oshirilmasdan bosqichma-bosqich o'tishni ko'zda tutadi.

Taraqqiyotning "O'zbek modeli" va uning asosiy tamoyillari mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat va pirovardida fuqarolik jamiyatini barpo etish hamda kuchli ijtimoiy himoya tamoyillariga asoslangan erkin bozor munosabatlarini barpo etishda dasturulamal bo'lib xizmat qildi. Ushbu model islohotlarning barqarorligi va xavfsizligini kafolatli ta'minlashning dasturulamali bo'lib kelmoqda. "O'zbek modeli" zaminida mamlakatimizda keng qamrovli siyosiy islohotlar amalga oshirildi. Bunda quyidagi muhim jihatlarga alohida e'tibor qaratildi:

birinchidan, siyosiy islohotlarni amalga oshirishda milliy davlatchilik asoslari bosqichma-bosqich ravishda barpo qilina boshlandi;

ikkinchidan, bu jarayonda jamiyatimiz demokratik taraqqiyoti manfaatlariga to'liq mos keluvchi siyosiy institutlarni shakllantirish, uning huquqiy asoslarini yaratish masalalariga asosiy e'tibor qaratildi;

uchinchidan, avvalgi totalitar tuzumga xizmat qilgan va umrini tugatib bo'lgan davlat tuzilmalaridan to'liq voz kechildi.

1997-yilda Birinchi Prezident ta'kidlalab o'tganidek, "... shu bois quyidagilar eng asosiy vazifamiz bo'lib qoldi:

Birinchidan. Eski ma'muriy-buyruqbozlik tizimini, unga muvofiq bo'lgan hokimiyat va boshqaruv organlarini tugatish.

Ikkinchidan. Yangi davlatchilikning siyosiy-huquqiy, konstitutsiyaviy asoslarini yaratish. Konstitutsiya va qonunlarda ijtimoiy munosabatlarning yangi tizimini, ham markazdagi, ham joylardagi davlat hokimiyati organlarining yangi tizimini mustahkamlab qo'yish.

Yangi o'zbek davlatchiligining qaror topish jarayoni ham tashqi, ham ichki murakkab sharoitlarda ro'y berdi. Ichki siyosatimizda biz bir-biriga bog'liq ikki vazifani hal qilishimiz lozim edi. Bu – yangi davlatchilikni barpo etish hamda keng ko'lamli siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish vazifasi edi".

Mamlakatimiz taraqqiyotining "O'zbek modeli"ning bosh g'oyasi xalqimiz uchun munosib bo'lgan erkin, farovon hayotni barpo qilishdan iboratdir. Bu borada zamonaviy demokratik prinsiplarni milliy manfaatlarimizdan kelib chiqib qaror toptirish vazifasi ustuvor qilib

belgilandi. Ta'kidlash joizki, jamiyatimizda demokratiya va fuqarolik jamiyati g'oyasining ijtimoiylashuvi va qaror topishida "o'zbek modeli"ning barcha konseptual g'oyalaridan izchillik bilan foydalanib kelindi. Shu bois ham ulkan samaralarga erishildi. Zero, jamiyatda demokratiyani joriy qilishning yagona retsepti mavjud emas, balki har bir mustaqil davlat demokratik taraqqiyot yo'liga o'tishda birinchi navbatda o'zining sotsiomadaniy asoslariga, milliy taraqqiyot modeliga tayanishi lozim bo'ladi. Faqat shundagina mamlakatning demokratik taraqqiyoti kutilgan ijobiy natijalarni berishi mumkin.

Birinchi Prezident boshchiligida ishlab chiqilgan rivojlanish konsepsiyalarida jamiyatimizda demokratik islohotlarni amalga oshirishning tadrijiy yo'liga asoslanildi. Unga ko'ra, demokratiya g'oyasi va uning fuqarolik jamiyati institutlari bosqichma-bosqich, ya'ni tadrijiy tarzda rivojlantirildi.

Taraqqiyotning "O'zbek modeli" g'oyasiga ko'ra yurtimizda yangi jamiyatni barpo etish uchun amalga oshiriladigan barcha islohotlar zaminiga inson omili qo'yildi. Ya'ni "islohot islohot uchun emas, balki, inson manfaatlari, uning erki va farovonligi uchun" degan g'oya barcha yangilanishlarning asosiy o'zagi etib belgilandi. Shu munosabat bilan qurilayotgan yangi mustaqil davlat va jamiyatning asosiy bunyodkori ham, iste'molchisi ham mana shu yurtning erkin xalqi degan adolat prinsipi mamlakatimiz taraqqiyot strategiyasining markazida turuvchi omildir.

Mazkur asos zaminida bilan taraqqiyotning "O'zbek modeli"ni amalga oshirishning yetakchi shartlaridan biri sifatida ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglash, milliy tiklanish va rivojlanish vazifalari belgilab olindi. Ta'kidlash joizki, jamiyat taraqqiyotiga nisbatan bunday yondashuv nihoyatda noyob va yangicha yondashuvdir. Zero, har qanday jamiyatning yangilik sari rivojlanishida, avvalambor, inson omili, undagi ijobiy o'zgarishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqimizning tarixi va ma'naviy sarchashmalariga murojaat qilish, boy tarixiy-ma'naviy merosdan yangi jamiyat, yangi hayotni barpo qilishda foydalanish g'oyasining yuksak samaradorligini mamlakatimiz taraqqiyoti natijalari yaqqol namoyon qildi. Davlatimizning birinchi rahbari taraqqiyotning "O'zbek modeli"ning ulkan ahamiyati to'g'risida to'xtalib, shuni alohida ta'kidlagan edi: "Biz islohotlarni inqilobiy usulda, ya'ni "shok terapiyasi" yo'li bilan amalga oshirishdan ongli ravishda voz kechib, tadrijiy taraqqiyot yo'lini tanlab olganimiz tufayli xalqimizni qanday og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan

iqtisodiy va ijtimoiy to‘fonlardan asrab qolishga muvaffaq bo‘lganimizni bugun hayotning o‘zi tasdiqlab bermoqda”.

Taraqqiyotning “O‘zbek modeli” mamlakatimizda yangi fuqarolik jamiyatini barpo etishning har tomonlama mukammal va samarali bo‘lgan usuli sifatida jamiyatimiz taraqqiyotining hozirgi davrdagi dolzarb vazifalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishida ham mustahkam zamin bo‘lib xizmat qildi.

Davlatimizning birinchi rahbari xulosa qilganidek: “O‘zbekistonning beshta ustuvor yo‘nalish – tamoyildan iborat bo‘lgan, dunyoda taraqqiyotning “O‘zbek modeli” deb tan olingan rivojlanish yo‘li har tomonlama to‘g‘ri yo‘l ekanini o‘tgan 24 yillik istiqlol tariximiz isbotladi. Biz katta yo‘lga chiqib oldik va uning amaliy natijalaridan barchamiz har kuni bahramand bo‘lmoqdamiz. Shuning uchun ishonchim komil: yurtimizda hech kim eski davrga qaytishni xohlamaydi... Biz erishgan yutuqlarimizni yanada mustahkamlash uchun ertangi kunimiz yorug‘ kelajagimiz o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ygan yuksak marralarga yetish yo‘lida chuqur o‘ylangan taraqqiyot strategiyamizning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirmog‘imiz zarur”.

Birinchi Prezident boshchiligida va uning tashabbuslari bilan yaratilgan, mamlakatimizda yangi jamiyatni barpo etishning “O‘zbek modeli” mustaqil davlatimizning barcha sohalarida izchil taraqqiy qilishining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va ma’naviy zamini bo‘lib xizmat qildi. Uning tamoyillari jamiyatimizning istiqboldagi rivoji uchun ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

2. Mamlakatni modernizatsiyalash – fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ustuvor sharti

O‘zbekistonning mustaqil taraqqiyot strategiyasining bosh g‘oyasi – bu xalqimiz uchun munosib bo‘lgan erkin, farovon hayotni barpo qilish va uni mutassil rivojlantirib borishdan iboratdir. Shu maqsadda 2016-yilning 4-dekabrida xalqimiz tomonidan mutlaq ko‘pchilik ovoz olish asosida Prezidentlikka saylangan Shavkat Miromonovich Mirziyoyev boshlagan yangi islohotlar yurtimizda fuqarolik jamiyatini yanada tez rivojlanishiga imkoniyatlar yaratdi. Zero, jahon tajribalari isbotlab turganidek, aynan fuqarolik jamiyati sharoitida inson hayotini tashkil etish, uning haq-huquqlarini ro‘yobga chiqarishning eng samarali va maqbul bo‘lgan imkoniyatlari vujudga keladi. Fuqarolik jamiyati jahondagi aksariyat ko‘pchilik xalqlarning orzu-umidiga aylanganligi bejiz emas.

Davlatimizning birinchi rahbari aytib o'tganidek, "biz uchun fuqarolik jamiyati – ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'z-o'zini kamol toptirishiga monelik qilmaydi, aksincha, yordam beradi. Shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to'la darajada ro'yobga chiqishida ko'maklashadi. Ayni vaqtda, boshqa odamlarning huquq va erkinliklari kamsitilishiga yo'l qo'yilmaydi. Ya'ni erkinlik va qonunga bo'ysunish bir vaqtning o'zida amal qiladi, bir-birini to'ldiradi va bir-birini taqozo etadi. Boshqacha aytganda, davlatning qonunlari inson va fuqaro huquqlarini kamsitmasligi lozim. Shuning barobarida barcha odamlar qonunlarga so'zsiz rioya qilishlari shart"[1].

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, taraqqiyotning "O'zbek modeli" doirasida mamlakatimizda zamonaviy huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirish uchun zarur bo'lgan barcha asoslar yaratildi. Mazkur model tarkibida mujassam bo'lgan barcha tamoyillar mamlakatimizda fuqarolik jamiyatining siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy, huquqiy asoslarini vujudga keltirish uchun kuchli imkoniyatlarga egadir.

Zero, mazkur tamoyillar va unga asoslanuvchi konseptual g'oyalarda fuqarolik jamiyatining mohiyati, vazifalari, shakllanish qonuniyatlari, xalqimiz dunyoqarashi va ehtiyojlaridan kelib chiqadigan barcha jihatlar o'z aksini topgan. Jumladan, "O'zbek modeli" fuqarolik jamiyatining huquqiy asoslari, institutsional zaminlari va eng muhimi, demokratik g'oyalarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan mustahkam asoslarni o'zida mujassamlashtirgan. Xususan, "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" konsepsiyasi ushbu tamoyilning asosiy o'zagini tashkil etadi.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonlarining strategik yo'nalishlari belgilanishida taraqqiyotning "O'zbek modeli" mohiyatidan kelib chiqadigan barcha tamoyillar hayotda ro'yobga chiqarilmoqda. Xususan, bu jarayonlarda davlatning bosh islohotchilik rolini alohida ko'rsatib o'tish lozim. Davlatimiz tomonidan, avvalambor, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini shakllantirishning g'oyaviy va huquqiy asoslari belgilab berildi.

Birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Bizning bosh strategik maqsadimiz qat'iy va o'zgarmas bo'lib, bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevorini shakllantirishdan iboratdir"[1]. Mamlakatimiz siyosiy taraqqiyot yo'lining o'zagi sifatida demokratik qadriyatlarning tanlab olinishi fuqarolik jamiyatini shakllantirish uchun zarur bo'lgan barcha fundamental asoslarni barpo qilish imkoniyatlarini ochib berdi. Zero,

demokratik qadriyatlar o‘z tabiatiga binoan fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishni taqozo etadi.

Shuni ta’kidlash joizki, demokratik prinsiplar va huquqiy davlat qurish nazariyasi hamda amaliyoti fuqarolik jamiyatining mazmun-mohiyati, shakllanish qonuniyatlariga uzviy bog‘liq bo‘lgan omillar hisoblanadi. “O‘zbek modeli” asosida huquqiy davlatning institutsional zaminlarini shakllantirish quyidagilardan iboratdir:

-davlat hokimiyatining uchga bo‘linishi prinsipiga asoslanish;

-demokratik konstitutsiyaning qabul qilinishi va qonun ustuvorligi tamoyilini ro‘yobga chiqaruvchi mexanizmlarning yaratilishi;

-erkin demokratik saylov tizimining kafolatlanishi;

-davlat va jamiyat boshqaruvini amalga oshirishda ko‘ppartiyaviylik tizimining yaratilishi;

-jamoat birlashmalari va nodavlat-notijorat tashkilotlari faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi;

-fuqarolar o‘z-o‘zini boshqarish institutlarining rivojlantirilishi;

-fuqarolar huquq va erkinliklarini, manfaatlari va ehtiyojlarini ta’minlashning samarali zaminlarining vujudga keltirilishi, ularning fuqarolik jamiyatini shakllantirish manfaatlaridan kelib chiqqan holda barpo etilishi.

Ana shu asoslar natijasida mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini shakllanishi uchun eng asosiy kuch va resurs-manba bo‘lib xizmat qiladigan zamonaviy huquqiy demokratik davlat asoslari rivojlantirildi.

Ma’lumki, huquqiy davlat demokratiya tamoyillari asosida shakllantiriladi. Ayni vaqtda, huquqiy davlatni shakllanishi fuqarolik jamiyati institutlari va uning mohiyatini tashkil qiluvchi barcha jihatlarini jamiyatda qaror topishi uchun yetakchi zamin bo‘lib xizmat qiladi. Jumladan, fuqarolik jamiyatini shakllanishi bosqichlarining demokratik prinsiplar asosida kechishida huquqiy davlatning unsurlari hal qiluvchi o‘rin tutadi. Demokratlashuv jarayonlari fuqarolik jamiyati mohiyatini tashkil qiluvchi shaxs erkinligi, tengligi, tinchligi, farovonligi, daxlsizligi kabi buyuk ne’matlarni ro‘yobga chiqarsa, huquqiy davlat fuqarolarning ana shu ne’matlardan kafolatli foydalanishining huquqiy zaminlarini yaratadi.

Zero, huquqiy davlat o‘z mohiyatiga ko‘ra huquqning hukmronligi, qonunning ustuvorligi, qonun oldida barchaning tengligini kafolatlaydi, inson huquq va erkinliklarining to‘liq tan olinishi va hurmat qilinishini ta’minlab beradi, fuqarolarning yuksak huquqiy madaniyati, shaxs bilan davlat o‘rtasidagi o‘zaro demokratik hamkorlik prinsiplariga tayanadi,

huquq va tartibotning barqarorligini kafolatlaydi. Shu o'rinda davlatimiz birinchi rahbarining quyidagi fikrlarini keltirish joizdir: "Hech kimga sir emas, faqatgina huquqiy davlat sharoitida demokratik tartibga erishiladi va shunday tartib saqlanadi, demokratik institutlar va qadriyatlar hayotga tatbiq etiladi, inson huquq va erkinliklari, eng asosiysi, ularning huquqiy va ijtimoiy himoyasi amalda ta'minlanadi".

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyati shakllanishiga asos bo'luvchi huquqiy davlat asoslarini yaratish jarayonida davlatimizning bosh qomusi – Konstitutsiyamiz ulkan ahamiyatga ega bo'layotganligini alohida ta'kidlab o'tish joiz. Konstitutsiyamiz konsepsiyasi va huquqiy normalarida huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirish uchun zarur bo'lgan barcha yuridik qoidalar mujassamlashgandir. Jumladan, Asosiy qonunimizning 15-moddasida ta'kidlanganidek: "O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar".

Mazkur konstitutsiyaviy normalar hozirgi davrda demokratiyaning asosiy mohiyati – xalq hokimiyatchiligining amalga oshirilishi va hokimiyatning uchta tarmoqlari o'rtasidagi demokratik muvozanatni mustahkamlanishi uchun manba bo'lib xizmat qilmoqda. Shu munosabat bilan mamlakatimiz Konstitutsiyasining konseptual jihatlari jamiyatimiz taraqqiyotini tadrijiy tarzda kechishini ta'minlab bermoqda. Bu esa, o'z navbatida, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonlari uchun huquqiy asoslar vazifasini o'tamoqda.

Birinchi Prezident I.A.Karimov ta'kidlab o'tganidek, "faqatgina biz tanlagan bosqichma-bosqich tadrijiy rivojlanish yo'li xalqimiz ko'zlagan ezgu niyatlarga erishishga, zamonaviy demokratik talabalarga javob beradigan davlat, inson manfaatlari, huquq va erkinliklari eng oliy qadriyat bo'lgan, qonun ustuvorligini ta'minlaydigan jamiyat barpo etishga olib kelishi muqarrar. Demokratik jarayonlarni sun'iy ravishda tezlashtirish, shoshma-shosharlik, turli inqilobiy to'ntarishlar yo'li qanday ayanchli oqibatlarga olib kelishi mumkinligini bugun hayotning o'zi isbotlab bermoqda".

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni amalga oshirishda dastavval fuqarolik jamiyatining ijtimoiy institutsional va huquqiy zaminlarini vujudga keltirishga alohida katta ahamiyat qaratildi. Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini shakllantirish uchun, dastavval vakillik demokratiyasining tayanchi va ustuni bo'lgan professional

parlament shakllantirildi, 1992-yil 8-dekabrda demokratik mohiyat kasb etgan O'zbekistonning yangi va birinchi Konstitutsiyasi qabul qilindi, aholi keng qatlamlari manfaatlarini aks ettirish ehtiyojlaridan kelib chiqib, ko'ppartiyaviylik tizimi shakllantirildi, demokratik taraqqiyot jarayonlarining iqtisodiy va ijtimoiy o'zagini tashkil etuvchi erkin bozor munosabatlarining huquqiy va institutsional asoslari vujudga keltirildi. Natijada jamiyatimizda demokratik islohotlarni amalga oshirish uchun siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy shart-sharoitlar bazasi yaratildi, demokratik islohotlarning rivojlanishi uchun istiqbolli imkoniyatlar vujudga keltirildi. Demokratiyaga o'tish davrining dastlabki bosqichida amalga oshirilgan siyosiy, tashkiliy chora-tadbirlar natijasida mamlakatimizda demokratik jarayonlarning barqarorligi ta'minlandi.

Davlatimiz birinchi rahbari mamlakatda o'tish davri – fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish bosqichlarini davrlashtirish masalasiga to'xtalib, quyidagi fikrni bildirgan edi: "O'tish davri va milliy davlatchilik asoslarini shakllantirish bilan bog'liq birinchi galdagi islohot va o'zgarishlarni o'z ichiga olgan dastlabki bosqich – 1991-2000-yillar mamlakatimiz va xalqimiz hayotida ulkan iz qoldirgan o'tish davri tom ma'noda tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan davr bo'ldi. 2001-yildan 2010-yilgacha bo'lgan muddatni o'z ichiga olgan ikkinchi bosqich – mamlakatimizni faol demokratik yangilanish, isloh etish va modernizatsiya qilish davri g'oyat muhim ahamiyat kasb etdi. O'zbekiston iqtisodiyotini isloh etish, liberallashtirish va modernizatsiya qilish, uning tarkibiy tuzilishini diversifikatsiya qilish bo'yicha har tomonlama chuqur o'ylangan, uzoq istiqbolga mo'ljallangan siyosatning amalga oshirilishi va shu yo'llarning barchasini o'zaro bog'laydigan hal qiluvchi asos, o'zak-bo'g'in bo'lib xizmat qildi".

Mamlakatimizda hozirgi davrda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonlari o'zining sifat jihatdan yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Chunki "bugungi kunda biz yurtimizda huquqiy demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati qurishga qaratilgan olis va og'ir yo'lning faqat bir qisminigina bosib o'tdik, xolos. Uning hal qiluvchi qismi hali oldinda. Ya'ni bu yo'lda o'z yechimini kutib turgan vazifalarimiz kamaygani yo'q, aksincha, zamon talabi bilan ularning ko'lami va miqyosi tobora kengayib bormoqda. Albatta, barchamiz bu haqiqatni yaxshi tushunamiz va bu yo'lda yana qanchadan-qancha kutilmagan qiyinchiliklar, turli sinovlar bo'lishi mumkinligini ham o'zimizga tasavvur qilamiz.

Bu borada hayotning ana shunday talab va mezonlarini hisobga

olgan holda ishlab chiqilgan va o'tgan davr mobaynida izchil joriy etib kelinayotgan, amalda o'zini oqlagan "O'zbek modeli" deb nom olgan taraqqiyot yo'limiz va "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" o'rta va uzoq istiqbolda biz uchun kelajak strategiyasi bo'lib xizmat qilmoqda, aniq yo'lni ko'rsatmoqda".

Mamlakatimizda yangi jamiyatni barpo qilishning "O'zbek modeli" o'zining tub mohiyatiga ko'ra yurtimizda kuchli fuqarolik jamiyatining shakllanishi uchun zarur bo'lgan barcha konseptual asoslarga ega bo'lgan siyosiy-huquqiy manba bo'lganligi tufayli uning zaminida amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning yuksak samaralarga erishuvi har tomonlama kafolatlandi.

Mamlakatda taraqqiyotning "O'zbek modeli" asosida fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonlari jamiyatning barcha jabhalarida izchillik bilan bosqichma-bosqich ravishda amalga oshirilmoqda. Jumladan, istiqlol yillarida yurtimizda fuqarolik jamiyatini shakllantirishning siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ma'naviy asoslari o'zaro bir-birlariga mutanosib ravishda rivojlantirildi. Hozirgi davrda bu jarayonlar yangi sifat bosqichi darajasiga ko'tarildi.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini shakllantirish vazifalarini amalga oshirish jarayonida milliy taraqqiyot modeli, xususan, davlatning bosh islohotchilik roli asosida fuqarolik jamiyatiga xos bo'lgan barcha xususiyatlar shakllanib bormoqda. Jumladan, fuqarolik jamiyatining konstitutsiyaviy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va boshqa asoslarini rivojlantirish natijasida uning atributlari shakllanib bormoqda.

Konstitutsiyada huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yilgan huquqiy normalar fuqarolik jamiyatining nafaqat poydevorini qaror topishi uchun, balki, uning amaliy hayotda rivojlanish shart-sharoitlarini yaratib berdi. Konstitustiyamiz o'z mohiyatiga ko'ra, fuqarolik jamiyati qurishga doir barcha qonunlarning mohiyati va yo'nalishlarini belgilab beruvchi Asosiy qonun sifatida e'tirof etildi, bu sohada yaratilgan qonunchilikni samarali tarzda hayotga qo'llash muhim ahamiyat kasb etdi. Konstitutsiyamizga asoslanib qabul qilingan qonunlar yurtimizda fuqarolik jamiyati asoslarini yaratishning kafolati sifatida namoyon bo'ldi. Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlash joizki, Asosiy qonunda belgilangan huquqiy poydevor asosida fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari tizimi va faoliyatining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari shakllandi.

1993-yil 2-sentabrda qabul qilingan "Fuqarolarning o'zini o'zi

boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonun mamlakatimiz ijtimoiy hayotida muhim ahamiyat kasb etdi. U fuqarolik jamiyatining ijtimoiy asoslaridan biri – o‘zini o‘zi boshqarish tizimini rivojlanishi uchun huquqiy kengliklar yaratib berdi. Mazkur qonun 2013-yilda kiritilgan o‘zgartish va qo‘shimchalar natijasida yanada takomillashtirildi. Uning normalarida fuqarolik jamiyatining muhim asoslaridan biri – fuqarolar o‘z-o‘zini boshqarish organlari faoliyatini yangi sifat bosqichiga ko‘tarish uchun zarur bo‘lgan huquqiy asoslar mujassamlashdi.

Shu bilan birga, 2004-yilda qabul qilingan “Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to‘g‘risida”gi Qonunga ham 2013-yilda yangi o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilishi natijasida fuqarolik jamiyatining tayanchi bo‘lgan mahalla fuqarolar yig‘inlarining rahbar organlarini shakllantirishning demokratik tashkiliy-huquqiy asoslari shakllandi. Shuningdek, taraqqiyotning “o‘zbek modeli” tamoyillaridan kelib chiqib fuqarolik jamiyatining eng asosiy instituti nodavlat notijorat va jamoat tashkilotlari faoliyatining huquqiy asoslar asosida yanada takomillashtirildi. Jumladan, 1999-yilda O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘G‘risida”gi, 2003-yilda “Jamoat fondlari to‘G‘risida”gi, 2007-yilda “Homiylik to‘g‘risida”gi, “Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunlarning qabul qilinishi mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlarini demokratik prinsiplar asosida yanada rivojlanishini ta’minlab berdi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati Kengashlarining 2008-yilda qabul qilingan “Nodavlat notijorat tashkilotlarini, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qo‘shma qarori mamlakatda fuqarolik jamiyatining institutsional jihatlarini yanada mustahkamladi.

2000-yil 22-yanvar kuni ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning birinchi sessiyasida Birinchi Prezident I.A.Karimov o‘z ma’ruzasida quyidagi dasturiy maqsadlarni ilgari surdi: “Bizning bosh strategik maqsadimiz qat’iy va o‘zgarmas bo‘lib, bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevorini shakllantirishdan iborat. Bu, lo‘nda qilib aytganda, rivojlangan davlatlarning tajriba va taraqqiyot modellaridan ko‘r-ko‘rona nusxa ko‘chirmagan holda, ularga xos yuksak hayot darajasi va sifatiga erishish” demakdir”.

Ana shu ma’ruzada fuqarolik jamiyati shakllanishi uchun

mustahkam asoslarni yaratish omillari – ustuvor strategik vazifalar qo'yildi:

- birinchidan, siyosiy sohani erkinlashtirish;
- ikkinchidan, davlat qurilishi va boshqaruvi sohasini erkinlashtirish;
- uchinchidan, iqtisodiyot sohasini erkinlashtirish;
- to'rtinchidan, ma'naviyat sohasini erkinlashtirish;
- beshinchidan, sud-huquq sohasini erkinlashtirish;
- oltinchidan, tashqi siyosat faoliyat sohasi asoslarini mustahkamlash;
- yettinchidan, xavfsizlikni ta'minlash chora-tadbirlarini takomillashtirish.

Birinchi va ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning sessiyalari (1995–2004-yillar), shuningdek, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisi sessiyasi qarorlari bilan (2005-yil 28-yanvar) huquqiy jihatdan maqom bilan ta'minlangan "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" konseptual siyosiy dastur mamlakatda fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

2010-yilning 12-noyabrida bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida davlatimizning birinchi rahbari I.A.Karimov tashabbusi bilan "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" qabul qilindi. Unda mamlakatimiz siyosiy, ijtimoiy rivojining tom ma'nodagi yangi sifat bosqichi va bu sohadagi strategik taraqqiyot yo'nalishlari asoslab berildi.

Mazkur Konsepsiya yurtimizda fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirishning hozirgi davrdagi dasturulamali sifatida namoyon bo'ldi. Unda 50 dan ziyod qonun va huquqiy-me'yoriy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish mo'ljallangan bo'lib, shundan 30 dan ortiq qonunlar, o'nlab me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Ular hozirgi davrda ijtimoiy-siyosiy hayotga tatbiq etilmoqda.

Bu Konsepsiya asosida mamlakatimizda parlament islohotlarini yanada chuqurlashtirish jarayonlari avj olganligi natijasida fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning yangi tadrijiy bosqichi boshlandi. Jumladan, mamlakat parlamentini isloh qilish natijasida zamonaviy vakillik demokratiyasini rivojlantirish imkoniyatlari yaratildi, uni xalqchilligini ta'minlashga doir Konstitutsiyaviy asoslar belgilandi. Natijada fuqarolik jamiyatining asosiy obyekti va muhim o'zagi - fuqarolarning haq-huquqlari va erkinliklarini ta'minlashning demokratik

huquqiy asoslari shakllantirildi.

Ayniqsa, Konstitutsiyaning 98-moddasiga kiritilgan muhim demokratik prinsiplarga oid o'zgartish va qo'shimchalar kiritilishi o'z natijasini bera boshladi. Asosiy qonunimizning bu moddasiga binoan ikkita muhim siyosiy-huquqiy institut joriy etildi: "O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylovda eng ko'p deputatlik o'rinlarini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi eng ko'p deputatlik o'rinlarini qo'lga kiritgan bir necha **siyosiy partiya** tomonidan taklif etiladi... O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi o'rtasida ziddiyatlar doimiy tus olgan holda Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida uchdan bir qismi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga rasman kiritilgan taklif bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo'shma majlisi muhokamasiga Bosh vazirga nisbatan **ishonchsizlik votumi** bildirish haqidagi masala kiritiladi".

Konstitutsiyaga kiritilgan bu yangi huquqiy normalar mohiyatiga ko'ra fuqarolik jamiyatini rivojlantirish instituti hisoblanadi. Chunki siyosiy partiya fuqarolik jamiyati instituti hisoblanadi, deputatlar esa xalq vakillari bo'lgani uchun ham o'zida asosan jamiyat manfaatlarini ifodalaydi. Shuning uchun ham mamlakat siyosiy hayotida siyosiy partiyalarning roli birmuncha o'sdi, deputatlar esa ijroiya hokimiyatni shakllantirish vakolatlariga ega bo'ldi.

Iqtisodiy islohotlar strategiyasini amalga oshirishda mamlakatimizni isloh etishning ustuvor prinsiplaridan biri – iqtisodiyotni mafkuradan holi etish uning siyosatdan ustunligini ta'minlash, shu bilan birgalikda, o'tkazilayotgan islohotlarni bosqichma-bosqich hamda kuchli ijtimoiy himoyalashni amalga oshirish kabi "O'zbek modeli"ning prinsiplarini hayotga joriy etish, o'zini natijalarini bera boshladi. Shu bilan bir qatorda, birinchi Prezident boshchiligi va tashabbusi bilan iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish – uni yanada liberallashtirish, uning demokratik-huquqiy asoslarini bosqichma-bosqich yaratib borishga doir islohotlarga muhim ahamiyat berildi.

Mamlakatda bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni yanada liberallashtirish va iqtisodiy institutlarni modernizatsiyalash jarayonlari jamiyatimizning farovonligini ta'minlashga qaratildi. "Mamlakatda islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi"ning oltinchi yo'nalishi mamlakatimizda demokratik bozor

islohotlarni va iqtisodiyotni yanada chuqurlashtirishga qaratildi. Mazkur strategik dasturdan kelib chiqqan holda mamlakat iqtisodiyotini, ayniqsa, xususiy tadbirkorlikni va kichik biznesni yanada rivojlantirishga doir huquqiy asoslarni rivojlantirish vazifalari qo'yildi. Birinchi Prezident ta'kidlaganidek, "birinchi navbatda, xususiy mulkning huquq va himoyasini mustahkamlashimiz, har qaysi xususiy mulkdor qonuniy yo'l bilan qo'lga kiritgan yoki yaratgan o'z mulkining daxlsizligiga aslo shubha qilmasligini ta'minlaydigan ishonchlilik kafolatlar tizimini yaratishimiz zarur".

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan izchil iqtisodiy islohotlar natijasida iqtisodiyotni zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash, ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan muttasil yangilab borish, tarkibiy o'zgarishlarni sifatli darajada amalga oshirish natijalariga olib keldi. Natijada, "aynan tub tarkibiy o'zgarishlar, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi va zamonaviy korxonalarni barpo etish, faoliyat ko'rsatayotgan ishlab chiqarish quvvatlarini keng miqyosda yangilash va modernizatsiya qilish borasida puxta o'ylangan strategiya tufayli mamlakatimizning yalpi ichki mahsulotida sanoatning ulushi 1991-yildagi 14 foizdan bugungi kunda (2015-yil boshiga kelib) qariyib 25 foizga o'sdi. Ayni paytda qishloq xo'jaligi sohasidagi ishlab chiqarishning ulushi 34 foizdan 17 foizga kamaydi. Lekin bu qishloq xo'jaligi mahsulotlari kamaydi, degani emas. Mamlakatimizda yalpi ichki mahsulotning umumiy hajmi oshib bormoqda. Yuqorida ta'kidlanganidek, yurtimizda yalpi ichki mahsulot hajmi 1991-yilga nisbatan 5 karra o'sdi".

2015-yil 16-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlariga va 2015-yilgi iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor vazifalariga baG'ishlangan majlisida davlatimiz birinchi rahbari quyidagi o'sish sur'atlarini e'lon qildi: "O'tgan yil yakunlarini sarhisob qilar ekanmiz, birinchi navbatda, iqtisodiyotimiz va uning yetakchi tarmoqlarini rivojlantirish borasida barqaror yuqori o'sish sur'atlariga erishganimizni ta'kidlash joiz. Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8,1 foiz, sanoat ishlab chiqarish hajmi 8,3 foizga, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi 6,9 foiz, kapital qurilish 10,9 foiz, chakana savdo aylanmasi hajmi 14,3 foizga oshdi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning qariyib 70 foizini yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tayyor tovarlar tashkil etdi. Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 2014-yilda 9,4 foiz, shu jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 8,7 foiz, nooziq-ovqat

mahsulotlari ishlab chiqarish 10 foizga o'sdi. Inflyatsiya darajasi yil yakunlari bo'yicha 6,1 foizni tashkil etdi.".

O'zbekiston Respublikasi tanlab olgan taraqqiyot yo'lining ulkan samaralari xalqaro hamjamiyat tomonidan ham e'tirof etilmoqda. Bunga ko'plab misollar keltirish mumkin. Jumladan, jahondagi nufuzli tadqiqot institutlaridan biri – Gallup World instituti aholining baxtiyorlik, hushkayfiyatli ekanligiga oid indeksi (Positive Experience Index) bo'yicha o'tkazgan tadqiqotlarga ko'ra O'zbekiston jahonning 138 ta mamlakati orasida 29-o'rinni egallagan. Respublikamiz MDH mamlakatlari orasida ushbu indeks bo'yicha birinchi o'rinda turibdi. Qiyoslash uchun quyidagilarni keltiramiz: bu indeks bo'yicha Fransiya 34-o'rinda, Finlyandiya 36-o'rinda, Italiya 45-o'rinda turibdi[2].

O'zbekistonning XXI asrdagi rivojlanishga qaratilgan taraqqiyot strategiyasi "O'zbek modeli" g'oyalari mamlakatimizda mustaqil zamonaviy demokratik fuqarolik jamiyati barpo qilishining strategik konsepsiyasi sifatida yurtimiz ravnaqi, iqtisodiy salohiyatini o'sishini ta'minladi, davlatimizning jahon iqtisodiy integratsiyasidan o'ziga munosib o'rinni egallashiga zamin yaratdi.

3. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" – fuqarolik jamiyatini qurish dasturulamali

O'zbekiston XXI asrning ikkinchi o'n yilligi oxiri – 2017-yildan boshlab tub o'zgarishlar va islohotlarning yangi modernizatsiyalashish davriga kirdi. Prezident Sh.M.Mirziyoyevning tashabbusi bilan ishlab chiqilgan, Prezident farmoni bilan 2017-yil 7-fevralda tasdiqlangan "2017–2021-yillardagi rivojlanish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" mamlakatda yangi, rivojlangan davlatlarga xos bo'lgan rivojlanish davri – tub burilish davrini boshlab berdi. Jamiyatning barcha sohalarini modernizatsiyalashga qaratilgan mazkur dasturulamal 5 ta yo'nalishdan iborat bo'lib, ularda respublikamizda, alohida olingan hududlar, turli tarmoqlar hamda yo'nalishlar bo'yicha yaqin besh yil ichida modernizatsiyalash maqsadlari mujassamlashgan. Unda qisqa muddat ichida rivojlangan davlatlarga xos bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy madaniy, ilmiy-texnikaviy, texnologik, investitsiyaviy, umuman olganda, jamiyatning barcha jabhalarini modernizatsiyalash maqsadlari va "yo'l xaritasi" ifodalangan. "Harakatlar strategiyasi"da ko'zda tutilgan strategik maqsad va vazifalarni amalga oshirishning puxta, real, imkoniyatlarini yaratish, rejalarni amaliy hayotda amalga oshirish

mexanizmlarini ishlab chiqishga ham muhim e'tibor qaratilmoqda. Bu sohada muhtaram Prezident Sh.M.Mirziyoyevning qisqa davr ichida olamshumul ahamiyatga molik islohotlarni amalga oshirganligi diqqatga sazovordir.

Birinchidan, Prezident Sh.M.Mirziyoyev o'z farmon va qarorlarida Harakatlar strategiyasida mo'ljallangan maqsadlarni amalga oshirishning aniq vaqt mexanizmlarini ishlab chiqdi. Ayniqsa, 2018-yilga "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili" deb nom berilishi munosabati bilan qabul qilingan davlat dasturida Harakatlar strategiyasini amalga oshirishning asosiy shart-sharoitlari belgilab berildi.

Prezident Sh.M.Mirziyoyev o'zining Oliy Majlisga Murojaatnomasida fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va bu sohadagi muammolar to'g'risida quyidagi masalalarni hal etishni ilgari surdi: "Erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida amalga oshirayotgan islohotlarimizda nodavlat notijorat tashkilotlarining o'rni va roli beqiyos ekanini alohida ta'kidlash joiz. Hozirgi kunda yurtimizda 9 mingdan ortiq nodavlat notijorat tashkiloti mavjud, 29 ta xalqaro va xorijiy nohukumat tashkilotlarining filial va vakolatxonalari faoliyat yuritmoqda... Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish, ularni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan alohida farmon va qarorlar qabul qilindi. Ammo ana shunday muhim sa'y-harakatlarga qaramasdan, aholining muammolarini tizimli o'rganish, ularni aniq hal etish, ayniqsa, ijtimoiy sharoiti og'ir ayollarni qo'llab-quvvatlash, yoshlar va xotin-qizlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish, ularni ish bilan ta'minlash masalalarida bu tashkilotlarning ishtiroki yetarli darajada sezilmayapti. Ular faqat nomiga yig'ilishlar o'tkazish bilan mashg'ul bo'lib qolmoqda. Nodavlat notijorat tashkilotlari bugun aytilgan tanqidiy gaplardan xulosa chiqarib, o'z faoliyatida burilish yasaydi, deb ishonamiz".

Hozirgi O'zbekistonda boshlangan modernizatsiya jarayonlarining milliy jihatlari nuqtayi nazaridan umumjahon tajribasiga murojaat qilishga zarurat seziladi. Masalan, Malayziya davlatida amalga oshirilgan modernizatsiyaning birinchi bosqichi – bu Malayziya taraqqiyot modelining nazariy jihatdan shakllantirish bilan bog'liqdir. Unda Malayziya davlati amalga oshiradigan modernizatsiyani nazariy va amaliy dasturiy maqsadlarini shakllantirishda hukumat tomonidan qabul qilingan rivojlanish dasturlarining o'rni beqiyos bo'ldi. Ayniqsa, to'rtta besh yillik rejalarni o'ziga qamrab olgan "Yangi iqtisodiy siyosat"

dasturi muhim ahamiyat kasb etdi. Bundan tashqari Xitoydagi modernizatsiyaning asoschisi Den Syaopinning 3 bosqichli rivojlanish strategiyasiga muvofiq 2050-yil oxiriga qadar Xitoy o'rtacha rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo'shilishi ko'zda tutilgan. Ammo O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan Harakatlar strategiyasi umumjahon amaliyotida sinab ko'rilgan bu kabi taraqqiyot dasturlarida nazarda tutilgan maqsadlari, amalga oshirish muddati kabi jihatlari, qo'llash mexanizmlari bilan ulardan farq qiladi: birinchidan, ko'zda tutilgan maqsadlarni amalga oshirish bilan bog'liq vaqt omilining aniq va ravshan tarzda qo'yilishi, ikkinchidan, bu maqsadlarni ro'yobga chiqarish imkoniyatlari huquqiy va iqtisodiy asoslarining oldindan yaratilishi, modernizatsiya jarayonini moliyalashtirish manbalarining belgilanishi, mamlakatdagi milliy shart-sharoitlarni e'tiborga olinishi va hokazo. Shuningdek, "Harakatlar strategiyasi" asosida amalga oshiriladigan modernizatsiya muddatining nisbatan qisqa – besh yil ichida amalga oshirish loyihasini barcha darajadagi ekpertizalardan o'tganligi, undagi ko'rsatkichlarni mamlakat salohiyatiga monandligi kabi jihatlari bilan xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilmoqda.

Mamlakatni modernizatsiyalashga oid davlat dasturlarida ko'zda tutilgan maqsadlarni amalga oshirishda mamlakatning ichki imkoniyatlari, shu bilan birga, xalqaro maydonda ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlar ham hisobga olindi. Hozirgi davrda xalqaro munosabatlarning barqaror, tez o'zgaruvchan, yaxshi muvozanatlashmagan xususiyatlar kasb etib borayotganligi hisobga olingan holda "Harakatlar strategiyasi" qisqa muddatli taraqqiyot dasturi sifatida qabul qilinishi uning istiqbolli va samarali strategik maqsad ekanligini ifodalaydi.

Shuningdek, Harakatlar strategiyasida ko'zda tutilgan beshta yo'nalish respublikamizning barcha hududlari, jamiyatning barcha jabhalari va sohalarida amalga oshiriladigan o'zgarishlarni nazarda tutganligi bilan ajralib turadi. Lekin xalqaro tajribalarda bu kabi modernizatsiyalash nazariyasi va amaliyoti modellari uchramaydi. Yevropa davlatlari va AQSHdagi modernizatsiyalash jarayonlari bir necha o'n yilliklarda amalga oshirilgan. Masalan, hozirgi davrda Xitoyning aksariyat shaharlari birlamchi modernizatsiyalashning bosqichini o'z boshidan kechirayotgan bo'lsa, yana boshqalari uning ikkinchi bosqichini amalga oshirmoqda. Xitoy modernizatsiya modelida ulkan sonli aholining milliy manfaatlari inobatga olingan bo'lib, u hozir o'zining murakkab va majmuaviy xususiyatlari bilan boshqa rivojlangan

mamlakatlardan ajralib turadi. Boshqacha aytganda, Xitoydagi modernizatsiya 1978-yilda boshlangan bo'lib, u jamiyat sohalarining yoki mintaqalarning barchasini o'ziga qamrab olmagan, balki, islohotlarni birin-ketinlik qoidasi asosida amalga oshirmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev esa aholining davlatdan roziligi va unga ishonchi masalasiga alohida urg'u bermoqdalar.

Umuman, yana boshqa turli davlatlarga qiyoslagan holda aytish mumkinki, "Harakatlar strategiyasi"ni amalga oshirishda majmuaviylikka ustuvorlik berilgan. Unda respublikamizning barcha hududlari, jamiyat ijtimoiy hayotining deyarli barcha sohalari va tarmoqlari qamrab olingan. Albatta, bu holat bizning rivojlanish yo'limizni o'ziga xosligi, xalqchilligi, betakrorligi, insonga va uning farovonligiga qaratilganligi, amalda qo'lga kiritilgan innovatsiyaviy va investitsiyaviy salohiyatlarga tayanishi kabi xususiyatlari bilan e'tirof etilmoqda.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli o'zgarishlar va islohotlar, aniqrog'i – modernizatsiyaning yangi bosqichi aholi dunyoqarashini ham tubdan yangilashga qaratilgan. Qisqa vaqt ichida aholining huquqiy ongi va madaniyatini oshirish maqsadida axborot texnologiyalari va nodavlat notijorat tashkilotlar, o'zini o'zi boshqarish organlarini faollashtirishga, ularni bevosita modernizatsiyalash jarayonlarida ishtirok etishini rag'batlantiradigan qonunlar, farmonlar va hukumat qarorlari qabul qilindi.

"Harakatlar strategiyasi" loyihasining bir necha oy aholi va keng jamoatchilik tomonidan muhokama qilinishi, uni shakllantirishda olimlar, tadbirkorlar, fermerlar, aholi vakillarining taklif va tavsiyalarini inobatga olinishi, ularni mehnat jamoalarida keng muhokama qilinishi xalqimizning huquqiy va siyosiy ongini oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Bu chora-tadbirlar o'z o'rnida loyihaning aholining real manfaatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda takomillashtirishga imkon yaratdi. Boshqacha aytganda, respublikamizda amalga oshirilayotgan modernizatsiya jarayoni nafaqat xorijiy tajribalar, balki milliy an'analar, o'z yechimini kutayotgan muammolar, isloh qilinishi zaruratga aylangan sohalar ehtiyojlar asosida shakllangan "Harakatlar strategiyasi"da o'z ifodasini topdi. "Harakatlar strategiyasi" loyihasi televideniya, radio va Internet tarmoqlarida "xalq ekspertizasi"dan va xalq muhokamasidan o'tdi. Internet tarmog'idagi "www.strategy.regulation.gov.uz/uz/document/2" sayti, boshqa ijtimoiy tarmoqlari va Prezidentning virtual qabulxonasining "www.pm.gov.uz"

sayti mamlakatda jamoatchilik fikrini o'rganishning muhim vositasi vazifasini bajardi.

Hozirgi davrda "Harakatlar strategiyasi"ni amalga oshirish unda ko'zda tutilgan vazifalarni bajarish maqsadida qabul qilinayotgan qonunlar, Prezident farmonlari, qarorlari, hukumat qarorlari, ularni amalga oshirish natijalari jamiyatning barcha sohalarini rivojlanishiga ijobiy ta'sir qilmoqda. Bu holat "Harakatlar strategiya"dagi vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirilayotganligini anglatadi. Bu jarayonda Prezidentning virtual qabulxonasi va Xalq qabulxonalari islohotlar uchun zarur bo'lgan muhim ishlarni amalga oshirmoqda. Zero, ularga kelib tushayotgan murojaat, ariza va takliflarni o'rganish asosida muammolarni hal etish, rivojlanishga shart-sharoitlar yaratish ishlari bajarilmoqda.

Ko'rinib turibdiki, mamlakatda amalga oshirilayotgan modernizatsiya jarayoni ustidan ham axborot texnologiyalari, ham xalqimizning murojaatlari vositasida monitoring nazorati amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, xalqimiz va davlat organlari tomonidan islohotlar jarayonining barcha tafsilotlari va tarmoqlarini chuqur nazorat qilish o'z-o'zidan fuqarolarning huquqiy va siyosiy madaniyatini oshirish omili sifatida namoyon bo'lmoqda.

"Harakatlar strategiyasi"da mo'ljallangan maqsad va vazifalarni amalga oshirish jarayonlarini monitoring qilish, har bir yilda muhim bir sohani rivojlantirishning davlat dasturining qabul qilinishi va amalga oshirilishi tabiiy ravishda bu jarayonni muvofiqlashtirishni va tahlil etib borishni taqozo etadi. Bu maqsad tahliliy markazlarni tashkil etish zaruratini qo'yadi. Xalqaro tajribaga e'tibor qaratsak, bu sohadagi yangi o'zgarishlar manzaralarini ko'ramiz. Jumladan, Xitoy Fanlar akademiyasi qoshida "Modernizatsiya tadqiqotlari markazi" faoliyat olib boradi. Mazkur tadqiqoq markazi modernizatsiya jarayonlari monitoring nazorati tahlilini amalga oshirish, ularni e'lon qilish va modernizatsiyaning istiqbollarini belgilovchi strategik dasturlar ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. Bu kabi markazlar barcha rivojlangan mamlakatlarda mavjud. O'zbekistonda 2017-yil 23-fevralda "Taraqqiyot strategiyasi" markazi tashkil qilindi. Uning asosiy vazifalari etib, quyidagilar belgilab qo'yildi:

-o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalar doirasida vazirliklar, idoralar, banklar va boshqa tashkilotlardan zarur normativ, statistik hamda tahliliy axborotni so'rash va bepul olish;

-komissiyalar tomonidan tashkil etiladigan ekspert guruhlariga

Dasturda nazarda tutilgan hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish bo'yicha tavsiyalar berish;

-davlat boshqaruvi organlari, idoralar, banklar mutaxassislarini, ilmiy tadqiqot va oliy ta'lim muassasalarining olimlari va o'qituvchilarini, mustaqil ekspertlarni, shu jumladan, xorijiy davlatlardan ekspertlar sifatida shartnoma asosida jalb qilish;

-Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun taklif etilgan milliy va xorijiy ekspertlar faoliyatini muvofiqlashtirib borish huquqiga ega ekanligi belgilab qo'yilsin.

Ko'rinib turibdiki, mazkur markaz keng jamoatchilikni o'ziga jalb etgani holda "Harakatlar strategiyasi"ning amalga oshirish jarayonlari ustidan monitoring nazoratini amalga oshiradi, uni takomillashtirish va real voqelikka moslashtirishga doir tavsiyalar ishlab chiqadi.

Umuman olganda, hozirgi davrga kelib "Harakatlar strategiyasi" jahonga taraqqiyotning milliy modeli sifatida tanildi va xalqaro tashkilotlar tomonidan e'tirof etildi. Jahon tajribasida turli modernizatsiyaga oid nazariyalar va modellarga oid tadqiqotlar va adabiyotlarda biron-bir mamlakatda amalga oshirilgan modernizatsiya jamiyatning barcha sohalarini o'ziga qamrab olgan, qisqa muddat ichida o'zining samarasini beradigan rivojlanish modeli kamdan-kam hollarda uchraydi. Shu jihatdan yondashganda, O'zbekiston ikki yildan ortiqroq davr ichida davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish, iqtisodiyotni liberallashtrish, mulkdorlar ijtimoiy qatlami uchun qulay huquqiy va moliyaviy shart-sharoitlar yaratish, innovatsiyalar va investitsiyalarni mamlakatga kirib kelishini raG'batlantiradigan, rivojlangan davlat va xalqaro tashkilotlar tomonidan qisqa muddat ichida e'tirof etilgan davlat sifatida o'zini namoyon qila boshladi. Albatta, bu holat davlatimizni fuqarolik jamiyati sari jadallik bilan intilayotganligini anglatadi.

Nazorat savollari

1. Taraqqiyotning "O'zbek modeli"ning konseptual asoslari nimalardan iborat?
2. O'zbekistonning milliy taraqqiyot strategiyasida fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha qanday maqsad va vazifalar qo'yildi?
3. "Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari" g'oyasining siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy ahamiyati nimalarda namoyon bo'ladi?
4. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati qurishning nazariy-metodologik asoslari to'g'risida nimalarni bilasiz?
5. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha

"Harakatlar strategiyasi" fuqarolik jamiyatini rivojlantirish uchun qanday maqsad va vazifalar qo'yildi?

Test savollari

1. Birinchi Prezident I.A.Karimov tomonidan 2010-yil 12-noyabrda ilgari surilgan "Mamlakatimizda islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish" konsepsiyasida qanday vazifalar qo'yilgan?

A) Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish, sud-huquq tizimini isloh etish.

B) Axborot sohasi erkinligini ta'minlash, O'zbekistonda saylov huquqi erkinligini ta'minlash va saylov qonunchiligini rivojlantirish

C) Fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish, demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotini liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish

D) Barcha javoblar to'g'ri

2. "O'zbek modeli"ning birinchi tamoyilini belgilang?

A) Iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi

B) Davlat – bosh islohotchi

C) Qonun ustuvorligi

D) Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish

3. Taraqqiyotning "O'zbek modeli" ma'no-mazmuni nechta tamoyilda o'z ifodasini topgan?

A) 7 ta

B) 6 ta

C) 5 ta

D) 4 ta

4. O'zbekistonning tadrijiy rivojlanish yo'li qanday oqibatlarga olib keldi?

A) Iqtisodiy jarayonlar tezlashuviga

B) Islohotlarni sekinlashuviga

C) Islohotlarning inqilobiy usuliga

D) Iqtisodiy va ijtimoiy to'fonlardan holi bo'lishga

5. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etishning bosh ustuvor yo'nalishi – bu ...

A) Mustaqillik

B) Inson omili

C) Sud-huquq tizimi islohoti

D) Bozor iqtisodiyoti munosabatlarini chuqurlashtirish

6. Har qanday mustaqil davlat o'z demokratik taraqqiyotini ...

A) Rivojlangan demokratik davlat rivojlanish sirlarini o'rganishdan boshlaydi

B) Umuminsoniy demokratiya taraqqiyoti asosida boshlaydi

C) Milliy rivojlanish modelini ishlab chiqishdan boshlaydi

D) Milliy demokratik tamoyillar asosida boshlaydi

7. Demokratiyaning barcha millatlar va xalqlar uchun bir xil va universal modeli bo'lishi mumkinmi?

A) Bo'lishi mumkin, chunki demokratiya umuminsoniy qadriyatlar hisoblanadi

B) Demokratiyaning universal modeli bo'lishi mumkin emas, chunki har bir davlatning milliy rivojlanish tarixi betakrordir

C) Ba'zi tarixiy taraqqiyot bosqichlarida bo'lishi mumkin

D) Ba'zi bir davlatlarda bo'lishi mumkin

8. O'zbekistonda o'z-o'zini boshqarishning milliy an'anaviy shakli qaysi javobda to'g'ri berilgan?

A) Mahalla

B) Kasaba uyushmalari

C) Siyosiy partiyalar

D) Hashar

9. Keyingi 5-7 yil ichida Fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga doir qaysi qonunlarga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish taklifi kiritildi?

A) "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonun, "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonun

B) "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida"gi Qonun, "O'zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonun va "Ekologik nazorat to'g'risida"gi Qonun

C) "O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi va siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonun

D) A va B javoblar to'g'ri

10. Bugungi kunda mamlakatimizda o'zini o'zi boshqarish organlarining soni qanchaga yetdi?

A) 5 ming

B) 10 ming

C) 15 mingga yaqin

D) 10 mingga yaqin

8-mavzu. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH – FUQAROLIK JAMIYATINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR SHARTI

Reja:

1. Korrupsiya tushunchasi, korrupsiyaga qarshi kurashishning mazmun-mohiyati va uning milliy hamda xalqaro huquqiy asoslari.

2. O'zbekistonda korrupsiya qarshi kurashga doir huquqiy asoslarning yaratilishi va takomillashtirilishi.

3. O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashdagi tub burilish davrining boshlanishi.

1. Korrupsiya tushunchasi, korrupsiyaga qarshi kurashishning mazmun-mohiyati va uning milliy hamda xalqaro huquqiy asoslari

Insoniyat tarixidan ma'lumki, korrupsiya jamiyatni yemiradigan, shaxsni axloqiy jihatda inqirozga uchratadigan, har qanday davlat iqtisodiyotiga salbiy ta'sir qiladigan ijtimoiy illatdir. Mustaqillik davrida Birinchi Prezident I.A. Karimov rahbarligida tarixan qisqa davr ichida mamlakatda qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlashning, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari shakllantirildi. Uning "O'zbekiston XXI asr bo'saG'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asarida qayd etilganidek, totalitarizmdan demokratiya va bozor munosabatlariga o'tishdagi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar jamiyatni bir tekisda rivojlanish sur'atlariga doimo ham ijobiy ta'sir etavermaydi. Bu davrda korrupsiyaning paydo bo'lishi natijasida axloq va odob me'yorlariga putur yetadi. Demokratiya va bozor munosabatlariga o'tish davrida korrupsiyaning avj olishi – bu uzoq davom etgan totalitar tuzumdan keyin shakllanadigan, har bir shaxsning o'z imkoniyatlari yuzaga chiqishiga shart-sharoitlar yaratadigan demokratik erkinliklar tufayli avj oladigan kasallikdir. Bu kabi sharoitlarda mansabdorlarga encha erkinliklar berilishi oqibatida ularning ba'zilari o'z manfaatlarini jamiyat hamda davlat manfaatlaridan yuqori qo'ya boshlaydi. Uning natijasida korrupsiya paydo bo'ladi.

Prezident Sh.M.Mirziyoyev korrupsiya mohiyati va unga qarshi kurashish zarurligi haqida quyidagi fikrni bejiz aytmagan edi: "Jamiyat rivojiga g'ov bo'layotgan yana bir illat – bu korrupsiya balosidir. Bunday xatarga qarshi kurashish maqsadida yaqinda Qonunchilik palatasi

tomonidan qabul qilinib, Senatga yuborilgan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunni tezroq amaliyotga joriy etish chora-tadbirlarini ko'rishimiz lozim. Bularning barchasi, o'z navbatida, inson huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimini takomillashtirishga, xalqimizning davlat hokimiyatiga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi".

Korrupsiya – shaxsni mansab mavqeidan shaxsiy maqsadlarda foydalanish bilan bog'liq bo'lgan jinoyat turidir. Korrupsiyaviy faoliyat xufyona iqtisodiyotning asosiy zararli va yemiruvchi turlaridan biri hisoblanadi. Aksariyat hollarda korrupsiya deganda, davlat mansabdorlari tomonidan o'z shaxsiy manfaatlarni ko'zlab boylik orttirish maqsadida fuqarolardan pora olishi, qonunga xilof ravishda boylik orttirishi tushuniladi. Lekin, umuman olganda, davlat mansabdorlarigina emas, balki korxona yoki firmalarning menejerlari ham korrupsiyaga doir munosabatlarning ishtirokchilari bo'lishi mumkin. Bunda ko'pincha, poralar pul bilan emas, balki boshqa shakllarda olinadi; korrupsiyaga doir jinoyatlarning tashabbuskorlari ba'zan tadbirkorlar bo'lishi ham mumkin.

O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvarda qabul qilingan **"Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi** qonunida "korrupsiya" tushunchaga quydagicha ta'rif berildi: **"Korrupsiya"** deganda – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishi tushuniladi; shuningdek, **korrupsiyaga oid huquqbuzarlik deganda** – korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish tushuniladi". Shuningdek, qonunda **manfaatlar to'qnashuvi** tushunchasiga ham izoh berilgan bo'lib, u shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat anglanadi.

Etimologik jihatdan olganda *korrupsiya* atamasi "buzish, pora evaziga oG'dirish" degan ma'noni anglatadigan lotincha "corruptio" so'zidan kelib chiqgan. Yuridik ensiklopediya mualliflarining

ta'kidlashicha, "korrupsiya – mansabdor shaxslar tomonidan ularga berilgan huquqlar va hokimiyat imkoniyatlaridan shaxsiy boylik orttirish uchun foydalanishda ifodalanuvchi siyosat yoki davlat boshqaruvi sohasidagi jinoiy faoliyat"dir.

"Yuridik atamalar qomusiy lug'ati"da korrupsiya tushunchasiga "davlat funksiyalarini bajarish vakolatiga ega bo'lgan (yoki ularga tenglashtirilgan) shaxslarning noqonuniy tarzda moddiy va boshqa boyliklar, imtiyozlarni olishda o'z maqomi va u bilan bog'liq imkoniyatlardan foydalanishi, shuningdek, bu boylik va imtiyozlarni jismoniy yoki yuridik shaxslar qonunga xilof ravishda egallashiga imkon berishi", deb ta'rif berilgan.

Ba'zi adabiyotlarda e'tirof etilishicha, korrupsiya atamasi "siyosat yoki davlat boshqaruvi sohasidagi jinoiy faoliyat bo'lib, mansabdor shaxslar o'zlariga berilgan huquqlar va hokimiyat imkoniyatlaridan shaxsiy boyish maqsadida foydalanishidan iborat", deb tavsiflandi.

BMTning xalqaro miqyosda korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha Ma'lumotida shunday deyiladi: "Korrupsiya – bu shaxsiy naf ko'rish maqsadlarida davlat hokimiyatini suiste'mol qilish"dir. Korrupsiya tushunchasiga berilgan shu kabi ta'rif Jahon bankining hozirgi dunyoda davlatning roliga bag'ishlangan hisobotida ham berilgan: korrupsiya – bu "shaxsiy naf ko'rish yo'lida davlat hokimiyatini suiste'mol qilish"dir.

BMT korrupsiyaga qarshi kurash borasida quyidagi hujjatlarni qabul qilgan:

1)"Huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslarning xulq-atvor Kodeksi" (BMT Bosh assambleyasining Rezolyutsiyasi bilan 1979-yil 17-dekabrda qabul qilingan);

2) Huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslarning xulq-atvor Kodeksini samarali amalga oshirilishi uchun rahbariy prinsiplar (BMTning Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashi rezolyutsiyasi bilan 1989-yil 24-mayda qabul qilingan);

3) Davlat mansabdor shaxslarining Xalqaro xulq-atvor kodeksi (BMT Bosh assambleyasining Rezolyutsiyasi bilan 1996-yil 12-dekabrda qabul qilingan);

4) BMTning Xalqaro tijorat operatsiyalarida korrupsiya va poraxo'rlikka qarshi kurash to'g'risidagi Deklaratsiyasi (BMT Bosh assambleyasining Rezolyutsiyasi bilan 1996-yil 16-dekabrda tasdiqlangan);

5) Terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to'G'risidagi xalqaro konvensiya (BMT Bosh assambleyasining Rezolyutsiyasi bilan

1999-yil 9-dekabrda qabul qilingan);

6) BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to'g'risidagi Konvensiyasi (BMT Bosh assambleyasining Rezolyutsiyasi bilan 2000-yil 15-noyabrda qabul qilingan);

7) BMT Forumining ofshorlar bo'yicha Kommyunikesi (Kayman orollari, 2000-yil 30–31-mart);

8) BMT Bosh kotibining korrupsiyaga oid ma'ruzasi (Vena, 2001-yil 8–17-may);

9) Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha chora-tadbirlar to'plami (2001-yil iyun);

10) Korrupsiyaga qarshi kurash choralari. Pulni tozalashga qarshi kurash choralari. Jinoyatchilik va odil sudlov: XXI asr chorloviga javoblar to'G'risidagi Vena deklaratsiyasini amalga oshirish harakat Rejasi (BMT Bosh assambleyasining Rezolyutsiyasi bilan 2002-yil 15-aprelda qabul qilingan);

11) BMTning Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risidagi Konvensiyasi (BMT Bosh assambleyasining Rezolyutsiyasi bilan 2003-yil 31-oktabrda qabul qilingan).

Shuningdek, Yevropa Kengashi va Yevropa Ittifoqi korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi ko'plab huquqiy normalar va xalqaro hujjatlar qabul qildi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) doirasida korrupsiyaga qarshi kurashga doir quyidagi huquqiy normalar qabul qilindi:

1) Jinoyatchilikka qarshi kurashda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga ishtirokchi davlatlarning hamkorligi to'G'risidagi Kelishuvi (Moskva, 1998-yil 25-noyabr);

2) "Korrupsiyaga qarshi siyosatning qonunchilik asoslari to'G'risida"gi Namunaviy qonuni (MDH Parlamentlararo assambleyasining XXII plenar yiG'ilishida qabul qilingan 2003-yil 15-noyabr);

3) "Korrupsiyaga qarshi kurash to'G'risida"gi Namunaviy qonuni (MDH Parlamentlararo assambleyasining XIII plenar yiG'ilishida qabul qilingan 1999-yil 3-aprel);

4) "G'ayriqonuniy yo'ldan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshilik qilish to'G'risida"gi Namunaviy qonuni (MDH Parlamentlararo assambleyasining XII plenar yiG'ilishida qabul qilingan 1998-yil 8-dekabr);

5) "Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to'g'risida"gi tavsiyaviy qonunchilik akti (MDH Parlamentlararo assambleyasining

qarori bilan qabul qilingan 1996-yil 2-noyabr);

6) Jinoiy daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha Yevrosiyo guruhi to'g'risidagi Bitim (Moskva, 2011-yil 16-iyun).

Barcha xalqaro tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi kurashga doir huquqiy normalari BMTning **"Korrupsiyaga qarshi konvensiya"si** tomonidan muvofiqlashtiriladi. Korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi eng asosiy xalqaro hujjat bu – shubhasiz, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi mazkur xalqaro hujjatni ratifikatsiya qilgan: O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan "BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi"ga O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida"gi Qonuni 2008-yil 24-iyunda qabul qilindi va 2008-yil 27-iyunda O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Senati tomonidan ma'qullandi va 2008-yil 28-avgustdan e'tiboran kuchga kirdi.

O'zbekiston Respublikasi mazkur konvensiyaga bir nechta bildirishlar, bayonotlar va shartlar bilan qo'shildi. Jumladan, Qonunning 1-bandiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Konvensiya 6-moddasining 3-bandi bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Bosh prokuraturasi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati va Adliya vazirligi korrupsiyaning oldini olish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab-chiqish va ularni amalga oshirishda boshqa ishtirokchi davlatlarga yordam ko'rsatishi mumkin bo'lgan organlar sifatida belgilanganligi keltirildi. Bu qoida Konvensiyaning 6-moddasi 3-bandidagi har bir ishtirokchi Davlat BMTning Bosh kotibiga korrupsiyaning oldini olish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda boshqa ishtirokchi Davlatlarga yordam berishi mumkin bo'lgan organ yoki organlarning nomi va manzilini xabar qiladi, degan talablariga to'la javob beradi.

Qonun mazmuniga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Konvensiyaning "Noqonuniy tarzda boylik orttirilishi"ni jinoyat deb baholagan 20-moddasi va "Yuridik shaxslarning javobgarligi"ni nazarda tutuvchi 26-moddasiga qo'shilmagan.

Qonunning 3-bandiga ko'ra, O'zbekistan Respublikasi Konvensiya 44-moddasi 6-bandining "a" kichik bandiga muvofiq, ushbu Konvensiyadan korrupsiya jinoyatlari sodir etgan shaxslarni tutib topshirish masalalarida ushbu Konvensiyaning boshqa ishtirokchi davlatlari bilan o'zarolik asosida hamkorlik qilish uchun huquqiy asos sifatida foydalanishligini bildirgan.

Uzoq yillar tajribasidan kelib chiqib korrupsiyani bir nechta asosiy

turlarga ajratish mumkin:

1) subyektlarning maqomiga ko'ra:

a) hokimiyat organlaridagi korrupsiya;

b) xususiy sektordagi korrupsiya;

c) siyosatdagi korrupsiya yoki siyosiy korrupsiya;

2) darajasiga ko'ra:

a) quyi darajadagi korrupsiya;

b) yuqori darajadagi korrupsiya;

c) vertikal korrupsiya;

3) ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra:

a) korrupsiya-qilmish;

b) korrupsiya-jinoyat.

Korrupsiyaning ko'rsatilgan turlarini quyida mufassalroq ko'rib chiqishga harakat qilamiz. Hokimiyat (ijroiya, vakillik va sud) organlaridagi korrupsiya hozirgi vaqtda jahonning deyarli barcha mamlakatlari, shu jumladan, O'zbekistonda ham muhim muammolardan biri hisoblanadi. Bu turdagi korrupsiya jinoyatlarining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ularni o'zlari qonunga rioya etishlari va uni muhofaza qilishlari lozim bo'lgan kishilar sodir etadi. Aksariyat mamlakatlarda bu jinoyatlar keng tarqalganligi, davlat apparati xodimlari korrupsiya domiga ilinganligi mazkur mamlakatlarning qonunchilarini poraxo'rlik, mansab mavqeini suiste'mol qilish va boshqa xavfli mansabdorlik jinoyatlariga qarshi qat'iy choralar ko'rishga va, aksincha, mansabdorlarning uncha xavfli bo'lmagan va ko'proq darajada tarqalgan jinoyatlariga jiddiy e'tibor bermaslik (masalan, uncha qimmat turmaydigan sovg'a olish jinoyat hisoblanmaydi) holatlari uchrab turibdi.

Hozirgi davrda nodavlat tashkilotlar yoki xususiy sektordagi korrupsiya ancha keng tarqaldi. Tashkilot (tijorat yoki jamoat tashkiloti) rahbari uning nizomda belgilangan vakolatlariga qat'iy rioya etishi lozim. Lekin u davlat mansabdori kabi o'ziga qarashli bo'lmagan resurslarni o'z shaxsiy manfaatlari yoki boshqa ikkinchi tomon foydasiga o'tkazishi yoki tasarruf etishi, tashkilot manfaatlariga zid bo'lgan harakatlarni sodir etish imkoniyatlariga ega. Bunga kundalik hayotdan misollar keltirish mumkin: turli tijorat banklarida maqsadi bankdan mablag' olish va so'ngra tezlik bilan g'oyib bo'lishga asoslangan turli loyihalarga pora evaziga kreditlar ajratilishi; turli mulk shakliga mansub bo'lgan korxonalarda davlat va korxonalarning zarar ko'rishiga olib keladigan moddiy boyliklarni (vino-aroq yoki neft-kimyo mahsulotlari va sh.k.) pora evaziga arzon narxlarda olish imkoniyatlarining mavjudligi.

Ayrim tadqiqotchilar siyosiy korrupsiyani alohida tadqiq etib, uni korrupsiyaviy jinoyatlarning alohida turi sifatida ajratib ko'rsatadi. Ular asosan korrupsiyaning uchta asosiy shaklini keltiradi:

1) siyosiy: mansabdor shaxs yuzaga kelgan qarindosh-urug'chilik munosabatlari tufayli qonunga zid harakat qiladi;

2) jinoyat faoliyati bilan bog'liq bo'lib, mansabdor shaxslarni sotib olishga asoslangan. Ular esa mukofot puli olish evaziga g'ayriqonuniy xizmatlar ko'rsatadi;

3) taraflardan biri o'ziga eng qulay tartib vujudga keltirish uchun jinoyatga mansabdor shaxslarning tegishli toifalarini izchillik bilan jalb etishni nazarda tutadi. Korrupsiyaning bu shakli uyushgan jinoyatchilik bilan mustahkam bog'langan bo'lib, mansabdor shaxslarga nisbatan sotib olish, provakatsiya qilish va tahdid solishni anglatadi.

Siyosiy korrupsiyaning, ayniqsa ko'p uchraydigan shakllari – bu pora olish va pora berish hisoblanadi. Bu holat saylovlarda nomzodlar o'z huquqini qing'ir yo'llar bilan amalga oshirish maqsadida siyosat subyektlarini pora evaziga og'dirib olishga urinadi. Faoliyat ko'rsatish darajalariga binoan korrupsiya quyi darajadagi, yuqori darajadagi va vertikal jihatlari bilan bir-biridan farqlanadi.

Quyi darajadagi korrupsiya hokimiyat va boshqaruv organlarining o'rta va quyi darajalarida keng tarqaladi, mansabdorlar va fuqarolarning muntazam o'zaro aloqalari bilan bog'liqdir (masalan, ro'yxatdan o'tkazish, jarimalardan qutilish, litsenziyalar hamda turli ruxsatnomalar olish va sh.k.).

Yuqori darajadagi korrupsiya yuqori hokimiyat organlarida ishlaydigan siyosatchilar, oliy martabali mansabdorlarni o'ziga qamrab oladi va juda katta boyliklar evaziga o'z foydasiga qarorlar qabul qilish bilan bog'liqdir (qonunlarni ilgari surish va qabul qilish, davlat buyurtmalari, mulk shakllarini o'zgartirish va sh.k.). Aksariyat hollarda korrupsiyaviy bitimdan manfaatdor bo'lgan ikkala tomon ayni bir davlat hokimiyati organida ishlashi mumkin. Masalan, quyi turuvchi davlat organining mansabdori o'zidan yuqorida turuvchi boshliqqa o'zining korrupsiyaviy harakatlariga homiylik qilishi yoki qo'shimcha mablag'lar, resurslar, vakolatlar ajratishi uchun pora beradi.

Korrupsiyaning pora olish va xizmat mavqeini suiste'mol qilish kabi odatdagi shakllaridan tashqari, yana uning quyidagi amalda namoyon bo'lishi shakllarini bir-birlaridan farqlash mumkin:

- mansabdor shaxslar, davlat xizmati xodimlari, deputatlar tijorat faoliyatida shaxsiy yoki korporativ naf ko'rish uchun bevosita ishtirok

etishi; davlat pul mablag'larini o'zlashtirish niyatida tijorat tuzilmalariga o'tkazish uchun o'z xizmat mavqeidan foydalanish;

- o'z korporativ (siyosiy, diniy, milliy va sh.k.) guruhiga davlat resurslari hisobidan imtiyozlar berish; shaxsiy yoki korporativ naf ko'rish maqsadida ommaviy axborot vositalariga tazyiq o'tkazish uchun o'z xizmat mavqeidan foydalanish;

- mansabdor shaxslar va davlat xizmati xodimlari shaxsiy boyish maqsadida tijorat tuzilmalarida soxta shaxslardan va qarindoshlaridan foydalanishi; shaxsiy yoki korporativ naf ko'rish maqsadida axborotni manipulyatsiya qilish (buzib ko'rsatish, bermaslik, berish muddatlarini cho'zish va sh.k.) uchun xizmat mavqeidan foydalanish;

- tor guruhiy manfaatlarda normativ hujjatlar qabul qilish haqidagi qarorlarni ilgari surish; ayrim nomzodlarning saylov fondlariga davlat moliyaviy va moddiy resurslarini taqdim etish.

AQSHda korrupsiyaning "kikbeking" degan shakli ancha keng tarqalgan. Uning sxemasi juda sodda: jinoiy til biriktirish ishtirokchilari muayyan narxlarda bitim tuzishga og'zaki kelishadilar, rasmiy bitimni esa balandroq narxlarda imzolaydi. Tafovutning bir qismi bitimga ruxsat bergan mansabdor shaxslarga topshiriladi, ya'ni yashirin tarzda pora beriladi. Pora olishning bu kabi shakli so'nggi yillarda O'zbekistonda ham uchrab turibdi.

Korrupsiya jinoyati nafaqat xufyona, balki korrupsiyaga doir munosabatlarga kirishgan tomonlarning o'zaro kelishuviga binoan ochiq tarzda ham sodir etilishi mumkin. Aksariyat hollarda u tegishli hokimiyat organlariga shikoyat berilishiga sabab bo'lmaydi, chunki g'ayriqonuniy kelishuvdan har ikkala tomon ham naf ko'radi. Hattoki, jabrlanuvchilar pora so'ragan mansabdorlar ustidan ham kamdan-kam holda shikoyat qiladi. Chunki odamlar korrupsiyaga qarshi kurash jarayonining samara berishiga unchalik ishonmaydi. Bu holatga doir milliy va xorijiy tajriba bilan bog'liq bo'lgan muayyan obyektiv va subyektiv sabablar mavjuddir. Korrupsiya harakatlari odatda davlat faoliyatining mutaxassis bo'lmagan kishilar tushunishi ancha qiyin bo'lgan o'ziga xos turlarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham korrupsiya o'ta moslashuvchan jinoyatdir. U vaziyatga qarab tinimsiz o'zgarib turadi va takomillashib boradi. Shu bois bu hodisa haqida to'liq, mukammal yoki hech bo'lmasa qandaydir uzuq-yuluq ma'lumotlar olish ham qiyin masalalardan biri hisoblanadi.

2. O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashga doir huquqiy asoslarning yaratilishi va takomillashtirilishi

Mustaqillikning dastlabki davridan boshlab mamlakatda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etishning strategik maqsadini amalga oshirishda qonun ustuvorligini ta’minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, sud-huquq tizimini isloh qilish, korrupsiyaviy jinoyatlarga qarshi kurashish muhim ustuvor va dolzarb vazifalar sifatida qarab kelindi.

Mustaqillik davrida Birinchi Prezident I.A.Karimov tashabbusi bilan tarixan qisqa davr ichida mamlakatda qonuniylik va huquq-tartibotni ta’minlashning huquqiy asoslari shakllantirildi, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasining 2008-yili Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (2003-yil 31-oktabr, Nyu-York), shuningdek, 2010-yili Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti doirasida qabul qilingan korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha Istanbul harakat rejasiga (2003-yil 10-sentabr, Istanbul) qo‘shilishi korrupsiyaga qarshi kurashning huquqiy asoslarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynadi.

O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash va uning oldini olish bilan boG‘liq huquqiy asoslarni takomillashtirishga qaratilgan qator muhim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, Byudjet, Bojxona kodekslari (yangi tahrirda), “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi, “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi, “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi, “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi, “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi, “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilindi.

Korrupsiya va uni keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan sabablar va omillarning oldini olish maqsadida iqtisodiyotni erkinlashtirish, mehnat jamoalarida ishchanlik va oshkoralik muhitini yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun qulay sharoitlar tashkil etish, ma’muriy to‘siqlarni bartaraf etish hamda davlat organlari tomonidan litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish, davlat xaridlari mexanizmini takomillashtirish, davlat xizmatchilarining odob-axloq qoidalarini tasdiqlashga oid qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Lekin mamlakatimizda 2017-yilga qadar korrupsiyaga qarshi kurashni muvofiqlashtiradigan, bu kurashning qonuniyligi va shaffofligini ta’minlaydigan maxsus qonun qabul qilinmagan edi. Mamlakat Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan

O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi va u 2017-yil 4-yanvardan boshlab kuchga kirdi. Mazkur Qonundan ko‘zlangan asosiy maqsad korrupsiyaga qarsha kurash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo‘ldi. Unda “korrupsiya”, “korrupsion huquqbuzarlik” va “manfaatlar to‘qnashuvi” kabi tushunchalarga izohlar berildi.

Qonunning 3-moddasida korrupsiyaga doir asosiy tushunchalarga doir quyidagi ta’riflar ifodalandi:

korrupsiya – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik – korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

manfaatlar to‘qnashuvi – shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat.

Shuningdek, qonunda korrupsiyaga qarshi kurashning asosiy prinsiplari sifatida qonuniylik; fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ustuvorligi; ochiqlik, shaffoflik va tizimlilik; davlat va fuqarolik jamiyatining o‘zaro hamkorligi; korrupsiyadan ogohlantirish va javobgarlikning muqarrarligi bo‘yicha choralar ustuvorligi kabilar mustahkamlab qo‘yilgan.

Qonunda korrupsiyaga qarshi kurash sohasida davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagilar belgilab qo‘yildi:

- aholining huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyatini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan toqatsizlikni shakllantirish;
- davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyadan ogohlantirish bo‘yicha choralarni amalga oshirish;
- korrupsion huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularning oqibatlari, sabablari va keltirib chiqargan sharoitlarni bartaraf etish hamda korrupsion huquqbuzarliklar sodir etilgani uchun muqarrar jazolash tamoyilini tatbiq etish.

Shu bilan birga, Qonunda davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyadan ogohlantirish bo'yicha qator choralar belgilandi. Jumladan, davlat organlari faoliyatining ochiqligi va hisobdorligini ta'minlash, parlament va jamoatchilik nazorati, mansabdor shaxslar faoliyati sifatini baholash hamda ishga qabul qilish va mansab pillapoyalaridan ko'tarilishda ochiqlik va xolislik tamoyili asosida tanlovlar asosidagi saralashlarga amal qilish mexanizmlarini joriy etish belgilandi. Davlat organlari xodimlarining huquqiy maqomi aniqlanib, ularni ijtimoiy himoya qilish, moddiy ta'minotini oshirish va mehnat faoliyatini har tomonlama rag'batlantirish choralarini ko'rishga shart-sharoitlar yaratildi.

Ijtimoiy-iqtisodiy va tadbirkorlik sohalarida korrupsiya yuz bermasligi yoki undan voqif etish qator choralar qatoridan ma'muriy va byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, turli ro'hatga olish, ruxsat berish va litsenziyalash jarayonlarini soddalashtirish va ularni rasmiylashtirish tezkorligini oshirish, davlat organlarining nazorat-tekshiruv vakolatlarini optimallashtirish hamda ular bilan tadbirkorlik subyektlari o'rtasida o'zaro munosabatlarning uzoqdan masofaviy tarzda bog'lana olish shakllarini joriy etish belgilandi.

Shuning uchun ham Qonunda davlat organi xodimi biror-bir shaxs tomonidan uni korrupsion huquqbuzarlikni sodir etishga da'vat qilish holati, shuningdek, boshqa xizmatchilar tomonidan shu kabi holatlarning amalga oshirilishi bo'yicha unga oshkor bo'lgan ma'lumotlarni o'z rahbari yoki huquqni muhofaza qilish organlariga murojaat etish huquqlari belgilab qo'yildi. Mazkur majburiyatlarning amalda bajarilmasligi qonunchilikka muvofiq tegishli ravishda jazolanishi qoidasi o'rnatildi. Korrupsion jinoyat to'g'risida axborot bergan shaxs davlat himoyasi ostiga olinadigan bo'ldi. Shuningdek, mazkur qoida yolg'on ma'lumotlarni taqdim etuvchi fuqarolarga nisbatan amal qilmasligiga e'tibor qaratildi.

Qonunning alohida moddalari bilan har qanday fuqaro turli tashkilotlar va davlat organlari faoliyati, o'ziga yoki boshqa shaxslar guruhiga taalluqli qabul qilinayotgan me'yoriy aktlar to'g'risida ma'lumot olish huquqiga ega ekanligi belgilab qo'yildi. Davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat tashkilotlar tomonidan OAVga korrupsiya bilan bog'liq hodisalar, dalillar, voqealar va jarayonlar to'g'risida ma'lumotlarni taqdim etishi uchun qulay sharoitlar yaratildi.

Mazkur chora-tadbirlarning yangi va yanada samarali tizimini yaratish, korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini yanada

takomillashtirish maqsadida qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy munosabatlarni to'liq qonuniy tartibga solishga, davlat organlari, tashkilotlar hamda fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar samaradorligini oshirishga, fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish orqali jamiyatda korrupsiyaning har qanday ko'rinishlariga toqat qilmaslik muhitini yaratishga xizmat qilishi bilan ham ahamiyatlidir.

Qonunda korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari va bu boradagi davlat siyosatining muhim yo'nalishlari mustahkamlab qo'yildi. Qonun fuqarolar huquq va erkinliklari himoya qilinishini ta'minlashning qo'shimcha huquqiy kafolatlarini yaratdi, shuningdek, u xususiy mulk huquqiga g'ayriqonuniy tajovuzlar qilishdan, tadbirkorlik subyektlarining faoliyatiga asossiz aralashuvlarni cheklashlardan himoya qila boshladi.

Qonunning 5-moddasiga binoan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagicha belgilandi:

- aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

- davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta'minlash.

Qonunning 7-moddasiga binoan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari sirasiga quyidagilar kiritildi: Bosh prokuratura; Davlat xavfsizlik xizmati; Ichki ishlar vazirligi; Adliya vazirligi; O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti; Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni qonun hujjatlariga muvofiq boshqa davlat organlari ham amalga oshiradi.

Shu bilan birga, qonunda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish uchun Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Respublika idoralararo komissiyasini tashkil etish ham nazarda tutildi. Idoralararo komissiyani shakllantirish va uning

faoliyati tartibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanishi nazarda tutildi. Qoraqalpog‘iston Respublikasida, viloyatlarda va Toshkent shahrida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha hududiy idoralararo komissiyalar tashkil etilishi belgilandi. Unga muvofiq tarzda idoralararo komissiyaning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi:

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishni tashkil etish;
- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olishga, ularni aniqlashga, ularga chek qo‘yishga, ularning oqibatlarini, shuningdek, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir chora-tadbirlarni ko‘rish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish;
- hududiy idoralararo komissiyalar faoliyatini muvofiqlashtirishdan iborat.

Ma’lumki, jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurash samaradorligini oshirishda keng jamoatchilikning ishtiroki ta’minlanmasa, undan kutilgan natijalarga erishib bo‘lmaydi. Mazkur qonunning e’tiborli jihati shundaki, unda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning va ommaviy axborot vositalari kabi fuqarolik jamiyati institutlarining ham korrupsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etishiga doir yangi huquqiy asoslar va qoidalar mustahkamlab qo‘yildi. Unga asosan, keng jamoatchilik, o‘zini o‘zi boshqarish organlari yoki nodavlat tashkilotlar qonunga muvofiq, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishda ishtirok etishi; korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi.

Mazkur Qonunning 12-, 16-, 18- va 20-moddalari bevosita ta’lim tizimi jarayonida qo‘llanilishi mo‘ljallandi. Qonunning 16-moddasiga asosan, davlat organlari va boshqa tashkilotlar korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni ko‘rib borishlari lozim.

Shuningdek, davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirish uchun davlat organlari va boshqa

tashkilotlar o'z mansabdor shaxslarining va xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy savodxonligini, jumladan, huquqiy bilimlari darajasini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlarni ham amalga oshirib borishlari nazarda tutildi.

Qonunda ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta'lim va tarbiyani olib borishga ham alohida urg'u berildi. Kelgusida ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta'lim va tarbiya davlat tomonidan belgilab qo'yilgan ta'lim standartlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Davlat ta'limni boshqarish organlari va ta'lim muassasalari korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini inobatga olgan holda ta'lim muassasalarida huquqiy ta'lim va tarbiyaga, mutaxassislarni kasbiy tayyorlashning sifatini oshirishga, ta'lim dasturlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishlari belgilab qo'yildi.

Shuningdek, Qonunda davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir quyidagi chora-tadbirlar belgilandi:

- davlat organlari faoliyatining ochiqligini va ularning hisobdorligini ta'minlash, davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini oshirish, davlat organlarining, ular mansabdor shaxslarining mas'uliyatini kuchaytirish;

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlarining faoliyati ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish.

Mazkur qonunda ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha sohalarida uchrashi mumkin bo'lgan korrupsiyaga oid jinoyatlarning oldini olish va ularga qarshi kurashish samaradorligini oshirish uchun zarur barcha tartib-tamoyillar hamda ularning huquqiy asoslari mustahkamlab qo'yildi. Bu esa mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashni takomillashtirishga oid islohotlarning yangi davri boshlanganligini va bu jarayonda korrupsiyaga qarshi kurashish davlatning ustuvor vazifasi ekanligi e'tirof etildi.

Mazkur Qonunning qabu qilinishi nafaqat davlat organlarining korrupsiyaga qarshi kurash olib borishining huquqiy asoslarini yaratdi, balki mamlakatda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga ham shart-sharoitlar yaratdi: birinchidan, korrupsiyaga qarshi kurashning shaffofligi o'rnatildi; ikkinchidan, korrupsiyaga qarshi kurash uchun fuqarolik jamiyati institutlariga ham vakolatlar va huquqlar berildi; uchinichidan, qonunga binoan fuqarolar huquqiy madaniyatini oshirish ularning korrupsiyani fosh etishda faol ishtirok etishini ta'minlaydi; to'rtinchidan, fuqarolik jamiyatining ijtimoiy va iqtisodiy tayanchi – mulkdorlar

ijtimoiy qatlami korrupsiyaviy tajovuzlardan himoyalanishi natijasi o'laroq mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga ko'proq ta'sir etadi; beshinchidan, jamiyatda ma'naviyat va axloq me'yorlariga itoat etish va amal qilish kuchayadi.

3. O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashdagi tub burilish davrining boshlanishi

Dunyoda XXI asr boshlariga kelib ham korrupsiyaga barham berish masalalari hal etilgani yo'q. BMT ma'lumotlariga ko'ra dunyoda berilgan pora hajmi keyingi uch yil ichida yiliga o'rtacha 1 trln. AQSh dollarini tashkil etmoqda. Rossiya Federatsiyasi adliya vazirligi hisobiga ko'ra korrupsiya Rossiyani 20 foiz yalpi ichki mahsulotdan mahrum qilib, u yiliga 16 trln. rublni tashkil etmoqda. Rivojlangan davlatlarda ham korrupsiyani kamaytirishda hal etilmagan muammolar mavjud. O'zbekistonda ham mustaqillik davrida korrupsiyaga berilgan mansabdorlar xatti-harakatiga to'liq barham berishning huquqiy va tashkiliy jihatlari o'z takomiliga yetkazilmadi.

Prezident Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi farmoni bilan tasdiqlangan "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish-ning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da mamlakatda korrupsiyaga qarshi kurashni samarali tashkil etish bo'yicha vazifalar qo'yildi. Uning 2-yo'nalishi qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish vazifalarini o'z ichiga olib, uning 4-bandida jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish vazifalari qo'yildi. Xususan, unda korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarining samaradorligini oshirish tizimini ishlab chiqish vazifasi qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 24-iyulda qabul qilingan "Qonunchilik ijrosini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi tarkibida Qonunchilik ijrosi ustidan nazorat bosh boshqarmasi tashkil etilishi prokuratura organlarining korrupsiyaga qarshi kurash va nazorat faoliyati kuchayishining muhim omiliga aylandi. 2014–2017-yillarda qonunlar ijrosi bo'yicha o'tkazilgan 17 mingdan ortiq tekshiruv yakunlariga ko'ra prokuratura organlari tomonidan 115228 ta prokuror nazorati hujjati

qo'llanildi, 87094 nafar fuqaroning buzilgan huquqlari tiklandi. Davlat organlarining qonun hujjatlariga zid bo'lgan 19578 ta hujjati ustidan arz qilindi. Natijada keyinchalik ushbu hujjatlar bekor qilindi yoki qonun hujjatlariga muvofiq holga keltirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 15-mayda qabul qilingan "Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonining qoidalarini so'zsiz ijro etishga prokuratura organlari tomonidan alohida e'tibor qaratildi. Mazkur farmon, unga muvofiq qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga xususiy mulkni, tadbirkorlik subyektlarini ishonchli himoya qilishni yanada kuchaytirishga, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni so'nggi yillarda mazkur sohada qabul qilingan eng muhim normativ hujjatlar bo'lib qolmoqda. Ushbu qonun hujjatlari tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish, biznes olib borishni tashkil etish, nazorat qiluvchi, huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa davlat organlari bilan hamkorlik qilish bilan bog'liq mazkur subyektlar faoliyatining deyarli barcha jihatlariga taalluqlidir.

Ushbu qonun hujjatlarining qoidalarini amalga oshirish maqsadida prokuratura organlari tomonidan tadbirkorlik faoliyati erkinligi kafolatlari to'g'risidagi qonun hujjatlarining so'zsiz ijro etilishi ustidan nazoratni kuchaytirishga, tadbirkorlik subyektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini buzganlik uchun nazorat qiluvchi, huquqni muhofaza qiluvchi va vakolatli davlat organlari mansabdor shaxslari javobgarligining muqarrarligini ta'minlashga qaratilgan kompleks, tizimli chora-tadbirlar ko'rilmoqda hamda ro'yobga chiqarilmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 15-mayda qabul qilingan farmonini ijro etish maqsadida Bosh prokuratura huzurida fuqarolarning, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining murojaatlarini kechayu kunduz qabul qiladigan elektron tizim yaratildi va samarali faoliyat ko'rsatmoqda. Murojaatlarni ko'rib chiqish tezligini ta'minlash maqsadida ushbu tizimga 34 ta idora, prokuratura organlarining viloyat va tuman bo'linmalari ulandi. Har bir murojaatning o'z vaqtida ko'rib chiqilishi onlayn rejimda nazorat qilinmoqda.

Bosh prokuraturaning murojaatlarni kechayu kunduz qabul qiluvchi markazi tashkil etilganidan buyon (2015-yil 1-iyul) markaz telefonlariga

19 mingdan ziyod murojaat kelib tushdi. Ular bo'yicha prokuror tomonidan tegishli chora-tadbirlar ko'rildi. Hisobot davrida prokuratura organlari tomonidan deyarli 16 ming nafar tadbirkorlik subyektining qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish yuzasidan ularga amaliy yordam ko'rsatildi. Tadbirkorlarni himoya qilishga qaratilgan nazorat tadbirlari natijasida ularning foydasiga 13 milliard so'm undirish to'g'risida sudlarga 764 ta ariza kiritildi, 6220 nafar tadbirkorning huquqlari tiklandi. Muhokama chog'ida qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning mehnat, ijtimoiy ta'minot, sog'liqni saqlash, ta'lim sohasidagi huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash bo'yicha prokuratura organlari faoliyatining samaradorligini yanada oshirishga doir taklif hamda tavsiyalar bildirildi.

2016-yilning so'nggi choragidan boshlab mamlakatda korrupsiyaga barham berish sohasida katta ishlar amalga oshirildi. 2017-yil 2-fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2752-sonli qarori mamlakatda korrupsiyaga barham berish va unga qarshi kurashda muhim ahamiyat kasb etdi. Qarorga asosan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qoidalarining samarali ijrosini ta'minlash, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish maqsadida "2017–2018-yillarga mo'ljallangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturi tasdiqlandi, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi tashkil etildi. Bu komissiyaning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi:

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarining va boshqa dasturlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish;

- korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish va hamkorligini ta'minlash;

- aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish;

- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olishga, ularni aniqlashga, ularga chek qo'yishga, ularning oqibatlarini, shuningdek

ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir chora-tadbirlar samaradorligi oshirilishini ta'minlash;

- korrupsiyaning holati va tendensiyalari to'g'risidagi axborotni yiG'ish hamda tahlil etish;

- korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish, ushbu sohadagi mavjud tashkiliy-amaliy va huquqiy mexanizmlarning samaradorligini baholash;

- korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish va ushbu sohadagi ishlarni yaxshilash yuzasidan takliflar tayyorlash;

- korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha hududiy idoralararo komissiyalar faoliyatini muvofiqlashtirish.

Prezident qarori bilan tasdiqlangan "2017–2018-yillarga mo'ljallangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Davlat dasturi"da korrupsiyani yo'qotish va unga qarshi kurashish uchun quyidagi huquqiy asoslar loyihalarini ishlab chiqish topshirildi:

1) "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun qabul qilinishi munosabati bilan amaldagi qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

2) Davlat xizmati tizimini yaratish va uning faoliyati asosiy tamoyillarini, davlat xizmatining kadrlar tarkibini shakllantirishga, davlat xizmatiga ishga kirishga bo'lgan talablarni, uni o'tashni va yakunlashni tartibga soluvchi "Davlat xizmati to'g'risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqish.

3) Davlat va xususiy tadbirkorlik subyektlari o'rtasida o'zaro manfaat keltiruvchi hamkorlikning qonuniy asoslarini nazarda tutuvchi "Davlat va xususiy sheriklik to'g'risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqish.

4) Quyidagilarni nazarda tutuvchi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqish:

- davlat xaridlarini raqobat asosida amalga oshirishning shaffof va ochiq mexanizmi, ushbu sohada korrupsiyaning oldini olish choralari;

- davlat xaridlariga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini keng jalb qilish;

- davlat xaridlari ishtirokchilari uchun shikoyat qilishning mustaqil va samarali tizimi hamda tartibini yaratish;

- elektron xaridlarni yanada rivojlantirish va boshqalar.

5) Quyidagilarni nazarda tutuvchi "Huquqiy axborotni tarqatish va

undan foydalanishni ta'minlash to'g'risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqish.

- normativ-huquqiy hujjatlarni tarqatishning ta'sirchan tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini, shuningdek, konsepsiyalarni va ularga tushuntirish xatlarini chop etishni, qabul qilingan qonun va qonunosti hujjatlariga sharhlar tayyorlash va chop etish amaliyotini keng joriy etish;

- aholiga normativ-huquqiy hujjatlar mazmuni va maqsadlarini tushuntirish va ulardan keng xabardor qilish bo'yicha choralar;

- Oliy Majlis palatalarining, Vazirlar Mahkamasining, boshqa davlat organlarining aholi va ijrochilarga qonun va qonunosti hujjatlarini yetkazish bo'yicha aniq vakolatlarini belgilash.

6) Davlat organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi faoliyati ustidan jamoat nazoratini amalga oshirish bo'yicha munosabatlarini tartibga soluvchi "Jamoat nazorati to'g'risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqish.

7) Jabrlanuvchilar, guvohlar va jinoyat protsessi boshqa ishtirokchilarining, shu jumladan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida ma'lumot beruvchi shaxslarning jismoniy va ijtimoiy himoyasining davlat tomonidan kafolatlarini nazarda tutuvchi "Jabrlanuvchilar, guvohlar va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqish.

8) Quyidagilarni nazarda tutuvchi "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqish:

- davlat organlarining boshqaruv faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish;

- asosli va tezkor qarorlarni qabul qilish yo'li bilan davlat xizmatlarini ko'rsatishning samarasini ta'minlash;

- jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini amalga oshirishning zamonaviy tartib-taomillarini joriy etish.

9) Mamlakatda huquqiy ta'lim va ma'rifatni tubdan yaxshilashga, huquqiy bilimlarni jamiyatda targ'ib etishga qaratilgan Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturining loyihasini tayyorlash.

Prezident Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2016-yilning oxiridan boshlab davlat organlarining korrupsiyaga qarshi kurashining tizimli faoliyati yo'lga qo'yilishi, uning tashabbusi bilan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun qabul qilinishi, prokuratura va sud-

huquq tizimini isloh etilishi, Prezident va Xalq qabulxonalariga kelib tushayotgan murojaatlarni tahlil etib borish qoidalarining o'rnatilishi, mansabdorlar xizmatini oxirgi natijalariga qarab baholanishi qoidalarini o'rnatilishi kabi chora-tadbirlar o'z natijasini bera boshladi. Yuqori davlat organlari bilan chatishib ketgan bir necha uyushgan jinoiy ishlar fosh etildi.

2017-yilning birinchi yarmida 1566 ta mansabdor shaxsga nisbatan 1130 ta jinoiy ish qo'zg'atilib, ulardan 954 tasi (84,4 foizi) sudga oshirilgan. Lekin bu davrda 2016-yilning birinchi yarmiga nisbatan sudga oshirilgan jinoiy ishlar 22 foizga kamaydi. Korrupsiyaviy faoliyat tufayli keltirilgan zararning 77 foizi undirildi. 374 ta guruhlar tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy jinoyatlar ochib tashlandi, 1330 ta korrupsiyaviy jinoyatlar aniqlandi.

Mamlakatda har payshanba kuni "Huquqbuzarliklarni oldini olish kuni" deb e'lon qilinib, bu kunlari mehnat jamoalari va yashash joylarida huquqni himoya qilish organlari vakillari aholini ro'y berayotgan jinoyatlardan ogoh etib borish, aholini huquqiy madaniyatini oshirish tadbirlarini o'tkazish an'anaga aylandi. Shuningdek, payshanba kunlari ichki ishlar tayanch punktlarida "ochiq eshiklar kuni" o'tkazish, fuqarolarni qabul qilish ishlari olib borish qoidasi o'rnatildi.

2018-yil 19-fevralda O'zbekiston ichki ishlar vazirining bergan ma'lumotlariga binoan 2017-yilda 1426 ta korrupsiyaviy jinoyatlar fosh etilib, undan 171 tasi poraxo'rlik, 109 tasi tovlamachilik, 517 tasi firibgarlik, 125 tasi noqonuniy valyuta aylanmasini amalga oshirish, 19 tasi soxta pullarni ishlab chiqish, 190 tasi davlat mulkini o'g'irlash va unga kamomad keltirish kabi jinoyat turlarini tashkil etdi. 2017-yilda jinoiy harakat qilganligi uchun 230 ta ichki ishlar organlari xodimlari ustidan jinoiy ish qo'zg'atildi, 8000 ta xodim intizomiy javobgarlikka tortildi. Lekin 2017-yilda 73.692 ta jinoiy ishlar fosh etilib, bu 2016-yilga nisbatan 15,7 foizga kamaygani ham qayd etildi.

Shuningdek, prokuratura, davlat milliy xavfsizligi, soliq idoralari kabi mamlakatdagi barcha davlat organlari faoliyati tahlil etilganida 2017-yilga kelib korrupsiyaviy jinoyatlarning ancha kamayganligi sezildi. Bu haqda Prezident Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 22-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida alohida e'tibor qaratilib, mamlakatda korrupsiyaning 2016-yilga nisbatan 33%ga kamayganligini ko'rsatib o'tdi.

2017-yil 29-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika

idoralararo komissiyasining navbatdagi yig'ilishida davlat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 2017–2018-yillarga mo'ljallangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Davlat dasturida belgilangan chora-tadbirlarining ijrosi, yo'l qo'yilgan kamchiliklar muhokama qilindi. Shuningdek, yiG'ilishda Komissiya tomonidan o'tgan davrda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ko'plab tashkiliy-huquqiy ishlar va amaliy tadbirlar bajarilganligi ta'kidlab o'tildi. Xususan, mamlakatda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilayotganligi ta'kidlandi.

Shu bilan birga, komissiya davlat dasturi ijrosi tahlili ayrim vazirlik va idoralar tomonidan belgilangan tadbirlar ijrosiga yetarli mas'uliyat bilan yondashilmay, unda nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirishda faol ishtirok etilmaganligi, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish masalasiga doir o'quv-metodik va ilmiy adabiyotlar ishlab chiqilmaganligi, bu sohada tizimli ravishda o'quv mashg'ulotlari tashkil etilmaganligi qayd etildi.

Komissiya korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni oldini olish, aniqlash, chek qo'yish, shuningdek korrupsiya holatlarini keltirib chiqarayotgan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish borasidagi chora-tadbirlarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan samarali va o'z vaqtida amalga oshirilishiga qaratilgan aniq vazifalarni ko'rsatib o'tdi.

Xulosa qilib aytganda, o'tgan salkam ikki yil ichida O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashning zamonaviy huquqiy asoslari ishlab chiqildi, ular amaliyotda qo'llana boshlandi. Muhimi, aholining Prezident va Xalq qabulxonalari vositasida yuz berayotgan korrupsiyaviy jinoyatlarni davlat hokimiyati organlariga to'g'ridan to'g'ri yetkazish imkoniyati yaratildi. Korrupsiyaga barham berish uchun maxsus davlat hokimiyati organlari tuzilmalari shakllandi, ularning xalq oldidagi mas'ulligi oshirildi. Qisqa davr ichida korrupsiyaviy jinoyatlar ancha kamaydi. Mamlakatda korrupsiyaga qarshi kurashning fuqarolik jamiyatiga xos bo'lgan shakllari va targ'ibotlari shakllantirildi, bu sohadagi muhim vazifa sifatida aholi huquqiy madaniyatini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Test savollari

1. "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni qachon qabul qilingan?

A) 2017-yil 3-yanvar

B) 2017-yil 2-fevral

C) 2017-yil 8-sentabr

D) 2017-yil 7-fevral

2. "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonunida korrupsiya tushunchasiga qanday ta'rif berilgan?

A) "**Korrupsiya"** deganda shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini qonunga xilof ravishda taqdim etish tushuniladi

B) "**Korrupsiya"** deganda o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi tushuniladi

C) "**Korrupsiya"** deganda shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish tushuniladi

D) Barcha javoblar to'g'ri

3. "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'G'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonunida korrupsiyaga oid huquqbuzarlik deganda nima tushuniladi?

A) Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik deganda korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan qilmish tushuniladi

B) Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik deganda sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish tushuniladi

C) Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik deganda mansab vakolatlarini bajarishda qonunan ta'qiqlangan qilmishlarning mavjud bo'lishi

D) Barcha javoblar to'g'ri

4. Jahon hamjamiyati va xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashuvchi tashkilotlar tomonidan qaysi kun "Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurash kuni" deb e'lon qilingan?

A) 9-dekabr

B) 2-mart

C) 9-may

D) 1-iyun

5. Subyektlarning maqomiga ko'ra korrupsiyani qanday turlarga ajratish mumkin?

A) Hokimiyat organlaridagi korrupsiya

B) Xususiy sektordagi korrupsiya

C) Siyosatdagi korrupsiya yoki siyosiy korrupsiya

D) Barcha javoblar to'g'ri

6. Darajasiga ko‘ra korrupsiyani qanday turlarga ajratish mumkin?

A) Quyi darajadagi korrupsiya

B) Yuqori darajadagi korrupsiya

C) Vertikal korrupsiya

D) Barcha javoblar to‘g‘ri

7. Ijtimoiy xavflilik darajasiga ko‘ra, korrupsiyani qanday turlarga ajratamiz?

A) korrupsiya-qilmish

B) korrupsiya-jinoyat

C) korrupsiya-manfaat

D) A va B javoblar to‘g‘ri

8. Korrupsiyaning qanday asosiy shakllarini bir-biridan ajratish taklif qilingan?

A) Siyosiy. Mansabdor shaxs yuzaga kelgan qarindosh-urug‘chilik munosabatlari tufayli qonunga zid harakat qiladi

B) Jinoyat faoliyat bilan boG‘liq bo‘lib, mansabdor shaxslarni sotib olishga asoslangan. Ular esa mukofot puli olish evaziga g‘ayriqonuniy xizmatlar ko‘rsatadi

C) Taraflardan biri o‘ziga eng qulay tartib vujudga keltirish uchun jinoyatga mansabdor shaxslarning tegishli toifalarini izchillik bilan jalb etishni nazarda tutadi. Korrupsiyaning bu shakli uyushgan jinoyatchilik bilan mustahkam bog‘langan bo‘lib, mansabdor shaxslarga nisbatan sotib olish, provakatsiya qilish va tahdid solishni anglatadi

D) Barcha javoblar to‘g‘ri

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qachon qabul qilingan?

A) 2-fevral 2017-yil

B) 7-fevral 2017-yil

C) 3-yanvar 2017-yil

D) 8-sentabr 2017-yil

10. “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining nechanchi moddalari bevosita ta’lim tizimi jarayonida qo‘llashga qaratilgan?

A) 12-, 15-, 18- va 20-moddalari

B) 12-, 16-, 18- va 20-moddalari

C) 12-, 16-, 19- va 20-moddalari

D) 12-, 16-, 18- va 21-moddalari

9-mavzu. O‘ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Reja:

1. O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik tizimining shakllanishi va rivojlanishi.

2. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari shakllanishi va rivojlanishining huquqiy asoslari.

3. O‘zbekistonda NNTning fuqarolik jamiyati instituti sifatida rivojlanishi.

4. "Harakatlar strategiyasi" – fuqarolik jamiyati sari yo‘l.

Tayanch tushunchalar: siyosiy partiya, ko‘ppartiyaviylik tizimi, fuqarolik jamiyati, fuqarolik jamiyati institutlari, nomarkazlashtirish, o‘zini o‘zi boshqarish, nodavlat notijorat tashkilotlar, harakatlar, uchinchi sektor, yashillar, manfaatlar guruhlari, jamg‘armalar, huquqiy davlat, davlat hokimiyati, institutlar, fuqarolarning huquq va erkinligi, inson manfaatlari, artikulyatsiya, integratsiya, inson huquqlari, ijtimoiy tabaqa (qatlam), erkinlashtirish.

1. O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik tizimining shakllanishi va rivojlanishi

O‘zbekistonda demokratik prinsiplar va fuqarolik jamiyati talablari asosida siyosiy partiyalarni tuzish faqat mustaqillik davrida amalga oshirildi. Mamlakatda rivojlangan mamlakatlar tajribasi va milliy an’analardan kelib chiqib siyosiy partiyalarning jamiyat instituti sifatidagi huquqiy maqomi shakllandi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 60-moddasida siyosiy partiyalarning huquqiy maqomi quyidagicha belgilangan: "Siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarning siyosiy irodasini ifodalaydilar va o‘zlarining demokratik yo‘l bilan saylab qo‘yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar. Siyosiy partiyalar o‘z faoliyatlarini moliyaviy ta’minlanish manbalari haqida Oliy Majlisga yoki u vakil qilgan organga belgilangan tartibda oshkora hisobotlar berib turadilar".

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 56-moddasiga binoan siyosiy partiyalar "jamoat birlashmalari" sifatida e’tirof etiladi. Mazkur Konstitutsiyaning 58-moddasida esa "davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamoat birlashmalari faoliyatiga aralashishiga, shuningdek, jamoat birlashmalarining davlat organlari va mansabdor shaxslar

faoliyatiga aralashishiga yo‘l qo‘yilmaydi” deyiladi. Bu bilan, birinchidan, siyosiy partiyalar jamoat birlashmalari kabi jamiyatning instituti ekanligi e’tirof etiladi, ikkinchidan, siyosiy partiyalarning davlat hokimiyati organlari faoliyatiga aralashishga yo‘l qo‘yilmasligi konstitutsiyaviy me’yorlar bilan ta’qiqlanib, uning davlat hokimiyatiga daxldor emasligi ta’kidlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 34-moddasida jamiyatdagi muxolifiy huquqni himoya qilish maqsadlarida quyidagi qoida mustahkamlangan: “Siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek, hokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emas”.

1991-yil 14-fevralda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi Qonun mamlakatda ko‘ppartiyaviylik tizimi shakllanishining huquqiy jihatlarini ta’minlab berishi natijasida mamlakatda yangi siyosiy partiyalarning shakllanish jarayonlari boshlandi. O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik tizimini qaror topishida 1996-yil 25-dekabrida Oliy Majlis qabul qilgan “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi Qonun muhim o‘rin tutdi. Qonun 17 ta moddadan iborat bo‘lib, unda siyosiy partiyalarning demokratik qoidalar asosida faoliyat yuritishlari uchun rivojlangan mamlakatlar mezonlari talablariga xos bo‘lgan huquqiy asoslar yaratildi. Qonunning 5-moddasiga binoan, “davlat siyosiy partiyalar huquqlari va qonuniy manfaatlari muhofaza etilishini kafolatlaydi, ustavda belgilangan o‘z maqsadlari va vazifalarini bajarishlari uchun ularga teng huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi”. Shuningdek, siyosiy hayotda birinchi marta qonunning 12-moddasida siyosiy partiyalarning huquqlari aniq va ravshan ko‘rsatib berildi: “Siyosiy partiyalar quyidagi huquqlarga ega:

- o‘z faoliyati to‘g‘risidagi axborotni erkin tarqatish, o‘z g‘oyalari, maqsadlari va qarorlarini targ‘ib qilish;
- saylab qo‘yiladigan davlat organlaridagi o‘z vakillari orqali tegishli qarorlarni tayyorlashda ishtirok etish;
- qonunda belgilab qo‘yilgan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, davlat hokimiyati organlari saylovlarida ishtirok etish;
- partiya faoliyati bilan bog‘liq yig‘ilishlar, konferensiyalar va boshqa tadbirlarni o‘tkazish;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ommaviy axborot vositalari ta’sis etish va boshqa ommaviy axborot vositalaridan foydalanish;

- O‘zbekiston Respublikasining siyosiy partiyalari bilan ittifoq (blok) tuzish, ular bilan va boshqa jamoat birlashmalari bilan shartnoma munosabatlari o‘rnatish”.

Fuqarolik jamiyatining muhim belgilaridan biri – bu siyosiy institutlarda va siyosiy jarayonlarda turli xil fikrlarning erkin ifoda qilinishiga huquqiy asoslar yaratib berish, shuningdek, huquqiy davlat fuqarolari – plyuralistik fikrlashga qobil bo‘lgan shaxslarni shakllantirishdir. Shu maqsadlarda qonunning 13-moddasida Oliy Majlisdagi partiya fraksiyalarining erkin faoliyat yuritishlari, ularning hozirgi davr ilg‘or mamlakatlaridagi me’yorlar talablariga muvofiq jamiyatning siyosiy rivojlanishiga hissa qo‘sha olish darajasiga ko‘tarilishlarining huquqiy jihatlardan ta’minlashga asos solindi: “Siyosiy partiyalarning O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisidagi fraksiyalari siyosiy partiyalar tomonidan ko‘rsatilgan deputatlarning ta’sis yig‘ilishlarida o‘z partiyalarining siyosatini uyushqoqlik bilan o‘tkazish uchun tuziladi”.

Siyosiy partiyalarning jamiyatdagi va siyosiy munosabatlardagi funksiyalarini to‘la bajara olish qobiliyatini shakllantirish uchun ularning faoliyatlarini moliyaviy jihatlardan ham kafolatlash tajribasi O‘zbekistonga ham kirib keldi. 2004-yil 30-aprelda ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning XIV sessiyasi “Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to‘g‘risida”gi Qonunni qabul qildi. Xususan, siyosiy partiyalarga moliyaviy yordam berish partiyalarning siyosiy raqobatdagi imkoniyatlar notengligini kamaytiradi, ularning alohida jismoniy yoki huquqiy shaxslar guruhlariga nisbatan qaramligini yo‘qotadi. Natijada siyosiy partiyalar korrupsiyaga qarshi kurashning ta’sirchan vositasiga aylanadi. Qonunning 7-moddasiga muvofiq, “Siyosiy partiya, agar u O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylov yakunlari bo‘yicha “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy qonuniga muvofiq Qonunchilik palatasida siyosiy partiya fraksiyasini tuzish uchun zarur miqdorda deputatlik o‘rinlarini olgan bo‘lsa, o‘zining ustavda nazarda tutilgan faoliyatini moliyalashtirish uchun davlat mablag‘larini olish huquqiga ega bo‘ladi”. Shuningdek, qonunda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi davlat mablag‘larini “olish huquqiga ega bo‘lgan siyosiy partiyalar o‘rtasida ularning Qonunchilik palatasida olgan deputatlik o‘rinlari miqdoriga mutanosib ravishda taqsimlaydi”. Shu bilan birga, mazkur qonunga binoan siyosiy partiyalarning Qonunchilik palatasi va davlat hokimiyatining boshqa

vakillik organlariga saylovda ishtirok etishi, shuningdek, Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiya fraksiyalarining faoliyati ham davlat tomonidan moliyalashtirilishi belgilab qo'yildi.

2007-yilning 1-yanvaridan kuchga kirgan "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi Konstitustiyaviy Qonunning qabul qilinishi mamlakatda fuqarolik jamiyati institutlarini yanada rivojlantirish uchun huquqiy asoslarni mustahkamlab, siyosiy partiyalar demokratik tamoyillar asosida faoliyat yuritishlari uchun imkoniyatlar yaratadi.

"Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" g'oyalarini amalga oshirish mamlakatda fuqarolik jamiyati qurishning yangi bosqichi boshlanganligini anglatadi. Konsepsiyada siyosiy partiyalar rolini oshirishga doir qonunchilik asoslarini demokratlashtirish va takomillashtirishga doir vaifalarni bajarish natijasida davlat boshqaruvini xalq irodasi asosida amalga oshirishga imkoniyatlar yaratiladi.

Konsepsiyasida siyosiy partiyalarga hukumatni shakllantirish sohasida muhim davlat ahamiyatiga ega bo'lgan qaror qabul qilish vakolati berish taklifi ilgari surildi: "O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylovlarda eng ko'p deputatlik o'rnini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi deputatlik o'rinlarini qo'lga kiritgan bir necha siyosiy partiyalar tomonidan taklif etiladi".

Ko'rinib turibdiki, siyosiy partiyalar saylovchilar (xalq) irodasi ifodachisi sifatida namoyon bo'lib, hukumatni shakllantirishda eng asosiy siyosiy institut sifatidagi maqomga ega bo'ldi. Albatta, bu holat fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatning muhim belgilaridan biri bo'lib, partiyalar vositasida shakllangan hukumat xalq irodasi asosida shakllangani uchun ham u xalqchil siyosat olib borishga intiladi.

Milliy mustaqillik davrida tashkil topgan siyosiy partiyalardan biri, bu - **O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidir**. Partiyaga 1991-yilning 1-noyabrida bo'lib o'tgan ta'sis qurultoyida asos solindi. O'zbekiston XDP o'zini asosan ijtimoiy adolat va ijtimoiy himoyaga muhtoj kishilar manfaatlarini himoya qilishi, mamlakat siyosiy kuchlarining so'l qanoti sifatida faoliyat yuritishini e'lon qildi.

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasining asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga va

himoyaga ehtiyojmand fuqarolari manfaatlarini ifodalaydi va himoya qiladi. Bular – iqtisodiyotda band bo'lmagan mehnatga layoqatli aholi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga ehtiyoj sezadigan va ishga joylashishda qiyinchiliklarga duch kelayotgan odamlar, doimiy ish joyi va muqim maoshga ega bo'lmagan aholi qatlami, boshqa ijtimoiy sohalarning xodimlari va mutaxassislari, kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalar, pensionerlar hamda imkoniyatlari cheklangan kishilar. O'zbekiston XDP davlat tomonidan ushbu toifa kishilarining manfaatlarini ko'zlab izchil siyosat olib borilishiga harakat qiladi, ularni o'zining elektorati deb hisoblaydi va saylov kampaniyalarida ularning qo'llab-quvvatlashiga umid boG'laydi;

- katta hayotga kirib kelayotgan yoshlarning kasb-hunar tanlashi, ta'lim olishi va o'qishni bitirganidan keyin ish o'rniga ega bo'lishi uchun adolatli, barcha uchun teng hamda ijtimoiy ochiq shart-sharoitlar yaratish; pensionerlar, mehnatga layoqatsiz nogironlar, ota-ona qaramog'idan mahrum bolalarning hayotiy ehtiyojlarini to'laqonli qondirishga kafolat beradigan pensiya ta'minoti va ijtimoiy nafaqalar tizimini shakllantirish;

- xalq deputatlari mahalliy Kengashlaridagi partiya guruhlarining hududiy ish o'rinlari yaratish hamda o'rta maxsus va oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlash dasturlariga moslashtirilgan xizmat va tovarlar ishlab chiqarishni rivojlantirishga doir o'rta muddatli investitsiya dasturlarini ishlab chiqish hamda tasdiqlash borasidagi tashabbuslarini yanada rivojlantirish; shu o'rinda mahalliy xomashyodan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va mavjud resurs hamda talab asosida xizmatlar ko'rsatishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shuningdek, partiya butun jahon demokratik harakati so'l qanotida qabul qilingan TENGLIK, OZODLIK, ADOLAT, BIRDAMLIK, DEMOKRATIYA VA INSON HUQUQLARI, TINCHLIK prinsiplari hamda xalqimizga xos bo'lgan milliy va umuminsoniy gumanistik hamda demokratik qadriyatlarga amal qilishini asosiy maqsadlardan biri sifatida qabul qilgan. Partiyaning ijtimoiy ideali – O'zbekistonda sotsial demokratik davlatni bunyod etishdir. "XXI asrda kuchli O'zbekiston!" g'oyasi partiyaning bu maqsadga erishishdagi asosiy g'oyasi hisoblanadi.

Hozirgi davrda O'zbekiston XDP oxirgi saylovlarga o'z safida 424.5 mingdan ziyod a'zolari bilan qatnashdi. Partiya a'zolarini bevosita birlashtiradigan 9955 ta boshlang'ich tashkilot faoliyat ko'rsatadi. Partiyaning Qonunchilik palatasida 21 ta deputatdan iborat fraksiyasi faoliyat olib boradi.

Partiya o'zining ommaviy axborot vositalariga ega. Uning markaziy nashrlari: o'zbek tilida chop etiladigan "O'zbekiston ovozi" gazetasi, rus tilida chop etiladigan "Golos Uzbekistana" haftaligi.

O'zbekiston "Vatan taraqqiyoti" partiyasi (VTP) 1992-yilning 24-mayida tashkil topdi. VTPning dasturida belgilanganidek, partiya jamiyatning siyosiy tizimidagi faoliyatini parlament partiyasi sifatida tashkil etadi. Partiya o'z siyosatini davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga saylangan vakillari orqali o'tkazadi. Buning uchun barcha darajadagi vakolatli hokimiyat organlari saylovlga o'z nomzodlarini tavsiya etadi va ularning saylovchilar tomonidan qo'llab-quvvatlanishi uchun kurashadi.

VTP tarkibida 2000-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar, 12 viloyat, 220 dan ziyod shahar va tuman kengashlari faoliyat ko'rsatdilar. Partiya a'zolarining soni qariyib 35 mingga yetdi. Partiyaning markaziy matbuot nashri – "Vatan" ijtimoiy-siyosiy haftalik gazetasi 2000-yil aprelga qadar faoliyat ko'rsatdi.

Mamlakatda O'zbekiston Xalq demokratik va "Vatan taraqqiyoti" partiyalarining tashkil topishi bilan bir partiyaviylik tizimiga butunlay barham berildi. Shuningdek, jamiyatdagi ijtimoiy qatlamlarning qonun chiqaruvchi hokimiyatdagi manfaatlarini ifoda etadigan siyosiy oqimlar va tashkilotlar shakllandi. O'zbekiston Konstitutsiyasidagi demokratik tamoyillar, shuningdek, amalga oshirilgan huquqiy va siyosiy islohotlar mamlakatda yangi partiyalarning tuzilishiga keng imkoniyatlar yaratib berdi. 2000-yilning aprel oyida "Vatan taraqqiyoti" partiyasi "Fidokorlar" Milliy Demokratik partiyasi bilan birlashdi.

O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi (SDP) 1995-yil 18-fevralda tashkil topdi. Partiya milliy xususiyatlarni inobatga olgan holda xalqaro sotsial-demokratik harakatning asosiy negizi bo'lgan "Adolat", "Erkinlik", "Birdamlik" shiorlarini qo'llab-quvvatlashini va o'z faoliyatini o'zini o'zi boshqarish, oshkoralik va shaffoflik, qonuniylik, ko'ngillilik, partiya hayotida faol qatnashish, partiya saflariga kirish va undan chiqish erkinligi, partiya a'zolarining teng huquqliligi asosida olib borishini e'lon qildi.

O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasining asosiy maqsadi:

- demokratik, huquqiy davlatni, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan kuchli, adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etishda hamda O'zbekiston hududida yashayotgan barcha millat va elatlarning umumiy manfaatlariga mos keladigan, fuqarolarning qonun

oldida tengligi, birdamligi, konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari ta'minlangan ma'naviy jipslashgan jamiyatni shakllantirishda faol ishtirok etish.

Partiyaning vazifalari:

- O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlash borasida demokratik jarayonlarni jadallashtirish;

- O'zbekistonda huquqiy-demokratik davlat barpo etish borasida Vatanga sadoqatli xizmat qiladigan insonlarni tarbiyalash;

- O'zbekiston fuqarolariga o'z qonuniy huquqlari, erk va burchlarini anglashga ko'maklashish, ularning siyosiy ongi, madaniyatining rivoji uchun kurashish;

- o'zbek xalqining milliy an'analariga tayangan holda milliy qadriyatlarni tiklash, boy madaniy merosimizni o'rganish asosida yosh avlodni tarbiyalash;

- millatlararo munosabatlarni mustahkamlash, do'stlik va hamjihatlikni rivojlantirish, har qanday millatchilik, diniy ekstremizm, terrorizm illatlariga qarshi kurash olib borish, dinlararo bag'rikenglikni, tinchlik va barqarorlikni, millatlararo totuvlikni targ'ib qilish;

- davlat ijroiya tizimini takomillashtirish, davlat hokimiyati organlarida iymonli, pok, o'z Vatani, xalqini sevadigan va el-yurtiga sadoqat bilan xizmat qiladigan rahbar va mutaxassis kadrlarning ishlashiga erishish;

- Respublika fuqarolarining turmush darajasini ko'tarish, ijtimoiy jihatdan muhtoj aholining muhofazasini ta'minlash borasida takliflar ishlab chiqish va uni amalga oshirish;

- O'zbekistonning jahon miqyosida o'z o'rnini egallashi, dunyodagi ilG'or davlatlar bilan xalqaro huquq talablari asosida o'zaro manfaatli aloqalarini rivojlantirish uchun faoliyat ko'rsatish, milliy manfaatlariga mos keladigan tashqi siyosatni qo'llab-quvvatlash;

- Partiyadan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatligiga, mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining saylanadigan lavozimlariga nomzodlar ko'rsatish, qayd etilgan saylovlarda ishtirok etish, shuningdek, saylangan organlarda faoliyat ko'rsatish;

- malakali mutaxassislar, byudjet sohalari xodimlari, pedagoglar, shifokorlar, muhandis-texnik va ilm-fan vakillari, xizmat ko'rsatish sohalari mehnatkashlari manfaatlarini himoya qilish.

"Adolat" ijtimoiy-siyosiy gazetasi O'zbekiston "Adolat" sotsial-

demokratik partiyasining rasmiy nashri hisoblanadi, gazeta 1995-yil 22-fevralda tashkil etilgan.

O'zbekiston "Adolat" SDPning Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar, viloyatlarda, shuningdek, barcha tuman va shaharlarda partiyaning mahalliy kengashlari faoliyat olib bormoqda. Partiya o'z saflariga 157222 ta (2016-yil ma'lumoti) a'zolarni birlashtirgan. 4033 ta boshlang'ich partiya tashkilotlari mavjud. Partiya safida 78670 ta ayollar, 68145 ta 30 yoshgacha bo'lgan a'zolar faoliyat yuritadi. Partiyaning markaziy matbuot nashri – "Adolat" ijtimoiy-siyosiy gazetasidir. Partiya oxirgi saylov – 2014-yil 21-dekabrdagi saylovlarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasida 20 ta, mahalliy vakillik organlari kengashlarida 834 ta deputatlik o'rnini egalladi. To'rt marta Prezidenlikka saylovlarda o'z nomzodi bilan ishtirok etdi.

O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi (MTDP) 1995-yil 3-iyunda tashkil topdi. O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasining asosiy maqsad-vazifasi milliy an'analarni va qadriyatlarni saqlashdan iborat. Partiya huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish, fan-texnika taraqqiyotini va O'zbekistonning globallashib borayotgan jahonda munosib o'rin egallashini ta'minlashni yoqlaydi. U biz faxrlanadigan milliy an'analar va qadriyatlarimizni saqlab qolish tarafdorlari bo'lgan insonlar manfaatlarini himoya qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Bunday shaxslar – partiyaning asosiy ijtimoiy qatlamidir. Partiya mustaqillik yillarida boshlangan milliy qadriyatlarni tiklash, o'zlikni anglash, milliy g'oyalarni shakllantirish va milliy mustaqillik mafkurasini mustahkamlash, xalqning ma'naviy hayotida diniy an'analarni tiklash kabi xayrli ishlarni izchil, bosqichma-bosqich va tizimli ravishda davom ettirish tarafdoridir. Ushbu ishni sifat jihatdan yangi darajaga ko'tarish, uning samaradorligini oshirish zarur.

"Milliy tiklanish" demokratik partiyasining yangilangan asosiy siyosiy shiori: "Maqsadimiz – O'zbekiston fuqarosi ongida o'z mamlakatining tarixiy o'tmishi, bugungi kuni va kelajagi uchun faxrlanish tuyg'usini tarbiyalash va mustahkamlash!". Partiyaning asosiy maqsadi:

- Davlatning yangi xalqaro sharoitlarda va geosiyosiy voqelikda milliy manfaatlarni ro'yobga chiqarish va himoya qilish yuzasidan amaliy qadamlarining taktik va strategik maqsadlari va vazifalari zamirida milliy tiklanish va rivojlanishning umumiy mafkurasi va keng qamrovli dasturi mavjudligi – bizning muqaddas orzuyimiz va

strategiyamiz bo'lgan yurt tinchligi, Vatan taraqqiyoti, xalq farovonligi – umummilliy g'oyasi atrofida jamiyatimizni birlashtirishga asoslangan yo'lini O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi (O'zMTDP) qo'llab-quvvatlaydi.

Partiyaning oliy rahbar organi Partiya Qurultoyi bo'lib, u kamida besh yilda bir marta chaqiriladi. Partiyaning matbuot nashri – "Milliy tiklanish" ijtimoiy-siyosiy gazetasi.

Shuningdek, partiya amal qiladigan asosiy siyosiy prinsiplar sifatida quyidagilar e'lon qilindi: MA'NAVIYAT, VATANPARVARLIK, UMUMMILLIY BIRDAMLIK, XALQ HOKIMIYATI, ADOLATLILIK va BAG'RIKENGLIK.

Partiya tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat, shahar va tuman kengashlari 5578 ta boshlang'ich tashkilot va 190000 partiya a'zolarini birlashtirib turadi. Partiyaning matbuot nashri – "Milliy tiklanish" gazetasi hisoblanadi.

"Fidokorlar" Milliy Demokratik partiyasi (FMDP) 1998-yil 28-dekabrdagi ta'sis qurultoyida tashkil topib, 1999-yilning 3-yanvarida Adliya vazirligi ro'yxatidan o'tdi.

Partiyaning asosiy maqsadi sifatida quyidagilar e'lon qilindi: bozor iqtisodiyotiga asoslangan, mulkchilikning turli shakllari amal qiladigan jamiyatga o'tish; Partiyaning ijtimoiy ideali – bu insonning o'z-o'zini kamol toptirish, shaxs manfaatlari uning huquq va erkinliklarini to'la darajada ro'yobga chiqarish uchun siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy shart-sharoitlarni kafolatlovchi fuqarolik jamiyatini barpo etishdir.

Partiyaning vujudga kelishi va faoliyat ko'rsatishidan maqsad mamlakatda yangi shakllanayotgan kichik va o'rta mulkdorlar ijtimoiy tabaqasining siyosiy manfaatlarini ifoda etishdir. Shuningdek, partiya o'z faoliyatida ko'proq yoshlarga tayanib ish olib borishi ta'kidlandi.

Partiyaning Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri, barcha viloyatlar, shaharlar va tumanlarda mahalliy organlari tuzildi. Partiya a'zolarining soni 60 mingga yetdi. Partiyaning markaziy organi sifatida "Fidokor" gazetasi ta'sis etildi.

2008-yil iyun oyida **"Fidokorlar" Milliy Demokratik partiyasi** bilan **O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasining** bir partiyaga birlashishiga doir tayyorgarlik ishlari amalga oshirildi. Mazkur ikki partiyaning qurultoylari o'zlarining saylovlar davrida va parlament faoliyatida o'z ta'sirlarini oshirish, elektoratning ko'proq qismini jalb etish maqsadlarida yagona partiyaga birlashdi. Tuzilgan yangi partiyaning nomi **O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik**

partiyasi deb atashga qaror qilindi. Partiyaning markaziy, mintaqaviy va boshlangich tashkilotlari har ikki partiya vakillaridan iborat holda qaytadan tashkil etildi. Partiya dasturi endi jamiyatdagi ko'proq ijtimoiy qatlamlar va guruhlar manfaatlarini ifoda eta boshladi.

O'zbekistonda qisqa davr ichida siyosiy partiyalarning siyosiy tizim subyektlari sifatida faoliyat ko'rsatishlari, ularning siyosiy tizimga ta'sir eta olish qobiliyatlarining shakllanishi natijasida demokratik tamoyillardagi ko'ppartiyaviylik tizimi shakllandi. Siyosiy partiyalar jamiyatning instituti sifatida har bir partiya o'zi tayangan ijtimoiy qatlamlar va guruhlar manfaatlarini birlashtirish va ifodalash, shuningdek, fuqarolar siyosiy madaniyatini oshirish, ularning ijtimoiy-siyosiy faolliklarini yuksaltirish sohasida katta ishlarni amalga oshira boshladilar.

Mamlakatda parlament islohotlarining boshlanishi, ikki palatali parlamentni shakllantirish uchun huquqiy asoslarning ishlab chiqilishi munosabati bilan siyosiy partiyalarning jamiyatdagi va davlat qurilishidagi o'rni yanada yuksaldi. 2004-yil dekabrdagi parlament va mahalliy vakillik organlariga bo'lgan saylovlarda parlamentning quyi palatasi – Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlar ko'rsatish huquqining siyosiy partiyalarga berilishi, mahalliy vakillik organlaridan parlament deputatligiga nomzod ko'rsatish huquqining bekor qilinishi munosabati bilan partiyalarning qonun chiqaruvchi hokimiyatni shakllantirish sohasidagi yangi davri boshlandi.

2003-yil 15-noyabrda O'zbekiston siyosiy tizimida yana bir siyosiy partiya – **Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi** (O'zLiDep) tashkil topdi. Partiyani tuzish tashabbuskorlari asosan mamlakatdagi o'rta qatlam – tadbirkorlar va ishbilarmonlarning ilg'or vakillari bo'lib, partiya o'rta ijtimoiy qatlam siyosiy manfaatlari va irodalarini ifoda etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. O'zLiDepning tashkil etish mamlakatda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish islohotlarining chuqurlashib borish jarayonlari tarixiy zaruriyat sifatida kun tartibiga qo'yildi.

O'zLiDePning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

Birinchi maqsad. Siyosiy kuch sifatida birlashgan holda tadbirkorlar, ishbilarmonlar va fermerlarning yanada kengroq faoliyat yuritishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratish, ularning istiqbolini ham nazariy, ham amaliy jihatdan asoslab berish, jamiyatning mazkur qatlami manfaatlarini himoyalash va ertangi kunini ta'minlash. Shu ijtimoiy toifa nomidan O'zbekistonnning siyosiy sahnasiga chiqish va o'zining munosib o'rnini

egallash.

Ikkinchi maqsad. Mamlakatning milliy manfaatlari va taraqqiyotining strategik istiqbollariga javob beradigan dasturni Konstitutsiya tamoyillariga suyanib, boshqa siyosiy partiya va harakatlar bilan hamkorlikda ishlab chiqish va amalga oshirish uchun partiyaning kuch va imkoniyatlarini safarbar etish. O'zbekiston tanlagan ochiq, bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik, huquqiy davlat qurish, fuqarolik jamiyati institutlarining rivojiga keng yo'l ochib berish va demokratik qadriyatlarni xalq, avvalo, yoshlar ongi va hayotiga singdirish.

Uchinchi maqsad. Davlatni boshqarish, jamiyatda shakllanayotgan qarashlarga ta'sir o'tkazish, siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda faol ishtirok etish, ijtimoiy muammolarni hal etishda ko'maklashish, O'zbekistonning xalqaro obro'sini oshirishda, yurt tinchligi va osoyishtaligini saqlashda, millatlararo va fuqarolararo ahillik va totuvlikni mustahkamlash ishida faol qatnashish.

Yoshlarni milliy g'oyaga hurmat, Vatanga muhabbat va sadoqat, o'z elim, o'z yurtim, jon O'zbekistonim deb g'ururlanib yashash ruhida tarbiyalashga munosib hissa qo'shish, har qanday sharoitda mustaqillik yo'lini, qadriyatlar, milliy va diniy an'analar va urf-odatlarni qadrlash barobarida, barcha millat va elatlar qadriyatlarini kamsitishga yo'l qo'ymaslik, bunday xurujlarga qarshi kurash olib borish.

To'rtinchi maqsad. Partiyaning siyosiy platformasi – liberal-demokratik g'oya va qadriyatlarni keng omma ongiga singdirish, bu borada har tomonlama chuqur o'ylangan tashviqot va targ'ibot ishlarini olib borish, o'z safini kengaytirish. Shu g'oyalarni hayotga tatbiq qilishda fidoyilik ko'rsatgan faollarni deputatlikka nomzod sifatida ko'rsatish va saylovchilar ishonchini qozongan o'z deputatlari zimmasiga davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlarida vakillik vazifasini yuklash hamda ularning faoliyatini boshqarish.

O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasini tashkil etishdan asosiy maqsad mamlakatdagi mulkdorlar ijtimoiy qatlamini siyosiy kuch sifatida integratsiya qilish, ularning har birida sochilib yotgan siyosiy manfaatlarini partiya timsolida bir joyga to'plash, ana shu paydo bo'lgan katta siyosiy kuch yordamida mulkdorlarning muammolarini bartaraf etishga har tomonlama ko'maklashishga qaratildi.

Partiyaning Qoraqalpog'iston Respublikasi, barcha viloyat, shahar va tumanlarda partiya kengashlari, 10228 boshlang'ich tashkilotlari faoliyat yuritmoqda. Partiya a'zolarining soni 250000 dan oshdi. Ularning ichida tadbirkorlar va ishbilarmonlar soni tobora ko'payib

bormoqda. Partiyaning bosh nashri – "XXI asr" gazetasi 2003-yil 15-noyabrdan boshlab chiqmoqda.

Shu tariqa, mamlakatda mustaqillik yillarida siyosiy partiyalarning davlat hokimiyati organlaridan mustaqil ravishda rivojlanishi va keng faoliyat ko'rsatishi uchun ijtimoiy-siyosiy kengliklar yaratildi. Shu bilan birga, Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi "hududiy, bir mandatli saylov okruglari bo'yicha ko'p partiyaviylik asosida besh yil muddatga saylanadigan bir yuz yigirma deputatlardan iborat" bo'lishi bu qoidani O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi Qonunda mustahkamlab qo'yilishi siyosiy partiyalarning mamlakat qonun chiqaruvchi hokimiyatini shakllantirishdagi rolini yanada oshirdi.

Mamlakatda milliy mustaqillikning ilk davrida davlat tomonidan amalga oshirilgan islohotlar natijasi o'laroq, fuqarolik jamiyatining muhim instituti bo'lgan siyosiy partiyalarning demokratik qadriyatlar asosida faoliyat yuritishlari uchun huquqiy asoslar yaratildi. Qisqa davr ichida mamlakatda to'rtta siyosiy partiya tashkil etilib, ko'ppartiyaviylik tizimi siyosiy hayotga kirib keldi. Parlament, Prezidentlik saylovlari va mahalliy vakillik organlariga saylovlar, asosan, ko'ppartiyaviylik asosida o'tkazilishi an'anaga aylandi.

2. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari shakllanishi va rivojlanishining huquqiy asoslari

Hozirgi davrda fuqarolik jamiyatini shakllantirish, huquqiy davlat qurish vazifalari nodavlat notijorat tashkilotlarni yanada rivojlantirishni taqozo etmoqda. Fuqarolik jamiyati sharoitlarida fuqarolarning turli-tuman o'zaro munosabatlari va hamkorligi, ularning ixtiyoriy ravishda jamiyat boshqaruvida ishtirok etishi jarayonlari asosan nodavlat notijorat tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi. Davlat bilan jamiyatning bir-birlaridan begonalashmasligi ham nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatining rivojlanishi bilan bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 34-moddasidagi "O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar" kabi fuqarolarning jamiyat institutlarida ishtirok etishini ta'minlab beradigan huquqiy asoslarning e'tirof etilishi respublikada jamiyat taraqqiyoti insoniyat hayotining bir necha asrlar mobaynidagi tajribalari va sinovlaridan muvaffaqiyatli

o‘tgan erkinlik jamiyati – fuqarolik jamiyati sari intilayotganligini anglatadi.

Hozirgi davrda O‘zbekistondagi nodavlat notijorat tashkilotlar va siyosiy partiyalar faoliyati 1991-yil 14-fevralda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi Qonuni (1997-yil aprelda qo‘shimcha va o‘zgartishlar kiritilgan), O‘zbekiston Respublikasining “Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni (1992-yil iyul), O‘zbekiston Respublikasining “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi Qonuni (1996-yil dekabr), O‘zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘G‘risida” yangi tahrirdagi Qonuni (1998-yil may), O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida” yangi tahrirdagi Qonuni (1999-yil aprel), O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonuni (1999-yil aprel) kabi qonunlar vositasida muvofiqlashadi.

O‘zbekistonda nodavlat tashkilotlarga doir qonunchilik rivojlangan mamlakatlar tajribasi, xalqaro huquqiy me’yorlar va milliy an’analar asosida shakllantirilgan bo‘lib, u o‘zida demokratik prinsiplar va qadriyatlarni mujassamlashtiradi. Mamlakatda davlat bosh islohotchi sifatida nodavlat tashkilotlarning qonunchilik asoslarini har tomonlama rivojlantirishga muhim ahamiyat bermoqda. Parlamentda nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirishga doir yuzlab qonunlar va boshqa huquqiy me’yorlar qabul qilingan bo‘lib, ularning ichida O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonuni (1999-yil 14-aprel) nodavlat notijorat tashkilotlarning serqirra faoliyatini har tomonlama muvofiqlashtirish va huquqiy jihatlardan ta’minlashga qaratildi.

Qonunning 1-moddasida nodavlat notijorat tashkiloti tuzishning umumiy maqsadi ijtimoiy foydali manfaatlarning qondirilishi ekanligi e’tirof etilib, bu bilan nodavlat tashkiloti o‘z faoliyatida xalqchillik prinsipiga amal qilishi shart ekanligi belgilab qo‘yildi.

Mazkur Qonunning 2-moddasida “Nodavlat notijorat tashkiloti tushunchasi”ning ta’rifi demokratik qadriyatlar asosida talqin qilinadi: “Nodavlat notijorat tashkiloti – jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o‘z qatnashchilari (a’zolari) o‘rtasida taqsimlamaydigan o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotidir.

Nodavlat notijorat tashkiloti jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarni himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy maqsadlarga erishish, ma'naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, xayriya faoliyatini amalga oshirish uchun hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuziladi".

Ushbu qonunda nodavlat notijorat tashkilotlar bilan davlatning hamkorligi shunday o'z ifodasini topganki, davlat organi, ya'ni parlament qonun qabul qiladi, bu qonunga binoan "uchinchi sektor" a'zolari va jamiyat manfaatlari uchun xizmat qiladi. Qonunda qayd etilgan ijtimoiy foydali maqsad tushunchasi nodavlat tashkilotlar faoliyatini aholining nochor qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishga yo'naltiradi. Davlat organlarining muhim funksiyalaridan biri aholini ijtimoiy himoya qilish ekanligini e'tiborga olsak, bu sohada davlat organlari bilan nodavlat tashkilotlarning o'zaro hamkorligi uchun huquqiy asoslarning yaratilganligi namoyon bo'ladi.

"Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi qonunga binoan nodavlat notijorat tashkilotlarining maqsadlari quyidagi yo'nalishlardagi faoliyatlar bo'yicha amalga oshiriladi:

- birinchidan, keng ma'nodagi madaniy maqsadlarga erishish ko'zlab tuzilgan. Bunda maorif, ilm-fan, madaniyat sohalarida faoliyat olib boriladi;
- ikkinchidan, mamlakat aholisining sihat-salomatligini ta'minlashni ko'zlab faoliyat yuritish (sport va jismoniy tarbiya bilan shug'ullanuvchi, turli xil xastaliklarning oldini olish va ularni davolashning ilg'or tajriba hamda usullarini targ'ib etuvchi tashkilotlar);
- uchinchidan, turlicha faoliyat yo'nalishidagi huquqni muhofazalovchi tashkilotlar (masalan, iste'molchilar huquqini himoyalash jamiyati);
- to'rtinchidan, fuqarolarning ma'naviy va boshqa xildagi nomoddiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan tashkilotlar (nosiyosiy uyushmalar, ijtimoiy jamg'armalar va boshqalar);
- beshinchidan, xayr-ehson ishlari bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar.

O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlarning o'zaro munosabatlari va hamkorligi ushbu Qonunning 4-moddasida quyidagicha ta'riflanadi: "Davlat nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlaydi, ularga ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi.

Nodavlat notijorat tashkilotlarining alohida ijtimoiy foydali dasturlariga davlat ko'mak ko'rsatishi mumkin".

Qonunning mazkur 4-moddasi nodavlat notijorat tashkilotlarning davlat organlari bilan o'zaro munosabati asoslarini belgilab beradi. Davlat, bir tomondan, qonuniy asosda nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqi va qonuniy manfaatlarini mustahkamlaydi, ikkinchi tomondan, nodavlat notijorat tashkilotlarning huquqi va qonuniy manfaatlarini huquqiy jihatdan himoya qilish mas'uliyatini o'z zimmasiga oladi.

Davlat nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqi va qonuniy manfaatlari amalga oshishini kafolatlovchi shart-sharoitlar yaratadi, barcha davlat organlari va mansabdor shaxslarning zimmasiga qonun talablarini so'zsiz ijro etish vazifasini yuklaydi, zarur holatlarda nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqi va qonuniy manfaatlarini har xil tajovuzlardan himoyalaydi. Nodavlat notijorat tashkilotlari o'z huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya etilishini mavjud barcha huquqiy usullar bilan muhofazalashga haqlidir.

Shuningdek, qonunning 4-moddasiga muvofiq nodavlat notijorat tashkilotlari o'zlarining moliyaviy manbaini shakllantirish, ichki tizilma va asosiy faoliyat yo'nalishlarini o'z ixtiyori bilan o'zi belgilash masalalarida to'la mustaqildir.

Shu bilan birga, rivojlangan mamlakatlar va xalqaro huquq me'yorlari va milliy qonunchilikdan kelib chiqib davlat quyidagi yo'nalishlarda nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatini nazorat etish huquqiga egadir:

- nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatlari O'zbekiston Respublikasi Konstututsiyasi va qonunlari doirasida amalga oshish lozimligi davlat tomonidan nazorat etiladi (Qonunning 34-moddasiga muvofiq);

- nodavlat notijorat tashkilotlarini ro'yxatga olgan davlat organi mazkur tashkilotlar faoliyatlari yo'nalishlari ular nizomi doirasida bo'lishini nazorat etadi (Qonunning 21-moddasiga muvofiq);

- nodavlat notijorat tashkilotlari anjumanlari va tadbirlarida davlat organlari vakili ishtirok etishi mumkin;

- nodavlat notijorat tashkilotlari statistika va soliq organlariga o'z vaqtida hamda tegishli tarzda hisobot berishlarini nazorat qiladi (Qonunning 33-moddasiga muvofiq).

- nodavlat notijorat tashkilotlari, o'z navbatida, davlat organlari va mansabdor shaxslarning ishiga aralashmaydi, ya'ni, ular davlat organlarining ishi ustidan nazorat o'rnatish, hisobot talab etish, moliyaviy

nazorat o‘rnatishga haqli emas. (Konstitutsiyaning 58-moddasi).

“Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonunning 7-moddasi davlat organlari bilan nodavlat tashkilotlar o‘zaro munosabatlari va hamkorligi faoliyatini huquqiy jihatlardan muvofiqlashtiradi. Bu modda shunday talqin etiladi:

“Nodavlat notijorat tashkiloti quyidagi huquqlarga ega:

- o‘z a’zolari va qatnashchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ifodalash hamda himoya qilish;



9.1-rasm. O‘zbekistonda NNTlarning o‘sish sur’atlari

- ijtimoiy hayotning turli masalalariga doir tashabbuslar bilan chiqish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga takliflar kiritish;

- davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining qarorlarini ishlab chiqishda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ishtirok etish”.

Shuningdek, nodavlat tashkilotlar tizimini yanada mustahkamlash, mazkur tashkilotlarning jamiyatdagi barcha ijtimoiy qatlamlar va guruhlar manfaatlarini ifoda etish maqsadlarida 2003-yil 29-avgustida Oliy Majlis tomonidan O‘zbekiston Respublikasining “Jamoat jamg‘armalari to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi. Uning 3-moddasiga binoan jamoat jamg‘armasi deb, yuridik va (yoki) jismoniy shaxslar tomonidan ixtiyoriy mulkiy badallar asosida tuzilgan, o‘zining a’zolariga ega bo‘lmagan, xayriya, ijtimoiy, madaniy, ta’lim yoki boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarni ko‘zda tutgan nodavlat notijorat tashkilotiga aytiladi. Shuningdek, viloyatlar, shaharlar va tumanlarda ham mahalliy jamoat jamg‘armalar tuzish mumkin.

Mamlakatda nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatining fuqarolik jamiyati instituti darajasida bo'lishining huquqiy asoslarini rivojlantirish maqsadlarida 2007-yilda O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Mazkur qonunda nodavlat tashkilotlarni qo'llab-quvvatlash va ularning erkin hamda mustaqil faoliyatlarining mavjud qonunchilik va davlat organlari tomonidan kafolatlanishi asosiy maqsad qilib olindi.

Mamlakatda nodavlat notijorat tashkilotlar mustaqilligini ta'minlash, shuningdek, ularning fuqarolik jamiyatining muhim institutiga aylanishini ta'minlash maqsadida davlatning "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" konseptual siyosiy dasturi qabul qilindi va u mamlakatda jamiyatni rivojlantirishning asosiy tamoyiliga aylandi. Jamiyat siyosiy tizimini yanada erkinlashtirish masalalari mazkur siyosiy dastur qabul qilinganidan keyin yanada dolzarb ahamiyat kasb eta boshladi.

3. O'zbekistonda NNTning fuqarolik jamiyati instituti sifatida rivojlanishi

Mustaqillik davrida mamlakatda fuqarolik jamiyatining asosi bo'lgan demokratik institutlarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlariga doir islohotlar yildan-yilga chuqurlashib bordi. 2005-yilga kelib respublikada 402 ta respublika ahamiyatiga molik nodavlat jamoat birlashmalari faoliyat ko'rsata boshladi. Ulardan 81 tasi xalqaro tashkilotlardan iborat edi. Nodavlat tashkilotlarning 48 tasi jamg'arma, 78 tasi jamiyat, 4 tasi siyosiy partiya, 42 tasi federatsiya, 16 tasi kasaba uyushmalari, 2 tasi harakat, 20 tasi markaz, 48 tasi assotsiatsiya, 20 tasi uyushma, 5 tasi qo'mita, yana 37 tasi turli nomlarda rasmiy ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlarda davlat ro'yxatiga olingan 1957 ta, shuningdek, hisob ro'yxatiga olingan 2911 ta, hammasi bo'lib 4868 ta mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan jamoat birlashmalari faoliyat ko'rsatdi. Qisqa davr ichida ularning soni tezlik bilan o'sdi: 2017-yilning 1-noyabr holatiga binoan 9158 ta NNT, 2244 ta diniy tashkilot (shundan, 2070 tasi islomiy, 174 tasi noislomiy) faoliyat yuritdi. 2017-yilning o'zida 669 ta yangi tashkil etilgan NNT ro'yxatga olindi.

O'zbekistonda NNT o'z faoliyatlarini hududiy mansubligiga bog'liq holda quyidagi darajalarga bo'linadi:

- **umummamlakat** ahamiyatiga ega bo'lgan NNT. Ular o'zlarining tuzilmaviy quyi tashkilotlariga (mahalliy tashkilotlari, filiallari,

bo'limlari, vakolatxonalari va boshq.) ega bo'lib, butun mamlakat miqyosida faoliyat yuritadi;

- **mintaqaviy NNT**. Ularga Qoraqalpog'iston respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri hududlarida faoliyat yuritadigan NNT kiradi;

- **mahalliy NNT**. Ularga tumanlar, shaharlar, shaharcha va boshqa kichik hududlarda faoliyat yurituvchi NNT kiradi.

O'zbekistondagi NNTni xalqaro tashkilotlar ekspertlari quyidagicha tasniflaydi:

1. Aholining yirik qatlamlari ijtimoiy manfaatlari uchun xizmat qiladigan umummilliy tuzilmalar ("Mahalla" xayriya jamg'armasi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi, Xotin-qizlar qo'mitasi, Nogironlar jamiyati, "Nuroniy" jamg'armasi va boshq.).

2. Ekologiya, madaniyat va sog'liqni saqlash sohasiga ixtisoslashgan milliy-xalqaro jamg'armalar ("Ekosan", "Ibn Sino", "Sog'lom avlod", Orolni qutqarish, Amir Temur va boshqa xalqaro jamg'armalar).

3. Kasbiy va ma'naviy manfaatlar bo'yicha tuzilgan ijtimoiy tashkilotlar (Respublika "Ma'naviyat targ'ibot" markazi, "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik fikrini o'rganish markazi va boshq.).

4. Umummilliy hayriya jamiyatlari va jamg'armalari (Bolalar jamG'armasi, "Mehr nuri" jamg'armasi va boshq).

5. Huquqni himoya qilish nohukumat tashkilotlari (O'zbekiston sudlar uyushmasi, Advokatlar palatasi, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi va boshq.).

6. Ijodiy ziyolilarning milliy jamoat tashkilotlari (Yozuvchilar uyushmasi, Jurnalistlar uyushmasi, Kompozitorlar uyushmasi, Arxitektorlar uyushmasi, Kinematografistlar uyushmasi va boshq.).

7. Milliy-madaniy markazlar (ular O'zbekistonda yashayotgan milliy jamoalar (ozchilik) vakillarini milliy va etnik belgilariga qarab birlashtiradi, xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik jamiyatlari va boshq.).

8. Ijtimoiy ahamiyatli qatlamlar va ijodiy manfaatlar bo'yicha birlashmalar (Veteran jangchilar birlashmasi, Avtomoto havaskorlarining ko'ngilli jamiyati, Ixtirochilar va ratsionalizatorlar jamiyati, Turistlar klubi, Havaskor qo'shiqchilar klubi va boshq.).

Bundan tashqari, NNTlar qatoriga turli shakllarga mansub bo'lgan tashkilotlarni kiritish mumkin:

- Siyosiy partiyalar va ijtimoiy harakatlar;
- Kasaba uyushmalari;
- Diniy tashkilotlar;
- Turli sport federatsiyalari va uyushmalari.

Mamlakatimizda 1991-yili jamoat birlashmalarining soni 200 tani tashkil etgan bo'lsa, 2000-yilda ularning soni 2300 taga, 2010-yilda 5100 taga yetdi. Bugungi kunda jamiyat hayotining turli sohalarida 8 ming 100 dan ziyod nodavlat notijorat tashkiloti faoliyat ko'rsatmoqda. Bu degani 2010-yilga nisbatan 1,6 marta ko'p demakdir.

Mamlakatdagi nodavlat notijorat tashkilotlarining 39 foizi hukumat va uning quyi organlari tashabbusi bilan tuzildi. Mavjud nodavlat notijorat tashkilotlarining 16,1 foizini sport, 10,4 foizini yoshlar, 10 foizini huquqiy va demokratik institutlarni mustahkamlash, 9 foizini siyosiy partiya tashkilotlari, 8,4 foizini nogiron va imkoniyati cheklanganlar huquq va manfaatini himoya qilish, 6,4 foizini madaniyat-ma'rifat va tarix yo'nalishi, 6,3 foizini kasaba uyushmalari, 5 foizini xotin-qizlar, 4,4 foizini favqulodda vaziyatlar, 4,2 foizini faxriylar, 3,8 foizini soG'liqni saqlash, 3,4 foizini tadbirkorlar va fermerlar hamda qolgan 12,6 foizini boshqa sohalar tashkil etadi.

Mamlakatda milliy mustaqillikning dastlabki davrlarida O'zbekiston "Mahalla" xayriya jamg'armasi tashkil topdi. O'tgan davr ichida "Sog'lom avlod uchun" xalqaro nohukumat xayriya jamg'armasi, "Ekosan" xalqaro ekologiya va salomatlik jamg'armasi, Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati Assambleyasi, Xalqaro Amir Temur jamg'armasi, Xalqaro Imom Buxoriy jamg'armasi, "Oltin meros" jamg'armasi, respublika "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazi, "Xalq birligi" harakati, O'zbekiston faxriylarini qo'llab-quvvatlash "Nuroniy" jamG'armasi, "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati, "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik fikrini o'rganish markazi, Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar Palatasi, Milliy matbuot markazi, Baynalmilal madaniy markaz, respublika "Iste'dod" jamg'armasi kabi nodavlat tashkilotlar tuzildi. O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi esa demokratik prinsiplar asosida butunlay qaytadan tashkil etildi. Shu bilan birga, O'zbekiston "Tadbirkor ayol", O'zbekiston Bolalar jamg'armasi, "Ayol va salomatlik", "Mehr", "Ayollar resurs markazi", "Ayol va jamiyat" instituti kabi xotin-qizlar muammolarini hal etishga qaratilgan va ular manfaatlarini ifodalaydigan nodavlat tashkilotlar faoliyat yuritmoqda.

Keyingi o'n yilliklarga kelib O'zbekiston ijtimoiy hayoti uchun butunlay yangi bo'lgan nodavlat tashkilotlar tuzila boshlandi. XXI asrda texnologik jarayonlarning ko'payishi, avtomobil harakatlarining keskin oshishi, plastik mahsulotlarning maishiy turmushga kirib kelishi natijasida ekologik xavf kuchaydi. Ana shu xavf oqibatlariga qarshi kurash maqsadida mamlakatdagi ekologiyaga oid tashkilotlar tashabbusi

bilan 2008-yil 2-avgustda O'zbekiston Ekologik harakati tashkil etildi. Bu harakat fuqarolik jamiyati instituti sifatida faoliyat yurita boshladi. Uning asosiy shiori – "Atrof-muhit ozodaligi – salomatlik garovi" aholi o'rtasida tezlik bilan yoyilib ketdi. Bu harakatning faol harakati bilan aholi o'rtasida ekologik madaniyatni shakllantirishga oid turli tadbirlarni amalga oshirish an'anaga aylana boshladi.

O'zbekiston ekologik harakati faollarining ona tabiatni asrash, inson salomatligini himoya qilish, shaharlarda daraxtlar va turli o'simliklarni ko'paytirishga doir faoliyati o'z samarasini bera boshladi. Shuningdek, ekoharakatning "Sog'lom muhit – inson salomatligi" g'oyasi ham o'z atrofiga aholining turli ijtimoiy qatlamlarini birlashtira boshladi. Ekoharakat quyidagi dasturiy vazifalarni ilgari surdi:

Ekoharakatning asosiy e'tibori atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish mamlakatimiz har bir fuqarosining umumiy vazifasi bo'lib qolishiga yo'naltiriladi. Ushbu maqsadlarda Ekoharakat o'z sa'y-harakatlarini:

- o'z ishtirokchilari va tashkilotlarida, hamkorlarida mintaqaviy, milliy va mahalliy ekologik hamda aholi salomatligi muhofazasi yaxlit dasturlarini ishlab chiqish va bajarishdagi amaliy ishtiroklarini faollashtirishga qaratilgan sa'y-harakatlarni shakllantirish;

- Ekoharakat ishtirokchilari va hamkorlarining davlat organlari va jamoat tuzilmalari tomonidan mavjud ekologik muammolarini hal etish va ularning salbiy oqibatlarini bartaraf qilish sohasidagi qonun hujjatlari ijrosi borasidagi mas'uliyatini kuchaytirishga qaratilgan faoliyatini muvofiqlashtirish;

- jamoat birlashmalari, jamoat fondlari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlarining muayyan ekologik muammolarni hal etishdagi hamkorliklari samaradorligini oshirish va rivojlantirishga yo'naltiradi.

Xususan Ekoharakat:

- fuqarolarning qulay atrof tabiiy muhitga bo'lgan huquqini himoyalashga hamda tabiatdan foydalanish sohasida iqtisodiy mexanizmlarni joriy etishga qaratilgan ekologik xavfsizlikni kompleks tarzda ta'minlash bo'yicha qonun hujjatlarini qabul qilish va ularni amalga oshirishga;

- mamlakatda ekologik huquqbuzarliklar va tabiatga boshqacha tarzda zarar yetkazganlik uchun korxona va tashkilotlarning, mansabdor shaxslar va alohida fuqarolarning javobgarligini kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga;

- ekologik huquqbuzarliklar va tabiatga zararli bo'lgan boshqa ta'sirlar oqibatlarini bartaraf etish, shu jumladan, transchegaraviy

ahamiyatga ega bo'lgan holatlarda ham, ular tomonidan atrof-muhitga va inson salomatligiga yetkazilgan zararni qoplashni huquqiy jihatdan tartibga solish hamda huquqni qo'llash amaliyoti samaradorligini oshirishga intiladi.

O'zbekiston ekologik harakatining parlamentda o'zining vakillari bo'lishi tarixiy zarurat sifatida paydo bo'ldi. Parlamentda tabiatni asrash va ekologiyani yaxshilashga qonunchilikni rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasida 150 ta deputatdan 15 tasining O'zbekiston ekologik harakati tomonidan saylanishiga doir huquqiy asos yaratildi. Buning natijasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida 15 deputatdan iborat fraksiyasi faoliyat yuritishi qonuniy tarzda rasmiylashdi. 2009-yil va 2014-yil dekabrda Ekoharakat konferensiyasida saylangan mazkur deputatlar guruhi atrof muhit muhofazasiga oid ko'plab qonunlar loyihalarini ishlab chiqishda va ularni qabul qilishda bevosita ishtirok etib kelmoqda.

Ma'lumki, O'zbekiston – ko'p millatli mamlakat. Yurtimizda fuqarolik jamiyati instituti sifatida shakllangan va tobora rivojlanib borayotgan turli millatlarning milliy-madaniy markazlari turli millatlar vakillarining madaniyati, tili va ma'naviy dunyosini rivojlantirishga xizmat qila boshladi. Milliy-madaniy markazlar mamlakatda o'zaro tenglik asosida yashayotgan 130 ta turli millat va elatlarning manfaatlarini ifodalash, o'zlari mansub bo'lgan madaniyat, o'z milliy qadriyatlari va urf-odatlarini yo'qolib ketmasdan yashashi uchun ko'mak berib kelmoqda.

Respublika baynalmilal madaniyat markazi, 138 ta milliy madaniy markazlar, O'zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy-ma'rifiy aloqalar jamiyatlari kengashi, shuningdek, 34 ta do'stlik jamiyatlari muvafaqqiyatli faoliyat yuritib kelmoqda. Ulardan 14 tasi respublika ahamiyatiga molik tashkilot maqomiga egadir. Ularning 31 tasi koreys, 23 tasi rus, 10 tasi tojik, 9 tasi qozoq, 9 tasi tatar millatiga mansub faollar tomonidan tashkil etilgan. Shuningdek, mamlakatda 8 ta ozarbayjon, 7 ta turkman, 6 ta ukrain va qirg'iz, 5 ta turk va Yevropa yahudiylar millatiga mansub bo'lgan milliy-madaniy markazlari faoliyat ko'rsatmoqda. Shuningdek, nemis, polyak va arman, uyg'ur, arab, bolgar, boshqird, grek, gruzin va boshqa millat vakillari ham o'zlarining milliy-madaniy tashkilotlari tarkibida turli madaniy tadbirlar va anjumanlar vositasida faol ishtirok etmoqda.

O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlarini fuqarolik jamiyati

instituti sifatida rivojlantirishda 2005-yilning 10-iyunida "O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy Assotsiatsiyasi"ning tashkil topishi muhim ahamiyat kasb etdi. Uning asosiy maqsadlari sifatida qo'yidagi faoliyat yo'nalishlari belgilandi:

- ixtiyoriy ravishda a'zo bo'lgan nodavlat notijorat tashkilotlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotini yanada erkinlashtirish va demokratlashtirish, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish, demokratik qadriyatlarni mustahkamlashdagi ishtirokini, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy hayotdagi faolligini, huquqiy davlat asoslarini mustahkamlash va inson haq-huquqlarini himoya qilishdagi o'rnini yanada kengaytirish;

- davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan muvozanatda o'zaro va ikki tomonlama manfaatli muzokaralar orqali jamiyatning turli ijtimoiy qatlamlari manfaatlarini ifoda etishda nodavlat notijorat tashkilotlarning ishtirokini ta'minlash.

Hozirgi davrga kelib, "O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy Assotsiatsiyasi"ga 400 dan ortiq turli respublika miqyosidagi va viloyatlarda faoliyat yuritayotgan nodavlat notijorat tashkilotlar a'zo bo'lib kirdilar.

Mamlakatda mustaqil, barqaror, aholining turli qatlamlari qo'llab-quvvatlaydigan fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirishga, ijtimoiy ahamiyatli muammolarni hal etishdagi, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy va ish faolligini oshirishdagi rolini kuchaytirish maqsadlarida 2005-yil 26-iyulda "O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash fondi" tashkil topdi. Uning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi:



- zarur moddiy vositalar va moliyaviy mablag'larni yig'ish,

jumladan, fuqarolik jamiyati institutlarining, eng avvalo, aholi qo'llab-quvvatlaydigan, mustaqil respublika fuqarolarining u yoki bu manfaatlarini qondirish va himoya qilish bo'yicha ularning oldida turgan vazifalarni mustaqil hal etuvchi nodavlat notijorat tashkilotlarining rivojlanishini rag'batlantirish uchun mo'ljallangan mahalliy, chet el, xalqaro tashkilotlar va moliyaviy institutlarning grantlarini jalb etish;

- eng muhim gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa ijtimoiy ahamiyatli muammolarni hal etishdagi fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga, fuqarolik jamiyatining institutlarini rivojlantirishga qaratilgan nodavlat notijorat tashkilotlar loyihalari va dasturlarini moliyalash.

O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi qonuniga ko'ra NNT va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faoliyati davlat tomonidan subsidiya, grant, ijtimoiy buyurtmalar berish shaklida qo'llab-quvvatlanmoqda. 2008-yildan hozirga qadar Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi mablag'larini boshqarish bo'yicha parlament komissiyasi ko'magida NNT va fuqarolik jamiyati boshqa institutlari assotsiatsiyalari va birlashmalarining 600 ga yaqin ijtimoiy ahamiyatga ega loyiha, dastur, ustav vazifalari amalga oshirildi. Faoliyati davomida ishlab topilgan barcha mablag'larni NNT o'zlarining dasturlarini kengaytirish va moliyalashtirishga yo'naltiradi. Albatta, o'z o'rnida, NNT ijtimoiy muammolarni hal qilish, sog'liqni saqlash, ta'lim, fan, madaniyat va san'atni qo'llab-quvvatlash, fuqarolar huquqiy madaniyatini oshirish, fuqarolarni jamiyatni boshqarishdagi ishtirokini kengaytirish kabi faoliyati bilan fuqarolik jamiyatini rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Shuningdek, O'zbekistonda BMTning Rivojlanish Dasturlari asosida o'nlab xorijiy nodavlat tashkilotlar o'z vakolatxonalari va boshqa vakillik idoralarini tashkil etdi. Jumladan, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti vakolatxonasi, BMTning Bolalar jamg'armasi (YUNISEF) vakolatxonasi, Xalqaro rivojlanish bo'yicha AQSH agentligi vakolatxonasi, 'Britaniya Kengashi" ("British Council"), Konrad Adenuer jamg'armasining Markaziy Osiyo va Qozog'iston mamlakatlari bo'yicha vakolatxonasi, Fridrix Ebert jamg'armasi vakolatxonasi, Xalqaro ta'lim bo'yicha Amerika Kengashi ("ACCELS"), Markaziy Osiyoga beg'araz yordam tashkiloti ("CAFE"), Germaniya Agroaksiya tashkiloti, YUNESKO vakolatxonasi, "Global Involvement" nomli ta'limga doir tashkilot, Osiyo madaniyati va rivojlanish instituti,



AQSHning "Mehr-muruvvat korpusi" va ekologiyaga oid "KOFUTIS" tashkiloti, fuqarolik jamiyati qurishga ko'maklashuvchi "Krosslink Development Interneshnl" xalqaro tashkiloti, Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasi, Buyuk Britaniyaning "Rivojlanish uchun hamkorlik" tashkiloti, AQSHning Xalqaro tatqiqotlar va o'zaro almashishlar kengashi (IREX), Yevroosiyo jamg'armasi, Germaniyaning "Gyote instituti", Fransiyaning "Alyans Franse" tashkiloti, Xalqaro hamkorlik bo'yicha Koreys agentligi, Rivojlanish va hamkorlik bo'yicha Turkiya agentligi, Xalqaro hamkorlik bo'yicha Yaponiya agentligi kabi yuzdan ortiq xorijiy mamlakatlar nodavlat tashkilotlari vakolatxonalari va filiallari turli sohalarida keng faoliyat yuritmoqda. Hozirgi davrda mamlakatda 50 ga yaqin xorijiy mamlakatlar NNT va ularning vakolaxonalari faoliyat olib bormoqda.

Mamlakatda XXI asr boshlarida "Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari" konseptual siyosiy dasturni amalga oshirish maqsadlaridan kelib chiqib, markaziy davlat organlarining ayrim vakolatlarini mahalliy davlat hokimiyati, o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarga bosqichma-bosqich berib borish asosida jamiyat qurilishini erkinlashtirish jarayonlari boshlandi. Bu sohada quyidagi yo'nalishlarda islohotlar bosqichma-bosqich ravishda amalga oshirilmoqda:

- birinchidan, jamiyat a'zolarining ongi, irodasi, madaniyati,

ma'naviyati va bilimi yuksak darajada bo'lishiga erishish, ularning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatiga alohida e'tibor berish;

- ikkinchidan, jamiyat a'zolarining manfaatlari uyg'unlashuvi jarayonlarini shakllantirish, jamiyat manfaatlarining shaxsiy manfaatlar bilan mushtarakligiga erishish;

- uchinchidan, jamiyatning takomillashuvi va yangilanishi uchun kuchli va real siyosiy, iqtisodiy, madaniy imkoniyatlarni shakllantirish;

- to'rtinchidan, jamiyat a'zolari va tuzilmalari o'rtasidagi hamkorlik asosida jamiyatning umumiy manfaatlarini uyg'unlashtirish;

- beshinchidan, jamiyatdagi munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy qoidalar ta'sirini kuchaytirish, ularga ongli ravishda bo'ysunish amaliyotini vujudga keltirish;

- oltinchidan, siyosiy hokimiyatning o'z vazifalarini to'liq bajarishiga kengroq va qulayroq imkoniyatlar yaratish, siyosiy hokimiyatga nisbatan jamiyat a'zolari ishonchini kuchaytirish, uning aholi tomonidan keng va faol qo'llab-quvvatlanishiga erishish kabi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

Hozirgi islohotlarni yanada chuqurlashtirish davrida "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyilini hayotga tatbiq etish jarayonlaridagi muammolardan biri – bu turli ijtimoiy qatlamlar shakllanishining sekin kechishi natijasida ularning turli manfaatlari nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatida ifodalanishi qiyin kechmoqda. Chunki "uchinchi sektor" tashkilotlari u yoki bu ijtimoiy qatlamlar va guruhlar manfaatlarini ifodalay olish qobiliyatiga ega bo'lgandagina fuqarolar ular faoliyatida ishtirok etishga moyil bo'ladilar. Aks holda, fuqarolar nodavlat notijorat tashkilotlariga befarqlik bilan qaraydilar.

Mamlakatdagi nodavlat notijorat tashkilotlarining aksariyat qismi hali o'zlari tayanadigan ijtimoiy qatlamlarni aniqlashtirib olmaganliklari yoki o'zlarini biron-bir ijtimoiy qatlam manfaatlarini ifodalovchi tashkilot darajasiga yetkaza olmaganliklari uchun ham ular faoliyatiga fuqarolarni jalb etish muammolari o'z yechimini topganicha yo'q. Ayniqsa, hali ham aksariyat jamoat birlashmalari va nodavlat tashkilotlarning rahbarlari va faollarining eski byurokratik nomenklatura tizimida orttirgan ruhiyati va ish uslublaridagi tajribalari, xuddi davlat organlariga xos rahbarlik kabi faoliyati hamon saqlanib qolayotganligi achinarli holdir. Ularning ba'zilari esa hali ham davlat hokimiyati organlarini o'zlarining bevosita rahbarlari-nazoratchilari deb bilmoqdalar.

Mamlakatdagi kasaba uyushmalarini fuqarolik jamiyati instituti sifatida demokratlashtirishdagi muhim vazifalardan biri – bu xalqaro

tajribalardan kelib chiqib, mehnat jamoalaridagi boshlang'ich kasaba uyushmalarining tashkiliy va ijtimoiy himoyaga taalluqli faoliyatini yuksaltirish, ijtimoiy sheriklikda ham ularning hal qiluvchilik rolini ko'tarish, ularni mustaqil tashkilot sifatidagi maqomini ta'minlash, shuningdek, tarmoqlar kasaba uyushmalari atrofiga jipslashtirish fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga muhim e'tibor berishdir.

Mamlakatda fuqarolik jamiyati qurishdagi yana bir muhim muammolardan biri – bu fuqarolar siyosiy madaniyati va huquqiy madaniyatlari demokratik asoslarda shakllanishiga erishishdir. Shuningdek, fuqarolarning ijtimoiylashuv jarayonlarini amalga oshirishda nodavlat tashkilotlarning o'rnini oshirish ham hozirgi davrning dolzarb vazifalaridan biridir.

4. "Harakatlar strategiyasi" – fuqarolik jamiyati sari yo'l

2016-yilda Sh.M.Mirziyoyevning mamlakat Prezidenti etib saylanishi, Prezident tomonidan **"xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak"** prinsipining e'lon qilinishi, davlat boshqaruvi va xizmatini fuqarolik jamiyati talablariga mos holga keltirish uchun "O'zbekistonda Ma'muriy islohotlar konsepsiyasi"ning qabul qilinishi O'zbekistonda fuqarolik jamiyati qurishning yangi bosqichini boshlab berdi. Mamlakat Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev mamlakatda fuqarolik jamiyati qurish maqsad va vazifalari, bu sohadagi muammolar ustida to'xtalib, quyidagi fikrlarni bildirdi: "Erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida amalga oshirayotgan islohotlarimizda nodavlat notijorat tashkilotlarining o'rni va roli beqiyos ekanini alohida ta'kidlash joiz. Hozirgi kunda yurtimizda 9 mingdan ortiq nodavlat notijorat tashkiloti mavjud, 29 ta xalqaro va xorijiy nohukumat tashkilotlarining filial va vakolatxonalari faoliyat yuritmoqda. 2017-yilda "Nuroniy" jamg'armasi, Yoshlar ittifoqi, O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi, Savdo-sanoat palatasi, o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika kengashi kabi nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish, ularni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan alohida farmon va qarorlar qabul qilindi. Ammo ana shunday muhim sa'y-harakatlarga qaramasdan, aholining muammolarini tizimli o'rganish, ularni aniq hal etish, ayniqsa, ijtimoiy sharoiti og'ir ayollarni qo'llab-quvvatlash, yoshlar va xotin-qizlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish, ularni ish bilan ta'minlash masalalarida bu

tashkilotlarning ishtiroki yetarli darajada sezilmayapti. Ular faqat nomiga yig'ilishlar o'tkazish bilan mashg'ul bo'lib qolmoqda. Nodavlat notijorat tashkilotlari bugun aytilgan tanqidiy gaplardan xulosa chiqarib, o'z faoliyatida burilish yasaydi, deb ishonamiz".

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi farmoni bilan "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha **Harakatlar strategiyasi"ning tasdiqlanishi va uning hayotga tatbiq etilishi natijasida fuqarolik jamiyati institutlari demokratik prinsiplar asosida rivojlana boshladi.**

"Harakatlar strategiyasi"ning "Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari" nomli birinchi ustuvor yo'nalishida demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish masalasi birinchi o'ringa qo'yilib, bir yilning o'zida davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish yo'nalishida – 7 ta qonun, 3 ta farmon, 7 ta qaror va 4 ta dastur, jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish yo'nalishida esa 6 ta qonun, bitta farmon, bitta qaror va 2 ta dastur ishlab chiqilishi belgilandi. "Harakatlar strategiyasi"ning birgina ustuvor yo'nalishi – davlat va jamiyat qurilishi bo'yicha 2017-yilning o'zida 18 ta qonun loyihasini tayyorlandi.

"2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid **Davlat dasturi"ga binoan** "hududlarda nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan ijtimoiy sheriklik loyihalari bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish ko'lamini kengaytirish, viloyatlardagi mahalliy vakillik organlari huzurida fuqarolik jamiyati institutlari va nodavlat notijorat tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha jamoat fondlarini tashkil etish", shuningdek, "hududlardan saylangan deputat va senatorlar har oyda 10-12 kun davomida bir tumanda bo'lib, davlat hokimiyati organlari faoliyatini o'rganib, tahlil qilishi, tegishli rahbarlarning hisobotini xalq deputatlari Kengashlari sessiyasi muhokamasiga kiritishi hamda tegishli xulosalar berishi", "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining joylarda ishlarning holatini o'rganish va xalq bilan muloqot qilishga doir faoliyatini tubdan takomillashtirishga oid Oliy Majlis palatalari Kengashlarining qo'shma qarori loyihasini ishlab chiqishi" kabi fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bilan boG'liq huquqiy asoslar va amaliy o'zgarishlar rejalari muhim

ahamiyat kasb eta boshladi.

Shuningdek, Harakatlar strategisiyaga muvofiq mamlakatda "Elektron parlament" tizimini ishlab chiqish, "Elektron hukumat" tizimini yanada rivojlantirish, xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining mahalliy ijro hokimiyati organlari faoliyati ustidan nazoratini kuchaytirish maqsadida siyosiy partiyalar deputatlik guruhlarining huquq va vakolatlarini kengaytirish, davlat va xususiy sheriklik tushunchasi, vazifalari va asosiy yo'nalishlari, ishtirokchilari doirasi, ularning huquq va majburiyatlari, bu boradagi loyihalar amalga oshiriladigan ustuvor sohalarni tartibga soladigan huquqiy asoslar ishlab chiqish, har bir tuman (shahar)da jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha "Xalq qabulxonalari"ni tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish, 2018–2020-yillarda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati samaradorligini yanada oshirish va rivojlantirish Dasturini ishlab chiqish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish mamlakatda fuqarolik jamiyati qurish uchun shart-sharoitlar yaratadi, mamlakatda fuqarolik jamiiyati qurishning muqarrar ekanligini anglatadi.

"Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyat sari" tamoyilini ijtimoiy-siyosiy hayotga qo'llash vositasida siyosiy hokimiyat organlarining mahalliy tizimini mustahkamlash, ularga markaziy hokimiyat vakolatlarini bir qismini berib borish asnosida nomarkazlashtirish islohotlarini o'tkazish, ijroiya hokimiyat tizimlarini vakillik organlari va nodavlat tashkilotlar tomonidan kuchli nazorat etish mexanizmi va huquqiy asoslarini yaratishga doir islohotlarni amalga oshirish fuqarolik jamiyati qurishning shart-sharoitlarini yaratish yo'lidagi ilk qadamlardir.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida O'zbekistonda davlatning bosh islohotchilik faoliyati natijasida nodavlat notijorat tashkilotlarning demokratik tamoyillar asosidagi huquqiy asoslari shakllandi. Qisqa davr ichida mamlakatda fuqarolik jamiyati qurishning poydevori – konstitutsiyaviy va huquqiy shart-sharoitlar yaratildi. Islohotlar natijasida mamlakatda nodavlat notijorat tashkilotlar tizimi shakllandi. Muhimi, "uchinchi sektor" bilan davlat hamkorligi natijasida mamlakatda nodavlat notijorat tashkilotlarning mustaqil faoliyat yuritishi, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

XXI asr boshlariga kelib O'zbekiston davlati va xalqi ilg'or rivojlangan mamlakatlarda fuqarolarga erkinlik bag'ishlagan, shaxsning

erkin kamol topishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratgan, jamiyatning hamma jabhalarini demokratiyalashtirishga qobil bo'lgan, o'zida xalqchil milliy meros va an'analarni ifodalagan fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lidagi islohotlarning yangi bosqichini chuqurlashtirishga kirishdi.

Nazorat savollari

1. O'zbekistonda siyosiy partiyalarga doir qanday qonunlar qabul qilingan?
2. O'zbekistonda qanday siyosiy partiyalar faoliyat olib boradi?
3. Nodavlat notijorat tashkilotlari deganda nimani tushunasiz?
4. Nodavlat notijorat tashkilotlarning qanday turlari mavjud?
5. O'zbekistonda NNTga doir qanday qonunlar qabul qilingan?
6. O'zbekistonda qanday xorijiy nodavlat tashkilotlar faoliyat yuritadi?
7. NNT jamiyatda qanday funksiyalarni bajaradi?
8. O'zbekistonda NNTning rivojlanish suratlari qanday kechmoqda?

Testlar

1. To'g'ri javobni belgilang:

A) "Siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarning siyosiy irodasini ifodalaydilar va o'zlarining demokratik yo'l bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar"

B) "Siyosiy partiyalar – individlar va guruhlarning ijtimoiy xatti-harakatlarini belgilovchi sabablardir"

C) "Siyosiy partiyalar jamiyatning hukmron institutidir. U davlat organlarini shakllantiradi va nazorat qiladi

D) "Siyosiy partiyalar jamiyatni muvofiqlashtiradi, fuqarolarni hokimiyat sari intilishga safarbar etadi"

2. Quyidagi qaysi javobda siyosiy partiyaning huquqlaridan biri ifodalangan?

A) "Qonunda belgilab qo'yilgan tartibda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari hisobotini eshitadi, ular faoliyatini nazorat etadi"

B) "Qonunda belgilab qo'yilgan tartibda hukumat a'zolari, mahalliy vakillik organlari rahbarlarini tayinlaydi"

C) "Qonunda belgilab qo'yilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, davlat hokimiyati organlari saylovlarida ishtirok etish"

D) "Siyosiy partiyalar jamiyat boshqaruvini muvofiqlashtiradi, fuqarolar muammolarini hal etadi"

3. Davlat organlari nodavlat notijorat tashkilotlarining rivojlanishi

uchun:

A) Fuqarolik jamiyatiga xos qonunlar va imtiyozli soliq siyosati bilan qo'llab-quvvatlaydi

B) NNTni yetarli darajada faoliyat ko'rsatishlari uchun mablag'lar bilan ta'minlab turadi, moliyalashtiradi

C) NNTni ishchan va faol kadrlar bilan ta'minlab turadi, ularni yaxshi ishlashlarini doimo nazorat etib boradi

D) NNT jamiyat boshqaruvini muvofiqlashtiradi, fuqarolarni ijtimoiy faoliyat sari safarbar etadi

4. Nodavlat notijorat tashkilotlar davlat va uning organlari uchun:

A) Davlat va hukumat qarorlarini bajarishga yordamlashadi, davlat rejalarini bajarishga ko'maklashadi, qonunlar bajarilishini nazorat qiladi

B) Fuqarolarni qonunlarni bajarishlarini nazorat qiladi, ularni davlat vazifalarini bajarishlari uchun safarbar etadi

C) Ijtimoiy guruhlar va tabaqalar manfaatlarini bir tizimga solib, davlat organlariga yetkazib turadi

D) NNT davlatga fuqarolarni boshqarishda yordamlashadi, aholini mehnatga safarbar etadi

5. Nodavlat notijorat tashkilotlarning asosiy funksiyalari:

A) Jamoat ishlarini boshqarish, o'z a'zolari manfaatlarini himoya qilish va ularning ijtimoiy faolligini oshirish

B) Mahalliy davlat hokimiyati ishida faol ishtirok etish, fuqarolarni boshqarish va ularni ijtimoiylashtirish

C) O'z yetakchilarini rahbarlik lavozimlariga o'tishiga erishish, jamiyatni boshqarishda ustuvorlik qilish

D) O'z yetakchilarini himoya etish, ularni boshqaruv faoliyatiga yordamlashish

6. O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonunining (1999-yil 14-aprel) 2-moddasiga tegishli javobni belgilang?

A) "Nodavlat notijorat tashkiloti – aholi va (yoki) xalq tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan hamda olingan daromadlarni (foydani) o'z a'zolari o'rtasida taqsimlaydigan boshqaruv organidir"

B) "Nodavlat notijorat tashkiloti – o'z a'zolarini va (yoki) fuqarolarni ixtiyoriyligi asosida tashkil etiladigan, daromad (foyda) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan hamda olingan daromadlarni (foydani) o'z a'zolari o'rtasida teng taqsimlab beradigan nodavlat tashkilotdir"

C) "Nodavlat notijorat tashkiloti – turli ijtimoiy qatlam va (yoki) guruhlar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o'z

faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan hamda olingan daromadlarni o‘z farovonligini oshirish uchun o‘z a’zolari o‘rtasida taqsimlaydigan o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotidir”

D) “Nodavlat notijorat tashkiloti – jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o‘z qatnashchilari (a’zolari) o‘rtasida taqsimlamaydigan o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotidir”

7. “O‘zbekiston Respublikasida “Jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi Qonun qachon qabul qilingan?

A) 1992-yil 30-iyun

B) 1994-yil 12-yanvar

C) 1991-yil 15-fevral

D) 1995-yil 15-aprel

8. Quyidagi javoblardan qaysi biri nodavlat notijorat tashkilotlarning asosiy faoliyat yuritish prinsiplaridan biri hisoblanadi?

A) Ijtimoiy guruhlarni birlashtirish, ozchilikning ko‘pchilik irodasiga bo‘ysunishi

B) Fuqarolar irodalarini ifoda etish, ularning manfaatlarini ifoda etish sohasida faoliyat yuritish

C) A’zolikning ixtiyoriyligi, tashabbuskorlik, o‘zini o‘zi boshqarish, boshqaruv organlarining saylanishligi

D) Jamiyat a’zolarini birlashtirish, jamiyatni boshqarish va fuqarolarni nazorat qilish

9. Qaysi davlat organi NNT faoliyatini to‘xtatishi mumkin?

A) Sud

B) Vazirlar Mahkamasi

C) Oliy Majlis

D) Prokuratura

10. Mamlakatimizda NNTning asosiy faoliyat yo‘nalishi nimaga qaratilgan?

A) Davlat hokimiyatini batamom chegaralash, ya’ni davlat hokimiyat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatish

B) Davlat hokimiyati organlari o‘z vakolatlarini suiste’mol qilganida uni muayyan darajada chegaralash, davlat hokimiyat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish

C) Davlat hokimiyati vakolatlarini kuchaytirish va davlat hokimiyat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini cheklash

D) Davlat hokimiyatini bartaraf etib borish natijasida o‘zini o‘zi boshqarish prinsipini o‘rnatish.

10-mavzu. AXBOROT SOHASINI RIVOJLANTIRISH, AXBOROT VA SO'Z ERKINLIGINI TA'MINLASH

Reja:

1. Axborot sohasini rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy asoslarining yaratilishi.

2. O'zbekistonda jamiyat axborot sohasini isloh qilish jarayoni.

3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishning yangi davri.

Tayanch tushunchalar: Axborot, ommaviy axborot vositalari, axborot sohasini liberallashtirish, so'z erkinligini ta'minlash, fuqarolik jamiyati, nodavlat ommaviy axborot vositalari, Internet, "Elektron hukumat".

1. Axborot sohasini rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy asoslarining yaratilishi

XXI asrning dastlabki o'n yilligida – mamlakatda fuqarolik jamiyati qurishning eng qizg'in pallasida axborot vositalarining o'rni har qachongidan ham yuksakroq darajaga ko'tarildi. Ommaviy axborot va kommunikatsiya vositalari bosqichma-bosqich ravishda amalga oshirilgan islohotlar natijasida o'zida fuqarolik jamiyati institutlariga xos bo'lgan xususiyatlarini namoyon qilib bormoqda. Ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatini hukumatning faoliyati haqida, davlat hokimiyati vakillarining fuqarolar huquqini cheklash borasidagi urinishlari va boshqa qoqonuniy faoliyati haqida xabardor qilib turadi. Aynan ommaviy axborot vositalari orqali fuqarolik jamiyati davlat organlari ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi. Aynan ommaviy axborot vositalari aholining hukumatga nisbatan munosabati hamda hokimiyat organlarini davlat ko'magiga muhtoj bo'lgan fuqarolar haqida xabardor qilib borish yo'li bilan davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasida "o'zaro aloqa" o'rnatilishiga ko'maklashadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) fuqarolik jamiyatidagi, fuqarolar manfaatlari va huquqlarini ta'minlashdagi yuksak o'rnini Prezident Sh.M.Mirziyoyev quyidagicha ifodalab bergan edi: "Oliy Majlis rahbariyati qonunlar muhokamasiga keng xalq ommasini jalb qilish, buning uchun zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, jumladan, Internet tarmog'ida maxsus

"maydon"lar yaratishi zarur. Shu munosabat bilan mamlakatimiz fuqarolari davlat va jamiyat hayotiga daxldor muhim masalalar bo'yicha o'z fikrlarini bildirishlari uchun Internet tarmog'ida **"Mening fikrim"** deb nomlangan maxsus veb-sahifa tashkil etish maqsadga muvofiq. Xususan, demokratiyaning ilg'or mexanizmi sifatida jamoa bo'lib elektron murojaat kiritish tartibini tatbiq qilish zarur. Ya'ni bir guruh fuqarolar tomonidan ilgari surilgan tashabbuslarni Oliy Majlis yoki xalq deputatlari Kengashlari ko'rib chiqishi majburiy ekani qonunda belgilab qo'yilishi lozim".

Umuman, axborot va kommunikatsiya vositalari to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lish uchun ularga doir tushunchalarni anglashga zarurat tug'iladi. "Axborot" tushunchasi xabar, ma'lumot ma'nolarini beradi. Xalqaro munosabatlarda keng qo'llaniladigan "informatsiya" so'zi xabardor qilish, tushuntirish, bayon qilish ma'nolarini beradi. Lekin axborot – bu ma'lumotlar "hajmi"ning (shaklga ega bo'lgan) tuzilmalashtirilgan qismi degan tushuncha ham uchraydi.

XX asrning 50-yillariga qadar "kommunikatsiya" tushunchasi asosan ko'priklar, telefonlar, temir yo'llar, pochta xizmatiga nisbatan qo'llanilar edi. Ular har bir mamlakatni yagona bir butunlikka birlashtirar edi. Lekin keyingi davrda OAVni, ayniqsa radio, televideniya va internetning tezlik bilan rivojlanishi natijasida hozirgi davr jamiyatlari yanada ko'proq o'zaro munosabatlar va muloqotlar kengligiga aylandi. Bu o'zgarishlar kishilarni bir butunlik sari yanada jipslashtira boshladi. Bu jarayonlar jamiyatni rivojlanishi va bir butunligini ta'minlaydi, bu holat ommaviy kommunikatsiya jarayoniga aylandi. "Kommunikatsiya" tushunchasi ingliz tilidan kelib chiqqan bo'lib, u "aloqa", "muomala" va "munosabat" ma'nolarini anglatadi. Siyosiy tizimda kommunikatsiya siyosiy xarakter kasb etadi, ya'ni u ommaviy siyosiy kommunikatsiya deyiladi.

Siyosiy yoki ijtimoiy kommunikatsiyaning tuzilishi – bu axborot manbasi atrofida shakllanadigan aloqalar va munosabatlardir. Shuningdek, ommaviy axborot vositalarining (OAV) rasmiy va norasmiy manbalari bir-birlaridan farqlanadilar. Axborotning rasmiy manbalari: davlat institutlari (korxona va muassasalari) – rahbariyat, turli vazirliklar, tashkilotlar rahbar vakillari yoki ular rahbarligidagi matbuot xizmatlari, jamoatchilik bilan aloqalar axborot bo'limlari.

Davlat milliy OAV: radio; matbuot; televideniya; nashriyotlar; kino;

Mustaqil va muxolifiy partiyalar va jamoatchilik harakatlari OAV:

mustaqil nodavlat OAV, nodavlat radio;

Korporativ tuzilmalar: jamoatchilik guruhlari; turli harakatlar; *reklama va kasbiy agentliklar;*

Xorijiy OAV: misol uchun – BBC, "Amerika ovozi" radiolari, ITAR-TASS, Belta;

Norasmiy axborot manbalari: siyosiy masalalar bo'yicha harakat qilayotgan shaxslararo yoki rasmiy aloqalar, uchrashuvlar.

OAVning o'ziga xos belgilari:

- oshkoralik, ya'ni iste'molchilarning kimligidan qat'i nazar va hech qanday cheklanmagan doirasi uchun tegishli bo'lgan;
- axborotlar uzatish uchun maxsus texnikaviy asbob-anjomlar va uskunalarning mavjudligi;
- kommunikatsiyaviy sheriklarning ma'lum makonda va zamonda to'g'ridan to'g'ri bo'lmagan va bo'lingan holdagi o'zaro xatti-harakatlari;
- o'zaro xatti-harakatlarning kommunikatordan retsipiyent sari bir tomonga yo'nalganligi, ularning rollarini o'zgartirish mumkin emasligi;
- u yoki bu maqola yoki eshittirish yoxud ko'rsatuvga nisbatan paydo bo'lgan diqqat-e'tibor natijasida goh-gohida to'planib turadigan auditoriyaning o'zgaruvchanligi va yoyiluvchanligi.

Hozirgi davrga kelib OAV jamiyatga va insonlar ijtimoiy ongiga kuchli ta'sir etib, saylov kampaniyalarining asosiy vositasiga aylandi. OAV fuqaroviy va siyosiy arboblar o'rtasida telemuloqotlar va hokimiyatni shakllantirishning yangidan-yangi usullarini yaratmoqda. OAV, hattoki, jamoatchi yetakchilar va siyosiy institutlar rahbarlarini sudga tortish imkoniyatlariga ham ega bo'ldilar. Lekin bu kabi holatlar OAVni hokimiyat organlaridan haqiqatda ham mustaqil bo'lgan holda ro'y berishi mumkin. OAVning bu kabi imkoniyatlari demokratik davlatlardagina mavjud bo'ladi. Totalitar rejimlarda esa OAV fuqarolardan ajratib qo'yiladi. Bu holatni muholifat ham o'zgartira olmaydi.

OAVning eng ommaviy turi – gazetalar eng ko'p ommaviy xarakterga ega bo'lib, ular nisbatan ko'proq ijtimoiy va siyosiy bilimlar beradi, ijtimoiy-siyosiy baholashlar va kayfiyatlarni tashiydi. O'quvchi ulardagi axborotlardan xohlaganini o'qiydi, bir axborotni qayta-qayta o'qishi mumkin, ularni har qanday joyda o'qishi mumkin. Bosma nashrdan chiqqan axborot vositalarining kamchiliklari: hodisalar va voqeliklarga nisbatan tezkorlik bilan munosabatga kirisha olmaydi va ularga tezlik bilan javob bera olmaydi, shaxslararo munosabatlarga

unchalik yaqin emas, ularni ayrim shaxslar o'qiydi.

2. Elektron OAV: radio; televideniya. Ularni *jamoaviy tarzda, xo'jalik ishlari bilan shug'ullangan holda ham eshitish va ko'rish mumkin, muhokama qilish mumkin. Ularning kamchiliklari: ularning har biri ba'zi axborotlarni o'ylab chiqishi yoki to'qishi mumkin, ko'pincha obrazlar haqiqiy holatga to'g'ri kelmaydi. Televideniya esa ko'rish* manzaralarini beradi. Lekin u axborotlarni tushunib yetishga oz erkinlik beradi, axborot to'g'risida faqat xotiralar qoladi, ba'zan axborotni aniq mazmunini xotirada saqlab bo'lmaydi.

Xulosa qilib aytganda, siyosiy kommunikatsiya barcha turdagi siyosiy jarayonlarning muhim tasniflaridan biri hisoblanadi. Siyosiy-kommunikativ jarayonlarning yo'nalishi va ularning asosiy mo'ljallari muloqotlarga va bir-birini o'zaro tushunishga, ustunlik qiluvchi qadriyatlarga qaratilgan bo'lib, berilayotgan axborot oqimlari siyosiy tizimning barqarorlik va samaradorlik darajalarini belgilab beradi.

Mustaqillikning dastlabki davridan boshlab, birinchi navbatda axborot-kommunikatsiya vositalarining huquqiy asoslarini yaratishga muhim e'tibor qaratildi va bu sohadagi rivojlangan davlatlar tajribalari sinchiklab o'rganildi. Ommaviy axborot vositalarining xalqaro huquqiy asoslari – bu Inson huquqlari xalqaro umumjahon deklaratsiyasi, Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'G'risidagi xalqaro pakt, O'zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotlar va boshqa davlatlar bilan axborot siyosatiga doir tuzgan bitim va shartnomalari hisoblanadi. Mazkur huquqiy hujjatlar axborotni izlash, olish, tarqatish jarayonlari va ommaviy axborot vositalari faoliyatini bevosita yoki bilvosita tartibga soluvchi asosiy normalardir.

1991-yilning 14-iyunida "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Shuningdek, 1991-yilning 31-avgustida O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining e'lon qilinishi va 1992-yilning 8-dekabrida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilinishi ommaviy axborot vositalari faoliyatidagi muhim voqea bo'ldi. Konstitutsiyaning maxsus XV bobi "Ommaviy axborot vositalari" deb nomlanishining o'zi ommaviy axborot vositalari demokratik tuzumning eng muhim konstitutsiyaviy instituti ekanligining e'tirof etilishi edi. Shuningdek, OAVga katta huquqiy maqom berilishi natijasida mamlakatdagi barcha turdagi OAV demokratik qadriyatlar asosida faoliyat yuritish uchun keng imkoniyatlarga ega bo'ldilar. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 67-moddasida OAVga doir quyidagi qoida mustahkamlandi: "Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga

muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'G'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Senzuraga yo'l qo'yilmaydi".

Konstitutsiyaning 29-moddasidagi quyidagi qoida O'zbekistonda OAVning demokratik qadriyatlar asosida faoliyat yuritishlarining asosiy mazmun va mohiyatini tashkil etdi: "Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega..." Shuningdek, Konstitutsiyada mustahkamlab qo'yilgan vijdon erkinligi, fuqarolarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari kafolatlari ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkin va mustaqil kechishi uchun huquqiy kengliklar yaratdi.

XX asrning 90-yillari o'rtasiga kelib mustaqil demokratik ommaviy axborot vositalarining huquqiy asoslarini shakllantirishning yangi bosqichi boshlandi. Bu davrda Oliy Majlis tomonidan ommaviy axborot vositalarining huquqiy asoslarini shakllantirish, ularning demokratik prinsiplar asosida faoliyat yuritishlarini ta'minlash bilan bog'liq qator qonunlar qabul qildi. Xususan, "Noshirlik faoliyati to'g'risida" (1996-yil 30-avgust), "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida" (1996-yil 30-avgust), "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida" (1997-yil 24-aprel), "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida" (1997-yil 24-aprel), "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida" (1997-yil 26-dekabr) kabi qonunlar qabul qilindi. Mazkur qonunlar mamlakatda OAVning fuqarolik jamiyati talablariga mos faoliyatlarini yo'lga qo'yish, matbuotni zamonaviylashtirish uchun huquqiy asos vazifasini bajardi.

Lekin, shu bilan birga, mazkur qonunlar ommaviy axborot vositalari faoliyatiga keng imkoniyatlar ochish bilan bir qatorda ular zimmasiga katta ma'suliyat yukladi. OAV davlatning mafkuraviy quroli sifatidagi o'ziga xos bo'lmagan vazifalardan xalos bo'lishi va jamiyatning demokratik instituti sifatida "to'rtinchi hokimiyat" funksiyalarini o'z zimmasiga olishi uchun keng shart-sharoitlar yaratildi.

Shuningdek, OAVni iqtisodiy qiyinchiliklardan va ijtimoiy himoya qilish maqsadlarida 1996-yilning noyabrida "O'zbekiston ommaviy axborot vositalarini demokratlashtirish va qo'llab-quvvatlash ijtimoiy-siyosiy jamg'armasi" ta'sis etildi. Shuningdek, OAVni jamiyatdagi o'rnini oshirish, "to'rtinchi hokimiyat"ni mamlakatdagi islohotlarga nisbatan ta'sirini kuchaytirish maqsadlarida Milliy matbuot markazi tashkil etildi. Jurnalistika sohasida kadrlar tayyorlash ishlariga ham muhim ahamiyat berildi. Bu sohaga doir O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining (1999-yil fevral) maxsus qarori qabul qilindi. Mazkur qaror asosida O'zbekiston Milliy universitetining Jurnalistika va

O‘zbekiston Davlat Jahon Tillari universiteti Xalqaro jurnalistika fakultetlari butunlay qayta tashkil etildi va ularning ta’lim bazasi mustahkamlandi. Yangi ruhdagi darsliklar, yangicha o‘qitish uslublarini yaratish jarayonlari boshlandi.

XXI asr boshlaridan jamiyat siyosiy sohasini erkinlashtirish islohotlarining boshlanishi bilan bog‘liq holda OAV faoliyatini demokratlashtirishga yanada muhim e’tibor berila boshlandi. Shuningdek, ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning IX sessiyasida fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etishda ommaviy axborot vositalarining o‘rni benihoya katta ekanligi e’tirof etildi, ularga katta ma’suliyat yuklandi.

2002-yilning 3-iyulida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ommaviy axborot vositalari boshqaruvini takomillashtirish to‘G‘risida”gi Farmoni e’lon qilindi. Mazkur Farmonga binoan O‘zbekiston Davlat Matbuot qo‘mitasi O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligiga aylantirildi. Prezidentning mazkur Farmoni mohiyati ommaviy axborot vositalarini erkinlashtirish, ularning faoliyatiga davlatning aralashuvini cheklash maqsadlari ko‘zda tutgan edi. Shu davrgacha o‘zining katta vakolatlaridan foydalanib norasmiy senzurani amalga oshirib kelgan O‘zbekiston Davlat Matbuot qo‘mitasining Matbuotda davlat sirlarini saqlash boshqarmasi faoliyati butunlay tugatildi. Davlat tomonidan OAVning erkin faoliyat yuritishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratildi.

Mustaqillik davrida mamlakatda OAV va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish, internet tarmog‘idan samarali foydalanishga alohida e’tibor qaratildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 30-maydagi “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to‘g‘risida”gi Farmoni, 2005-yil 16-noyabrdagi “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2005-yil 28-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining jamoat axborot tarmog‘ini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi “Ma’lumotlar uzatish milliy tarmog‘ini tashkil etish va jahon axborot tarmoqlaridan foydalanishni tartibga solish to‘g‘risida”gi, 1999-yil 26-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi axborot resurslarini tayyorlash va ularni ma’lumotlarni uzatish tarmoqlarida, shu jumladan, internetda tarqatish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2002-yil 23-sentabrdagi “Aloqa va axborotlashtirish sohasida boshqaruvni tashkil etishni

takomillashtirish to‘g‘risida”gi, 2005-yil 22-noyabrdagi “Axborotlashtirish sohasida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish to‘g‘risida”gi, 2005-yil 28-dekabrdagi “Ziyonet” axborot tarmog‘ini yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi, 2006-yil 22-sentabrdagi “Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining jamoatchilik bilan aloqalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2007-yil 15-yanvarda “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi (yangi tahriri) qonun, 2007-yil 23-avgustdagi “Davlat va xo‘jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yuridik va jismoniy shaxslar bilan o‘zaro hamkorligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2007-yil 17-dekabrdagi “Internet tarmog‘ida O‘zbekiston Respublikasining Hukumat portalini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari kabi me’yoriy hujjatlar amalda ochiq jamiyat qurishning huquqiy asoslari vazifasini bajardi.

Shuningdek, 2005–2006-yillar davomida O‘zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalarida davlat hokimiyati organlarining faoliyatini yoritish”, “Teleradio ko‘rsatuvlar va eshittiruvlar to‘g‘risida”, “Jamoatchilik televideniyasi to‘g‘risida”, “Kabel ko‘rsatuvlari to‘g‘risida”, “Ommaviy kommunikatsiyalar sohasidagi iqtisodiy asoslar to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilindi.

Shuningdek, mamlakatda axborot muhofazasini ta’minlash uchun me’yoriy-huquqiy hujjatlar, texnik vositalar va kriptografik algoritmlar hamda protokollar negizida yaratilgan dasturiy, apparat-dasturiy va apparat-texnik vositalarni birgalikda qo‘llash bilan samarali amalga oshiriladi. Shuning uchun ham bugungi kunda jamiyatimizning barcha sohalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini kirib borishi va rivojlantirishga respublikada mos qonunchilik bazasi ishlab chiqildi. “Axborotlashtirish to‘g‘risida” (2003-yil), “Elektron raqamli imzo to‘g‘risida” (2003-yil), “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida” (2004-yil), “Elektron tijorat to‘g‘risida” (2004-yil), “Elektron to‘lovlar to‘g‘risida” (2004-yil) qonunlar shular jumlasidandir.

Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini oshirish, davlat va jamiyat qurilishi sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanishni ta’minlashda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yilning 21-martida qabul qilgan “Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori davlat va xo‘jalik

boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini oshirish, davlat va jamiyat qurilishi sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanishni ta'minlashda muhim rol o'ynadi. Shuningdek, mazkur qarorga asosan 2012–2014-yillarda O'zbekiston Respublikasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish dasturi qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2013-yil 27-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori mamlakatda axborot sohasini zamonaviy talablar asosida rivojlantirishga qaratildi. Mazkur Qarorga binoan, 2013–2020-yillarda respublikada telekommunikatsiya texnologiyalari, tarmoqlari va aloqa infratuzilmasini rivojlantirish dasturi tasdiqlandi. Mazkur Qaror ijrosini ta'minlash doirasida O'zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasi huzurida yangi tuzilmalar – "Elektron hukumat" tizimini rivojlantirish markazi va Axborot xavfsizligini ta'minlash markazi tashkil etildi. Ushbu markazlar oldiga mamlakatimiz axborot resurslari, tizim va tarmoqlarini jadal rivojlantirishdek muhim maqsad va vazifalar qo'yildi.

"Elektron hukumat" tizimini rivojlantirish markazi faoliyati mamlakatimizda davlatning aholi va tadbirkorlik subyektlari bilan elektron hamkorlik tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini ishlab chiqishga qaratildi. Davlat organlarida foydalaniladigan ma'lumotlar bazasi va axborot resurslarini loyihalashtirish, ishlab chiqish va birlashtirish mexanizmini nazarda tutadigan ushbu tizimni shakllantirishga yagona texnologik yondashuvni ta'minlaydigan mazkur markaz bu boradagi jahon hamda xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganadi va ularni amaliyotga qo'llaydi.

Ko'rinib turibdiki, axborot kommunikatsiya vositalari hokimiyat organlari va fuqarolar o'rtasidagi o'zaro munosabatarni bog'lab turuvchi vosita vazifasini bajarishdan tashqari fuqarolarning turli manfaatlarini tashuvchi va ifoda etuvchi institut sifatida namoyon bo'ladi. Bu holat o'z-o'zidan fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faollashishiga ta'sir ko'rsatadi. Albatta, bu jarayonda fuqarolarning ijtimoiylashuvining asosiy komponentlaridan biri – fuqarolarning ijtimoiy va siyosiy ongi ham oshib boradi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda demokratik ommaviy axborot vositalarining huquqiy asoslari yaratilishi bilan jamiyat ijtimoiy-siyosiy

hayotida ma'lum o'zgarishlar ro'y bermoqda. Matbuot sohasida jiddiy o'zgarishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar shakllandi. Davlat va jamoat tashkilotlari ommaviy axborot vositalari bilan bir qatorda xususiy matbuot tizimi yaratildi. Erkin matbuot bozori shakllandi, bozor iqtisodiyoti talablariga javob bera oladigan mustaqil nashrlar soni kengaydi va dastlabki raqobat muhiti kurtaklari paydo bo'ldi. Matbuotning iqtisodiy asoslarini yaratish, ularnig huquqiy kafolatlarini ta'minlash va mustaqil nashrlar faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratish hali milliy matbuot oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Rivojlangan demokratik davlatlar tajribasini o'rganish, muassis va tahririyat o'zaro munosabatlarini yangi bosqichga ko'tarish masalalari ham o'z yechimini kutmoqda. Muhimi, mustaqillik yillarida erkin ommaviy axborot vositalari faoliyati uchun zarur bo'lgan huquqiy, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy shart-sharoitlar shakllandi. OAVning fuqarolik jamiyati instituti sifatida rivojlanish islohotlari davom etmoqda. Hozirgi davrga xos jihatlardan biri - mamlakatda erkin matbuotni rivojlantirmay turib, fuqarolik jamiyati qurish va inson erkinligi, huquqlarini ta'minlash mumkin emasligini jamoatchilik anglay boshladi.

2. O'zbekistonda jamiyat axborot sohasini isloh qilish jarayoni

Mamlakatda bosma ommaviy axborot vositalarini har tomonlama rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ularning moddiy negizini mustahkamlash va jurnalistlarning kasbiy malakasini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlatning axborot sohasidagi siyosati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida e'lon qilingan fuqarolarning so'z erkinligi va axborot olish huquqini izchil va to'liq amalga oshirishni ta'minlashga qaratilgan.

Mamlakatda axborot sohasida davlat tashkilotlaridan tashqari jamoat, nodavlat institutlari va tuzilmalarini tuzish va rivojlantirish uchun zarur tashkiliy-huquqiy, texnik shart-sharoitlari ham yaratib berilgan. Jumladan, bu sohada O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Elektron ommaviy axborot vositalari milliy uyushmasi va boshqa qator jamoat birlashmalari o'z faoliyatini amalga oshirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining "O'zbekiston mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondini tashkil etish to'g'risida"gi 2005-yil 16-noyabrdagi Farmoni OAVlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash borasidagi muhim qadam bo'ldi.

Fond faoliyatining asosiy maqsadi – mamlakatda mustaqil, o'zini o'zi ta'minlovchi, zamonaviy demokratik talab va standartlarga javob beradigan bosma OAVlarini shakllantirish, ularning moddiy-texnika bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlash jarayonini qo'llab-quvvatlashdan iboratdir.

Shu bilan birga, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) davlat boshqaruviga joriy etish va keng qo'llash ishlari jadallashib borayotganligini hisobga olib, hukumat tomonidan 2003–2010-yillarda davlat boshqaruvida elektron texnologiyalarni joriy etish dasturi ishlab chiqildi. Mazkur dastur davlat boshqaruvida elektron hujjatlar aylanishini keng targ'ib qilish, fuqarolarga ko'rsatilayotgan xizmatlar darajasini yaxshilash va hukumat tomonidan qabul qilinayotgan qaror va qonunlarni oshkoraligini ta'minlashga qaratildi. Bu dastur mamlakatda "Elektron hukumat"ni shaklantirish yo'lidagi jiddiy islohotlarni boshlab berdi.

Dasturni amalga oshirishning birinchi bosqichida davlat boshqaruv organlarida davlat xizmatlari haqidagi ma'lumotlar (jumladan, mansabdor shaxslarning qabul vaqti, xizmat telefonlari) joylashtirilgan veb sahifalari ochildi.

Ikkinchi bosqichda ma'lumotlarni to'liq jamlagan davlat organlarini saytlardan qidirish imkoniyatini beradigan ma'lumotlar bazasi tuzilib, turli murojaatlarga elektron pochta orqali javob berilishi ta'minlandi. Ular fuqarolarga davlat portaliga kirib, bir qator "interaktiv xizmatlar" orqali turli shakllarni to'ldirish imkonini berdi.

Uchinchi bosqichda moliyaviy va huquqiy xizmatlar ko'rsatish, fuqarolar va xususiy korxonalar litsenziya hamda ruxsatnoma olishi, soliq deklaratsiyasini taqdim etishi, jarima to'lashi va ijtimoiy imtiyozlar so'rab murojaat qilishlari uchun imkoniyatlar yaratildi.

Soddalashtirilgan shaklda har qanday mamlakatning ijtimoiy hayotini uch muhim subyektning (davlat, mamlakat fuqarolari, biznes subyektlari) munosabatlarining o'zaro tengligini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish, fuqarolik jamiyatiga xos munosabatlarni shakllantirish zamonaviy axborot tizimining asosiy vazifasidir. Bu munosabatlarda davlat integratsiyalovchi omil hisoblanadi.

Bunda davlatning integratsiyalovchi roli bunda uchta tizimosti munosabatlarda namoyon bo'ladi:

- hukumat muassasalarining o'zaro va mahalliy davlat boshqaruv organlari bilan o'zaro hamkorlik qilish uchun aloqalarni tashkil etish (G2G);

- hukumat muassasalari bilan mamlakat fuqarolari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni amalga oshirish (G2C);

- hukumat muassasalari bilan biznes subyektlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni yo'lga qo'yish (G2B);

- AKTni joriy etish jarayonida Davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish vazifasi quyidagi muammolarni hal etishga yo'naltiradi:

- umumiy vazifalarni hal etish maqsadida har xil hukumat tuzilmalarining samaraliroq o'zaro hamkorligini qay tarzda tashkil etish mumkin (G2G);

- fuqarolarning manfaatlarini qanday qilib eng ko'p darajada hisobga olish va tegishli Davlat muassasalarida ularga xizmat ko'rsatish sifatini qanday qilib oshirish mumkin (G2C);

- Davlatning biznes subyektlari bilan o'zaro foydali munosabatlarini qanday qilib tashkil etish mumkin (G2B).

Davlat boshqaruvida AKT – bu davlat boshqaruv organlarida jami ichki va tashqi aloqalarni tegishli axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan qo'llab-quvvatlash va ta'minlash tizimidir. Bu tizimda quyidagi jarayonlar amalga oshadi:

- kommunikatsiya tarmoqlari orqali axborotni qayta ishlash, uzatish va tarqatishning elektron vositalari (shu jumladan, Internet) asosida davlat boshqaruvini axborot kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta'minlash;

- davlat hokimiyati barcha tarmoqlari organlarining barcha toifadagi fuqarolarga elektron vositalar orqali xizmat ko'rsatishi;

- davlat organlarining ishi to'g'risida fuqarolarga elektron vositalar orqali xabar berish.

2014-yilga kelib O'zbekistonda "elektron hukumat"ning samarali unsurlarini tashkil etishga doir 20 dan ortiq loyihalar amalga oshirildi. Ularning ichida eng asosiylari quyidagilardan iboratdir:

- O'zbekiston Respublikasining hukumat portali – gov.uz jismoniy va yuridik shaxslar, turli davlat organlari, tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari o'zaro elektron-axborot infratuzilmasi tizimini tashkil etuvchi unsurlari sifatida keng rivojlandi. Mamlakatda har qanday fuqaro yoki tashkilot vakillari o'zlari istagan vaqtda davlat hokimiyati faoliyatiga doir to'liq axborotlarni olishi yoki portal orqali har qanday darajadagi hokimiyat organiga elektron so'rovnoma bilan murojaat qila olish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Shuningdek, mazkur hukumat portalida mamlakatda Interfaol davlat xizmatining (IDX) ochilishi (reestr.uz) davlat boshqaruvida axborot

texnologiyalarini qo'llash sohasidagi katta qadam bo'ldi. IDX fuqarolar, tashkilotlar, korxonalar, nodavlat notijorat tashkilotlar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, o'zini o'zi boshqarish organlari – deyarli barcha jismoniy va yuridik shaxslarga telekommunikatsiya tarmoqlari orqali axborot tizimi vositasida xizmat ko'rsata boshladi. Hukumat qarorlari asosida bu xizmatning 100 dan ortiq tayanch davlat xizmatlari tasdiqlandi. Davlat organlarida axborot texnologiyalaridan hamkorlikda foydalanish asosan ichki boshqaruv yoki ishlab chiqarish samarasini oshirishga qaratildi. Bu xizmatning uchta asosiy yo'nalishi – tadbirkorlar va investorlar (G2B), davlat organlari (G2G) hamda fuqarolar va xorijliklar (G2S) yo'nalishlari alohida va maxsus dasturlar bilan ta'minlandi. Shuningdek, xizmat ko'rsatishning quyidagi turlaridan foydalanish tajribasi o'rnatildi:

- hammabop axborotlarni e'lon qilish (tarqatish) – tegishli axborot tizimlari, jumladan, Internet orqali davlat axborot resurslari xizmatidan foydalanish;
- bir tomonlama xatti-harakat – elektron shakldagi turli hujjatlarni tarmoqqa kiritish imkoniyatini berish;
- ikki tomonlama axborot almashish – qabul qilish, tahlil (ko'rib chiqish) va so'rov bo'yicha javob berish (buyurtmalar berish, murojaatlar qilish yoki ularni ishlab chiqish natijalarini taqdim etish) kabi muassasa xizmatlari;
- elektron shakldagi to'laqonli ma'lumotlarni amalga oshirish, jumladan, ularni taqdim etish va xizmat haqini to'lash.

Shuningdek, bu jarayonning samarasini oshirish, jamiyatdagi voqeliklar va hodisalarni e'tiborga olish maqsadida, shuningdek, o'zaro xatti-harakatlar imkoniyatlari sifatida "rasmiy veb-saytlardan foydalanuvchilar fikrlarini birlashgan forum maydoni va Forumda o'rganishni ta'minlash, forumdagi muhokamalarga axborot xizmatlari vakillarini jalb etish" yo'lga qo'yildi.

Hukumat portalining (GOV.UZning) 3500 dan ortiq ishtirokchilaridan 20 dan ortig'i ommabop resurs ekanligi bilan ajralib turadi, Unda 100 dan ortiq mavzuga doir bo'limlari, 10 dan ortiq yangi servis va xizmatlar doimiy ravishda ishlab turadi. Keyingi o'n yillikda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, Vazirlar Kengashi, Toshkent shahar va viloyatlar hokimliklarining barchasi Internet tarmog'iga ulanib, ular uchun maxsus veb-saytlar ochildi. Fuqarolarning bu saytlarga kirishlari uchun zarur bo'lgan imkoniyatlar yaratildi. Ayniqsa, hukumat portalining (GOV.UZ) o'rnatilishi fuqarolarning

markaziy davlat hokimiyati organlariga murojaat qilishlari, muloqotga kirishlari uchun shart-sharoitlar yaratdi.

"E-Kommunal.uz" portali – uy-joy kommunal xo'jaligi (UKX) sohasida umumiy axborot infratuzilmasi sifatida kommunal xizmat, uy-joy egalari shirkati, nazorat organlari va aholining o'zaro axborot almashishini ta'minlab, bu sohadagi boshqaruv faoliyatini rivojlantirish omili sifatida namoyon bo'lmoqda.

Bu portalda qulay tarzda O'zbekiston uy-joy va kommunal xizmati, shuningdek, barcha kommunal xizmatlarning interfaol kalkulyatorlari va ta'riflariga doir axborotlar joylashtirilgan bo'lib, ular muttasil ravishda yangilanib turadi. Har bir fuqaro portalga o'zining rasmi, o'zi to'g'risidagi ma'lumotlarni, kommunal xo'jaligi sohasidagi muammolarni joylashtirishi mumkin. Bu axborotlar tegishli organlar tomonidan ko'rib chiqilib, muammolarni o'rganib, ularning yechimini topish bilan shug'ullanishlari uchun qulay sharoitlar yaratilgan.

Tadbirkorlik subyektlaridan elektron shaklda moliyaviy va boshqa hisobotlarni olish, ularga doir statistik ma'lumotlarni qayta ishlab chiqish tizimini avtomatlashtirish (stat.uz, soliq.uz) ham yildan-yilga rivojlanib bormoqda. Unda Davlat soliq qo'mitasining sayti joylashgan bo'lib, har qanday fuqaro maslahatlar olishi mumkin, soliq hisobotlari, deklaratsiyalar va boshqa soliq tizimiga tegishli hujjatlarni elektron shaklda yuborishi, ularning javoblarini olishi mumkin.

Shuningdek, elektr energiyasi iste'molchilari uchun uzbekenergo.uz, xorijiy fuqarolarning viza olishlari uchun mfa.uz, litsenziyalar uchun yagona portal license.uz kabilarning ochilishi, unda faoliyat ko'rsatish, ruxsat olishga doir axborotlarning joylashtirilganligi davlat va boshqa darajadagi boshqaruv tizimlarida byurokratiyani kamaytirishga, aholi uchun dolzarb bo'lgan muammolarni tezlik bilan aniqlab, ularga nisbatan tegishli choralar ko'rishga shart-sharoitlar yaratadi.

O'zbekistonda Internetga ulanish va uning xizmatlaridan foydalanish keng ko'lamda asosan 1997-yildan boshlandi. Dastlab Naytov (http: www.naytov.com), O'znet (http: www.uz.net yoki (http: www.eastlink.uz) kabi provayd-kompaniyalari faoliyat ko'rsata boshladi, XXI asr boshlaridan O'zbekistonda kompyuterlashtirish (ayniqsa, davlat muassasalari, ta'lim tizimi, tijorat tashkilotlarida), shaxsiy kompyuterlar va zamonaviy elektron aloqaning turlari (peyjer, uyali aloqa) va optik tolali liniyalar tezlik bilan rivojlana boshladi.

Xalqaro Internet tizimida O'zbekiston to'g'risida, mamlakatdagi turli idoralar va muassasalar, kompaniya va firmalar, ta'lim tizimi

(universitetlar, ilmiy-tadqiqot institutlari va boshq.), tijorat tashkilotlari, bank, moliya, sug'urta tuzilmalari va boshqalar to'g'risida ma'lumotlar mavjuddir. Maxsus rasmiy varaqchalarda O'zbekiston hukumati, O'zbekistondagi elchixonalar (AQSH, Buyuk Britaniya, Turkiya, Rossiya va boshq.) va boshqa ko'plab mamlakatlar to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Ayni vaqtda, O'zbekistonga tegishli shaxsiy varaqchalar ham mavjud: "Umid" varaqchasi, "O'zbek estradasi", O'zbekiston televideniyasining "Axborot" dasturi (2000-yildan boshlab) kabilar rivojlanib va takomillashib bormoqda.

O'zbekistondagi yirik kutubxonalar – Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, O'zbekiston FA ning Fundamental kutubxonasi, Tibbiyot kutubxonasi, Respublika ilmiy-texnika kutubxonasi kabilarning barchasi Internet tizimiga ulangan bo'lib, ular aholini axborotlar resurslari bilan ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda.

O'zbekistonning barcha mintaqalarida (viloyat va tumanlarida) xalqaro Internet tarmog'iga ulanish "O'zPAK" Davlat kompaniyasining xalqaro kanallari orqali amalga oshirilmoqda. Mamlakatda Internet tizimidan foydalanuvchilar safi jadal sur'atlar bilan kengayib bormoqda. 2002-yilda bor-yo'g'i 300 mingdan ortiq Internet tizimidan foydalanuvchilar bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda ularning soni 6 milliondan ortib ketdi.

Xususan, nodavlat ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash, ularning moddiy-texnik bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlash maqsadida bir qancha jamoat tashkilotlari tashkil qilindi. O'z tarkibida 100 dan ortiq elektron ommaviy axborot vositalarini birlashtirgan Nodavlat elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi, shuningdek, O'zbekiston mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 16-apreldagi "O'zbekiston Respublikasida "Elektron ta'lim" milliy tizimini yaratish" investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1740-sonli qarorini amalga oshirishni ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 25-iyulda "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzurida ta'lim muassasalarida elektron ta'limni joriy etish markazini tashkil etish to'g'risida"gi 228-sonli qarori qabul qilindi.

Bu qaror o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini ta'minlash, shuningdek oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida

yuqori texnologik darajada o‘quv jarayonini tashkil etish uchun elektron o‘quv-metodik va axborot-kutubxona resurslari, axborot tizimlari shakllantirilishini ta’minlovchi yagona organni tashkil qilishga qaratildi. Mazkur qarorga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda O‘zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligining O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzurida Ta’lim muassasalarida elektron ta’limni joriy etish markazini tashkil etish to‘G‘risidagi taklifi qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2013-yil 27-iyunda qabul qilgan “O‘zbekiston Respublikasining Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan tasdiqlangan 2013–2020-yillarda O‘zbekiston Respublikasi telekommunikatsiya texnologiyalari, tarmoqlari va aloqa infratuzilmasini rivojlantirish dasturining qabul qilinishi mamlakatimizda axborot resurslari, tizimlari va tarmoqlarini yanada jadal rivojlantirishga shart-sharoitlar yaratdi.

Hozirgi umumjahon axborot globallashuvi jarayonlari axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini nafaqat davlat boshqaruvi va iqtisodiyoti, balki axborot tizimlari xavfsizligini ta’minlashda ham keng qo‘llashni taqozo etmoqda. O‘zbekiston axborot va kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi xalqaro xavfsizlik tizimiga Markaziy Osiyoda birinchilardan bo‘lib qo‘shildi. Mamlakat Prezidentining 2005-yil 5-sentabrda qabul qilingan “Milliy axborot-kommunikatsiya tizimlarining kompyuter xavfsizligini ta’minlash borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga binoan “Uzinfocom” kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish hamda joriy etish markazi huzurida “UZ-CERT” kompyuter hodisalariga chora ko‘rish xizmati tashkil qilindi. Bu xizmat asosida Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo‘mitasi huzurida Axborot xavfsizligini ta’minlash markazi tuzildi.

Bu markazning asosiy maqsadi “Elektron hukumat” tizimi ma’lumotlar bazasi, resurslari va axborot tizimlari kompleksining axborot xavfsizligini ta’minlash, davlat organlarining tegishli resurs va tizimlarining axborot xavfsizligi siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishga ko‘maklashishdan iboratdir.

Markaz axborot xavfsizligining zamonaviy tahdidlari haqida ma’lumotlar to‘plash va tahlil qilish, “Elektron hukumat” tizimi ma’lumotlar bazasi, resurslari va axborot tizimlari kompleksiga noqonuniy kirishga oid harakatlarning oldini olishga qaratilgan tashkiliy

va dasturiy-texnik qarorlar qabul qilish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish faoliyati bilan shug'ullanadi. "Elektron hukumat" tizimining axborot xavfsizligini ta'minlash sohasidagi me'yoriy-huquqiy bazani, shuningdek, milliy internet segmentini takomillashtirish borasida takliflar ishlab chiqish ham markaz faoliyati yo'nalishlaridan biridir.

Mamlakatda "Elektron hukumat" tizimini rivojlantirish markazi va Axborot xavfsizligini ta'minlash markazining tashkil etilishi hamda ularning o'zaro hamkorligi O'zbekistonda milliy axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirishning muhim bosqichi bo'ldi.

2014-yilga kelib esa mamlakatda 1400 ommaviy axborot vositasi faoliyat ko'rsata boshlagan bo'lsa, 2018-yilga kelib ularning soni 1500 taga etdi. Ularning 62 foizi nodavlat ommaviy axborot vositalaridir. Hozirgi davrga kelib mamlakat ommaviy axborot vositalari mamlakatimiz hamda dunyoda ro'y berayotgan voqea-hodisalarni keng yorita boshladi, aholi tafakkurini shakllantirish, huquqiy ongi va madaniyat darajasini yuksaltirishda bevosita ishtirok etmoqda. Shuningdek, ular fikrlar xilma-xilligini ta'minlashga ko'maklashmoqda. Bu esa mamlakatimizni demokratlashtirish va jahon axborot makoniga integratsiyalashtirish sharoitida nihoyatda muhimdir.

Shuningdek, O'zbekiston mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo'llab quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi tashkil etilganidan buyon o'tgan vaqt davomida mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari faoliyatini rag'batlantirish bo'yicha yuzlab loyiha ishlab chiqilib, amalga oshirildi. Bu borada 900 dan ziyod bosma va veb-nashrlar tahririyatlari hamda 4 ta axborot agentligi bilan faol hamkorlik yo'lga qo'yildi. Ommaviy axborot vositalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, mamlakatimizni demokratlashtirish va modernizatsiya qilish jarayonlarini yoritishda ular ishtirokini faollashtirish uchun fond tomonidan yuzdan ortiq bosma va internet-nashrlarga grantlar ajratildi.

O'zbekistonda internet jurnalistikasining jadal rivojlanayotgani zamon talabi bo'lib, bu yurtimizda global tarmoq ham shiddat bilan taraqqiy etib borayotganidan dalolatdir. Agar 2010-yilda milliy domenda 10 ming veb-sayt ro'yxatga olingan bo'lsa, hozirgi davrda ularning soni ikki barobardan ko'proqqa oshdi. Provayderlarni texnik jihozlashni bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish, internet trafikni kuchaytirish va hajmini oshirish inobatga olingan holda, aholining global tarmoqdan foydalanish sharoitlari taboro takomillashib bormoqda.

3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishning yangi davri

Hozirgi davrda rivojlangan davlatlarda "axborotlashgan jamiyat" tushunchasi tez-tez tilga olinadigan bo'lib qoldi. Bu tushuncha jamiyatni to'liq ravishda axborot kommunikatsiyalari asosida boshqarilishi va "Elektron hukumat"ning joriy etilganligini anglatib, ko'pincha, fuqarolik jamiyatining sinonimi sifatida ishlatilmoqda. Jamiyatni axborotlashtirish – bu jamiyat a'zolarining ishonchli axborotdan to'liq va o'z vaqtida foydalanishlarini ta'minlashga qaratilgan choralar kompleksini ishga tushirishni anglatadi. Jamiyatni axborotlashtirishning miqyosi yangi axborot texnologiyalarini o'zlashtirish va rivojlantirish darajasiga bog'liq bo'ladi. Hozirgi davrda axborotlashgan jamiyat atamasi nafaqat axborot sohasi mutaxassislarining o'zaro muomalasida, balki siyosiy faoliyat, iqtisodchi olimlarning o'zaro munosabatlarida ham namoyon bo'lmoqda.

Axborotlashgan jamiyatni tavsiflovchi mezonlar quyidagilardan iborat:

- texnologik: ishlab chiqarish jarayonida, muassasalarda, ta'lim tizimida keng qo'llaniladigan axborot texnologiyalari;
- ijtimoiy: axborot yashash sifatini o'zgarishlarning muhim omili sifatida yuzaga chiqadi, axborot ichiga chuqur kirib borish natijasida "axborot ongi" shakllanadi va namoyon bo'ladi;
- iqtisodiy: axborot iqtisodiyotda resurs, xizmat, tovar, qo'shilgan qiymat va bandlik kabilarning manbai sifatida barcha sohalarga kirib boruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi;
- siyosiy: axborot erkinligi siyosiy jarayonlarda turli siyosiy kuchlar va aholi ijtimoiy qatlamlari orasidagi munosabatlarni yanada rivojlantiradi, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda o'sib borayotgan ishtiroki bilan tavsiflanadigan omil hisoblanadi;
- madaniy: axborotning madaniy qadr-qimmatini alohida individ va butun jamiyat rivojining manfaatlari mushtarakligida ifodalaydi, axborot madaniy qadriyatlar va aloqalarni yanada mustahkamlaydi.

Axborotlashgan jamiyat komponentlari quyidagilardan iborat:

- axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, Internet;
- axborot-intellektual mulk;
- elektron axborot markazlari, bazalari va ma'lumotlar banki, videomahsulotlar, ko'p tilli tarjimonlar, yangi tasvir vositalari;
- axborotning umumiy merosiy sohalari (ishlab chiqarishni boshqarish tizimlari, biotexnologiyalar, farmasevtik mahsulotlar va h.k.).

Bu komponentlar jamiyat iqtisodiyoti sohasining barcha jabhalarida namoyon bo'ladi, ularning ta'siri axborot-kommunikatsiya jarayonlarining o'sib borishiga mutanosib ravishda rivojlanib bormoqda. Axborotlashgan jamiyat konsepsiyasiga binoan "jamiyat rivojining asosiy omili – ishlab chiqarish va axborotdan keng foydalanish" qoidasi qonuniyatga aylandi. Hozirgi davrga kelib hukumat va fuqarosi orasidagi o'zaro ta'sir va munosabatlar axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositasida amalga oshirilishi an'anaga aylandi. Huquqiy davlat "fuqaro–hukumat", "fuqarolik jamiyati–hukumat" o'zaro axborot munosabatlari, axborot almashishdagi o'zaro manfaatlar muvozanati va uning me'yorlari axborot-kommunikatsiya vositalariga doir qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan. Hukumat va jamiyat, alohida fuqaroning o'zaro ta'sirini optimallashtirish uchun "elektron hukumat" tizimidan faol foydalaniladi.

"Elektron hukumat" ikki qismdan tashkil topadi:

1. Hukumat va jamiyatning o'zaro munosabatlari.

2. Hukumatning turli darajalari (markaziy, mintaqaviy, mahalliy) va turli tarmoqlarining (ijro, qonun, sud hokimiyatlari) o'zaro ichki aloqalari va hamkorligi.

"Elektron hukumat" aholiga Internet-texnologiyalar vositasida va yordamida (ya'ni AKT orqali) o'z nuqtai nazarlarini ifodalash imkoniyatlarini bergani holda ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotiga ta'sir ko'rsatishlari imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga Internet foydalanuvchilar uchun zamonaviy darajada moslashtirilgan yangi xizmatlarni taqdim etish yo'li bilan davlat boshqaruv organlariga murojaat qilish, ularga ta'sir etish, ulardan axborotlar olishga imkon beradi.

Fuqarolar axborot va telekommunikatsiya infratuzilmasini shakllantirish natijasida quyidagilarga erishadi:

- tashkilot va fuqarolar uchun davlat hukumat organlari bilan o'zaro xamkorlikning elektron usullariga murojaat qila olish, aholining davlat boshqaruv organlari bilan o'zaro hamkorligi yoki muloqoti uchun sarflanadigan vaqtni kamaytirish;

- davlat boshqaruv organlarining aholiga davlat xizmatlarini taqdim etishi va elektron ko'rinishdagi davlat vazifalarini bajarish harajatlarini kamayishi;

- umumdavlat ahamiyatiga molik bo'lgan turli vazifalarni bajarish uchun davlat byudjeti harajatlarini kamaytirish;

- aholi bilan hukumat boshqaruv organlari orasida tezkor va ximoyalangan axborot almashinuvi uchun yagona texnologik va ishonchli vosita.

Fuqarolik jamiyati va alohida individlarning manfaatlari o‘z ichiga davlat va uning organlari axborotlarining ochiq bo‘lishiga ehtiyoj sezadi. Axborotning ochiqligidan davlatning o‘zi ham manfaatdordir. Axborotning ochiqligi – bu har qanday demokratik davlatning tavsifi hisoblanadi. Davlatning axborot ochiqligi qanchalik yuqori bo‘lsa, u shunchalik huquqiy davlat belgilariga ega bo‘lgan siyosiy institut hisoblanadi. Hukumat hujjatlari va axborotlariga kirishni ta’minlashni osonlashtirish va qulaylashtirishga intilgan davlat fuqarolik jamiyatini shakllanishi uchun keng shart-sharoitlar yaratib beradi. Davlat boshqaruvining sifati va demokratik xarakter kasb etishi hukumatning aholini “eshitish” va “tinglash”ga tayyor ekanligiga to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liqdir.

2015-yilning 3-dekabrida O‘zbekiston Respublikasi “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi Qonunining qabul qilinishi axborot kommunikatsiyalarini rivojlantirish va so‘z erkinligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etdi. Qonunning 3-moddasida “Elektron hukumat”ga doir asosiy tushunchalarning ta’riflari berildi:

elektron hukumat — davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash yo‘li bilan davlat xizmatlari ko‘rsatishga doir faoliyatini, shuningdek idoralararo elektron hamkorlik qilishni ta’minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimi;

davlat xizmati — ariza beruvchilarning so‘rovlariga ko‘ra amalga oshiriladigan, davlat organlarining vazifalarini bajarish bo‘yicha ular tomonidan ko‘rsatiladigan xizmat. Agar qonun hujjatlariga muvofiq davlat xizmatlari ko‘rsatish funksiyalari boshqa tashkilotlar zimmasiga yuklatilgan bo‘lsa, ular ham davlat xizmatini ko‘rsatishlari mumkin;

so‘rov — ariza beruvchining davlat xizmati ko‘rsatilishi to‘g‘risida davlat organlariga yuboriladigan talabi;

ariza beruvchi — davlat organiga so‘rov bilan murojaat etgan jismoniy yoki yuridik shaxs;

idoralararo elektron hamkorlik qilish — davlat organlari o‘rtasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida ma’lumotlar almashish;

elektron hukumatning yagona identifikatorlari — har bir jismoniy va yuridik shaxsga, kadastr va ko‘chmas mulk obyektlariga, geografik va boshqa obyektlarga beriladigan, ularni elektron hukumatda identifikatsiyalash imkonini beruvchi noyob kodlar;

elektron davlat xizmatining reglamenti — elektron davlat xizmati

ko'rsatishga doir tartibni va talablarni belgilovchi normativ-huquqiy hujjat;

elektron davlat xizmati — axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilgan holda ko'rsatiladigan davlat xizmati.

Elektron hukumatning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi:

- davlat organlari faoliyatining samaradorligini, tezkorligini va shaffofligini ta'minlash, ularning mas'uliyatini va ijro intizomini kuchaytirish, aholi va tadbirkorlik subyektlari bilan axborot almashishni ta'minlashning qo'shimcha mexanizmlarini yaratish;
- ariza beruvchilar uchun mamlakatning butun hududida davlat organlari bilan o'zaro munosabatlarni elektron hukumat doirasida amalga oshirish bo'yicha imkoniyatlar yaratish;
- o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalar doirasida davlat organlarining ma'lumotlar bazalarini, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini va Elektron davlat xizmatlarining yagona reestrini shakllantirish;
- aholi va tadbirkorlik subyektlari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda elektron hujjat aylanishi, davlat organlarining o'zaro hamkorligi va ularning ma'lumotlar bazalari o'rtasida axborot almashinuvi mexanizmlarini shakllantirish hisobiga davlat boshqaruvi tizimida "bir darcha" prinsipini joriy etish;
- tadbirkorlik subyektlarini elektron hujjat aylanishidan foydalanishga, shu jumladan, statistika hisobotini taqdim etish, bojxona rasmiylashtiruvi, litsenziyalar, ruxsat nomalar, sertifikatlar berish jarayonlarida, shuningdek davlat organlaridan axborot olish jarayonlarida elektron hujjat aylanishidan foydalanishga o'tkazish;
- tadbirkorlik subyektlarining elektron tijorat, Internet jahon axborot tarmoG'i orqali mahsulotni sotish va xaridlarni amalga oshirish tizimlaridan foydalanishini, shuningdek kommunal xizmatlarni hisobga olishning, nazorat qilishning va ular uchun haq to'lashning avtomatlashtirilgan tizimlarini joriy etishni kengaytirish;
- naqd bo'lmagan elektron to'lovlar, davlat xaridlarini amalga oshirish, masofadan foydalanish tizimlarini va bank-moliya sohasidagi faoliyatning boshqa elektron shakllarini rivojlantirish.

Qonunning 5-moddasiga binoan "Elektron hukumat"ning quyidagi asosiy prinsiplari belgilandi:

- davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligi;
- elektron davlat xizmatlaridan ariza beruvchilarning teng ravishda foydalanishi;

- "bir darcha" prinsipi bo'yicha elektron davlat xizmatlari ko'rsatish;
- davlat organlarining hujjatlarini bir xillashtirish;
- elektron hukumatning yagona identifikatorlaridan foydalanish;
- elektron davlat xizmatlari ko'rsatish tartibini muntazam takomillashtirib borish;
- axborot xavfsizligini ta'minlash.

"Elektron hukumat to'g'risida"gi Qonunining qabul qilinishi mamlakatda axborot kommunikatsiyalarini rivojlantirishning yangi davrini boshlab berdi. Xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tatqiqotlar hozirgi davrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) innovatsiyalarning rivojlanishida, mamlakatning ishlab chiqarish va raqobatdoshligini oshirish, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda aholining hayot darajasini oshirishda muhim o'rin tutishini har tomonlama isbotlab berdi.

Shuning uchun ham 2016-yilning so'nggi choragidan boshlab mamlakat davlat hokimiyati tepasiga kelgan Prezident Sh.M.Mirziyoyev jamiyat va davlat boshqaruvida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashga muhim ahamiyat bera boshladi. Mamlakatimizda AKT uchun xalqaro standartlarga muvofiq dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan sifatli va raqobatdosh dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqarishni kengaytirishni raG'batlantirishni kuchaytirish, shuningdek, 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yilida amalga oshirishga oid Davlat dasturida nazarda tutilgan boshqa vazifalarni hal qilish, AKT mahsulotlari eksportini kengaytirish, mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni raG'batlantirish maqsadida 2017-yilning 30-iyunida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonni qabul qildi.

Mazkur Farmon bilan mamlakatimizda birinchi marotaba axborot texnologiyalari sohasida xo'jalik yurituvchi subyektlarni, dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilarni birlashtiradigan Axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy qilishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha "Mirzo Ulugbek Innovation Center" innovatsiya markazi tuzildi.

Innovatsiya markazi mamlakatimiz hududi doirasida eksterritoriallik prinsipi asosida tashkil qilindi, ya'ni AKT sohasidagi korxonalar respublikada joylashgan hududidan qat'i nazar, Innovatsiya markazi

rezidentlari bo'lishi mumkin. Ushbu tamoyil mamlakatda AKT mahsulotlarini ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qilishi begilab qo'yildi.

"Quyidagilar Innovatsiya markazi faoliyatining asosiy yo'nalishlari etib belgilansin:

xo'jalik yurituvchi subyektlar va oliy ta'lim muassasalarining axborot texnologiyalari mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda ichki va tashqi bozorlarda sotishga qaratilgan o'zaro hamkorligini kengaytirish uchun zarur tashkiliy-texnik va moliyaviy-iqtisodiy shart-sharoitlar yaratish;

AKT sohasida raqobatdosh loyihalarni ichki va tashqi bozorlarda sotish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb etishda Innovatsiya markazi rezidentlariga ko'maklashish;

oliy ta'lim muassasalari va kasb-hunar kollejlarining "axborot texnologiyalari" mutaxassisligi bo'yicha bitiruvchilarining ishga joylashtirilishini ta'minlashda, shu jumladan iqtidorli yoshlar tomonidan "start-ap" loyihalarini amalga oshirishda ularni qo'llab-quvvatlash yo'li bilan ishtirok etish;

qisqa muddatli va o'rta muddatli ixtisoslashtirilgan kurslarni tashkil etish, shu jumladan, chet el mutaxassislarini taklif etish yo'li bilan AKT sohasidagi kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashni tashkil qilish;

yosh tadbirkorlar tomonidan axborot texnologiyalari mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasidagi istiqbolli yo'nalishlar bo'yicha innovatsiya loyihalari amalga oshirilishini qo'llab-quvvatlash".

O'zbekistonda qisqa davr ichida axborot-kommuikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi xalqaro tashkilotlar tomonidan ham e'tirof etilmoqda. 2017-yilning noyabr oyida Xalqaro Elektraloqa ittifoqi o'zining "Axborotlashgan jamiyat ko'rsatkichlari" hisobotini e'lon qildi. Unda AKTni rivojlantirish bo'yicha 190 dan ziyod davlatlardagi bu sohadagi holatlarni o'rganish natijalari e'lon qilindi: "Xalqaro Elektraloqa ittifoqining 2017-yildagi hisobotlariga ko'ra O'zbekiston AKTni rivojlantirish indeksida 15 o'rin yuqoriga ko'tarilib, 192 mamlakat orasida 95-o'rinni egalladi". 2016-yilda O'zbekiston mazkur reytingda 110-o'rinni egallagan edi.

"Yagona darcha" Markazi va tadbirkorlarga xizmatlar. Tadbirkorlik tuzilmalariga zamonaviy AKTdan keng foydalangan holda davlat xizmatlarini ko'rsatish sifati hamda ulardan foydalanish imkoniyatlarini tubdan oshirish va shaffofligini ta'minlash maqsadida

O‘zbekistonda tadbirkorlik subyektlariga “yagona darcha” tamoyili bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatish yagona markazlari (“yagona darcha” markazlari) tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2015-yil 28-sentabrdagi PQ-2412-sonli Qaroriga muvofiq faqat “yagona darcha” markazlari (YDM) orqali ko‘rsatiladigan 16 ta davlat xizmatlari Ro‘yxati tasdiqlangan. Ushbu ro‘yxat keyinchalik qo‘shimcha davlat xizmatlari bilan to‘ldirib boriladi (Rasm 10.1). Hukumat tomonidan bir yil ichida “Yagona darcha” Markazi xizmatini 50 taga yetkazish vazifasi qo‘yildi.

“Yagona darcha” markazlarining tashkil etilishi mamlakatda tadbirkorlikni rivojlanishi, uning yo‘liga G‘ov bo‘layotgan – byurokratiya va korrupsiyaga barham berishda muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Ayniqsa, mazkur markazlarning davlat xizmati ish faoliyatida

10.1. jadval. “Yagona darcha” markazlari orqali ko‘rsatiladigan Davlat xizmatlari ro‘yxati

№	Ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari nomi
1	Tadbirkorlik subyektlarini injenerlik kommunikatsiya tizimlariga “to‘liq bajarish” sharti bilan ulash
2	Bino va inshootlarning tashqi ko‘rinishini o‘zgartirish (fasadni ta’mirlash) uchun ruxsat berish
3	Obyektni qayta ixtisoslashtirish va rekonstruksiya qilish uchun ruxsat berish
4	Qurilish-montaj ishlarini bajarish uchun ruxsat berish
5	Yer uchastklariga egalik huquqlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish
6	Binolar, inshootlar va ko‘p yillik dov-daraxtlarga egalik huquqlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish
7	Ipotekani hamda yuridik shaxslarning binolar va inshootlar ipotekasi to‘G‘risidagi shartnomalarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish
8	Alkogol mahsulotlari bilan ulgurji savdo qilish uchun ruxsat berish
9	Umumiy ovqatlanish joylarida alkogol mahsulotlari bilan savdo qilish uchun ruxsat berish
10	Ko‘chma savdo bilan shuG‘ullanish uchun ruxsat berish
11	Tashqi reklama joylashtirish uchun ruxsat berish
12	Turar joylarni noturar joyga o‘zgartirish
13	Foydalanish davrida zarar ko‘rgan yer maydonlarini rekultivatsiyalash bo‘yicha xulosa chiqarish
14	O‘rmon fondiga kiritilmagan daraxt va o‘simliklarni kesish uchun ruxsat berish
15	Maxsus suvdan foydalanish va suv iste’mol qilish uchun ruxsat berish
16	O‘simlik dunyosining obyektlaridan maxsus foydalanish uchun ruxsat berish

"fuqarolar emas, hujjatlar harakatlanadi" degan prinsipning o'rnatilishi natijasida tadbirkorlar bir necha o'n yillardan buyon duch kelayotgan muammolarga barxam berildi. Albatta, bu holat davlat hokimiyati boshqaruvi va xizmatini fuqarolik jamiyati prinsiplari asosida nomarkazlashish jarayoni sifatida ham namoyon bo'la boshladi

Davlat boshqaruvi va xizmatining aholini boshqarishga doir tamoyillarining ularga xizmat qilish prinsiplariga almashtirilishi o'zining ijobiy natijalarini bera boshladi. Tadbirkorlar va boshqa xususiy faoliyat yurituvchi subyektlarning turli davlat idoralari oldidagi hisobdorligi AKT vositasida amalga oshirila boshlandi. Aholi "Elektron hukumat" tizimi orqali istalgan darajadagi davlat hokimiyati organlariga murojaat qilish imkoniyatlariga ega bo'ldi. Aholining ma'muriyat organlariga murojaati jarayonlari sodalashtirildi, xususiy faoliyat yoki tadbirkorlik uchun ruxsatnomalar yoki boshqa litsenziyalar olish muddati nihoyatda qisqartirildi, oldingi byurokratik to'siqlar olib tashlandi. Ayniqsa, davlat xizmati ko'rsatadigan mansabdorlarning xalq va yuqori organlar oldidagi mas'ulligini oshirish, rahbar ma'naviy kodekslarini qabul qilinishi, parlament nazorati, deputatlik nazorati, jamoatchilik nazorati kabi boshqaruv usullarini takomillashtirilishi, mansabdorlar faoliyati ustidan monitoring qilish xizmatlarini rivojlanishi davlat xizmati yuzini xalqqa qarata boshladi.

10.2. jadval. "Yagona darcha" markazlari orqali davlat xizmatlari ko'rsatish sxemasi

Bos qich	Subyektlar	Tadbirlar	Muddatlar
1	"Arizachi"	"Yagona darcha" markaziga ariza berish	arizachining xohishiga ko'ra
2	Yagona darcha markazi	1. Davlat xizmati pasportiga muvofiq arizaning to'liqligini tekshirish 2. Arizani unikal raqam ostida elektron jurnalda ro'yxatdan o'tkazish 3. Ariza beruvchiga ariza qabul qilinganligi to'g'risida tilxat berish yoki uning nusxasiga belgi qo'yish 4. Arizani skanerlash va ERI qo'yish 5. Arizani tegishli vakolatli organga yuborish	30 daqiqa mobaynida bir ish kuni mobaynida
3	Vakolatli organ	1. Arizani qabul qilish va ko'rib chiqish 2. Davlat xizmati natijalarini	DX pasportida belgilangan

		rasmiylashtirish yoki sabablarini keltirib rad etishga tayyorlash 3. Ko'rib chiqish natijalari to'G'risidagi ma'lumotlarni o'zining elektron axborot resurslariga kiritish 4. Davlat xizmati ko'rsatish natijalarini yoki uning asoslangan rad etilishini elektron tarzda YaDMga yoki YaIDXP orqali murojaat qilingan taqdirda – arizachiga yuborish	muddatlarda DX pasportida ko'rsatilgan muddatdan 3 soatdan kechikmay
4	Yagona darcha markazi	1. Vakolatli organdan davlat xizmatini ko'rsatish natijasini yoki asoslangan rad etishni olish. Arizachini arizada ko'rsatilgan usulda xabardor qilish. 2. Arizachiga berish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni rasmiylashtirish. 3. Arizachiga arizada ko'rsatilgan usulda hujjatlarni berish. 4. Arizalarni ro'yxatdan o'tkazishning Elektron jurnaliga tegishli yozuvlarni kiritish.	arizani ko'rib chiqish natijalari olingandan keyin bir ish soati mobaynida

Ko'rinib turibdiki, mustaqillik davrida axborot sohasini isloh qilishga doir amalga oshirilgan tub o'zgarishlar ommaviy axborot vositalarini fuqarolik jamiyati tizimidagi o'rnini mustahkamlashga, fuqarolarning so'z erkinligini ta'minlashga qaratilgan konstitutsiyaviy huquqlarini ro'yobga chiqarishdan tashqari aholini jamiyat va davlat boshqaruvida, siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida faol ishtirok etishlarini va jamiyatda o'z erkinliklarini amalga oshirishlarini ta'minlashlariga, ko'maklashadi. Shuning uchun 2017-yilga kelib AKT va "Elektron hukumat" tezlik bilan davlat boshqaruvi va xizmati sohalariga keng miqyoslarda qo'llana boshladi. Bu holat mamlakatdagi ma'muriy islohotlarni tezlashtirishdan tashqari har bir fuqaroning yuqori va oliy davlat hokimiyati organlariga murojaat qilishi, ular bilan muloqotga kirishishi uchun shart-sharoitlar yaratdi. Bu holat ayni fuqarolik jamiyati qurishning asosiy talablaridan biri edi. Mamlakatda AKTni rivojlantirish natijasida 2017-yilning "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" sifatida yangi mohiyati va sifatlari namoyon bo'ldi, davlat organlari bilan xalqning o'zaro muloqotlari samarali kechdi.

Nazorat savollari

1. "Axborot" va "axborot erkinligi" deganda nimani tushunasiz?
2. "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari" deganda nimani tushunasiz?
3. O'zbekistonda axborot sohasini rivojlantirishga doir qanday huquqiy asoslar yaratildi?
4. O'zbekistonda mustaqillik davrida axborot sohasini rivojlantirish islohotlari qanday kechdi?
5. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishning yangi davrida qanday o'zgarishlar amalga oshdi?

Test savollari

1. Quyidagi javoblardan qaysi biri O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 67-moddasiga tegishli?

A) Ommaviy axborot vositalari davlat boshqaruvi uchun xizmat qiladi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Senzuraga yo'l qo'yilmaydi

B) Ommaviy axborot vositalari qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi uchun mas'uldirlar. Senzuraga yo'l qo'yilmaydi

C) Ommaviy axborot vositalari davlat tomonidan muvofiqlashtiriladi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Senzuraga yo'l qo'yilmaydi

D) Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Senzuraga yo'l qo'yilmaydi

2. Quyidagi javoblardan qaysi biri O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasiga tegishli?

A) "Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligini o'zi tanlaydi. Har kim o'ziga kerakli axborotni talab etish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan cheklashlar bundan mustasnodir"

B) "Har kim o'zi xohlagan fikrni e'lon qilish, din va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan cheklashlar bundan mustasnodir"

C) "Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega,

amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan cheklashlar bundan mustasnodir"

D)"Har kim o'zi istagan fikrni e'lon qilishi mumkin, so'z erkinligi huquqiga ega. Har kim o'zi istagan axborotni talab etish, uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan cheklashlar bundan mustasnodir"

3. Zamonaviy axborot texnologiyalari deganda nimani tushunasiz?

A)Zamonaviy axborot texnologiyalari shaxsiy axborot olish uchun ishlatiladigan uskunalardir. Bu uskunalar kompyuterlar va telekommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda ma'lumotlarni qayta ishlaydi

B)Zamonaviy axborot texnologiyalari shaxsiy kompyuterlar va telekommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda ma'lumotlarni qayta ishlashning uslublari, xamda texnik va dasturiy vositalarining jamlanmasidir

C)Zamonaviy axborot texnologiyalari shaxsiy kompyuterlar va telekommunikatsiya vositalarini ishlatish demakdir. Ulardan foydalangan holda ma'lumotlar o'zlashtiriladi.

D)Zamonaviy axborot texnologiyalari shaxsiy kompyuterlar va telekommunikatsiya vositalaridan iborat bo'lib, ular axborot olish uchun ishlatiladi. Ulardan foydalangan holda ma'lumotlarni qayta ishlanadi, o'z egalariga yetkaziladi

4. O'zbekiston Respublikasining "Elektron hukumat to'g'risida"gi Qonuni qabul qilingan sanani belgilang.

A)2015-yil 3-dekabr

B)2012-yil 23-dekabr

C)2014-yil 13-dekabr

D)2013-yil 3-noyabr

5. Axborot tizimi deganda nimani tushunasiz?

A)Axborot tizimi deb bizni o'rab olgan atrof muhitni jamlanmasiga aytiladi. Bu tizimda axborot izlanadi

B)Axborot tizimi deb belgilangan maqsadga erishish uchun axborotni saqlash, izlash, ajratish, uni qayta ishlash prinsiplari, usullari va vositalarining o'zaro bog'langan majmuiga aytiladi

C)Axborot tizimi deb belgilangan davlat tomonidan o'rnatilgan qonunlar va qoidalar asosida axborot izlash muhiti tushuniladi

D)Axborot tizimi deb muayyan jamiyat va davlat chegarasi ichidagi

axborotlar to'planmasiga aytiladi

6. Axborot xavfsizligi deganda nimani tushunasiz?

A) Axborot vositasida amalga oshirilayotgan hujumlarni bartaraf etish, ularga qarshi kurash

B) Axborot xavfsizligi subyektlarini axborot xurujlaridan himoya qilish

C) Axborot sohasida amalga oshiriladigan axborot xavfsizligi subyektlarining huquq va erkinliklari, axborot resurslari, axborot infratuzilmasi

D) Axborot sohasini mustahkamlash, uni davlat himoyasiga olish, fuqarolarni yot g'oyalardan asrash

7. "Elektron hukumat" deganda nimani tushunasiz?

A) Oliy Majisning fuqarolarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash yo'li bilan davlat xizmatlari ko'rsatishga doir faoliyatini, shuningdek, idoralararo elektron hamkorlik qilishni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimi

B) Nodavlat notijorat tashkilotlarning jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash yo'li bilan davlat xizmatlari ko'rsatishga doir faoliyatini, shuningdek, idoralararo elektron hamkorlik qilishni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimi

C) Davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash yo'li bilan davlat xizmatlari ko'rsatishga doir faoliyatini, shuningdek idoralararo elektron hamkorlik qilishni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimi

D) Siyosiy partiyalarning jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash yo'li bilan davlat xizmatlari ko'rsatishga doir faoliyatini, shuningdek idoralararo elektron hamkorlik qilishni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimi

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qachon qabul qilindi?

A) 2016-yilning 30-iyulida

B) 2017-yilning 30-iyunida

C) 2015-yilning 30-iyunida

D) 2014-yilning 30-iyulida

9. "Yagona darcha" Markazining asosiy faoliyati nimalardan iborat?

A) Tadbirkorlik tuzilmalarini sifati va sonini aniqlab boradi, zamonaviy AKTdan keng foydalangan holda ularga yordam beradi, byurokratiyadan holi ravishda xizmat ko'rsatadi

B) Tadbirkorlik tuzilmalariga zamonaviy AKTdan keng foydalangan holda davlat xizmatlarini ko'rsatish turlarini taqdim etib, tadbirkorlik faoliyatini nazorat etadi va uni tekshirib boradi

C) Tadbirkorlik tuzilmalariga zamonaviy menejment xizmati ko'rsatadi, ularni ish samarasini oshirishga yordamlashadi

D) Tadbirkorlik tuzilmalariga zamonaviy AKTdan keng foydalangan holda davlat xizmatlarini ko'rsatish sifati hamda ulardan foydalanish imkoniyatlarini tubdan oshiradi va ularning shaffofligini ta'minlash maqsadida tadbirkorlik subyektlariga "yagona darcha" tamoyili bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatadi

10. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari deganda nimani tushunasiz?

A) Xususiy, umumiy va ishlab chikarish kommunikatsiyasida axborotlar tayyorlash, qayta ishlash va eltib berish bilan bog'lik bo'lgan obyektlar, harakatlar va qoidalar, shuningdek barcha texnologiyalar hamda sanab o'tilgan jarayonlarni birlashgan ravishda ta'minlovchi sohalar majmuasi

B) Davlat va jamiyatdagi nodavlat tashkilotlarning ishida axborotlar tayyorlash, qayta ishlash va eltib berish bilan bog'lik bo'lgan obyektlar, harakatlar va qoidalar, shuningdek barcha texnologiyalar hamda sanab o'tilgan jarayonlarni birlashgan ravishda ta'minlovchi subyektlar

C) Tashkilot kommunikatsiyasida axborotlar tayyorlash, qayta ishlash va eltib berish bilan bog'lik bo'lgan tashkilotlarning tez va sifatli xizmat ko'rsatishi

D) Jamiyatda axborotlar tayyorlash, qayta ishlash va eltib berish bilan bog'lik bo'lgan ishlar jamlanmasi, ularni boshqarish tizimi

11-mavzu. FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISh ORGANLARI

Reja:

1. O'zini o'zi boshqarish organlari fuqarolik jamiyatining instituti sifatida.

2. O'zbekistonda o'zini o'zi boshqarish organlarini demokratlashtirish jarayoni.

3. Mahalla institutining ijtimoiy maqomi va nufuzini oshirishda tub burilish davrining boshlanishi.

Tayanch tushunchalar: fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, mahalla oqsoqoli, mahalla vazifalari, mahalla komissiyalari, o'zbek mahallasi tarixi, mustaqillik va mahalla, mahallada millatlararo totuvlik va baG'rikenglik, ajdodlar merosida mahalla, qadimgi va o'rta asrlar manbalari.

1. O'zini o'zi boshqarish organlari fuqarolik jamiyatining instituti sifatida

O'zini o'zi boshqarish organlari (G'arb davlatlarida munitsipal organlar deyiladi) har qanday demokratik jamiyat tuzumining asosini tashkil etadi. Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari vositasida o'z manfaatlarini himoya qiladi, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ishtirok etadi. O'zini o'zi boshqarish organlarini fuqarolik jamiyatining asosiy instituti bo'lib, fuqarolar ular vositasida o'zlarining birlamchi manfaatlari va ehtiyojlarini qondiradi, uyushgan jamoa sifatida jamiyatni tashkil etadi, o'z hududiga turli ijtimoiy qatlamlar va guruhlar o'zaro birlashgan holda yashashini ta'minlaydi.

Mustaqillik yillarida asosiy strategik pirovard maqsad – huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish, bozor iqtisodiyoti munosabatlarini shakllantirish maqsadida "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" prinsipiga amal qilingan holda keng ko'lamli islohotlar olib borildi. Natijada, o'tgan chorak asrdan ko'proq davr ichida huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining unsurlari hamda institutlari shakllantirildi.

1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatdagi mahalliy davlat hokimiyatining asoslarini belgilab berdi. Uning 105-moddasida o'zini o'zi boshqarish organlariga doir huquqiy asos quyidagicha ifodalandi: "Shaharcha, qishloq va

ovullarda, shuningdek ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi. O'zini o'zi boshqarish organlarini saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish hamda vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi".

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining (FO'O'BO) huquqiy maqomi 1993-yil 2-sentabrda qabul qilingan "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonunda mustahkamlab qo'yildi. Bu huquqiy maqom Qonunda quyidagicha ifodalandi: "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi – mahalliy ahamiyatga molik masalalarni o'z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek, milliy va ma'naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda hal qilish borasidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlanadigan mustaqil faoliyatdir".

Mustaqillik davrida O'zbekistonda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining huquqiy asoslarini tashkil etgan quyidagi qonunlar qabul qilindi: "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonun (1999-yilda qabul qilingan, 2013-yilda yangi tahrirda qabul qilindi); "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida"gi Qonun (2004-yilda qabul qilingan, 2013-yilda yangi tahrirda qabul qilindi); O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi farmoni (1998-yil); O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholini aniq yo'naltirilgan ijtimoiy madad bilan ta'minlashda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari rolini oshirish to'g'risida"gi Farmoni (1999-yil); O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlari mehnatini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni (2012-yil); O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha o'quv kurslarini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori (2013-yil) va boshqalar.

O'zini o'zi boshqarish organlariga doir qonunchilik asosida har yili davlat byudjetidan maxsus modda bilan moliyalashtiriladi. FO'O'BO aholining o'zini o'zi boshqara olish qobiliyatiga tayangan holda mahalliy davlat hokimiyatining vakolatiga kirmagan va boshqarish imkoniyati bo'lmagan hududlarda tashkil etiladi. FO'O'BO – aholining

o‘zini o‘zi boshqarish salohiyatini namoyon qiladigan, fuqarolik burchiga asoslangan, ayni paytda, fuqarolik jamiyati instituti hisoblanadigan mustaqil ravishda o‘zini o‘zi boshqarishdir. FO‘O‘BO ichida aholi o‘rtasida eng ko‘p tarqalgani, jamiyatning har qanday hujayralariga ham kirib boradigani – bu mahalla fuqarolar yiG‘inlaridir (bundan keyin mahalla deyiladi).

O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonunining tegishli moddalarida fuqarolar shaharchalar, qishloqlar, ovullar va mahallalarda o‘zini o‘zi boshqarish huquqini saylov orqali, fuqarolar yig‘inlari asosida amalga oshirishi belgilab qo‘yilgan. Mahalla – bu fuqarolar intilishi va sa’y harakati tufayli muayyan milliy ahloqiy tartib qoidalariga rioya qilish, ma’raka-marosimlarni, to‘y-hashamlarni birga ahillikda o‘tkazishni ta’minlashga xizmat qiladigan ijtimoiy-iqtisodiy va hududiy jamoadir.

O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonunining (2013-yildagi yangi tahriri) 3-moddasiga muvofiq “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarishi fuqarolarning mahalliy ahamiyatga molik masalalarni o‘z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek milliy va ma’naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an’analardan kelib chiqqan holda hal qilish borasidagi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlanadigan mustaqil faoliyatidir”.

Mazkur Qonun 8-moddasida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tushunchasi quyidagicha ta’riflanadi: “Shaharchalar, qishloqlar va ovullar, shuningdek, shaharlardagi, shaharchalardagi, qishloqlardagi hamda ovullardagi mahallalar fuqarolar yig‘inlari (bundan buyon matnda fuqarolar yig‘ini deb yuritiladi) fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlaridir. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi va qonun hujjatlari bilan berilgan o‘z vakolatlarini tegishli hudud doirasida amalga oshiradi”.

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning (1993-yil 2-sentabr) 4-moddasiga muvofiq “Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi va viloyat, tuman, shahar hokimi tegishli hududda o‘zini o‘zi boshqarishni rivojlantirishga ko‘maklashadilar, o‘zini o‘zi boshqarish organlarining faoliyatini yo‘naltirib turadilar. Viloyat, tuman, shahar hokimi zarur bo‘lgan hollarda o‘z faoliyati to‘g‘risida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga hisobot taqdim etadi”. Mazkur Qonunning 1-moddasida “Xalq deputatlari Kengashi

va hokim viloyat, tuman va shahar uchun umumiy bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazifalari amalga oshirilishini, joylarda qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi qabul qilgan hujjatlar, yuqori turuvchi xalq deputatlari Kengashlari va hokimlar qarorlarining ijrosini, O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi aloqalarni, aholini viloyat, tuman va shaharni boshqarishga jalb etishni ta'minlaydi", degan qoidalar ifodalangan.

Mahalliy davlat hokimiyati va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari turli masalalar yuzasidan o'zaro munosabatlarga kirishadilar. Ushbu munosabatlar fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarini qo'llab-quvvatlash, mahalliy boshqaruvdagi ishtirokini ta'minlash, shuningdek, mahalliy hokimiyat organlarini o'zini o'zi boshqarishni yo'naltirishdan iboratligi ayon bo'ldi.

"Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonunning 7-moddasiga muvofiq "Davlat organlari fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini amalga oshirishi uchun zarur sharoit yaratadi, qonun hujjatlari bilan berilgan vakolatlarni amalga oshirishda ularga ko'maklashadi".

Mazkur moddaga binoan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, xususan hukumat va parlament boshqa davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatiga aralashmasligini ta'minlaydilar. Bunday faoliyat qonunlar va boshqa qonun hujjatlarida, dasturlarda tegishli me'yorlarni hamda choralarni belgilash, ularning ijrosini ta'minlashdan iborat.

Fuqarolik jamiyati institutlari tizimida o'zini o'zi boshqarish organlarining (ayniqsa, mahallaning) o'rni beqiyosdir. Birinchi Prezident I.A.Karimov bu haqda shunday degan edi: "...o'zini o'zi boshqarish organlari – bizning kelajagimiz. Fuqarolik jamiyatini qurmoqchi ekanmiz, uning asoslarini tashkil etuvchi poydevor mana shu organlar bo'ladi".

Fuqarolik jamiyati sharoitida yashayotgan rivojlangan mamlakatlarda ham o'zini o'zi boshqarish organlari yuqori nufuzga egadir. Mahalliy o'zini o'zi boshqarish, mashhur olim Aleksis de Tokvilning talqinicha, "shunday bir siyosiy institutki, u nafaqat siyosatchilar uchun, balki, umuman barcha fuqarolar uchun bir maktabdir. Bu institutga xos bo'lgan imkoniyatlar shu qadar yuksakki, u fuqarolarning keng siyosiy ishtiroki uchun shart-sharoitlar yaratib beradi.

O‘zini o‘zi boshqarish organlari siyosiy madaniyat elementlarini shakllantirishning ham beqiyos omilidir. Oxir-oqibatda bu organlar faoliyati siyosiy tizimning bir butun barqarorligi va moslashuvchanligini ta’minlab beradi. Millat jamoaviy institutlarsiz ham erkin hukumat shakllantirishi mumkin. Lekin u erkinlikning haqiqiy ruhiyatiga ega bo‘la olmaydi”.

XX asrning ikkinchi yarmida “umumiy farovonlik davlati” nazariyasi bilan bog‘liq holda munitsipal (o‘zini o‘zi boshqarishga doir) konsepsiya ham paydo bo‘ldi. Munitsipalitetlar jamiyatning barcha tabaqalari manfaatlarini ta’minlovchi va himoyalovchi ijtimoiy xizmat ko‘rsatish vositasi sifatida qaraldi. Yevropa, Shimoliy Amerika va Yaponiya kabi mamlakatlarda munitsipal kengashlar maqomi huquqiy jihatdan munitsipal ijroiya boshqaruvidan yuqori qo‘yilgan bo‘lib, ularning vakolatiga quyidagilar kiradi: mahalliy byudjetni qabul qilish, yuqori tashkilotlar tomonidan hal qilinmagan ayrim masalalar bo‘yicha me’yoriy qarorlar qabul qilish, mahalliy soliqlarni joriy etish, qarzlar olish va ularni ishlatish masalalarini hal etish, munitsipalitetga qarashli mulkni tasarruf etish, shuningdek, ko‘pchilik davlatlarda munitsipalitetning ijroiya rahbarlik organlarini tashkil etish va ularni nazorat qilish, mahalliy referendumlarni uyushtirish AQSH ijtimoiy-siyosiy hayotida ham munitsipalitetlar muhim o‘rin egallaydi. Chunki bu mamlakatda munitsipal boshqaruv funksiyalarini nomarkazlashtirish prinsipi keng qo‘llaniladi. Munitsipal maktablar, shifoxonalar, kutubxonalar, sanitariya ishlari, suv bilan ta’minlash, parklar, yonG‘inga qarshi xizmatlarni boshqarish, asosan, munitsipal kengashlar tasarrufidadir. Ayrim mamlakatlarda (masalan, Germaniyada) kengashlar o‘z vakolatlarini ijroiya organlarga berish huquqiga ham egadirlar.

1985-yil 15-oktabrda Yevropa Ittifoqi tomonidan qabul qilingan “Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish to‘G‘risidagi Yevropa Hartiyasi”ning 3-moddasida bu tushuncha quyidagicha ifodalandi: “Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish deganda, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining o‘z mas’ulligida, mahalliy aholi manfaatlari asosida, qonunlar doirasida uning davlat ishlarini aksariyat qismini boshqarishi va uni real uddalay olish qobiliyatiga aytiladi. Bu huquqlar erkin, yashirin, teng, to‘g‘ridan to‘g‘ri umumiy saylovlarda saylangan a’zolardan iborat kengashlar yoki majlislar tomonidan amalga oshiriladi. Kengashlar yoki majlislar o‘zlariga hisobotlar berib boruvchi ijroiya organlariga ega bo‘lishi mumkin. Bu qoidalar fuqarolar majlislariga, referendumlarga yoki fuqarolar to‘g‘ridan to‘g‘ri ishtirok etishining qonun yo‘l qo‘ygan boshqa

*shakl*lariga murojaat etishni istisno etmaydi". O'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risidagi xalqaro normalar O'zbekiston qonunchiligida ham milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda takomillashtirilib borilmoqda.

"Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi (yangi tahriri) Qonunning 3-moddasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish tushunchasi quyidagicha ta'riflandi: "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi fuqarolarning mahalliy ahamiyatga molik masalalarni o'z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek milliy va ma'naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda hal qilish borasidagi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlanadigan mustaqil faoliyatidir"

Ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda o'zini o'zi boshqarish organlari tizimi tushunchasi va uning huquqiy maqomlari rivojlantirildi va ular ilg'or demokratik mamlakatlardagi huquqiy mezonlar darajasida ifodalana boshlandi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimiz Prezidenti tomonidan fuqarolik jamiyati institutlari, xususan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini har tomonlama rivojlantirish masalasiga doimiy kun tartibidagi dolzarb masalalardan biri sifatida qaralib, soha faoliyatidagi yangi yo'nalish va muhim vazifalar ko'lami belgilab berildi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi va Senatining 2010-yil 12-noyabrda bo'lib o'tgan qo'shma yig'ilishida davlatimizning birinchi rahbari tomonidan ilgari surilgan "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi"da oltita asosiy yo'nalish ichida fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga alohida yo'nalish bag'ishlangan.

Konsepsiyada fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirish, uning vazifalari ko'lamini kengaytirish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan o'zaro yaqin munosabatlarini ta'minlash alohida dolzarb ahamiyat kasb etayotganligi qayd etilib, bu vazifani hal qilishda uchta asosiy masala ko'rsatib berildi. Bular:

I. Aholini manzilli ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni amalga oshirishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari rolini oshirish.

II. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining jamoatchilik nazorati sohasidagi funksiyalarini yanada kengaytirish.

III. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini xususiy

tadbirkorlik, shu jumladan, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirish markaziga aylantirish.

Konsepsiyasidagi vazifalardan kelib chiqib, 2013-yil 22-aprelda "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'G'risida"gi hamda "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida"gi Qonunlar yangi tahrirda qabul qilindi. "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonunda fuqarolar yig'inlariga tegishli hududdagi tadbirkorlik faoliyati subyektlarining huquqlari va qonuniy manfatlariga rioya etilishi hamda kommunal xizmat ko'rsatish korxonalari tomonidan kommunal xizmatlar ko'rsatish sifati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish bo'yicha qo'shimcha vakolatlar berildi.

Bundan tashqari, Qonunda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini xususiy tadbirkorlik, shu jumladan oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirish markaziga aylantirish maqsadida ushbu sohani rivojlantirishga ko'maklashuvchi maslahat markazlarini tashkil etish mumkinligi belgilab berildi. Fuqarolar yig'ini ushbu maslahat markazi faoliyatini yo'lga qo'yish orqali hududidagi tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilmoqchi bo'lgan fuqarolar uchun qisqa muddatli kurslar tashkil etishi, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati subyektlariga qonun hujjatlarida belgilangan imtiyozlar va preferensiyalar haqida ma'lumot berishi, bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari bilan birgalikda yoshlarning tegishli hududda joylashgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga ishga joylashishiga, ularning ushbu korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga, shuningdek, hunarmandlarga biriktirilishiga ko'maklashishi nazarda tutilgan.

Yangi tahrirdagi Qonunda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining aholini ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasidagi vazifalari yanada chuqurlashtirilib, bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari bilan birgalikda ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga muhtoj kam ta'minlangan oilalar, yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlarni aniqlash, fuqarolarning bandligiga ko'maklashishi haqidagi normalar kiritildi.

Shuningdek, mazkur qonun bilan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga o'z hududida tadbirkorlik subyektlarining huquq va qonuniy manfatlariga rioya etilishi, kommunal xizmat ko'rsatish tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish bo'yicha qo'shimcha vakolatlar berilib, ularning shakl va kafolatlari ham nazarda tutilgan. Bundan tashqari, unda fuqarolarning o'zini o'zi

boshqarish organlari tegishli hududda tadbirkorlik, jumladan, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirishga ko'maklashish maqsadida maslahat markazlarini tashkil etishga haqli ekani belgilab qo'yildi. Xususan, uning 17-moddasiga binoan:

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tegishli hududda tadbirkorlik faoliyatini, shu jumladan oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirishga ko'maklashish maqsadida maslahat markazlari tashkil etishga haqli...

Maslahat markazlari:

tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilmoqchi bo'lgan, tegishli hududda yashovchi fuqarolarni iqtisodiyot, buxgalteriya hisobi, tadbirkorlik faoliyati to'g'risidagi va soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari asoslarini o'rgatish bo'yicha qisqa muddatli kurslar tashkil etadi, shuningdek, ularga tadbirkorlik faoliyati subyektlariga qonun hujjatlarida belgilangan imtiyozlar va preferensiyalar haqida ma'lumot beradi;

birgalikda yoshlarning tegishli hududda joylashgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga ishga joylashishiga, ularning ushbu korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga, shuningdek hunarmandlarga biriktirilishiga ko'maklashadi;

tegishli hududda yashovchi fuqarolarga tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishda, shu jumladan tadbirkorlik faoliyati subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun tegishli hujjatlarni tayyorlashda ko'maklashadi;

tegishli hududdagi tadbirkorlik faoliyati subyektlariga, shu jumladan, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilik faoliyati subyektlariga qonun hujjatlarida belgilangan imtiyozlar, preferensiyalardan foydalanishda, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish maqsadida kredit olish uchun tegishli hujjatlarni tayyorlashda ko'maklashadi.

Birinchi Prezident I.A. Karimov tomonidan ilgari surilgan "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" siyosiy qurilish dasturining bosh yo'nalishlaridan biri davlatning bir qator vakolatlarini markazdan mahalliy darajaga ya'ni mahalliy davlat hokimiyati organlariga, jamoat tuzilmalariga va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkazib borishdan iborat bo'lib, keyingi yillarda bu sohada sezilarli amaliy tadbirlar olib borildi.

Bu jarayonda bevosita fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari zimmasiga ham ko'plab vakolatlar o'tkazib borildi. Bu esa amaldagi Qonunni yanada takomillashtirish, fuqarolar yiG'inlariga berilgan

vakolatlarni amalga oshirish mexanizmlarini qonun bilan tartibga solish zaruratini keltirib chiqardi.

2. O‘zbekistonda o‘zini o‘zi boshqarish organlarini demokratlashtirish jarayoni

Markaziy Osiyoda, xususan, O‘zbekistonda mahalla o‘zini o‘zi boshqaruvchi ijtimoiy institutning noyob shakli sifatida bir necha ming yillardan buyon yashab kelmoqda. O‘zbek xalqi uchun mahalla jamoa tushunchasiga nisbatan ko‘proq jamoaviylik, uyushganlik, ittifoq kabi tushunchalarni anglatadi. Mahalla odamlar o‘rtasidagi munosabatlarda yaxshi qo‘shnichilik, o‘zaro hurmat va insonparvarlik kabi qadriyatlarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. U fuqarolarning ijtimoiy manfaatlarini himoya qiladi, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga aniq va manzilli yordam ko‘rsatadi.

Hozirgi davrda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlar va islohotlar natijasida zamonaviy jahon stivilizatsiyasi talablariga mos keladigan hamda milliy ma’naviyatimiz an’analarimizni o‘zida aks ettirigan o‘zini o‘zi boshqarish organlarini shakllantirishni hayot kun tartibiga qo‘ymoqda. Shu ma’noda mahalla – o‘zbek xalqining bebaho boyligi bo‘lib, u ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni asrab-avaylash, barkamol yosh avlodni tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Mamlakatda mahalla haqiqiy demokratiya va aholini ma’naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash maktabiga aylandi.

Mahalla o‘zbek xalqining turmush tarzi, ruhiyati, ijtimoiy hayotining o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi, milliy an’analari, urf-odatlari, axloqiy-ma’naviy qadriyatlarini avloddan-avlodga yetkazuvchi maskan, ijtimoiy birlashma darajasiga erishdi.

Mahallalarda istiqomat qiluvchi fuqarolarning bir-birini qo‘llab-quvvatlashi tufayli yurtimizda tinchlik, osoyishtalik, millatlararo hamkorlik kabilarga erishilmoqda, ana shu qadriyatlar tufayli tarixiy-madaniy merosimiz e’zozlanmoqda, tiklamoqda, qadr topmoqda. Mahalla – asrlar davomida o‘z hududida istiqomat qiluvchi aholining ijtimoiy jihatdan uyushtiruvchi, aholi orasida ma’naviy-ahloqiy qadriyatlarni yuksaltirish va fuqarolarni himoya qilish organi sifatida yashab kelmoqda.

Mahalla fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni mustahkamlashda davlat va jamiyatning eng ishonchli ko‘makchisidir. Shuningdek, mahalla milliy qadriyatlarni tiklash, o‘zaro

munosabatlarni mustahkamlash, axloqiy normalarni qaror, ma'naviyat va ma'rifatni aholi o'rtasida yoyishda keng imkoniyatlarga egadir. Mahallada yashayotgan odamlar bir-birlarini har tomonlama yaxshi biladi, o'z hududidagi yaxshi va yomon odamlarni bir-biridan ajrata oladi. Shu bois, barqarorlik, totuvlik, ijtimoiy adolat kabi qadriyatlarni ro'yobga chiqarishda mahallaning o'rni beqiyosdir. Shuni ta'kidlash joizki, hozirgi davrga kelib mahalla ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashning eng ta'sirchan va eng ishonchli instituti sifatidagi o'rnini saqlab kelmoqda.

Mustaqillik davrida mahalla institutining nufuzini oshirish nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, balki siyosiy, tarbiyaviy va ulkan ma'naviy ahamiyatga ega bo'lgan ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda uning har oila va uning a'zosini barkamol inson sifatida shakllinishida uning o'rnini bosadigan boshqa biron-bir institut mavjud emas.

Mahalla fuqarolar yig'ini oqsoqolini saylashni ham demokratik, ham xalqchillik, ham adolat prinsiplari asosida o'tkazish xalqimizning an'anasiga aylandi. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli)ni saylash jarayonini fuqarolar yig'ini faoliyatini samarali tashkil etishning asosiy omilidan biri hisoblanganligi uchun 2004-yil 29-aprelda "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Mazkur Qonunda fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylashning asosiy prinsiplari, saylovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish tartib qoidalari, shuningdek, oqsoqollikka nomzodlarga qo'yiladigan talablar mujassamlashdi.

2013-yilda bu Qonunning yangi tahriri qabul qilinib, uning muhim jihati – bu fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha alohida-alohida komissiyalarini tuzishni muvofiqlashtirishi hisoblanadi. Ilgarilari fuqarolar yig'inlarida sakkiztadan o'n beshtagacha komissiyalar faoliyat yuritayotgan bo'lib, ularga uslubiy-metodik yordam ko'rsatish hamda faoliyatini muvofiqlashtirishda qator noqulayliklar vujudga kelgan edi.

Qonunning 18-moddasida fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha 8 ta komissiyalar faoliyat olib borishi belgilab qo'yildi. Shuningdek, tegishli hududdagi muammolarning dolzarbligidan kelib chiqib, fuqarolar yig'ini tomonidan yana boshqa komissiyalar ham tuzish huquqlari ham berildi..

Mahalla fuqarolar yig'inlari komissiyalari faoliyatini samarali tashkil etish va takomillashtirish vositasida mahallannig jamiyat

hayotidagi o‘rni va ahamiyatini yanada oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 7-oktabrdagi 274-sonli qarori mahalla hududida ish olib boradigan komissiyalarning namunaviy Nizomlari tasdiqlandi. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining qarori bilan mazkur Qonun ijrosi doirasida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika va hududiy Kengashlarning tashkil etilishi jamiyat hayotidagi muhim voqelik bo‘ldi. Mazkur Kengashlar fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirish, qonun hujjatlarida belgilangan vakolatlarining amalga oshirilishiga ko‘maklashish, ular faoliyatidagi muammolarni kompleks o‘rganish va tizimli hal qilish yuzasidan aniq asoslangan takliflar hamda ta’sirchan mexanizmlar ishlab chiqish vazifalarini bajara boshladi.

O‘zbekistonda huquqiy davlati qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qaratilgan islohotlarning zamirida “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” tamoyili yotadi. Bu tamoyilning asosiy maqsadi mahalliy davlat hokimiyati organlarining ba’zi vakolatlari fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlariga bosqichma-bosqich o‘tkazishdan iboratdir. Hech shubha yo‘qqi, bu chora-tadbirlar har bir mahalla hududida xususiy mulkni rivojlantirish, bu orqali aholini ish bilan ta’minlash, iste’mol bozorini to‘ldirish, ijtimoiy infratuzilmani taraqqiy ettirish, odamlarning farovonligini oshirish kabi masalalarni mahalliy hokimiyat va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamkorligida hal etish imkonini beradi.

Hozirgi davrda mamlakatda 10 mingga yaqin fuqarolar yig‘inlariga oldin mahalliy davlat hokimiyati organlariga taalluqli bo‘lgan 30 dan ziyod boshqaruv va boshqa vakolatlar berilib, ular bu vakolatlarni muvaffaqiyatli tarzda bajarib kelmoqda. O‘z faoliyatida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni uddalab kelayotgan mahalla noyob, boshqa davlatlarda takrori bo‘lmagan tuzilmaga aylandi.

Hozirgi davrga kelib fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayonida faol ishtirok etishi uchun mustahkam zamin yaratildi. Shu bilan birga, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning zamonaviy talablari fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarning samarali ijrosini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Qadimiy va noyob boshqaruv shakli bo'lgan mahalla institutini har tomonlama rivojlantirishga, uning vakolatlarini yanada kengaytirishga hamda qonunchilik tizimida belgilab berilgan vakolatlardan yanada samarali foydalanishga ko'maklashish borasida olib borilayotgan islohotlar fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining jamiyatdagi o'rni yanada oshib va mustahkamlanib bormoqda.

Davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish fuqarolik jamiyati barpo etishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Fuqarolar yig'ini tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar ijroiya hokimiyati rahbarlarining turli sohalarga oid masalalar yuzasidan hisobotlarini eshitish, fuqarolar yig'inlarining murojaatlari ko'rib chiqilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, atrof-muhitni muhofaza qilish, hududning sanitariya holati, uni obodonlashtirish masalalari yuzasidan o'z vakolati doirasida tegishli hududda joylashgan korxona, muassasa va tashkilotlar rahbarlarining hisobotlarini tinglash hamda ularning natijalari bo'yicha qarorlar qabul qilish kabi faoliyatlar mahalla fuqarolar yig'inlarining jamoatchilik nazorati va iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish komissiyasi faoliyatida o'z ifodasini topmoqda.

Shuni aytish joizki, qonun asosida tashkil etilgan "Mahalla posboni" jamoatchilik tuzilmasi faoliyatining asosiy maqsadi mamlakatimizda tinchlik, osoyishtalik, xavfsizlikni ta'minlash, jamoat tartibini saqlash, fuqarolarda ogohlik va hushyorlikni oshirish, huquq-tartibotni mustahkamlashda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hamkorligidagi ishlarni tizimli tashkil etishga ko'maklashishdan iboratdir. Mahallalarda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, huquqbuzarlikning oldini olishda mahalla posbonlari IIB profilaktika inspektorlarining yaqin ko'makchisiga aylandi.

Qonunga binoan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashi, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat, tuman va shahar muvofiqlashtirish kengashlarining tuzilishi natijasida bu organlar faoliyatining tashkiliy va huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish, normativ-huquqiy hujjatlarni qo'llash va ularga amal qilish faoliyati ustidan monitoring olib borish, qonun hujjatlarida belgilangan vakolatlarining amalga oshirilishiga ko'maklashish, muammolarni kompleks o'rganish, tizimli hal qilish yuzasidan aniq taklif va mexanizmlarni

ishlab chiqish kabi sohalar samarasi oshib bormoqda .

Ayni paytda, mahallalarda aholi bilan ishlash, uning dardini eshitish, uchrab turadigan oilaviy kelishmovchiliklar, ishsizlik, mahalla ahlidan tushadigan turli xil arzlarga doir masalalar yechimini topish, mahallalar hududlarini gazlashtirish, suv bilan ta'minlashni yo'lga qo'yish, mahalla guzarlarida maishiy xizmatlarni tashkil etish, mahalladagi to'y va ma'rakalarni ma'naviy qadriyatlarga rioya qilgan holda o'tkazish, ko'kalamzorlashtirish, tozalik-ozodalik oylarini o'tkazib turish kabi tadbirlarni amalga oshirishni mahallasiz tasavvur etib bo'lmaydi.

3. Mahalla institutining ijtimoiy maqomi va nufuzini oshirishda tub burilish davrining boshlanishi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'G'risida"gi (2017-yil 7-fevral), "O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi (2017-yil 8-sentabr) Farmonlarida respublikamizda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlar va modernizatsiyalash jarayonlarining huquqiy asosi va bu jarayonlarni tezlashtiruvchi omil sifatida namoyon bo'ldi.

Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev fuqarolik jamiyati institutlari, xususan, mahalla institutining ahamiyatiga to'xtalib, quyidagi fikrlarni bildirgan edi: "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirishda biz, ilgarigidek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari – mahallalar, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlar, erkin va xolis ommaviy axborot vositalari faol o'rin egallaydi, deb ishonamiz. "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" degan muhim tamoyilni amalga oshirishda biz, avvalo, ana shu ijtimoiy institutlarning kuch va imkoniyatlariga tayanamiz".

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-fevralda qabul qilgan "Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'G'risida"gi farmoni jamiyatning milliy demokratik instituti – mahallalarning rolini yanada kuchaytirish, ularni fuqarolik jamiyati instituti sifatida aholi o'rtasida nufuzini ko'tarishda muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur farmonning jamiyatdagi mahalla instituti nufuzi va o'rnini ko'tarishdagi ahamiyati quyidagi omillar bilan ifodalanadi:

birinchidan, mazkur farmon mamlakatimizda adolatli fuqarolik

jamiyatini shakllantirishning zamonaviy talablari asosida fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarning samarali ijrosini ta'minlash tizimini tubdan takomillashtirishga qaratildi;

ikkinchidan, bugungi kunda yon-atrofimizda diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, "ommaviy madaniyat" degan turli balo-qazolarning xavfi tobora kuchayib borayotganidan ko'z yumib bo'lmaydi. Bunday keskin va tahlikali sharoitda mahalla-ko'y ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik bilan birgalikda bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishi lozim. Bunda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, yoshlarning oiladagi xulq-atvoridan tortib, maktabgacha ta'lim muassasalari, maktablar, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalaridagi ta'lim-tarbiyani ham qamrab olgan holda, izchil jamoatchilik nazoratini olib bormog'i talab qilinadi. Shu bois farmonda fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining yoshlarning ma'naviy va jismoniy kamoloti yo'lida davlat va nodavlat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorligini yanada mustahkamlashiga yo'naltirilgan masalalar o'z aksini topdi.

uchinchidan, farmonda fuqarolar yig'inlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga doir amaliy choralar ham belgilangan. Ya'ni fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, bolalar sport maydonchalari, maishiy xizmat ko'rsatish obyektlarini tashkil etish maqsadida 2017–2021-yillarga mo'ljallangan hududiy dasturlar ishlab chiqish ko'zda tutilgan. Mahallalar kesimida, chuqur tahlil asosida, har bir hududning o'ziga xos xususiyat va imkoniyatlari, talab va ehtiyojlarini inobatga olgan holda tayyorlanadigan ushbu dasturlarning joylarda to'laqonli bajarilishi mahallalarning har tomonlama obod va farovon bo'lishini ta'minlaydi. Mamlakatda 2012–2017-yillarda fuqarolar yig'inlarining 1600 ga yaqin xizmat binolari joriy, 367 tasi kapital ta'mirlandi va 350 dan ortig'i rekonstruksiya qilindi, namunaviy loyihalar asosida 216 ta bino yangidan qurilib, foydalanishga topshirildi. Prezident farmonida ko'rsatilganidek, 2018-yilning 1-dekabriga qadar tumanlar va shaharlar markazlarida "Mahalla markazi" majmualari binolarining namunaviy loyihalar asosida barpo etilishi bu muammolarning yechim topishiga olib keladi;

to'rtinchidan, farmonda mahalla fuqarolar yig'inlarining mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal etish bo'yicha mustaqilligini ta'minlash, o'zini o'zi boshqarish tizimida ortiqcha bo'g'inlardan voz kechish maqsadida — tarkibida mahallalar tuzilgan shaharcha, qishloq va ovul fuqarolar yig'inlarini mahalla fuqarolar yig'inlariga birlashtirish va

bo'lish yo'li bilan qayta tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi nazarda tutildi.

Shu bilan birga, mahallalardagi tinch va osoyishta hayotni ta'minlash, oilalarni mustahkamlash chora-tadbirlarini ko'rish, yetimlar va yolg'iz qolgan fuqarolarga mehr-muruvvat ko'rsatish, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishga doir intilishlarini qondirish kabi serqirra jamoaviy boshqaruv ham mahalla fuqarolar yig'inlari faoliyatining asosiy yo'nalishini tashkil eta boshladi. Lekin, shu bilan birga, o'zini o'zi boshqarish organlarini demokratlashtirish jarayonlari hali davom etadi. Ayniqsa, aholining huquqiy va siyosiy madaniyatini oshirish, siyosiy qarorlar qabul qilishda mahallalarning o'rnini yuksaltirish, mahallalarni mahalliy davlat hokimiyati organlaridan to'la mustaqil bo'lishini ta'minlaydigan huquqiy mexanizmlar yaratish, fuqarolarni mahallalar vositasida qonunlar ishlab chiqish va qabul qilish jarayonlaridagi umumxalq muhokamalarida faol ishtirok etishlarini ta'minlash yaqin istiqboldagi islohotlarning asosiy vazifasidir.

Mustaqillik yillarida mamlakatda yosh avlodning har jihatdan barkamol bo'lib voyaga yetishi uchun kerakli imkoniyatlar yaratilib, ko'pgina xayrli ishlar amalga oshirilmoqda. Onalik va bolalikning ijtimoiy muhofazasi, sog'lom oila muhitini, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, bolalarning bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etish, ularni sportga, qo'shimcha ta'limga jalb etish, sog'lomlashtirish va profilaktika, kasbga yo'naltirish, har taraflama uyg'un rivojlangan yetuk shaxsni tarbiyalash borasidagi sa'y-harakatlar e'tiborga molikdir.

Mahalla qadim-qadimdan ezgulik beshigi, tarbiya o'chog'i, yashash tarzi, milliy udumlar, urf-odat va an'analar shakllangan maskan bo'lib kelgan. Insonlarning bir biriga mehr-oqibatli, muruvvatli, saxovatli bo'lishida va o'ziga xos jamoani shakllantirishda mahallalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Kelgusida "Oila – mahalla – ta'lim muassasasi" jamoat kengashlarini shakllantirish va ularning faoliyatini tashkil etish, o'quvchi-yoshlar o'rtasida g'ayriijtimoiy harakatlarning vujudga kelish sabablari va shart-sharoitlarini o'rganish, ularni bartaraf etish, barkamol avlodni tarbiyalashga doir ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning samaradorligini oshirish va ularni mazmunan yanada takomillashtirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish belgilandi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati samaradorligini oshirish, mahalla institutini aholiga eng yaqin va xalqchil tuzilmaga aylantirish, fuqarolar yig'inlarining mushtarak manfaatlarini ifoda etadigan uyushmaga birlashish huquqlarini ro'yobga chiqarish,

ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro hamkorligini yanada rivojlantirish maqsadida quyidagilar mahalla institutini yanada takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari etib belgilandi:

- fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining jamiyatdagi o'rni va rolini kuchaytirish, ularni joylarda xalqning chinakam maslakdoshi va ko'makdoshiga aylantirish;

- jamiyatimizda o'zaro hurmat, mehr-oqibat va hamjihatlik muhitini shakllantirishda, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylash hamda rivojlantirishda mahallalarning ahamiyati va nufuzini yanada oshirish;

- yoshlarni ma'naviy boy va jismonan sog'lom etib tarbiyalash, ularning bandligini ta'minlash, yosh avlodni mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish, aholining ehtiyojmand qatlamlarini, keksa avlod vakillarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasida fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining davlat va nodavlat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorligini mustahkamlash;

- jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashda, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishda, fuqarolarda qonunga hurmat hissini kuchaytirishda mahallalarning bevosita ishtirokini kengaytirish;

- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning hamda ular faoliyatini muvofiqlashtirishning samarali mexanizmlarini joriy etish, mahalla tizimida yagona huquqni qo'llash amaliyotini ta'minlash.

Prezident farmoni va hukumat qarorida o'zini o'zi boshqarish organlarini takomillashtirish yuzasidan quyidagi takliflar ilgari surildi:

- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashiga (keyingi o'rinlarda Respublika kengashi deb ataladi) yuridik shaxs maqomini bergan holda uni fuqarolar yiG'inlarining uyushmasi shaklida tashkil etish;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha hududiy kengashlarni (keyingi o'rinlarda hududiy kengashlar deb ataladi) Respublika kengashining tarkibiy tuzilmalari sifatida tashkil etish;

- O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlariga tegishincha Respublika kengashi, hududiy kengashlarga jamoatchilik asosida raislik qilish vazifasini yuklash;

- Respublika kengashi va hududiy kengashlar raislarining birinchi o'rinbosarlari bir vaqtning o'zida O'zbekiston "Mahalla" xayriya jamoat fondining (keyingi o'rinlarda "Mahalla" fondi deb ataladi) tegishincha respublika boshqaruvi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bo'limlari, tumanlar va shaharlar bo'linmalariga raislik qilishlari;

- Respublika kengashida tashkiliy ishlar va uslubiy masalalar bo'yicha rais o'rinbosari, shuningdek, Respublika kengashi hamda hududiy kengashlarda yoshlar ishlari, diniy-ma'rifiy masalalar, keksalar va faxriylar ishlari bo'yicha rais o'rinbosarlari lavozimlarini joriy etish;

- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida jamoatchilik asosida faoliyat yuritadigan fuqarolar yig'ini raisining o'rinbosari — yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchi lavozimini kiritish.

Prezident farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 23-noyabrda qabul qilgan "Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning dolzarb masalalarini hal etishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari roli va faoliyati samaradorligini yanada oshirish to'g'risida"gi №940-sonli qarori asosida istiqbolda mahallalarni fuqarolik jamiyati instituti sifatida faoliyat yuritishini ta'minlash maqsadida quyidagilar belgilandi:

- "Mahalla" fondi va fuqarolar yig'inlarining taklifiga binoan Respublika kengashi, hududiy kengashlar ijro apparatlari "Mahalla" fondining tegishincha respublika boshqaruvi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bo'limlari, tumanlar va shaharlar bo'linmalari, shuningdek, shaharcha, qishloq va ovul fuqarolar yig'inlarining qayta tashkil etilishi munosabati bilan bo'shaydigan shtat birliklari hisobidan shakllantiriladi;

- Respublika kengashi, hududiy kengashlar ijro apparatlarining shtatdagi xodimlarini ta'minlash va moddiy rag'batlantirish "Mahalla" fondi hisobidan amalga oshiriladi, ushbu maqsadlarga yo'naltiriladigan mablag'larning yetmagan qismi esa O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti hisobidan qoplanadi;

- Respublika kengashi, hududiy kengashlar raislarining birinchi o'rinbosarlari va o'rinbosarlari lavozimlarida ishlovchi pensionerlarga pensiyalarni to'la miqdorda to'lash, bunda pensiyalarni to'lash bilan bog'liq xarajatlarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi hisobidan qoplash tartibi joriy etiladi;

- Respublika kengashi raisining birinchi o'rinbosari maqomi,

maishiy ta'minoti, tibbiy va transport xizmatidan foydalanish borasidagi shart-sharoitlariga ko'ra – vazirga, Respublika kengashi raisining o'rinbosari – vazir o'rinbosariga tenglashtiriladi;

- Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga tegishli vazifalarni amalga oshirishda munosib hissa qo'shgan tashabbuskor fuqarolar va jamoatchilik tuzilmalari vakillariga taqdim etiladigan "Mahalla iftixori" ko'krak nishoni ta'sis etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining mahalliy ahamiyatga molik masalalarni samarali hal qilishdagi rolini oshirish, fuqarolar yig'inlarining mushtarak manfaatlarini ifoda etadigan uyushmaga birlashish huquqini ro'yobga chiqarish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro hamkorligini yanada rivojlantirishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni belgilab berdi.

Xususan, Farmonda mahalla institutini yanada takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

- fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining jamiyatdagi o'rni va rolini yanada kuchaytirish, ularni joylarda xalqning chinakam maslakdoshi va ko'makdoshiga aylantirish;

- jamiyatimizda o'zaro hurmat, mehr-oqibat va hamjihatlik muhitini shakllantirishda, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylash hamda rivojlantirishda mahallalarning ahamiyati va nufuzini yanada oshirish;

- yoshlarni ma'naviy boy va jismonan sog'lom etib tarbiyalash, ularning bandligini ta'minlash, yosh avlodni mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish, aholining ehtiyojmand qatlamlarini, keksa avlod vakillarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasida fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining davlat va nodavlat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorligini mustahkamlash;

- jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashda, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishda, fuqarolarda qonunga hurmat hissini kuchaytirishda mahallalarning bevosita ishtirokini kengaytirish;

- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning hamda ular faoliyatini muvofiqlashtirishning samarali mexanizmlarini joriy etish, mahalla tizimida yagona huquqni qo'llash amaliyotini ta'minlash.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashiga yuridik shaxs maqomini bergan holda uni fuqarolar yig'inlarining uyushmasi shaklida tashkil etish nazarda tutilmoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlarda tuzilgan kengashlarni esa Respublika kengashining tarkibiy tuzilmalari sifatida tashkil etish belgilandi.

Kengashlarning nufuzi va maqomini oshirish, joylarda aholi tomonidan ko'tarilayotgan masalalarni ijro hokimiyati organlarining rahbarlari e'tiboriga etkazish va mazkur masalalarni hal etish bo'yicha ularning bevosita ishtirokini yanada kengaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi raisi, viloyatlar, Toshkent shahar hamda tumanlar va shaharlar hokimlari zimmasiga tegishincha Respublika kengashi, hududiy kengashlarga jamoatchilik asosida raislik qilish vazifasi yuklatildi.

Kengashlar zimmasiga yuklatilgan vazifalar ijrosini samarali ta'minlash, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, sohada amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni moliyalashtirish bo'yicha ishlarning samaradorligini oshirish maqsadida Respublika kengashi va hududiy kengashlar raislarining birinchi o'rinbosarlari bir vaqtning o'zida "Mahalla" fondining tegishincha respublika boshqaruvi hamda hududiy bo'lim va bo'linmalariga raislik qilishlari haqidagi tashabbus qo'llab-quvvatlandi.

Shuningdek, Prezident farmonida yoshlarni ona Vatanga muhabbat, xalqimizning ko'p asrlik an'analariga hurmat ruhida tarbiyalash, mahallalarda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash, keksa avlod vakillarining ijtimoiy faolligini qo'llab-quvvatlash borasida joylarda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini yanada oshirish maqsadida Respublika kengashida tashkiliy ishlar va uslubiy masalalar bo'yicha rais o'rinbosari, shuningdek Respublika kengashi hamda hududiy kengashlarda yoshlar ishlari, diniy-ma'rifiy masalalar, keksalar va faxriylar ishlari bo'yicha rais o'rinbosarlari lavozimlarini, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida esa jamoatchilik asosida faoliyat yuritadigan mahalla fuqarolar yig'ini raisining o'rinbosari — yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchi lavozimini joriy etish nazarda tutildi.

Bundan tashqari, ijtimoiy muhim masalalarni hal etishda

fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda davlat va jamoat tashkilotlari o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish maqsadida kengashlar kollegial organlari tarkibiga tegishincha davlat hokimiyati vakillik organlari vakillari, moliya, ichki ishlar, mehnat, xalq ta’limi, sog‘liqni saqlash vazirliklari, Yoshlar ittifoqi, “Nuroniy” jamg‘armasi, Xotin-qizlar qo‘mitasi, boshqa davlat va nodavlat tashkilotlar hamda ularning hududiy tuzilmalari rahbar xodimlarini kiritish mo‘ljallanmoqda.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarning samarali ijrosini ta’minlash maqsadida mahalla fuqarolar yig‘ini Kengashi tarkibiga fuqarolar yig‘ini raisining o‘rinbosarlarini (fuqarolar yig‘ini raisining keksalar va faxriylar ishlari hamda yoshlar masalalari bo‘yicha maslahatchilarini), hududdagi profilaktika inspektorlarini, ta’lim muassasalari va qishloq vrachlik punktlari (oilaviy poliklinikalar) rahbarlarini kiritish va ularning o‘z faoliyati yuzasidan yilning har choragida fuqarolar yig‘ini (fuqarolar vakillarining yig‘ilishi)ga hisobot taqdim qilishlari amaliyotini joriy etish belgilab qo‘yildi.

Qayd etilgan asosiy vazifalar va yangi normalarni hayotga tatbiq etish uchun Farmon bilan kengashlar faoliyatini yanada takomillashtirish hamda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini qo‘llab-quvvatlash borasida 37 ta aniq tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadigan Kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Farmonni ijro etish doirasida “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi, “Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonunlari va bir qator boshqa qonun hujjatlariga zarur o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritiladi.

Shuningdek, mutasaddi vazirlik, idora va tashkilotlar zimmasiga fuqarolar yig‘inlarining bandlikka ko‘maklashuvchi tuman (shahar) markazlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ta’lim muassasalari hamda moliya va sog‘liqni saqlash organlari bilan o‘zaro hamkorligini nazarda tutadigan tegishli normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish vazifasi yuklandi.

Bundan tashqari, mahalla fuqarolar yig‘inlarining mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal etish bo‘yicha mustaqilligini ta’minlash, o‘zini o‘zi boshqarish tizimida ortiqcha bo‘g‘inlardan voz kechish maqsadida tarkibida mahallalar tuzilgan shaharcha, qishloq va ovul fuqarolar yig‘inlarini mahalla fuqarolar yig‘inlariga birlashtirish va

bo‘lish yo‘li bilan qayta tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, bolalar sport maydonchalari, maishiy xizmat ko‘rsatish obyektlarini tashkil etish maqsadida 2017–2021-yillarga mo‘ljallangan hududiy dasturlar ishlab chiqiladi. Shuningdek, 2018-yilning 1-dekabriga qadar tumanlar va shaharlar markazlarida “Mahalla markazi” majmualari binolarini namunaviy loyihalar asosida barpo etishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining zimmasiga yuklatilgan vazifalarning amalga oshirilishiga munosib hissa qo‘shgan tashabbuskor fuqarolar va jamoatchilik tuzilmalari vakillariga taqdim etiladigan “Mahalla iftixori” ko‘krak nishonini ta’sis etish nazarda tutilmoqda.

Farmonda hamda u bilan tasdiqlangan Kompleks chora-tadbirlar dasturida nazarda tutilgan tadbirlarning amalga oshirilishi fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari zimmasidagi vazifalarni samarali bajarish, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish, davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan o‘zaro hamkorligini yanada mustahkamlash imkonini beradi.

Mahalla ming yillar davomida shakllangan, xalqimizning o‘ziga xos qiyofasini ko‘rsatib turadigan noyob ijtimoiy tuzilma. Bir-biriga mehr-oqibat ko‘rsatib yashash, yaxshi va yomon kunlarda birga elkadosh bo‘lish singari insonga xos fazilatlar aynan mahallada tarkib topadi.

Fuqarolik jamiyatining eng muhim institutlaridan biri – mahalla instituti haqida so‘z ketganda shuni aytish mumkinki, qadim-qadimdan xalqimizning milliy turmush va ijtimoiy hayot tarziga aylanib ketgan, jamoa bo‘lib, bir mahalla bo‘lib yashash tuyg‘usi ijtimoiy hayotning ham uzviy qismi sifatidagi ma’naviy qadriyat sifatida namoyon bo‘ldi. Albatta, mahallarni nufuzini ko‘tarishga doir vazifalarni amalga oshirish natijasida mahalla instituti vakillari oilalar, keksalar, yoshlar bilan ishlashda, tadbirkorlikni rivojlantirishda asosiy kuch bo‘lib maydonga chiqdi.

Ko‘rinib turibdiki, Prezident farmoni O‘zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida “fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyati samaradorligini oshirish, mahalla institutini aholiga eng yaqin va xalqchil tuzilmaga aylantirish, fuqarolar yig‘inlarining mushtarak manfaatlarini ifoda etadigan uyushmaga birlashish huquqlarini ro‘yobga

chiqarish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro hamkorligini yanada rivojlantirish maqsadida" qabul qilindi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ezgu qadriyatlar va milliy an'analar beshigi bo'lgan mahalla tarbiya o'chog'i sifatida qaraladi. Mahalla shunday noyob va ta'sirchan, bugun ko'plab xorijiy mamlakatlarning ekspertlari tomonidan ham munosib e'tirof etilayotgan ijtimoiy boshqaruv usuli tizimidir. Ayni paytda mamlakatimizni har tomonlama rivojlantirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirishda mahalla tayanch va ta'sirchan kuch bo'lib xizmat qilmoqda.

Bir necha ming yillik tarixga ega xalqimizning turmush va tafakkur tarzini ko'z qorachig'idek asrab-avaylashda bu maskanning o'rni va ahamiyati katta. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, mahalla institutining nufuzini oshirish nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, balki siyosiy, tarbiyaviy va ulkan ma'naviy ahamiyatga ega bo'lgan ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Va bu tizimli ravishda amalga oshirib kelinmoqda.

Prezidentning "Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bu yo'lda juda muhim huquqiy asos bo'ldi. Mazkur farmonning nihoyatda muhim jihatlaridan biri shundaki, unda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika kengashiga yuridik shaxs maqomini bergan holda uni fuqarolar yig'inlarining uyushmasi shaklida tashkil etish nazarda tutilmoqda.

Farmonda ijtimoiy muhim masalalarni hal etishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda davlat va jamoat tashkilotlari o'rtasida o'zaro hamkorlikni kuchaytirish maqsadida kengashlar kollegial organlari tarkibiga tegishli davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari mutasaddilari, jumladan, moliya, ichki ishlar, mehnat, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash vazirliklari, Yoshlar Ittifoqi, "Nuroniy" jamg'armasi, Xotin-qizlar qo'mitasi, boshqa davlat va nodavlat tashkilotlar hamda ularning hududiy tuzilmalari rahbar xodimlarini kiritish mo'ljallanmoqda.

Qolaversa, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarning samarali ijrosini ta'minlash maqsadida mahalla fuqarolar yig'ini Kengashi tarkibiga fuqarolar yig'ini raisining o'rinbosarlarini (fuqarolar yig'ini raisining keksalar va faxriylar ishlari hamda yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchilarini), hududdagi profilaktika inspektorlarini, ta'lim muassasalari va qishloq

vrachlik punktlari (oilaviy poliklinikalar) rahbarlarini kiritish va ularning o‘z faoliyati yuzasidan yilning har choragida fuqarolar yig‘ini (fuqarolar vakillarining yig‘ilishi)ga hisobot taqdim qilishlari amaliyotini joriy etish ham belgilab qo‘yildi.

Farmon bilan kengashlar faoliyatini yanada takomillashtirish hamda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini qo‘llab-quvvatlash borasida 37 ta aniq tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadigan kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlanganligi esa bu boradagi ishlarni aniq va puxta tashkil etishga zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, mahalla instituti haqiqiy ma’noda jamiyat va davlat ijtimoiy hayotining eng jo‘shqin, faol, qaynoq va jonli maskaniga aylanib bormoqda. Mazkur farmon faqat xalqimizgagina xos bo‘lgan noyob va betakror ijtimoiy tuzilma – mahalla institutining faoliyatini, o‘rni va nufuzini yangi bir bosqichga ko‘tarilishida muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik yillarida mahalla institutining nufuzini oshirish nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, balki siyosiy, tarbiyaviy va ulkan ma’naviy ahamiyatga ega bo‘lgan ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Mamlakatimizda mahallalarni fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri sifatida rivojlantirish islohotlarning ustuvor yo‘nalishi sifatida qaralmoqda. Mahallalarning fuqarolik jamiyati instituti sifatida aholi manfaatlarini ro‘yobga chiqarish, uni jamiyat hayotiga nisbatan ta’sirchan kuch sifatida namoyon bo‘lishi – istiqboldagi dolzarb vazifalardan biridir.

Nazorat savollari

1. O‘zini o‘zi boshqarish organlarini fuqarolik jamiyatining instituti sifatida qanday funksiyalarni bajaradi?
2. Mahalliy hokimiyat va fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining o‘zaro munosabatlari qanday yo‘lga qo‘yiladi?
3. Mamlakatimizda Ma’muriy islohotlar konsepsiyasida fuqarolar-ning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini rivojlantirishga oid qanday vazifalar belgilangan?
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-fevralda qabul qabul qilgan “Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘G‘risida”gi farmoni mahalalarni rivojlantirishga oid qanday maqsad va vazifalar qo‘yilgan?

Test savollari

1. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish – ...

A) Fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitustiyasi va qonunlari bilan kafolatlanadigan ularning o‘z manfaatlaridan rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek milliy va ma’naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlarlar va an’analardan kelib chiqqan holda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilish borasidagi mustaqil faoliyatidir

B) Fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlanadigan ularning o‘z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek rivojlangan xorijiy mamlakatlarning urf-odatlari va an’analaridan kelib chiqqan holda jahonning ahamiyatga molik masalalarini hal qilish borasidagi faoliyatidir

C) Fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitustiyasi va qonunlari bilan kafolatlanadigan ularning davlat manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek, milliy va ma’naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlarlar va an’analardan kelib chiqqan holda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilish borasidagi davlat boshqaruvidir

D) Fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitustiyasi va qonunlari bilan kafolatlanadigan ularning davlat manfaatlaridan rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek, milliy va ma’naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlarlar va an’analardan kelib chiqqan holda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilish borasidagi mustaqil faoliyatidir

2. Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari qancha muddatga saylanadilar?

A) 1 yil
B) 2,5 yil
C) 5 yil
D) 7 yil

3. Mahalla – bu ...

A) Davlat boshqaruvining quyi bo‘g‘ini hisoblanadi
B) Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organi hisoblanadi
C) Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarishining hududiy birligidir
D) Fuqarolar yig‘ini hisoblanadi

4. Quyidagilardan qaysi biri fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organi hisoblanadi?

A)mahalla
B)fuqarolar yig'ini
C)fuqarolar yig'ini Kengashi
D)fuqarolar yig'ini taftish komissiyasi

5. Fuqarolar yig'inida kimlar qatnashadilar?

A)shaharcha, qishloq va ovul, shuningdek, shahar, shaharcha, qishloq va ovuldagi mahalla hududida yashayotgan, voyaga yetgan shaxslar qatnashadilar
B)shaharcha, qishloq va ovul, shuningdek, shahar shaharcha, qishloq va ovuldagi mahalla hududida doimiy yashayotgan shaxslar qatnashadilar
C)shaharcha, qishloq va ovul, shuningdek, shahar, shaharcha, qishloq va ovulda doimiy yashayotgan, voyaga yetgan shaxslar qatnashadilar
D)shaharcha, qishloq va ovul, shuningdek, shahar, shaharcha, qishloq va ovuldagi mahalla hududida doimiy yashayotgan, voyaga yetgan shaxslar qatnashadilar

6. Fuqarolar yig'ini to'g'risidagi namunaviy Nizom kim tomonidan tasdiqlanadi?

A) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalari
B) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
C) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
D) Mahalliy davlat hokimiyati

7. Shaharcha, qishloq, ovul fuqarolar yig'ini va shahardagi mahalla fuqarolar yig'ini fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilarini, fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalarining raislarini va a'zolarini hisobotlarini qancha muddat oralig'ida eshitadi?

A)Yilning har oyida
B)Yilning har choragida
C)Yilning har olti oyida
D)Yilda bir marotaba

8. Fuqarolar yig'inini kim chaqiradi?

A)Fuqarolar yig'ini komissiyalari raislari
B)Tuman(shahar) hokimi
C)Fuqarolar yig'inining kengashi
D)Fuqarolar yig'ini raisi maslahatchisi

9. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining asosiy prinsiplarini ko'rsating.

A) demokratizm, oshkoralik, ijtimoiy adolat, insonparvarlik, mahalliy ahamiyatga molik masalalarni yechishda mustaqillik, jamoatchilik asosidagi o‘zaro yordam

B) demokratizm, oshkoralik, ijtimoiy himoya, insonparvarlik, mahalliy ahamiyatga molik masalalarni yechishda mustaqillik, jamoatchilika sosidagi o‘zaro yordam

C) demokratizm, oshkoralik, ijtimoiy himoya, chegaralar daxlsizligi, mahalliy ahamiyatga molik masalalarni yechishda mustaqillik, jamoatchilik asosidagi o‘zaro yordam

D) demokratizm, oshkoralik, ijtimoiy adolat, insonparvarlik, mahalliy ahamiyatga molik masalalarni yechishda o‘zidan yuqori pag‘onadagi organlariga bo‘ysunish, jamoatchilik asosidagi o‘zaro yordam

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublika “Mahalla” jamg‘armasini tuzish to‘g‘risida”gi farmoni qachon e’lon qilingan?

A)2016-yil 12-sentabr

B)2017-yil 3-fevral

C)2018-yil 23-fevral

D)2015-yil 19-aprel

12-mavzu. JAMOATCHILIK NAZORATI VA DAVLAT ORGANLARI FAOLIYATINING OCHIQLIGI

Reja:

1. Jamoatchilik nazorati tushunchasi va uning genezisi.

2. O'zbekistonda jamoatchilik nazoratining amaliyoti va huquqiy asoslarining shakllanishi.

3. Mamlakatda jamoatchilik nazoratining fuqarolik jamiyatiga xos jihatlarining rivojlanishi.

Tayanch so'zlar: fuqaroviylik, jamoatchilik, jamoatchilik nazorati, jamoatchilik nazorati subyekti, jamoatchilik nazorati obyekti, jamoatchilik nazorati shakllari, jamoatchilik nazorati instituti, elektron xizmat, "elektron hukumat", hokimiyat organlarining shaffofligi.

1. Jamoatchilik nazorati tushunchasi va uning genezisi

Hozirgi fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat sharoitida davlat hokimiyati organlarining samarali ishlashi uchun, albatta, ularning faoliyati *jamoatchilik nazorati* ostida kechishi lozimligini hozirgi davr rivojlangan davlatlar tajribasi isbotlamoqda. Agar hozirgi G'arb davlatlari tajribasiga e'tibor bersak, fuqarolik nazoratidan holi bo'lgan davlat hokimiyati organlarining mas'uliyatsizligi aniq seziladi: qonunning ishlashi to'liq ta'minlamaydi, hisobsiz davlat vakolatlaridan chetga chiqadigan va turli kampaniyabozliklarga berilishlar avj oladi, byudjet ijrosini amalga oshirishda chetga chiqishlar ro'y beradi, korrupsiya avj oladi, inson huquq va erkinliklariga amal qilish qiyin kechadi, ularni himoya qilishga unchalik ahamiyat berilmaydi, mansabdorlar boshqaruv faoliyati samarasiz kechadi, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish ikkinchi darajali ishga aylanadi, davlat hokimiyati resurslarini boshqarishda subyektivlik avj oladi.

Fuqarolik jamiyati sharoitida jamoatchilik nazorati – bu fuqarolar, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari, siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari, kasaba uyushmalari tomonidan davlat hokimiyati organlarini qonunga amal qilishga majbur etish, ularning o'z vazifalarini ma'suliyat bilan bajarishi va buning oqibati o'laroq jamiyatda malakali va samarali boshqaruvni bajarishga majburlash maqsadida davlat hokimiyati organlari va mahalliy boshqaruv organlari faoliyati ustidan nazorat qilish va tekshirishidir.

Jamoatchilik nazorati – bu jamiyatning alohida fuqarolar shaxsida

hamda fuqarolik jamiyati institutlari vositasida davlat hokimiyati organlarining qonunlarni va o‘z qarorlarini qo‘llash, amalga oshirish, shuningdek, bu jarayonlar natijalarini baholash mexanizmidir. Jamoatchilik nazorati – bu fuqarolar, fuqarolik jamiyati institutlari – jamoat va nodavlat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalarining davlat va mahalliy hokimiyati organlarining qonunga amal qilishlarini ta’minlashga majburlash, o‘z vazifasini bajarishida mas’uliyatni his etishi, o‘z majburiyatlarini sifatli tarzda bajarishi kabi faoliyatlari ustidan turli shakldagi tekshiruvlarni amalga oshirishidir. Shuningdek, rivojlangan davlatlarda jamoatchilik nazoratini jamiyatda tutgan o‘rni uning qanchalik “transparent” ekanligi, ya’ni shaffoflik darajasi bilan o‘lchanadi.

Hozirgi davrga xos zamonaviy davlatlarda jamoatchilik nazorati ijroiya va boshqa hokimiyat tarmoqlarini qonunga amal qilishni, o‘z huquq va vakolatlarini malakali tarzda bajarishga majburlaydi. Jamoatchilik nazorati kuchsiz bo‘lgan holatlar ko‘pincha o‘tish davrini o‘z boshidan kechirayotgan davlatlarda uchraydi. Albatta, olimlarning tadqiqot natijalarida ko‘rsatilishicha, bu kabi holatning asosan uchta sababi mavjud:

birinchidan, hokimiyat faoliyatini shaffoflik (ochiqlik) bilan ro‘y berishini ta’minlaydigan mexanizmlarning etishmasligi; Ikkinchidan, hali o‘rta sinfning jamoatchilik nazoratining bosh ijtimoiy bazasining tashkil etishga ulgurmaganligi; uchinchidan, davlat hokimiyati organlari mansabdorlarida va fuqarolarida jamoatchilik nazoratining moxiyati, usullari, uslublari, shakllari, mexanizmlari va vosita-qurollari to‘g‘risida zarur bilimlar va tasavvurlarning yetishmasligi. Shuning uchun ham Rossiya fuqarolik jamiyatini shakllanishiga shart-sharoitlarni yaxshilash omili sifatida G‘arbiy Yevropa ning rivojlangan mamlakatlari va AQSH kabi davlatlarning jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga doir tajribalarini o‘rganishga zarurat tug‘iladi. Zero, bu vazifa fuqarolik jamiyatini qurishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Ma’lumki, davlat hokimiyati organlari boshqaruvchilari – mansabdorlar davlatning markaziy va mintaqaviy moliyaviy munosabatlarini boshqaradi, yer va boshqa resurslarni taqsimlaydi, ommaviy axborot vositalari (OAV) va boshqa jamoat resurslarini nazorat qiladi, jamiyatning turli sohalari bo‘yicha qabul qilinadigan qarorlarning qabul qilinishiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi, kadrlarni va xizmachilarni ishga oladi va o‘z lavozimidan ozod qiladi, mehnat jamoalarini o‘z ortidan ergashtiradi, mamlakatni rivojlantirish strategiyasini aniqlashda ishtirok etadi.

Davlat hokimiyati organlari rahbarlari o‘z shaxsiy manfaatlarini mamlakatning milliy manfaatlari bilan aynanlashtirgan taqdirdagina ular boshqaruv tizimining haqiqiy va samarali namoyondasiga aylanadi. “Milliy manfaatlar” deganda xalqning xavfsizligini ta’minlash, huquqning, qonun ijrosining ustuvorligi, inson erkinligi va huquqlarini himoya qilish, mulkdorlar qatlami o‘rta sinfni fuqarolik jamiyati iqtisodiy va ijtimoiy tayanchi bo‘la oladigan darajada shakllantirishi, demokratik qadriyatlarni va bozor munosabatlari asosida iqtisodiyotni rivojlantirish kabilar tushuniladi. Boshqacha aytganda, agar boshqaruvchilar qatlamida o‘zining jamiyatdagi yuqori o‘rnini, moliyaviy jihatlarga va mulkga ega bo‘lishga oid o‘z manfaatlarini mamlakatning milliy manfaatlarini himoya qilishi g‘oyasining kichik bir qismiga aylantirgan taqdirdagina u samarali va xalqchil mansabdorga aylanadi. Davlat mansabdori o‘zining kuchli va gullab-yashnayotgan mamlakatdagina yaxshi yashashi va o‘z xavfsizligini saqlay olishini chuqur anglagan bo‘lishi lozim. Mohiyatan samarali boshqarish qobiliyatga ega bo‘lgan, nafaqat o‘zini, balki barcha fuqarolarning xavfsiz, qulay va barqaror hayotini ta’minlash ishida faol ishtirok etadigan, faqat o‘zidan yuqori davlat hokimiyati organlari oldidagina emas, balki fuqarolar oldida ham mas’uliyatni his qila oladigan, ya’ni fuqarolik jamiyati talablariga javob bera oladigan mansabdorlar ko‘pchilikni tashkil etgandagina davlat rivojlana boshlaydi.

Jahon tajribasidan ma’lumki, jamoatchilik nazorati jamiyatga ham, davlat hokimiyatiga ham foydali omil sifatida ta’sir etadi. Haqiqatan, u davlat hokimiyati organlarining mas’uliyat bilan faoliyat yuritishiga – qonunning ishlashini ta’minlashga, inson huquqi va erkinliklarini hurmat qilishga va himoyalashga, binobarin, umumiy farovonlikka samarali va ijobiy ta’sir ko‘rsatishga majbur qiladi. Jamoatchilik nazorati davlat hokimiyati organlarining doimiy va muttasil ravishda takomillashib borishini raG‘batlantiradi:

birinchidan, u davlat xizmati xodimlarini turli tuman, son-sanoqsiz o‘ziga tortadigan, hoyu-havasga beriladigan boyliklar va lazzatlarga intilmaslik immunitetiga ega bo‘lishi, ma’naviy boy bo‘lishga intiladi;

ikkinchidan, fuqarolarning jamoatchilik nazorati jamiyatning hokimiyat organlari bilan o‘zaro ta’sir – aks ta’sir aloqalarining bir omili sifatida namoyon bo‘ladi, fuqarolarga mamlakat taraqqiyotining maqsadlari va uning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida haqqoniy tasavvurlarga ega bo‘lishi va davlat hokimiyati organlari bilan ochiq muloqatlarda bo‘lib turishini ta’minlaydi. Davlat – jamiyat – fuqarolar o‘zaro aloqalari yordamida hokimiyat organlari fuqarolarning mamlakatda zarur islohotlarni

o'tkazishga doir talablariga nafaqat quloq tutadi, balki bu islohotlarni amalga oshirishga kirishadi;

uchinchidan, jamoatchilik nazorati davlat hokimiyati organlarini samarali ishlashga undaydi, u fuqarolarning jamoatchilik nazorati vositasida boshqaruv kadrlarini o'z vazifalarini astoydil bajarishga undash omili sifatida namoyon bo'ladi. Boshqaruv tizimi kadrlari jamiyat a'zolarining nazorati ostidagina samarali boshqaruvni amalga oshirishi mumkin, jamoatchilik nazorati kuchi bilan fuqarolarning yaratuvchilik takliflari hayotda o'z ifodasini topishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, jamoatchilik nazoratining faollashuvi natijasida raqobatbardosh iqtisodiyot rivojlanadi, kadrlarning ichki salohiyati ro'yobga chiqadi, xalqning turmush darajasi oshadi, kuchli fuqarolik jamiyati shakllanadi, milliy xavfsizlik mustahkamlanadi, insoniy kapital va uning resursi hayotda ishga tushadi. Bularning barchasi pirovard natijada mamlakatning salohiyatli bo'lishiga olib keladi, jamiyat gullab-yashnaydi, boshqacha aytganda, milliy manfaatlar ro'yobga chiqadi.

AQSHda jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun ko'plab vositalardan foydalanilib, u asosan davlat hokimiyati organlari faoliyati, fuqarolik ishtiroki va ularning birgalikdagi xatti-harakatlarini shaffoflik bilan kechish prinsipiga asoslanadi. Davlat hokimiyati organlarining xalq oldida hisobdorligi AQSH tarixining dastlabki davridayoq shakllangan edi. Fuqarolar urushi davrida AQSH Prezidenti Avraam Linkoln o'zining 1863-yildagi mashhur "Gettinsberg murojaati"da o'z so'zini hukumatning tabiatiga doir quyidagi fikr bilan tugatgan edi: "Xalq hokimiyati xalq irodasi va xalq uchun" boshqariladi. AQSH otalardan yana biri – Jeyms Medison 1775–1778-yillarda nashr etilgan "Federalchi" haftanomasidagi maqolasida "Hech bir shak-shubhasiz respublikaviy erkinlik ruhiyati ...nafaqat barcha hokimiyatning xalqdan kelib chiqishini, balki hokimiyat kimga ishonib topshirilgan bo'lsa, ularning xalq izmida bo'lishini taqozo etadi" deb ta'kidlab o'tgan edi. Mazkur demokratik prinsip hozirgi davrga qadar AQSH siyosiy an'analari tamal toshi bo'lib kelmoqda.

Davlat hokimiyati organlarining fuqarolar uchun axborot ochiqligi tamoyilini davlat miqyosida qaror topishi dastlab Shvetsiyada yuz bergan. Bu davlat 1766-yilda "Nashrlarning erkinligi to'g'risida"gi qonun qabul qildi. Bu qonun 1812-yildan buyon "Matbuot erkinligi to'g'risidagi qonun" deb atala boshlandi. Bu qonunga binoan, har qanday davlat organidan fuqarolar va OAV vakillari rasmiy hujjatlar bilan tanishishni talab qilganda, davlat organi ularga har qanday axborotni darhol va bepul tarzda taqdim etishga majbur edi. Bu qonun 1949-yilda yangi o'zgartirishlar va

qo'shimchalar bilan "Matbuot erkinligi to'g'risida"gi qonun yangi tahrirda qabul qilinadi. Shuningdek, u Shvetsiya Konstitutsiyasining tarkibiy qismi sifatida e'lon qilingan. Bu qonunga yana 1976-yilda yangi tuzatishlar kiritilib, u axborot erkinligi va ochiqligiga doir me'yorlarni belgilab berdi: "umumiy xabardorlik asosida har bir shved fuqarosi o'z erkin fikr almashishini rag'batlantirish maqsadida barcha rasmiy hujjatlardan foydalanish huquqiga ega bo'lishi shartdir".

Davlat ijroiya hokimiyati va uning tuzilmalari hamda o'zini o'zi boshqarish organlari fuqarolarning turli so'rovlariga darhol javob berishlari axborot erkinligining asosiy prinsipi sifatida namoyon bo'ldi. Har bir hokimiyat organi rasmiy hujjatlar ro'yxatini yuritishga majbur ekanligi, ularning ko'pchiligidan fuqarolar va jamiyat institutlarining foydalanishlari uchun ochiq bo'lishi go'yoki fuqarolik jamiyatining asosiy belgilaridan biriga aylandi. Hozirgi davrdada mazkur ro'yxatlardan elektron shaklda foydalanilmoqda. Bunda hujjatlarni ro'yxatga olish bo'yicha asosan to'rtta mustasnolik mavjuddir:

Birinchi mustasnolik – davlat hokimiyati organlari faoliyati uchun unchalik katta ahamiyat kasb etmagan hujjatlar.

Ikkinchi mustasnolik – bu maxfiy bo'lmagan hujjatlar; ularning qachon olinganligi yoki yaratilganligi aniq holda saqlanishi talab etiladi.

Uchinchi mustasnolik – bu davlat siri toifasiga kiruvchi hujjatlar.

To'rtinchi mustasnolik – bu ro'yhatga kiritilgan, elektron ko'rinishda saqlanadigan va foydalanish mumkin bo'lgan toifaga kiruvchi hujjatlar.

Shvetsiyada fuqarolarning axborot erkinligi huquqi boshqa mamlakatlardan eng uzun tarixga ega bo'lishiga qaramasdan bu fuqarolarning rasmiy axborotdan foydalanish huquqi 1990- va 2000-yillar boshlarida amaliy hayotda hokimiyat organlari tomonidan to'liq tarzda ta'minlanmadi. Natijada, moliya va ishlab chiqarish sohalarida – texnikaviy, mehnat va boshqa resurslarni davlat boshqaruvi tomonidan muvofiqlashtirishning samaradorligini pasayib ketdi. Jahon bozorida raqobatning keskin ortishi sharoitida bu holat yuqori boshqaruv hokimiyati namoyondalarini o'z egallab turgan mavqelari, mablag'lari va mulklarini yo'qotib qo'yish xavfini keltirib chiqardi. Shudan keyin 2002-yilda hukumat mamlakatda turli sohalardagi raqobatbardoshlikni oshirish vositasida milliy manfaatlarini himoya qilish maqsadida "Ochiq shved kompaniyasi"ni tashkil etishga qaror qildi. Bu kompaniyaning asosiy maqsadi, birinchidan, davlat hokimiyati organlari faoliyatining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan siyosiy yo'nalishlar bo'yicha axborotlarning ochiqligi amaliyoti o'rnatildi. Ikkinchidan, jamiyat a'zolari

va institutlarining davlat hokimiyati faoliyatidan xabardorligi darajasi yuqori darajaga ko'tarildi.

Shvetsiyadagi ijro hokimiyati faoliyatining ochiqligini ta'minlash tajribasidan Finlandiya davlatida keng foydalanildi. 1919-yilda mustaqil davlat maqomiga erishgan Finlandiya boshqaruvchi elitasi konstitutsiyaga axborot erkinligi to'g'risidagi maxsus normani kiritdi. 1951-yilda Finlandiya parlamenti "Rasmiy hujjatlarning oshkoraligi to'g'risida"gi Qonunni qabul qildi. 1990-yillar boshidagi chuqur iqtisodiy tushkunlik Finlandiyaning boshqaruvchi siyosiy qatlamiga mamlakatda turli sohalarda raqobatbardoshlikni oshirishga yangidan-yangi imkoniyatlarni topishga majbur qildi.

Bu jarayonda eng muhim me'yor sifatida mamlakatda jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga har tomonlama shart-sharoitlar yaratish yo'li bilan hukumatning boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirishga erishdi. Jamoatchilik nazoratining faollashtirilishi natijasida 1999-yilda "Hukumat faoliyatining ochiqligi to'g'risida", 2001-yildagi "Davlat boshqaruvi soxasida elektron xizmatlar to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi, shuningdek, 2000-yilda Konstitutstiyaga fuqarolarning axborot olish huquqlarini kengaytirishga doir maxsus moddalar kiritildi.

"Hukumat faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi qonun fuqarolar tomonidan turli ijtimoiy vazifalarni bajaradigan davlat hokimiyati organlari va xususiy tashkilotlar faoliyatlariga doir axborotlarni turli jamoat tarmoqlaridan olish, ulardan foydalanishga katta imkoniyatlar yaratdi. Qonunning maqsadi fuqarolarga va korporatsiyalarga hokimiyat organlari faoliyatini kuzatish, erkin fikrni shakllantirish, davlat hokimiyati siyosatiga ta'sir ko'rsatish va o'z manfaatlari hamda huquqlarini himoya qilish imkoniyatiga ega bo'lish kabilarga qaratildi.

Qonun fuqarolarning rasmiy hujjatlaridan foydalanishga nisbatan huquqlarini amalga oshirishning barcha jihatlarini belgilab berdi: rasmiy hujjatlardan foydalanishga so'rov, foydalanishni taqdim etish to'g'risida qaror, so'rovni boshqa hokimiyat organiga uzatish, ulardan foydalanish turlari. Qonunga muvofiq axborotni talab qiluvchi fuqarolar o'z so'rovining maqsadini izoxlashga majbur emasligi kabi huquqlarni o'zida ifoda etdi. Bu kabi so'rovlarga beriladigan javoblar 14 kun mobaynida berilishi shart qilib qo'yildi. Davlat hokimiyati organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan qabul qilingan qarorlar to'g'risidagi axborotlarga doir hujjatlar yo'q qilinmasligi shart, ular saqlanishi lozim. Qonun fuqarolarning davlat hokimiyati organlarlaridan o'z faoliyatiga doir axborotlarni ham olish huquqini e'lon qildi. Hokimiyat organlari o'z faoliyatlarining asosiy

yo‘nalishlarini, hisobotlarni va boshqa statistikani nashr etib borishga majburdir.

Qonun rasmiy hujjatlarda milliy xavfsizlikka tahdid soladigan ba’zi axborotlarni va boshqa taqdim etilishi mumkin bo‘lmagan hujjatlarni 32 toifaga bo‘ldi, shuningdek, rasmiy hujjatlarni maxfiy axborotlar toifasiga kiritishning 120 ta qoidasini ishlab chiqdi. Qonunga muvofiq hukumat idoralari va muassasalari o‘z faoliyatlari to‘g‘risidagi axborotlarni doimiy ravishda nashr etib borishga majburdirlar. Hukumat majlislari jamoatchilik uchun ochiq hisoblanishi zarur. Barcha hukumat departamentlari o‘z xususiy veb-saytlariga ega bo‘lishi va elektron hukumat standartlarini amalga oshirishlari shartdir.

2000-yilga kelib Finlandiya Konstitustiyasining 12-bo‘limiga “har bir kishi ijtimoiy hujjatlardan erkin foydalana olish huquqiga ega” ekanligiga doir qo‘shimcha kiritildi. 2001-yilda esa Finlandiya parlamenti jahonda birinchilardan bo‘lib, “Davlat boshqaruvi sohasida elektron xizmatlar to‘g‘risida”gi qonunni qabul qildi. Bu qonunning asosiy maqsadi davlat boshqaruvi xizmatlarining faoliyat yuritishida mansabdorlarning mas’uliyatli bo‘lishi, tezkorlikni ta’minlashi va professional bo‘lishi kabilarga qaratildi. Qonun elektron davlat xizmatlari sohasida davlat boshqaruvchi organlari va mijozlarining huquqlari, majburiyatlari va mas’uliyatlariga doir qoidalarni o‘z ichiga oldi. Qonunga binoan, hokimiyat organlari va yetarlicha texnik, moliyaviy va boshqa resurslarga ega bo‘lgan rasmiy idoralar fuqarolarga eng qulay muqobilliklardan birini tanlash imkoniyatini yaratishlari lozim: elektron xabarni ko‘rsatilgan elektron manzillar bo‘yicha jo‘natish yoki masalalarni hal qilishining boshqa mexanizmlarini taklif etishi shart. Bundan tashqari, hokimiyat fuqarolarga xabarnomalar, hisob-kitob hujjatlari kabilar va boshqa axborotlarni elektron uzatish tarzida yetkazib berishi lozim.

Ayni paytda, Finlandiyada barcha rasmiy idoralarning 90 foizidan ortiqrog‘i fuqarolarga o‘z xizmatlarini Internet orqali taqdim eta boshladi. Bu davlat xizmatlari buyurtmalar va talablarga doir huquqiy hujjatlarni taqdim etish, fuqarolarni turli milliy loyihalarda ishtirok loyihalari to‘g‘risida xabardor qilish, bo‘sh ish o‘rinlari to‘g‘risida va ta’lim olish imkoniyatlari haqida axborotlar berish va boshqa xizmatlarni taklif etishi belgilab qo‘yildi. Bundan tashqari, Bosh vazir devonxonasi o‘z saytida vazirliklar tomonidan tayyorlanayotgan qonunlar loyihalari to‘g‘risidagi axborotlarni nashr etib borish qoidasi ham kiritildi. O‘z navbatida, Finlandiya parlamenti fuqarolarni o‘zi ishlab chiqqan qonunlar loyihalari va hujjatlar bilan bevosita tanishish imkoniyatini yaratdi. Internet tizimi

yordamida fin fuqarolari Adliya vazirligi saytida e'lon etib boriladigan barcha qonunlarni, me'yoriy hujjatlarni, Finlyandiya davlat organlarining qarorlarini va davlatlararo bitimlarni nazorat qilish imkoniyatlari yaratildi. Finlyandiya davlat organlari saytlarida joylashtirilgan barcha materiallar – qonunlar va boshqa rasmiy hujjatlardan fuqarolar bepul foydalanadi.

Buyuk Britaniyaning eng yaxshi namoyondalarining hokimiyat faoliyati to'g'risidagi axborotdan erkin foydalanishlari uchun sharoitlar yaratish bo'yicha tajribalari diqqatga sazovordir. Jahon bozorlarida raqobatli kurashning oshishi sharoitida hokimiyat samaradorligining dolzarbligi ham ancha ortdi. Buyuk Britaniyada mas'uliyatli, binobarin, malakali hokimiyatni shakllantirish maqsadida 2000-yilda "Axborot erkinligi to'g'risida"gi Qonun qabul qilingan edi. Bu qonun har bir kishiga davlat hokimiyati ixtiyorida bo'lgan axborotdan foydalanish huquqini berdi . Fuqarolar murojaatiga davlat organlari tomonidan unga 20 kun ichida javob berishlari kerak. Axborot taqdim etishni istisno qiluvchi uchta toifa nazarda tutildi – bu sud hujjatlari, ko'pchilik xususiy axborotlar: xavfsizlik xizmatiga, maxfiy razvedka xizmatiga taalluqli axborot, maxfiy olinadigan axborot. "Axborot erkinligi to'g'risida"gi qonunning 2005-yilning 1-yanvardan kuchga kirdi. Asosiy e'tibor elektron hukumatni yaratishga qaratildi. Hozirgi paytda Buyuk Britaniyada elektron muhitda omilkor va tezkor faoliyat olib borish uchun qulay sharoitlar yaratilgan.

AQSH tarixining 200 yildan ortiqroq davrida davlat mansabdorlari axborot erkinligini ta'minlash sohasida katta tajriba orttirdi. 1966-yilga kelib barcha axborot erkinligiga doir huquqiy asoslar shu yilda qabul qilingan "Axborot erkinligi to'g'risida"gi qonunda mujassamlashdi. Unda hukumat va uning quyi tashkilotlari o'zlarining tuzilmalari va funksiyalariga taallukli materiallarni, shuningdek olib borgan siyosati va boshqaruv faoliyatining yunalishlari to'g'risidagi qabul qilingan qarorlar va axborotlarni rasmiy raishda nashr etilishini shart qilib qo'ydi. Qonunga bir necha marta o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritildi. 1996-yilda "Elektron axborot erkinligi to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Bu qonun mamlakatdagi har bir fuqaroga yoki tashkilotga, fuqaroligi qanday yoki qanday mamlakatda tug'ilganligidan qat'i nazar federal hukumat va uning quyi organlariga taalluqli hujjatlarni talab qilib olishga imkon bera boshladi. Qonunga muvofiq murojaat qilgan fuqaro davlat hokimiyati organlaridan 20 kun ichida javob xati olishi tartibi o'rnatildi. Qonun axborotdan foydalanishni istisno etuvchi 9 ta hujjatlar toifasini belgiladi: milliy xavfsizlik, davlat organining ichki qoidalari, shuningdek, boshqa qonunlarga muvofiq foydalanish ta'qiqlangan hujjatlar, tezkor axborotlar,

hokimiyat organlarining ishchi yozuvlari, xususiy (shaxsiy) hayot to'g'risidagi axborotlar, huquq-tartibot organlarining hisobotlari, moliyaviy institutlar va neft konlari manbalari to'g'risidagi axborotlar.

Xorijiy tajribalar ko'rsatib turibdiki, o'z ichiga birinchi navbatda hokimiyatning shaffofligi va fuqarolarning davlat boshqaruvida keng ishtirok etishi prinsiplarini o'z ichiga olgan jamoatchilik nazoratining huquqiy va madaniy asoslanishlari sinovlardan o'tdi. AQSH va YYevropa mamlakatlarida davlat nodavlat tashkilotlar, ijroiya hokimiyati organlari huzuridagi kengashlar, qo'mitalar tomonidan nazorat qilishga doir maxsus axborotlarni oshkor etishga huquqiy asoslarini yaratib berdi. Bu jarayonda ko'ngilli yoki ixtiyoriy harakatlar, jamoatchilik tashabbuslari, ekspertizalar va jurnalist surushtiruvlari muhim rol o'ynaydi. Rivojlangan mamlakatlarda jamoatchilik nazoratining internet-loyihalar keng tarqaldi. Masalan, AQSHda Oq uy saytida petitsiyalar uchun maxsus bo'lim – Wethepeople tashkil etilgan.

Yevropa Ittifoqida (YI) esa jamoatchilik nazoratining to'rtta asosiy shakli keng tarqaldi:

1. Jamoat birlashmalari, ittifoqlari kabilardan jamoatchilik fikriga doir so'rovnomalarga javoblar, petitsiyalarga imzo to'plash, turli takliflar olish. Masalan, 2012-yil may oyidan buyon "Yevropa fuqarolik tashabbusi" ("The European Citizens Initiative") faoliyat yuritadi. U Yevropa Komissiyasiga ko'rib chiqish uchun tashkiliy va huquqiy takliflarga asoslangan petitsiyalarni yuboradi. Bunda quyidagi shartga amal qilinadi: yuboriladigan petitsiyani YI davlatlarining kamida to'rtdan bir qismida yashaydigan bir million kishi qo'llab-quvatlashi talab etiladi. Petitsiya fuqarolar tomonidan qo'llab-quvvatlanib yuborilganidan keyin Yevropa Komissiyasi uni qabul qiladi yoki rad etadi. Hozirgi davrga qadar qabul qilingan petitsiyalarning soni rad etilganiga qaraganda ko'proqni tashkil etmoqda. So'nggi marta bir milliondan ortiq fuqarolarning qo'llab-quvvatlashiga 2013-yil mart oyida erishildi: bunda "Suv olishga huquq" petitsiyasida suv bilan kanalizatsiyaga ega bo'lishni inson huquqlari qatoriga kiritish talab etilgan.

2. Jamoatchilik maslahatlari – ularda, asosan, hukumat yoki munitsipal organlarining loyihalari sharhlanadi va baholanadi. Ular ham mansabdorlar, ham fuqarolar – ya'ni o'z fikrlari e'tirof etilishini xohlovchilar tomonidan ham chaqirilishi va o'tkazilishi mumkin. Jamoatchilik masalahatlari barcha manfaatdor tomonlarning ochiq ijtimoiy uchrashuvlarida, jamoatchilik vakillari ishtirokida, yopiq holda va bayonnomalar ko'rinishida yoki Internet vositasida o'tkaziladi. Buning o'ziga xos hususiyatlari – bu

muhokamalar vaqtining chegaralanganligi, ya'ni ularni muayyan qaror qabul qilish sanasiga muvofiqlashtirilishi hisoblanadi.

3. Keyingi o'n yilliklarda G'arb siyosiy munosabatlar va boshqaruv faoliyatida Internetda kollaboratsiya (vaziyatli hamkorlik harakatlari) deb ataladigan jamoatchilik nazoratlarini o'tkazish rusumga kirdi. Bir-biriga begona fuqarolar turli qarorlar va baholashlarni muhokama qiladi, so'ngra ularni taklif qiladi. Kollaboratsiyalar axborotlardan foydalanadigan o'zgalarga nisbatan ochiqlikni talab qilishi bilan bir qatorda jamoaviy murosasoz qarorlar qabul qilishni ko'zda tutmaydi, balki u ko'pchilik bilan bir qarorga erishishda har bir ishtirokchining xususiy axborotiga muhim ahamiyat qaratadi.

Kollaboratsiya tizimli nazorat sifatida muayyan shart-sharoitlarni talab etadi: zaruriy xabardorlik va ahamiyat kasb etadigan motivatsiyalarga ega bo'lgan faollarning (ular ochilikni tashkil etishi mumkin) jamoaviy zakovotli ichidan yutib chiqishi va muhokamalarning ochiq tarzda bo'lishi. Kollaboratsiya to'g'ridan to'g'ri davlat ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ishtirok etishning o'rnini bosa olmasa-da, jamiyatda paydo bo'lgan muammoning yechimining eng yaxshi muqobilini topishi bilan jamoatchilik nazorati funksiyasini bajaradi. Uning ustun tomoni shundaki, u har qanday turdagi va mazmundagi muammoning yechimini topishga qo'llash mumkin, uni Internet vositasida, ya'ni qulay tarzda o'tkaziladi, o'zining jo'shqinligi va keskinligi bilan boshqa nazorat shakllaridan ajralib turadi. Kollaboratsiya mutaxassislarning cheklanmagan sonini o'zida birlashtirib, muammolarning yechimlarini oddiylashtiradi, samarali bo'lishini ta'minlaydi, uni moliyalashtirshga hojat qolmaydi. U davlat hokimiyati organlariga yordamlashishdan tashqari, fuqarolarni jamiyatdagi muammolarni ko'tarishga va hal etishga safarbar etadi.

4. Munozara maydonlari va anjumanlar (forumlar, konferensiyalar, fuqarolik jyurilar va boshqalar) jamoatchilik vakillari, ekspertlar va mansabdorlarning turli siyosiy masalalar bo'yicha birgalikda qarorlar qabul qilishini ta'mnlaydi. Unga misol tariqasida "Your voice in Europe" resursini keltirish mumkin. U YI siyosatini shakllantirishda qanday tarzda ishtirok etishni o'zida ifodalaydi. G'arbiy Yevropada ijtimoiy muhokamalarning rivojlanib borishi shuni ko'rsatadiki, ularning yordamida qarorlarni qabul qilinishi, dalillash darajasi oshib bormoqda, jamiyat uchun keraksiz loyihalar rad etilmoqda.

5. Ijtimoiy tarmoqlar orqali davlat hokimiyatining turli idoralari va nodavlat tashkilotlar o'zaro interfaol muloqotlar. Unga misol tariqasida Atrof-muhitni nazorat qilish va axborot bo'yicha Yevropa tarmog'i

faoliyatini keltirish mumkin. Unda hamkorlar sifatida 39 ta davlatning ekspertlari, 300 ta atrof-muhitni himoyalash milliy agentliklari, alohida olingan fuqarolar ishtirok etadi. Bu muloqotlarda asosan ekologik muammolar aniqlanadi, ularning yechimlariga doir muhokamalar amalga oshiriladi, nazorat funksiyalarini bajaruvchi hujjatlar qabul qilinadi.

6) Bir qancha rivojlangan davlatlarda davlat hokimiyati organlari huzurida ijtimoiy kengashlar faoliyatlari institutlashmoqda. Bunga Rossiya Jamoatchilik palatasini misol keltirish mumkin. Unga o'xshash tashkilotlar – Fransiyada turli kasbiy guruhlar vakillaridan iborat bo'lgan Ijtimoiy va iqtisodiy kengash, Nilerlandiya Qirolligi, Avstriya, O'zbekiston kabi davlatlarda faoliyat yuritayotgan Nodavlat notijorat tashkilotlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi kabilar jamoatchilik nazorati samarasini oshirishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Jamoatchilik nazoratining yana bir ta'sirchan shakli jurnalist teshiruvi hisoblanadi. Bu shakl AQSHda avj olgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida AQSH va G'arbiy Yevropaning rivojlangan mamlakatlarida hokimiyat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati o'rnatila boshlandi. Jamoatchilik nazoratini amalga oshirish usullari deganda fuqarolarning hokimiyat faoliyati ustidan o'z nazoratlarini amalga oshirishda qo'llaydigan xatti-harakatlari yoki harakatlar tizimini tushunish lozim. Jamoatchilik nazorati ikkita asosiy usul bilan – 1) fuqarolar irodasining to'g'ridan to'g'ri (bevosita) talabi bilan; 2) fuqarolarning topshirig'iga asoslangan – bilvosita (vakolatli) tarzda xatti-harakat qiladigan, ular saylagan idoralar vositasida amalga oshiriladigan usullar bilan o'tkaziladi. Bunda jamoatchilik nazoratining u yoki bu usulining bir-biridan ustuvorligi to'g'risida masala qo'yishning hojati yo'q, chunki bu ikki usulning o'z maqsadlari va vazifalarini amal oshirishining ahamiyati teng tarzda muhim hisoblanadi.

Jamoatchilik nazoratining bevosita va vakolatli (bilvosita) usullari o'zining amalga oshirilishi bo'yicha xilma xil shakllarga egadir. Jamoatchilik nazoratining bevosita usulida fuqarolar irodasining namoyon bo'lishi quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- fuqarolarning hokimiyat faoliyatiga oid axborotlardan voqif bo'la olishi;
- jurnalistik tekshiruv;
- arznomalar – fuqarolarning davlat hokimiyati organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlariga yakka tartibdagi yoki jamoaviy murojaatlari;
- fuqarolarning mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, fuqarolar

yiG'inlari, ommaviy tarzda tinglashlari vositasida jamiyat ishlarini boshqarishdagi ishtiroklari;

- jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi va boshqaruvchi eng yuqori doiradagi rahbarlarga ta'sir ko'rsatadigan ilmiy-tadqiqotlar, publitsistik va badiiy asarlar;
- qonun loyihalari va boshqa davlat hayotiga doir boshqa muhim masalalarni ommaviy muhokama qilish;
- xalqning qonunchilik tashabbuslari;
- qonun loyihalarining jamoatchilik tomonidan ekspertiza qilinishi;
- sudlar maslahatchilari.

Fuqarolar nazoratining bilvosita – vakolatli usuli o'zining turli shakllariga egadir. Ularga parlament nazorati, hudud (shtat, o'lka, viloyat) qonun chiqaruvchi organlarining nazorati va mahalliy o'zini o'zi boshqarishning vakolatli organlari nazoratlarini keltirish mumkin.

Jamoatchilik nazoratining to'g'ridan to'g'ri usulining muhim shakli – bu fuqarolarning davlat va mahalliy hokimiyat organlari faoliyati to'g'risidagi axborotdan foydalana olishlari hisoblanadi. Fuqarolarning hokimiyat faoliyati to'g'risida xabardorligining to'liqligi va o'z vaqtida xabardor bo'lishi inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash hamda himoyalash, davlat organlarining samarali boshqaruvi va ijtmoiy xizmatlarini sifatli bo'lishi uchun ularga ta'sir ko'rsatish qobiliyatlariga bog'liqdir. Shu munosabat bilan AQSH siyosatshunos olimi B.Peyj quyidagi fikrni bildiradi: "Jamiyat hukumat ustidan haqiqiy nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'lishi uchun uning faoliyatidagi barcha tafsilotlardan yaxshi xabardor bo'lishi, fuqarolar esa mamlakatda paydo bo'layotgan barcha muhim muammolarni muhokama qilishda faol ishtirok etishlari talab etiladi".

2. O'zbekistonda jamoatchilik nazoratining amaliyoti va huquqiy asoslarining shakllanishi

O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki davridan boshlab huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurishning asosiy strategik pirovard maqsad sifatida e'lon qilinishi, bozor iqtisodiyotiga o'tish islohotlarining boshlanishi natijasida jamoatchilik nazoratini shakllantirishga zarurat paydo bo'ldi. Chunki jamoatchilik nazorati fuqarolik jamiyatining muhim institutlaridan biri hisoblanadi.

Mustaqillik davrida fuqarolik jamiyati institutlarining turli sohalar bo'yicha jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga doir u yoki bu qoidalar

40 dan ortiq me'yoriy-huquqiy hujjatlarda o'z ifodasini topdi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida va milliy qonunchilikda jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning ustuvor qoidalari mustahkamlangan. Xususan, Konstitutsiyaning 2-, 35- va 60-moddalarida fuqarolik jamiyati institutlari va fuqarolarning jamoatchilik nazoratini amalga oshirishining ba'zi qoidalari mustahkamlandi. 2014-yilning 16-aprelida Konstitutsiyaning 32-moddasiga fuqarolar jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etishning yo'li sifatida "davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va takomillashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi" prinsipi kiritildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi, "Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi, "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi, "Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida"gi va boshqa qator qonunlarda fuqarolar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat tashkilotlar tomonidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ishtirok etishga doir moddalar kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasiga muvofiq "Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitustiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir. Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo'lgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkin". Mazkur konstitutsiyaviy huquq asosida 1997-yili 24-aprelda O'zbekiston Respublikasining "Axborot olish erkinligi va kafolatlari to'g'risida"gi, 2002-yili 12-dekabrda "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi, "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonunlaring qabul qilinishi OAV tomonidan jamoatchilik nazratini amalga oshirishga huquqiy asoslar yaratdi. O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrda qabul qilingan "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'G'risida"gi qonunining 4-moddasiga binoan "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq har kim axborotni moneliksiz izlash, olish, tekshirish, tarqatish, undan foydalanish va uni saqlash huquqiga ega. Axborot olish faqat qonunga muvofiq hamda inson huquq va erkinliklari, konstitutsiyaviy tuzum asoslari, jamiyatning axloqiy qadriyatlari, mamlakatning ma'naviy, madaniy va ilmiy salohiyatini muhofaza qilish,

xavfsizligini ta'minlash maqsadida cheklanishi mumkin".

Shuningdek, mazkur qonunning 8-moddasida "Davlat har kimning axborotni izlash, olish, tekshirish, tarqatish, undan foydalanish va uni saqlash huquqini himoya qiladi. Jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeiga qarab axborot olish huquqi cheklanishiga yo'l qo'yilmaydi. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari hamda mansabdor shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda har kimga o'zining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo'lgan axborot bilan tanishib chiqish imkoniyatini ta'minlab berishga, maqbul axborot resurslari yaratishga, foydalanuvchilarni fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va majburiyatlariga, ularning xavfsizligiga doir hamda jamiyat manfaatlariga taalluqli boshqa masalalar yuzasidan axborot bilan ommaviy tarzda ta'minlashga majburdirlar. O'zbekiston Respublikasida senzuraga va axborotni monopollashtirishga yo'l qo'yilmaydi".

Mustaqillik davrida mamlakatda "Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining asoslari haqida"gi, "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi qonunlarda davlat hokimiyati organlarining fuqarolik jamiyati institutlari oldidagi mas'uliyatlari huquqiy jihatlardan mustahkamlab qo'yildi. Ushbu qonunlarda nodavlat tashkilotlarining faoliyatini ta'minlashga qaratilgan qoida va me'yorlar o'z aksini topgan bo'lsa, Prezidentimiz farmonlarida va Vazirlar Mahkamasining qarorlarida ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, imtiyozli soliq to'lovlarini belgilash, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash shart-sharoitlari yaratib berilmoqda.

Mamlakatdagi milliy qonunchilikka binoan kasaba uyushmalari mehnat, mehnatni muhofaza qilish va kasaba uyushmalari to'G'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini olib boradilar. Fuqarolarning mehnat qilish, ishni, kasbni erkin tanlash, adolatli va munosib mehnat sharoitlarida ishlash borasidagi huquqlarini himoya qilish kasaba uyushmalarining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

So'nggi o'n yillikda kasaba uyushmalariga fuqarolardan kelib tushayotgan murojaatlarning mazmuni ham tubdan o'zgardi. Ya'ni ilgari murojaatlarning akasariyati moddiy yordam ko'rsatish, yo'llanma ajratish masalalariga oid bo'lgan bo'lsa, hozirgi davrga kelib ularning 68 foizga yaqinini jamoa shartnomalarida belgilangan me'yorlarga rioya etish, ishdan noqonuniy bo'shatish, ishlab chiqarishda qulay va bexatar mehnat sharoitlarini yaratish masalalari tashkil etmoqda. 2011–2015-yillar

davomida kasaba uyushmalari tomonidan fuqarolardan kelib tushgan jami 57.254 ta murojaat ko'rib chiqilib, jamoatchilik nazorati natijasida ularning 51.031 tasi hal etildi.

Shuningdek, xodimlarning qonuniy haq-huquqlarini tiklash maqsadida kasaba uyushmalari tomonidan sudlarga da'vo arizalari, ish beruvchilarga hamda davlat organlariga taqdimnoma kiritish amaliyoti keng joriy etildi. Xususan, o'tgan 2011–2016-yillar davomida kasaba uyushmalari tomonidan sudlarga jami 361 ta da'vo arizalari va ish beruvchi-larga 1.980 ta taqdimnoma kiritilib, buning natijasida 5.354 nafar shaxsning qonuniy huquqlari tiklanishiga erishildi.

2016-yil uchun jamoa shartnomasining yangi maketi ishlab chiqilib, Federatsiya Kengashining internet portaliga, "norma.uz" saytiga joylashtirildi, "Ishonch" va "Ishonch-Doveriye" gazetalarida davlat va rus tillarida chop etildi. Kasaba uyushmalari tomonidan jamoa kelishuvlari va shartnomalari loyihalarini jamoatchilik ekspertizasidan o'tkazish taomili joriy etilgani ularning sifatini yaxshilash va ijtimoiy yuklanmasini kuchaytirish imkonini berdi.

2017-yil 1-yarim yilligi davomida turli darajadagi kasaba uyushmalari tashkilotlari tomonidan 4 ming 321 ta murojaat o'rnatilgan tartibda ko'rib chiqildi. Xususan, ularning 845 tasi qanoatlantirildi, 2292 ta murojaatlar bo'yicha mualliflarga tushuntirish berildi, 123 ta murojaatda ko'rsatilgan vajlar o'z tasdig'ini topmadi, 42 ta murojaat qonun talablariga muvofiq ko'rmay qoldirildi, 11 ta murojaat anonim deb topildi.

Kasaba uyushmalariga yo'llangan, lekin mazmun jihatidan ko'rib chiqish kasaba uyushmalari vakolatiga kirmaydigan masalalar aks ettirilgan 71 ta murojaat mualliflar xabardor qilingan holda vakolatli organlarga yuborildi.

Xodimlarning mehnat huquqlari buzilganligi aniqlangan holatlar yuzasidan ish beruvchilarga kiritilgan 173 ta taqdimnomaning 64 tasi qanoatlantirildi, sudlarga kiritilgan 75 ta da'vo arizasining 21 tasi murojaat mualliflari foydasiga hal qilindi, 47 ta da'vo arizalari ko'rib chiqilmoqda. Fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqish natijalariga ko'ra jami 535 nafar shaxsning mehnat huquqi tiklanishi va xodimlar foydasiga 2 mlrd. 450 mln. so'm miqdorida ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarning undirilishiga erishildi.

Murojaatlarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha O'zbekiston

Respublikasi Bosh prokuraturasi, O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hamda Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman)ga, shuningdek, hududlar va tarmoqlar kesimida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga tahliliy ma'lumotnomalar kiritildi.

Mamlakatda mehnat munosabatlarini demokratik prinsiplar asosida rivojlantirish, bu sohada kasaba uyushmalarining jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi rolini kuchaytirsh, bu sohaga xalqaro standartlarni olib kirish kabi yangi g'oyalarni hayotga tatbiq etish 2016-yilning oxirgi choragida boshlandi. Ayniqsa, Xalqaro mehnat tashkilotining (XMT) O'zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan konvensiyalarini hayotga tatbiq etish masalasi 2016-yil 12-oktabrda parlament tomonidan "Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'G'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartishlar kiritish haqida"gi hamda "Xalqaro mehnat tashkilotining birlashmalar erkinligi va kasaba uyushmalariga birlashish huquqini himoya qilish to'g'risidagi 87-sonli Konvensiyasini ratifikatsiya qilish haqida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlarining ma'qullanishi muhim o'zgarishlarga olib keldi. "Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartishlar kiritish haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida kasaba uyushmalari faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish, qonunning amalda qo'llanish amaliyotini tahlil qilish natijasida aniqlangan eskirgan norma va qoidalarni bartaraf etish, qonunning ayrim normalarini yangi qabul qilingan qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiqlashtirishga qaratilgan o'zgartish va qo'shimchalar ifodalandi.

Xususan, qonunda kasaba uyushmalari faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari takomillashtirildi. Jumladan, xodimlarning alohida toifalari, jumladan, yakka tartibdagi tadbirkorlar, hunarmandlar va bir martalik ishlarda band shaxslar uchun O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq birlashish erkinligi kafolatlari mustahkamlandi. Yangi davr talablarini inobatga olgan holda yakka tartibdagi tadbirkorlar ishlaydigan joylarda, shuningdek, tarmoqlar va hududlar darajasida kasaba uyushmalari tashkilotlarini tuzish va faoliyatini ta'minlash tartibi belgilandi. Yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan yollangan xodimlarga ham kasaba uyushmalariga birlashish huquqi berilib, xususiy sektorda mehnat qiluvchi shaxslarning ijtimoiy-

iqtisodiy huquqlarini himoya qilish samaradorligi oshirildi.

Qonunga o'zgartishlar kiritilishi kasaba uyushmalarining huquqiy himoya funksiyalarini ham kuchaytirdi. Xususan, mehnat nizolarini ko'rib chiqishning soddalashtirilgan va samarali vositasi sifatida sudga da'vo arizasidan tashqari sud buyrug'ini chiqarish to'g'risida ariza bilan murojaat qilish huquqi kiritildi. Ish beruvchilar tomonidan kasaba uyushmalarining mehnat qonunchiligi talablari buzilishini bartaraf etish to'g'risida kiritgan taqdimnomasini ko'rib chiqish muddatlari qisqartirildi. Shu bilan birgalikda, kasaba uyushmalarining ijtimoiy himoya funksiyalari ham kuchaytirilib, xodimlarning mehnat va ijtimoiy huquqlarini himoya qilishda kasaba uyushmalarining rolini oshirishga qaratilgan mexanizmlar mustahkamlandi. Kasaba uyushmalarining ish beruvchilar bilan jamoa muzokaralarini o'tkazishda ustuvor huquqdan foydalanish, ish beruvchilarning mehnat va kasaba uyushmalari to'g'risidagi qonunchilikni, shuningdek, jamoa shartnomalari va kelishuvlari talablarini bajarishini nazorat qilish hamda mehnat nizolarini ko'rib chiqishda ishtirok etish huquqlari kafolatlari kuchaytirildi. Albatta, bu yangi o'zgarishlar fuqarolarning mehnat va ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari himoyasini kuchaytirish hamda ijtimoiy-mehnat sohasida qonuniylikni ta'minlash, muhimi kasaba uyushmalari tomonidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga xizmat qila boshladi.

"Xalqaro mehnat tashkilotining birlashmalar erkinligi va kasaba uyushmalariga birlashish huquqini himoya qilish to'g'risidagi 87-sonli Konvensiyasini ratifikatsiya qilish haqida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi. Ma'lumki, mazkur Konvensiya Xalqaro mehnat tashkilotining 1948-yilgi Bosh Konferensiyasida qabul qilingan bo'lib, unda xodimlar va ish beruvchilarning tashkilotlar tuzish, shuningdek, bunday tashkilotlarga a'zo bo'lish huquqi nazarda tutilgan. Konvensiyada ushbu tashkilotlarning o'z ustavlari va ma'muriy reglamentlarini ishlab chiqish, o'z faoliyatini tashkil etish, harakat dasturini tasdiqlash hamda ro'yobga chiqarish huquqlari nazarda tutilgan edi. Birlashish huquqini cheklovchi yoki uning qonunchilik yo'li bilan amalga oshirilishiga to'sqinlik qiluvchi davlat organlari aralashuvidan xoli bo'lish ko'zda tutilgan hamda xodimlar va ish beruvchilarning birlashish bo'yicha o'z huquqini erkin amalga oshirishini kafolatlovchi chora-tadbirlar hamda boshqa huquqlar qayd etilgan.

Xususan, mamlakatimizda fuqarolarning kasaba uyushmalariga birlashish huquqlari O'zbekiston Respublikasining 20 dan ortiq

normativ-huquqiy hujjatida, shu jumladan, "Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'G'risida"gi Qonunda va O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida mustahkamlab qo'yilgan. Hozirgi vaqtda 14 ta tarmoq, 14 ta hududiy va 37 mingdan ortiq boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkilotini birlashtiruvchi O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi 6,2 milliondan ziyod xodimning manfaatlarini ifodalaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, mazkur Konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi har bir kishining o'zgalar bilan erkin uyushma tuzish huquqini, shu jumladan, kasaba uyushmalarini tuzish va o'z manfaatlarini himoya qilish uchun kasaba uyushmalariga a'zo bo'lish huquqini kafolatlovchi 1948-yilgi Butunjahon inson huquqlari deklaratsiyasida aks etgan inson huquqlarini himoya qilishning umume'tirof etilgan normalariga O'zbekiston sodiq ekanligining yorqin namunasi bo'ldi. Bu holat mamlakat kasaba uyushmalarini jamoat nazoratini olib borish faoliyatini yanada kengaytirish va chuqurlashtirshning asosi bo'ldi.

Kasaba uyushmalari huquqiy asoslarini fuqarolik jamiyati talablari asosida takomillashtirilishi, davlat hokimiyati organlari vakolatlari va funksiyalarini xalqqa xizmat qilishga qaratilgan Prezident farmonlari, "O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy islohotlar konsepsiyasi"ni amalga joriy etish asnosida "Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi qonunning 11-moddasidagi quyidagi vakolatlar va huquqlarni amalga oshirishga shart-sharoitlar tug'ildi:

"Kasaba uyushmalari ish beruvchi tomonidan mehnat va kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi qonun hujjatlari normalariga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi, aniqlangan huquqbuzarliklar bartaraf etilishini talab qilishga haqli. Ish beruvchi qonun hujjatlari buzilishlarini bartaraf etish to'g'risidagi taqdimnomalarni ko'rib chiqishi va ko'rib chiqish natijalari haqida kasaba uyushmasiga o'n besh kunlik muddat ichida xabar berishi shart.

Kasaba uyushmalari xodimlarning mehnat huquqlarini himoya qilib sudga da'vo arizasi bilan, shuningdek sud buyrug'ini chiqarish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilishga haqli. Kasaba uyushmalari huquqiy yordam xizmatlariga va boshqa zarur organlarga ega bo'lishi mumkin".

Mamlakatda davlat hokimiyati organlari va mansabdorlar ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda O'zbekiston

Respublikasining 2014-yil 5-mayda qabul qilingan "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi qonuni muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur qonun davlat hokimiyati organlari faoliyatini shaffof kechishi ustidan jurnalistlar, o'z huquqini himoya qilish istagidagi tadbirkorlar, fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlarining jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda muhim ilgari siljish bo'ldi. Qonunning 4-moddasida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ochiqligining asosiy prinsiplari sifatida quyidagilar e'lon qilindi:

ular tomonidan taqdim etiladigan axborotdan hammaning foydalanishi mumkinligi, uning o'z vaqtida berilishi va ishonchliligi;

ular faoliyatining oshkoraligi va shaffofligi;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to'g'risidagi axborotni izlash, olish va tarqatish erkinligi;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati to'g'risida axborot taqdim etishda fuqarolarning o'z sha'ni va qadr-qimmatini tajovuzlardan, o'z shaxsiy hayotiga aralashuvlardan himoya qilishga bo'lgan huquqlari va qonuniy manfaatlariga, shuningdek, fuqarolar va yuridik shaxslarning o'z ishchanlik obro'sini himoya qilishga bo'lgan huquqlariga rioya etish.

Shu bilan birga, qonunning 7-moddasida axborotdan foydalanuvchi va uning huquqlariga doir quyidagi qoidalar o'rnatildi:

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to'g'risida axborot izlashni amalga oshirayotgan jismoniy yoki yuridik shaxs axborotdan foydalanuvchidir.

Axborotdan foydalanuvchi quyidagi huquqlarga ega:

- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to'g'risidagi ishonchli axborotni olish va tarqatish;
- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to'g'risida ushbu Qonunning 5-moddasida nazarda tutilgan axborotni olish uchun bevosita yoxud o'z vakillari orqali so'rov bilan murojaat etish;
- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to'g'risida axborot olishni rad etish;
- axborotdan foydalanuvchi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Albatta, mazkur qonun mamlakatda jamoatchilik nazoratining shakllanishi va fuqarolar huquqiy madaniyatining rivojlanishida muhim rol o'ynadi. Mamlakatda OAV, tadbirkorlar, nodavlat notijorat tashkilotlar faollari mazkur qonunga tayangan holda nafaqat o'z haq-

huquqlarini himoya qildi, balki fuqarolik jamiyatiga xos bo'lgan demokratik qadriyatlardan xabardor bo'ldi, ularning fuqaroviylik pozitsiyalari shakllana boshladi.

O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 22-aprelda qabul qilingan "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonuni yangi tahririning 16-moddasida mahalla, shaharcha va ovul fuqarolar yig'inlariga jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga doir quyidagi vakolatlar va huquqlar berildi. Mazkur modda shunday ifodalandi:

"Jamoatchilik nazorati fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

-tegishli hududda qonunlar va boshqa qonun hujjatlarining ijro etilishi holatini o'rganish;

-tegishli choralar ko'rilishi uchun davlat organlariga murojaat etish; davlat organlari vakolatiga kiruvchi va ijtimoiy ahamiyatga molik masalalar bo'yicha so'rovlar yuborish.

Jamoatchilik nazorati qonun hujjatlariga muvofiq boshqa shakllarda ham amalga oshirilishi mumkin.

Jamoatchilik nazorati ommaviy axborot vositalari, nodavlat notijorat tashkilotlar va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi mumkin.

Davlat organlari fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ko'maklashishi va qonun hujjatlariga muvofiq ularning murojaatlari yuzasidan o'z vaqtida chora-tadbirlar ko'rishi shart".

Shuningdek, qonunning yangi tahririga binoan davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratining o'rnatilishi fuqarolik jamiyati barpo etishning eng muhim shartlaridan biri ekanligi e'tiborga olinib, fuqarolar yig'inlari tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar ijroiya hokimiyati rahbarlarining turli sohalarga oid masalalar yuzasidan hisobotlarini eshitish, fuqarolar yig'inlarining murojaatlari ko'rib chiqilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, atrof-muhitni muhofaza qilish, hududning sanitariya holati, uni obodonlashtirish masalalari yuzasidan o'z vakolati doirasida tegishli hududda joylashgan korxona, muassasa va tashkilotlar rahbarlarining hisobotlarini eshitish hamda ularning natijalari bo'yicha qarorlar qabul qilish kabi vakolatlarga ega bo'lishi o'zini o'zi boshqarish organlarining jamoatchilik nazoratini amalga oshirish faoliyatini kuchaytirishga qaratildi.

Mamlakatda fuqarolik jamiyati sharoitida tabiat va atrof-muhitni

himoyalash sohasidagi vazifalar yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Zero, inson o'zini tabiat va jamiyatning bir unsuri sifatida his etishi uning atrof tabiatga bo'lgan munosabatlarini ijobiy ahamiyat kasb etishini taqozo etadi. Mustaqillik yillarida mamlakatda ekologiya sohasida 120 dan ortiq nodavlat notijorat tashkilotlari tashkil topdi. Ularning aksariyati mamlakatda ekologik nazoratni olib borishda faol ishtirok etmoqda. O'tgan davr ichida mamlakatda atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik nazoratni amalga oshirishning qonunchilik asosi shakllantirildi.

Bu sohada asosiy hujjat – O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunida alohida "Ekologik nazorat" bo'limi mavjud. Unda ekologik nazoratning vazifalari, atrof tabiiy muhit holati monitoringi, davlat, shuningdek, idoraviy, ishlab chiqarish hamda jamoatchilik nazoratining mohiyati ko'rsatib o'tilgan, mazkur nazoratni olib boradigan vakolatli organlar ro'yxati belgilangan. O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi, "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Chiqindilar to'g'risida"gi, "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi, "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi, "Yerosti boyliklari to'g'risida"gi qonunlarida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksida tabiatni, uning obyektlarini muhofaza qilish va ulardan tejamli foydalanish maqsadida davlat va jamoatchilik nazoratini amalga oshiradigan vakolatli organlar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda nodavlat notijorat tashkilotlarining jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi ishtiroklari belgilab qo'yilgan.

Mamlakatda parlament tomonidan 2013-yil 27-dekabrda "Ekologik nazorat to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi, unda milliy va rivojlangan mamlakatlarning tabiatni muhofaza qilishni tartibga solish qonunchiligi tajribasi asosidagi huquqiy asoslar mujassamlashdi. Qonunning 4-moddasida ekologik nazoratning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi:

atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi qonun hujjatlari talablari buzilishining oldini olish, uni aniqlash va unga chek qo'yish;

atrof-muhit holatini kuzatib borish, atrof-muhitning ifloslanishiga, tabiiy resurslardan nooqilona foydalanilishiga olib kelishi, fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga tahdid solishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni aniqlash;

mo'ljallanayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo'jalik faoliyati va boshqa faoliyatning ekologik talablarga muvofiqligini aniqlash;

yuridik va jismoniy shaxslarning atrof-muhitni muhofaza qilish hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini, ular tomonidan majburiyatlar bajarilishini ta'minlash;

atrof-muhitdagi o'zgarishlar, uning prognoz qilinayotgan holati, tabiiy resurslardan foydalanilishi va ko'rilayotgan tegishli chora-tadbirlar to'g'risida davlat tashkilotlari va boshqa tashkilotlarni hamda fuqarolarni xabardor qilish;

tabiatni muhofaza qilish faoliyatining samaradorligini oshirish hamda davlat ekologik dasturlari va boshqa ekologik dasturlarning amalga oshirilishida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolarning ishtirokini ta'minlash.

Shuningdek, qonunda ekologik nazoratning turlari – davlat, idoraviy, ishlab chiqarish jamoatchilik ekologik nazorati, uni amalga oshirish tartibi va uslubi, nazorat natijasini rasmiylashtirish va amalga oshirish shakllari belgilab berilgan. Davlat organlarining, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlarining, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari va fuqarolarning huquqlari hamda majburiyatlari ifodalandi.

Qonunda jamoatchilik ekologik nazoratining subyektlari sifatida fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolar belgilab qo'yilganligi, jamoatchilik ekologik nazorati faoliyatini muvofiqlashtirish fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga yuklatilganligi uning muhim jihatlaridir. Qonunning 15-moddasida fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining ekologik nazorat sohasidagi vakolatlari quyidagicha belgilandi:

"Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari:

atrof-muhitni muhofaza qilishni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalalari bo'yicha qarorlar tayyorlashda va qabul qilishda, shuningdek, davlat ekologik dasturlari va boshqa ekologik dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

tegishli hududda jamoatchilik ekologik nazoratini amalga oshiradi;

atrof-muhit holatini va atrof muhitning ifloslanishiga hamda tabiiy resurslardan nooqilona foydalanishga olib kelishi, fuqarolarning hayoti va soG'liG'iga tahdid solishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni kuzatib borishni amalga oshiradi;

ekologik nazorat sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi;

maxsus vakolatli davlat organlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlariga, xo'jalik yurituvchi subyektlarga davlat, idoraviy va ishlab chiqarish ekologik nazoratini amalga oshirishda o'z vakilining kuzatuvchi sifatida ishtirok etishi to'g'risida takliflar kiritadi;

atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi qonun hujjatlari buzilishining o'zi tomonidan aniqlangan fakti to'g'risida maxsus vakolatli davlat organlarini, mahalliy davlat hokimiyati organlarini, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarini, xo'jalik yurituvchi subyektlarni xabardor qiladi;

atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi qonun hujjatlarining talablari buzilganligi aniqlangan faktlar yuzasidan choralar ko'rish to'g'risida tegishli davlat organlariga takliflar kiritadi;

atrof-muhitning holati, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, mazkur sohadagi qonun hujjatlari buzilishi yuzasidan aniqlangan faktni bartaraf etish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida tegishli davlat organlariga murojaat qiladi va axborot oladi;

atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalalariga doir jamoatchilik fikrini o'rganishni, jamoatchilik ekologik ekspertizasini o'tkazadi;

atrof-muhitni muhofaza qilish, hududning sanitariya holati, uni obodonlashtirish hamda ko'kalamzorlashtirish masalalari yuzasidan o'z vakolati doirasida tegishli hududda joylashgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlar rahbarlarining hisobotlarini eshitadi hamda ularning natijalari bo'yicha qarorlar qabul qiladi;

atrof-muhitni muhofaza qilishga ko'maklashadi, ekologik nazoratning boshqa subyektlari va ommaviy axborot vositalari bilan jamoatchilik ekologik nazorati masalalari bo'yicha, shu jumladan, ekologik nazoratning jamoatchi inspektorlari tizimini shakllantirishda hamkorlik qiladi;

aholining ekologik madaniyatini oshirish, ekologik ta'lim va tarbiyani rivojlantirishga doir ishda ko'maklashadi".

Qonunga binoan o'zini o'zi boshqarish organlari o'z vakolatlari doirasida tegishli hududda atrof-muhit muhofazasiga oid qonunchilik ijrosi ustidan nazoratni amalga oshiradi, nodavlat notijorat tashkilotlariga atrof-muhit ifloslanishi va tabiiy resurslardan nooqilona foydalanishga olib kelishi mumkin bo'lgan, fuqarolarning sog'lig'i va hayotiga xavf soluvchi favqulodda vaziyatlarni kuzatib borish va oldini

olish, aniqlashning samarali tizimi yaratilishida, shuningdek, jamoatchilik ekologik nazoratini tashkil etish va amalga oshirishda, jamoatchi inspektorlar institutini shakllantirish va ularning o'quvini tashkil etishda ko'maklashadi. Fuqarolar yig'inlari ekologik nazoratning boshqa turlari amalga oshirilishida, ekologik nazorat sohasidagi maxsus vakolatli davlat organiga takliflar kiritishda ishtirok etadilar, ijro hokimiyati organlari, tegishli hududda joylashgan muassasa va tashkilot rahbarlarining atrof-muhitni muhofaza qilish va hududning sanitariya holati, uni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish masalalari yuzasidan hisobotlarini eshitadi hamda ularning natijalari bo'yicha qarorlar qabul qiladi. Bu, shubhasiz, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlarining roli va ahamiyatini yanada oshirishga, jamoatchilik tuzilmalarining atrof-muhit muhofazasida hamda ekologik vaziyatni yaxshilashdagi ishtirokini faollashtirishga xizmat qiladi. Mazkur qonun "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun normalarini amalga oshirishni ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lib, tabiat resurslaridan mutanosib foydalanish va ularni qayta ishlash, fuqarolar soG'liG'ini muhofaza qilish, milliy manfaatlarni himoya qilish masalalarini hal qilishda fuqarolik jamiyati institutlarini faollashtirishga xizmat qiladigan mamlakat ekologik siyosatining asosiy prinsiplari va mohiyatini aniqlab berdi.

Albatta, 1991–2015-yillarda mamlakatda jamoatchilik nazoratining shakllanishi va rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratildi. Jamoatchilik nazorati fuqarolar huquqiy madaniyatining bir unsuri sifatida namoyon bo'la boshladi. Lekin, bu davrda davlat hokimiyati organlari va boshqaruvining jamiyat hayotini barcha jabhalarini boshqarishda ustuvor rol o'ynashi, rivojlangan davlatlarga xos qonunchilik asoslarining yaratilmaganligi tufayli jamoatchilik nazorati instituti faoliyati o'z resurslarini namoyon qila olmadi. Bu sohadagi islohotlar, asosan, 2017-yildan – jamiyatni isloh etishdagi tub burilish davrining boshlanishi asnosida rivojlandi. Bunda davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimiga Prezident Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" prinsipni qo'llash, shu asosda yangi, fuqarolik jamiyatining shakllanishiga imkon yaratadigan huquqiy asoslarning yaratilishi, davlat organlarini modernizatsiyalashning boshlanishi muhim rol o'ynadi.

3. Mamlakatda jamoatchilik nazoratining fuqarolik jamiyatiga xos jihatlarini rivojlanish jarayoni

Mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"ning qabul qilinishi va undagi maqsad-vazifalarni ro'yobga chiqa boshlashi jamiyat va davlat taraqqiyotining tub burilish davrini boshlab berdi. Harakatlar strategiyasining 1-yo'nalishi – "Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari"da quyidagi fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilandi:

- davlat hokimiyati tizimida Oliy Majlisning rolini oshirish, uning mamlakat ichki va tashqi siyosatiga oid muhim vazifalarni hal etish hamda ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish bo'yicha vakolatlarini yanada kengaytirish;
- qabul qilinayotgan qonunlarning amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq islohotlari jarayoniga ta'sirini kuchaytirishga yo'naltirgan holda qonun ijodkorligi faoliyati sifatini tubdan oshirish;
- siyosiy tizimni rivojlantirish, davlat va jamiyat hayotida siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish, ular o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish;
- davlat boshqaruvini markazlashtirishdan chiqarish, davlat xizmatchilarining kasbiy tayyorgarlik, moddiy va ijtimoiy ta'minot darajasini oshirish hamda iqtisodiyotni tartibga solishda davlat ishtirokini bosqichma-bosqich qisqartirish orqali davlat boshqaruvi va davlat xizmati tizimini isloh qilish;
- mamlakatni ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha vazifalarni amalga oshirishda o'zaro manfaatli hamkorlikning samarasini oshirishga qaratilgan davlat-xususiy sheriklikning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish;
- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlariga oid axborotni taqdim qilishning zamonaviy shakllarini joriy etish;
- "Elektron hukumat" tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari ko'rsatishning samarasi, sifatini yuksaltirish va bu xizmatdan aholi

hamda tadbirkorlik subyektlari tomonidan foydalanish imkoniyatini oshirish.

Albatta, mazkur konseptual dasturda belgilangan maqsad va vazifalar asosan davlat hokimiyati organlari va boshqaruvini modernizatsiyalash, aksariyat davlat xizmati ko'rsatishga doir vakolatlarni uning quyi organlariga berish, hokimiyatning uchga bo'linish prinsipini tuman, shahar va viloyatlarda ham joriy etish, boshqaruv va davlat xizmatini aholiga yaqinlashtirish va uning samarasini keskin oshirish, davlat boshqaruvida fuqarolarning faol ishtirok etishlariga har tomonlama shart-sharoitlar yaratishga qaratildi. Chunki, bu omillar davlat hokimiyati organlari va boshqaruvini nomarkazlashtirgan holda ularni oldingi jamiyatdagi ustuvor mavqeini cheklaydi, mahalliy ijroiya hokimiyati tuzilmalari faoliyati vakillik organlari nazoratida kechishi natijasida unga nisbatan jamiyat institutlarining ta'siri kuchayadi. Bu holat o'zida ayni fuqarolik jamiyati rivojlanishi uchun zarur bo'lgan muhitni ifodalaydi. Boshqacha aytganda, fuqarolarning to'g'ridan-to'g'ri, o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat tashkilotlar vositasida o'z manfaatlarini qondirishlari uchun imkoniyatlar tug'iladi, manfaatlar uchun intilishlar fuqarolarni davlat boshqaruvi jarayonlarida faol ishtirok etish mayllarini uyg'otadi.

Albatta, bu tahlillarni fuqarolarni davlat hokimiyati organlariga nisbatan ta'sirini oshirish nuqtai nazaridan talqin etadigan bo'lsak, Harakatlar strategiyasi g'oyalarining hayotda namoyon bo'lishi mamlakatda jamoatchilik nazoratini haqiqiy tarzda – demokratik qadriyatlar asosida kechishini ta'minlaydi. Shundan kelib chiqib, bu sohada Harakatlar strategiyasida jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirishga quyidagi vazifalar qo'yildi:

- xalq bilan muloqotning samarali mexanizmlarini joriy etish;
- jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning zamonaviy shakllarini rivojlantirish, ijtimoiy sheriklikning samarasini oshirish;
- fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, ularning ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish;
- mahalla institutining jamiyat boshqaruvidagi o'rni va faoliyati samaradorligini oshirish;
- ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish, jurnalistlarning kasbiy faoliyatini himoya qilish.

Ana shu konseptual maqsadlar ijrosini ta'minlash uchun aniq va ravshan chora-tadbirlar belgilandi. Jumladan, davlat organlariga yuklatilgan vazifalarni bajarish samaradorligining oshishiga, ular

tomonidan inson huquqlari, erkinliklari va manfaatlariga rioya etilishiga, fuqarolarning murojaatlarini, ularda ko'tarilgan muammolarni joyida hal etishda davlat organlari rahbarlari tomonidan qay darajada munosabat bildirilishi ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatishga imkon berish kabilarni amaliyotga qo'llash maqsadida "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ishlab chiqish; jismoniy va yuridik shaxslarning taklif, ariza va shikoyatlarini ko'rib chiqishni, aholi bilan doimiy va ochiq muloqotni, ularning muammolarini atroflicha o'rganish va hal etishni, shuningdek, aholining davlatga bo'lgan ishonchi ortishini ta'minlash maqsadida har bir tuman va shaharda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha "Xalq qabulxonalari"ni tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishning amaliy chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish; davlat organlari faoliyatining ochiqligi va ularning fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro samarali hamkorligi ta'minlash maqsadida qonun hujjatlariga huquqni muhofaza qiluvchi va davlat boshqaruvi organlari huzurida ushbu organlar faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiquvchi va amalga oshiruvchi jamoatchilik kengashlari tuzishni nazarda tutuvchi o'zgartish va qo'shimchalar kiritish; ommaviy axborot vositalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning aniq mexanizmlari; ommaviy axborot vositalari tomonidan jamoatchilik nazoratini (jurnalistik tekshiruvini) amalga oshirish tartibi va jurnalistning erkin faoliyat yuritishi uchun qo'shimcha kafolatlar yaratish maqsadida "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi va "Jurnalistning kasbiy faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritishga doir qonunlar loyihalarini ishlab chiqish; "Mahalla" jamG'armasi tuzilmasi va faoliyatini yanada takomillashtirish, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari vakolatlarini amalga oshirish mexanizmlarini tartibga solish, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari moddiy-texnika bazasini yaxshilash maqsadida "2018–2020-yillarda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati samaradorligini yanada oshirish va rivojlantirish Dasturi" va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni loyihasini ishlab chiqish.

Mazkur vazifalarning ko'lami, mohiyati, maqsad va vazifalari ko'rsatib turibdiki, ularning barchasi fuqarolik jamiyatining u yoki bu sohasini shakllantirish va rivojlantirish bilan bog'liq muammolarni hal etishga qaratilgan. Muhimi, ularning ijrosini ta'minlash mamlakatda

jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning rivojlangan davlatlarga xos amaliyotini shakllantiradi.

Harakatlar strategiyasini hayotda amalga oshirishning bir yillik yakunlariga e'tibor bersak, qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan huquqiy asoslarning aksariyati 2017–2018-yillarda e'lon qilingan qonunlar, Prezident farmonlari, hukumat qarorlarida o'z ifodasini topdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 5-oktabrda qabul qilgan "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni mamlakatda "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan prinsipni amalga oshirishning boshlanishi sifatida namoyon bo'ldi. Farmonda respublikamiz hududida "Xalq qabulxonalari"ning tashkil qilinishi aholi bilan to'g'ridan to'g'ri muloqotni tashkil etish, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini to'laqonli himoya qilishga qaratilgan, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashning sifat jihatidan yangi va samarali tizimi faoliyatini ta'minlashga, fuqarolarning oliy davlat hokimiyati organlariga, sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga, boshqa davlat tashkilotlariga va xo'jalik boshqaruvi organlariga murojaat qilishga oid konstitutsiyaviy huquqlarining so'zsiz amalga oshirilishi uchun sharoitlar yaratishga qaratildi.

Har bir tuman va shaharda ham "Xalq qabulxonalari" tashkil etilishi va ularning to'laqonli faoliyat ko'rsatishini ta'minlash odamlar bilan ochiq muloqotda bo'lib, aholini o'ylantirayotgan masalalardan boxabar bo'lish, fuqarolar maqsad va manfaatlarini ro'yobga chiqarishda muhim o'rin tutdi. Qabulxonalarga fuqarolardan bir yil ichida 1,5 mln.dan ortiq murojaat kelib tushdi. Agar bu sohadagi jarayonga davlat boshqaruvi ochiqligi va uni fuqarolar tomonidan nazorat qilish nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, mamlakatdagi bu jarayon o'ziga xos jamoatchilik nazoratining bir shakli vazifasini bajardi. Qabulxonaga murojaat etgan har bir fuqaro dastavval o'zining manfaatlari va muammolarini bayon qilish asnosida o'zi yashayotgan yoki ishlayotgan hududda hokimiyat organlari tuzilmalari yoki mansabdorlarning huquqbuzarlik faoliyatlari to'g'risida axborotlar beradi. Qabulxona xizmatchilarining tekshiruvi natijasida fuqarolarning aksariyat axborotlari o'z tasdig'ini topadi. Demak, o'z tashvishi bilan

qabulxonaga murojaat etgan fuqaro o'zining muammolari hal bo'lmayotganligi dalili sifatida huquqbuzarlik yoki korrupsiyaviy holatlar to'g'risida axborotlar beradi. Bu jarayonda o'ziga xos jamoatchilik nazorati ro'y beradi – mahalliy mansabdor yoki tashkilotning o'z funksiyasi yoki vakolatlarini amalga oshirishdagi xatolari va kamchiliklari fosh bo'ladi. Agar bu kabi murojaatlarning millionlab huquqbuzarliklar to'g'risidagi axborotlari tahlil etilsa, jamiyatda ildiz otgan byurokratik illatlar va korrupsiyaviy harakatlarni fosh etish uchun imkoniyatlar tug'iladi.

Bu sohada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-dekabrda qabul qilgan "Aholiga davlat xizmatlari ko'rsatishning milliy tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni muhim ahamiyat kasb etdi. Farmon Harakatlar strategiyasi va O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasini amalga oshirish, shuningdek, aholiga davlat xizmatlari ko'rsatish milliy tizimining sifat jihatidan yangi darajaga o'tishini ta'minlash maqsadida qabul qilingan bo'lib, unda quyidagilar davlat xizmatlari ko'rsatish milliy tizimini tubdan isloh qilishning eng muhim yo'nalishlari deb hisoblandi:

birinchidan, davlat xizmatlari ko'rsatish sohasida ularning sifati, tezkorligi, shaffofligi va foydalanish imkoniyatini tubdan oshirish orqali "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan ulug'vor g'oyani so'zsiz amalga oshirish;

ikkinchidan, Tadbirkorlik subyektlariga "yagona darcha" tamoyili bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatish yagona markazlarini ham yuridik, ham jismoniy shaxslarga "yagona darcha" tamoyili bo'yicha xizmatlarni taqdim qiluvchi Davlat xizmatlari markazlariga o'zgartirish;

uchinchidan, davlat xizmatlarining har bir turi bo'yicha "Fuqarolar emas, hujjatlar harakatlanadi" tamoyiliga ko'ra davlat xizmatlari ko'rsatish mexanizmini, eng avvalo, ortiqcha tartib-taomillarni bartaraf etish, vakolatli davlat organlari va boshqa tashkilotlar zarur hujjatlar va axborotlarni boshqa tuzilmalardan mustaqil ravishda olishi hisobiga soddalashtirishni nazarda tutuvchi ma'muriy reglamentlarni tasdiqlash;

to'rtinchidan, davlat xizmatlari ko'rsatish sohasiga innovatsion yechimlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini jadal joriy etish, davlat organlari va boshqa tashkilotlarning ma'lumotlar bazalarini idoralararo elektron hamkorlik yagona tizimiga integratsiya qilish, O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali davlat xizmatlari ko'rsatish amaliyotini kengaytirish;

beshinchidan, davlat xizmatlarini, shu jumladan olis joylarga chiqish orqali ("mobil davlat xizmatlari") ko'rsatishning maqbul, qulay va shaffof uslublaridan, mazkur sohada byurokratiya va korrupsiya yuzaga kelishini bartaraf etishga qaratilgan navbatni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimi va ishlarning uzaytirilgan grafigidan foydalanish;

oltinchidan, davlat xizmatlari ko'rsatish sifati va tezkorligini monitoring qilish va baholashning ilg'or mexanizmlarini joriy etish, aholi bilan qayta aloqaning samarali tizimini, shu jumladan, tezkor aloqalarni, rasmiy saytlar, ijtimoiy tarmoqlar va mobil ilovalarda onlayn so'rovlarni tashkil qilish;

yettinchidan, davlat xizmatlari ko'rsatish sohasida malakali kadrlarni tizimli tayyorlash va qayta tayyorlashni, ularning malakasini, shu jumladan xorijiy mamlakatlarning yetakchi ixtisoslashgan muassasalarida stajirovka o'tash orqali tizimli ravishda oshirishni tashkil etish.

Prezidentning mazkur farmoniga binoan davlat organlari aholiga "fuqarolar emas, hujjatlar harakatlanadi" tamoyili asosida xizmat ko'rsatib, uch yil ichida Davlat xizmatlari markazlari 60 ga yaqin davlat xizmatlarini ko'rsata boshlaydi. Davlat xizmati sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishga mas'uliyat yuklangan alohida davlat organi – Adliya vazirligi huzurida Davlat xizmatlari agentligi o'zining hududiy bo'linmalari bilan tashkil etildi. Endilikda "yagona darcha" tamoyili nafaqat tadbirkorlik subyektlariga, balki, bevosita fuqarolarga ham xizmat ko'rsatishda amal qiladi. Davlat xizmatchilari bilan bevosita muloqot qilmasdan hamkorlikni ta'minlash aholi uchun davlat xizmatlarini korrupsiya xavfisiz tezkorlik bilan ko'rsatish imkonini beradi, fuqarolarning kundalik hayotini jiddiy ravishda yengillashtiradi, byurokratiya va sansalorlik holatlarini bartaraf etadi.

Davlat xizmatlari ko'rsatishda yangi o'ziga xos institut – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Xalq qabulxonalarining faol ishtiroki o'xshashi bo'lmagan eng muhim yangiliklardan biri hisoblanadi. Davlat hokimiyatining aholi bilan samarali muloqotini tashkil etish, fuqarolar murojaatlarini ko'rib chiqishning sifat jihatidan yangi tizimini yo'lga qo'yishda muhim rol o'ynaydigan mazkur institutlar, o'z navbatida, Xalq qabulxonalari va Davlat xizmatlari markazlari tuman (shahar) miqyosida yagona yaxlit faoliyat olib borib, davlat xizmatlari ko'rsatishning samarali tizimini shakllantirish imkonini berdi.

Farmonga binoan davlat xizmatlari ko‘rsatish sohasida, shu jumladan, sog‘liqni saqlash, litsenziyalash, soliq, bojxona va boshqa sohalarda jadal sifat jihatidan yaxshilashning muhim mexanizmlari, shuningdek, davlat xizmatlari bo‘yicha mobil ilovalarni ishlab chiqish, xizmatlarni olis joylarga chiqqan holda ko‘rsatish, aholi bilan tezkor aloqalar, rasmiy veb-saytlardagi internet-botlar, ijtimoiy tarmoqlar yordamida qayta aloqaning samarali tizimini tashkil etishni nazarda tutuvchi kompleks chora-tadbirlar tasdiqlandi.

Mamlakatda jamoatchilik nazoratini rivojlantirishdagi muhim bosqich 2018-yil 12-aprelda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonuni fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi muhim voqelik bo‘ldi. Qonunning 5-moddasida jamoatchilik nazoratining quyidagi asosiy prinsiplari ifodalandi: fuqarolarning huquqi, erkinligi va qonuniy manfaatlarining ustunligi; jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi ishtirokning ixtiyoriyligi; jamoatchilik nazoratining oshkoraligi va ochiqligi; jamoatchilik nazorati subyektlarining qonuniyligi; jamoatchilik nazorati subyektlarining davlat organlaridan mustaqilligi; jamoatchilik nazorati subyektlarining obyektivligi va xolisligi, jamoatchilik nazorati natijalarining ishonchliligi.

Qonunning 3-moddasida ko‘rsatilgan jamoatchilik nazoratining subyektlarini “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari”dan belgilanishi jamoatchilik nazoratining tamomila va to‘liq holda fuqarolik jamiyati instituti ekanligini dalillaydi. Qonunda “jamoatchilik nazoratining obyekti davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari” sifatida belgilanishi fuqarolik jamiyatining davlat hokimiyati ustidan nazorat olib borishini ifodalaydi. Boshqacha aytganda, qonunga binoan, davlat mustaqil institut sifatida emas, balki jamiyatning siyosiy instituti sifatida faoliyat yuritadi, u jamiyat oldida hisobdordir.

Mazkur Qonunning 6-moddasiga binoan jamoatchilik nazorati quyidagi shakllarda amalga oshiriladi: davlat organlariga murojaatlar va so‘rovlar; davlat organlarining ochiq jamoaviy majlislarida ishtirok etish; jamoatchilik muhokamasi; jamoatchilik eshituvi; jamoatchilik monitoringi; jamoatchilik ekspertizasi; ijtimoiy fikrni o‘rganish; fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ijroiya hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlar rahbarlari hisobotlarini eshitishi.

Ko‘rinib turibdiki, “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonun

mamlakatda fuqarolik jamiyatini rivojlanishiga shart-sharoitlar va iimkoniyatlar yaratish uchun davlat hokimiyati organlarini jamiyat oldida hisobdorligini ta'minlaydi, fuqarolarning mijoz sifatida samarali va qulay davlat xizmati asosida o'z manfaatlarini qondirish, muammolarini hal etish imkoniyatiga erishadi, qonun yaratgan huquqiy erkinliklar fuqarolarning faollashuviga, ularning davlat boshqaruvi jarayonida faol ishtirok etishiga zamin yaratadi. Muhimi, Prezidentning Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga doir islohotlari jarayoni xalq nazoratida bo'ladi, bu yo'ldagi oG'ishlar yoki chetga chiqishlar jamoatchilik nazorati vositasida bartaraf etib boriladi. Mamlakatda jamoatchilik nazorati maqomi va nufuzining yuqori darajaga ko'tarilishi – bu davlatimizning huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati talablariga moslashib borayotganligini anglatadi.

Nazorat savollari

1. Jamoatchilik nazoratining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
2. Jamoatchilik nazoratining unsurlari dastlab qachon va qaerda shakllangan?
3. Mamlakatda jamoatchilik nazorati huquqiy asoslari qanday rivojlandi?
4. O'zbekiston Respublikasining "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'G'risida"gi qonuni (5-may 2014-yil) jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda qanday ahamiyat kasb etadi?
5. O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'G'risida"gi qonunning (10-aprel 2018-yil) mazmun-mohiyati haqida nima deya olasiz?

Test savollari

1. "Jamoatchilik nazorati" deganda nimani tushunasiz?

A) Jamoatchilik nazorati – bu jamiyatning alohida fuqarolar shaxsida hamda fuqarolik jamiyati institutlari vositasida davlat hokimiyati organlarining qonunlarni va o'z qarorlarini qo'llash, amalga oshirish, shuningdek, bu jarayonlar natijalarini baholash mexanizmidir

B) Jamoatchilik nazorati – bu davlatning alohida organlar shaxsida hamda siyosiy institutlar vositasida fuqarolik jamiyati institutlarining qonunlarni va o'z qarorlarini qo'llash, amalga oshirish, shuningdek, bu jarayonlar natijalarini baholash mexanizmidir

C) Jamoatchilik nazorati – bu parlamentning alohida deputatlar

shaxsida hamda mahalliy hokimiyat organlari vositasida davlat hokimiyati organlarining qonunlarni va o'z qarorlarini qo'llash, amalga oshirish, shuningdek, bu jarayonlar natijalarini baholash mexanizmidir.

D) Jamoatchilik nazorati – bu huquqni himoya qilish organlarining prokuror, sud, ichki ishlar xodimlari shaxsida hamda fuqarolik jamiyati institutlari vositasida davlat hokimiyati organlarining qonunlarni va o'z qarorlarini qo'llash, amalga oshirish, shuningdek bu jarayonlar natijalarini baholash mexanizmidir

2. Hukumat boshqaruvi "Xalq hokimiyati – xalq irodasi va xalq uchun" prinsipini birinchi kim aytgan?

A) Jorj Vashington

B) Uilyam Cherchill

C) Fransua Mitteran

D) Avraam Linkoln

3. Quyidagi so'zlar kimga tegishli: "Hech bir shak-shubhasiz respublikaviy erkinlik ruhiyati ... nafaqat barcha hokimiyatning xalqdan kelib chiqishini, balki hokimiyat kimga ishonib topshirilgan bo'lsa, ularning xalq izmida bo'lishini taqozo etadi"?

A) Jorj Vashington

B) Uilyam Cherchill

C) Jeyms Medison

D) Avraam Linkoln

4. O'zbekiston Respublikasi Konstiustiyasining 32-moddasi qaysi javobda to'g'ri berilgan?

A) Fuqarolar jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etishning yo'li sifatida "davlat organlariga so'zsiz bo'ysunadi, davlat nazorati ostida bo'ladi, qonunlarga itoat etadi"

B) Fuqarolar jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda fuqarolik jamiyati institutlariga birlashib ishtirok etadi, shu yo'l bilan o'z manfaatlarini qondiradi

C) Fuqarolar jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali qonunchilik jarayonida ishtirok etadi, "davlat organlarining boshqaruv faoliyatida ishtirok etadi, shu yo'l bilan o'z huquqlarini amalga oshiradi"

D) Fuqarolar jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etishning yo'li sifatida "davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va takomillashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi".

5. O‘zbekiston Respublikasi “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi qonunida jamoatchilik nazoratining subyektlari sifatida kimlar va qaysi organlar belgilangan?

A) “O‘zbekiston Respublikasi davlat organlari, o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari”

B) “O‘zbekiston Respublikasi huquqni himoya qilish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari”

C) “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari”

D) “O‘zbekiston Respublikasi prokuraturasi va ichki ishlar vazirligi, hokimliklar, deputatlar”

6. O‘zbekiston Respublikasi “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi qonunida jamoatchilik nazoratining qanday shakllari belgilangan?

A) Davlat organlariga murojaatlar va so‘rovlar; davlat organlarining ochiq jamoaviy majlislarida ishtirok etish; jamoatchilik muhokamasi; jamoatchilik eshituvi; jamoatchilik monitoringi; jamoatchilik ekspertizasi; ijtimoiy fikrni o‘rganish; fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ijroiya hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlar rahbarlari hisobotlarini eshitishi

B) Davlat organlari tekshiruvi, tergov, prokuratura surushtiruvi, monitoring; ekspertiza; o‘rtoqlik sudi; mahalliy davlat vakillik organlarining ijroiya hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlar rahbarlari hisobotlarini eshitishi

C) Davlat organlarining tekshiruvlari, prokuratura surushtiruvi, tergov, parrlament eshituvi; monitoring nazorati; sud ekspertizasi; ijtimoiy fikrni o‘rganish; fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ijroiya hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlar rahbarlari hisobotlarini eshitishi

D) Davlat organlariga murojaatlar va so‘rovlar; davlat organlarining ochiq jamoaviy majlislarida ishtirok etish; jamoatchilik muhokamasi; jamoatchilik eshituvi; jamoatchilik monitoringi; jamoatchilik ekspertizasi; ijtimoiy fikrni o‘rganish; fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ijroiya hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlar rahbarlari hisobotlarini eshitishi

7. “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish-ning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da “Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish”

sohasidagi vazifalar nechanchi yo'nalishda berilgan?

A) III

B) IV

C) II

D) I

8. O'zbekiston Respublikasi "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonunida jamoatchilik nazoratining obyektlari sifatida kimlar va qaysi organlar belgilangan?

A) Korxonalar, firmalar, fermerlik xo'jaliklari

B) Davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari

C) Kompaniyalar, aksionerlik jamiyatlari, xo'jalik subyektlari

D) Mahallalar, ovullar fuqarolar yig'inlari, tumanlar va shaharlar

9. Quyidagilardan qaysi biri jamoatchilik nazorati turiga kiradi?

A) Jurnalist surushtiruvi

B) Soliq inspeksiyasi xodimi surushtiruvi

C) Milistiya surushturuvi

D) Prokuror surushturuvi

10. Quyidagilardan qaysi biri jamoatchilik nazoratining sinonimi hisoblanadi?

A) Parlament nazorati

B) Deputat nazorati

C) Fuqaroviy nazorat

D) Kasaba uyushmasi nazorati

13-mavzu. IJTIMOIY SHERIKLIK – YETUKLIK MEZONI

Reja

1. Ijtimoiy sheriklik institutining shakllanishi va uning xalqaro huquqiy asoslari.

2. O'zbekiston ijtimoiy sheriklik institutining fuqarolik jamiyati instituti sifatida rivojlanishi.

3. O'zbekistonda ijtimoiy sheriklikning fuqarolik jamiyatiga xos amaliyoti huquqiy asoslarining rivojlalanishi.

Tayanch so'zlar: ijtimoiy sheriklik, mehnat, mehnat munosabatlari, jamoaviy mehnat muzokaralari, kasaba uyushmalari, ish bilan bandlik, davlat ijtimoiy siyosati, ish beruvchi, ishlovchi, nodavlat notijorat tashkilotlar, ijtimoiy mehnat shartnomalari, Xalqaro mehnat tashkiloti.

1. Ijtimoiy sheriklik institutining shakllanishi va uning xalqaro huquqiy asoslari

Ijtimoiy sheriklik masalasi bir necha asrlardan buyon jamiyatda adolatni ta'minlash, korxona, tashkilot, mulk egalari bilan ishlovchilar – ishchilar, xodimlar, xizmatchilar o'rtasidagi munosabatlarni inson huquq va erkinliklari prinsiplari asosida rivojlanib va takomillashib kelmoqda. Bu sohadagi muammolar va masalalar yechimi, adolatga erishish prinsiplari, mehnat munosabatlarini demokratik qadriyatlar talablari asosida yo'lga qo'yish kabilarning huquqiy jihatlarini BMTning Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) muvofiqlashtirib kelmoqda. U 1919-yilda tuzilgan bo'lib, 1946-yildan buyon BMT tarkibida faoliyat yuritmoqda. XMT qabul qilgan konvensiyalar va tavsiyalar aksariyat mamlakatlar qonunchiligi va amaliyotiga qo'llanib kelinmoqda.

XMT o'z faoliyatida ijtimoiy adolat, inson huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarish, insonning mehnat erkinligi, mehnat jarayonida ijtimoiy ahvolni yaxshilash, ish bilan bandlik uchun shart-sharoitlarni yaxshilash masalalarini hal etishga o'zining katta hissasini qo'shib kelmqda. Mehnatni xalqaro huquqiy muvofiqlashtirish sohasida – davlat hokimiyati organlari, tadbirkorlar va mehnatkashlar o'rtasidagi kelishuvchilik va sheriklikni ta'minlash uchun doimiy izlanish va faoliyat ko'rsatish XMTning asosiy maqsad va vazifasi hisoblanadi. XMT mehnatni muvofiqlashtirish va o'zaro kelishuvlarga doir 180 ta

konvensiya va 190 ta tavsiyalar qabul qilgan bo'lib, ular mehnatni, ijtimoiy-iqtisodiy va kasbiy masalarni muvofiqlashtirishga qaratilgan. Ana shu konvensiya va tavsiyalarda ko'zda tutilgan mehnat me'yorlari Xalqaro mehnat kodeksini tashkil etadi.

XMTning muhim konvensiyalariga quyidagilar kiradi: 1948-yilda qabul qilingan "Uyushmalar erkinligi va uyushishga huquqni himoya qilish" (№ 87) konvensiyasida barcha mehnatkashlar va tadbirkorlarni uyushmalar tuzish, hech kimdan ruhsat olmasdan ularga kirish, faoliyat tartiblarini o'rnatishga qaratildi. Konvensiya davlat hokimiyati organlarining mehnatkashlar va tadbirkorlar uyushmalari faoliyatiga aralashishini ta'qiqlaydi.

1949-yilda qabul qilingan "Uyushishga va jamoaviy muzokaralar olib borishga huquqlar prinsiplarini qo'llash to'G'risida" (№ 98) konvensiyasi mehnatkashlarning mehnat sohasidagi birlashish erkinligini cheklaydigan har qanday kamsituvchi harakatlarga qarshi tegishli ravishda himoya qiladi. Bunday himoya mehnatkash kasaba uyushmasi a'zoligiga kirmagan yoki undan chiqqan taqdirda ishga qabul qilish yoki ish joyini saqlab qolish shartlariga nisbatan, mehnatkash kasaba uyushmasi a'zosi ekanligi yoki kasaba uyushmasi faoliyatidagi ishtiroki sababli uni ishdan bo'shatish yoxud unga boshqa biror-bir ziyon yetkazishdan himoya qilishda qo'llaniladi.

1978-yilda qabul qilingan "Mehnat masalalarini muvofiqlashtirish to'g'risida: uyushish, roli, funksiyalari" (№150) konvensiyasida XMTga a'zo davlat mehnat masalalarini muvofiqlashtirish, undagi funksiyalar va majburiyatlarni samarali tashkil etish tizimini yaratishi lozim. Bu tizim doirasida davlat hokimiyati organlari zimmasiga tadbirkorlar bilan mehnatkashlar o'zaro muzokaralar, hamkorlik, maslahatlar berishni uyushtirish kabilarni tashkil etish vazifasi yuklanadi.

1981-yilda qabul qilingan "Jamoaviy muzokaralarga ko'maklashish to'g'risida"gi (№154) konvensiyasida iqtisodiy faoliyatning barcha tarmoqlariga "jamoaviy muzokaralarni tatbiq" qo'llanilishi nazarda tutiladi. Bu muzokaralar, bir tomondan, tadbirkorlar, tadbirkorlar guruhlari va, ikkinchi tomondan, mehnatkashlar bitta yoki bir necha uyushmalari tomonidan quyidagi maqsadlarda o'tkaziladi:

- jamoaviy muzokaralarning barcha ish beruvchilar va barcha mehnatkashlar uchun o'tkazish imkoniyati bo'lishi;

- mehnat va ish bilan ta'minlanish shartlarini belgilash uchun tatbiq etish;

- ish beruvchilar va mehnatkashlar uyushmalari o'rtasida kelishilgan tartibotlar qoidalari ishlab chiqilishini rag'batlantirish;

- jamoaviy muzokaralarni olib borish uchun ularni tartibga soluvchi qoidalar mavjud emasligi yoki to'sqinlik qilmasligi;

- mehnat nizolarini hal etish organlari va tartibotlarini jamoaviy muzokaralarga ko'maklashadigan tarzda yaratilishiga qaratish.

Shu tariqa, XMTning barcha ijtimoiy-mehnat masalalariga doir konvensiyalari va tavsiyalarida ijtimoiy sheriklikning mazmuni, mexanizmlari, huquqlari va subyektlari majbariyalariga doir qoidalar mujassamlashgan.

Ijtimoiy sheriklik – bu ish beruvchi va ishlovchi o'rtasidagi, kasaba uyushmalari tomonidan nazorat etiluvchi o'zaro kelishuv jaryoni bo'lib, unda umumiy ijtimoiy maqsadlarga erishishda taraflar manfaatlarining uyg'unligini ta'minlab turuvchi institutlar, mexanizmlar va jarayonlar tizimidir. Ijtimoiy sheriklik keng tushuncha bo'lib, uning mazmunini turlicha ifodalash uchrab turadi. Ijtimoiy sheriklik – bu tor doirada mehnat munosabatlarini tashkil etishning maxsus turi hisoblanadi. Keng ma'noda esa – bu turli ijtimoiy guruhlarning (menatkash, ish beruvchi, kasaba uyushmalari, davlat hokimiyati organlarining) o'zaro maxsus hamkorligi bo'lib, mazkur hamkorlikka qaratilgan obyektning qanday bo'lishidan qat'i nazar, ya'ni nafaqat mehnat munosabatlari, balki boshqa sohalarda, jumladan, qonunchilikni takomillashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni amalga oshirish kabilar ham bo'lishi, manfaatlarning yagona bir sohadagi mushtarakligi tushuniladi.

Xalqaro mehnat standartlari yollanma mehnat tatbiq qilinishi, uning shart-sharoitlari yaxshilanishi, mehnatni muhofazalash, xodimlarning shaxsiy va jamoaviy manfaatlarini himoya qilish bilan bog'liq masalalarning xalqaro shartnomalar yordamida qat'iy belgilanishini ifodalaydi. Bunday qat'iy belgilanishning rasmiy ifodalanishi BMT, Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT), shuningdek, davlatlarning mintaqaviy birlashmalari tomonidan qabul qilingan hujjatlarida, bundan tashqari, ularning ikki tomonlama, ba'zida uch tomonlama shartnomalarida mustahkamlangan me'yorlardan iboratdir. Ushbu standartlardan ayrimlari xalqaro-huquqiy hujjatlarda eng muhim standartlar sifatida baholanadi.

Mehnat sohasidagi ijtimoiy sheriklik masalalariga tegishli eng muhim xalqaro-huquqiy hujjatlarni tahlil qilib, quyidagilarni qayd qilish, shu asosda ijtimoiy sheriklik sohasidagi xalqaro standartlarni ularning mazmun-mohiyati bo'yicha tasniflash mumkin. Ular asosan

quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

a) xodimlar va ish beruvchilarning birlashish erkinligi to‘G‘risidagi standartlar (Umumjahon inson huquqlari Deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘G‘risidagi xalqaro pakt, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘G‘risidagi xalqaro pakt, Xalqaro mehnat tashkilotining 87-sonli konvensiyasi va 159-sonli tavsiyanomasi). Xususan, ish beruvchilar uyushmalarining huquqiy maqomi butun dunyoda XMTning “Birlashish erkinligi va birlashish huquqini himoya qilish to‘G‘risida”gi 87-sonli Konvensiyasiga asoslanadi (1948-yil).

Konvensiya mehnatkashlar va tadbirkorlarning birlashmalar tuzish va ularga a’zo bo‘lish huquqini nazarda tutadi. Ish beruvchilarga nisbatan biror-bir farqsiz birlashma tuzish erkinligi tamoyili konvensiyani ratifikastiya qilgan har bir mamlakat qonunchiligi va amaliyoti barcha ish beruvchilar uchun istisno qilinmagan va imtiyozlar nazarda tutilmagan holda teng shart-sharoitlar va bunday tashkilotlar tuzilishi tartibi belgilashini anglatadi. Ish beruvchilarning o‘z tanlovi bo‘yicha tashkilotlar tuzish huquqi 87-sonli konvensiyada mustahkamlangan tamoyillardan yana biri tegishlicha birlashish huquqining yana bir unsuri deb e’tirof qilinishi kerak. Ushbu huquq tashkilot tuzilishi va tarkibini tanlash, uning ustavi va faoliyat tartibini ishlab chiqish, harakatlar dasturini yaratish (3-sonli konvensiya), shuningdek, federatsiyalar va konfederatsiyalar tashkil qilish (5-sonli konvensiya) bo‘yicha vakolatlarni nazarda tutadi. Ish beruvchilar amaldagi tashkilotlarga ularning ustaviga bo‘ysunish yagona sharti bilan a’zo bo‘lish huquqiga ham egadirlar (2-sonli konvensiya);

b) korxonalarda mehnatkashlar vakillari huquqlari standartlari (XMTning 135-sonli konvenstiyasi, 143-sonli tavsiyanomasi). “Korxonalarda mehnatkashlar vakillari huquqlarini himoya qilish va ularga beriladigan imkoniyatlar to‘g‘risida”gi 135-sonli konvenstiyada va “Korxonalarda mehnatkashlar vakillari huquqlarini himoya qilish va ularga beriladigan imkoniyatlar to‘g‘risida”gi 143-sonli tavsiyanomada mehnatkashlar vakillari tushunchasi belgilab berilgan, ularning e’tirof qilinadigan turlari ko‘rsatilgan, ular uchun zarur huquqlar va faoliyat imkoniyatlari, ushbu huquqlar va imkoniyatlarni himoya qilish bo‘yicha chora-tadbirlar mustahkamlangan;

c) jamoa muzokaralariga doir huquqlar standartlari (XMTning 98-, 154-sonli konvensiyalari, XMTning 91-, 163-sonli tavsiyanomalari). Xususan, “Jamoa muzokaralarini tashkil etish va yuritish huquqi tamoyillarini qo‘llash to‘g‘risida”gi 98-sonli Konvensiyaning 4-

moddasida mazkur konvensiyani ratifikatsiya qilgan mamlakat jamoaviy muzokaralarni rivojlantirish uchun chora-tadbirlar ko'rishini nazarda tutadi. "Jamoa shartnomalari to'g'risida"gi 91-sonli tavsiyanoma mehnat munosabatlarini tartibga solishda jamoa shartnomalari va bitimlari muhim o'rin egallashi uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan. "Jamoa muzokaralariga ko'maklashish to'g'risida"gi 154-sonli konvensiya va u bilan bog'liq mehnat shart-sharoitlarini, bandlik hamda xodimlar va ish beruvchilar tashkilotlari o'rtasidagi munosabatlarni belgilashga bag'ishlangan 163-sonli tavsiyanoma ijtimoiy muloqotning huquqiy ta'minotida muhim rol o'ynaydi;

d) ijtimoiy sheriklik sohasidagi standartlar (XMTning 144-sonli konvensiyasi, 94, 113, 129, 152-sonli tavsiyanomalari). Masalan, "Korxona darajasida ish beruvchilar va xodimlar o'rtasidagi konsultatsiyalar va hamkorlik to'g'risida"gi 94-sonli tavsiyanoma ish beruvchilar va xodimlar o'rtasida umumiy manfaatlarni ifodalaydigan masalalar bo'yicha konsultatsiyalar va hamkorlik tizimi yo'lga qo'yilishini belgilab beradi. Ijtimoiy sheriklik – bu nafaqat jamoa shartnomalarini tuzish maqsadidagi muzokaralar, balki turli darajalardagi doimiy jarayondan iboratdir. "Davlat hokimiyati organlari hamda ish beruvchilar va xodimlar tashkilotlari o'rtasida tarmoq va milliy miqyosdagi maslahatlashuvlar va hamkorlik to'g'risida"gi 113-sonli tavsiyanoma bunday maslahatlashuvlar va hamkorlik iqtisodiyotni rivojlantirish, mehnat shart-sharoitlarini yaxshilash va turmush darajasini oshirish maqsadida amalga oshirilishi kerakligini belgilab beradi.

Xorijiy davlatlarning bu yo'nalishdagi amaliyotga misol keltiradigan bo'lsak, ijtimoiy sheriklikning dastlabki huquqiy asoslari Belgiyada 1948-yilda, Germaniyada 1952-yilda, Avstriyada 1957-yilda, Fransiyada 1958-yilda va Shimoliy Yevropa davlatlarida XX asrning 70-yillarida shakllanib, ular mazkur davlatlarning konstitutsiya va qonunlarida ifodalandi. Ijtimoiy sheriklik munosabatlarining taraflari bo'lib, asosan, ish beruvchi, xodim (ishlovchi) va davlat organi hisoblanadi. Ko'pincha, ishtimoiy sheriklik jarayonida uch tomon ishtirok etgani uchun ma'joziy ma'noda u "uch partiyaviylik" ("tripartizm") ham deyiladi. Ijtimoiy sheriklik uchta darajada – milliy, tarmoqlararo va korxonalar darajasida amalga oshiriladi.

Industrial mamlakatlarda ijtimoiy sheriklik turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Xususan, bunda korporativ tizim maxsus organ

(institut), jarayonlar va mexanizmlardan foydalanishni nazarda tutadi. Bu kabi amaliyot Avstriya, Shvetsiya, Yaponiya, Germaniya, Shveytsariya, Niderlandiyada keng tarqaldi. Masalan, Avstriyada ijtimoiy sheriklik ham umummilliy, ham tarmoqlararo darajada keng tizimli maslahat kengashlari va qo'mitalari vositasida amalga oshiriladi. Ijtimoiy sheriklikning maxsus institutlari mavjud bo'lmagan davlatlarda plyuralistik tizim amal qiladi (Buyuk Britaniya, AQSH, Kanada). Bu yerda qarama-qarshi manfaatlarning kelishuvi oddiy siyosiy jarayon (partiya, parlament, kasaba uyushmalari) orqali butun jamiyat darajasida, xodim bilan ish beruvchi o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish esa alohida korxonalar darajasida amalga oshiriladi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Yevropa mamlakatlarining bu sohadagi samarali harakati natijasida ularning aksariyatida tadbirkorlar, kasaba uyushmalari va davlat tashkilotlari vakillaridan iborat bo'lgan milliy ijtimoiy-iqtisodiy kengashlar tuzildi. Jumladan, Italiyada 1947-yilda Iqtisodiy va mehnat milliy kengashi, Belgiyada 1948-yilda Markaziy iqtisodiy kengash, 1952-yilda esa Mehnat bo'yicha milliy kengash, Niderlandiyada 1950-yilda Iqtisodiy va ijtimoiy kengash, keyinchalik esa Mehnat muammolari bo'yicha kengashlar tashkil topgan. Fransiyada 1958-yildan, Buyuk Britaniyada esa 1962-yildan hozirga qadar Iqtisodiy va ijtimoiy kengashlar faoliyat yuritib kelmoqda.

Fransiya Respublikasi Konstitutsiyasining (1958-yil 4-oktabrdagi) XI bo'limida (69-, 70- va 71-moddalar) Iqtisodiy va ijtimoiy kengashning konstitutsiyaviy huquqiy maqomi belgilangan bo'lib, unga binoan, Kengashga hukumatning so'roviga asosan qonun loyihalariga, ordonans (qonun kuchiga ega bo'lgan va Parlament ruhsati bilan hukumat tomonidan tasdiqlanadigan hujjatlar) va direktivalar, qonunchilik takliflari yuzasidan xulosa berishi, Parlament palatalarida unga taqdim etilgan qonun loyihalari va qonunchilik takliflari yuzasidan xulosani eshittirish maqsadida o'z a'zosini tayinlashi, iqtisodiy va ijtimoiy xarakterdagi istalgan muammolar yuzasidan hukumatga maslahatlar berishiga doir huquqiy asoslar mujassamlashgan.

Fransiya amaliyotida ijtimoiy sheriklikka doir yana bir jihatni ko'rish mumkin: 2004-yildan boshlab respublikada ijtimoiy qonunlarni qabul qilish yuzasidan qonunchilik tashabbusi ijtimoiy sheriklarning dastlabki muhokamasisiz amalga oshirilmaydi. Bu holat mamlakatda yuz berishi mumkin bo'lgan ko'plab "siyosiy to'lqinlar"ning oldini olishga sabab bo'ldi.

2. O‘zbekiston ijtimoiy sheriklik institutining fuqarolik jamiyati instituti sifatida rivojlanishi

BMT Xalqaro mehnat tashkilotining standartlari O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida ham o‘z ifodasini topa boshladi. 1949-yildagi “Jamoaviy muzokaralarni tashkillashtirish va olib borish uchun huquqlar tamoyillarini tatbiq qilish to‘g‘risida”gi 98-sonli konvensiya va “Jamoaviy muzokaralarga ko‘maklashish to‘g‘risida”gi 154-sonli konvensiya XMTning jamoaviy-shartnomaviy tartibga solish sohasida O‘zbekiston Respublikasi qo‘shilgan asosiy konvensiyalari hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligi qayd etilgan konvensiyalar bilan o‘zaro muvofiqlashtirilgan va hatto ushbu konvensiya bilan nazarda tutilgan xodimlar uchun minimal kafolatlarga nisbatan yanada yuqori kafolatlar darajasini nazarda tutadi. Xususan, 98-sonli konvensiyaga muvofiq, mehnatkashlar va tadbirkorlar tashkilotlari bir-biri tomonidan har qanday aralashuv holatlariga qarshi tegishlicha himoyadan foydalanadilar. Ushbu qoida, asosan, kasaba uyushmalarini ish beruvchilarning bevosita yoki bilvosita ta’siridan himoya qilishga qaratilgan, biroq umumiy aralashmaslik tamoyili o‘z ahamiyatini saqlab qoladi.

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi ishchi-xodimlarning vakillik organlari faoliyatiga biror-bir shaklda to‘sqinlik qilinishini ta’qiqlaydi. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 26-moddasiga muvofiq, ish beruvchi yoki uning tomonidan vakolat berilgan shaxslarning tashabbusi bo‘yicha ishchi-xodimlarning vakillik organlari faoliyati to‘xtatilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Bunday harakatlarni amalga oshirgan ish beruvchi yoki uning tomonidan vakolat berilgan shaxslar qonunlarga muvofiq javobgar bo‘ladilar. Bundan tashqari, Kodeks ishchi-xodimlarning vakillik organlari huquqlarini batafsil belgilab beradi, ish beruvchining ularga nisbatan majburiyatlarini belgilaydi va ishchi-xodimlarning vakillik organlari a’zolariga qo‘shimcha mehnat kafolatlarini belgilovchi maxsus moddani o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston Respublikasining “Kasaba uyushmalari, ular faoliyatining huquqlari va kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni 3-moddasida kasaba uyushmalarining davlat boshqaruv organlaridan, xo‘jalik yurituvchi organlardan, siyosiy va boshqa jamoat tashkilotlaridan mustaqillik tamoyili, qonun hujjatlari bilan nazarda tutilgan holatlardan tashqari, ularga hisobot bermasligi va ular tomonidan nazorat qilinmasligi mustahkamlangan. Kasaba uyushmalari huquqlarini

cheklashi yoki ularni amalga oshirishga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan har qanday aralashuvni ta'qiqlaydi.

XMTning 98-sonli konvensiyasi (4-moddasi), "Jamoa muzokaralariga ko'maklashish to'g'risida"gi 154-sonli Konvensiyasi va "Jamoa muzokaralariga ko'maklashish to'g'risida"gi 163-Tavsiyanomasi Xalqaro mehnat tashkilotiga a'zo davlatlarga jamoa shartnomalarini tuzish orqali mehnat shart-sharoitlarini belgilash maqsadida ish beruvchilar tashkilotlari va mehnatkashlar tashkilotlari o'rtasida muzokaralar olib borishga ko'maklashuvchi chora-tadbirlar ko'rishni topshiradi. Ushbu chora-tadbirlar barcha darajalarda jamoaviy muzokaralar tuzish imkoniyati mavjud bo'lishi, mehnat sharoitlari masalalari bo'yicha o'tkazilishi, bandlik hamda ish beruvchilar, xodimlar va ularning vakillik organlari o'zaro munosabatlari uchun yo'naltirilishi kerak. Shunday qilib, ish beruvchilar tashkilotining faoliyat yo'nalishlaridan biri kasaba uyushmalari bilan hamkorlikdan, mehnatning jamoaviy-shartnomaviy tartibga solinishida ishtirok qilishdan iborat ekanligi oydinlashadi.

Mehnat kodeksida jamoaviy muzokaralarga ushbu jarayonni batafsil belgilab beruvchi ko'p sonli moddalar bag'ishlangan. Bu jamoa shartnomalari va kelishuvlarini tuzishning asosiy tamoyillarini, muzokaralar olib borish huquqini, muzokaralar olib borish tartibini, muzokaralar davomida yuzaga keladigan kelishmovchiliklar yechimini belgilovchi me'yorlardir. Muzokaralar olib borishga ko'maklashuvchi chora-tadbirlar sifatida Mehnat kodeksining ish beruvchilarning jamoa shartnomasi, bitimini tuzish, o'zgartirish yoki unga qo'shimcha kiritish bo'yicha muzokaralarda qatnashishdan bosh tortganlik yoki ularni ishlab chiqish va tuzish muddatlari buzilganligi yoxud tomonlar belgilab bergan muddatlarda tegishli komissiya ishi ta'minlanmaganligi; muzokaralar uchun kerakli ma'lumotlar taqdim qilinmaganligi va jamoa shartnomasi, jamoa kelishuviga rioya qilinishi ustidan nazorat amalga oshirilmaganligi; jamoa shartnomasi, kelishuvi bo'yicha majburiyatlar buzilganligi va bajarilmaganligi uchun javobgarligini nazarda tutadigan 34-moddasini keltirib o'tish mumkin. Kasaba uyushmasi, xodimlarning boshqa vakillik organi talabi bo'yicha mulkdor yoki ular tomonidan vakolat berilgan shaxs jamoa shartnomasi majburiyatlari buzilishida yoki bajarilmasligida aybdor rahbarga nisbatan qonunlar bilan nazarda tutilgan chora-tadbirlar ko'rishi shart.

XMTning "Jamoa shartnomalari to'g'risida"gi 91-sonli tavsiyanomasi jamoa shartnomalariga ta'rif berib, ushbu ta'rifga

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 29-moddasi bilan nazarda tutilgan ta’rif to‘liq mos keladi. Jamoa shartnomalarining amal qilish doirasi, muddatlari to‘g‘risidagi tavsiyalar qoidalari Mehnat kodeksining 42, 43, 44, 45, 54 va 55-moddalarida tatbiq qilingan. Kodeks O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining tegishli organlarida tuzilgan jamoa shartnomalarini bildirish ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risidagi tavsiyalar qoidasini ham o‘z ichiga olgan.

Xalqaro huquqning milliy mehnat qonunlariga ta’siri to‘g‘risida so‘z yuritilganda, xalqaro huquqda mustahkamlangan ayrim me’yorlar “jus cogens” xususiyatiga egaligi va shu tufayli shartnoma ratifikatsiya qilinganligidan qat’i nazar, barcha davlatlar uchun majburiy ekanligini nazarda tutish kerak. Ijtimoiy sheriklik sohasiga tegishli misol sifatida XMTning “Mehnat sohasidagi eng muhim tamoyillar va huquqlar to‘g‘risida”gi Deklaratsiyasidagi eng muhim 8 ta konvensiyadan biri deb e’tirof qilingan “Birlashish erkinligi va birlashish huquqini himoya qilish to‘g‘risida”gi 87-sonli konvensiyani keltirib o‘tish mumkin (1998). Ushbu Deklaratsiyaga muvofiq, mamlakat XMTning eng muhim 8 ta Konvensiyasini ratifikatsiya qilganligi yoki ratifikatsiya qilmaganligidan qat’i nazar, ushbu mamlakat hukumati ushbu konvensiya tomonidan berilgan huquqqa qanday rioya qilinayotganligi to‘g‘risida hisobot berishi kerak. Shunday qilib, xalqaro huquqning milliy qonunlarga bevosita ta’siri yuz beradi.

Hozirgi davrga kelib amaldagi qonunchilikda ijtimoiy sheriklikni tartibga soluvchi sanoqli me’yorlar aks ettirilgan. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 23- va 24-moddalarida xodimning (ishlovchining) huquqlari xalqaro huquqiy standartlar asosida ifodalangan: “23-modda. Xodimlar vakillik organlarining huquqlari:

Xodimlarning vakillik organlari quyidagilarga haqlidir:

-muzokaralar olib borish, jamoa shartnomalari va kelishuvlari tuzish, ularning bajarilishini tekshirib turish, ish beruvchiga korxonada mehnat to‘G‘risida normativ hujjatlar tayyorlash yuzasidan takliflar kiritish;

-korxonani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga doir masalalarni ko‘rib chiqishda qatnashish;

-mehnat nizolarini ko‘ruvchi organlarda xodimlar manfaatini himoya qilish;

-ish beruvchi hamda u vakil qilgan shaxslarning qarorlari mehnat to‘G‘risidagi qonunlar yoki boshqa normativ hujjatlarga zid bo‘lsa

yoxud xodimlarning huquqlarini boshqacha tarzda buzayotgan bo'lsa, bu qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish.

Vakillik organlari ijtimoiy-mehnat munosabatlarida xodimlarning manfaatlarini himoya etishga qaratilgan boshqa xatti-harakatlar ham, basharti bu xatti-harakatlar qonun hujjatlariga zid bo'lmasa, qilishlari mumkin. Xodimlarning vakillik organlari huquqlarining amalga oshirilishi korxonada mehnat samaradorligini pasaytirmasligi, o'rnatilgan tartib va ish rejimini buzmasligi kerak.

24-modda. Ish beruvchining xodimlarning vakillik organlari oldidagi majburiyatlari:

Ish beruvchi quyidagilarni amalga oshirishi shart:

-xodimlar vakillik organlarining huquqlariga rioya qilish, ularning faoliyatiga ko'maklashish;

-xodimlarning manfaatlariga taalluqli qarorlar qabul qilishdan oldin ularning vakillik organlari bilan maslahatlashish, mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlarda ko'rsatilgan hollarda esa ularning roziligini olish;

-xodimlar vakillik organlarining takliflarini o'z vaqtida ko'rib chiqish va qabul qilingan qarorlar haqida ularga yozma ravishda asosli javob berish;

-xodimlarning vakillik organlari a'zolarini korxonaga, manfaatlari ifoda etilayotgan xodimlarning ish joylariga moneliksiz qo'yish;

-xodimlarning vakillik organlariga mehnat, korxona faoliyati masalalariga va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy masalalarga doir axborotni tekin berish;

-xodimlarning vakillik organlariga o'z vazifalarini bajarishlari uchun zarur sharoit yaratib berish;

-xodimlarning vakillik organlariga nisbatan mehnat to'G'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlarda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarish.

Shuningdek, ish beruvchilarning ijtimoiy sheriklikni amalga oshirishda adolat prinsiplariga amal qilishi uchun Mehnat kodeksining "Ish beruvchilarning vakillik organlari" nomli 28-moddasida quyidagi me'yor kiritilgan:

"Ish beruvchilar uyushmalarga, assotsiatsiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga birlashishga haqlidir. Ish beruvchilarning jamoat birlashmalari ixtiyoriy jamoat tashkilotlari sifatida tuziladi va ish olib boradi, ularning maqsadi iqtisodiyotni va tadbirkorlik tashabbusini rivojlantirish va samaradorligini oshirish, shuningdek, davlat hokimiyati

va boshqaruv organlarida, kasaba uyushmalari va xodimlarning boshqa vakillik organlari bilan o'zaro munosabatlarda korxonalar va ular mulkdorlarining manfaatlarini ifoda etish yo'li bilan ijtimoiy sheriklikni amalga oshirish, xo'jalik va mehnatga oid munosabatlar sohasida ularning huquqlarini himoya qilishdan iboratdir".

O'zbekistonda mustaqillik davrida huquqiy davlat va inson hamda uning manfaatlari oliy qadriyat deb tan olinadigan fuqarolik jamiyatini barpo etishda ijtimoiy sheriklikni jamiyat instituti sifatida rivojlantirishga muhim e'tibor berildi. "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi"da (2010-yil 12-noyabr) fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, o'tkazilayotgan islohotlarning ochiq-oshkoraligi hamda samaradorligini ta'minlash va fuqarolik jamiyati institutlarining rolini kuchaytirishda "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etishi alohida ta'kidlandi. Mazkur Qonunning qabul qilinishi mamlakatimizda tobora rivojlanib borayotgan fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini kuchaytirish uchun yanada keng imkoniyatlarning huquqiy negizini yaratishiga muhim ahamiyat qaratildi. Ta'kidlash zarurki, ijtimoiy sheriklik ijtimoiy konsensusga erishishga yo'naltirilgan bo'lib, jamiyatning barqarorligi, rivojlanishi, samarali ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash imkonini beradi.

Konsepsiyada davlatimiz rahbari tomonidan ushbu Qonunda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirish, gumanitar muammolarni hal qilish, mamlakatimiz aholisi turli qatlamlarining huquq va erkinliklari, manfaatlarini himoyalashda nodavlat notijorat tashkilotlarining davlat tuzilmalari bilan o'zaro munosabatlaridagi aniq chegaralarni belgilash va tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish kabi masalalar bo'yicha huquqiy normalar ko'zda tutilishi darkorligi aniq va ravshan ko'rsatib berildi.

Mazkur qonun loyihasini ishlab chiqishda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari, Oliy Majlis Senati senatorlari, Adliya vazirligi, Toshkent Davlat yuridik instituti olimlari, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi kengashi mutaxassislaridan tarkib topgan ekspert guruhi tomonidan, avvalo, mavjud qonunchilikni o'rganish, ijtimoiy sheriklik tamoyillarini amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi holatlarni aniqlash, ijtimoiy sheriklik sohasidagi huquqiy amaliyot tajribasi tahlili yo'nalishlaridagi ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, ijtimoiy sheriklik sohasida umume'tirof etilgan

xalqaro huquq me'yorlarini tahlil etish, xorijiy mamlakatlarning ijtimoiy sheriklikni qonunchilik asoslariga binoan tartibga solish tajribasi o'rganildi. Ijtimoiy sheriklik yo'nalishida xorij tajribasini o'rganish natijalari dunyoning ko'pgina mamlakatlari, xususan, Belgiya, Germaniya, Fransiya, Avstriya, AQSH va boshqa davlatlarda, XMT konvensiyalarida ijtimoiy sheriklik tizimining unumli ishlashi uchun yaratilgan me'yoriy baza yangi qonun loyihasi uchun asos qilib olindi.

O'zbekiston Respublikasining "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuni loyihasida nodavlat notijorat tashkilotlari takliflariga alohida e'tibor qaratildi. Mazkur Qonun loyihasining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunchiligiga, shuningdek, qonunchilik texnikasi qoidalariga muvofiqligi o'rganilib, huquqiy ekspertiza o'tkazildi. Shuningdek, Qonun loyihasining Konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Mazkur Qonun loyihasi va Konsepsiyasi muhokamasiga baG'ishlangan davra suhbatlarida jamoatchilikning keng ishtirokini ta'minlash maqsadida respublikamizning barcha hududlarida fuqarolik jamiyati institutlari, boshqaruv va ijro hokimiyati organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirokida 2 bosqichdan iborat muhokama majlislari o'tkazilib, ularda jami 1,5 ming nafardan ortiq fuqarolar, 50 dan ziyod yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatayotgan nodavlat notijorat tashkilotlar vakillari ishtirok etdi.

Majlislar doirasida o'tkazilgan ijtimoiy so'rov natijasida nodavlat notijorat tashkilotlar, davlat organlari va tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi o'zaro ijtimoiy sheriklik darajasi o'rganildi. Shuningdek, mazkur qonun loyihasini yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar to'plandi. O'tkazilgan muhokama majlislari va ijtimoiy so'rov natijasida Qonun loyihasini takomillashtirish bo'yicha 200 dan ziyod takliflar olindi. Mazkur takliflardan kelib chiqqan holda Qonun loyihasiga qo'shimcha hamda o'zgartirishlar kiritilib, "Mamlakatda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi"ni fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish sohasida amalga oshirish bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash Komissiyasiga ko'rib chiqish uchun taqdim etildi.

Ma'lumki, kasaba uyushmalari faoliyatining asosini ijtimoiy sheriklik tamoyillarini hayotga tatbiq etish tashkil etadi. Chunki xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari va mehnat sohasidagi huquqlarini himoyalash, mehnat muhofazasi ishlarining samaradorligi aynan ijtimoiy sheriklikning amalda qay darajada o'z ifodasini

topayotganiga bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi kengashi, O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi o'rtasida 2011–2013-yillar uchun imzolangan ijtimoiy-iqtisodiy masalalarga oid Bosh kelishuvda ijtimoiy mas'uliyatni davlat, ish beruvchilar va xodimlar o'rtasida bundan buyon ham taqsimlab borish tan olingan. Xodimlar va ish beruvchilarning mehnatga oid huquqlari, ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari himoyasini ta'minlash, jamiyatda ijtimoiy totuvlik va barqarorlikni saqlab turishda amaliy hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun ijtimoiy sheriklik tamoyillari amalga oshirilishi aks etgan. Ijtimoiy-iqtisodiy masalalar xususida kelishib siyosat olib borishning umumiy tamoyillarini belgilab beruvchi mazkur Bosh kelishuvda Taraflar quyidagi yo'nalishlar bo'yicha majburiyatlar olganlar:

- iqtisodiyotni, mamlakatda ishlab chiqarish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish;
- mehnatga haq to'lash, daromadlar va turmush darajasi;
- mehnat bozorini rivojlantirish, aholini ish bilan ta'minlashga ko'maklashish;
- mehnat muhofazasi va xavfsizligi;
- ijtimoiy kafolatlar, ijtimoiy himoya;
- ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, jismoniy tarbiyani ommalashtirish ishlari, mehnatkashlar va ularning oila a'zolarini sog'lomlashtirish;
- ijtimoiy muloqot va ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish.

Bu yo'nalishda amalga oshirilgan ishlar monitoringini olib borish maqsadida tashkil etilgan uch tomonlama komissiya tomonidan olingan majburiyatlarning tahlili o'tkazilib, kelgusidagi ishlar belgilab boriladi.

2011–2013-yillarda ijtimoiy sheriklik doirasida amalga oshirilishi maqsad qilingan mazkur yo'nalishdagi majburiyatlardan kelib chiqadigan tadbirlarning joylarda jamoa shartnomalari va kelishuvlari vositasida amalga oshirilishiga kasaba uyushmalari tomonidan alohida e'tibor qaratildi. Xususan, amal qilayotgan 14 ta hududiy, 81 ta tarmoq kelishuvlari, bevosita korxonalarda imzolangan 115 mingdan ziyod jamoa shartnomalari orqali 6 mln. nafardan ziyod xodimning manfaatlarining himoyalaniishi jarayonlarida kasaba uyushmalari faol ishtirok etdi. Jamoa shartnomalari va kelishuvlari orqali mehnatkashlarning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari himoyasi kuchaytirilib, moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash imkoniyatlaridan keng foydalanilmoqda. Ayollar uchun qo'shimcha ta'tillar olish, ish

beruvchilar hisobidan homiladorlik va tug'ish ta'tillari bo'yicha uzaytirilgan ta'tillardan foydalanish, 2 yoshdan 3 yoshgacha bola parvarishi ta'tilida bo'lgan onalarning moddiy yordam olishlari kabi imkoniyatlar yaratildi.

Ayniqsa, bu borada nodavlat sektoridagi korxona va tashkilotlarda jamoa shartnomalari tuzilishiga erishish masalasi Federatsiya kengashining doimiy diqqat markazida bo'ldi. Natijada yuqorida qayd etib o'tilgan imtiyozlardan jamoa shartnomalari va kelishuvlari orqali nodavlat sektorida faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarning ham bahramand bo'lishiga erishildi.

Ijtimoiy sheriklik samarasining amaldagi yana bir yorqin ifodasini korxona, tashkilot va muassasalarda o'tkazilgan jamoa shartnomalari bajarilishiga bag'ishlangan muhokamalarda namoyon bo'ldi. Bu kabi muhokamalar jarayonida bevosita ijtimoiy sheriklar – ish beruvchi va kasaba uyushma qo'mitasi xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari hamda mehnat huquqlari himoyasi, mehnat muhofazasi, sog'lomlashtirish, madaniy-ma'rifiy va sport tadbirlari kabi yo'nalishlar bo'yicha imtiyoz va qulayliklarning amaldagi ijrosi to'g'risida hisobot berib borishi an'anaga aylandi. Bu orqali korxona va tashkilotlar, ulardagi kasaba uyushma qo'mitalari faoliyatining ochiq-oshkoraligi ham ta'minlanishiga erishila boshlandi.

Kasaba uyushmalarining mehnatkashlarning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari va mehnat sohasidagi huquqlari himoyasi, mehnat muhofazasi, sog'lomlashtirish, madaniy-ma'rifiy va sport yo'nalishidagi ishlarida ijtimoiy sheriklik imkoniyatlaridan unumli foydalanishning aniq va tizimli mexanizmini yo'lga qo'yish maqsadida Federatsiya kengashi tomonidan tegishli davlat va jamoat tashkilotlari bilan yillik chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ikki taraflama qabul qilish amaliyotini joriy etdi. O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi kengashi tomonidan SoG'liqni saqlash vazirligi bilan hamkorlikda qabul qilingan "Mamlakatimizda xotin-qizlar salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, tibbiy madaniyat targ'ibotini kuchaytirish yuzasidan 2011–2012-yillarda amalga oshiriladigan qo'shma tadbirlar dasturi" shular jumlasiga kiradi.

Mazkur dastur doirasida kasaba uyushmalari tizimida mavjud sanatoriylarda fertil yoshidagi ayollarning reproduktiv salomatligini mustahkamlash ishlari boshlandi. Xususan, Toshkent viloyatida joylashgan "Umid gulshani" sanatoriysida 70 nafar tug'ish yoshidagi ayollar imtiyozli ravishda sog'lomlashtirildi. Ular "sog'lom ona –

sog'lom bola" tamoyili asosida chuqurlashtirilgan kompleks tibbiy ko'rikdan o'tkazildi. Malakali shifokorlar tomonidan qo'yilgan aniq tashxislarga muvofiq fizioterapiya, yod-brom tarkibiga ega bo'lgan ma'danli suvlar, davolash jismoniy tarbiyasi kabi shifo usullarini o'z ichiga olgan muolajalar o'tkazildi. sog'lomlashtirish jarayonida reproduktiv salomatlikni mustahkamlash va sog'lom oilani shakllantirish, sog'lom farzandlar dunyoga kelishi va barkamol avlodni voyaga yetkazish yo'nalishidagi ishlar samarasini oshirish maqsadida kasaba uyushmalari tomonidan Respublika aholi reproduktiv salomatligi markazi, Salomatlik va tibbiy statistika instituti bilan hamkorlikda "Ijtimoiy sheriklik tamoyillari asosida reproduktiv salomatlikni mustahkamlash" mavzusida seminar tashkil etildi.

Ijtimoiy sheriklikka asoslangan yana bir hujjat – O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi kengashi hamda Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan imzolangan 2011–2012-yillar uchun qo'shma tadbirlar rejasi asosida joylarda hududiy kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmalari, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmalari mutaxassislaridan iborat ishchi guruhlari yaratilayotgan yangi ish o'rinlarida mehnat qilayotgan fuqarolarning mehnat va mehnat muhofazasiga oid huquqlari, ular uchun belgilangan qo'shimcha kafolatlar, mehnat va dam olish sharoitlari ta'minlanganligi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'rganilib, bu borada aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'rildi. Shuningdek, korxona va tashkilotlardagi mehnatni muhofaza qilish holati ustidan belgilangan tartibda davlat va jamoat nazorati amalga oshirilishiga doir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Mamlakatda yoshlarni ish bilan ta'minlash, ularning jamiyatda o'z o'rinlarini topishlari borasida olib borilayotgan sa'y-harakatlarda kasaba uyushmalarining munosib hissasini qo'shish maqsadida joylarda o'rta-maxsus kasb-hunar ta'limi Markazlari bilan hamkorlikda kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini tegishli korxona va tashkilotlarga "Ustoz-shogird" yo'nalishida biriktirish orqali ularning bandligini ta'minlash ishlari amalga oshirildi. Jumladan, ta'lim va fan tarmog'i bo'yicha 1183 ta kasb-hunar kollejida o'quvchilar "Ustoz-shogird" tizimi asosida 3485 ta korxona va tashkilotga biriktirildi. Ular bilan kasaba uyushma tashkilotlari ishtirokida hamkorlik shartnomalari tuzilgan. Natijada 363 ming nafardan ziyod o'quvchi amaliyotni yirik ishlab chiqarish korxona va tashkilotlarida o'tkazishi asnosida 176 ming nafarga yaqin

bitiruvchining bo'lajak ish joyi belgilandi. Aloqa xodimlari tarmog'i yo'nalishida Aloqa kasb-hunar kolleji hamda Axborot texnologiyalar kolleji bitiruvchilari "Toshkent shahar telefon tarmog'i", "Toshkent telefon tarmog'i stansiyasi", "Toshkent pochtampti", "Shaharlararo aloqa korxonasi"da "Ustoz-shogird" tizimi asosida amaliyot o'tashi bilan birgalikda ularning asosiy qismi mazkur korxonalarga ishga qabul qilinishi yuzasidan kelishuvga erishildi.

O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi kengashi tomonidan Xalq ta'limi, Madaniyat va sport ishlari vazirliklari, O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi, O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi, faxriylarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash "Nuroniy" jamg'armasi, Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari Federatsiyasi kengashi bilan ishlab chiqilgan qo'shma tadbirlar dasturlari ham ijtimoiy sheriklik imkoniyatlaridan keng foydalangan holda faoliyat samaradorligini oshirishga qaratildi.

O'zbekistonda ijtimoiy sheriklikni rivojlantirishda nodavlat notijorat tashkilotlari faol ishtirok eta boshladi. 2014-yilning sentabr oyiga kelib nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) yigirmaga yaqin sohani qamrab olib, tadbirkorlik va fermerlikni rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish, sportni ommalashtirish, imkoniyati cheklangan shaxslarni qo'llab-quvvatlash, ayollarning oila va jamiyatdagi mavqeini yuksaltirish kabi yo'nalishlarda samarali natijalarga erishdi. 2014-yilning birinchi yarmida faqat Toshkent viloyatining o'zida NNT davlat tashkilotlari bilan hamkorlikda 1200 dan ziyod ma'naviy-ma'rifiy va madaniy tadbirlar o'tkazdi. "sog'lom bola yili" Davlat dasturi doirasidagi ushbu tadbirlarga 27 mingdan ziyod aholi qamrab olindi va ularning asosiy qismini yoshlar tashkil etdi. Masalan, "Mehr-shafqat va salomatlik" jamoat fondi bilan hamkorlikda "Har bir bolaga mehr, e'tibor!" shiori ostida uyushtirilgan xayriya tadbirlarida boquvchisini yo'qotgan, kam ta'minlangan, nogiron hamda ota-onasiz yuzlab bolalarga xayriya himoyalari ko'rsatildi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatda ijtimoiy sheriklik munosabatlarining huquqiy asoslari va amaliyoti fuqarolik jamiyati qurishning strategik maqsad ekanligidan kelib chiqildi. Bu sohani isloh etishda asosan BMT, XMT va boshqa mehnat munosabatlariga doir xalqaro tashkilotlar hamda milliy an'analar uyG'unligiga amal qilindi. Mamlakatimizda bu sohaga doir islohotlar o'tish davriga to'G'ri kelganligi uchun ijtimoiy sheriklik munosabatlari asosan aholini ijtimoiy himoya qilish va ish bilan bandlik muammolarini hal etishga qaratildi. So'nggi ikki yil ichida ijtimoiy sheriklik sohasidagi

islohotlarga jamiyat va davlatni isloh etishning muhim jihati sifatida yondashilgani uchun o'zining samarali natijalarini qisqa fursat ichida namoyon qila boshladi.

3. O'zbekistonda ijtimoiy sheriklikning fuqarolik jamiyatiga xos amaliyoti huquqiy asoslarining rivojlanishi

2014-yil 25-sentabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuni 5 bob, 30 moddadan tashkil topib, unda ijtimoiy sheriklik va uning subyektlari, uning asosiy prinsiplari va sohalari, ijtimoiy sheriklikning asosiy shakllari va ularni amalga oshirish tartibi, ijtimoiy sheriklikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, mazkur munosabat subyektlarining huquq va majburiyatlari kabi eng muhim masalalar mujassamlashgan.

Qonunning 3-moddasida "ijtimoiy sheriklik" tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi: "Ijtimoiy sheriklik davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini, shu jumladan, tarmoq, hududiy dasturlarni, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlarni hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo'lgan boshqa qarorlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish borasidagi hamkorligidir". Shuningdek, mazkur moddada ijtimoiy sheriklik subyektlari sifatida quyidagilar belgilandi: "Davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari ijtimoiy sheriklik subyektlaridir. Davlat organlarining fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalar va diniy tashkilotlar bilan hamkorligi alohida qonunlar bilan tartibga solinadi".

Mazkur qonun ijtimoiy sheriklikning ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi o'rni, uning asosiy shakllari va ularni amalga oshirish tartibi, insonlar turmush tarizida ro'y berib turadigan muammolarni hal etishda, aholi turli qatlamlarining huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoya qilishda, davlat, ish beruvchi va mehnatkashlar o'zaro munosabatlarini adolat prinsiplari asosida muvofiqlashtirishda, fuqarolik jamiyati institutlarining davlat tuzilmalari bilan o'zaro hamkorligining tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini, ijtimoiy sheriklikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, moliyalashtirish manbalari, aholini ijtimoiy muhofaza qilish hamda qo'llab-quvvatlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, aholining huquqiy bilimlarini, huquqiy ongini va huquqiy madaniyatini oshirishning huquqiy asosi sifatida namoyon bo'ldi.

Qonunning demokratik qadriyatlar asosida ishlab chiqilganligi

"Ijtimoiy sheriklikning asosiy prinsiplari" deb nomlangan 4-moddasida o'z isbotini topgan: "Ijtimoiy sheriklikning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat: qonunga bo'ysunish; teng huquqlilik; ochiqlik va shaffoflik; hammaboplik; mustaqillik; xolislik; o'zaro hurmat, manfaatlarning inobatga olinishi va mas'uliyat; majburiyatlar qabul qilishning ixtiyoriyligi".

Qonunda ijtimoiy sheriklik sohalari sifatida quyidagilarning belgilanishi uning, asosan, aholi turmush darajasini oshirishga qaratilganini ifodalaydi:

- aholini ijtimoiy muhofaza qilish, qo'llab-quvvatlash va uning ijtimoiy faolligini oshirish;
- aholining bandligini ta'minlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, fermerlikni rivojlantirish;
- atrof-muhitni, aholining sog'lig'ini muhofaza qilish va sog'lom turmush tarzini qaror toptirish;
- har tomonlama barkamol va sog'lom yosh avlodni shakllantirish, yoshlarga bilim berish, ularni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash va kasbga yo'naltirish;
- onalik va bolalikni, shuningdek, xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish, ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, madaniy hayotida to'laqonli ishtirok etishini ta'minlash, sog'lom oilani shakllantirish;
- fan, ta'lim, axborotlashtirish, madaniyat va sportni rivojlantirish;
- aholining huquqiy bilimlari, huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, fuqarolik jamiyati va demokratik huquqiy davlat asoslarini mustahkamlash;
- millatlararo, madaniyatlararo totuvlik va fuqarolar totuvligi g'oyalarini mustahkamlash, ko'p asrlik, an'anaviy ma'naviy-axloqiy hamda tarixiy-madaniy qadriyatlarni tiklash va saqlash;
- iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish.

Qonunning 6-moddasida ijtimoiy sheriklikning asosiy shakllari XMTning konvensiyalari, rivojlangan mamlakatlar tajribasi va milliy an'analar uyg'unligi asosida shakllantirilib, ular quyidagicha ifodalandi:

- nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etishi;
- nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etishi;

- nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlari vakillarining davlat organlari huzuridagi ishchi guruhlar, komissiyalar va jamoatchilik-maslahat organlari faoliyatida ishtirok etishi;

- ijtimoiy sheriklik subyektlari tomonidan birgalikda tadbirlar, maslahatlashuvlar va muzokaralar o'tkazish;

- ijtimoiy sheriklik subyektlari tomonidan ijtimoiy sheriklik to'G'risida bitimlar va shartnomalar (bundan buyon matnda bitimlar va shartnomalar deb yuritiladi) tuzish, birgalikdagi loyihalar va rejalarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

- ijtimoiy sheriklik subyektlari o'rtasida o'zaro qo'llab-quvvatlash, axborot almashish.

Qonunda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi, uning mablaG'larini boshqarish bo'yicha parlament komissiyasi va ularning vazifalariga oid normalar ham o'z aksini topdi.

Qonunning yana bir o'ta muhim yangiligi – bu Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari huzurida jamoat fondlari hamda ijtimoiy sheriklik bo'yicha jamoat komissiyalari tuzilishi hisoblanadi. Albatta, bu joylardagi nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining tashabbuslarini rivojlantirish hamda rolini kuchaytirish, shuningdek, ularning joylarda sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik masalalarni hal etishdagi ishtirokini rag'batlantirish, mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishga, gumanitar masalalarni hal etishga, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda kuchli turtki bo'lib xizmat qiladi.

Qonun hayotda to'laqonli va samarali ishlashi uchun ijtimoiy sheriklik sohasidagi tadbirlarni moliyalashtirish asoslari ham aniq va tiniq mustahkamlab qo'yildi. Unga asosan ijtimoiy sheriklik sohasidagi tadbirlarni moliyalashtirish: O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari mablag'lari; ijtimoiy sheriklik subyektlarining o'z mablag'lari; yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalari hisobidan amalga oshiriladi. Ijtimoiy sheriklik sohasidagi tadbirlarni moliyalashtirish qonun hujjatlarida ta'qiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan ham amalga oshirilishi mumkin.

Masalaning yana bir muhim tomoni – bu qonunda davlat

organlarining ijtimoiy sheriklik sohasidagi huquqlari va majburiyatlarining aniq belgilab qo'yilganidir. Davlat organlari ijtimoiy sheriklik sohasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini va normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishga nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini jalb etishga, ular bilan birgalikda ishchi guruhlar hamda komissiyalar tuzishga, ularni davlat organlari huzuridagi jamoatchilik-maslahat organlari ishida ishtirok etishini ta'minlashga; bitimlar hamda shartnomalar tuzishga, ijtimoiy sheriklik doirasida berilgan davlat pul mablag'laridan va boshqa mol-mulkdan maqsadli foydalanilishi ustidan qonun hujjatlariga muvofiq nazoratni amalga oshirish kabilarga haqlidirlar.

Davlat organlariga mazkur qonunda faoliyatining nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlashni talab qiladigan ustuvor yo'nalishlarini aniqlashi, ularga ijtimoiy sheriklikda ishtirok etishi uchun shart-sharoitlar yaratishi, mazkur institutlarning tashabbuslari hamda takliflarini ko'rib chiqishi, zarur hollarda jamoatchilik muhokamasini tashkil etishi, ijtimoiy sheriklik sohasidagi bitimlar va shartnomalar, dasturlar hamda loyihalar bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini ta'minlashi shartligi kabi majburiyatlar yuklatilgan.

Qonunning qabul qilinganligi ijtimoiy sheriklik asosiy shakllarini amalga oshirishning va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini va normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishga nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini jalb etishni, birgalikda ishchi guruhlar hamda komissiyalar tuzish tartibini belgilab beruvchi tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini mustahkamlovchi qonunosti hujjatlarini ishlab chiqishni, joylardagi mahalliy Kengashlar huzurida jamoat fondlari hamda ijtimoiy sheriklik bo'yicha jamoat komissiyalarini tuzishni, davlat organlaridan ijtimoiy sheriklik sohasida faoliyatning nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlashni talab qiladigan ustuvor yo'nalishlarini aniqlashni, davlat organlari huzurida jamoatchilik-maslahat organlarini tashkil qilishni, o'zlariga yuklatilgan vazifalarni samarali tashkil qilish bo'yicha qonunosti hujjatlarini qabul qilishni hamda tezkorlik bilan qonunda belgilangan majburiyatlarini ijro etish mexanizmlarini yo'lga qo'yishga, o'z idoraviy ichki hujjatlarini Qonunga moslashtirishni taqozo etadi.

Xulosa qilib aytganda, qonun ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish uchun qulay huquqiy maydon yaratishga, fuqarolik jamiyati institutlarini yanada rivojlantirish, ularning jamiyatimizdagi o'rni va nufuzini yuksaltirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va isloh etish jarayonida nodavlat notijorat tashkilotlarini yanada faollashtirish, amalga oshirilayotgan islohotlarning ochiq-oshkoraligini ta'minlashda mazkur institutlar rolini kuchaytirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga doir dasturlarni hayotga tatbiq etish, ijtimoiy muammolarni hal etish, aholi turli qatlamlarining huquqlari, erkinligi hamda manfaatlarini himoya qilishda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining davlat organlari bilan o'zaro hamkorligi bo'yicha tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirishga xizmat qiladi.

"Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonunning muhim jihati uning fuqarolik jamiyati institutlari – NNTga jamiyatda ijtimoiy sheriklikni amalga oshirish, unga hissa qo'shish, jamiyatda adolat prinsiplarini o'rnatish kabi demokratik qadriyatlarning rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratishidir. Uning 15-moddasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar ifodalandi:

- O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetidan, qonun hujjatlarida ta'qiqlanmagan boshqa manbalardan olinadigan mablag'larni jamlaydi, bu mablag'lar nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faoliyatini rivojlantirishni rag'batlantirish hamda qo'llab-quvvatlashga, ijtimoiy, iqtisodiy, gumanitar masalalarni hal etishda ularning ishtirok etishiga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish uchun taqsimlanishini tashkil etadi;

- mablag'larni keyinchalik nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlashga taqsimlash uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondlariga yo'naltiradi;

- nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularga huquqiy, maslahat, tashkiliy, texnik jihatdan va boshqa xil yordam ko'rsatish bilan bog'liq dasturlar hamda loyihalarni amalga oshirishda ko'maklashadi.

"Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi qonunning ijrosi sifatida fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston

Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati Kengashlarining "Nodavlat-notijorat tashkilotlarini, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qo'shma qarori qabul qilinib, unga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Jamoat fondi va Parlament komissiyasi tashkil etildi. Parlament komissiyasi tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari, Senat a'zolari, O'zbekiston Respublikasi Adliya va Moliya vazirliklari tegishli tuzilmalari, nufuzli nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlari vakillari kiradigan bo'ldi. Shuningdek, Jamoat fondi tomonidan ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalar quyidagi yo'nalishlar bo'yicha moliyalashtirilishi belgilab qo'yildi:

Birinchi yo'nalish, nodavlat notijorat tashkilotlarning aholini ish bilan ta'minlashning muhim yo'nalishi sifatida kichik va oilaviy biznes, xususiy tadbirkorlik va kasanachilik hamda xalq hunarmandchiligini rivojlantirish bo'yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlardagi ishtirokini faollashtirish.

Ikkinchi yo'nalish, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzi tamoyillarini qaror toptirish, yoshlarda sog'lom va mustahkam oila qurishga intilishni shakllantirish, ularni giyohvandlik, axloqsizlik hamda tashqaridan kirib keluvchi "ommaviy madaniyat" tahdidlari va ta'sirlaridan asrab qolishga doir kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Uchinchi yo'nalish, aholining ekologik savodxonligini oshirish, ekologik noqulay hududlarda, shu jumladan, Orolbo'yida aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash. Bunda suv, yer resurslaridan oqilona foydalanish, suv obyektlari va havoning ifloslanishi darajasini kamaytirish bo'yicha targ'ibot ishlarini tashkil etish.

To'rtinchi yo'nalish, nogironlarga ta'lim berish va tarbiyalash uchun qulay sharoitlar yaratish, ularni har xil kasblarga o'qitish, huquqiy bilimini oshirish, ularning jamiyatlari va uyushmalarini moddiy-texnik jihatdan mustahkamlash, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini qo'llab-quvvatlash.

2017-yilning o'zida parlament huzuridagi jamoat fondi "uchinchi sektor" subyektlarining 264 dan ortiq dastur va loyihalariga davlat byudjeti mablag'lari hisobidan 12,7 mlrd. so'm miqdoridagi mablag'lar ajratdi. NNTlar va fuqarolik jamiyati institutlari Harakatlar strategiyasini, "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" Davlat dasturini amalga oshirish, aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, barkamol yosh avlodni tarbiyalash, sog'lom turmush tarzini

qaror toptirish, atrof-muhitni muhofaza qilish va jamiyatda huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan 5700 dan ortiq turli tadbirlarni tashkil etdi. 2017 yilning o'tgan davrida hududlardagi dolzarb ijtimoiy va iqtisodiy vazifalarni amalga oshirish maqsadida 248 ta NNT va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari loyiha va dasturlari davlat granti shaklida 6 030 *mln* so'mga qo'llab-quvvatlandi.

Ajratilgan davlat grantlari natijasida hududlarda 112 ta o'quv kursi va markazlar tashkil etilgan. Mazkur markazlarda 5145 kishi o'z kasbiy malakalarini oshirgan. Turli xildagi 3003 ta tadbirlar o'tkazilib, ularda 128 431 kishi ishtirok etgan. Moddiy-texnik bazasi 776 dona zamonaviy axborot-kommunikastiya texnikasi hamda o'quv ishlab chiqarish jihozlari bilan mustahkamlandi. 439 ta yangi ish o'rinlari yaratilgan. Davlat ijtimoiy buyurtmasi doirasida 148 ta tadbirlar o'tkazilgan va ularda 10 mingdan ortiq kishi ishtirok etgan.

Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish maqsadida amalga oshirilgan loyihalar natijasida kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lgan tinglovchilardan – 655 qiz va ayollar ishga joylashtirildi, 72 ta ayol xususiy tadbirkorlik yo'nalishida faoliyatini boshladi. Ekologiya va atrof-muhitni asrash borasida 800 dan ortiq ijtimoiy targ'ibot bannerlarining shahar va tuman, qishloq va ovullar markazlariga, istirohat bog'lari, ta'lim muassasalariga o'rnatilib, atrof-muhitni, o'simlik va hayvonot dunyosini asrab-avaylash borasida ekologik madaniyatni yanada yuksaltirishda samarali xizmat qilmoqda. Atrof-muhit holatining inson salomatligi bilan o'zaro munosabati, jamoatchilik ekologik nazoratini amalga oshirish bo'yicha 4 ta uslubiy qo'llanma tayyorlangan.

Loyihalarni amalga oshirish jarayonida jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy barqarorlikni, tinchlik xotirjamlikni, millatlararo va dinlararo bag'rikenglikni mustahkamlash, ertangi kunga ishonch va yaratuvchanlik muhitini ta'minlash masalalarida do'stlik jamiyatlari va milliy madaniy markazlar bilan ijtimoiy sheriklik kuchaytirildi.

Jamiyatda ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish, shu asosda fuqarolik jamiyatiga xos mehnat munosabatlarini rivojlantirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil mayda qabul qilgan "Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni muhim ahamiyat kasb etdi. Farmonda hozirgi davrdagi bandlik sohasidagi holat quyidagicha baholandi: "Bandlik sohasidagi mavjud muammolarni hal etishda haligacha eskirgan ish shakllari va uslublaridan foydalanilmoqda, mehnat bozoridagi haqiqiy vaziyatni

buzib ko‘rsatish hollari saqlanib qolmoqda, muhim ijtimoiy masala hisoblangan oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining bitiruvchilarini ishga joylashtirishga yuzaki yondashuv holatlari uchramoqda. Aholi bandligini ta’minlash masalalarida joylarda mahalliy ijro hokimiyati organlari, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, ta’lim muassasalari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va keng jamoatchilik o‘rtasida o‘zaro hamkorlik va javobgarlik mexanizmlaridan yaxshi foydalanilmayapti. Yangi tashkil etilgan barqaror ish o‘rinlari sonining mehnat bozori talablariga mos kelmasligi mehnat bozorida muvozanatlilikning buzilishiga, respublikamizning ayrim mintaqalarida ishsizlik darajasining oshib ketishiga, noqonuniy mehnat migratsiyasi va norasmiy bandlikning o‘sishiga olib kelmoqda”.

Farmonga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi etib qayta tashkil qilindi. Farmonda O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari etib, jumladan, yangi ish o‘rinlari yaratilishiga davlat buyurtmalarini ishlab chiqish, hududiy va tarmoqlar bandlik dasturlarini amalga oshirishni muvofiqlashtirish, oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari bitiruvchilarining bandligini ta’minlash, kam ta’minlangan oilalarga nafaqa va moddiy yordam o‘z vaqtida to‘lanishi monitoringini amalga oshirish va boshqalar belgilandi.

Farmonda 2018-yilning 1-yanvaridan boshlab kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va oliy ta’lim muassasalarining birinchi marotaba ishga joylashgan bitiruvchilari, agar ular ta’lim muassasasini tamomlagan kundan boshlab uch yildan ortiq vaqt o‘tmagan bo‘lsa, ishga joylashganidan keyin birinchi yil davomida ish haqidan olinadigan daromadlari bo‘yicha yagona ijtimoiy to‘lovning o‘rnatilgan stavkasini 50 foizga, ularning ikkinchi va uchinchi yil davridagi ish faoliyati bo‘yicha 25 foizga kamaytirish belgilandi.

Shuningdek, mazkur farmon ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi faoliyatini tashkil etishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori qabul qilindi.

Fuqarolarni ishga joylashtirishda sifatli va qulay xizmat ko‘rsatishni ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ushbu qarori bilan quyidagilar ko‘zda tutilgan:

-mehnat organlari tomonidan “yagona darcha” tamoyilida davlat

xizmatlari ko‘rsatishning prinsipial yangi tizimini joriy etish, bunda ishga joylashtirish va bandlikni ta’minlash bo‘yicha kompleks xizmatlarni aholi uchun qulay bo‘lgan joylarda, shu jumladan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida ko‘rsatish va bunda internet imkoniyatlaridan keng foydalanish;

- Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining fuqarolarni tashkillashgan holda xorijda ishga joylashtirishni ta’minlovchi filiallari tarmoG‘ini kengaytirish masalasini ko‘rib chiqish.

Qarorda bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasini moliyalashtirish manbalari va ularni sarflashning asosiy yo‘nalishlari belgilandi. Ular jumlasiga ishsizlarni, oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish va ularni moddiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qonunchilik bilan o‘rnatilgan kafolatlarni amalga oshirish, band bo‘lmagan aholini kasb-hunarga o‘qitish, qayta tayyorlash va ijtimoiy himoyalashga doir sifatli xizmatlar ko‘rsatish, mehnat organlarining moddiy-texnika ta’minotini mustahkamlash bo‘yicha xarajatlarni moliyalashtirish kiradi.

Qarorga binoan mehnat resurslari ko‘p bo‘lgan tumanlarda band bo‘lmagan aholini kasb-hunarga o‘qitish, qayta tayyorlash va malakasini oshirish ishlarini amalga oshiradigan tayanch kollejlarining ro‘yxati tasdiqlandi. Mazkur kollejlar band bo‘lmagan aholini o‘zlarining asosiy ta’lim berishdan bo‘sh vaqtlarida, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish talablaridan kelib chiqqan holda mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan mutaxassislik va yo‘nalishlar bo‘yicha o‘qitishi belgilab qo‘yildi.

Albatta, mazkur Prezident farmoni va qarori mamlakat ijtimoiy hayotidagi qator muammolarni hal etish, davlat organlari bilan aholi o‘rtasidagi ijtimoiy sheriklikni rivojlantirishning huquqiy asosi sifatida fuqarolik jamiyatiga xos bo‘lgan mehnat munosabatlarini shakllantiradi, davlat siyosatining avvalambor insonga, uning ijtimoiy ahvolini yaxshilashga qaratilayotganligini ifodalaydi. Shu bilan birga, qabul qilingan mazkur huquqiy asoslar bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish, band bo‘lmagan aholini, ayniqsa, yoshlarni ishga joylashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, mehnat huquqlarini himoya qilish va mehnat muhofazasini kuchaytirish, aholi bandligini ta’minlash bo‘yicha muvofiqlashtirilgan samarali ishlarni amalga oshirishda davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro hokimiyati organlarining mas’uliyatini tubdan kuchaytirish omili bo‘lishi muqarrardir.

Nazorat savolari

1. Ijtimoiy sheriklik nazariyasi qachon shakllandi?
2. Ijtimoiy sheriklik to'g'risidagi tred-yunionistik nazariyaning mohiyati nimada?
3. Ijtimoiy sheriklik to'g'risidagi sektorlararo nazariya tred-yunionistik nazariyadan nimasi bilan farq qiladi?
4. Ijtimoiy sheriklikning sub'ektlari kimlar bo'lishi mumkin?
5. Ijtimoiy sheriklikning zamonaviy shakllarini ko'rsating

Test savollari

1. BMTning Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) qachon tashkil etilgan va ushbu tashkilot nechanchi yildan BMT tarkibida faoliyat yuritmoqda?

A) 1919-yilda tuzilgan, 1946-yildan buyon faoliyat olib bormoqda
B) 1920-yilda tuzilgan, 1947-yildan buyon faoliyat olib bormoqda
C) 1921-yilda tuzilgan, 1948-yildan buyon faoliyat olib bormoqda
D) 1922-yilda tuzilgan, 1949-yildan buyon faoliyat olib bormoqda

2. XMT mehnatni muvofiqlashtirish va o'zaro kelishuvlarga doir nechta konvensiya va nechta tavsiyalar qabul qilgan?

A) 180 ta konvensiya va 190 ta tavsiyalar
B) 185 ta konvensiya va 195 ta tavsiyalar
C) 175 ta konvensiya va 185 ta tavsiyalar
D) 165 ta konvensiya va 175 ta tavsiyalar

3. "Uyushmalar erkinligi va uyushishga huquqni himoya qilish" (№87) konvensiyasi qachon qabul qilingan?

A) 1948-yil
B) 1995-yil
C) 1998-yil
D) 1975-yil

4. Ijtimoiy sheriklik deganda nimani tushunasiz?

A) Ish beruvchi va ishlovchi o'rtasidagi, kasaba uyushmalari tomonidan nazorat etiluvchi o'zaro kelishuv jaryoni bo'lib, unda umumiy ijtimoiy maqsadlarga erishishda taraflar manfaatlarining uyg'unligini ta'minlab turuvchi institutlar, mexanizmlar va jarayonlar tizimidir

B) O'quv yurtlari va sport muassasalari o'rtasida tuzilgan

shartnoma

C) Savdo tashkilotlari bilan biznes vakillari o'rtasida tuzilgan shartnoma

D) Davlat organlari bilan madaniyat muassasalari o'rtasidagi hamkorlik

5. Qaysi konvensiyada iqtisodiy faoliyatning barcha tarmoqlariga "jamoaviy muzokaralarni tatbiq" qo'llanilishi nazarda tutiladi?

A) 1981-yilda qabul qilingan "Jamoaviy muzokaralarga ko'maklashish to'g'risida"gi (№ 154) konvensiyada

B) 1948-yilda qabul qilingan "Uyushmalar erkinligi va uyushishga huquqni himoya qilish" (№ 87) konvensiyasida

C) 1949-yilda qabul qilingan "Uyushishga va jamoaviy muzokaralar olib borishga huquqlar prinsiplarini qo'llash to'g'risida" (№98) konvensiyasi

D) 1978-yilda qabul qilingan "Mehnat masalalarini muvofiqlashtirish to'G'risida: uyushish, roli, funksiyalari" (№150) konvensiyasi

6. Ijtimoiy sheriklik shakllari:

A) Soliq organlari bilan korxona o'rtasidagi shartnoma

B) Prokuratura va ichki ishlar organlari o'rtasidagi shartnoma

C) Biznes va madaniyat muassasalari o'rtasidagi bitim

D) Bipartizm va tripartizm

7. Ijtimoiy sheriklik subyektlari:

A) Feodallar va krepostnoy dehqonlar

B) Soliq organlari va biznes vakillari

C) Davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari

D) Huquqni muhofaza qilish organlari va madaniyat muassasalari o'rtasidagi bitim

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'G'risida"gi farmoni qachon qabul qilingan edi?

A) 2017-yil may

B) 2015-yil sentabr

C) 2016-yil dekabr

D) 2014-yil may

9. Ijtimoiy sheriklikning asosiy prinsiplari nimalardan iborat?

A) Qonunga bo'ysunish; teng huquqlilik; ochiqlik va shaffoflik

B) Hammaboplik; mustaqillik; xolislik

C) O'zaro hurmat, manfaatlarning inobatga olinishi va mas'uliyat; majburiyatlar qabul qilishning ixtiyoriyligi

D) Barcha javoblar to'g'ri

10. XMTning "Mehnat sohasidagi eng muhim tamoyillar va huquqlar to'g'risida"gi Deklaratsiyasidagi eng muhim 8 ta konvensiyadan biri deb e'tirof qilingan "Birlashish erkinligi va birlashish huquqini himoya qilish to'g'risida"gi 87-sonli konvensiya qachon qabul qilingan?

A) 1948-yil

B) 1998-yil

C) 1988-yil

D) 1975-yil

14-mavzu. FAOL FUQAROLIK POZITSIYASIGA EGA BO'LGAN YOSh AVLODNI TARBIYALAShNING ASOSIY YO'NALISHLARI

Reja:

1. Yoshlar huquq erkinliklari xalqaro huquqiy asoslarini shakllanishi va rivojlanishi.

2. Mustaqillik davrida davlatning yoshlarga oid siyosatini rivojlanishi va uni amalga oshirilishi.

3. Mamlakatda barkamol avlodni shakllantirishning yangi bosqichi.

Tayanch so'zlar: yoshlar, bola huquqi, yoshlar huquqi, yoshlar siyosati, davlatning yoshlarga oid siyosati, yoshlarning mustaqil pozitsiyasi, barkamol avlod, yoshlar, yoshlar tashkiloti, yoshlar bandligi, yoshlar siyosati ob'ekti va sub'ekti, O'zbekiston yoshlar ittifoqi, yosh tadbirkorlar, yoshlarni ijtimoiy himoya qilish.

1. Yoshlar huquq erkinliklari xalqaro huquqiy asoslarini shakllanishi va rivojlanishi

Insoniyati tarixi bir necha ming yilliklar ichida yoshlarni alohida ijtimoiy qatlam, jamiyatining barcha bilan teng a'zosi sifatida o'rniga unchalik ahamiyat bermay keldi. Va nihoyat, fuqarolik jamiyati kurtaklari va unsurlari paydo bo'lganidan keyin yoshlarning jamiyatdagi o'rni masalalari ko'tarila boshlandi. AQSHda 1776-yilda, Fransiyada 1849-yilda inson huquqlarini himoyalash masalalari ko'tarilib, uning tarkibiy qismi sifatida yoshlar va bolalar huquqlarini himoyalash g'oyalari ilgari surila boshlandi. Dastlab, 1833-yilda Angliyada 9 yoshgacha bo'lgan bolalarni fibrikalarda ishlatish ta'qiqlandi. 1896-yilda Germaniyada o'z bolalariga tazyiq qiladigan ularni tahqirlaydigan, yoki ularga g'amxo'rlik qilmaydigan ota-onalarni jazolashga doir qonun qabul qilindi. 1899-yilda AQSHda dastlabki yuvenal sudlar tashkil topdi.

1919-yilda jahon xalqaro hamkorligini rivojlantirish maqsadida tuzilgan Millatlar Ligasi Bolalar ravnaqi qo'mitasini ta'sis etdi. U o'z e'tiborini qarovsiz qolgan bolalar, etimlar va qullikka tushib qolgan bolalarga qaratdi. Bu paytda bolalar himoyasiga doir nodavlat tashkilotlar shakllana boshladi. Bolalarni qutqarish xalqaro ittifoq (Save the Children International Union) birinchi jahon urushidan keyin tuzildi. 1924-yil 24- sentyabrda Millatlar Ligasininn Bosh assambleyasi Bola

huquqlari Jeneva deklarastiyasini qabul qildi.

1959-yil 20-noyabrda BMTning Bosh Assambleyasi Bola huquqlari deklarastiyasini qabul qildi. Shu davrdan boshlab 20-noyabr Bola huquqlari kuni sifatida nishonlanib kelinmoqda. 1995-yilda BMTning Bosh Assambleyasi tomonidan "Yoshlar bo'yicha umumjahon harakatlar dasturi" qabul qilindi. Ushbu dastur har bir mamlakat miqyosida tegishli chora-tadbirlar ko'rilishi, butun dunyoda yoshlar sharoiti, holatini yaxshilashga qaratilgan xalqaro loyiha va dasturlarning amalga oshirilishi uchun mustahkam zamin va yo'l-yo'riqlarni ta'minlab berdi.

Mazkur dasturni hayotga tadbiq qilish uchun, avvalambor, yoshlar orasida asosiy inson huquqlari va erkinliklarining to'liq bajarilishi, amalga oshirilishini ta'minlash, hamda barcha mamlakatlar bunday huquq va erkinliklarning buzilishiga qarshi aniq choralarning ko'rishi, kamsitmaslik, baG'rikenglik, xilma-xillikka hurmat, turli diniy va etnik qadriyatlarga, madaniy, falsafiy qarashlarga hurmat tamoyilini ilgari surishi, barcha ayol va erkaklar uchun imkoniyatlar tengligi, hamnafaslik, xavfsizlik, jamiyat hayotida ishtirok etish imkoniyatlarini yaratishi, kafolatlashi talab qilinadi.

BMT tizimi barcha mamlakatlarni bolalar va yoshlarga sarmoya ajratishga chorlaydi. Qolaversa, BMT mamlakat hukumatlariga tegishli siyosat, loyiha va dasturlarni ishlab chiqishga va amalga oshirishga yordam beradi. Dunyoning har bir mamlakatida BMT agentliklari bolalar va yoshlar holatini tahlil qilib boradi, muayan sohalarga mablag' ajratilishi lozimligi haqida jamoatchilikni xabardor qilib boradi, barcha mamlakatlar qo'llashi mumkin bo'lgan samarali strategiyalarni yig'ib, ularni targ'ib qilishga intiladi.

Hozirgi kunga kelib dunyo aholisining 18 % ni yoshlar tashkil etmoqda. Bu nisbiy ko'rsatkich albatta. Ma'lumki, bugungi kunda jahon mamlakatlarida «yoshlar» tushunchasi turlicha tasnif qilinadi. Masalan, Evropa Ittifoqi davlatlarida aholining 16 yoshdan 30 yoshgacha (ba'zan 35 yoshgacha) bo'lgan vakillariga yoshlar sifatida qaraladi. YUNESKO esa 17 yoshdan 25 yoshgacha bo'lgan yigit-qizlarni yoshlar sirasiga kiritadi. Aksariyat MDH davlatlarida esa (jumladan, O'zbekiston Respublikasida ham) 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lganlar yoshlar hisoblanadi. Bugungi kunga kelib yoshlarga oid siyosat yuritish, bu borada muayyan siyosiy institutlar, jamoat tashkilotlarining faoliyat olib borishi ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar qonunchiligida salmoqli o'rin tutadi.

Hozirgi davrdagi yoshlarga oid davlat shakllanishi va tarixi XX asrning 60-80-yillarida BMT tomonidan yoshlar ijtimoiy qatlamiga bo'lgan munosabatning yangicha prinstiplarini belgilab berilgan qator hujjatlar qabul qilinishi bilan uzviy boG'liqdir. 1965-yilda BMT Bosh Assambleyasining "Yoshlar o'rtasida tinchlik G'oyalari, millatlararo o'zaro hurmat va tushunishni targ'ib etish to'G'risidagi Deklarastiya"si e'lon qilinishi bilan yoshlarning ijtimoiy muammolari tashkilot e'tibor markazidagi vazifaga aylandi. YUNESKO yo'nalishida yoshlar muammolariga daxldor yuzdan ortiq hujjatlar qabul qilindi. Aynan YUNESKO tashabbusi bilan 1985-yildan Yoshlar masalalari butunjahon kongressi faoliyat ko'rsata boshladi va shu yil BMT tomonidan "Xalqaro yoshlar yili" deb e'lon qilindi.

Xalqaro huquqiy aktlar asosida 2008-yil 7-yanvarda O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Mazkur qonunning 10-moddasida bolalarning erkinlik va daxlsizlik huquqini himoyalashga doir quyidagi huquqiy asoslar belgilandi:

Har bir bola erkinlik, shaxsiy daxlsizlik, turar joyi daxlsizligi va xat-xabarlarini sir tutish huquqiga ega.

Har bir bola o'z sha'ni va qadr-qimmatiga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga g'ayriqonuniy aralashuvlardan himoyalanish huquqiga ega.

Bola qonunga asoslanmagan holda ushlab turilishi, hibsga olinishi, qamoqqa olinishi mumkin emas.

Davlat bolaning shaxsi, turar joyi daxlsizligini, xat-xabarlari sir tutilishini ta'minlaydi hamda bolani ekspluatastiyaning barcha shakllaridan, shu jumladan jismoniy, ruhiy va jinsiy zo'ravonlikdan, qiynoqqa solishlardan yoki shafqatsiz, qo'pol yoxud inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa shakldagi muomaladan, shahvoniy shilqimliklardan, jinoiy faoliyatga, fohishalik bilan shug'ullanishga jalb etilishdan himoya qilishni amalga oshiradi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab bolalar huquqini himoya qilish huqiy asoslarini rivojlanishi asnosida bolalar va yoshlar huquqlarini kafolatlash davri boshlandi. Bu davrdan boshlab qator rivojlangan davlatlarda yoshlar huquqini himoyalash, yoshlarga doir davlat siyosatlari rivojlanib, ular hayotda qo'llana boshladi. Xususan, Fransiyada yoshlar siyosati Yoshlar, sport va ijtimoiy tashkilotlar bilan ishlash vazirligi tomonidan amalga oshirilib, unga ta'lim, madaniyat va kommunikastiya hamda bandlik bo'yicha tegishli vazirliklar

ko'maklashadi. Fransiyada ishsiz aholining ko'pchiligini yoshlar tashkil etganligi bois, ushbu muammolarni hal etish maqsadida "Yangi xizmatlar, yangi ish o'rinlari" davlat dasturi joriy qilingan. Shuningdek, yoshlarning huquqlarini himoya qilish uchun "Imkoniyatlar tengligi to'g'risida"gi qonun qabul qilingan bo'lib, ushbu qonun mamlakatdagi xususiy korxona va tashkilotlarga yoshlarni ishga qabul qilish bo'yicha qo'shimcha vazifalar yuklaydi. Bundan tashqari, Fransiyada madaniyat sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish borasida ham ko'pgina ishlar qilinmoqda.

AQShning yoshlar borasidagi davlat siyosati o'ziga xosligi, ya'ni, mazkur siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishda bevosita yoshlarning o'zlari ishtirok etishi bilan boshqa mamlakatlardan ajralib turadi. Hozirgi kunda Amerika yoshlari orasida narkotik moddalar iste'moli, jinoyatchilik va irqchilik bilan bog'liq muammolar avj olgan. Shundan kelib chiqib, ushbu muammolarni hal etishga qaratilgan ko'pgina qonunlar qabul qilinib, amalga tatbiq qilingan. Ayni paytda AQSHda yoshlarni qo'llab-quvvatlash va himoya qilish yuzasidan 400 dan ortiq dasturlar ishlab chiqilgan. Shundan eng ko'p a'zolarga ega bo'lganlari "Yoshlarni himoyalash ligasi", "Talabalar ocharchilikka qarshi", "Tashqariga nazar", "Yordam" ("Help") hamda Qutqaruv armiyasi kabilar hisoblanadi. Mazkur harakatlar AQSHning barcha kasb-hunar o'quv muassasalaridagi yoshlarni qamrab olgan. AQSHda "Yoshlar siyosati konstepstiyasi"ni amalga oshirishda davlatning roli birmuncha oz bo'lib, bu jarayonga, asosan, xususiy tashkilotlar keng jalb qilingan. Davlat yordami ijtimoiy himoyaga o'ta muhtoj bo'lgan yoshlarga qat'iy chegaralangan miqdorda ko'rsatiladi. AQShda yoshlar siyosati davlat idoralarining alohida bir faoliyat sohasi hisoblanmaydi, yoshlar muammolari yuzasidan bir necha vazirliklar ish olib borishadi. Jumladan, Mehnat vazirligi yoshlarning bandligi, Adliya vazirligi jinoyatchilik, Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot vazirligi esa yoshlar hamda o'smirlarning sog'ligi borasidagi muammolar bilan shug'ullanishadi. Yoshlar bilan ishlashda siyosiy tashkilotlar, sport muassasalari hamda diniy tashkilotlarning o'rni ham baland. "Yosh respublikachilar" milliy federastiyasi hamda "Amerikaning yosh demokratlari" AQSHdagi eng katta yoshlar siyosiy birlashmalari hisoblanishib, ular mamlakatdagi ikki yirik siyosiy partiyaning yoshlar bo'yicha rasmiy tashkilotlaridir. Yoshlar siyosiy tashkilotlarining asosiy maqsadlaridan biri yoshlarni siyosiy hayotga jalb qilish, ularning davlat siyosatidagi o'rnini rivojlantirishga qaratilgan. Shuningdek, AQSHda

"Lyuteranlik ligasi" va "Katolik yoshlarning milliy federastiyasi" kabi diniy, milliy yoshlar tashkilotlari ham faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Buyuk Britaniya davlatining yoshlar bo'yicha olib borayotgan siyosati misolida davom ettiradigan bo'lsak, bu mamlakat ushbu sohada uzoq tarixga ega bo'lib, o'zining ko'p qirraliligi bilan Evropaning boshqa davlatlaridan ajralib turadi. Jumladan, Angliyadagi siyosat yoshlar bilan bog'liq barcha jabhalarni qamrab olgan bo'lib, ular orasida ta'lim sohasi eng yuqori o'ringa qo'yilgan. Ingliz yoshlarining aksariyat qismi turli tashkilotlar tomonidan tashkil etilgan "yoshlar klub"lariga a'zo bo'lib, ularning yoshlar borasidagi tadbirlariga keng jalb qilingan. Shuningdek, ushbu davlatda yoshlarning "ko'ngilli harakatlari" o'ta rivojlangan bo'lib, kichik shahar va tumanlar miqyosida davlat siyosatini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur harakatlarni moliyalashtirish davlat tomonidan amalga oshirilib, faoliyati davomida, asosan, qiyin vaziyatlarda qolgan tarafdorlarining muammolarini hal etishga harakat qilinadi. Shu bilan birga, yoshlar madaniy va ijtimoiy sohalarda o'z faolliklari bilan aholining boshqa qatlamlariga nisbatan ajralib turadi. Angliyadagi yoshlar tashkilotining kamchiliklaridan biri ularning davlat boshqaruvidagi roli qat'iy emasligidadir. Ushbu holat davlat boshqaruvi tizimi konservativ tamoyillarga asoslanganligi bilan xarakterlanadi.

Evropa davlatlari orasida Germaniyaning yoshlar borasidagi davlat siyosati o'ziga xos xususiyatga ega. Nemis yoshlar siyosatining mohiyati shundaki, unda asosiy e'tibor 18-27 yoshdagi aholining ijtimoiy bandligiga qaratilgan. Bundan tashqari, ushbu siyosat fuqarolarning qonuniy himoyasi hamda ularning ijtimoiy va individual rivojlanishini ham ko'zda tutadi. Mamlakatning deyarli barcha katta shaharlarida yoshlarga tegishli bo'lgan ko'pgina kompaniyalarga qarashli maxsus markazlarni uchratish mumkin. Ushbu markazlar faoliyati yosh fuqarolarning ishga joylashishi bilan bog'liq muammolarni hal etishga qaratilgan, bu esa davlatning ishsizlik borasidagi siyosati samarali amalga oshishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Mazkur ishlarning mas'uliyati Oila va yoshlar vazirligiga yuklatilgan bo'lib, ushbu vazirlik qoshidagi yoshlar masalalari bo'limi bevosita mazkur sohadagi turli loyihalarni amalda qo'llash bo'yicha o'z faoliyatini olib boradi. Shu bilan birga, Germaniyada yoshlarning axloqiy qarashlari va ularning madaniy savodxonligini oshirish ishlari bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar tuzilgan bo'lib, ularning harakatlari jamiyatning etuk shaxslarini kamol toptirishga qaratilgan.

Yaponiyada yoshlar siyosati muhimligi inobatga olinib, mazkur sohada olib borilayotgan ishlar milliy siyosat darajasiga olib chiqildi. Yaponiyada BMTning "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvenstiyasiga asoslanib yoshlar borasidagi davlat siyosatini amalga oshirish uchun Milliy assambleya tashkil etildi. Mazkur tashkilot asosan 4 ta dastur asosida ish olib boradi. Birinchisi, "Milliy harakat" dasturi bo'lib, u asosan kuch va vositalarini Assambleya faoliyatini qo'llab-quvvatlashga yo'naltiradi. Ikkinchisi, "Hayot yo'lini tanlashga ko'maklashish" dasturi 2007-yilda tasdiqlangan bo'lib, uning faoliyati yoshlarni kasb tanlashga yo'naltirish, ularning turli iqtidorlarini o'rganishga qaratilgan. Uchinchisi, "O'smirlar orasida huquqbuzarlikning oldini olish choralari" dasturi bo'lib, uning asosiy maqsadi yoshlar orasidagi jinoyatchilikka qarshi kurashishda davlat organlariga yaqindan yordam berish hamda yoshlarning jinoiy xatti-harakatlarini o'rganish markazlari bilan hamkorlikni amalga oshirishdan iborat. So'nggi, "OITSga qarshi kurash" dasturi o'z ichiga yoshlar orasida ushbu kasallikning kelib chiqish sabablarini o'rganishga qaratilgan turli maslahatlar berish va boshqa tadbirlar o'tkazishni nazarda tutadi.

Hozirgi davrda yoshlarga oid davlat siyosati davlatning yoshlarga, yoshlar tashkilotlariga munosabatida, shuningdek, qonun chiqaruvchi, ijroiya, sud hokimiyati sohalarida yoshlarni huquq va erkinliklarini ta'minlashga doir chora-tadbirlarni amalga oshirishda o'z ifodasini topadi. Bu siyosatning mazmun-mohiyati yosh avlodning ijtimoiy jihatdan rivojlanishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, tashkiliy shart-sharoit yaratib berish, ularning hayotda o'z yo'lini tanlab olishlari, intellektual, ma'naviy va jismoniy jihatdan kamol topishini ta'minlash, yoshlarning ijodiy iqtidori va salohiyatini shaxsiy va mamlakat manfaatlari yo'lida ro'yobga chiqarish demakdir. Shuningdek, yoshlar siyosati yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bilan bir vaqtda, yosh avlodning mehnat va ijodiy faoliyati uchun muhim va zarur bo'lgan innovastiyaviy va ishlab chiqarishga doir jihatlarni ham o'ziga qamrab oladi. Bu yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda yoshlarni jamiyatni rivojlantirishning asosiy va muhim resurslaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

2. Mustaqillik davrida davlatning yoshlarga oid siyosatini rivojlanishi va uni amalga oshirilishi

O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab

Birinchi Prezident I.A.Karimov boshchiligida amalga oshirilgan farovon demokratik davlat va jamiyatni barpo etishga yo'naltirilgan tub islohotlar siyosatining o'ziga xos xususiyati – bu uning aniq ijtimoiy yo'naltirilganligi bo'ldi. Hozirgi davrda O'zbekiston aholisining 60 foizdan ortig'ini yoshlar tashkil etadi. Shuning uchun ham mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha ijobiy o'zgarishlar zamirida har tomonlama barkamol – jismonan sog'lom, aqlan etuk, nafaqat ko'plab bilimlarni, hozirgi davrda talab katta bo'lgan kasb-hunarlarni egallagan, ayni paytda, mustaqil va ijodiy fikrlashga qodir, intellektual salohiyati yuksak yosh avlod to'g'risida g'amxo'rlik qilishdek ustuvor maqsad mujassam ekani tabiiydir.

Mamlakatda yuritilayotgan kuchli yoshlar siyosati o'zining mustahkam huquqiy asoslariga egadir. Bu siyosat O'zbekiston Respublikasi Konstitustiyasi qoidalarida, ushbu sohaga tegishli 22 qonunda o'z ifodasini topgan. Mamalakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng qabul qilingan dastlabki qonun hujjatlaridan biri – bu 1991 yil 20 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi qonundir. Ayni paytda, bu davrda ko'plab maqsadli davlat dasturlari ham hayotga muvaffaqiyatli tatbiq etildi. Bu boradagi ishlarning yuqori samaradorligi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hamda jamoat tuzilmalari, shu jumladan, o'z saflarida 5,5 million yigit-qizni birlashtirgan "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati, "Mahalla" xayriya jamoat fondi va boshqa tashkilotlar o'rtasida tobora kengayib borayotgan ijtimoiy hamkorligi natijasida ta'minlanmoqda.

Mamlakatda o'sib kelayotgan yosh avlodning har tomonlama rivojlanishi uchun barcha qulay shart-sharoitlarni yaratib berish borasida olib borilayotgan kompleks chora-tadbirlar xalqimizga xos xususiyat bo'lib, milliy tabiatimizning uzviy qismiga aylandi. Har bir oilada, har bir mahallada, eng avvalo, yoshlarning salomatligini ta'minlash, ularga yaxshi bilim berish, ayni paytda yuksak ma'naviy va ahloqiy fazilatlarga ega munosib shaxslar etib voyaga etkazish azaldan muhim masala bo'lib kelgan. Mustaqillik yillarida ushbu vazifalar O'zbekistonda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi va bu esa barcha sohalarda yuksak yutuqlarga erishish imkonini bera boshladi.

Salomatlikni ta'minlash, uzluksiz ta'lim va barkamol yosh avlodni tarbiyalash bo'yicha mamlakatimizda yaratilgan milliy modellar butun dunyoda yuksak baholanmoqda. Jumladan, 2011 yilning noyabrida "O'zbekistonda ona va bola salomatligini muhofaza qilishning milliy

modeli: "Sog'lom ona – sog'lom bola" mavzuida Toshkentda bo'lib o'tgan xalqaro simpoziumda nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan bu borada amalga oshirilgan ishlarga yuqori baho berildi va ular boshqa mamlakatlar uchun namuna sifatida e'tirof etildi. 2012 yilning fevralida poytaxtimizda o'tgan "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizastiya qilishning eng muhim sharti" xalqaro konferenstiyasida O'zbekistonda yaratilgan uzluksiz ta'lim va tarbiya milliy tizimi boshqa davlatlar uchun namuna deb e'lon qilindi.

Mustaqillik yillarida demokratik va bozor o'zgarishlari talablariga mos ravishda ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimida tub islohotlar amalga oshirildi. Ushbu nihoyatda muhim sohadagi chuqur islohotlar 1997-yil 29- avgustda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, ayni paytda ko'lami, qamrovi va maqsadlariga ko'ra o'ta noyob Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida amalga oshirildi. Mamlakatimizda ta'lim shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnik va madaniy ehtiyojlarini ta'minlaydigan ustuvor soha, deb e'lon qilindi. Mavjud ta'lim muassasalarini davr talablarini hisobga olgan holda isloh qilishdan tashqari MDH davlatlarida o'xshashi yo'q yangi turdagi o'quv yurtlari – kasb-hunar kollejlari va akademik listeylar tashkil etildi. Shu tarzda iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning barcha tarmoqlari uchun yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga, yoshlarni ma'naviy-ahloqiy va har tomonlama ijodiy rivojlantirishga yo'naltirilgan uzluksiz o'quv-ilmiy-ishlab chiqarish ta'limining noyob yaxlit tizimi shakllantirildi.

2003-yil 1-iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining istiqbolli yosh pedagog va ilmiy kadrlar malakasini oshirish "Iste'dod" jamg'armasi tuzilib, u keng ko'lamli ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Uning faoliyati mamlakatimizda ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga, barcha hududlarda o'quv jarayoniga zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni joriy etish, yosh pedagoglar va olimlarning kasbiy bilimlari va ko'nikmalarini oshirishga yo'naltirildi. Oliy, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari va maktablar xodimlari uchun o'nlab kunduzgi va masofaviy ta'lim dasturlari ishlab chiqildi. Hozirgi paytgacha jamg'armaning faqat kunduzgi kurslarida 10 mingdan ziyod pedagog va ilmiy kadrlar o'z malakasini oshirdi.

Mamlakatimizning jahon maydonidagi nufuzi va raqobatbardoshligini oshirish ko'p jihatdan yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini yuksaltirishga bog'liqdir. Shu sababli iqtidorli

yoshlarni aniqlash va rag'batlantirishga, yosh avlodning zamonaviy dunyoqarashini, ijodiy va shaxsiy xususiyatlarini milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti ta'sis etildi, unga o'qishda, ijodiy va jamoat ishlarida katta yutuqlarga erishayotgan qizlar munosib ko'riladi. San'at sohasidagi yutuqlari uchun eng iqtidorli yosh raqqosalar, musiqachilar va xonandalarga "Nihol" mukofoti berish an'anaga aylandi.

O'zbekistondagi yoshlar siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri iqtidorli yoshlarni ilm-fanga keng jalb etishdir. Hozirgi davrga kelib o'quv yurtlari, birinchi navbatda kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ish bilan ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Muayyan ishlab chiqarish korxonalari va tarmoqlar uchun maqsadli ravishda kadrlar tayyorlash keng qo'llanilmoqda, o'quv yurtlari, korxonalar va o'quvchilar o'rtasida uch tomonlama shartnomalar imzolanmoqda va bu bitiruvchilarning kelgusida ish bilan ta'minlanishini kafolatlaydi. Shu maqsadda kasb-hunar kollejlarining ish beruvchi korxonalar bilan kooperastiya aloqalarining boshqa shakllaridan ham foydalanilmoqda. Mamlakatimizda har yili minglab ish o'rinlari tashkil qilinadi, bunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi muhim o'rin tutadi.

Mamlakatda mustaqillik yillarida yoshlarning har tomonlama rivojlanishi uchun yanada qulay shart-sharoit va imkoniyatlar yaratib borildi. Jumladan, mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan yosh oilalarga zarur yordam ko'rsatish, amaliy rag'bat va barqaror daromad manbalarini shakllantirish mexanizmini yaratish, ularning turar-joy va maishiy shart-sharoitlarini yaxshilash maqsadida 2007-yil 17-mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yosh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Har bir hududda yangi ish o'rinlari tashkil etish, yoshlarni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka faol jalb qilish, yosh oilalarga o'z biznesini tashkil etishi uchun mikrokreditlar ajratish ishlari kuchaydi. Bugun O'zbekistonda yosh oilalarga ipoteka va iste'mol kreditlari ajratish orqali uy-joy sotib olish yoki qurishda, ro'zg'orini butlashda har tomonlama yordam ko'rsatilmoqda.

Mamalakatdagi yoshlarga oid davlat siyosati muhim siyosiy yo'nalish sifatida izchil jarayon bo'lib, u yoshlar mavqei va hayoti bilan bog'liq bo'lgan voqelikning bosh xususiyatlarini o'zida mujassam etadi. Shu nuqtai nazardan, yoshlarga oid davlat siyosati siyosiy yo'nalish

sifatida O‘zbekistonning mustaqillik yillari tarixida yuz bergan hamda davlat tomonidan maqsadli amalga oshirilgan yoshlarga oid barcha ijtimoiy o‘zgarishlar, tub islohotlar, transformastiya jarayonlarini bosib o‘tdi. Ya’ni yoshlarga oid davlat siyosati yoshlar hayotini demokratik tamoyillar asosida ijtimoiy tashkillashtirish, yoshlar va davlat o‘rtasidagi munosabat-larni pozitiv asosda qurish, yoshlar manfaatlari va qadriyatlarining davlat manfaatlari bilan muvofiqligini ta’minlash uchun olib borilgan sa’y-harakatlar va maqsadlar majmuini tashkil qiladi.

Yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iboratdir:

- yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash;
- yoshlarning hayoti va sog‘lig‘ini saqlash;
- yoshlarning ma’naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashish;
- yoshlar uchun ochiq va sifatli ta’limni ta’minlash;
- yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish;
- yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash;
- yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalaridan himoya qilish;
- yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish;
- iqtidorli va iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish;
- yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- yoshlarda sog‘lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, shuningdek yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va yoshlar sportini ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- yosh oilalarni ma’naviy va moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ular uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish;

- yoshlarning huquqlari va erkinliklarini ro'yobga chiqarish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish.

O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati borasida olib borilayotgan tadbirlarning barqarorligiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil etish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatining yo'nalishlarini aniqlashtirib olishni talab etadi. Bular quyidagilarni qamrab oladi:

1. "Barkamol avlod" yo'nalishi;
2. "O'zbekiston Respublikasi fuqarosi" yo'nalishi;
3. "Yoshlar va ijtimoiy himoya" yo'nalishi;
4. "Yosh oila" yo'nalishi;
5. "Yoshlar professionalizmi" yo'nalishi;
6. "Yoshlar axborot makonida" yo'nalishishi.

Birinchi yo'nalish – «Barkamol avlod yo'nalishi», aytish mumkinki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatining negizini tashkil etadi. Bu yo'nalishda ishlab chiqilgan Davlat dasturlarining amalga tatbiq etilishi aholi, ayniqsa, bolalar va yoshlar salomatligiga e'tiborning ortishi bilan birga kechmoqda. Bu yo'nalishdagi chora-tadbirlar yillar davomida takomillashtirib borildi. Bir qator nufuzli xalqaro institutlarning baholashicha, O'zbekiston dunyoning 125 davlati orasida xotin-qizlar uchun qulay sharoitlar yaratish va onalikni muhofaza qilish borasida etakchi o'rinlardan birini egallab turibdi. Buni YUNISEFning Sharqiy Yevropa, Boltiqbo'yi va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari bo'yicha ofisi tomonidan onalik va bolalikni muhofaza qilish borasidagi dasturlarni joriy qilishda O'zbekistonning mintaqadagi namunaviy model sifatida e'tirof etilgani ham isbotlaydi.

Yoshlarni huquqbuzarliklar, zararli illatlar, ekstremistik g'oyalar va "ommaviy madaniyat" ta'siridan himoya qilish bugungi globalizastiya sharoitida yanada muhim ahamiyat kasb etadi. 2010-yilda O'zbekiston Respublikasining "Voyaga etmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni va 2011 yil 5 oktyabrda "Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqalishi hamda iste'mol qilinishini cheklash to'g'risida"gi Qonunining qabul qilinishi ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturining amalga oshirilishi natijasida o'tgan yillar mobaynida ta'lim tizimini tubdan yangilash va isloh etish bo'yicha

miqyosi va ko'lamiga ko'ra ulkan ishlar amalga oshirildi. Qariyb 9,5 ming yoki mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan maktablarning deyarli barchasi yangitdan qurildi, kapital rekonstrukstiya qilindi va zamonaviy o'quv-laboratoriya asbob-uskunalari bilan ta'minlandi. Mamlakatimizda 1500 dan ortiq yangi kasb-hunar kolleji va akademik listeylar barpo etildi.

Ikkinchi yo'nalish – Respublikamizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitustiyasining 18-moddasida "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar". Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat tamoyillariga mos bo'lishi shart deb belgilab qo'yilgan. Bugun huquq va burchlarini chuqur anglab etgan, yangicha fikrlaydigan, o'z kelajagini jamiyatda demokratik qadriyatlarni mustahkamlash bilan, mamlakatimizning kelajagini jahon hamjamiyatiga integrastiyalashuvi bilan bog'liq holda ko'radigan yangi avlod vakillari hayotga dadil kirib kelmoqda.

Uchinchi yo'nalish – «Yoshlar va ijtimoiy himoya» yo'nalishi, avval boshdanoq, respublikamiz yoshlarga oid davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lib kelmoqda. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ijtimoiy himoyaning huquqiy asoslari yaratildi, sohaga doir qariyb 90 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Davlat tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy siyosatni qo'llab-quvvatlashda boshqa nodavlat tashkilotlari ham munosib o'rin tutadi. Respublikamizda yoshlar uchun:

- bepul tibbiy xizmat;
- bepul ta'lim olish;
- sog'lomlashtirish va madaniy-ma'rifiy muassasalarga imtiyozli shartlarda qatnash;
- uy-joy qurish uchun imtiyozli kreditlar berish;
- dastlabki mehnat faoliyati uchun ish joyi bilan ta'minlanish yoki amaldagi qonunlarga muvofiq moddiy kompensastiya olish huquqi;
- ijtimoiy infrastruktura ob'ektlarini loyihalash va qurish chog'ida yoshlarning talab-ehtiyojlarini hisobga olish;
- o'quvchilar, talaba yoshlar va voyaga etmagan fuqarolar uchun transportda yurish imtiyozlari;
- voyaga etmaganlarga kompensastiya to'lovlarini kafolatlovchi ijtimoiy ta'minlanish minimumi belgilanadi.

To'rtinchi yo'nalish – «Yosh oila» yo'nalishi. Oila xalqimizda muqaddas dargoh sanaladi. 2012-yilni mamlakatimizda "Mustahkam oila yili" deb nomlanishi, unga muvofiq qabul qilingan davlat dasturini amalga oshirish o'z samarasini berdi. Hozirgi kunda O'zbekistonda salkam 7 *mln* oila yashaydi, shundan 995 mingdan ortig'i yosh oilalar hisoblanadi. Ya'ni, respublikamizda yosh oilalar jami oilalarning 16% ini tashkil etadi. Barkamol yosh avlod, avvalo oilada ulg'ayadi. Umuman, bu borada amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar turli yillarning nomlanishida ham o'z aksini topib kelmoqda. Xususan, 1998-yil – Oila yiliga bag'ishlab ishlab chiqilgan Davlat dasturida belgilangan chora-tadbirlarning ijrosi orqali oilani ijtimoiy himoya qilish ko'lamlarini yanada kengaytirish va kuchaytirishga erishildi. "Yoshlar yili" deb nomlangan 2008-yilda yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida 30 mlrd. so'mdan ziyod imtiyozli kreditlar ajratildi.

Beshinchi yo'nalish – "Yoshlar professionalizmi" yo'nalishi. Bu shuni anglatadiki, yosh avlodga zamon talabi darajasida ta'lim-tarbiya va kasbga ko'nikma bergan holda uning jamiyatdagi mehnat bozoriga kirib borishini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturiga muvofiq, mamlakatimizda «9+3» sxemasi bo'yicha 12 yillik umumiy majburiy bepul ta'lim tizimi joriy etildi. Umumta'lim maktabidagi 9 yillik o'qishdan so'ng o'quvchilar keyingi 3 yil davomida ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejlari va akademik listeylarda ta'lim olib, ularning har biri umumta'lim fanlari bilan birga mehnat bozorida talab qilinadigan mutaxassislik bo'yicha kasb-hunarlarni egallamoqda. O'tgan yillar davomida 1573 ta yangi turdagi akademik listey va kasb-hunar kollejlari barpo etildi. Bugungi kunda mavjud 143 ta akademik listey va 1430 ta kasb-hunar kollejida 1 million 700 mingga yaqin o'G'il-qizlar ta'lim olishmoqda. Kasb-hunar sirlarini egallagan yoshlar xalq xo'jaligining turli sohalarida faoliyat yuritmoqdalar. Umumta'lim maktablari, akademik listey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining xalqaro fan olimpiadalaridagi ishtiroki ham yildan-yilga kengayib bormoqda.

Oliy ta'lim tizimini rivojlantirish konstepstiyasi asosida mamlakatimizda ikki bosqichli bakalavriat va magistratura tizimiga o'tildi. Bugungi kunda yoshlarimiz 75 ta oliy o'quv yurtida xalqaro andozalarga mos shart-sharoitlarda ta'lim olmoqda. Jahondagi nufuzli universitetlar bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatildi. Jumladan, Toshkentda Buyuk Britaniyaning xalqaro Vestminster universiteti,

Italiyaning Turin politexnika universiteti, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, Koreyaning Inxa universiteti, Gubkin nomidagi Rossiya neft va gaz davlat universiteti, Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti, Lomonosov nomidagi Rossiya davlat universitetlari filiallari tashkil etildi. Iqtidorli talabalarni har tomonlama rag'batlantirish, ularga o'z iste'dodlarini namoyon etishlari uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti stipendiyasi, Alisher Navoiy, Ulug'bek, Beruniy, Ibn Sino nomidagi davlat stipendiyalari ta'sis etildi.

Oltinchi yo'nalish – «Yoshlar axborot makonida» yo'nalishi bugungi murakkab globallashuv davrida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Butunjahon axborot tarmog'i orqali "ommaviy madaniyat" niqobi ostida milliy manfaatlarimiz, mafkuramiz, ma'naviy-axloqiy qarashlarimizga yot zararli g'oyalarni yoshlar ongiga singdirishga urinishlar ham kuzatilmoqda. Shuning uchun ham davlatimiz hozirgi davrga kelib axborot-kommunikastiya texnologiyalarini jadallik bilan rivojlantirishga muhim ahamiyat bermoqda, "elektron hukumat" tizimiga jamiyatning barcha tarmoqlari ulanmoqda.

2016-yil 14-sentyabrda yangi O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinib (mazkur qonun asosida O'zbekiston Respublikasining 1991 yil 20 noyabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi Qonuni bekor qilindi), u 4 ta bob, 33 ta moddada mujassamlashdi. U oldingi qonundan fuqarolik jamiyati talablariga javlb berishi, yoshlarni ijtimoiy himoyalashga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

Qonunda ishlatilgan tushunchalarga quyidagi ta'riflar berildi:

yoshlarga oid davlat siyosati – davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa

yo'nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar tizimi;

yoshlar (yosh fuqarolar) – 14 yoshga to'lgan va 30 yoshdan oshmagan shaxslar;

yosh oila – er-xotinning ikkisi h am o'ttiz yoshdan oshmagan oila yoxud farzand (bola) tarbiyalab voyaga etkazayotgan 30 yoshdan oshmagan yolg'iz otadan yoki yolg'iz onadan iborat bo'lgan oila, shu jumladan nikohdan ajralgan, beva erkak (beva ayol);

yosh mutaxassis – oliy yoki o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi

muassasasini bitirgan, ta'lim muassasasini bitirganidan so'ng olgan ixtisosligi bo'yicha 3 yil ichida ishga kirgan va ma'lumoti to'g'risidagi hujjatda ko'rsatilgan ixtisosligi bo'yicha ishlayotganiga 3 yildan ko'p bo'lmagan 30 yoshdan oshmagan xodim;

yoshlar tadbirkorligi – yuridik shaxs tashkil etmagan holda yosh fuqarolar tomonidan, shuningdek ta'sischilari yosh fuqarolar bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyati.

Qonunning 5-moddasida yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlri o'zida insoniy va demokratik jihatlar mujassamlashtirgani bilan ajralib turadi:

yoshlarning huquqlar i, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash;

yoshlarning hayoti va sog'lig' ini saqlash;

yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish;

yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash;

yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish;

yoshlarni vatan parvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqim larga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash;

yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalaridan himoya qilish;

yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish;

iqtidorli va iste'dodli yosh larni qo'llab-quvvatlash hamda raG'batlantirish;

yoshlar tadbirko rligini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

yoshlarda sog'lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, shuningdek yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va yoshlar sportini ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

yosh oilalarni ma'naviy va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ular uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish;

yoshlar ning huquqlari va erkinliklarini ro'yobga chiqarish sohasida

faoliyatni amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish.

Qonunning fuqarolik jamiyatiga xos bo'lgan muhim jihatlaridan biri — bu yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda mahallalar, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalarining o'rnini aniq belgilab qo'yilganligidir. Ayniqsa, mazkur tuzilmalar huquqlarida yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi qonun hujjatlarining ijro etilishi, davlat dasturlarining va hududiy dasturlarning ro'yobga chiqarilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish belgilangani mamlakatimizning kuchli fuqarolik jamiyati sari intilayotganligini anglatadi.

Shuningdek, qonunda yoshlarning huquqiy va ijtimoiy himoyasiga alohida ahamiyat berilib, unda yosh fuqarolarning huquqlari va erkinliklari qonunda belgilangan hollardan tashqari cheklanishi mumkin emasligi qayd etildi: ya'ni qonunosti hujjatlari bilan yoshlarning huquq va erkinliklari cheklanishi mumkin emas. Qonunda ta'lim muassasalarida o'qish uchun imtiyozli kreditlar berish, etim bolalarni va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni turar-joylar bilan ta'minlash, o'rta maxsus, kasb-hunar yoki oliy ta'lim muassasasini bitirganidan keyin bandlikni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish kabi yoshlarni ijtimoiy himoya qilishning oldinlari qonunda bo'lmagan davlat kafolatlari belgilandi.

Mustaqillik davrida yoshlar tarbiyasi, ular orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, jinoyatchilikning oldini olishda, bandlikni ta'minlashda Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida", "Ta'lim to'g'risida", "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida", "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida", "Voyaga etmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida", "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi kabi bir necha qonun va dasturlarning qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi.

3. Mamlakatda barkamol avlodni shakllantirishning yangi bosqichi

2016-yilning so'nggi choragida Sh.M.Mirziyoevning davlat rahbari sifatigi faoliyati boshlanganidan keyin davlatimizning yoshlar siyosatida rivojlangan mamlakatlar tajribasi va fuqarolik jamiyati talablariga xos bo'lgan jihatlar shakllana boshladi. 2017-yil 30-iyun kuni "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining Yoshlar ittifoqiga aylantirilishi, ana shu

ishlarning mantiqiy davomi bo'lib, davlat tomonidan yoshlar borasida olib borilayotgan siyosatni yana bir pog'ona yuqoriga olib chiqdi. Shuningdek, yangi nizom va uslubda ish olib borilishi ko'zda tutilgan mazkur Ittifoq oldiga yoshlar orasiga tobora chuqurroq kirib borish, jamiyat ravnaqi yo'lida faol ishtirok etish kabi dolzarb vazifalar yuklandi.

O'zbekistonda Prezident Sh.M.Mirziyoev tomonidan mamlakatda fuqarolik jamiyati qurishning "Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan g'oyasi asosida boshlangan islohotlar natijasida yoshlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatlardan himoyalash, ularnisalohiyatini ro'yobga chiqarishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, ularni fuqarolik jamiyati qurish islohotlaridagi ishtiroklarini faollashtirish davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishi sifatida e'lon qilindi.

Prezident Sh.M.Mirziyoev yoshlar qurultoyidagi (2017-y. 30-iyun) nutqida mamlakat yoshlari vakillariga qarata quyidagi fikrlar bilan murojaat etdi: "O'zbekiston yoshlari rasmiyatchilikdan, kampaniyabozlikdan xoli, navqiron avlod manfaatlarining haqiqiy himoyachisibo'la olad igan demokratik yoshlar tashkilotini tuzish haqida o'z xohish-istaklarini bildirmoqda. Bunda ilgarigidek barcha yoshlarni bir tashkilotga «ixtiyoriy-majburiy» asosda birlashtirish emas, aksincha, ularning orzu-intilishlari, hayotiy va kasbiy qiziqish doirasi, ijti-moiy maqsadlari bo'yicha uyushtirish to'g'ri bo'ladi, degan takliflar ilgari surilmoqda Mening nazarimda, bunday fikrlarda chuqur asos va mantiq bor. Bu taklifning afzalligi shundaki, u mamlakat yoshlarining barcha toifa va guruhlarini qamrab oladi, eng muhimi, ularni demokratik prinstiplar asosida birlashtiradi. Bu, o'z navbatida, bugun O'zbekistonda olib borilayotgan demokratik islohotlar jarayoni bilan hamohang ekani ayniqsa e'tiborlidir. Ana shularning barchasini hisobga olib, mamlakatimizda yoshlarning chinakam suyanchi va tayanchi bo'la oladigan mutlaqo yangi tashkilot – **O'zbekiston yoshlar ittifoqini** tashkil etsak, nima deysizlar?". Mazkur purhikmat so'zlardan ko'rinib turibdiki, davlatimiznig yoshlarga oid siyosati hozirgi davrdi o'zining insonga, uning sha'niga, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlagan holda fuqarolik jamiyatiga xos bo'lgan insoniy birlikni shakllantirishga qaratilgandir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyulda qabul qilgan "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi

farmoni mamlakatda yoshlarni ijtimoiy qilish, ularni o‘z salohiyatlarini ro‘yobga chiqarishi uchun imkoniyatlar yaratishda tarixiy o‘zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgani bilan ajralib turadi.

Farmonga muvofiq, yoshlarga oid davlat siyosatini izchil va samarali amalga oshirish, yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini tubdan isloh etish maqsadida O‘zbekiston “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati negizida O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil etildi. O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil topgan kun – 30 iyun sanasi mamlakatimizda “Yoshlar kuni” sifatida nishonlanadi. Shuningdek, O‘zbekiston yoshlar ittifoqiga 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi doirasidagi islohotlarda yoshlar faolligini oshirish bilan bog‘liq bir qator yangi va muhim vazifalar qo‘yildi.

Farmonga binoan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devonida Yoshlar siyosati masalalari xizmati tashkil etilib, unga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar siyosati masalalari bo‘yicha Davlat maslahatchisi – O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi raisi rahbarlik qilishi belgilandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar siyosati masalalari bo‘yicha Davlat maslahatchisi – O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi raisi o‘z lavozimiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadigan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining a’zosi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda yaqindan ko‘maklashish, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etuvchi vakolatli idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish, O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonuni talablarini hayotga to‘laqonli joriy etish va nazorat o‘rnatish maqsadida Yoshlar masalalari bo‘yicha respublika idoralararo kengashi tashkil etildi. Ayni paytda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi raisi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar va shaharlar hokimlari raisligida Yoshlar masalalari bo‘yicha hududiy idoralararo kengashlar faoliyat yuritadi.

Shu bilan birga, 2017-2018 o‘quv yilidan boshlab umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “katta etakchi” va “to‘garak rahbari” shtat birliklarini tugatish hisobiga lavozim maoshi yuqori sinf o‘qituvchisiga tenglashtirilgan “yoshlar etakchisi” shtat birligi joriy etildi. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida “yoshlar etakchisi” vazifasi

yuklatilgan xodimga o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasasining direktor jamG‘armasi mablaG‘lari hisobidan oliy ma’lumotli o‘qituvchi bazaviy tarif stavkasining 50 foizi miqdorida har oylik ustama belgilanadi.

O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi qoshida yoshlarning xohish va intilishlaridan kelib chiqib, yoshlar uyushmalari hamda yoshlarga ijtimoiy-psixologik yordam ko‘rsatish markazlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi qoshida Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti tashkil etilishi Farmonda belgilab berilgan.

Ta’lim muassasasini tamomlaganiga uch yil bo‘lmagan, birinchi marta ishga qabul qilingan yoshlarga daromad solig‘ini birinchi yil uchun 50 foiz, ikkinchi va uchinchi yillar uchun esa 25 foizga kamaytirish, shuningdek, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi qoshida turli fanlar, jumladan, chet tillarni o‘rgatish, kompyuter dasturlarini tuzish va tadbirkorlik asoslarini o‘qitish maqsadida tashkil etiladigan sho‘’ba korxonalarini 2027-yil 1-avgustga qadar barcha soliqlardan ozod etish, bunda korxona ixtiyorida qoladigan summaning 20 foizini O‘zbekiston yoshlar ittifoqining rivojlantirish jamg‘armasiga o‘tkazish amaliyoti joriy etiladi.

O‘zbekiston yoshlar ittifoqining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar va shaharlar kengashlari raislari tegishliligi bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar va shaharlar hokimlarining yoshlar siyosati, masalalari bo‘yicha maslahatchisi hisoblanadi va maqomi bo‘yicha ularning birinchi o‘rinbosarlariga tenglashtirildi. Respublika-mizning tuman markazlari va shaharlarda Yoshlar tadbirkorlik klasterlari tashkil etiladi. Foydalanilmayotgan davlat ob’ektlarini, shuningdek, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalaridagi ob’ektlarni O‘zbekiston yoshlar ittifoqining a’zosi bo‘lgan yosh tadbirkorlarga to‘lovsiz ijaraga berish tartibi joriy etiladi.

2017-yilning ikkinchi yarmida O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan o‘zaro hamkorlik aloqalarini o‘rnatish yo‘lida katta amaliy sa’y-harakatlarni amalga oshirdi. Xususan, “Taraqqiyot strategiyasi” markazi, Kinematografiyani rivojlantirishga ko‘maklashish markazi, O‘zbekiston Fermerlari kengashi, Kasaba uyushmalari federastiyasi, Savdo-sanoat palatasi,

Xotin-qizlar qo'mitasi, Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Fan va texnologiyalar agentligi bilan hamkorlik bitimlari imzolandi. Ushbu hujjatlar asosida ta'lim muassasalarida 11 ming 266 ta, madaniyat, sport va sog'liqni saqlash sohalarida 3 ming 200 ta, tadbirkorlik sub'ektlari va fermer xo'jaliklarida 3 ming 755 ta, jamoat tashkilotlarida 2 ming 365 ta hamda vazirlik, idora va tashkilotlarning respublika boshqaruv organlarida 50 ta Etakchilar kengashi tuzilib, faoliyat olib bormoqda.

Yoshlarning xohish va intilishlaridan kelib chiqib tashkilot qoshida mustaqil huquqiy maqomga ega yigirmaga yaqin yangi tuzilma: Respublika yosh olimlar kengashi; Yosh ijodkorlar kengashi; Yoshlar turizmi agentligi; Yoshlar nashriyot uyi, Yosh kinoijodkorlar uyushmasi, O'zbekiston yosh fermerlari assostiastiyasi, Yoshlarga ijtimoiy-psixologik xizmat ko'rsatish markazi, Imkoniyati cheklangan yoshlar va bolalar markazi, O'zbekiston yosh tadbirkorlar assostiastiyasi, "Yoshlar ovozi" radiosi va boshqalar faoliyati yo'lga qo'yildi. Shu bilan birga, Ittifoqning Markaziy Kengashi qoshida Yoshlar press-klubi tashkil etildi.

Yosh oilalarni yanada qo'llab-quvvatlash, uy-joy va maishiy sharoitlarini yaxshilash maqsadida 2018–2021-yillarga mo'ljallangan Yoshlar uylarini barpo etish dasturi ishlab chiqildi. Uning ijrosi doirasida barcha yirik shaharlarda ko'p qavatli, qishloqlarda esa, bir-ikki qavatli namunaviy loyihalar asosida 29 ta arzon uy qurilib, 1 ming 12 nafar yosh oilaga imtiyozli kredit asosida taqdim etiladi.

Mamlakatimizda jadal amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va demokratik o'zgarishlarning mazmun-mohiyatini yoshlarga to'laqonli tushuntirish, yoshlarni, jumladan, uyushmagan yoshlarni o'ylantirayotgan muammolarni aniqlash, ularni hal etishga ko'maklashish, takliflarini qo'llab-quvvatlash va intilishlarini ro'yobga chiqarish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida tashkil etilgan "Fidoying bo'lgaymiz seni, O'zbekiston!" shiori ostidagi "Yoshlar poezdi" tarG'ibot akstiyasi Yoshlar ittifoqining eng yirik loyihalaridan biriga aylandi.

Qisqa muddat ichida 47 vazirlik va idora, 10 mingga yaqin ta'lim muassasasi hamda 3 ming 25 ta korxona va tashkilotda O'zbekiston yoshlar ittifoqi boshlanG'ich tashkilotlari tuzildi, shuningdek, o'n bir yillik ta'lim tizimiga o'tish munosabati bilan bo'shab qolgan 46 ta tuman va shahardagi kollejlar bazasida Yoshlar markazlarining tantanali ochilish marosimlari bo'lib o'tdi

Respublikaning barcha tuman va shaharlarida O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tashabbusi bilan tashkil etilgan mehnat yarmarkalari natijasida ikki ming nafardan ortiq uyushmagan yoshning ishga joylasha olgani ham tahsinga loyiq jihatdir. Bundan tashqari, Ittifoqning tuman va shahar kengashlari qoshida tashkil etilgan yosh tadbirkorlar konsultativ markazlari 580 nafar yigit-qizga tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yishda ko‘mak bergan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahrida ichki ishlar idoralarida profilaktik hisobda turuvchi voyaga etmagan yoshlar uchun hududlarda tarbiya va sport sog‘lomlashtirish oromgohlari tashkil etildi. Loyihaga 3 ming 561 nafar yosh jalb qilinib, shundan 2 ming 523 nafarini ichki ishlar idoralarida profilaktik hisobda turuvchi voyaga etmaganlar, 1 ming 38 nafarini kam ta’minlangan, boquvchisini yo‘qotgan oila farzandlari tashkil etdi.

2017 yilning iyul-avgust oylari mobaynida 6 ming 665 nafar yosh tadbirkor, 3 ming nafardan ziyod yosh fermer hamda 5 ming nafardan ortiq uyushmagan yoshni qamrab olgan holda joylarda yosh tadbirkorlarning muammolari hamda taklif-istaklarini o‘rganishga qaratilgan ochiq muloqotlar tashkil etildi. Ishtirokchilar tomonidan tilga olingan 653 ta muammo jamlanib, ularni bartaraf etish yuzasidan alohida chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi va ijroga qaratildi. Shu bilan birga, muloqotlarda qatnashgan yoshlar uchun kichik iqtisodiy va sanoat zonalari hamda ishlab chiqarish korxonalariga biznes-sayohatlar tashkil etildi. 17-20 sentyabr kunlari Orol dengizining bugungi kundagi holatini o‘rganish hamda bu fojiaga keng jamoatchilik e’tiborini yana bir bora qaratish maqsadida Qoraqalpog‘iston Respublikasining Mo‘ynoq tumaniga yoshlar ekspedistiyasi uyushtirildi. Unda yosh olimlar, gid-ekskursovodlar, fotosuratchilar, bloger va jurnalistlar ishtirok etdi. 25 nafar kishidan iborat ekspedistiya a’zolari uch kun mobaynida Orolbo‘yi mintaqasida istiqomat qilib, u erdagi haqiqiy holat bilan yaqindan tanishdi. Ekspedistiya davomida **“#SaveAral”** (“Orolni asra”) guruhi tashkil etilib, Orol dengizi sohilida istiqomat qiluvchi aholi hamda sayyohlar tibbiy ko‘rikdan o‘tkazildi.

Yoshlarni foydali mehnat bilan band qilish, ularni moddiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida O‘zbekiston yoshlar ittifoqi paxta yig‘im-terimi mavsumida jonkuyar fermerlarimizga elka tutishga oshiqdi. Shu niyatda respublika bo‘ylab ko‘ngilli, shu jumladan, uyushmagan yoshlardan iborat “Fidoyi yoshlar” otryadlari tuzildi. Ayni vaqtda, “Fidoyi yoshlar” mamlakatimiz paxta xirmonini to‘ldirishga munosib hissa qo‘shdi.

O‘zbekiston yoshlar ittifoqi va mamlakat yoshlarning xalqaro maydondagi faoiyati ham beqiyos darajada o‘sdi. Jumladan, O‘zbekistonda BMTning Aholishunoslik jamg‘armasi (YuNFPA) mamlakat Hukumati, joylardagi hukumat idoralari bilan hamkorlikda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyalarni ishlab chiqishda qo‘llanadigan demografik ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish bo‘yicha keng ko‘lamli tadbirlarni amalga oshirdi. Sog‘liqni saqlash vazirligi bilan esa, YuNFPA butun O‘zbekiston bo‘ylab bolalar va yoshlar sifatli birlamchi tibbiy-sanitariya yordamidan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilashga qaratilgan tashabbuslarini hayotga tadbiq etib kelmoqda. BMT yordamida Sog‘liqni saqlash vazirligi yoshlarga yanada sifatliroq va aynan yoshlarga mo‘ljallangan tibbiy xizmatlarni ko‘rsatishga erishmoqda. BMTning Taraqqiyot dasturi esa, Savdo-sanoat palatasi bilan hamkorlikda yoshlar orasida tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish, tadbirkor yoshlarga keng yo‘l ochib berishni ko‘zlab, bir qator keng ko‘lamdagi tashabbuslarni amalga oshirib kelmoqda. Xotin-qizlar qo‘mitasi bilan hamkorlikda olib borilayotgan ishlar doirasida yosh ayol va qizlarda etakchilik qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar ham amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, yoshlarga sarmoya ajratish masalasiga BMT alohida urg‘u bermoqda. Ayniqsa, yoshlar uchun sog‘liqni saqlash va ta’lim tizimini takomillashtirishga va shuning hisobiga kelajakda sog‘lom va yuqori toifali mutaxassislarni tayyorlashga katta e’tibor qaratmoqda. sog‘liqni saqlash va ta’lim tizimini yanada takomillashtirish dasturlarining amalga oshirilishi tufayli, endilikda barcha bolalar va yoshlar aynan ularning manfaatlari va ehtiyojlarini inobatga oluvchi xizmatlardan foydalanish imkoniga ega bo‘lib, kelajakda o‘z yurtining iqtisodiy taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shishga qodir bo‘lgan sog‘lom, bilimli, dono insonlarga aylanishi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Ushbu maqsadlarga yo‘naltirilgan sarmoyalar tufayli, endilikda mamlakatlar o‘zining odam resurslari, ya’ni “demografik dividendi”, etuk mutaxassislari sonini ko‘paytirib, yangi yutuqlarga erishmoqda.

BMTning O‘zbekistondagi Doimiy vakili Xelena Freyzerning yoshlar masalasiga bag‘ishlangan ma’ruzasidagi quyidagi fikrlar uning chin e’tirofini ifodalaydi: “O‘zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoev BMTning Bosh Assambleyasida so‘zga chiqib “ertangi kunimiz, sayyoramizning farovonligi bolalarimiz qanday inson bo‘lib ulg‘ayishiga bog‘liq”, deb ta’kidladi. Uning so‘zlari amalda aniq

ishlarda mujassam bo'ldi, zero joriy yilning 30 iyun kuni "Yoshlar kuni" deb e'lon qilinib, shu kunning o'zida "Harakatlar strategiyasi 2017-2021"ga muvofiq O'zbekiston yoshlar ittifoqi vujudga keldi. Mazkur tashkilotga yoshlar irodasini izhor etish, ularning jamiyat hayotidagi ishtirokini ta'minlash, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish kabi vazifalar yuklatildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat yoshlar siyosatining samaradorligini oshirish va O'zbekiston Yoshlar ittifoqining faoliyatini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bilan "Yoshlar bo'yicha umumjahon harakatlar dasturi"ga muvofiq bo'lgan 12 ta asosiy vazifalar belgilandi. Bundan tashqari, o'tgan haftada Vazirlar Mahkamasining "Yoshlar tadbirkorligi klasterlarini yaratish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Konstitustiyangiz bilan kafolatlangan huquqlaringizni biling, O'zbekiston imzolagan bitimlar va BMT konvenstiyalaridan xabardor bo'ling, hukumat tomonidan siz uchun yaratilayotgan imkoniyatlardan xabardor bo'ling. Oilangiz, jamiyatingiz, yoshlar hamjamiyati, hukumatingiz hayotida faol ishtirok eting. Hayotda unchalik katta imkoniyatlarga ega bo'lmagan insonlarni qo'llab-quvvatlang, ularga yordam bering. Mavjud bo'lgan barcha imkoniyatlardan foydalanib, o'z yurtingiz taraqqiyotiga hissa qo'shing!"

Fuqarolik jamiyati qurish islohotlarining hozirgi bosqichida O'zbekiston yoshlari alohida ijtimoiy qatlam, faol ijtimoiy-siyosiy kuch, hozirgi avlod davomchilari sifatida namoyon bo'lmoqda. Davlatimizning yoshlarga oid siyosati amalda o'zini namoyon qilish davrining boshlanishi natijasi o'laroq yoshlarda o'z atrofida kechayotgan hodisalarni mustaqil baholaydigan, har qanday shart-sharoitlarda o'zining pozitsiyasiga ega bo'lgan yangi sifatlar va fazilatlar shakllanmoqda. Yoshlar o'rtasida jonlanish, ijtimoiy va siyosiy voqeliklarga befarqlik bilan qaramaslik, o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishga intilishlar ko'zga tashlanmoqda. Zero, bu hozirgi fuqarolik jamiyati qurish islohotlarining o'zining qizg'in pallasiga kirganligi bilan izohlanadi.

Nazorat savollari

1. Fuqarolik pozitsiyasi tushunchasiga izoh bering?
2. Fuqarolik madaniyati va mas'uliyatining o'zaro aloqadorligini qanday tushunish kerak?
3. O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qanday ustuvor yo'nalishlarni bilasiz?

4. Yoshlarga oid davlat siyosatining tashkiliy-huquqiy asoslari nimalardan iborat?

5. Barkamol avlodni tarbiyalash g'oyasi va uni amalga oshirish mexnaizmlarini qanday tasavvur qilasiz?

Test savollari

1. Angliyada 9 yoshgacha bo'lgan bolalarni fibrikalarda ishlatish qachondan ta'qiqlangan edi?

A. 1833- yildan
B. 1834- yildan
C. 1835- yildan
D. 1836- yildan

2. Nechanchi yilda Jahon xalqaro hamkorligini rivojlantirish maqsadida tuzilgan Millatlar Ligasining Bolalar ravnaqi qo'mitasini ta'sis etdi?

A. 1919- yilda
B. 1920- yilda
C. 1935- yilda
D. 1936- yilda

3. Qachon BMTning Bosh Assambleyasi Bola huquqlari deklarastiyasini qabul qildi?

A. 1959-yil 20-noyabrda
B. 1960-yil 21-noyabrda
C. 1961-yil 22-noyabrda
D. 1962-yil 23-noyabrda

4. BMTning Bosh Assambleyasi tomonidan "Yoshlar bo'yicha umumjahon harakatlar dasturi" qabul qilindi.

A. 1995- yilda
B. 1996- yilda
C. 1998- yilda
D. 1999- yilda

5. YuNESKOda belgilangan xalqaro me'yorlarga ko'ra necha yoshlar oralig'idagi yigit-qizlarni yoshlar sirasiga kiritadi?

A. 17 yoshdan 25 yoshgacha.
B. 14 yoshdan 30 yoshgacha.
C. 14 yoshdan 35 yoshgacha.
D. 10 yoshdan 30 yoshgacha.

6. Xalqaro huquqiy aktlar asosida qachon O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi?

A. 2008-yil 7-yanvarda.

B. 2009-yil 9-yanvarda.

C. 2010-yil 10-yanvarda.

D. 2010-yil 10-yanvarda.

7. “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi qonun qachon qabul qilingan?

A. 1991-yil 20-noyabrdagi.

B. 1992-yil 22-noyabrdagi.

C. 1990-yil 21-noyabrdagi.

D. 1993-yil 23-noyabrdagi.

8. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini ko‘rsating.

A. “Barkamol avlod” yo‘nalishi; “O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi” yo‘nalishi;

B. “Yoshlar va ijtimoiy himoya” yo‘nalishi; “Yosh oila” yo‘nalishi;

C. “Yoshlar professionalizmi” yo‘nalishi; “Yoshlar axborot makonida” yo‘nalishishi.

D. Barcha javoblar to‘g‘ri.

9. 2016-yil 14 sentyabrda yangi O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilingan edi. U nechta bob, nechta moddada mujassamlashadi?

A. 4 ta bob, 33 ta modda.

B. 5 ta bob, 34 ta modda.

C. 6 ta bob, 35 ta modda.

D. 7 ta bob, 36 ta modda.

10. Qachon “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati Yoshlar ittifoqiga aylantirildi.

A. 2017-yil 30-iyun kuni

B. 2017-yil 8-fevral kuni

C. 2017-yil 8-sentyabr kuni

D. 2017-yil 3-yanvar kuni

XULOSA

Insoniyat tarixining eng qadimgi davridan boshlab, ya'ni ilk insoniy jamoalarga uyushish zarurat sifatida paydo bo'lishi bilan insoniy ijtimoiy birlik – odamlarning jamiyatda uyushib va hamkorlik qilib yashashi uchun ehtiyojlar paydo bo'ldi. Ko'p o'tmasdan nafaqat shunchaki jamiyatda yashash, balki adolatli va fozil jamiyatda yashash masalasi kun tartibiga qo'yildi. Bu jarayonda jamiyatni birlashtirib turish omili sifatida axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirishga muhim e'tibor berila boshlandi. Insoniyatning aynan ana shu orzu-istaklari asosida ideal jamiyatga oid tasavvurlar, siyosiy, falsafiy, diniy qarashlar shakllandi.

Jamiyatni takomillashtirishga doir ilk falsafiy va siyosiy qarashlar qadimgi antik davrda (Platon, Aristotel` kabilar qarashlarida) shakllangan bo'lsa, jamiyatni nafaqat insoniy balki ma'naviy birlik sifatidagi talqinlari Sharq uyg'onish davrida (Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy va boshqalar qarashlarida) shakllandi. Bu davrda «jamiyat» tushunchasi yoniga «adolati» va «fozil» tushunchalari qo'shib talqin etish rusumga kirdi. Ijtimoiy guruhlar, davlat va boshqa institutlarning faoliyati inson manfaatlariga xizmat qilishga, uning huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratila boshlandi.

Zamonviy jamiyat qurishga doir qarashlarning keyingi bosqichi yangi davrda yashagan G'arb mutafakkirlarining (Tomas Gobbs, Jon Lokk, A.Fergusson, I.Kant, Georg Gegel va boshqalar) qarashlarida namoyon bo'la boshladi. Hattoki, bu davrga kelib «fuqarolik jamiyati» tushunchasini izohlash va talqin etishlar ham avj oldi. Shu bilan bir qatorda, bu davrda yashagan mutafakkirlar fuqarolik jamiyati va uning institutlariga doir nazariyalarni shakllantirish bilan bir qatorda jamiyatni tadqiq etishning metodologik asoslarini yaratishga ham ulkan hissa qo'shdilar. Ular yaratgan ilmiy merosning ahamiyatini shundan bilsa bo'ladiki, hozirgi davrga kelib ham fuqarolik jamiyati ular tomonidan shakllantirilgan me'yorlar, nuqtai nazarlar va uslublar asosida tahlil etilmoqda.

O'zbekistonda mustaqillikning ilk davridayoq birinchi Prezident I.A.Karimov tomonidan mamlakatning tarixiy rivojlanish an'analari, demokratik printsiplar va xalqimiz dunyoqarashi, qolaversa, mamlakat milliy manfaatlarini o'zida ifoda etgan fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat va bozor munosabatlariga o'tish davrining nazariy asoslari ishlab

chiqildi va u «O'zbek modeli»da mujassamlashdi. Ana shu asosda rivojlangan mamlakatlarda shakllangan demokratik qadriyatlar, fuqarolik jamiyatiga xos tamoyillar faqat xalqaro tajribalarda sinovlardan o'tganligi uchungina emas, balki o'zbek xalqining milliy manfaatlariga mos kelganligi uchun ham mamlakatdagi islohotlar jarayonlariga bosqichma-bosqich tatbiq etila boshlandi. Fuqarolik jamiyatining iqtisodiy tayanchi bo'lgan mulkdorlar ishtimoiy qatlami shakllandi. Qisqa davr ichida nodavlat notijorat tashkilotlar dastlab jamiyatni o'zini o'zi boshqarish printsipi asosida, ya'ni fuqarolik jamiyatini mustaqil ijtimoiy birlik sifatida yashashini ta'minlash ehtiyojlari va manfaatlariga uyg'un holda paydo bo'ldi, nodavlat notijorat tashkilotlar fuqarolik jamiyatining muhim va eng asosiy institutlaridan biriga aylandi. Shu bilan birga davlat va uning organlari tomonidan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishning huquqiy maqomini mustah-kamlash, mahalla, qishloq, ovul va shaharcha fuqarolar yig'inlarini fuqarolik jamiyatining asosiy institutiga aylantirishga doir chuqur islohotlar amalga oshirildi.

Mamlakatda "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyili asosida "Mamlakatda islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish" kontseptsiyasini amaliyotga qo'llash jarayoni natijasida fuqarolik jamiyatiga o'tish jarayoni huquqiy davlat qurish, shuningdek mamlakatni modernizatsiyalash, iqtisodiyotni diversifikatsiyalash kabi islohotlarni chuqurlashib borishi mazkur fanni o'rganish zaruratini taqozo eta boshladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bugungi kunda O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab bergan "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqiqa xizmat qilsin", "Xalq boy bo'lsa, davlat boy va qudratli bo'lur" kabi kontseptual g'oyalar asosida ishlab chiqilgan "Harakatlar strategiyasi"ning asosiy yo'nalishlarini amaliyotga qo'llash jarayoni natijasida fuqarolik jamiyatini shakllantirish bilan bevosita bog'liq bo'lgan davlat boshqaruvini takomillashtirish, sud-huquq tizimini isloh qilish, iqtisodiyotni liberallashtirish va diversifikatsiyalash, ijtimoiy sohani rivojlantirish, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik, xalqaro hamkorlik sohalaridagi islohotlarni amalga oshirishning amaliy mexanizmlarining ishlab chiqilganligi va hayotga joriy etilayotganligi fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning amaliy ifodasidir.

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish davri uchun eng muhim zaruriyat- Vatanimizning taqdiri va istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga doimo tayyor bo'lgan faol fuqarolik pozitsiyasiga

ega bo'lgan avlodni shakllantirishdir. Bu avlodning fuqarolik jamiyati qurishga doir nazariy bilimlarni puxta egallashi, o'z huquqiy va siyosiy madaniyatini muttasil ravishda yuksaltirib borishi, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishi – bugungi kun talabidir.

Fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi bo'yicha quyidagi xulosalar chiqarish mumkin:

- fuqarolik jamiyatining shakllanishi uzoq davom etib kelayotgan murakkab tarixiy jarayondir.

Fuqarolik jamiyatining ba'zi bir unsurlari qadimgi Yunoniston va Rimda namoyon bo'ldi, Yangi davrda esa, uning ba'zi shakllanish unsurlari kashf etildi, hozirgi davrda esa, uning bir butun tizim sifatidagi tasavvurlar shakllandi;

- fuqarolik jamiyati g'oyasi insoniyatning antik davrdan buyon davom etib kelayotgan tafakkurlash mahsulidir. Avestoda, Qadimgi yunon faylasuflari fikrlarida, O'rta asr Sharq mutafakkirlarining qarashlarida, Uyg'onish va Reformatsiya davri g'oyalari va bugun XXI asr jahon xamjamiyati tomonidan umuminsoniy ijtimoiy madaniy qadriyatlar sifatida e'tirof etildi.

Ma'lumki, har qanday fan, o'z mohiyatiga ko'ra umumbashariydir. Dunyoning barcha xalqlari o'zining katga-kichikligidan qat'iy nazar fuqarolik jamiyati nazariyasiga o'zlarining hissalarni qo'shdi. Shu nuqtai nazardan fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi to'g'risidagi g'oyalar qarashlarga bir yoqlama yondashish uni ularni kamsitish mumkin emas;

- fuqarolik jamiyatining xususiyatlari, belgilari, tamoyillari har qanday ijtimoiy tuzimda mavjuddir, biroq ularning rivojlanish darajasi turli xilda bo'lishi mumkin;

- fuqarolik jamiyatining shakllanish jarayonlari xolati ijtimoiy hayotning va davlat hokimiyati boshqaruvining demokratlashib borishi bilan birgalikda kechadi;

- fuqarolik jamiyatining shakllanishi huquqiy davlatchilikning shakllanish jarayoni bilan uygunlikda takomillashib boradi;

- har bir davlatda fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi o'ziga xos milliy mental xususiyatlarga bogliq holda, shaklan milliy modellarda namoyon bo'lishi mumkin;

- hozirgi davrdagi dunyodagi biron-bir mamlakat fuqarolik jamiyati eng so'nggi yetuklik bosqichiga erisha olgani yo'q va uni takomillashtirish uzluksiz davom etadigan jarayondir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2017.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuni, 2014-yil 28-dekabr.
3. O'zbekiston Respublikasining "Elektron hukumat to'g'risida"gi Qonuni, 2015-yil 9-dekabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // Xalq so'zi, 2017, 8-fevral.
5. O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni. / O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, № 1. 2017.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-fevraldagi "Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. / O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, № 6. 2017.
7. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 12-apreldagi "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonuni.

Nazariy-metodologik adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Asarlar to'plami, 1-23 jildlar. - T.: O'zbekiston, 1996-2016.
2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq / Sh.M. Mirziyoev. - T.: O'zbekiston, 2016. - 56 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017-yil 14-yanvar. – T.: O'zbekiston, 2017. - 104 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi // O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston

Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi 07-12-2016. - T.: O'zbekiston, 2017. - 48 b.

5. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: O'zbekiston, 2017. - 491 b.

Asosiy adabiyotlar:

1. Sharifxo'jaev M. O'zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyatining shakllanishi. – T.: Sharq, 2003.

2. Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati: genezisi, shakllanishi va rivojlanishi. – T.: O'zbekiston, 2010.

3. Jalilov va boshq. Fuqarolik jamiyati asoslari. – T.: Baktria press, 2015.

4. Fuqarolik jamiyati. Darslik loyihasi. - T.: 2016. Ziyonet.uz. Mualliflar jamoasi. http://library.ziyonet.uz/uz/book/32900

5. O'tamurodov A., Xojiyev T. va boshq. Fuqarolik jamiyati fanidan tushuncha va atamalar lug'ati. Lotin yozuvida. - T.: Turon-zamin-ziyo. - 2017. - 23 b.t.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Avesto: tarixiy-adabiy yodgorlik / N.Jo'raev; tarjimon A.Mahkam. - T.: G'afur G'ulom NMIU, 2015.

2. Amir Temur tuzuklari. - T.: G'afur G'ulom nashriyoti, 1996. - B. 24.

3. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. - T.: Fafur Fulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. -B. 12.

4. Yusuf Xos Xojib. Qutadg'u bilig. - T.: Fan, 1971. - B. 329.

5. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. - T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.

6. Kaykovus. Qobusnoma. - T.: Meros, 1992.

7. Nizomulmulk. Siyosatnoma yoki siyar ul-muluk. - T.: Adolat, 1997.

8. Platon Qonunlar. - T.: Yangi asr avlodi, 2002.

9. Аристотель. Сочинения в 4-х томах. Т.4.М.: "Мысль", 1983, С. 547-548.

10. Цицерон Марк Туллий. Диалоги: О государстве; О законах. – М.: Мысл, 1994.

11. Makiavelli N. Hukmdor. - T.: Mashhur Press, 2017.

12. Гегель. Философия права. – М.: Мысль, 1990.- 524 с.

13. Гоббс Томас Сочинения в 2 томах. М.: Мысль, 1989/1991.- 622/731 с.

14. Адам Фергюсон. Опыт истории гражданского общества.-М., 2000. -.107.

15. Фукуяма Ф. Конец истории и последний человек. Перевод с английского М.Б. Левина Публикуется по изданию ООО "Издательство АСТ", 2004 год.

16. Монтескье Ш. - Избранные произведения. - М.: Госполитиздат, 1955.- 803 с.

17. Самюэль Хантингтон Столкновение цивилизаций. / С. Хантингтон; Пер. с англ. Т. Велимеева. Ю. Новикова. — М: ООО «Издательство АСТ», 2003. — 603, [5] с.

18. Иммануил Валлерстайн. Конец знакомого мира. Социология XXI века. М.: Логос, 2003. С-368.

19. Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati: siyosiy partiyalar, siyosiy mafkuralar, siysiy madaniyatlar. – T.: Sharq. 1998.

20. Odilqoriev X. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. – T.: Sharq, 2002.

21. Jalilov Sh. Fuqarolik jamiyatining poydevori. – T.: O'zbekiston, 2003.

22. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirishning dolzarb muammolari: O'quv qo'llanma / T. Do'stjonov, M. Mirhamidov, S. Hasanov. – T.: Iqtisod – Moliya, 2006.

23. Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati: nazariya va xorijiy tajriba. – T.: Yangi asr avlodi, 2006.

24. Abduazimov O. Fuqarolik jamiyati va ommaviy axborot vositalari. – T.: Akademiya, 2008.

25. Tolibov I.I. Fuqarolik jamiyati: tushunchasi, institutlari, asosiy printsiplari va funktsiyalari / Red. A.X. Saidov. – T.: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy Markazi, 2008.

26. Malikova G.R. Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari – milliy demokratik institut. – T.: TDYUI nashriyoti, 2009.

27. Муминов Э.А. Модернизация гражданского общества в Республике Узбекистан и Королевстве Испания. – Ташкент: Издательскополиграфический творческий дом имени Гафура Гуляма, 2011. – 280 с.

28. Мавлонов Ж. Гражданское общество: от концепта к концепциям и парадигмам (социально-философскийанализ) : монография/ Ж.Мавлонов.–Ташкент: Истиқлол нури, 2014. – 224 с.

29. O'tamuradov A., Hasanov R. Fuqarolik jamiyati: nazariya va amaliyot. Uslubiy qo'llanma. – T.: 2016. - 14 b.t.

30. O'tamuradov A. Fuqarolik jamiyatining huquqiy asoslari. Uslubiy

qo'llanma. – Toshkent. MRDI 2018. - 94 b.

31. Murtazaeva R., Utamuradov A. va boshq. Jamiyat rivojida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlar faoliyatini takomillashtirish. Uslubiy qo'llanma. - T.: Turon, 2018. - 7,5 b.t.

32. Utamuradov A. Fuqarolik jamiyati g'oyalar evolyutsiyasi. Monografiya. - T.: Adabiyot uchqunlari. 2018. 12 b.t.

Chet el adabiyotlari:

1. Walzer M. Concept of Civil Society – Walzer M., ed. Toward a Global Civil Society.Providence RI: Berghahn Books. - 1995.

2. Schmitter Ph. Civil society East and West// Consolidation the Third Wave Democracies: Themes and Perspectives/ Ed. by L.Diamond et al. Baltimore and London: The Johns Hopkins U.P., - 1997. – P.239-262.

3. O'Connell, Brian. Civil Society: The Underpinnings of American Democracy. Medford, Mass:Tufts University Press, 1999.

4. Toponymics: A Study of Singapore's Street Names. — Singapore: Eastern Universities Press, 2004.

5. Desker B. and M. N. M. Osman. S Rajaratnam on Singapore: from ideas to reality. - Singapore: World Scientific Publishing, 2006.

6. Helmut K. Anheier, Stefan Toepler, International Encyclopedia of Civil Society, Springer-Verlag New York Inc., New York 2010.

Elektron ta'lim resurslari:

1. www.press-service.uz
2. www.ziyonet.uz
3. www.nimfogo.uz
4. www.gov.uz
5. www.yoshlarittifoqi.uz

АННОТАЦИЯ

В учебном пособии раскрыты современные вопросы теории в сфере гражданского общества, опыт строительства гражданского общества как в развитых странах мира, так и в Узбекистане, а также рассмотрены проблемы процесса реформ и их решения. А также рассмотрены методологические и методические подходы к изучению гражданского общества исходя из анализа сущности и содержания процессов обновления в различных странах мира. Выявлены закономерности развития гражданского общества, а также проведён сравнительный анализ процессов развития гражданского общества в Узбекистане и мировой практики.

В тематике учебного пособия освещены реформы в сфере гражданского общества в процессе нового этапа развития Узбекистана. В них рассмотрены такие вопросы, как обеспечение прав человека, повышение благосостояния граждан, децентрализация управленческих полномочий органов государственной власти, а также построения гражданского общество в Узбекистане посредством выражения интересов граждан с помощью деятельности ННО, общественных организаций и органов местного самоуправления.

Учебное пособие предназначено, для профессорско-преподавательского состава и студентов высщих учебних заведений.

ANNATATION

The study manual covers modern issues of theory in the sphere of civil society, the experience of civil society building both in developed countries of the world and in Uzbekistan, as well as the problems of the reform process and their solutions. Also, methodological and methodical approaches of researching civil society, meaning and essence of experience of foreign countries based on renewing society have been shown in manual. The patterns of civil society development and on this issue world as well experience of Uzbekistan have been analyzed comparatively.

Meaning and essence of reforms on building civil society in a new stage of development of Uzbekistan has been illuminated in the subject of study manual.

These include the protection and promotion of human rights in society, a increase the welfare lifestyle of citizens, the decentralization of powers on the administration of public authorities, the expression and implementation of the interests of civil society, non-governmental non-profit organizations, issues of establishing civil society in Uzbekistan by expressing and implementing the interests of citizens through the activities of NGOs, public organizations and local governments in Uzbekistan have been analyzed.

The textbook is intended for the teaching staff and students of higher educational institutions.

MUNDARIJA

KIRISH 3

1-mavzu. FUQAROLIK JAMIYATI FANINING PREDMETI, OBYEKTI, MAQSAD VA VAZIFALARI 6

2-mavzu. FUQAROLIK JAMIYATI G'OYALARI EVOLYUTSIYASI 29

3-mavzu. JAHON TAJRIBASIDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI FAOLIYATI 59

4-mavzu. FUQARO, FUQAROVIYLIK VA FAOL FUQAROLIK POZITSIYASI 83

5-mavzu. QONUN USTUVORLIGI – FUQAROLIK JAMIYATINING MUHIM OMILI 99

6-mavzu. SAYLOV HUQUQI ERKINLIGI – FUQAROLIK JAMIYATINING SHARTI. 129

7-mavzu. O'ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATINI BARPO ETISHNING ILMIY-METODOLOGIK, NAZARIY ASOSLARI. 161

8-mavzu. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH – FUQAROLIK JAMIYATINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR SHARTI 188

9-mavzu. O'ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUT-LARINING SHAKLLANIShI VA RIVOJLANIShI 211

10-mavzu. AXBOROT SOHASINI ISLOH QILISH, AXBOROT VA SO'Z ERKINLIGINI TA'MINLASH. 242

11-mavzu. FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISh ORGANLARI. 270

12-mavzu. JAMOATCHILIK NAZORATI VA DAVLAT ORGANLARI FAOLIYATINING OChIQLIGI. 297

13-mavzu. IJTIMOIY SHERIKLIK. 332

14-mavzu. FAOL FUQAROLIK POZITSIYaSIGA EGA BO'LGAN YOSH AVLODNI TARBIYALASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI 360

ОГЛАВЛЕНИЕ

ВВЕДЕНИЕ. 3
1-тема. ЦЕЛЬ И ЗАДАЧИ, ПРЕДМЕТ И ОБЪЕКТ ДИСЦИПЛИНЫ "ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА". 6
2-тема. ЭВОЛЮЦИЯ ИДЕЙ О ГРАЖДАНСКОМ ОБЩЕСТВЕ. 29
3-тема. МИРОВОЙ ОПЫТ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ИНСТИТУТОВ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА. 59
4-тема. ГРАЖДАНСТВО, ГРАЖДАНСТВЕННОСТЬ И АКТИВНАЯ ГРАЖДАНСКАЯ ПОЗИЦИЯ 83
5-тема. ВЕРХОВЕНСТВО ЗАКОНА – ВАЖНЕЙЩИЙ ФАКТОР ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА 99
6-тема. СВОБОДА ИЗБИРАТЕЛЬНОГО ПРАВА – ВАЖНЕЙШЕЕ УСЛОВИЯ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА 129
7-тема. НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ 161
8-тема. БОРБА С КОРРУПЦИЕЙ – ПРИОРИТЕТНОЕ УСЛОВИЕ РАЗВИТИЯ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА 188
9-тема. ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ 211
10-тема. РЕФОРМЫ ИНФОРМАЦИОННОЙ СФЕРЫ, ОБЕСПЕЧЕ-НИЕ СВОБОДЫ СЛОВА И ИНФОРМАЦИИ. 242
11-тема. ОРГАНЫ МЕСТНОГО САМОУПРАВЛЕНИЯ ГРАЖДАН. 270
12-тема. ОТКРЫТОСТЬ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ОРГАНОВ ГОСУДАРСТ-ВЕННОЙ ВЛАСТИ И ОБЩЕСТВЕННЫЙ КОНТРОЛЬ. 297
13-тема. СОЦИАЛЬНОЕ ПАРТНЁРСТВО. 332
14-тема. ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ВОСПИТАНИЯ МОЛОДЁЖИ С АКТИВНОЙ ГРАЖДАНСКОЙ ПОЗИЦИЕЙ. 360

CONTENTS

INTRADUCTION 3
1-THEME: PURPOSE AND OBJECTIVES, SUBJECT AND OBJECT OF DISCIPLINE OF CIVIL SOCIETY. 6
2-THEME: EVOLUTION OF IDEAS ABOUT CIVIL SOCIETY. 29
3-THEME: WORLD EXPERIENCE OF ACTIVITIES OF INSTITUTIONS OF CIVIL SOCIETY. 59
4-THEME: CITIZENSHIP, CITIZENSHIP AND ACTIVE CIVILIAN POSITION 83
5-THEME: THE RULE OF LAW IS THE IMPORTANT FACTOR OF CIVIL SOCIETY 99
6-THEME: FREEDOM OF THE ELECTORAL LAW - THE MOST IMPORTANT TERMS OF CIVIL SOCIETY 129
7-THEME: SCIENTIFIC-THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASIS OF FORMATION OF CIVIL SOCIETY IN UZBEKISTAN 161
8-THEME: FIGHTING WITH CORRUPTION - PRIORITY CONDITIONS OF DEVELOPMENT OF CIVIL SOCIETY 188
9-THEME: FORMATION AND DEVELOPMENT OF CIVIL SOCIETY IN UZBEKISTAN 211
10-THEME: REFORMS OF INFORMATION SPHERE, WELFARE OF WORD OF SPEECH AND INFORMATION. 242
11-THEME: BODIES OF LOCAL GOVERNMENT OF CITIZENS. 270
12-SUBJECT: OPENING THE ACTIVITIES OF GOVERNMENT AUTHORITIES AND PUBLIC CONTROL. 297
13-THEME: SOCIAL PARTNERSHIP. 332
14-THEME: THE BASIC DIRECTIONS OF YOUTH EDUCATION WITH ACTIVE CIVIC POSITION. 360

Ilmiy-uslubiy nashr

Akbar O'tamuradov, Muqimjon Qirg'izboyev
Tunis Xojiyev

FUQAROLIK JAMIYATI

O'quv qo'llanma

Nashriyot muharriri: Mahkam Mahmudov
Musahhiha: Nigora Abdullayeva
Texnik muharrir: Behzod Boltaboyev

«MUMTOZ SO'Z»
mas'uliyati cheklangan jamiyati
nashriyoti

Manzil: Toshkent, Navoiy ko'chasi, 69.
Тел.: 241-60-33

Nashriyot litsenziyasi AI № 103. 15.07.2008
Bosishga ruxsat etildi 27.12.2018
Qog'oz bichimi 60x84 1/32. Ofset qog'ozi
Times New Roman garniturasi. Hisob-nashriyot tobog'i 28,75
Shartli bosma tobog'i 24.75. Adadi 500.
Buyurtma № 42. Bahosi kelishilgan narxda

O'zbekiston Milliy universiteti bosmaxonasida bosildi.
Toshkent, Talabalar shaharchasi, O'zMU.